QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
QDTU

INNOVATSION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026
№10

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar: Google Scholar Crossref OpenAIRE CYBERLENIKA

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

10-jild
10-son
Oktyabr, 2026

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and practical journal

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

globalsciencehub.uz

Muassis:
Qarshi davlat texnika universiteti
Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:
+998 (75) 221 09 23
+998 (93) 902 72 63
Faks: +998 (75) 221 1395
innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:
Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)
Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)
Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)
Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)
Kusainov Xalel Xaymullievich – i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)
Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)
Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)
Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do'stligi universiteti)
Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)
Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)
Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)
Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)
Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do'stligi universiteti)
Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)
Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)
Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a’zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik
Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor
Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor
Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor
Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor
Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor
Shoxujayeva Zebo Safoyevna i.f.d., professor
Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent
Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor
Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent
Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent
Ubaydullayev G‘ayrat Zuvaytovich -i.f.n., dotsent
Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent
Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent
Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Xo‘janova Gulshoda Otamurodovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)
Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)
Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent
Safarov Farhod Anvarovich - i.f.d., dotsent

ИННОВАТSIОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

globalsciencehub.uz

Учредитель:
Каршинский государственный технический университет
Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук, профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в электронной форме и публикуется через официальный сайт журнала.

Адрес редакции:
180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23
+998 (93) 902 72 63
Факс: +998 (75) 221 1395
E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал «Инновационная экономика» включён в перечень национальных научных изданий на основании решения Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 апреля 2025 года № 369.

В журнале публикуются статьи по следующим рубрикам:

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчиников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)
Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор (Белорусский национальный технический университет)
Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор, (Кубанский государственный университет)
Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский государственный университет)
Кусаинов Халел Хаймуллиевич - д.э.н., профессор, академик (НААН Республика Казахстан)
Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)
Гибадуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент (Национальный исследовательский университет «Московский энергетический институт»)
Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник (Российского университета дружбы народов имени П.Лумумби)
Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент (Финансовый университет при Правительстве РФ)
Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент (Финансовый университет Правительство РФ)
Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н., профессор (Национальная академия наук Республики Таджикистан)
Перская Виктория Вадимовна – д.э.н., профессор (Финансовый университет при Правительстве РФ)
Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова)
Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор (Финансового университета Российской Федерации)
Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского университета дружбы народов имени П. Лумумби)
Незамайкин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГГУ)
Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)
Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)
Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем управления РАН)
Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидахрор Саидахмедович – д.э.н., профессор, академик
Пардаев Мамаюнус Каршибоевич – д.э.н., профессор
Навруз-заде Бахтиёр Негматович – д.э.н., профессор
Хатамов Очилди Курбонович – д.э.н., профессор
Файзиева Ширин Шодмоновна – к.э.н., профессор
Жумаева Гулрух Журакуловна – к.э.н., профессор
Шохужаева Зебо Сафоевна – д.э.н., профессор
Эгамбердиева Салима Раимовна – к.э.н., доцент
Эркаева Гулбахор Панжиевна – к.э.н., профессор
Якубова Шамшинур Шухратовна – д.э.н. (DSc), доцент
Амиркулов Шухрат Олимович – д.ф.э.н. (PhD), доцент
Самиева Гулноза Тохировна – д.ф.э.н. (PhD), доцент
Убайдуллаев Гайрат Зувайтович – к.э.н., доцент
Ходжакулова Нигора Рустамовна – д.ф.э.н. (PhD), доцент
Туробов Шерзод Алишерович – д.ф.э.н. (PhD), доцент
Алимова Муниса Юлчиевна – д.ф.э.н. (PhD), доцент
Эргашева Насиба Рахматуллаевна – д.э.н. (DSc), доцент
Бобокулов Санжар Бахромкулович – д.ф.э.н. (PhD), доцент
Джалилов Рахмонкул Хамидович – д.ф.э.н. (PhD), доцент
Номазов Бахром Бобомуродович – д.ф.э.н. (PhD), доцент
Алимханова Нигора Алимхановна – д.ф.э.н. (PhD), доцент
Жонузоков Мирзабек Кулмаматович – д.ф.э.н. (PhD), доцент
Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна – д.ф.э.н. (PhD), доцент
Ходжанова Гулшода Отамуродовна – д.ф.э.н. (PhD), доцент
Турсунова Азиза Хошимовна – д.ф.э.н. (PhD)
Холлиев Шерали Бахтиёрович – д.ф.э.н. (PhD)
Панжиев Самижон Аликулович – PhD, доцент
Сафаров Фарход Анварович – д.э.н., доцент

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.10.10.2026.1 *Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti*

СУВ ТАНҚИСЛИГИ ШАРОИТИДА ОЗИҚ-ОВҚАТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ИҚТИСОДИЙ МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Шохужаева Зебо Сафоевна

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРОДОВОЛЬСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В УСЛОВИЯХ ДЕФИЦИТА ВОДНЫХ РЕСУРСОВ

Шохужаева Зебо Сафоевна

IMPROVING THE ECONOMIC MECHANISMS FOR ENSURING FOOD SECURITY UNDER CONDITIONS OF WATER SCARCITY

Shokhujayeva Zebo Safoevna

Аннотация. Мақолада сув танқислигининг қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариши, озиқ-овқат маҳсулотлари таклифи, нархлар барқарорлиги ва аҳолининг озиқ-овқатга иқтисодий имкониятига таъсири таҳлил қилинган. Тадқиқотда иқтисодий таҳлил, функционал моделлаштириш, статистик тавсиф ва қиёсий таҳлил усулларидан фойдаланилган. Ўзбекистон шароитида сувдан фойдаланиш самарадорлигини ошириш, сув тежовчи технологияларни иқтисодий рағбатлантириш, натижага асосланган субсидиялаш, 1 м³ сувга тўғри келадиган маҳсулот ҳажми (WP) ва 1 м³ сувнинг иқтисодий қайтими (EW) кўрсаткичларидан фойдаланиш ҳамда сув–озиқ-овқат хавфини рақамли эрта огоҳлантириш тизимини жорий этиш бўйича таклифлар ишлаб чиқилган. Ҳудудий хавфни баҳолаш учун R_{eo} индекси таклиф қилиниб, ҳудудларни яшил, сариқ ва қизил зоналарга ажратиш ёндашуви асосланган. Ҳисоб-китоб намунасида сув тежовчи технология қўлланилганда сув унумдорлиги 0,67 кг/м³ дан 0,93 кг/м³ гача ошиши, яъни 38,8 фоизлик ўсишга эришилиши кўрсатилган. Натижалар сув ресурсларини иқтисодий баҳолашни озиқ-овқат хавфсизлиги сиёсати билан интеграция қилиш зарурлигини кўрсатади.

Калит сўзлар: *озиқ-овқат хавфсизлиги, сув танқислиги, сув ресурслари, қишлоқ хўжалиги, сув тежовчи технологиялар, сув унумдорлиги, иқтисодий механизм, субсидия, рақамлаштириш, озиқ-овқат нархлари, эрта огоҳлантириш.*

Аннотация. В статье анализируется влияние дефицита водных ресурсов на сельскохозяйственное производство, предложение продовольствия, ценовую стабильность и экономическую доступность продовольствия для населения. Использованы методы экономического анализа, функционального моделирования, статистического описания и сравнительного анализа. Обоснованы предложения по повышению эффективности водопользования, экономическому стимулированию водосберегающих технологий, внедрению субсидирования по результатам, использованию показателей продуктивности воды (WP) и экономической отдачи 1 м³ воды (EW), а также цифровой системы раннего предупреждения водно-продовольственных рисков. Предложен индекс территориального продовольственного риска R_{eo} и подход к распределению территорий по зеленой, желтой и красной зонам риска. Расчетный пример показывает, что применение водосберегающей технологии повышает продуктивность воды с 0,67 до 0,93 кг/м³, или на 38,8 %. Полученные результаты обосновывают необходимость интеграции экономической оценки водных ресурсов с механизмами обеспечения продовольственной безопасности.

Ключевые слова: продовольственная безопасность, дефицит воды, водные ресурсы, сельское хозяйство, водосберегающие технологии, продуктивность воды, экономический механизм, субсидирование, цифровизация, цены на продовольствие, раннее предупреждение.

Abstract. The article analyzes the impact of water scarcity on agricultural production, food supply, price stability, and the economic accessibility of food for the population. The study applies economic analysis, functional

modeling, descriptive statistics, and comparative analysis. The paper develops proposals for improving water-use efficiency, providing economic incentives for water-saving technologies, introducing results-based subsidies, applying water productivity (WP) and the economic return of 1 m³ of water (EW), and establishing a digital early-warning system for water–food risks. A regional food-risk index, R_{eo}, is proposed, with territories classified into green, yellow, and red risk zones. A calculation example shows that the use of a water-saving technology increases water productivity from 0.67 to 0.93 kg/m³, representing a 38.8% increase. The findings support the integration of economic water valuation with food-security policy mechanisms under conditions of increasing water scarcity.

Keywords: food security, water scarcity, water resources, agriculture, water-saving technologies, water productivity, economic mechanism, subsidies, digitalization, food prices, early warning.

КИРИШ

Озиқ-овқат хавфсизлиги мамлакат иқтисодий хавфсизлиги ва аҳоли фаровонлигининг муҳим таркибий қисми ҳисобланади. Озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш фақат етарли миқдорда озиқ-овқат маҳсулотларини ишлаб чиқариш билан чекланмай, уларнинг аҳоли учун жисмоний ва иқтисодий жиҳатдан очиқлиги, нархлар барқарорлиги, маҳсулот сифати ҳамда таъминотнинг узлуксизлигини таъминлашни ҳам назарда тутади.

Ўзбекистонда мазкур йўналишнинг ҳуқуқий асослари сўнгги йилларда янада мустаҳкамланди. Хусусан, 2024 йил 16 февралда Ўзбекистон Республикасида 2030 йилгача озиқ-овқат хавфсизлиги ва соғлом овқатланиш стратегияси тасдиқланиб, унда табиий, молиявий ва моддий ресурслардан самарали фойдаланиш, стратегик озиқ-овқат захираларини шакллантириш ҳамда хавфларни аниқлаш ва мониторинг қилиш устувор вазифалар сифатида белгиланган [1]. 2025 йил 3 февралда «Озиқ-овқат хавфсизлиги тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси ЎРҚ-1023-сон Қонуни қабул қилиниб, унинг амал қилиши 2025 йил 6 августдан бошланган [2].

Озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашга таъсир қилувчи энг муҳим омиллардан бири сув ресурсларининг чекланганлиги ҳисобланади. Ўзбекистоннинг иқлими, қишлоқ хўжалигининг суғориладиган деҳқончиликка юқори даражада боғлиқлиги ва сув ресурсларининг катта қисми қишлоқ хўжалигида ишлатилиши сувдан самарали фойдаланиш масаласини стратегик аҳамиятга олиб чиқмоқда.

Жаҳон банки маълумотларига кўра, Ўзбекистонда сув истеъмолининг қарийб 90 фоизи қишлоқ хўжалиги ҳисобига тўғри келади. Иқлим ўзгариши натижасида мавжуд сув ресурслари 30–40 фоизга камайиши, суғоришга бўлган талаб эса 25 фоизга ошиши мумкин. Бу ҳолат озиқ-овқат хавфсизлиги учун жиддий хавф туғдиради [3].

Сув танқислиги ва озиқ-овқат хавфсизлиги ўртасидаги боғлиқликни қуйидаги занжир орқали ифодалаш мумкин: сув танқислиги→суғориш имкони-ятининг қисқариши→ҳосилдорликнинг пасайиши→озиқ-овқат таклифининг камайиши→нархларнинг ошиши→импортга эҳтиёжнинг ортиши→аҳолининг озиқ-овқатга иқтисодий имконияти пасайиши. Демак, сув танқислиги экологик муаммо бўлиш билан бирга, ишлаб чиқариш, даромад, нархлар ва озиқ-овқат таъминотига таъсир қилувчи иқтисодий хавф ҳамдир.

Тадқиқотнинг асосий мақсади — Ўзбекистонда сув танқислиги шароитида озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашнинг иқтисодий механизмларини таҳлил қилиш ва такомиллаштириш бўйича илмий асосланган таклифлар ишлаб чиқишдан иборатдир. Тадқиқот вазифалари қуйидагилардан иборат: 1) сув танқислигининг озиқ-овқат хавфсизлигига иқтисодий таъсир механизмини аниқлаш; 2) мавжуд иқтисодий муаммоларни таҳлил қилиш; 3) сув унумдорлигини баҳолаш усулларини ишлаб чиқиш; 4) рақамли мониторинг ва эрта огоҳлантириш тизимини таклиф этиш.

АДАБИЁТЛАР ШАРҲИ

Сув танқислиги ва озиқ-овқат хавфсизлиги ўртасидаги муносабатлар халқаро илмий адабиётларда кенг ўрганилган. FAO маълумотларига кўра, жаҳон миқёсида чучук сув олишнинг катта қисми қишлоқ хўжалиги эҳтиёжларига йўналтирилади, аҳоли ва озиқ-овқатга бўлган талабнинг ўсиши эса сув ресурсларига босимни кучайтиради [4].

Falkenmark ва Rockström сув–озиқ-овқат хавфсизлиги боғлиқлигини таҳлил қилиб, сув танқислиги шароитида ҳосилдорлик ва озиқ-овқат таъминоти ўртасидаги занжирли таъсирни асослаган [5]. Ушбу ёндашув сув ресурсларини бошқаришни озиқ-овқат хавфсизлиги стратегияси билан интеграция қилиш зарурлигини кўрсатади.

Ўзбекистон шароитида Мирзаев ва бошқалар Орол денгизи ҳавзасида сув ресурсларининг қисқариши ва унинг қишлоқ хўжалигига таъсирини тадқиқ қилган ҳамда иқлим ўзгариши шароитида Марказий Осиёда сув таъминоти хавфлари кучайишини қайд этган [6]. Дроговоз ва Хошимов сув тежовчи технологияларни жорий этишнинг иқтисодий самарасини баҳолаб, томчилатиб суғориш сув сарфини камайтириш ва ҳосилдорликни ошириш имконини беришини кўрсатган [7].

Хасанов ва Нишонов натижага асосланган субсидиялаш механизмини ўрганган [8]. Юсупов ва Раҳимов эса рақамли мониторинг тизимларини қишлоқ хўжалигида қўллаш орқали сув сарфини оптималлаштириш ва ҳосилдорликни ошириш имкониятларини асослаган [9]. Мазкур тадқиқотлар ушбу мақолада иқтисодий рағбатлантириш, сув унумдорлиги ва рақамли эрта огоҳлантириш механизмларини ягона тизимга бирлаштириш учун методик асос бўлиб хизмат қилади.

ТАДҚИҚОТ МЕТОДОЛОГИЯСИ

Тадқиқотда иқтисодий таҳлил, функционал моделлаштириш, статистик тавсиф ва қиёсий таҳлил

усулларидан фойдаланилган. Асосий маълумот манбалари сифатида Жаҳон банки маълумотлари, Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси материаллари, FAO бюллетенлари ва миллий дастурлардан фойдаланилган [3; 4; 10; 11]. Тадқиқотда сув таъминоти, қишлоқ хўжалиги ҳосилдорлиги, озиқ-овқат нархлари, импортга боғлиқлик ва аҳоли даромадлари ўртасидаги функционал боғлиқликлар таҳлил қилинган.

Озиқ-овқат хавфсизлиги даражасини аниқлаш учун қуйидаги кўп омилли функционал модель қабул қилинган:

$$FS = f(W, Y, P, I, D)$$

бу ерда,
FS – озиқ-овқат хавфсизлиги даражаси;
W – сув таъминоти;
Y – қишлоқ хўжалиги ҳосилдорлиги;
P – озиқ-овқат маҳсулотлари нархи;
I – импортга боғлиқлик;
D – аҳоли даромадлари.

Сув таъминоти қисқарганда, бошқа омиллар ўзгармас деб қаралганда, ҳосилдорлик пасаяди:

$$W\downarrow \Rightarrow Y\downarrow$$

Ҳосилдорлик пасайиши бозор таклифини камайтиради ва нархни оширади:

$$Y\downarrow \Rightarrow S\downarrow \Rightarrow P\uparrow$$

Натижада аҳолининг реал харид қобилияти пасаяди:

$$P\uparrow \Rightarrow D/P\downarrow$$

Сув унумдорлигини баҳолаш учун WP кўрсаткичи қўлланилди — бу бирлик сув сарфига тўғри келадиган маҳсулот ҳажмини ифодалайди:

$$WP = Q / W \quad (кг/м^3)$$

бу ерда,
WP – сув унумдорлиги, кг/м³;
Q – ишлаб чиқарилган маҳсулот, кг;
W – сарфланган сув, м³.

Сувнинг иқтисодий самарасини баҳолаш учун муаллиф томонидан **EW** кўрсаткичи таклиф этилди — бу бирлик сув сарфига тўғри келадиган иқтисодий қиймат бўлиб, қуйидагича аниқланади:

$$EW = V / W \quad (сўм/м^3)$$

бу ерда,
EW – 1 м³ сувнинг иқтисодий қайтими, сўм/м³;
V – ишлаб чиқарилган маҳсулотнинг иқтисодий қиймати, сўм;
W – сарфланган сув, м³.

Ҳудудий озиқ-овқат хавфини баҳолаш учун шартли хавф индекси — R_{eo} — таклиф этилди:

$$R_{eo} = w_1 \cdot W_r + w_2 \cdot Y_r + w_3 \cdot P_r + w_4 \cdot I_r + w_5 \cdot S_r$$

бу ерда,
R_{eo} – озиқ-овқат хавфи индекси;
W_r – сув хавфи;
Y_r – ҳосилдорлик хавфи;
P_r – нарх хавфи;
I_r – импорт хавфи;
S_r – озиқ-овқат захиралари хавфи;
w_1–w_5 – ҳар бир кўрсаткичнинг вазни ($w_1+w_2+w_3+w_4+w_5 = 1$).

Мазкур индекс асосида ҳудудлар уч зонага таснифланади: яшил зона (паст хавф), сариқ зона (ўртача хавф) ва қизил зона (юқори хавф). Ушбу чегаралар тадқиқотда шартли мезонлар сифатида қабул қилинган бўлиб, уларни расмий статистик маълумотлар асосида эмпирик жиҳатдан аниқлаштириш мумкин.

ТАҲЛИЛ ВА НАТИЖАЛАР

Ўзбекистонда сув танқислигининг озиқ-овқат хавфсизлигига таъсирини тадқиқ қилиш натижасида уч асосий муаммо гуруҳи аниқланди: ресурс чекловлари, инфратузилма муаммолари ва технологик тўсиқлар.

Биринчи муаммо-сув ресурсларининг чекланганлиги. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги сув ресурсларига юқори даражада боғлиқ. Жаҳон банки маълумотларида қишлоқ хўжалиги мамлакат сув истеъмолининг тахминан 90 фоизини ташкил қилиши қайд этилган[3]. Бу вазиятда сув ресурсларини кўпайтиришдан кўра мавжуд сувдан фойдаланиш самарадорлигини ошириш иқтисодий жиҳатдан муҳим аҳамият касб этади.

Иккинчи муаммо-ирригация инфратузилмасининг эскириши. 2025–2028 йилларга мўлжалланган дастурда 2551 км ирригация тармоқларини реконструкция қилиш, каналларни бетонлаштириш даражасини 39 фоиздан 47 фоизга ошириш ҳамда 2028 йилгача 14 млрд м³ гача сув тежаш мақсади белгиланган[11]. Бу чоралар сув йўқотишларини камайтириш билан бирга, озиқ-овқат ишлаб чиқариш барқарорлигини ошириш учун инфратузилмавий асос яратади.

Учинчи муаммо-сув тежовчи технологияларни жорий қилишда инвестиция тўсиқлари. Томчилатиб суғориш, ёмғирлатиб суғориш, лазерли текислаш ва рақамли мониторинг тизимлари дастлабки инвестицияларни талаб қилади. Кичик ва ўрта фермер хўжаликлари учун технологиянинг юқори бошланғич қиймати, кредит фоизлари ва мутахассислар етишмаслиги жиддий тўсиқ бўлиши мумкин.

1-жадвал

Сув танқислиги шароитида асосий иқтисодий муаммолар[1]

№	Асосий муаммо	Иқтисодий оқибат	Озиқ-овқат хавфсизлигига таъсир
1	Сув ресурслари танқислиги	Ишлаб чиқариш харажатлари ортади	Маҳсулот таклифи камаяди
2	Ирригация тармоқларида йўқотишлар	Сувнинг иқтисодий самараси пасаяди	Ҳосилдорлик пасаяди
3	Сув тежовчи технология-ларнинг қимматлиги	Инвестиция фаоллиги пасаяди	Технологик мослашув секинлашади
4	Сув тақсимотида ахборот етишмаслиги	Ресурслар самарасиз тақсимланади	Ҳудудий таъминот фарқи кучаяди
5	Сув танқислиги прогнози-нинг етарли эмаслиги	Хавфларни олдиндан бошқариш қийинлашади	Озиқ-овқат тақчиллиги хавфи ортади
6	Экин таркибининг сув ре-сурсларига мослашмаслиги	1 м³ сувдан олинадиган даромад пасаяди	Ресурс самарадорлиги пасаяди
7	Фермерларнинг молиявий имкониятлари чекланган-лиги	Инновацияларга инвестиция камаяди	Барқарор ишлаб чиқариш секинлашади

Жадвалда келтирилган муаммолардан шуни хулоса қилиш мумкинки, сув танқислиги қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариш харажатларининг ортиши, ресурслар самарадорлигининг пасайиши ва инвестиция фаоллигининг сусайишига олиб келмоқда. Бу эса ҳосилдорлик ва маҳсулот таклифининг камайиши, ҳудудий таъминотдаги фарқлар ҳамда озиқ-овқат тақчиллиги хавфининг кучайишига сабаб бўлмоқда.

Сув унумдорлиги кўрсаткичини ҳисоблаш натижалари қуйидагиларни кўрсатди: одатдаги суғоришда бир фермер 1 гектардан 4000 кг маҳсулот олиб, 6000 м³ сув ишлатса:

$$WP = 4000 / 6000 = 0{,}67 \text{ кг/м}^3$$

Сув тежовчи технология қўлланилиши натижасида сув сарфи 4500 м³ гача камайиб, ҳосил 4200 кг га етса, сув унумдорлиги сезиларли ошиши кузатилади:

$$WP = 4200 / 4500 = 0{,}93 \text{ кг/м}^3$$

Ушбу ҳисоб-китоб сув тежовчи технология қўлланилганда бир хил майдонда сув унумдорлигининг 0,67 кг/м³ дан 0,93 кг/м³ гача, яъни 38,8 фоизга ошишини кўрсатади. Мазкур натижа иллюстратив ҳисоб-китоб бўлиб, реал хўжалик маълумотлари билан эмпирик текширишни талаб қилади.

Сувнинг иқтисодий қайтими (EW) кўрсаткичи эса турли экинларни солиштириш имконини беради. Сув танқис ҳудудда экин танлашда фақат “қайси экиннинг ҳосилдорлиги юқори?” деб эмас, балки “қайси экин 1 м³ сувга кўпроқ иқтисодий қиймат яратади? ” деган саволга жавоб бериш зарур.

R_{eo}- озиқ-овқат хавф индекси учун шартли чегаралар қўлланилганда ҳудудларни уч зонага таснифлаш таклиф этилди, яъни хавф паст бўлган ҳудуд — яшил зона ($R_{eo} < 0{,}3$); ўртача хавфга эга ҳудуд — сариқ зона ($0{,}3 \le R_{eo} < 0{,}6$); юқори хавфли ҳудуд — қизил зона ($R_{eo} \ge 0{,}6$). Ушбу таснифлаш ҳудудий сув–озиқ-овқат хавфсизлиги сиёсатини мақсадли шакллантириш учун асос бўлиб хизмат қилиши мумкин.

Сув танқислигининг озиқ-овқат бозорига иқтисодий таъсир механизми қуйидаги 1-расмда кўрсатилган занжир орқали ифодалаш мақсадга мувофиқдир.



1-расм. Сув танқислигининг озиқ-овқат бозорига иқтисодий таъсир механизми[2]

[1] Манба: муаллиф тадқиқоти асосида тузилган.
[2] Манба: Тадқиқотлар асосида муаллиф ишланмаси.

Ушбу 1-расмда ижтимоий аҳамиятга эга бўлган маҳсулотлар — буғдой ва ун маҳсулотлари, гўшт, сут, тухум, картошка ва сабзавотлар бўйича узлуксиз мониторинг зарурлигини кўрсатади. Шунинг учун сув ресурсларидан самарали фойдаланиш, сув тежовчи технологияларни рағбатлантириш ва ресурсларни рақамли бошқариш озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашнинг муҳим шарти ҳисобланади. Озиқ-овқат хавфсизлиги мониторингига сув таъминоти индикаторларини киритиш мақсадга мувофиқ.

Тадқиқот натижалари сув танқислиги шароитида озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш механизмларини фақат сув хўжалиги ёки агротехнологик чоралар билан чекламасдан, иқтисодий рағбатлантириш ва бозор мониторинги билан интеграциялаш зарурлигини кўрсатади. Бу ёндашув сув–озиқ-овқат боғлиқлигини иқтисодий қарорлар даражасига олиб чиқади.

Биринчидан, натижага асосланган субсидиялаш тизими таклиф этилди. Анъанавий субсидиялашда фермерга технологияни ўрнатгани учун тўлов амалга оширилади. Таклиф этилаётган ёндашувда иқтисодий рағбат эришилган натижага — сув унумдорлиги (WP) ва иқтисодий қайтим (EW) кўрсаткичларига боғланади. Бунда субсидия миқдори WP кўрсаткичининг базис даражасидан ортиши билан пропорционал равишда оширилиши мумкин [8].

Иккинчидан, сув тежовчи технологияларни молиялаштиришнинг дифференциал механизми таклиф этилди. Кичик ва ўрта фермерларга томчилатиб суғориш ва ёмғирлатиб суғориш тизимларини жорий этишда молиявий кўмак берилиши зарур. Тадқиқотда ишлаб чиқилган ёндашувга кўра, субсидия интенсивлигини майдон ҳажми ва фермернинг молиявий имкониятига қараб дифференциация қилиш мумкин: 1–5 гектар учун 70%, 5–20 гектар учун 50%, 20 гектардан ортиқ майдон учун 30%. Ушбу нисбатлар биз томонимиздан таклиф этилаётган механизм сифатида қаралади ва бюджет имкониятлари ҳамда инвестиция самарадорлиги асосида пилот тарзда синовдан ўтказилиши лозим.

Учинчидан, фермерларни баҳолаш, субсидиялаш ва инвестиция қарорларини қабул қилишда WP ва EW кўрсаткичларидан фойдаланиш таклиф этилди. Бу кўрсаткичлар орқали турли ҳудудлар, экинлар ва технологияларнинг сув–иқтисодий самарасини таққослаш имкони бўлади. Сув танқис ҳудудда экин таркибини сув ресурсларига мослаштиришда EW кўрсаткичи алоҳида аҳамият касб этади.

Тўртинчидан, “Сув–озиқ-овқат хавфи эрта огоҳлантириш тизими”ни жорий этиш таклиф этилди. Тизим 7 та асосий блокдан иборат бўлиб, улар: 1) сув захиралари мониторинги; 2) иқлим ва об-ҳаво маълумотлари; 3) экин майдонлари ва экин таркиби; 4) сув сарфи; 5) ҳосилдорлик прогнози; 6) озиқ-овқат маҳсулотлари нархлари; 7) импорт ва захиралар. R_{eo} озиқ-овқат хавф индекси ушбу маълумотлар асосида ҳисобланади ва ҳудудлар яшил, сариқ ва қизил зоналарга таснифланади.

Яшил зонада оддий мониторинг, сариқ зонада профилактик чоралар, қизил зонада эса захирадан озиқ-овқат чиқариш, нарх мониторингини кучайтириш ва импортни тезлаштириш каби иқтисодий чоралар ишга туширилиши мумкин. Шу тариқа сув танқислигига жавоб бериш реактив эмас, балки олдиндан огоҳлантиришга асосланган бошқарув механизмига айланади.

Таклиф этилаётган механизмларнинг кутилаётган натижалари қуйидагилардан иборат бўлиб, улар: сувдан фойдаланиш самарадорлиги ошишига; қишлоқ хўжалигида сув йўқотишлари камайишига; сув тежовчи технологияларга инвестициялар кўпайишига; фермерларнинг сув тежашга иқтисодий манфаатдорлиги ортишига; 1 м³ сувга тўғри келадиган маҳсулот ҳажми кўпайишига; ишлаб чиқариш барқарорлиги ошишига; сув танқислиги сабабли озиқ-овқат тақчиллиги хавфининг камайишига ва озиқ-овқат нархларининг кескин тебранишларини олдиндан аниқлаш имкониятининг кенгайишига олиб келади.

ХУЛОСА ВА ТАКЛИФЛАР

Сув танқислиги Ўзбекистон учун нафақат экологик ва ижтимоий, балки муҳим иқтисодий хавф ҳисобланади. Қишлоқ хўжалигининг сув ресурсларига юқори даражада боғлиқлиги сув таъминотидаги ҳар қандай ўзгаришни ҳосилдорлик, ишлаб чиқариш, нархлар, фермер даромадлари ва аҳолининг озиқ-овқатга иқтисодий имконияти орқали озиқ-овқат хавфсизлигига таъсир этувчи омилга айлантиради.

Ўзбекистонда сув ресурсларидан самарали фойдаланиш бўйича институционал ва инвестицион чоралар фаоллашмоқда. Хусусан, 2025–2028 йилларга мўлжалланган дастурда ирригация инфратузилмасини реконструкция қилиш, сув тежовчи технологияларни кенгайтириш, рақамли мониторинг ва автоматлаштириш бўйича вазифалар белгиланган [11]. Шу билан бирга, сув танқислиги шароитида озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашда техник чоралар билан бир қаторда иқтисодий рағбатлантириш, фермерларга молиявий кўмак бериш, экин таркибини сув ресурсларига мослаштириш, сув унумдорлигини асосий иқтисодий кўрсаткичлардан бири сифатида қабул қилиш ва сув–озиқ-овқат хавфларини рақамли мониторинг қилиш зарур.

Тадқиқот натижалари асосида қуйидаги концептуал ёндашув таклиф этилди: *“Кам сув – кўпроқ маҳсулот – юқори иқтисодий қайтим – барқарор озиқ-овқат хавфсизлиги”*. Бунда асосий эътибор сув ҳажмини кўпайтиришга эмас, балки чекланган сув ресурсининг ҳар бир куб метридан максимал иқтисодий ва озиқ-овқат самарасини олишга қаратилиши лозим.

Шунингдек, сув ресурслари мониторинги, қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариши, озиқ-овқат захиралари ва бозор нархларини ягона рақамли тизимга интеграция қилиш орқали сув танқислигининг озиқ-овқат хавфсизлигига

таъсирини олдиндан аниқлаш ва профилактик иқтисодий чораларни амалга ошириш имконияти яратилади. Таклиф этилаётган иқтисодий механизмлар тизими Ўзбекистоннинг 2030 йилга қадар озиқ-овқат хавфсизлиги ва соғлом овқатланиш стратегияси мақсадларини амалга оширишга хизмат қилади, деган умиддамиз

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2030 йилгача озиқ-овқат хавфсизлиги ва соғлом овқатланиш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармони, 16.02.2024.

2. Ўзбекистон Республикасининг “Озиқ-овқат хавфсизлиги тўғрисида”ги ЎРҚ-1023-сон Қонуни, 03.02.2025.

3. World Bank. (2023). Uzbekistan: Water and Agriculture Sector Assessment. Washington, D.C.: World Bank Group.

4. FAO. (2020). The State of Food and Agriculture 2020: Overcoming water challenges in agriculture. Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations.

5. Falkenmark, M., Rockström, J. (2004). Balancing Water for Humans and Nature: The New Approach in Ecohydrology. London: Earthscan.

6. Мирзаев, Б., Холиқов, Р., Ким, А. (2022). Орол денгизи ҳавзасида сув ресурсларининг камайиши ва қишлоқ хўжалигига таъсири. Иқтисодиёт ва молия, 4(2), 45–58.

7. Дроговоз, П., Хошимов, Ж. (2021). Ўзбекистонда сув тежовчи технологияларни жорий этишнинг иқтисодий самараси. Аграр иқтисодиёт журнали, 3(1), 12–24.

8. Хасанов, Т., Нишонов, Б. (2023). Натижага асосланган субсидиялаш: Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги тажрибаси. Молия ва иқтисодиёт, 5(3), 67–79.

9. Юсупов, А., Раҳимов, С. (2024). Рақамли технологиялар ва аграр соҳа: сув ресурсларини оптимал бошқариш имкониятлари. Рақамли иқтисодиёт, 2(1), 33–46.

10. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси. (2024). Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги: статистик тўплам. Тошкент: Давлат статистика қўмитаси.

11. Ўзбекистон Республикаси Сув хўжалиги вазирлиги. (2025). Сув хўжалигини ривожлантиришнинг тўрт йиллик дастури. 13.08.2025.

12. Шохўжаева З.С. Қишлоқ хўжалигида сувтежамкор суғориш усулларини қўллашнинг самарадорлиги // Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. – 2023. – №2 (3). – Б. 38–45.

13. Z.S.Shoxo’jaeva, Z.Sayimbetova. Prospects of sustainable development of the agricultural sector in the modernization of the economy. Neuro Quantology | June 2022 | Volume 20 | Issue 19 | Page 46-55 | doi:10.14704/nq.2022.20.6.NQ99005.

14. Z.S.Shoxujaeva, I.Normamatov. Scientific and practical basis of assessing the impact of water-saving technologies on crop productivity and product quality. E3S Web of Conferences jurnal 463, Q4. 02036 (2023) https://doi.org/10.1051/e3sconf/202346302036 EESTE2023, Page 1-7.

15. Z.S.Shoxujaeva, N. Mamanazarova, H.Mirjamilova. Ways of efficient use of water in conditions of water resources shortage. E3S Web of Conferences jurnal 463, Q4. 02035 (2023) https://doi.org/10.1051/e3sconf/202346302035 EESTE2023, Page. 1-12.

16. Z.S.Shoxujaeva, A. S. Eshev, N. O'. Murodova, F. S. Temirova. Changes, problems and solutions in the water system in the connections of innovative economy. AIP Conference Proceedings 2612, 050031 (2023); https://doi.org/10.1063/5.0113640 Published Online: 15 March 2023. Page.: 050031-1-8.

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Шохужаева Зебо Сафоевна Тошкент давлат шарқшунослик университети «Иқтисодиёт ва менежмент» кафедраси профессори, DSc / Шохужаева Зебо Сафоевна профессор кафедры «Экономика и менеджмент» Ташкентского государственного университета востоковедения, DSc / Shokhujayeva Zebo Safoevna Professor, Department of Economics and Management, Tashkent State University of Oriental Studies, DSc

E-mail: shoxujaeva@mail.ru

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.10.10.2026.2 *Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti*

СУВ ТАНҚИСЛИГИ ШАРОИТИДА ФЕРМЕР ХЎЖАЛИКЛАРИДА СУВ ТЕЖОВЧИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ЖОРИЙ ЭТИШ: ИҚТИСОДИЙ ОМИЛЛАР, МОЛИЯВИЙ ТЎСИҚЛАР ВА РАҒБАТЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИ

Тураев Толиб

ВНЕДРЕНИЕ ВОДОСБЕРЕГАЮЩИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ФЕРМЕРСКИХ ХОЗЯЙСТВАХ В УСЛОВИЯХ ДЕФИЦИТА ВОДНЫХ РЕСУРСОВ: ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ФИНАНСОВЫЕ БАРЬЕРЫ И МЕХАНИЗМЫ СТИМУЛИРОВАНИЯ

Тураев Толиб

IMPLEMENTATION OF WATER-SAVING TECHNOLOGIES IN FARMS UNDER CONDITIONS OF WATER SCARCITY: ECONOMIC FACTORS, FINANCIAL BARRIERS AND INCENTIVE MECHANISMS

Turaev Tolib

Аннотация. Мақолада сув танқислиги шароитида пахта етиштирувчи фермер хўжаликларида сув тежовчи технологияларни қабул қилиш ва жорий этишнинг иқтисодий детерминантлари эмпирик маълумотлар асосида тадқиқ этилган. Тадқиқот 150 та фермер хўжалиги ўртасида ўтказилган сўровнома натижаларига таянади. Дескриптив статистика, частотавий тақсимот, фоиз улушлар, ўртача қиймат ва стандарт оғиш, қиёсий ҳамда иқтисодий-мантиқий таҳлил усулларидан фойдаланилган. Натижалар сув танқислигининг ҳосилдорликка таъсири жуда юқори баҳоланишига қарамасдан, анъанавий суғориш усули устунлигича қолаётганини кўрсатди. Респондентларнинг 95,97 фоизи молиявий ресурслар етишмаслигини технологияларни жорий этишдаги асосий тўсиқ сифатида қайд этган, 86,58 фоизи технологиялар самарадорлигига ишонч билдирган. Шу билан бирга, амалда сув тежовчи технологиядан фойдаланувчилар улуши 2,68 фоизни ташкил этган. Мазкур «ишонч–амалиёт тафовути» асосида натижага йўналтирилган субсидиялаш, имтиёзли молиялаштириш, рақамли мониторинг ва инвестиция лойиҳаларининг қопланиш муддатини баҳолашга асосланган иқтисодий рағбатлантириш механизмларини такомиллаштириш бўйича илмий-амалий таклифлар ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: сув танқислиги, фермер хўжалиги, сув тежовчи технологиялар, пахтачилик, иқтисодий детерминантлар, инвестиция, субсидия, сув самарадорлиги, рақамли мониторинг, иқтисодий рағбатлантириш.

Аннотация. В статье на основе эмпирических данных исследованы экономические детерминанты принятия и внедрения водосберегающих технологий в фермерских хозяйствах, выращивающих хлопок в условиях дефицита воды. Эмпирическую основу составили результаты опроса 150 фермерских хозяйств. Использованы методы описательной статистики, частотного распределения, анализа долей, средней величины и стандартного отклонения, сравнительного и экономико-логического анализа. Установлено, что при высокой оценке влияния дефицита воды на урожайность традиционные методы орошения сохраняют доминирующее положение. 95,97% респондентов указали недостаток финансовых ресурсов как основное препятствие для внедрения технологий, тогда как 86,58% считают водосберегающие технологии эффективными. При этом фактически используют такие технологии только 2,68% опрошенных. На основе выявленного «разрыва между отношением и практикой» предложены механизмы результативного

субсидирования, льготного финансирования, цифрового мониторинга и предварительной оценки срока окупаемости инвестиционных проектов.

Ключевые слова. дефицит воды, фермерское хозяйство, водосберегающие технологии, хлопководство, экономические детерминанты, инвестиции, субсидии, водоэффективность, цифровой мониторинг, экономическое стимулирование.

Abstract. This study empirically examines the economic determinants of the adoption and implementation of water-saving technologies among cotton-producing farms under water scarcity. The empirical base consists of a survey of 150 farms. Descriptive statistics, frequency distributions, share analysis, mean and standard deviation, comparative analysis, and economic-logical analysis were applied. The findings show that although farmers perceive water scarcity as a major constraint on crop productivity, traditional irrigation remains dominant. Lack of financial resources was identified as the main barrier by 95.97% of respondents, while 86.58% expressed confidence in the effectiveness of water-saving technologies. However, only 2.68% reported actual use of such technologies. Based on this gap between positive attitudes and actual adoption, the study proposes performance-based subsidies, preferential financing, digital water monitoring, and ex-ante assessment of investment payback periods as elements of an improved economic incentive framework.

Keywords. water scarcity, farms, water-saving technologies, cotton production, economic determinants, investment, subsidies, water efficiency, digital monitoring, economic incentives.

КИРИШ

Қишлоқ хўжалигида сув ресурсларининг чекланганлиги ишлаб чиқариш барқарорлиги, ҳосилдорлик ва фермер хўжаликларининг молиявий натижаларига бевосита таъсир кўрсатувчи иқтисодий омиллардан биридир. Сув танқислиги шароитида сув тежовчи технологияларни жорий этиш техник модернизация масаласидан ташқари, фермернинг инвестицион қарори, капиталга кириш имконияти, субсидия ва молиявий рағбатлар, сув учун тўлов механизми ҳамда кутилаётган иқтисодий натижа билан боғлиқ комплекс қарор сифатида намоён бўлади.

Ўзбекистонда қишлоқ хўжалиги сув ресурсларининг асосий истеъмолчиларидан бири бўлиб, иқлим ўзгариши, сув оқимларининг ўзгариши, буғланишнинг ортиши ва суғориш инфратузилмасининг эскириши сув ресурсларига босимни кучайтирмоқда. Жаҳон банки 2025 йилда Ўзбекистонда суғориш ва дренаж инфратузилмасини модернизация қилиш, сув йўқотишларини камайтириш ва суғориш хизматлари сифатини оширишга қаратилган 200 млн долларлик лойиҳани маъқуллаган.

Тадқиқотнинг долзарблиги шундаки, фермерлар сув танқислигини жиддий муаммо сифатида қабул қилган ҳолда, сув тежовчи технологияларни амалда жорий этиш даражаси пастлигича қолмоқда. Шунинг учун технологияларни қабул қилишни фақат хабардорлик ёки муносабатлар билан эмас, балки инвестицион имконият ва иқтисодий рағбатлар тизими билан биргаликда таҳлил қилиш зарур.

Тадқиқотнинг мақсади — сув танқислиги шароитида фермер хўжаликларида сув тежовчи технологияларни жорий этишга таъсир қилувчи асосий иқтисодий омилларни аниқлаш ва улар асосида натижага йўналтирилган рағбатлантириш механизмларини такомиллаштириш бўйича таклифлар ишлаб чиқиш.

Тадқиқот вазифалари: фермерларнинг сув таъминоти ва суғориш инфратузилмаси ҳолатини баҳолаш; сув танқислигининг ҳосилдорлик ва харажатларга таъсирини аниқлаш; сув тежовчи технологияларни қабул қилиш билан амалдаги фойдаланиш ўртасидаги фарқни очиб бериш; технологияларни жорий этишдаги молиявий тўсиқларни аниқлаш; иқтисодий рағбатлантириш механизмларининг устувор йўналишларини асослаш.

ТАДҚИҚОТ МЕТОДОЛОГИЯСИ

Тадқиқотнинг эмпирик базасини 150 та фермер хўжалиги иштирокида ўтказилган сўровнома натижалари ташкил этади. Сўровнома сув таъминоти, суғориш технологиялари, сув танқислигининг ишлаб чиқариш натижаларига таъсири, сув тежовчи технологияларга муносабат ва давлат қўллаб-қувватлашига эҳтиёжни қамраб олган.

Тадқиқотда 20 та асосий ўзгарувчи, жумладан ер майдони, пахтага ихтисослашув даражаси, иш тажрибаси, сув таъминоти, суғориш инфратузилмаси, суғориш усули, сув танқислигининг ҳосилдорлик ва харажатларга таъсири, ҳосил йўқотишлари, рентабеллик, сув тежовчи технологиялардан фойдаланиш ва давлат ёрдами каби кўрсаткичлар қамраб олинган.

Аналитик усуллар сифатида дескриптив статистика, частотавий тақсимот, фоиз улушлар таҳлили, ўртача қиймат ва стандарт оғиш, минимум ва максимум қийматларни аниқлаш, қиёсий ҳамда иқтисодий-мантиқий таҳлил қўлланилган. Ушбу ёндашув технологияларни қабул қилиш ҳолатини тавсифлаш ва аниқланган тўсиқларни иқтисодий мазмун нуқтаи назаридан талқин қилиш имконини берди.

Тадқиқотда технологияни қабул қилиш бўйича асосий аналитик мантиқ «муаммони англаш → технология самарадорлигига ишонч → инвестицион имконият → амалдаги жорий этиш» занжири орқали ифодаланади. Бу ёндашув сўровнома натижаларидаги ижобий муносабат ва паст амалий жорий этиш ўртасидаги тафовутни аниқлашга хизмат қилади.

ТАҲЛИЛ ВА НАТИЖАЛАР

Тадқиқотнинг эмпирик базасини тавсифлаш мақсадида сўровда қамраб олинган фермер хўжаликларининг ер майдони, пахтага ихтисослашуви, иш тажрибаси, суғориш

инфратузилмаси ва сув таъминоти ҳолати, сув танқислигининг ҳосилдорликка таъсири ҳамда пахта етиштириш рентабеллиги бўйича асосий статистик параметрлар таҳлил қилинди. Уларнинг ўртача, стандарт оғиш, минимал ва максимал қийматлари 1-жадвалда келтирилган.

1-жадвал.

Фермер хўжаликларининг умумий статистик тавсифи[3]

Кўрсаткич	Ўртача	Стандарт оғиш	Минимум	Максимум
Умумий ер майдони, га	35,63	16,35	10	80
Пахтага ихтисослашув, %	47,46	15,98	20	70
Иш тажрибаси	2,55	0,78	1	4
Суғориш инфратузилмаси	2,41	0,78	1	4
Сув таъминоти ҳолати	2,41	0,80	1	4
Сув танқислиги нинг ҳосилдор ликка таъсири	3,98	0,18	2	4
Пахта ҳосилдорлиги	2,60	0,53	1	4
Пахта етиштириш рентабеллиги	2,64	0,59	1	4

Сўровда иштирок этган хўжаликларнинг ўртача ер майдони 35,63 гектарни ташкил этган. Пахтага ихтисослашувнинг ўртача даражаси 47,46 фоиз бўлиб, фермерларнинг асосий қисми пахтачиликда бир неча йиллик амалий тажрибага эга. Сув танқислигининг ҳосилдорликка таъсири кўрсаткичининг ўртача қиймати 3,98 бўлиши мазкур омилнинг фермерлар томонидан жуда юқори аҳамиятли деб баҳоланганини кўрсатади.

Суғориш инфратузилмаси ҳолатини фермерларнинг 49,66 фоизи “ўртача”, 32,21 фоизи “қониқарли”, 14,77 фоизи “етарли эмас”, 3,36 фоизи эса “жуда яхши” деб баҳолаган. Сув таъминоти бўйича 14,09 фоиз респондент “жуда танқис”, 36,24 фоиз “кўп ҳолларда етишмайди”, 43,62 фоиз “баъзан етишмайди”, 6,04 фоиз эса етарли деб жавоб берган. Демак, сўров иштирокчиларининг 94 фоиздан ортиғи сув таъминотида маълум даражада муаммо мавжудлигини билдирган.

Респондентларнинг 98,66 фоизи сув танқислиги ҳосилдорликка “жуда катта таъсир” қилишини билдирган. Харажатлар нуқтаи назаридан 72,48 фоиз фермер сув танқислиги харажатларни бироз оширганини, 14,77 фоиз эса жуда оширганини қайд этган. Ҳосил йўқотишлари бўйича 28,19 фоиз хўжаликда 10 фоизгача, 44,30 фоизда 10–20 фоиз, 27,52 фоизда 20–30 фоиз оралиғида йўқотиш кузатилган. Шу тариқа, респондентларнинг 71,82 фоизида сув танқислиги билан боғлиқ ҳосил йўқотиши 10 фоиздан юқори бўлган.

2-жадвал.

Суғориш технологияларининг амалдаги таркиби[4]

Суғориш усули	Фермерлар сони	Улуши, %
Ариқ орқали анъанавий суғориш	144	96,64
Томчилатиб суғориш	4	2,68
Ёмғирлатиб суғориш	0	0,00
Аралаш усул	1	0,67
Жами	**149**	**99,99**

Сўров натижалари анъанавий суғориш усулининг мутлақ устунлигини кўрсатади. 144 та кузатувда анъанавий ариқ орқали суғориш асосий усул бўлган, томчилатиб суғоришдан фойдаланувчилар 4 нафарни ташкил этган. Бу ҳолат сув танқислигини юқори даражада ҳис қилиш билан технологияларни амалда қабул қилиш ўртасида сезиларли тафовут борлигини кўрсатади.

3-жадвал.

Технологияларни жорий этишнинг иқтисодий тўсиқлари[5]

Асосий тўсиқ	Фермерлар сони	Улуши, %
Молиявий ресурс етишмаслиги	143	95,97
Техника етишмаслиги	0	0,00
Билим ва тажриба етишмаслиги	6	4,03
Зарур эмас деб ҳисоблайди	0	0,00

[3] Манба: Муаллиф томонидан ўтказилган сўровнома натижалари.
[4] Манба: Муаллиф томонидан ўтказилган сўровнома натижалари.
[5] Манба: Муаллиф томонидан ўтказилган сўровнома натижалари.

Респондентларнинг 95,97 фоизи молиявий ресурслар етишмаслигини асосий тўсиқ сифатида кўрсатган. Фақат 4,03 фоиз билим ва тажриба етишмаслигини қайд этган. Натижа технологияни қабул қилишга муносабат ва уни молиялаштириш имкониятини алоҳида иқтисодий категория сифатида кўриб чиқиш зарурлигини кўрсатади.

4-жадвал.

Ишонч–амалиёт тафовути

Кўрсаткич	Улуши, %
Сув тежовчи технология самарадорлигига ишонади	86,58
Сув тўлови сув тежашга рағбат беради, деб ҳисоблайди	85,91
Амалда сув тежовчи технологиядан фойдаланади	2,68
Сув сарфини мониторинг қилиш тизимига эга	1,34

Сув тежовчи технологияларнинг самарадорлигига ишонч 86,58 фоизни ташкил этган бир пайтда амалда технологиядан фойдаланиш улуши 2,68 фоизда қолган. Сув сарфини мониторинг қилиш тизимига эга хўжаликлар улуши 1,34 фоизни ташкил этган. Ушбу натижа технологияни жорий этишда асосий чеклов ахборот етишмаслиги эмас, балки инвестицион имконият ва иқтисодий рағбатлар билан боғлиқ бўлиши мумкинлигини кўрсатади.

Олинган натижалар фермер хўжаликларида сув танқислигининг иқтисодий таъсири ва сув тежовчи технологияларни қабул қилиш ўртасидаги номутаносибликни кўрсатади. Бир томондан, фермерларнинг деярли барчаси сув танқислигининг ҳосилдорликка кучли таъсирини қайд этган; иккинчи томондан, технологияларнинг амалдаги жорий этиш даражаси жуда паст. Бу ҳолатни технологияни қабул қилишдаги «инвестицион чеклов» нуқтаи назаридан талқин қилиш мумкин.

Мазкур натижа технология самарадорлигига ишончнинг ўзи инвестиция қарорини автоматик равишда шакллантирмаслигини кўрсатади. Фермер технологиянинг иқтисодий фойдасини тан олса ҳам, дастлабки инвестиция харажатларини молиялаштириш имконияти чекланган бўлиши мумкин. Шу сабабли давлат сиёсатида фақат технологияни ўрнатиш фактини рағбатлантиришдан кўра, сув тежалиши, ҳосилдорлик ва иқтисодий натижа билан боғлиқ кўрсаткичларга асосланган ёндашув муҳим аҳамият касб этади.

Шу билан бирга, сув тежовчи технологиянинг фермер хўжалиги даражасидаги самарадорлиги билан бутун сув тизимидаги “реал сув тежалиши” бир хил тушунча эмас. FAO материалларида сув ҳисобини юритиш ва қайтарма оқимларни ҳисобга олиш зарурлиги таъкидланган. Шунинг учун келгусида технология самарадорлигини баҳолаш фермер даражасидаги иқтисодий натижа, сув ҳавзаси даражасидаги реал сув тежалиши ва рақамли мониторинг кўрсаткичларини бирлаштириши мақсадга мувофиқ.

Тадқиқот натижаларидан келиб чиқиб, сув тежовчи технологияларни жорий этишни қўллаб-қувватлашнинг қуйидаги ўзаро боғлиқ механизмларини шакллантириш таклиф этилди:

1. Натижага йўналтирилган субсидиялаш: субсидия миқдорини фақат ускуна ўрнатилишига эмас, балки тасдиқланган сув тежалиши ва ишлаб чиқариш натижаларига қисман боғлаш.
2. Имтиёзли инвестицион молиялаштириш: технологияларнинг дастлабки капитал харажатларини пасайтириш учун имтиёзли кредит ва лизинг механизмларини қўллаш.
3. Қопланиш муддатини олдиндан баҳолаш: ҳар бир фермер хўжалиги учун инвестиция қиймати, эксплуатация харажатлари, сув тежалиши ва қўшимча даромадни ҳисобга олган ҳолда технологиянинг тахминий қопланиш муддатини аниқлаш.
4. Рақамли сув мониторинги: сув сарфини ўлчаш ва маълумотларни рақамли шаклда юритиш орқали субсидия ва рағбатларни натижа кўрсаткичлари билан боғлаш.
5. Иқтисодий-ахборот қўллаб-қувватлаши: фермерларга технологияларнинг инвестицион самарадорлиги, сув тежаш ҳажми ва кутилаётган молиявий натижаларини ҳисоблаш бўйича амалий сервисларни жорий этиш.

ХУЛОСА ВА ТАКЛИФЛАР

Тадқиқот натижалари сув танқислиги шароитида сув тежовчи технологияларни жорий этишдаги асосий чеклов фермерларнинг технология самарадорлигига ишончсизлиги эмас, балки молиявий ресурслар, инвестиция харажатлари ва иқтисодий рағбатлар билан боғлиқ эканини кўрсатди. 86,58 фоиз респондент технологиялар самарадорлигига ишонч билдирган бўлса, амалда фойдаланиш даражаси 2,68 фоизни ташкил этган. Бу «ишонч–амалиёт тафовути»ни технологияларни жорий этиш сиёсатида алоҳида ҳисобга олиш зарур.

Сўров натижаларига кўра, 95,97 фоиз фермер молиявий ресурслар етишмаслигини асосий тўсиқ деб ҳисоблаган. Шунинг учун сув тежовчи технологияларни қўллаб-қувватлаш механизми “технологияни ўрнатиш”дан “сув тежаш + ҳосилдорликни сақлаш/ошириш + иқтисодий натижа” тамойилига босқичма-босқич ўтиши мақсадга мувофиқ.

Келгусида ушбу эмпирик база асосида технологияларни қабул қилиш эҳтимолини иқтисетрик моделлаштириш, хусусан фермернинг молиявий имконияти, сув таъминоти, ер майдони, пахтага ихтисослашуви, сув танқислиги таъсири ва давлат қўллаб-қувватлаши каби омилларнинг статистик аҳамиятини баҳолаш мақсадга мувофиқ. Бу мазкур мақолада аниқланган дескриптив боғлиқликларни сабабий-статистик нуқтаи назардан янада чуқурлаштириш имконини беради.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. FAO. The State of Food and Agriculture 2020: Overcoming Water Challenges in Agriculture. Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations, 2020.

2. FAO. Guidance on realizing real water savings with crop water productivity interventions. Rome: FAO, 2021.

3. FAO. Guidelines for the Calculation of the Agriculture Water Use Efficiency for Global Reporting. Rome: FAO, 2022.

4. FAO. Real Water Savings in Agriculture. FAO & FutureWater, 2023.

5. FAO. Does Improved Irrigation Technology Save Water? A Review of the Evidence. Rome: FAO, 2017.

6. Salman M., Pek E., Lamaddalena N. Field guide to improve water use efficiency in small-scale agriculture. FAO, 2019.

7. World Bank. Uzbekistan to Modernize Its Irrigation Infrastructure with World Bank Support. 2025.

8. Scoping of promising land management and water use practices in the dry areas of Uzbekistan. Agricultural Water Management, Vol. 207, 2018, pp. 15–25.

9. Increasing water productivity in crop production—A synthesis. Agricultural Water Management, Vol. 95, Issue 11, 2008, pp. 1201–1213.

10. Water conservation and saving technologies for irrigation: A structured literature review of econometric studies on the determinants of adoption. Agricultural Water Management, Vol. 299, 2024, 108838.

11. Water productivity, water use, and agricultural growth: Global experience and lessons for future. Current Directions in Water Scarcity Research, Vol. 3, 2021.

12. SZ Safoevna, MN Juraevna. Analysis of economic efficiency of the use of irrigated land in agriculture and factors on them. Journal of Contemporary Issues in Business and Government. 2021, pp. 4055–4061.

13. Z Shokhujaeva, N Mamanazarova, H Mirjamilova. Ways of efficient use of water in conditions of water resources shortage. E3S Web of Conferences, 2023.

14. ZS Shoxujaeva, AB Kurbonov. Sustainable Development Of The Agrarian Sector Depends On The Efficient Use Of Water Resources. International Journal of Engineering and Advanced Technology (IJEAT).

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Тураев Толиб Озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги соҳасида стратегик ривожланиш ва тадқиқотлар халқаро маркази, 2-курс таянч докторанти / Тураев Толиб

докторант 2-го курса Международного центра стратегического развития и исследований в сфере продовольствия и сельского хозяйства / Turaev Tolib

Second-year PhD student at the International Center for Strategic Development and Research in Food and Agriculture

E-mail: turaevtolib3@gmail.com

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.10.10.2026.3 *Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti*

МЕВА МАҲСУЛОТЛАРИНИ ЕТИШТИРИШ, САҚЛАШ ВА СОТИШ ТИЗИМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИҚТИСОДИЙ МЕХАНИЗМЛАРИ

Худойқулов Анваржон Хуршидович

ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ ВЫРАЩИВАНИЯ, ХРАНЕНИЯ И РЕАЛИЗАЦИИ ПЛОДОВОЙ ПРОДУКЦИИ

Худойкулов Анваржон Хуршидович

ECONOMIC MECHANISMS FOR THE DEVELOPMENT OF THE SYSTEM OF FRUIT PRODUCTION, STORAGE AND MARKETING

Khudoykulov Anvarjon Khurshidovich

Аннотация. Мақолада мева маҳсулотларини етиштириш, сақлаш ва сотиш жараёнларини ягона қиймат занжири асосида ташкил этишнинг иқтисодий жиҳатлари таҳлил қилинган. Тадқиқот Агросаноатни ривожлантириш агентлиги томонидан тақдим этилган 2025–2026 йилларга оид амалий лойиҳалар ва мевачиликни ривожлантириш режалари маълумотларига асосланган. Мева боғлари ва токзорларни интенсивлаштириш, янги экспортбоп навларни жорий этиш, томчилатиб суғориш, рақамли мониторинг, кўчатчилик инфратузилмасини ривожлантириш ҳамда тайёр маҳсулотни ички ва ташқи бозорларга чиқариш имкониятлари ўрганилган. Таҳлил натижалари мевачиликда иқтисодий самарадорликни ошириш фақат ҳосилдорликни кўпайтириш билан эмас, балки маҳсулотни сақлаш муддатини узайтириш, сифатини сақлаш, логистика ва сотув каналларини такомиллаштириш билан узвий боғлиқлигини кўрсатади. Мақолада мева маҳсулотлари қиймат занжирини интеграциялаш, совутиш ва сақлаш инфратузилмасини ривожлантириш, рақамли савдо платформаларидан фойдаланиш ва экспортбоп навлар улушини ошириш бўйича таклифлар ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: мевачилик, мева маҳсулотлари, интенсив боғлар, сақлаш, совутиш тизими, қиймат занжири, логистика, электрон аукцион, экспорт, рақамли технологиялар, томчилатиб суғориш.

Аннотация. В статье проанализированы экономические аспекты организации процессов производства, хранения и реализации плодовой продукции на основе единой цепочки создания стоимости. Исследование основано на данных практических проектов и планов развития плодоводства на 2025–2026 годы, представленных Агентством по развитию агропромышленного комплекса. Изучены вопросы интенсификации плодовых садов и виноградников, внедрения новых экспортно ориентированных сортов, капельного орошения, цифрового мониторинга, развития инфраструктуры питомников, а также возможности реализации готовой продукции на внутреннем и внешних рынках. Результаты анализа показывают, что повышение экономической эффективности плодоводства связано не только с увеличением урожайности, но и с продлением сроков хранения продукции, сохранением её качества, совершенствованием логистики и каналов сбыта. В статье разработаны предложения по интеграции цепочки создания стоимости плодовой продукции, развитию холодильной и складской инфраструктуры, использованию цифровых торговых платформ и увеличению доли экспортно ориентированных сортов.

Ключевые слова: плодоводство, плодовая продукция, интенсивные сады, хранение, система охлаждения, цепочка создания стоимости, логистика, электронный аукцион, экспорт, цифровые технологии, капельное орошение.

Abstract. The article analyzes the economic aspects of organizing the production, storage, and marketing of fruit products based on an integrated value chain. The study is based on data from practical projects and fruit-growing development plans for 2025–2026 presented by the Agency for the Development of the Agro-Industrial Sector. The study examines the intensification of orchards and vineyards, the introduction of new export-oriented varieties, drip irrigation, digital monitoring, the development of nursery infrastructure, and opportunities for marketing finished

products in domestic and international markets. The results of the analysis demonstrate that improving the economic efficiency of fruit production is associated not only with increasing yields but also with extending the storage period of products, maintaining product quality, improving logistics, and developing sales channels. The article develops proposals for integrating the value chain of fruit products, developing cold storage and storage infrastructure, using digital trading platforms, and increasing the share of export-oriented varieties.

Keywords: fruit growing, fruit products, intensive orchards, storage, cooling systems, value chain, logistics, electronic auction, export, digital technologies, drip irrigation.

КИРИШ

Мевачилик қишлоқ хўжалигининг юқори қўшилган қиймат яратиш имкониятига эга бўлган тармоқларидан бири ҳисобланади. Мева маҳсулотларини етиштириш ҳажмини ошириш билан бир қаторда уларни сифатли сақлаш, саралаш, қадоқлаш, ташиш ва бозорларга ўз вақтида етказиб бериш тизимини шакллантириш тармоқнинг иқтисодий самарадорлигини белгилаб беради.

Мевачиликнинг ўзига хос хусусияти шундаки, ҳосилни етиштиришга сарфланган харажатлар маҳсулот йиғиб олинганидан кейин ҳам давом этади. Агар маҳсулот йиғим-теримдан кейинги босқичларда сифатини йўқотса, фермернинг ишлаб чиқариш харажатлари қопланиши ва юқори даромад олиши қийинлашади. FAO маълумотларида ҳам мева-сабзавотларда йиғимдан кейинги йўқотишлар ҳосилни йиғишдан тортиб қадоқлаш, сақлаш, ташиш ва чакана савдогача бўлган занжирнинг турли босқичларида юзага келиши қайд этилган.

Шу сабабли замонавий мевачиликни “далада етиштириш” модели эмас, балки “ишлаб чиқариш–сақлаш–логистика–сотиш–экспорт” модели асосида ташкил этиш муҳим.

Ўзбекистонда ҳам мевачиликни интенсивлаштириш, экспортбоп навларни кўпайтириш ва мева маҳсулотларининг ташқи бозорлардаги рақобатбардошлигини ошириш бўйича қатор амалий ишлар олиб борилмоқда.

ТАДҚИҚОТ МЕТОДОЛОГИЯСИ

Тадқиқотнинг асосий мақсади — мева маҳсулотларини етиштириш, сақлаш ва сотиш жараёнларини ягона иқтисодий тизим сифатида баҳолаш ҳамда уни такомиллаштиришнинг устувор йўналишларини аниқлашдан иборат. Тадқиқотда қуйидаги усуллардан фойдаланилди: тизимли таҳлил, қиёсий таҳлил, статистик маълумотларни таҳлил қилиш, мевачилик лойиҳаларини иқтисодий баҳолаш, қиймат занжири ёндашуви ва экспорт ҳамда маркетинг каналларини таҳлил қилиш.

Тадқиқотнинг асосий эмпирик манбаси Агросаноатни ривожлантириш агентлигининг 2026 йилга оид материалларидан фойдаланилган. Бунда республика ва ҳудудлар кесимида мева боғлари ва токзорларни барпо этиш, интенсивлаштириш, янги навларни жорий қилиш, томчилатиб суғориш, кўчатчилик ва экспорт йўналишлари бўйича маълумотлар шакллантирилган.

ТАҲЛИЛ ВА НАТИЖАЛАР

Тадқиқот маълумотларига кўра, республикада жами боғ-токзорлар майдони 572,6 минг гектарни ташкил этади. Шундан 365,5 минг гектари боғлар, 207,1 минг гектари токзорлар ҳиссасига тўғри келади. Боғларнинг 273,2 минг гектари фермер хўжаликларига, 92,3 минг гектари аҳолига тегишлидир. Токзорларда ҳам фермер хўжаликлари ва аҳоли томонидан фойдаланилаётган майдонлар мавжуд бўлиб, қуйидаги 1-жадвалда акс эттирилган.

1-жадвал.

Мевачилик ва узумчиликнинг асосий кўрсаткичлари[6]

Кўрсаткичлар	Ўлч.бирл	Майдони
Жами боғ-токзорлар	**минг га**	**572,6 / 100 %**
Жами боғлар	минг га	365,5 /63,8
Шундан фермер хўжаликларида	минг га	273,2 /74,7
Аҳоли тасарруфида	минг га	92,3 /25,3
Жами токзорлар	минг га	207,1 /36,2
Фермер хўжаликларидаги токзорлар	минг га	136,6 /66,0
Аҳоли тасарруфидаги токзорлар	минг га	70,5 /34,0

Мазкур кўрсаткичлар мевачиликда ишлаб чиқариш базаси етарлича катта эканини кўрсатади. Бироқ катта майдоннинг мавжудлиги ўз-ўзидан юқори иқтисодий самарадорликни таъминламайди. Бу майдонларда интенсив технологиялар, замонавий навлар, сув тежовчи технологиялар ва бозор талабига мос маҳсулот етиштириш тизими шакллантирилиши зарур.

Мевачиликда маҳсулдорлик ва маҳсулот сифатига таъсир этувчи муҳим омиллардан бири — боғларнинг интенсивлик даражаси ва нав таркибидир.

[6] Манба: Агросаноатни ривожлантириш агентлиги маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

Тадқиқотлар кўрсатишича 2024–2025 йилларда интенсив мева боғлари ва токзорлар барпо этиш бўйича 2024 йилда режадаги 14,0 минг гектар ўрнига 14,2 минг гектар, 2025 йилда эса режадаги 29,2 минг гектар ўрнига 30,0 минг гектар майдонда ишлар амалга оширилган. Бу жараёнда экспортбоп ва юқори ҳосилли навларга алоҳида эътибор қаратилган.

Масалан, Фарғона вилоятида 2026–2028 йилларда 3,5 минг гектар самарасиз ва кам ҳосилли пахта-ғалла майдонлари ўрнида интенсив мева боғлари ва узумзорлар ташкил этилиши режалаштирилган. Ва бунда шафтоли, ўрик, гилос ва бошқа меваларни етиштириш кўзда тутилган. Бу тажриба мевачиликда ер ресурсларини кам самарали экинлардан юқори қўшилган қиймат яратувчи интенсив боғдорчиликка қайта йўналтириш имкониятини кўрсатади.

Мева боғларини интенсивлаштириш сув таъминоти ва суғориш технологияларини ҳам модернизация қилишни талаб этади.

2026 йилда республика ҳудудларида 30,5 минг гектар мева боғлари ва токзорлар барпо этиш режалаштирилган бўлиб, шундан 18,5 минг гектарида томчилатиб суғориш жорий этилиши кўзда тутилган. Шунингдек, баҳорги мавсумда 17,4 минг гектар, кузги мавсумда 13,1 минг гектар майдонда боғ ва токзорлар барпо этиш режалаштирилган. Бу кўрсаткич мевачиликда сув ресурсларидан самарали фойдаланиш, яъни суғоришда сув тежовчи технологияларни қўллаш билан иқтисодий самарадорликни бирлаштириш имконини беради. Бунда сув тежовчи технологиялар:

1. Сув сарфини оптималлаштиради;
2. Ўсимликнинг сувга бўлган эҳтиёжини аниқ бошқариш имконини беради;
3. Меҳнат харажатларини қисқартиришга хизмат қилади;
4. Ҳосилдорлик ва маҳсулот сифати барқарорлигини оширишга ёрдам беради;
5. Сув танқислиги шароитида боғларнинг иқтисодий барқарорлигини кучайтиради.

Шу билан бирга, сув тежовчи технологияларнинг иқтисодий самараси фақат сув тежалиши билан эмас, балки 1 гектардан олинадиган ялпи маҳсулот ва соф даромад билан баҳоланиши лозим.

Тадқиқотларимизда Термиз туманида 163,9 гектар майдондаги узум ва шафтоли етиштиришда инсон омили иштирокисиз автоматлаштирилган суғориш, озиқлантириш тизими ва 24 соатлик онлайн кузатувни таъминловчи камералар жорий этилгани аниқланди. Бу тажриба мевачиликда рақамлаштиришнинг қуйидаги йўналишларини ривожлантириш имконини беради:

сенсорлар → маълумот йиғиш → таҳлил → автоматик қарор → суғориш/озиқлантириш → ҳосилдорлик мониторинги.

Бундай ёндашув келгусида “рақамли боғ” моделини шакллантиришга асос бўлиб хизмат қилиши мумкин.

Мақоланинг муҳим жиҳатларидан бири — мева маҳсулотларини етиштириш жараёнини уларни сақлаш ва реализация қилиш босқичларидан ажралган ҳолда эмас, балки ягона технологик-иқтисодий занжир сифатида кўриб чиқишдир. Илмий изланишларимиз натижаларига кўра, экспортбоп мева навларини танлашда уларнинг нафақат ҳосилдорлиги ва бозорбоплиги, балки теримдан кейинги сақланувчанлик хусусиятлари ҳам муҳим иқтисодий мезон ҳисобланади. Хусусан, айрим шафтоли навларини теримдан кейин 20 кунгача, олма навларини 1 ойгача, ўрик навларини 20 кунгача, узум навларини эса 3 ойгача сақлаш имконияти мавжудлиги маҳсулотни бозор конъюнктурасига мос вақтда реализация қилиш, нарх ўзгаришларидан самарали фойдаланиш ва экспорт логистикасини оптималлаштириш учун қўшимча иқтисодий имконият яратади. Бу жуда муҳим иқтисодий омилдир. Чунки маҳсулотни бир вақтнинг ўзида бозорга чиқаришга мажбур бўлиш фермернинг савдодаги музокара позициясини пасайтиради. Сақлаш имконияти эса фермерга: ҳосил йиғими → саралаш → сақлаш → нарх қулай бўлган даврда сотиш занжирини шакллантириш имконини беради.

FAO маълумотларида ҳам совутиш, сақлаш, қадоқлаш ва транспорт инфратузилмаси мева-сабзавотларда йиғимдан кейинги йўқотишларни камайтиришда муҳим экани таъкидланган.

Шунинг учун Ўзбекистонда мевачиликни ривожлантиришда совуткичли омборлар, саралаш ва қадоқлаш марказларини боғлар жойлашган ҳудудларга яқинлаштириш муҳим иқтисодий вазифа ҳисобланади.

Мева маҳсулотларини сотишда ягона бозорга боғланиб қолиш фермерлар учун нарх хавфини оширади. Шунинг учун сотув каналларини қуйидаги тартибда диверсификация қилиш мумкин

:

2-жадвал.

Сотув каналининг асосий хусусияти

Сотув канали	Асосий хусусияти
Маҳаллий бозор	Тезкор сотув
Улгуржи харидорлар	Катта партияда сотиш
Қайта ишлаш корхоналари	Стандартга жавоб бермайдиган маҳсулотни монетизация қилиш
Супермаркетлар	Сифат ва қадоқлаш талаблари юқори
Электрон аукцион	Рақамли савдо механизми
Тўғридан-тўғри экспорт	Юқори қўшилган қиймат имконияти
Қайта ишланган маҳсулот экспорти	Маҳсулотнинг сақланиш муддатини узайтириш

Илмий изланишларимиз натижалари мева маҳсулотларини реализация қилиш тизимида анъанавий савдо каналлари билан бир қаторда рақамли савдо механизмларини ривожлантириш муҳим аҳамият касб этишини кўрсатади. Хусусан, Фарғона вилоятида янги интенсив боғларда етиштирилган маҳсулотларни “тайёр ҳолда” ҳамда “e-auksion” электрон савдо механизми орқали реализация қилиш амалиёти ишлаб чиқарувчи ва харидор ўртасидаги бозор алоқаларини соддалаштириш, савдо жараёнларининг шаффофлигини ошириш ва маҳсулот сотиш каналларини диверсификация қилиш имконини беради.

Ташқи бозорларга чиқиш нуқтаи назаридан мева маҳсулотларининг рақобатбардошлиги нафақат ишлаб чиқариш ҳажми, балки маҳсулотнинг сифат ва товар хусусиятлари, сақланувчанлиги, стандартларга мувофиқлиги ҳамда логистик жиҳатдан ўз вақтида етказиб берилиши билан ҳам белгиланади. Тадқиқот доирасида ўрганилган амалий лойиҳалар, жумладан, Оҳангарон туманида 309 гектар майдонда “Аватар” навли узумини етиштириш лойиҳаси доирасида ҳосилнинг 500 тоннаси Корея ва Араб давлатларига экспорт қилингани, шунингдек, Туркия ва Нидерландияга майиз шаклида экспорт қилиш бўйича келишувлар мавжудлиги мева-узум маҳсулотларининг ташқи бозорларга йўналтирилиш имкониятларини кўрсатади.

Миллий статистика қўмитаси маълумотларига кўра, 2025 йилда Ўзбекистондан 2,2 млн тонна мева-сабзавот маҳсулотлари 2,1 млрд АҚШ доллари қийматида экспорт қилинган бўлиб, шундан мева ва резаворлар ҳажми 628,5 минг тоннани ташкил этган. Мазкур кўрсаткичлар мевачиликнинг нафақат ички истеъмолни таъминловчи тармоқ, балки экспортга йўналтирилган ва ташқи бозорларда қўшилган қиймат яратиш имконияти юқори бўлган аграр-иқтисодий сектор сифатидаги аҳамиятини кўрсатади. Шу нуқтаи назардан, экспорт салоҳиятини оширишда маҳсулотнинг нави, ташқи кўриниши, калибри, шакар миқдори, сақлаш муддати, қадоқлаш сифати, фитосанитар талабларга мувофиқлиги ва етказиб бериш муддати каби кўрсаткичларни ягона сифат ва логистика тизими асосида бошқариш муҳим аҳамият касб этади.

Шу боис, мевачиликда экспортбоп маҳсулотларни шакллантириш жараёнини “экспортбоп навни танлаш → сифатли етиштириш → саралаш ва калибрлаш → совитиш ва сақлаш → стандартлаштирилган қадоқлаш → фитосанитар назорат → рақамли савдо → логистика → ташқи бозорга етказиб бериш” босқичларидан иборат ягона интеграциялашган қиймат занжири сифатида ташкил этиш мақсадга мувофиқ.

Мева маҳсулотларининг сифат кўрсаткичлари ва иқтисодий самарадорлигини таъминлаш жараёни бевосита етиштириш босқичидан эмас, балки генетик ва фитосанитар жиҳатдан сифатли кўчат материалини шакллантиришдан бошланади. Шу нуқтаи назардан, кўчатчилик тизимини модернизация қилиш мевачиликнинг барқарор ва экспортга йўналтирилган ривожланишини таъминловчи муҳим институционал-технологик омиллардан бири ҳисобланади.

Кўчатчилик соҳасини ривожлантириш мақсадида замонавий “ин-витро” лабораториялари ва она-майдонларни ташкил этиш мақсадга мувофиқлиги назарда тутилган. Хусусан, 2026 йил якунига қадар замонавий “ин-витро” лабораторияларини ташкил этиш, вируслардан ҳоли ва касалликларга чидамли кўчат материалларини етиштириш, уларни фермер хўжаликларига етказиб бериш ҳамда кўчатчилик жараёнларини мониторинг қилишнинг тизимли механизмини шакллантириш белгиланган. Мазкур ёндашув кўчатнинг биологик сифати билан бир қаторда, унинг кейинги ишлаб чиқариш босқичларидаги ҳосилдорлик, маҳсулот сифати ва иқтисодий самарадорликка таъсирини комплекс баҳолаш имконини беради.

Шундан келиб чиқиб, мевачиликда қиймат занжирини алоҳида технологик операциялар йиғиндиси сифатида эмас, балки ўзаро узвий боғланган ва якуний маҳсулотнинг сифати ҳамда бозор қийматини шакллантирувчи интеграциялашган тизим сифатида ташкил этиш мақсадга мувофиқ. Бундай ёндашувни қуйидаги занжир орқали ифодалаш мумкин:

“ин-витро лаборатория → сифатли ва вируслардан ҳоли кўчат → интенсив боғ → сув тежовчи суғориш технологиялари → сифатли ҳосил → саралаш ва калибрлаш → совитиш ва сақлаш → стандартлаштирилган қадоқлаш → ички бозор ва экспорт”.

Мазкур қиймат занжирида ҳар бир босқич кейинги босқичнинг самарадорлигига таъсир кўрсатади. Шунинг учун мевачиликда экспорт салоҳиятини оширишни фақат ҳосил ҳажмини кўпайтириш билан эмас, балки бошланғич кўчат материалидан тортиб якуний истеъмолчигача бўлган барча босқичларда сифат, ресурс тежамкорлик, сақланувчанлик, логистика ва бозор талабларини интеграциялашган ҳолда бошқариш билан боғлаш лозим.

Тадқиқот натижаларини умумлаштириб, мевачиликда қиймат яратишнинг қуйидаги модели таклиф этилди:



1-расм. Мевачиликда қиймат занжири модели[7]

Мевачилик тизимини баҳолашда фақат ҳосил миқдори эмас, балки қиймат занжирининг ҳар бир босқичида яратилган иқтисодий натижани ҳисобга олиш лозим. Мевачиликда гектар ҳисобидаги ялпи даромад:

$$\mathbf{Y_d = Q \times P}$$

бу ерда,

Yd — ялпи даромад;

Q — маҳсулот миқдори;

P — маҳсулотнинг сотиш нархи.

Соф даромад:

$$\mathbf{SD = Y_d - C}$$

бу ерда,

SD — соф даромад;

C — умумий ишлаб чиқариш, сақлаш, логистика ва сотиш харажатлари.

Маҳсулотни сақлаш натижасида нарх ошиши ва йўқотишлар камайиши эса қўшимча иқтисодий самарани шакллантиради:

$$\mathbf{ES = (Q_s \times P_s) - (Q_f \times P_f) - C_s}$$

бу ерда,

ES — сақлашдан олинадиган иқтисодий самара;

Qs — сақлашдан кейин сотилган маҳсулот миқдори;

Ps — сақлашдан кейинги сотиш нархи;

Qf — дарҳол сотилган маҳсулот миқдори;

Pf — ҳосил йиғилган пайтдаги нарх;

Cs — сақлаш харажатлари.

Шундай қилиб, сақлаш инфратузилмаси фақат маҳсулотни бузилишдан ҳимоя қилувчи объект эмас, балки **нархни бошқариш воситаси** сифатида ҳам қаралиши лозим.

Тадқиқотларимиз давомида турли ҳудудларда амалга оширилаётган лойиҳалар мевачиликни диверсификация қилиш имкониятларини кўрсатади.

[7] Манба: Тадқиқотлар асосида муаллиф томонидан таклиф этилган.

3-жадвал.

Айрим мевачилик лойиҳалари[8]

Ҳудуд	Маҳсулот	Майдон	Асосий натижа
Сўх	Қайроқ олма ва малина, Жавпоя ўрик	530 га	Янги боғлар
Термиз	Ўрик ва шафтоли	163,9 га	Автоматлаштирилган суғориш ва онлайн мониторинг
Оҳангарон	Узум	309 га	Экспорт йўналиши
Қува	Узум	60 га	Қуёш энергияси ва агроэнергия
Булунғур	Узум	550 га	Интенсив боғ
Бахмал	Олма	60 га	Интенсив боғ
Поп	Шафтоли ва олхўри	653 га	Экспортбоп навлар
Қўрғонтепа	Олма ва олхўри	150 га	Интенсив боғ
Пахтаобод	Голубика ва гилос	165 га	Янги маҳсулот йўналиши
Зомин	Писта	200 га	Янги интенсив писта боғи
Ургут	Узум	500 га	Терраса усулида узумзор

Жадвалдан кўриниб турибдики, ҳудудлар бўйича мевачиликни ихтисослаштириш имкониятлари кенг. Айрим ҳудудларда анъанавий олма, узум, ўрик, шафтоли билан бирга голубика, малина ва писта каби маҳсулотларни ҳам ривожлантириш назарда тутилган.

Мевачиликнинг ишлаб чиқариш ва экспорт салоҳияти юқори бўлишига қарамасдан, “етиштириш–сақлаш–сотиш” тизимида бир қатор иқтисодий муаммолар мавжуд бўлиб, улар қуйидагилардан иборат:

Биринчи муаммо — маҳсулотни мавсумий сотиш. Ҳосилнинг қисқа вақтда бозорга чиқарилиши нархнинг пасайишига олиб келиши мумкин.

Иккинчи муаммо — сақлаш инфратузилмаси. Совуткичли омборлар ва бошқа замонавий сақлаш объектларини ишлаб чиқариш ҳудудларига яқин жойлаштириш талаб этилади. FAO ҳам совуқ занжир ва сақлаш инфратузилмасини мева-сабзавот қиймат занжиридаги асосий омиллар қаторига киритади.

Учинчи муаммо — сотиш каналларининг чекланганлиги. Фермернинг фақат улгуржи харидорга боғланиб қолиши унинг бозордаги музокара имкониятини пасайтиради.

Тўртинчи муаммо — экспорт стандартлари. Халқаро бозорларда маҳсулот сифати, қадоқлаш, фитосанитар талаблар ва маркировкага қўйиладиган талаблар юқори. FAO ҳам халқаро савдода сифат, хавфсизлик, қадоқлаш ва меъёрларга мувофиқликни муҳим шарт сифатида кўрсатади.

Тадқиқот натижалари асосида мева маҳсулотларини етиштириш, сақлаш ва сотиш тизимини такомиллаштириш бўйича қуйидаги таклифлар ишлаб чиқилди.

1. “Бир ҳудуд — бир қиймат занжири” моделини жорий этиш.

Ҳар бир мевачиликка ихтисослашган ҳудудда: кўчатчилик → боғ → саралаш → совитиш → сақлаш → қадоқлаш → логистика → сотиш → экспорт занжирини бир тизимда ташкил этиш мақсадга мувофиқ.

2. Боғлар яқинида агрологистика марказларини ташкил этиш. Марказ таркибида: совуткичли омбор; саралаш линияси; калибрлаш; қадоқлаш; лаборатория; логистика; экспорт ҳужжатларини расмийлаштириш хизматлари бирлаштирилиши мумкин.

3. Сақлаш муддатига қараб маҳсулотни бозорга йўналтириш. Маҳсулотларни шартли равишда: тез бузиладиган; ўрта муддат сақланадиган; узоқ муддат сақланадиган гуруҳларга ажратиб, ҳар бир маҳсулот учун алоҳида сотиш стратегияси ишлаб чиқилиши лозим.

4. Шунингдек, e-auction механизмини мевачиликда кенгайтириш орқали фермер ва харидор ўртасидаги воситачилар сонини қисқартириш мумкин.

5. Экспортбоп навлар реестрини шакллантириш. Ҳар бир ҳудуд учун: нав; ҳосилдорлик; пишиш муддати; сақлаш муддати; экспорт бозори; ўртача нарх; логистика харажати каби маълумотларни ўз ичига олган рақамли реестр яратиш таклиф этилади.

6. «Рақамли мевачилик» тизимини жорий қилиш. Унда, GPS + IoT сенсорлар + сув мониторинги + метеомаълумотлар + ҳосил мониторинги + бозор нархлари + экспорт талаблари ягона ахборот тизимига интеграция қилиниши мумкин.

ХУЛОСА ВА ТАКЛИФЛАР

Тадқиқот натижалари мевачиликда иқтисодий самарадорликни оширишнинг асосий шарти фақат ишлаб чиқариш ҳажмини кўпайтириш эмас, балки бутун қиймат занжирини интеграциялаш эканини кўрсатади.

Тақдимот маълумотларига кўра, Ўзбекистонда мева боғлари ва токзорлар майдони катта бўлиб, интенсив боғларни ривожлантириш, янги экспортбоп навларни жорий этиш, томчилатиб суғориш ва рақамли технологиялардан фойдаланиш бўйича амалий лойиҳалар кенгаймоқда. 2026 йилда 30,5 минг гектар мева боғлари ва токзорлар барпо этиш, 681 минг тонна ҳосил олиш режалаштирилган.

Шу билан бирга, мевачиликда яратиладиган иқтисодий қийматни янада ошириш учун сақлаш, совутиш, саралаш, қадоқлаш, логистика ва сотиш

[8] Манба: тақдимот материаллари асосида муаллиф томонидан умумлаштирилди.

инфратузилмасини ишлаб чиқариш билан бир вақтда ривожлантириш зарур.

Тадқиқотда таклиф этилган интеграциялашган модель:

сифатли кўчат → интенсив боғ → сув тежовчи технология → юқори сифатли ҳосил → саралаш → совутиш ва сақлаш → қадоқлаш → рақамли сотув → экспорт мевачиликнинг замонавий иқтисодий модели сифатида қаралиши мумкин.

Айниқса, мева маҳсулотларини “етиштирилди — дарҳол сотилди” тамойилидан “етиштирилди — сақланди — бозор конъюнктурасига қараб сотилди” тамойилига ўтказиш фермерларнинг бозордаги иқтисодий имкониятларини кенгайтиради.

Ўзбекистоннинг 2025 йилда 2,2 млн тонна мева-сабзавотни 2,1 млрд АҚШ долларига экспорт қилгани мазкур тармоқнинг экспорт салоҳияти юқори эканини кўрсатади.

Шу нуқтаи назардан келгусида мевачилик сиёсатида “кўпроқ маҳсулот етиштириш”дан “кўпроқ қўшилган қиймат яратиш”га ўтиш муҳим йўналиш сифатида қаралиши мақсадга мувофиқ.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO). Prevention of Post-harvest Food Losses: Fruits, Vegetables and Root Crops. A Training Manual. FAO Training Series, No. 17/2. Rome: FAO, 1989. 157 p.
2. López Camelo, A. F. Manual for the Preparation and Sale of Fruits and Vegetables: From Field to Market. FAO Agricultural Services Bulletin, No. 151. Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations, 2004.
3. Barbosa-Cánovas, G. V., Fernández-Molina, J. J., Alzamora, S. M., Tapia, M. S., López-Malo, A., Welti Chanes, J. Handling and Preservation of Fruits and Vegetables by Combined Methods for Rural Areas. FAO Agricultural Services Bulletin, No. 149. Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations, 2003.
4. Piñeiro, M., Díaz Ríos, L. B. Improving the Quality and Safety of Fresh Fruits and Vegetables: A Practical Approach. Manual for Trainers. Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations, 2004.
5. World Bank. From Root to Fruit: Growing the Horticulture Sector in Uzbekistan. Washington, DC: World Bank, 2025.
6. National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. Uzbekistan exported fruits and vegetables worth $2.1 billion. 2 February 2026. Tashkent: National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan, 2026.
7. ЗС Шохўжаева. Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида аграр соҳани ривожлантириш истиқболлари. Монография. Тошкент, 2020.
8. ЗС Шохўжаева, НЖ Маманазарова. Эффективность инновационных процессов в сельскохозяйственном развитии. 2020, стр. 329-333.
9. EA Sabirovich, SZ Safoyevna. Mechanisms for the implementation of a cluster system in ensuring the competitiveness of agricultural products. Asian Journal of Research in Banking and Finance, 2022.
10. Агросаноатни ривожлантириш агентлиги материаллари. 2026.

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Худойқулов Анваржон Хуршидович Озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги соҳасида стратегик ривожланиш ва тадқиқотлар халқаро маркази мустақил тадқиқотчиси / Худойкулов Анваржон Хуршидович независимый исследователь Международного центра стратегического развития и исследований в сфере продовольствия и сельского хозяйства / Khudoykulov Anvarjon Khurshidovich Independent Researcher at the International Center for Strategic Development and Research in Food and Agriculture

E-mail: a40698387@gmail.com

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.10.10.2026.4 *Inson kapitali iqtisodiyoti*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КАДРОВЫЕ ПОТРЕБНОСТИ В СИСТЕМЕ ЭКОНОМИКИ ТРУДА НА ОСНОВЕ УПРАВЛЕНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИМ КАПИТАЛОМ

Убайдуллаев Гайрат Зувайтович

IMPROVING PERSONNEL NEEDS IN THE LABOR ECONOMICS SYSTEM BASED ON HUMAN CAPITAL MANAGEMENT

Ubaydullaev Gairat Zuvaitovich

INSON KAPITALINI BOSHQARISHGA ASOSLANGAN MEHNAT IQTISODIYOTI TIZIMIDA KADRLARGA BO'LGAN EHTIYOJNI YAXSHILASH

Ubaydullayev G‘ayrat Zuvaytovich

Аннотация: Цель исследования – изучение теоретических, научных и практических основ человеческого капитала как фактора развития рынка труда. Рассмотрена реализация эффективности управления человеческим капиталом в интересах инновационного развития региона, которая возникает в процессе оценки и прогнозирования кадровых потребностей в системе экономики труда. Изучены теоретические и практические основы проблемы человеческого капитала в современной экономике труда, связанные с максимальным использованием внутренних и внешних источников инвестиций в формах занятости и требованиях к компетенциям.

Ключевые слова: Человеческий капитал как экономическая категория и развитие рынка труда. Региональный человеческий капитал. Оценка и прогнозирование кадровых потребностей в системе экономики труда. Система образования, инвестиции в человеческий капитал.

Abstract: The study aims to examine the theoretical, scientific, and practical foundations of human capital as a factor in labor market development. It analyzes the effective management of human capital to foster the region's innovative development—a process that emerges during the assessment and forecasting of workforce needs within the labor economics system. The study explores theoretical and practical aspects of human capital in the modern labor economy, focusing on maximizing internal and external investment sources regarding employment forms and competency requirements.

Keywords: Human capital as an economic category and labor market development; regional human capital; assessment and forecasting of workforce needs in the labor economics system; education system; investment in human capital.

Annotatsiya: Tadqiqotning maqsadi inson kapitalini mehnat bozorini rivojlantirish omili sifatida nazariy, ilmiy va amaliy asoslarini o‘rganish. Kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlar mehnat iqtisodiyoti tizimida baholash va prognozlash jarayonida yuzaga keladigan mintaqaning innovatsion rivojlanishi manfaatlarida inson kapitalini boshqarish samaradorligini amalga oshirish. Zamonaviy mehnat iqtisodiyotida inson kapitali muammosi ish bilan bandlik shakllari va kompetensiyalarga qo‘yiladigan talablarning ichki va tashqi investitsiya manbalaridan maksimal darajada foydalanish bilan bog'liq bo‘lgan nazariy va amaliy asoslar o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: Inson kapitali iqtisodiy kategoriya va mehnat bozorini rivojlantirish. Xududiy inson kapitali. Kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni mehnat iqtisodiyoti tizimida baholash va prognozlash. Ta’lim tizimi, inson kapitaliga investitsiyalar.

ВВЕДЕНИЕ

В Указе Президента Республики Узбекистан от 28 сентября 2023 года № УП-158 «О Стратегии „Узбекистан — 2030“», а также в Указе от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», в частности в рамках направления, посвящённого реализации справедливой социальной политики и развитию человеческого капитала, определены цели по совершенствованию системы оказания услуг

населению и государственной политики в отношении молодёжи, которые в настоящее время последовательно реализуются.

В Послании Президента Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёева Олий Мажлису от 26 декабря 2025 года было отмечено, что благоприятная деловая среда, демографический рост и особое внимание к развитию человеческого капитала превращают Узбекистан в одну из наиболее привлекательных стран для инвесторов.

В современной системе экономики труда категория человеческого капитала выполняет не вспомогательную, а концептуально определяющую роль, поскольку именно она раскрывает качественное состояние рабочей силы, её производственные способности, адаптивность к технологическим и институциональным изменениям, способность к обучению, мобильность на рынке труда и возможности получения дохода в долгосрочной перспективе. С этой точки зрения человеческий капитал представляет собой не простую совокупность индивидуальных характеристик работника или показатель уровня его образования, а сложный экономический фактор, отражающий накопленные человеком знания, профессиональные навыки, состояние здоровья, социальные и поведенческие компетенции, интеллектуальную дисциплину, способность осваивать новые технологии и эффективно участвовать в общественном производстве.

АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ

В Указе Президента Республики Узбекистан от 28 сентября 2023 года № УП-158 «О Стратегии „Узбекистан — 2030“», Указе от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», а также в Послании Президента Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёева Олий Мажлису от 26 декабря 2025 года определены методологические, теоретические и практические основы повышения эффективности человеческого капитала в процессе реализации стратегий социально-экономического развития страны. В указанных документах также обозначены конкретные механизмы практической реализации намеченных задач, подкреплённые количественными показателями и научно обоснованными подходами.

В научных статьях, опубликованных в отечественных периодических изданиях и посвящённых таким вопросам, как развитие интеллектуального потенциала в качестве важнейшего фактора процветания страны и обеспечения её перспективного развития, учёными К.Х. Абдурахмановым, Б. Махкамовым, Н. Ризаевым, М. Юлдошевым представлены научно обоснованные определения и аналитические подходы к изучению процессов развития человеческого капитала.

В научной литературе вопросы роли человеческого капитала в инновационном развитии экономических систем, а также интеллектуального капитала в условиях глобализации мировой экономики получили фундаментальное обоснование в трудах Т. Шульца и Г. Беккера. Разработанные ими положения заложили научную основу теории человеческого капитала и в дальнейшем получили широкое развитие в российской и зарубежной научной литературе.

В работах Н.К. Зокировой и Г.К. Абдурахмановой рынок труда рассматривается как динамично развивающаяся система, в которой изменения технологий, форм занятости и требований к профессиональным навыкам объективно обусловливают необходимость перехода от статического учёта рабочей силы к более комплексному анализу профессионально-квалификационной структуры занятости и механизмов её адаптации.

В исследованиях Е.А. Окунковой подчёркивается, что сочетание возможностей и рисков развития человеческого капитала наиболее полно проявляется в одном из его ключевых элементов — образовании. В этой связи значение образования как структурного компонента человеческого капитала невозможно переоценить, поскольку именно оно формирует интеллектуальный потенциал личности, её профессиональные компетенции, способность к инновационной деятельности и адаптации к изменениям современного рынка труда.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

В статье исследованы теоретические, научные и практические основы формирования и развития человеческого капитала как фактора развития рынка труда. Особое внимание уделено вопросам оценки и прогнозирования потребности в кадрах в системе экономики труда, а также повышению эффективности управления человеческим капиталом в интересах инновационного развития региона.

В процессе исследования проанализированы механизмы развития человеческого капитала посредством совершенствования науки, образования, здравоохранения и культуры, изучены практические меры, направленные на повышение качества трудовых ресурсов, а также соответствующие нормативно-правовые документы. В работе использованы методы анализа и синтеза, системного и сравнительного анализа, обобщения научных подходов и изучения нормативно-правовой базы. По результатам исследования сформулированы соответствующие выводы и практические предложения.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

В отличие от узкого представления, сводящего человеческий капитал к формальному образованию и производственному опыту, современная научная мысль всё более последовательно исходит из того, что объектом анализа должны становиться не только годы обучения, но и реальная экономическая отдача от инвестиций в человека, выражающаяся в производительности труда, вероятности занятости, устойчивости трудовой позиции, уровне доходов, профессиональной мобильности и способности к обновлению компетенций в условиях ускоряющейся трансформации рынка труда. По оценке Всемирного

экономического форума, к 2030 году трансформация затронет 22,0% рабочих мест в мире, при этом ожидается создание около 170,0 млн новых рабочих мест и вытеснение 92,0 млн существующих, что свидетельствует не о линейном расширении занятости, а о глубокой перестройке профессионально-квалификационной структуры спроса на труд. Следовательно, кадровые потребности в современной экономике должны пониматься как подвижная и многослойная категория, отражающая не только уже проявившийся, но и формирующийся, латентный и прогнозируемый спрос на рабочую силу.

В системе экономики труда кадровые потребности следует рассматривать не как механическую сумму открытых вакансий и не как частный срез текущего спроса работодателей на рабочую силу, а как воспроизводимую во времени количественную и качественную потребность экономики в работниках определённого профессионально-квалификационного состава, формирующуюся под воздействием структуры производства, динамики рабочих мест, инвестиционной активности, демографических процессов, миграции, технологических изменений и институциональных условий функционирования рынка труда. Именно такая трактовка соответствует современному состоянию экономики труда, в которой решающее значение имеет уже не только численность вовлекаемой рабочей силы, но и её профессиональная структура, качество компетенций, способность к отраслевому и территориальному перераспределению, а также степень соответствия требованиям меняющейся экономики. По оценке Всемирного экономического форума, к 2030 году трансформация затронет 22,0% рабочих мест в мире, при этом ожидается создание около 170,0 млн новых рабочих мест и вытеснение 92,0 млн существующих, что свидетельствует не о линейном расширении занятости, а о глубокой перестройке профессионально-квалификационной структуры спроса на труд. Следовательно, кадровые потребности в современной экономике должны пониматься как подвижная и многослойная категория, отражающая не только уже проявившийся, но и формирующийся, латентный и прогнозируемый спрос на рабочую силу.

Такое понимание имеет принципиальное методологическое значение, поскольку позволяет разграничить кадровую потребность и кадровый спрос. Кадровый спрос в узком смысле отражает уже проявившуюся потребность работодателя в замещении конкретного рабочего места, то есть фиксирует преимущественно видимую часть потребности в труде. Кадровая потребность в более широком и научно содержательном смысле охватывает не только открытые вакансии, но и весь массив необходимых для функционирования и развития экономики работников, включая приростную потребность, связанную с созданием новых рабочих мест, замещающую потребность, возникающую вследствие выбытия кадров, структурную потребность, обусловленную несоответствием между составом предложения труда и требованиями рабочих мест, а также скрытую потребность, не выраженную в официальной кадровой статистике. Организация экономического сотрудничества и развития подчёркивает, что несоответствие между навыками работников и потребностями работодателей приводит к снижению производительности, ослаблению конкурентоспособности фирм и росту дефицита кадров в ключевых сегментах экономики. Европейский центр по развитию профессионального образования, анализируя массивы цифровых объявлений о найме, показывает, что именно такие данные позволяют оперативнее фиксировать изменения в навыковом спросе, чем традиционная статистика, которая нередко отражает структурные сдвиги с временным лагом. Следовательно, оценка кадровых потребностей должна выходить далеко за пределы формального учёта текущих вакансий и строиться как система упреждающего анализа будущего спроса на труд.

Классическая научная традиция связывает становление данной категории с трудами Т. Шульца и Г. Беккера, убедительно показавших, что образование, профессиональная подготовка, охрана здоровья и иные формы вложений в человека обладают инвестиционной природой и формируют будущую экономическую отдачу. Однако в современных условиях сама трактовка человеческого капитала претерпевает существенное усложнение.

С позиции экономики труда принципиально важно различать количественную и качественную стороны кадровой потребности. В этом и заключается одна из центральных проблем современной экономики труда: дефицит возникает не обязательно как нехватка людей в абсолютном выражении, а как нехватка работников нужной квалификации, в нужном месте, в нужное время и для выполнения новых производственных задач.

В отечественной научной литературе данная постановка вопроса получает всё более последовательное развитие. В трудах К. Х. Абдурахманова и Н. К. Зокировой рынок труда рассматривается как динамическая система, в которой изменения технологий, форм занятости и требований к компетенциям объективно требуют перехода от статичного учёта рабочей силы к более сложному анализу профессионально-квалификационной структуры занятости и механизмов её адаптации. В работах Н. К. Зокировой и Г. К. Абдурахмановой подчёркивается, что трансформация форм занятости в инновационном развитии влечёт за собой изменение не только организационных форм труда, но и всей системы кадрового воспроизводства, в том числе способов оценки потребности в кадрах. В исследованиях Г. К. Абдурахмановой по управлению человеческими ресурсами акцентируется необходимость системного подхода к оценке, распределению и использованию рабочей силы в условиях усложнения социально-трудовых отношений. Тем самым в узбекистанской

научной школе всё более чётко закрепляется подход, в рамках которого кадровые потребности понимаются как многомерный объект анализа, не сводимый к простой регистрации свободных рабочих мест.

В этой связи основные виды кадровой потребности целесообразно разграничивать не формально, а в прямой связи с механизмами их возникновения, горизонтом оценки и методами измерения. Текущая кадровая потребность отражает уже проявившийся дефицит работников для действующих рабочих мест и фиксируется через количество вакансий, длительность их закрытия, текучесть кадров, сверхурочную нагрузку и иные показатели напряжённости кадровой ситуации. Приростная кадровая потребность связана с расширением производства, созданием новых рабочих мест, запуском инвестиционных проектов, развитием инфраструктуры, расширением сервисного сектора и появлением новых видов экономической деятельности. Замещающая кадровая потребность формируется в связи с выбытиями работников вследствие старения, выхода на пенсию, миграции, профессиональной мобильности, ухода из отрасли и текучести кадров.

Таблица-1 развертывает категорию кадровой потребности как многоуровневую аналитическую конструкцию и позволяет разграничить различные формы дефицита рабочей силы по механизму возникновения, временному горизонту и способу измерения. Она показывает, что текущая потребность является лишь наиболее видимым слоем общего кадрового дефицита; приростная потребность возникает вследствие расширения хозяйственной деятельности; замещающая - вследствие необходимости восполнения выбывающих работников; структурная - как результат рассогласования между системой подготовки и конфигурацией рабочих мест; скрытая - как латентная форма кадровой напряжённости, не всегда отражаемая официальной статистикой вакансий. Методологическая ценность такого разграничения заключается в том, что оно позволяет не просто фиксировать нехватку работников, а выявлять природу её формирования, территориально-отраслевую локализацию и возможные инструменты регулирования.

По официальным данным Национального комитета Республики Узбекистан по статистике, на начало 2025 года в стране действовали 222 высшие образовательные организации, численность студентов достигла 1 432,8 тыс. человек, а численность выпускников в 2024 году составила 211,2 тыс. человек. При этом общий приём студентов составил 381,7 тыс. человек, что отражает продолжающееся расширение образовательного контингента. Одновременно в 2025 году численность постоянного населения Узбекистана составила 37 859,7 тыс. человек, из которых 21,2 млн, или 56,0%, приходились на население трудоспособного возраста. Эти данные показывают, что оценка кадровых потребностей для Узбекистана не может ограничиваться текущими заявками работодателей: она должна опираться на сочетание демографического давления, масштабов подготовки кадров и реального спроса экономики на работников определённого профиля. Следовательно, задача состоит не в том, чтобы просто выпускать больше специалистов, а в том, чтобы согласовывать профессионально-квалификационную структуру выпуска с текущими и перспективными потребностями отраслей, регионов и рабочих мест.

Не менее важным является и тот факт, что кадровые потребности в Узбекистане формируются в условиях устойчивого экономического роста и продолжающейся структурной трансформации хозяйства. По предварительным данным Национального комитета по статистике, в январе–декабре 2025 года объём валового внутреннего продукта страны в текущих ценах составил 1 849,7 трлн сумов, увеличившись на 7,7% по сравнению с соответствующим периодом предыдущего года. Валовая добавленная стоимость в сфере услуг достигла 859 891,4 млрд сумов, увеличившись на 8,5%; при этом услуги торговли выросли на 13,6%, услуги проживания и питания - на 10,4%, перевозки и хранения - на 10,1%, а информация и связь - на 23,9%. Вновь созданных малых предприятий и микрофирм в январе–декабре 2025 года было 82,4 тыс., из них 30 205 - в торговле, 10 490 - в промышленности, 9 924 - в сельском, лесном и рыбном хозяйстве и 7 262 - в услугах по проживанию и питанию. Это означает, что кадровые потребности в республике формируются в быстро меняющейся отраслевой конфигурации, где ключевые контуры спроса на труд задаются одновременно сервисизацией экономики, развитием промышленности, ростом предпринимательской активности и расширением цифровой инфраструктуры.

В таких условиях особенно очевидной становится ограниченность фрагментарного подхода к оценке кадрового спроса. Если анализ ограничивается только открытыми вакансиями, то вне поля наблюдения остаются латентные дефициты, связанные с перегрузкой персонала, дефицитом квалифицированных кадров в новых видах деятельности, использованием работников не по профилю подготовки, совмещением функций, неформальными формами замещения и территориальным рассогласованием между подготовкой и рабочими местами. Поэтому кадровая потребность должна рассматриваться как объект непрерывного прогнозирования, охватывающего одновременно демографические тенденции, инвестиционную динамику, отраслевую структуру, развитие технологий, миграционные процессы, траектории выпускников и параметры цифрового найма. Только такая постановка вопроса позволяет превратить категорию кадровой потребности из описательной характеристики текущей кадровой напряжённости в рабочий инструмент регулирования рынка труда.

Таблица-1

Основные виды кадровой потребности как объекта оценки и прогнозирования

Вид кадровой потребности	Экономическое содержание	Основные индикаторы	Преимущественный горизонт оценки	Наиболее адекватные методы
Текущая	Уже проявившийся дефицит работников для действующих рабочих мест	количество вакансий, длительность закрытия вакансий, соотношение вакансий и безработных, текучесть кадров, сверхурочная нагрузка	краткосрочный	мониторинг вакансий, опросы работодателей, административные данные служб занятости
Перспективная	Ожидаемая потребность, возникающая вследствие роста выпуска, инвестиций, расширения отраслей и создания новых рабочих мест	прогноз занятости по отраслям, инвестиционные проекты, новые предприятия, выпуск продукции, производительность труда	средне- и долгосрочный	эконометрические модели, сценарное прогнозирование, межотраслевой анализ, панельные расчёты
Структурная	Несоответствие между составом предложения труда и структурой рабочих мест по профессиям, квалификациям и территориям	доля незаполненных рабочих мест по профессиям, образовательный дисбаланс, региональные различия, несоответствие навыков	среднесрочный	балансовые методы, профессионально-квалификационные матрицы, анализ траекторий выпускников, прогнозирование навыков
Скрытая	Латентный дефицит или избыточность персонала, не выраженные в официальных вакансиях	вторичная занятость, вынужденная неполная занятость, кадровая перегрузка, неформальная занятость, длительное удержание вакансий в резерве	кратко- и среднесрочный	выборочные обследования, внутрифирменная аналитика персонала, анализ режимов рабочего времени, косвенные статистические оценки

Именно в этой логике формируется и общая системная схема возникновения и прогнозирования кадровых потребностей.

Рисунок-1 отражает системную логику формирования и прогнозирования кадровых потребностей. На нём показано, что кадровые потребности возникают не как изолированная функция отдельного работодателя, а как результат взаимодействия демографических, образовательных, инвестиционных, отраслевых, технологических, миграционных и институциональных факторов. Входной контур схемы образуют численность и структура населения, объёмы выпуска кадров, инвестиционные проекты, динамика рабочих мест, технологические сдвиги и цифровые сигналы рынка труда. Тем самым прогнозирование кадровых потребностей переводится из плоскости реакции на уже возникший дефицит в плоскость упреждающего регулирования профессионально-квалификационной структуры рабочей силы.

Такая логика принципиально важна, поскольку она переводит прогнозирование кадровых потребностей из плоскости реакции на уже возникший дефицит в плоскость упреждающего управления профессионально-квалификационной структурой рабочей силы.

Особое место в анализе занимает региональный уровень оценки и прогнозирования кадровых потребностей, поскольку именно на уровне области и района наиболее рельефно проявляются структурные дефициты и несоответствия между системой подготовки и реальным спросом на труд. На общереспубликанском уровне кадровая потребность нередко выглядит как усреднённый агрегат, тогда как на уровне конкретного региона она распадается на территориально локализованные контуры дефицита, тесно связанные с отраслевой специализацией, демографической структурой, плотностью образовательной сети, транспортной доступностью, инвестиционной активностью и уровнем мобильности населения.




Рис. 1. Системная логика формирования и прогнозирования кадровых потребностей

По этой причине для задач настоящего исследования принципиально важно анализировать кадровую потребность не только на уровне Республики Узбекистан в целом где различия между подготовкой кадров и структурой рабочих мест проявляются наиболее предметно.

ВЫВОДЫ И РЕКОМЕНДАЦИИ

В заключение можно отметить следующее. В последнее время экономисты, наряду с человеческими способностями, включают в структуру человеческого капитала потребности — качества, позволяющие человеку осуществлять деятельность и достигать желаемого результата.

Таким образом, кадровые потребности в системе экономики труда должны рассматриваться как самостоятельный, многомерный и динамический объект оценки и прогнозирования, отражающий не только уже проявившийся спрос на труд, но и будущие, замещающие, структурные и скрытые потребности экономики в рабочей силе. Для Узбекистана данная постановка вопроса имеет особую актуальность в связи с быстрым расширением системы высшего образования, сохраняющимся демографическим давлением, ростом сервисного сектора, активизацией предпринимательства и необходимостью более точной увязки подготовки кадров с изменяющейся структурой рабочих мест. Тем самым категория кадровых потребностей превращается из описательного понятия в действенный инструмент анализа и упреждающего регулирования современного рынка труда.

В заключение следует отметить следующее. При формировании региональной экономической

политики органам власти необходимо на системной основе оценивать эффективность управления человеческим капиталом. Это позволит разрабатывать региональные программы, учитывающие развитие человеческого капитала для повышения качества управленческих решений в сфере инновационного развития региона, а также создающие условия для его эффективного использования. Научную и практическую значимость имеют алгоритм оценки индекса развития человеческого капитала на мезоуровне и механизм формирования системы инновационного развития региона, основанный на модели выявления потребностей субъектов человеческого капитала в развитии. В последнее время экономисты наряду с человеческими способностями включают в структуру человеческого капитала и потребности — качества, позволяющие человеку осуществлять деятельность и достигать желаемых результатов.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № ПФ-60 «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы». Народное слово. 29 января 2022 г.

2. Указ Президента Республики Узбекистан № ПФ-158 от 28 сентября 2023 года «О стратегии Узбекистана до 2030 года» Народное слово. 29 января 2023 г.

3. Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису от 26 декабря 2025 года. Народное слово, 27 декабря 2025 года.

4. Абдурахманов К. Х., Зокирова Н. К. Современная экономика труда: учебник. М.: Издательский дом «Дело» РАНХиГС, 2025. 740 с.

5. Зокирова Н. К., Абдурахманова Г., Сагидуллин Ф. Р. Трансформация форм занятости в инновационном развитии // International Scientific Review of the Problems and Prospects of Modern Science and Education. 2020. № 70. С. 24–28.

6. Абдурахманова Г. К. Управление человеческими ресурсами: учебник. Ташкент: Фан Академии наук Республики Узбекистан, 2023. 396 с.

7. Becker G. S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. 3rd ed. Chicago: The University of Chicago Press, 1993. 402 p.

8. Schultz T. W. Investment in Human Capital: The Role of Education and of Research. New York: The Free Press, 1971. 272 p.

9. Окунькова Е.А. Роль человеческого капитала в инноватsionном развитии экономических систем / Е.А. Окунькова // Глобальный научный потенциал. – 2018. – №11– С. 120-127.

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Убайдуллаев Гайрат Зувайтович — доцент кафедры «Инновационная экономика» Каршинского государственного технического университета / Ubaydullayev G‘ayrat Zuvaytovich — Qarshi davlat texnika universiteti Innovatsion iqtisodiyot kafedrasi dotsenti / Ubaydullayev Gayrat Zuvaytovich — Associate Professor of the Department of Innovative Economics, Karshi State Technical University

E-mail: gayrat.ubaydullayev@mail.ru

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.10.10.2026.5 *Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti*

UY XO‘JALIKLARI DAROMADLARINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Safarova Zulfizar Zafar qizi

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ ПОВЫШЕНИЯ ДОХОДОВ ДОМОХОЗЯЙСТВ

Сафарова Зулфизар Зафар кизи

IMPROVING ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISMS FOR INCREASING HOUSEHOLD INCOMES

Safarova Zulfizar

Annotatsiya. Ushbu maqolada mintaqada uy xo‘jaliklari daromadlarini shakllantirish va oshirishning nazariy hamda tashkiliy-iqtisodiy asoslari tadqiq etilgan. Uy xo‘jaliklarining iqtisodiy subyekt sifatidagi faoliyati, daromadlarining asosiy manbalari, ularni diversifikatsiya qilish imkoniyatlari hamda hududiy omillarning uy xo‘jaliklari daromadlariga ta’siri o‘rganilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda aholi daromadlarini oshirish, bandlikni ta’minlash, oilaviy tadbirkorlik va o‘zini o‘zi band qilishni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar tahlil qilingan. Mintaqalar bo‘yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlar dinamikasi asosida hududlar o‘rtasidagi tafovutlar ko‘rib chiqilib, uy xo‘jaliklari daromadlarini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Абннотация. В статье исследованы теоретические и организационно-экономические основы формирования и повышения доходов домашних хозяйств в регионе. Рассмотрены деятельность домашних хозяйств как экономических субъектов, основные источники формирования их доходов, возможности их диверсификации, а также влияние территориальных факторов на уровень доходов домашних хозяйств. Проанализированы проводимые в Узбекистане реформы, направленные на повышение доходов населения, обеспечение занятости, развитие семейного предпринимательства и самозанятости. На основе динамики среднедушевых общих доходов населения в региональном разрезе рассмотрены территориальные различия и разработаны научно-практические предложения по совершенствованию организационно-экономических механизмов повышения доходов домашних хозяйств.

Abstract. This article examines the theoretical and organizational-economic foundations of household income formation and growth in the region. The study considers households as economic agents, the main sources of household income, opportunities for income diversification, and the influence of regional factors on household income levels. The reforms implemented in Uzbekistan aimed at increasing household incomes, ensuring employment, developing family entrepreneurship and self-employment are also analyzed. Based on the dynamics of per capita total income across regions, territorial disparities are examined, and scientific and practical recommendations are developed to improve organizational and economic mechanisms for increasing household incomes.

Kalit so‘zlar: uy xo‘jaligi, uy xo‘jaliklari daromadi, aholi daromadlari, oilaviy tadbirkorlik, o‘zini o‘zi band qilish, bandlik, inson kapitali, mikromoliyalashtirish, hududiy rivojlanish, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm.

Ключевые слова: домашнее хозяйство, доходы домашних хозяйств, доходы населения, семейное предпринимательство, самозанятость, занятость, человеческий капитал, микрофинансирование, региональное развитие, организационно-экономический механизм.

Key words: household, household income, population income, family entrepreneurship, self-employment, employment, human capital, microfinance, regional development, organizational and economic mechanism.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi farovonligini oshirish mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Aholining turmush darajasi, avvalo, uning real daromadlari, bandlik holati, iste’mol imkoniyatlari, jamg‘arish salohiyati hamda inson kapitaliga yo‘naltirilayotgan investitsiyalar bilan bevosita bog‘liq. Shu sababli uy xo‘jaliklarining daromadlarini shakllantirish va oshirish jarayonlarini o‘rganish nafaqat mikroiqtisodiy, balki makroiqtisodiy ahamiyatga ham ega. Uy xo‘jaligi iqtisodiyotning muhim subyekti sifatida ishlab chiqarish omillarini taklif etish, mehnat resurslarini shakllantirish, iste’molni amalga oshirish, jamg‘arish va investitsiya qilish kabi funksiyalarni bajaradi. Shu nuqtayi nazardan, uy xo‘jaliklari daromadlarining barqaror o‘sishi hududiy iqtisodiy faollikni oshirish, ichki talabni kengaytirish va kambag‘allikni qisqartirishning muhim omillaridan biridir.

O‘zbekiston sharoitida hududlar tabiiy-iqtisodiy salohiyati, mehnat resurslari, infratuzilma ta’minoti, tadbirkorlik muhiti va iqtisodiy ixtisoslashuvi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Mazkur farqlar uy xo‘jaliklari daromadlarining shakllanishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois mintaqalarda uy xo‘jaliklari daromadlarini oshirish bo‘yicha yagona yondashuv bilan bir qatorda hududlarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirish zarur.

O‘zbekiston Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, aholi jon boshiga umumiy daromadlar 2020-yildagi 12 888,6 ming so‘mdan 2025-yilda 29 935,5 ming so‘mgacha oshgan. Shu davrda aholi jon boshiga real umumiy daromadlar ham 11 412,9 ming so‘mdan 27 511,7 ming so‘mgacha o‘sgan. Mazkur ko‘rsatkichlar nominal daromadlarning o‘sishi bilan bir qatorda real daromadlar dinamikasini ham tahlil qilish muhimligini ko‘rsatadi.[9]

Hududlar kesimida esa daromadlar darajasida sezilarli tafovutlar mavjud. 2025-yil dastlabki ma’lumotlariga ko‘ra, aholi jon boshiga umumiy daromad Toshkent shahrida 73 910,5 ming so‘m, Navoiy viloyatida 44 694,2 ming so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 20 656,0 ming so‘m, Namangan viloyatida 21 304,6 ming so‘mni tashkil etgan.[10]

Mazkur holat hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy imkoniyatlar, bandlik tarkibi, tadbirkorlik faolligi va daromad manbalarining xilma-xilligini hisobga olgan holda uy xo‘jaliklari daromadlarini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Uy xo‘jaliklari daromadlarini oshirish masalasi davlat siyosatining ham muhim yo‘nalishlaridan biridir. Xususan, “Har bir oila — tadbirkor” dasturi oilalarni tadbirkorlikka jalb qilish, yangi ish o‘rinlari va barqaror daromad manbalarini yaratishga qaratilgan. Mazkur dastur doirasida oilaviy tadbirkorlik, hunarmandchilik, kasanachilik va qishloq xo‘jaligi faoliyatini rivojlantirishga e’tibor qaratilgan. Shuningdek, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi hamda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida aholi farovonligini oshirish, kambag‘allikni qisqartirish, bandlikni ta’minlash va tadbirkorlikni rivojlantirish bilan bog‘liq vazifalar belgilangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Uy xo‘jaliklarini alohida sektor sifatida rivojlantirishida xorijlik iqtisodchi olimlardan G.Bekker, X.Gramkov, Dj.M.Keyns, D.Nort, S.Bryu, K.R.Makkonel, D.Rikardo, Dj.Gelbreyt, A.Smit va boshqalar o'zlarining ilmiy ishlarida uy xo'jaligini nazariy va amaliy jihatdan o'rganishgan va tahlil qilishgan.

Uy xo‘jaliklarining iqtisodiy faolligini oshirish muammolari MDH olimlari M.Achapovskaya, A.Ye.Novak, A.G.Batrakova, M.V.Dovbenko, Yu.I.Osik, I.A.Dubrovin, V.Kotov, S.A.Tolkachevalarning ilmiy tadqiqotlarida o‘rganilgan.

Respublikamiz iqtisodchi olimlaridan T.T.Djurayev, A.V.Vahobov, T.M.Axmedov, B.B.Berkinov, B.S.Abdullayev, Sh.G‘.Akramova, F.Axmedov, U.Q.Axmedov, A.V.Vahobov, B.T.Salimov, R.R.Xasanov, G.M.Shodiyeva, A.O‘lmasov, H.P.Abulkasimov, B.K.G‘oyibnazarov, D.T.Yuldashev, Dj.Sh.Badalov va boshqalarning ilmiy izlanishlarida uy xo'jaliklari sektorining imkoniyatlaridan takror ishlab chiqarish jarayonida samarali foydalanishning iqtisodiy hamda nazariy jihatlari yoritilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Uy xo‘jaliklarining o‘ziga xos xususiyatlari va aholi farovonligini oshirish bo‘yicha xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalarini o‘rganish va tahlil qilish qilishda analiz va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil etish, jadval va grafiklar usullaridan foydlanildi, hamda taklif va tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan sanaladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Uy xo‘jaliklari daromadlarini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini shakllantirishdan avval uning tarkibiy qismlarini aniqlash maqsadga muvofiq. Uy xo‘jaligi daromadlari quyidagi asosiy manbalar hisobidan shakllanishi mumkin:

[9] https://siat.stat.uz/data/384/

[10] https://stat.uz/img/news/aoli-umumij-daromadlari_lotin--24_01_2025_p94578.pdf



1-rasm. Uy xo‘jaliklarining umumiy daromadlari

Daromadlarning bir nechta manbalar hisobidan shakllanishi uy xo‘jaligining iqtisodiy barqarorligini oshiradi. Aksincha, faqat bitta daromad manbasiga tayanish mehnat bozori, narxlar yoki boshqa iqtisodiy omillardagi o‘zgarishlarga nisbatan uy xo‘jaligining zaifligini oshirishi mumkin.

Shu bilan birgalikda, uy xo‘jaliklari daromadlarini oshirishning tashkiliy mexanizmi deganda, uy xo‘jaliklarining mavjud mehnat, moddiy, moliyaviy, intellektual va tabiiy resurslaridan samarali foydalanishni tashkil etish, ularning iqtisodiy faoliyatini muvofiqlashtirish, daromad manbalarini shakllantirish hamda davlat, moliya institutlari, tadbirkorlik subyektlari va bozor infratuzilmasi bilan o‘zaro munosabatlarini tartibga soluvchi tashkiliy vositalar majmui tushuniladi.

Tashkiliy mexanizmning asosiy vazifasi uy xo‘jaligining mavjud imkoniyatlarini aniqlash va ularni daromad keltiruvchi faoliyatga yo‘naltirishdan iborat. Bunda uy xo‘jaligi a’zolarining mehnat qobiliyati, kasbiy malakasi, tadbirkorlik ko‘nikmalari, bo‘sh vaqti, tomorqa yerlari, mol-mulki va boshqa resurslari hisobga olinadi.

Shuningdek keyingi mexanizmga to‘xtaladigan bo‘lsak, uy xo‘jaliklari daromadlarini oshirishning iqtisodiy mexanizmi — bu uy xo‘jaliklarining daromadlarini ko‘paytirish, xarajatlarini optimallashtirish, jamg‘armalarini shakllantirish va mavjud kapitalidan samarali foydalanishni rag‘batlantiruvchi moliyaviy-iqtisodiy vositalar tizimidir.

Iqtisodiy mexanizm tashkiliy mexanizmdan farqli ravishda iqtisodiy manfaat, moliyaviy rag‘bat va resurslarning qiymati orqali uy xo‘jaliklarining xatti-harakatlariga ta’sir ko‘rsatadi.

Masalan, kredit olish imkoniyati, foiz stavkasi, subsidiya, soliq imtiyozi, ish haqi darajasi, mahsulot narxi, foyda, jamg‘arma daromadliligi kabi omillar uy xo‘jaligining iqtisodiy qarorlariga bevosita ta’sir qiladi.

1-jadval

Uy xo‘jaliklari daromadlarini oshirishning asosiy tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari

Mexanizm	Asosiy vositalar	Kutiladigan natija
Bandlik mexanizmi	yangi ish o‘rinlari, kasb-hunarga o‘qitish, qayta tayyorlash	mehnat daromadlarining o‘sishi
Tadbirkorlik mexanizmi	imtiyozli kredit, maslahat, biznes ko‘nikmalari	tadbirkorlik daromadlarining ko‘payishi
Moliyaviy mexanizm	mikrokredit, subsidiya, kafillik, lizing	kapitaldan foydalanish imkoniyatining kengayishi
Kooperatsiya mexanizmi	ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish kooperatsiyasi	ishlab chiqarish hajmi va bozor imkoniyatlarining kengayishi
Raqamli mexanizm	elektron savdo, raqamli xizmatlar, onlayn platformalar	yangi daromad manbalarining paydo bo‘lishi
Inson kapitali mexanizmi	ta’lim, kasbiy tayyorgarlik, malaka oshirish	mehnat unumdorligi va daromadlarning oshishi
Hududiy mexanizm	hudud ixtisoslashuviga mos loyihalar	mahalliy resurslardan samarali foydalanish
Ijtimoiy-iqtisodiy mexanizm	manzilli ijtimoiy yordam va daromad yaratish dasturlari	kambag‘allik xavfining kamayishi

Bizning fikrimizcha, uy xo‘jaliklari daromadlarini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi asosida shakllanadi. Bunda tashkiliy mexanizm uy xo‘jaliklarining mavjud resurslari, mehnat salohiyati va tadbirkorlik imkoniyatlarini daromad keltiruvchi faoliyatga yo‘naltirishni tashkil etsa, iqtisodiy mexanizm mazkur faoliyatni kredit, subsidiya, investitsiya, soliq, narx, foyda, jamg‘arma va boshqa moliyaviy-iqtisodiy vositalar orqali rag‘batlantirishni ta’minlaydi. Ularning integratsiyasi natijasida uy xo‘jaliklarining iqtisodiy faolligi, daromadlarining barqarorligi va moliyaviy imkoniyatlari oshadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Aholi farovonligini yanada oshirishda uy xo‘jaligi faolligini ta’minlash muhim o‘rin tutganligi bois, davlat tomonidan uy xo‘jaligi sektorlari uchun o‘zini o‘zi band qilishi, oilaviy tadbirkorlik bilan shug‘ullanib, daromadlarini yanada ko‘paytirishlari maqsadida imtiyozli moliyaviy mablag‘lar ajratilib kelinmoqda. aholining mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadini oshirish uchun uzluksiz ravishda biznes muhitini yaxshilash va kiritilayotgan investitsiyalar hajmini oshirish zarurligini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan institutsional mexanizmlar shakllantirilgan. “Har bir oila — tadbirkor” dasturi doirasidagi kreditlash va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari bunga misol bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasini 2030 yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasi. 07.11.2019. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag ‘allikni qisqartirish vazirligi.

2. Умурзаков У.П., Чариев К.А. Организационно-экономические и правовые основы реструктуризации сельскохозяйственных предприятий на переходном этапе. – Т.: Меҳнат,196. – 56 с.

3. Мэнкью Н.Г. Принципы в экономике. – СПБ: ПитерКом. – 1999, - С. 48.

4. Петухова Е.П. Совершенствование механизма регулирования домашнего хозяйства в современной экономике России. Автореферат дисс. К.э.н., Брянск, 2004. – 24 с.

5. Ўлмасов А., Ваҳобов А. Иқтисодиѐт назарияси. -Т.: ―Иқтисод- Молия‖, 2014. -456 б.;

6. Ахмедова М.А. Домашнее хозяйство в системе национальной экономики и его роль в развитии рыночных отношений Республики Таджикистан.Автореф. дис. к.э.н., Худжанд, 2012. – 18 с.

7. Berdiyev G‘.I. Milliy iqtisodiyotda uy xo‘jaliklari iqtisodiy faolligini oshirishning nazariy asoslarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati.– Guliston. 2020.- 12b.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

Safarova Zulfizar Zafar qizi Qarshi Davlat Texnika Unverseti magstranti / Сафарова Зулфизар Зафар Исследователь Каршинского государственного технического университета/ Safarova Zulfizar Zafar kizi Researcher at Karshi State Technical University

E-mail: zulfizarsafarova25@gmail.com

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.10.10.2026.6 *Moliya, kredit va investitsiya*

HUDUDIY IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Boynazarova Umida Yaxshiboyevna

ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ

Бойназарова Умида Яхшибоевна

PRIORITY DIRECTIONS FOR THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE REGIONAL ECONOMY

Boynazarova Umida Yaxshiboyevna

Annotatsiya. Mazkur maqolada xududiy iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy omillari, ularning iqtisodiy o'sishga ta'siri hamda hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, iqtisodiy infratuzilma, investitsiya muhiti, innovatsion salohiyat va inson kapitali kabi asosiy tarkibiy jihatlar alohida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Hududiy iqtisodiyot, rivojlanish omillari, investitsiya muhiti, infratuzilma, innovatsiya, inson kapitali, iqtisodiy salohiyat.

Abstract. This article analyzes the main factors of regional economic development, their impact on economic growth, and their importance in reducing socio-economic disparities between regions. It also highlights such key components as economic infrastructure, the investment environment, innovation potential, and human capital.

Keywords: Regional economy, development factors, investment environment, infrastructure, innovation, human capital, economic potential.

Аннотация. В статье проанализированы основные факторы развития региональной экономики, их влияние на экономический рост, а также значение в сокращении социально-экономических различий между регионами. Особое внимание уделено таким ключевым составляющим, как экономическая инфраструктура, инвестиционный климат, инновационный потенциал и человеческий капитал.

Ключевые слова: Региональная экономика, факторы развития, инвестиционный климат, инфраструктура, инновации, человеческий капитал, экономический потенциал.

KIRISH

Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish har bir mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlashda muhim strategik vazifa hisoblanadi. Chunki hududlar milliy iqtisodiyotning asosiy pog'onasi bo'lib, ulardagi ishlab chiqarish, mehnat resurslari, infratuzilma va investitsiya salohiyati mamlakat miqyosidagi iqtisodiy muvozanatni belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek, "har bir hududning rivojlanish drayverlarini aniqlash va ular asosida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish – yangi O'zbekistonning ustuvor vazifasidir."

Hozirgi global iqtisodiy taraqqiyot sharoitida mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishi, avvalo, uni tashkil etuvchi hududlarning iqtisodiy salohiyati va rivojlanish darajasiga bevosita bog'liqdir. Shu bois, xududiy iqtisodiyotni rivojlantirish masalasi nafaqat milliy iqtisodiy siyosatning, balki ijtimoiy barqarorlik va hududlararo muvozanatni ta'minlashning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"da har bir hududning iqtisodiy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish va ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirish vazifalari belgilangan. Bu esa xududiy iqtisodiyotni chuqur tahlil qilish va uning rivojlanish omillarini ilmiy asosda aniqlash zaruratini yanada oshirmoqda.

Shu bilan birga, bozor munosabatlari sharoitida har bir hududning tabiiy, iqtisodiy va inson resurslaridan samarali foydalanish, innovatsion salohiyatni oshirish hamda raqamli iqtisodiyotni joriy etish orqali barqaror o'sishga erishish muhim strategik vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda. Hududlarning iqtisodiy faolligini kuchaytirish orqali yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish mumkin bo'ladi.

Hozirgi kunda O'zbekiston hududlari iqtisodiy rivojlanish darajasi bo'yicha bir-biridan keskin farq qiladi. Ayrim hududlarda sanoat salohiyati va investitsiya muhiti yuqori bo'lsa, boshqa hududlarda iqtisodiy faoliyat asosan agrar yo'nalishda cheklanib qolgan. Bu holat mamlakat iqtisodiyotining izchil rivojlanishi uchun muvozanatli hududiy siyosat yuritishni taqozo etadi. Shuningdek, tashqi iqtisodiy

aloqalarni kengaytirish, eksport salohiyatini oshirish va mahalliy xomashyo bazasini chuqur qayta ishlash imkoniyatlarini yaratish ham xududiy iqtisodiyot rivojlanishining muhim strategik yo‘nalishlaridandir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Xududiy iqtisodiyotni rivojlantirish muammosi iqtisodiy fanning muhim va dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu borada milliy va xorijiy olimlar tomonidan turli nazariy yondashuvlar va amaliy modellar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular hududlarning iqtisodiy o‘sish omillarini turlicha talqin etadilar. Xududiy iqtisodiyot nazariyasining ilmiy asoslarini yaratgan klassik iqtisodchilardan biri A.Marshall o‘z asarlarida hududiy iqtisodiy rivojlanishni ishlab chiqarish kuchlarining ma’lum hududlarda jamlanishi bilan bog‘laydi. U “aglomeratsiya ta’siri” tushunchasini kiritib, ma’lum hududda ishlab chiqarish korxonalarining konsentratsiyasi samaradorlikni oshirishini ta’kidlagan.

M.Porter esa xududiy rivojlanishni klasterlar nazariyasi orqali izohlab, hududning raqobatbardoshligi uning tarmoqlararo integratsiya darajasiga bog‘liq ekanini ko‘rsatgan. Uning fikricha, innovatsiya, tadbirkorlik muhiti va davlat siyosatining uyg‘unligi hududiy iqtisodiy o‘sishning asosiy drayverlari hisoblanadi.

Shuningdek, J.Fridman, P.Krugman va R.Florida kabi olimlar o‘z tadqiqotlarida hududiy iqtisodiyotning markaz-periferiya modeli, innovatsion iqtisodiyot va “ijodiy sinf” nazariyalari orqali hududlar rivojlanishining zamonaviy mexanizmlarini ochib berganlar. Ularga ko‘ra, hududning geografik joylashuvi, infratuzilma rivoji, inson kapitali va investitsiya muhiti iqtisodiy o‘sishning asosiy belgilaridir.

O’zbekistonlik iqtisodchi olimlar ham xududiy iqtisodiyotni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur o‘rganganlar.

Q.X.Abduraxmonov “Xududiy iqtisodiyot va boshqaruv” asarida hududiy rivojlanishni boshqarish tizimini takomillashtirish, ishlab chiqarish kuchlarini hududlar bo‘yicha oqilona joylashtirish va iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish masalalarini yoritib bergan.

Sh.Sh.G’ofurov o‘z tadqiqotida hududiy islohotlarning ijtimoiy-iqtisodiy natijalarini tahlil qilib, hududlar rivojida innovatsion va investitsion omillarning roliga e’tibor qaratgan. Uning fikricha, hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda davlat siyosatining maqsadli dasturlari muhim ahamiyat kasb etadi.

B.Q.Tojiboyev o‘z ishida hududiy iqtisodiyotning raqamli transformatsiya jarayonlariga alohida to‘xtalib, raqamli texnologiyalar, elektron tijorat va axborot infratuzilmasi hududiy raqobatbardoshlikni oshirishda strategik omil sifatida namoyon bo‘lishini ta’kidlagan. Mamlakatda amalga oshirilayotgan klasterlashtirish siyosatini tadqiq etgan olimlardan. A.Xolmo‘minov agrar va sanoat klasterlari hududlar iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va mahalliy resurslardan samarali foydalanishda muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatgan.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi”da har bir hududning iqtisodiy rivojlanish drayverlarini aniqlash va ular asosida maxsus dasturlar ishlab chiqish vazifasi belgilab qo‘yilgan. Shuningdek, “Hududiy investitsiya dasturlari”, “Industrial zonalarni rivojlantirish konsepsiyasi” va “Agroklasterlarni tashkil etish to‘g‘risidagi qarorlar” amaliyotda xududiy iqtisodiyotni qo‘llabquvvatlashning me’yoriy asoslarini tashkil etmoqda. Shu jihatdan, hududiy rivojlanishning ko‘p omilli tabiati ta’kidlanadi: tabiiy resurslar, investitsiya muhiti, infratuzilma, innovatsiya va inson kapitali birgalikda hududiy iqtisodiy o‘sishning tizimli asosini yaratadi.

Hududiy iqtisodiyot rivojlanishini ta’minlovchi omillar har bir mamlakatda ijtimoiyiqtisodiy sharoitlarga mos tarzda shakllanadi. Ilmiy manbalardagi umumiy fikr shundan iboratki, hududiy siyosat samaradorligi davlat va xususiy sektor hamkorligiga, innovatsiya va raqamli iqtisodiyotni joriy etish darajasiga, shuningdek, inson kapitali sifatining o‘sishiga bog‘liqdir.

Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish — ko‘p omilli, tizimli va kompleks yondashuvni talab etadigan jarayondir. Xorijiy olimlar nazariy modellarni ishlab chiqqan bo‘lsa, milliy olimlar ularni O’zbekiston sharoitiga moslashtirib, amaliy mexanizmlarni taklif qilmoqdalar. Shuning uchun, hozirgi davrda ilmiy tadqiqotlarni amaliy dasturlar bilan uyg‘unlashtirish va har bir hududning rivojlanish strategiyasini individual asosda ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xududiy rivojlanishni baholashda bir necha statistik va iqtisodiy ko‘rsatkichlar muhim hisoblanadi. Ular orasida yalpi hududiy mahsulot, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YHM, ishlab chiqarish mahsulot (sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmatlar) ulushi, investitsiyalar , Infratuzilma ko‘rsatkichlari (yo‘l, elektr, suv, gaz, aloqa), inson kapitali ko‘rsatkich lari (maxsuslashtirilgan mutaxassislar, ta’lim, sog‘liqni saqlash), innovatsiya va texnologiya salohiyati - IT parklar, raqamli texnologiyalar, iqtisodiy o‘sish sur’ati, ishsizlik darajasi, soliq tushumlari muhim ko‘rsatkichlar hisoblanadi. Ta’kidlash joizki, quyidagi statistik ma’lumotlar oxirgi yillarda milliy va hududiy iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini ko‘rsatib beradi hamda rivojlanish omillarining ta’sirini izohlaydi.

2024 yilda O’zbekistonning yalpi ichki mahsuloti 115 milliard dollarga yaqinlashdi. 2024 yilda real YaIM o‘sishi 6,5% ni tashkil etdi. Bu o‘sish hududlardagi ishlab chiqarish faoliyati, infratuzilma va investitsiyalar natijasi sifatida qaralishi mumkin.

Statistikasi ma’lumotlariga ko‘ra, Navoiy viloyatida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YHM 47,724 ming so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa Toshkent shahari va Toshkent viloyati ham yuqori ko‘rsatkichlarga erishgan. Jumladan Toshkent shahri — 37,510 ming so‘m, Toshkent viloyati — 22,770 ming so‘mni tashki qilgan.

Eng past ko‘rsatkichlar Surxonderyo viloyatida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YHM 9,151 ming so‘m, Namangan viloyatida 9,828 ming so‘mni va Farg‘ona viloyatida 10,105 ming so‘mni tashkil qilganligi kuzatilmoqda. Bu raqamlar shuni anglatadiki, ayrim viloyatlarda iqtisodiy faoliyat va investitsiya

kiritilishi nisbatan past, demak ularda rivojlanish uchun strategik omillarni kuchaytirish zarur.

2024 yilda O'zbekistonda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishi umumiy tarmoqning asosiy qismi bo'lib qoldi — sanoat mahsulotlari hajmi 885,8 trln. so'mni tashkil etdi, bu 2023 yilga nisbatan 6,8% ga ko'p.

Sanoat tarmoqlarining ulushi — 85,1% sababli sanoat sektori mamlakat iqtisodiyotida muhim drayver hisoblanadi.

Bu holat hududlarda sanoat klasterlarini rivojlantirish, maxsus industrial zonalar tashkil qilish kerakligini ko'rsatadi. Bundan tashqari yana bir muhim jihat infratuzilmaning rivojlanganligi hududning investitsion jozibadorligini belgilaydi. Yo'llar, elektr va suv ta'minoti, telekommunikatsiya va raqamli infratuzilma iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshiradi. Ayniqsa, so'nggi yillarda "Yangi O'zbekiston" dasturi doirasida hududiy logistika markazlari, industrial zonalar va agroklasterlar tashkil etilishi iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichini boshlab berdi.Xududlarning iqtisodiy o'sishida investitsiya muhiti hal qiluvchi rol o'ynaydi. To'g'ridanto'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishi, kredit va grantlar mexanizmlari, soliq va bojxona imtiyozlari iqtisodiy faoliyatni rag'batlantiradi. Shu nuqtai nazardan, davlat-xususiy sheriklik tizimi hududlarda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish va innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun samarali vosita hisoblanadi.

Inson kapitali — hududiy rivojlanishning eng muhim omillaridan biri. Malakali kadrlar, ta'lim tizimi va sog'lom mehnat muhiti hudud iqtisodiyotini mustahkamlaydi. Hozirgi global iqtisodiyot sharoitida ilm-fan, innovatsiya va axborot texnologiyalarini o'zlashtirgan yosh mutaxassislar hududiy raqobatbardoshlikning asosiy kuchiga aylanmoqda.

Zamonaviy iqtisodiyotda innovatsion jarayonlar hududlar iqtisodiy o'sishining asosiy drayveri bo'lib bormoqda. Ilmiy tadqiqot markazlari, texnoparklar va startap loyihalarni qo'llabquvvatlash orqali hududlar iqtisodiyoti diversifikatsiya qilinadi. Raqamli iqtisodiyotni joriy etish esa boshqaruv tizimini samarali va shaffof qiladi. Bu yo'nalishda "Smart Region", "Digital Qashqadaryo", "Elektron hukumat" kabi dasturlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, xududiy iqtisodiyotni rivojlantirish mamlakatning umumiy iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlovchi eng muhim omillardan biridir. Hududlar o'rtasidagi iqtisodiy salohiyat, infratuzilma va resurslardan foydalanish darajasidagi farqlar iqtisodiy siyosatda differensial yondashuvni talab etadi. Shu bois, har bir hududning tabiiy, demografik va iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Birinchidan, xududiy iqtisodiyot rivojlanishining asosiy omillari sifatida infratuzilmani rivojlantirish, investitsiya muhitini yaxshilash, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va inson kapitali salohiyatini oshirish kabi yo'nalishlar ajralib turadi. Hududda transport, logistika va kommunikatsiya tarmoqlarining takomillashuvi iqtisodiy faollikni kuchaytiradi hamda mahalliy ishlab chiqarishni bozorlarga yaqinlashtiradi.

Ikkinchidan, hududiy iqtisodiy siyosatda tarmoqlararo kooperatsiya va klasterlashuvni rag'batlantirish muhim ahamiyatga ega. Masalan, agroindustrial yoki sanoat klasterlari tashkil etilishi hududdagi resurslardan samarali foydalanish, qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish va mahalliy ish o'rinlarini ko'paytirish imkonini beradi.

Uchinchidan, inson kapitali va ta'lim tizimi rivojlanishining hududiy iqtisodiyotga ta'siri katta. Shu bois mahalliy mehnat bozori ehtiyojlariga mos kadrlar tayyorlash, kasb-hunar ta'limi markazlarini rivojlantirish va yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash zarur.

To'rtinchidan, investitsiya faolligini oshirish uchun davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish, mahalliy budjet va kredit tizimlarini samarali boshqarish zarur. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish bilan bir qatorda, ichki investitsiya muhitini barqarorlashtirish iqtisodiy o'sishning kafolatidir.

Beshinchidan, hududlarning iqtisodiy rivojlanishini samarali boshqarishda raqamli iqtisodiyotni joriy etish muhim strategik omil hisoblanadi. Hududiy ma'lumotlar bazasi, elektron xizmatlar, geoaxborot tizimlari va raqamli hisobotlar orqali boshqaruv jarayoni shaffof va tezkor bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, xududiy iqtisodiyotini rivojlantirish uchun har bir hudud uchun alohida iqtisodiy rivojlanish indeksini joriy etish va uning asosida davlat qo'llab-quvvatlash choralarini belgilash;

-hududiy rivojlanish dasturlariga klaster siyosati va innovatsiya loyihalarini integratsiya qilish.

-infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda davlat-xususiy sheriklik (PPP) mexanizmlarini kengaytirish.

-hududlardagi inson kapitali sifatini oshirish maqsadida ta'lim, ilm-fan va amaliy tadqiqotlar o'rtasida uzviy bog'lanishni ta'minlash.

-raqamli iqtisodiy boshqaruv platformalarini yaratish orqali hududiy iqtisodiy jarayonlarning monitoringi va tahlilini avtomatlashtirish.

-ekologik barqarorlikni ta'minlash maqsadida yashil iqtisodiyot loyihalarini hududiy rivojlanish dasturlariga integratsiya qilish kabilar.

Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish — bu faqat iqtisodiy o'sishni ta'minlash emas, balki ijtimoiy barqarorlik, aholi farovonligi va milliy raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan kompleks jarayondir. Har bir hududning salohiyatini to'liq ishga solish orqali mamlakatning barqaror va muvozanatli taraqqiyotini ta'minlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

2. Abduraxmonov, Q.X. "Xududiy iqtisodiyot va boshqaruv." – T.: Iqtisodiyot, 2020.

3. Porter, M. (1998). Clusters and the New Economics of Competition. Harvard Business Review.

4. G’ofurov, Sh.Sh. “Iqtisodiy islohotlarning hududiy tahlili.” – Toshkent, 2019.
5. O’zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma’lumotlari (2024 yil).

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Boynazarova Umida Yaxshiboyevna Qarshi davlat texnika universiteti “Moliya va bank ishi” kafedrasida o‘qituvchi / Бойназарова Умида Яхшибоевна Преподаватель кафедры «Финансы и банковское дело» Каршинского государственного технического университета / Boynazarova Umida Yaxshiboyevna Teacher at the Department of Finance and Banking, Karshi State Technical University.
E-mail: umidaboynazarova41@gmail.com

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.10.10.2026.7 *Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti*

REGENERATIV QISHLOQ XO‘JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-ILMIY ASOSLARI VA XORIJIY TAJRIBALAR

Amirqulov Shuxrat Olimovich

ТЕОРЕТИКО-НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ РЕГЕНЕРАТИВНОГО СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ

Амиркулов Шухрат Олимович

THEORETICAL AND SCIENTIFIC FOUNDATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF REGENERATIVE AGRICULTURE AND INTERNATIONAL EXPERIENCE

Amirkulov Shukhrat Olimovich

Annotatsiya. Maqolada regenerativ qishloq xo‘jaligining nazariy-ilmiy asoslari, shakllanish evolyusiyasi va xorijiy tajribasi tizimli tahlil qilingan. Tahlil natijalari nol va minimal ishlov berish, qoplovchi ekinlar, almashlab ekish, organik dehqonchilik, regenerativ chorvachilik, boshqariladigan yaylovlar va agroo‘rmonchilik kabi amaliyotlarni kompleks qo‘llash tuproqning organik moddalarini tiklash, biologik xilma-xillikni saqlash, resurs va ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish hamda agroekotizimlarning barqarorligini oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatdi. Xorijiy tajriba asosida regenerativ qishloq xo‘jaligi barqaror agrar rivojlanishning integratsiyalashgan ekologik-iqtisodiy modeli sifatida asoslangan.

Kalit so‘zlar: regenerativ qishloq xo‘jaligi, barqaror rivojlanish, tuproq unumdorligi, agroekotizim, organik moddalar, biologik xilma-xillik, agroekologik texnologiyalar, regenerativ chorvachilik, agroo‘rmonchilik, resurs samaradorligi, iqlim o‘zgarishi.

Аннотация. В статье проведён системный анализ теоретико-научных основ регенеративного сельского хозяйства, эволюции его становления и зарубежного опыта. Результаты анализа показали, что комплексное применение таких практик, как нулевая и минимальная обработка почвы, покровные культуры, севооборот, органическое земледелие, регенеративное животноводство, управляемый выпас и агролесоводство, способствует восстановлению органического вещества почвы, сохранению биоразнообразия, оптимизации ресурсных и производственных затрат, а также повышению устойчивости агроэкосистем. На основе зарубежного опыта регенеративное сельское хозяйство обосновано как интегрированная эколого-экономическая модель устойчивого развития аграрного сектора.

Ключевые слова: регенеративное сельское хозяйство, устойчивое развитие, плодородие почвы, агроэкосистема, органическое вещество, биоразнообразие, агроэкологические технологии, регенеративное животноводство, агролесоводство, ресурсная эффективность, изменение климата.

Abstract. The article presents a systematic analysis of the theoretical and scientific foundations of regenerative agriculture, the evolution of its development, and international experience. The results of the analysis demonstrate that the integrated application of practices such as no-till and minimum tillage, cover cropping, crop rotation, organic farming, regenerative livestock production, managed grazing, and agroforestry contributes to restoring soil organic matter, conserving biodiversity, optimizing resource and production costs, and enhancing the resilience of agroecosystems. Based on international experience, regenerative agriculture is substantiated as an integrated environmental and economic model for sustainable development of the agricultural sector.

Keywords: regenerative agriculture, sustainable development, soil fertility, agroecosystem, organic matter, biodiversity, agroecological technologies, regenerative livestock production, agroforestry, resource efficiency, climate change.

KIRISH

Ilmiy adabiyotlarda regenerativ qishloq xo‘jaligining ahamiyati, iqtisodiy samaradorligi va an’anaviy ishlab chiqarish modellariga nisbatan ustun jihatlarini asoslashga qaratilgan tadqiqotlar soni tobora ortib bormoqda. Shu bilan birga, an’anaviy qishloq xo‘jaligi modelining resurslardan yuqori darajada foydalanishi, ishlab chiqarish xarajatlarining ortishi va

tashqi bozor omillariga yuqori darajada bog‘liqligi bilan bog‘liq cheklovlari hamda muammolari ilmiy tadqiqotlarda keng muhokama etilmoqda. Biroq, mazkur yondashuvlarning nazariy va amaliy jihatdan tobora keng e’tirof etilayotganiga qaramay, qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari amaliyotda hanuz resurslar qiymatining yuqoriligi, ishlab chiqarish xarajatlarining ortishi, xomashyo va agrar mahsulotlar narxlarining beqarorligi, iqlim va bozor xavflarining kuchayishi kabi ular tomonidan to‘liq nazorat qilinishi yoki qisqa muddatda bartaraf etilishi qiyin bo‘lgan omillar ta’sirida faoliyat yuritmoqdalar[11].

Natijada, jahonning ko‘plab mamlakatlarida qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining daromadlari nisbatan past darajada saqlanib qolayotgani, tarmoqda band bo‘lgan aholining o‘rtacha yoshi esa izchil ravishda oshib borayotgani kuzatilmoqda. Mazkur tendensiyaning muhim omillaridan biri yoshlarning nisbatan yuqori va barqaror daromad olish imkoniyatlari mavjud bo‘lgan iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga, shuningdek, ta’lim, mehnat bozori va ijtimoiy infratuzilma imkoniyatlari kengroq bo‘lgan shahar hududlariga ko‘chib o‘tishining kuchayishi bilan bog‘liq. Bu jarayonlar, o‘z navbatida, qishloq hududlarida mehnat resurslarining qisqarishi, demografik qarishning chuqurlashishi va iqtisodiy faollikning pasayishiga olib kelib, ayrim hududlarda aholi sonining kamayishi hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur’atlarining sekinlashishi xavfini kuchaytirmoqda[12].

Shu nuqtai nazardan, regenerativ qishloq xo‘jaligining asosiy vazifalaridan biri, avvalo, ishlab chiqarish jarayonida foydalanilayotgan aktivlar, xususan, tabiiy va qayta tiklanvfqlbufy resurslardan oqilona, ehtiyotkor va tejamkor foydalanish tamoyillarini shakllantirishdan iborat. Ikkinchidan, agrar tarmoq va u bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan qishloq hududlarining iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik jozibadorligini qayta tiklash, ularning barqaror rivojlanishini ta’minlash va mehnat qilish hamda doimiy yashash uchun qulay hudud sifatidagi salohiyatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, regenerativ qishloq xo‘jaligi tamoyillarini amalga oshirishga yo‘naltirilgan zamonaviy texnologiyalarga qiziqishning ortishi agrar ishlab chiqarishga investitsiyalar hajmining ko‘payishi bilan hamohang kechmoqda. Seleksiya va genetika, biotexnologiya, qishloq xo‘jaligi texnikasi, raqamli texnologiyalar, shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash uskunalari sohalaridagi ilmiy-texnologik yutuqlar negizida shakllanayotgan ishlab chiqarish usullarining yangi majmuasi tovar ishlab chiqaruvchilarga mavjud tabiiy resurslardan yanada samarali foydalanish, ishlab chiqarishning atrof-muhit va iqlimga salbiy ta’sirini kamaytirish, resurslar sarfini optimallashtirish hamda aholi va hududlar uchun yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy xavf-xatarlarni yumshatish imkonini bermoqda.

Agrar faoliyatni tashkil etish va yuritishning regenerativ usullarini rivojlantirish istiqbollari, ularni amaliyotga joriy etish jarayonida yuzaga kelayotgan tashkiliy-iqtisodiy, texnologik va institusional murakkabliklar hamda mavjud to‘siqlar mazkur yo‘nalishning nazariy-metodologik va amaliy jihatlarini chuqur hamda tizimli tadqiq etishni, shu asosda regenerativ qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Tadqiqot maqsadi. Agrar biznesning barqarorligini ta’minlash va qishloq hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish masalalarining dolzarbligi tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, global integratsiya jarayonlaridan hududiy va mintaqaviy rivojlanishga yo‘naltirilgan paradigmaga bosqichma-bosqich o‘tish sharoitida qishloq xo‘jaligini istiqbolli rivojlantirish tendensiyalarini aniqlash, tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish, zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqotning maqsadi regenerativ qishloq xo‘jaligining agrar tarmoq va qishloq hududlarining barqaror ijtimoiy-iqtisodiy hamda ekologik rivojlanishini ta’minlashdagi o‘rni va ahamiyatini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslash, shuningdek, regenerativ texnologiyalarni qishloq xo‘jaligi amaliyotiga joriy etishning milliy va xalqaro tajribasini tizimli tahlil qilish hamda ulardan samarali foydalanish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot doirasida regenerativ qishloq xo‘jaligi tamoyillarini amaliyotga joriy etgan turli mamlakatlar va hududlarning ilg‘or tajribasi o‘rganilib, ularni muayyan tabiiy-iqtisodiy, ijtimoiy va institusional sharoitlarga moslashtirish imkoniyatlari baholandi. Bunda regenerativ yondashuvlarning qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi samaradorligi, resurslardan oqilona foydalanish va qishloq hududlarining barqaror rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatish xususiyatlariga alohida e’tibor qaratildi.

Tadqiqot maqsadiga erishishda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, tahliliy sharhlash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Mazkur usullar asosida regenerativ qishloq xo‘jaligining texnologik xususiyatlari, uning agrar tarmoq va qishloq hududlarining barqaror rivojlanishini ta’minlashdagi imkoniyatlari, shuningdek, iqtisodiy, institusional va siyosiy omillar bilan o‘zaro bog‘liqligi kompleks ravishda tahlil qilindi.

Tadqiqotning nazariy qismida regenerativ fermerlik amaliyotini ilmiy jihatdan asoslash, uni ommalashtirish va institusional qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi zamonaviy metodologik yondashuvlar o‘rganildi. Amaliy tajribalarni tahlil qilish jarayonida esa

[11] Shagaida N. I., Ternovsky D. S., Trotsuk I. V. Russia’s Ways to Ensure Food Security (Control Food Prices) in 2020-2022, and their Impact on Consumers // Russian Peasant Studies. 2023. T. 8. № 3. C. 87-112

[12] Brown K., Schirmer J., Upton P. Can Regenerative Agriculture Support Successful Adaptation to Climate Change and Improved Landscape Health Through Building Farmer Self-Efficacy and Wellbeing? // Current Research in Environmental Sustainability. 2022. Vol. 4. P. 100170.

muayyan tabiiy-iqtisodiy sharoitlarga mosligi, iqtisodiy va ekologik samaradorligi, resurslardan foydalanish unumdorligi hamda keng miqyosda joriy etish imkoniyatlari yuqori bo‘lgan namunaviy yondashuvlar ajratib olindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Agrar tarmoq rivojlanishining zamonaviy xalqaro tendensiyalarini tahlil qilish natijalari jahonning ko‘plab mamlakatlarida investorlarning inflyatsion bosimlar va makroiqtisodiy beqarorlikka nisbatan barqarorligini saqlab qolish imkoniyatiga ega bo‘lgan real agrar aktivlarga qiziqishi ortib borayotganini ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, zamonaviy agrotexnologiyalar, raqamlashtirish, resurs tejamkor ishlab chiqarish va regenerativ yondashuvlarni joriy etish bilan bog‘liq agrar aktivlar nafaqat kapitalni saqlash vositasi, balki ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, yangi qo‘shilgan qiymat manbalarini shakllantirish va uzoq muddatli iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish omili sifatida ham investorlar e’tiborini jalb etmoqda[13].


Qishloq xo‘jaligining barqaror rivojlanish siyosatida muhim o‘rin egallashining ilmiy-nazariy asosi, avvalo, mazkur tarmoqning tabiiy resurslar, agroiqlimiy sharoitlar va ekologik omillarga yuqori darajada bog‘liqligi, shu bilan birga, resurslardan intensiv va nomuvofiq foydalanish natijasida ushbu tabiiy tizimlarga antropogen bosimni kuchaytirishi bilan izohlanadi[14].

Mavjud ilmiy ma’lumotlarga ko‘ra, global antropogen issiqxona gazlari chiqindilarining qariyb 24 foizi qishloq xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi. Ularning taxminan 11 foizi o‘rmonlarning kesilishi va yerdan foydalanish tizimlarining o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lsa, 13 foizi mineral o‘g‘itlar va kimyoviy vositalardan, qishloq xo‘jaligi texnikasida dizel yoqilg‘isidan foydalanish, shuningdek, chorvachilikda qoramollar tomonidan metan ajratilishi kabi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining bevosita ta’siri natijasida shakllanadi[15].

Bundan tashqari, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qadoqlash va tashish, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, chakana savdo hamda chiqindilarni utilizatsiya qilish kabi qo‘shimcha jarayonlar hisobga olinganda, oziq-ovqat tizimi doirasida amalga oshiriladigan jarayonlar global issiqxona gazlari chiqindilarining uchdan bir qismidan ortig‘ini tashkil etadi[16].

Mazkur omillarni inobatga olgan holda, 2015 yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda regenerativ qishloq xo‘jaligi muhim yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Regenerativ yondashuvlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash qishloq xo‘jaligining iqlimga salbiy ta’sirini kamaytirish, biologik xilma-xillikni saqlash va qishloq hududlaridagi ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan chora-tadbirlarni rag‘batlantirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari va mavjud ilmiy izlanishlar regenerativ qishloq xo‘jaligi iqlim o‘zgarishi ta’sirini yumshatish, tabiiy resurslarni saqlash va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim salohiyatga ega ekanini ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, mazkur yondashuv iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy samaradorlikni uyg‘unlashtirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda qishloq hududlarining barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiluvchi qator muhim funksiyalarni bajarishi mumkin (1-rasm).



1-rasm. Regenerativ qishloq xo‘jaligini asosiy funksiyalari

[13] Uzun V., Shagaida N., Lerman Z. Russian Agriculture: Growth and Institutional Challenges // Land Use Policy. 2019. № 83. P. 475-487

[14] Arora N. K. Impact of Climate Change on Agriculture Production and its Sustainable Solutions // Environmental Sustainability. 2019. № 2. P. 95-96.

[15] Müller B., Johnson L., Kreuer D. Maladaptive Outcomes of Climate Insurance in Agriculture // Global Environmental Change. 2017. Vol. 46. P. 2333

[16] Müller B., Johnson L., Kreuer D. Maladaptive Outcomes of Climate Insurance in Agriculture // Global Environmental Change. 2017. Vol. 46. P. 2333

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, hozirgi vaqtga qadar regenerativ qishloq xo‘jaligining nafaqat huquqiy jihatdan aniq belgilangan ta’rifi, balki uning nazariy-konseptual asoslari ham to‘liq shakllantirilmagan. Olimlar agrotexnologiyalar va ishlab chiqarish natijalarining ayrim xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish, ularning ekologik muhitga ta’siri va ijtimoiy muammolarni hal etishdagi ahamiyatini asoslash orqali regenerativ qishloq xo‘jaligini turlicha talqin qilmoqdalar. Jumladan, C.J. Rhodes[17]regenerativ qishloq xo‘jaligini «oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning muqobil usuli bo‘lib, nisbatan kamroq salbiy yoki sof ijobiy ekologik va ijtimoiy natijalarni ta’minlashi mumkin bo‘lgan tizim» sifatida, J.D. Beacham, P. Jackson, C.C. Jaworski va boshqalar[18] esa o‘z tadqiqotlarida «tuproq salomatligi, suv sifati va yerlar unumdorligini yaxshilash usuli» sifatida ta’riflaydilar. Mazkur hodisaning boshqa ta’riflari ham mavjud. Biroq ilmiy adabiyotlarda keltirilgan deyarli barcha ta’riflarda regenerativ agrar faoliyat usullarining «iqlim o‘zgarishini ortga qaytarish»[19] yoki, hech bo‘lmaganda, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish jarayonini jadallashtirish imkoniyati[20] qayd etilgan.

S.S.X. Tan va S.E. Kuebbing “Regenerativ qishloq xo‘jaligi texnologiyalari va ularning qishloq hududlari barqarorligi hamda agrar tarmoq faoliyatiga ta’sirini batafsil tahlil qilishda, avvalo, ularning qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi uchun muhim bo‘lgan tabiiy resurs — tuproq qoplamiga ta’siriga e’tibor qaratish lozim”[21] deb hisoblaydilar. Buning asosiy sababi shundaki, tuproq qoplami o‘simlikchilik ishlab chiqarishining, umuman olganda esa oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, sanoat tarmoqlarini ayrim turdagi xomashyo bilan ta’minlash hamda zamonaviy jamiyat hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ekotizim xizmatlarini ko‘rsatish uchun zarur biogeokimyoviy jarayonlarning asosini tashkil etadi.

Shu nuqtai nazardan, yerlarning degradatsiyaga uchrashi insoniyat duch kelayotgan eng jiddiy xavflardan biri hisoblanadi. Tuproqqa ortiqcha ishlov berish, kimyoviy vositalardan asossiz va meyordan ziyod foydalanish, chorva mollarini nazoratsiz boqish hamda tuproq qoplamining buzilishi kabi ekologik jihatdan nomaqbul qishloq xo‘jaligi amaliyotlari tuproq holatining tez sur’atlarda yomonlashishiga, eroziya, zichlashish, kislotalanish, sho‘rlanish va tuproq mikrobiomining yo‘qolishiga olib kelmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) ma’lumotlariga ko‘ra, hozirgi vaqtda dunyo tuproq resurslarining katta qismi qoniqarli, yomon yoki juda yomon holatda bo‘lib, yerlarning 33 foizi o‘rtacha yoki kuchli darajada degradatsiyaga uchragan[22]. Mazkur jarayonlar boshqa salbiy ekologik hodisalar bilan ham bir vaqtda kechmoqda. Masalan, dunyo miqyosida torfzorlar jadal degradatsiyaga uchrab, har yili qariyb 500 ming gektar maydon foydalanishga yaroqsiz holga kelmoqda. Bu esa yiliga taxminan 2,5 gigatonna SO_2 ekvivalenti miqdorida chiqindi ajralishiga va qator muhim ekotizim xizmatlarining yo‘qolishiga sabab bo‘lmoqda. Aksincha, F. Tanneberger va boshqalar[23] o‘z tadqiqot ishlarida «inson faoliyati ta’siriga uchramagan torfzorlar uglerodni sekvestratsiya qilish va saqlash orqali iqlimni tartibga solish, suv resurslarini boshqarish, ozuqa moddalarini saqlash hamda yovvoyi hayvonlar uchun yashash muhitini ta’minlash» kabi muhim ekotizim xizmatlarini bajarishini qayd etadi.

Tuproq qoplamini saqlash va uning sifatini tiklash nuqtai nazaridan regenerativ qishloq xo‘jaligi usullari istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi. Mazkur usullar tuproqning fizik tuzilishi, kimyoviy xususiyatlari va mikrobiologik muhitini yaxshilash, eroziyaning oldini olish, o‘simliklar uchun ozuqa moddalarining mavjudligini oshirish hamda hosildorlikka xavf tug‘diruvchi kasalliklarning tuproq orqali tarqalishini kamaytirishga xizmat qiladi.

Xorijiy olimlar L. Schreefel, R.P.O. Schulte tomonidan regenerativ texnologiyalarning qishloq xo‘jaligi tarmog‘i faoliyatining bevosita natijalariga ta’siri bo‘yicha amalga oshirilgan umumlashtiruvchi tahlillar «sog‘lom» tuproqlar qurg‘oqchilik va suv toshqinlarining salbiy oqibatlarini yumshatishini, regenerativ dehqonchilikda qo‘llaniladigan yondashuvlar esa tuproq qoplamini tiklashga ko‘maklashishini ko‘rsatgan[24].

J.A. Miller-Klugesherz va R.S. Matthew[25] o‘zlarining olib borgan tadqiqotlarida fermer xo‘jaliklari faoliyatida tuproq sifatini yaxshilashga qaratilgan amaliyotlarni tahlil qilishda, birinchi navbatda, organik o‘g‘itlarning tuproqda organik moddalar miqdorini oshirish va o‘simliklar uchun ozuqa moddalarining o‘zlashtirilish darajasini yaxshilashdagi ahamiyati, ayniqsa, degradatsiyaga uchragan tuproqlardagi samarasini qayd etadi hamda tuproqdan foydalanish va unga ishlov berish intensivligini kamaytirish muhim ahamiyat kasb etishini uqtiradi.

Ma’lumki, tuproq sifatining muhim ko‘rsatkichlaridan biri uning tarkibidagi organik moddalar ulushi hisoblanadi. Organik moddalar gumus, o‘simlik va hayvon qoldiqlari hamda tirik organizmlar biomassasidan tashkil topadi. Uning ahamiyati shundaki, organik moddalar muayyan xususiyatlarga ega bo‘lgan holda, birinchidan, ozuqa moddalarining aylanishini ta’minlaydi, tuproq tuzilishini yaxshilaydi,

[17] Rhodes C. J. The Imperative for Regenerative Agriculture //Science progress. 2017. Vol. 100. № 1. P. 80-129.
[18] Beacham J. D., Jackson P., Jaworski C. C. (et al.) Contextualising Farmer Perspectives on Regenerative Agriculture: A Post-Productivist Future? // Journal of Rural Studies. 2023. Vol. 102. P. 103100.
[19] Kastner R. Hope for the Future: How Farmers Can Reverse Climate Change // Socialism and Democracy. 2016. Vol. 30. №. 2. C. 154-170.
[20] McGuire A. Regenerative Agriculture: Solid Principles, Extraordinary Claims. 2018. [Electronic resource]. Available at: http://csanr.wsu.edu/regen-ag-solid-principles-extraordinary-claims (accessed June 22, 20
[21] Tan S. S. X., Kuebbing S. E. A Synthesis of the Effect of Regenerative Agriculture on Soil Carbon Sequestration in Southeast Asian Croplands // Agriculture, Ecosystems and Environment. 2023. Vol. 349. P. 108450.
[22] Buck H. J., Palumbo-Compton A. Soil Carbon Sequestration as a Climate Strategy: What Do Farmers Think? // Biogeochemistry. 2022. № 161. P. 59-70.
[23] Tanneberger F. (et al.) Quantifying Ecosystem Services of Rewetted Peatlands – The Moor Futures Methodologies // Ecological Indicators. 2024. № 163. P. 112048.
[24] Schreefel L., Schulte R. P. O. (et al.) Regenerative Agriculture – The Soil is the Base // Global Food Security. 2020. Vol. 26. P. 100404.
[25] Miller-Klugesherz J. A., Matthew R. S. Good for the Soil, but Good for the Farmer? Addiction and Recovery in Transitions to Regenerative Agriculture // Journal of Rural Studies. 2023. Vol. 103. P. 103123.

ifloslantiruvchi moddalarni yutadi va uglerodni to‘playdi; ikkinchidan, tuproqda namlikni ushlab turish orqali suv aylanishining barqarorligini ta’minlaydi, qurg‘oqchilik davrida tuproq namligini saqlaydi va kuchli yog‘ingarchilik paytida tuproqning suvni tez singdirishi uchun sharoit yaratib, suv toshqinlarining oldini olishga xizmat qiladi.

O‘simlikchilik va o‘rmon xo‘jaligining ekstensiv rivojlanishi, ya’ni foydalanilmayotgan yaylovlar va boshqa foydalanishga yaroqli yerlarni qishloq xo‘jaligi oborotiga jalb qilish, o‘rmon xo‘jaligini intensivlashtirish tuproqdagi organik moddalarning sezilarli darajada kamayishiga olib kelmoqda. Aksincha, regenerativ qishloq xo‘jaligi tuproqda organik moddalar miqdorini oshiradi hamda tegishli ko‘rsatkichlarning vaqt bo‘yicha, ya’ni oldingi davrga nisbatan va makon bo‘yicha, ya’ni qo‘shni xo‘jaliklar bilan taqqoslaganda, yaxshilanishini ta’minlaydi.

Masalan, Vashington universiteti olimlari tomonidan regenerativ va an’anaviy fermer xo‘jaliklari faoliyatini taqqoslash bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, regenerativ xo‘jaliklarda tuproqdagi organik moddalarning o‘rtacha ulushi 6,3 foizni (3–12 foiz), an’anaviy xo‘jaliklarda esa 3,5 foizni (2–5 foiz) tashkil etgan[26]. Bundan tashqari, regenerativ fermer xo‘jaliklarida tuproqning mikrobiologik faolligi va ozuqa moddalarining mavjudligini ifodalovchi test natijalari an’anaviy xo‘jaliklarga nisbatan qariyb uch baravar yuqori bo‘lgan.

Regenerativ qishloq xo‘jaligi modellari qatorida organik qishloq xo‘jaligi alohida o‘rin tutadi va uning rivojlanishiga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar va nashrlar mavjud. Umuman, regenerativ qishloq xo‘jaligi kabi organik dehqonchilik ham tuproqda organik moddalar miqdorining ko‘payishiga va natijada uning holati hamda unumdorligining yaxshilanishiga olib keladi[27].

Olib borilgan tadqiqotlarda, bir tomondan, almashlab ekish va tuproqqa minimal ishlov berish, ikkinchi tomondan esa tuproq holatining yaxshilanishi o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjudligi aniqlangan. Empirik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, alohida regenerativ yoki organik agrotexnologiyani qo‘llashdan ko‘ra, bir nechta regenerativ amaliyotlarni o‘zaro uyg‘unlashtirish holatida sinergetik, ya’ni qo‘shimcha samara yuzaga keladi. Regenerativ fermer xo‘jaliklaridagi natijalarga o‘xshash ravishda, organik xo‘jaliklarda ham tuproqdagi organik moddalar miqdori 13 foizga yuqori bo‘lgan. Ularning katta qismi «uzoq muddat saqlanuvchi» uglerod bilan bog‘liq gumin moddalar shaklida mavjud bo‘lgan. Bu esa organik tuproqlarning uglerodni uzoq muddat saqlash salohiyati 26 foizga yuqori ekanini anglatadi[28].

Tuproqqa ishlov berish intensivligini kamaytirish yoki «tuproqqa nol ishlov berish» tamoyili asosida dehqonchilik yuritishga kelsak, mazkur usul hozirgi vaqtda, masalan, AQShdagi haydaladigan yerlarning qariyb 37 foizida qo‘llanilmoqda[29]. Bunday texnologiyalar yog‘ingarchilik miqdori kam bo‘lgan hududlarda qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirish uchun samarali usullar sifatida qaraladi. Biroq begona o‘tlar va zararkunandalarga qarshi kurashishda pestitsidlardan ko‘proq foydalanish zarurati yuzaga kelishi mumkin, bu esa qishloq xo‘jaligi ekinlarini organik usulda yetishtirishning boshqa tamoyillariga zid keladi.

Olimlarning xulosalariga ko‘ra, zamonaviy No-Till (tuproqqa nol ishlov berish) texnologiyalari chorvachilikni o‘simlikchilik bilan uzviy integratsiyalashga asoslanib, quyidagi uchta asosiy elementni birlashtiradi: 1) tuproqqa nol ishlov berish; 2) turli xil qoplovchi ekinlar kombinatsiyalaridan foydalanish; 3) chorva mollarini maqbul tarzda boqish[30]. Bunda tuproq yuzasini yil davomida yoki muayyan mavsumda 100 foiz qoplab turishni ta’minlash maqsadida turli qoplovchi ekinlar ekiladi. Qo‘y va qoramollar bunday yaylovlarda boqilib, ozuqa moddalarini qayta ishlaydi hamda organik o‘g‘it kiritilishi hisobiga tuproq unumdorligining oshishiga xizmat qiladi[31].

Bunday innovatsion amaliyotlar AQShning Dakota hududlarida, Avstraliya va boshqa mamlakatlarda fermerlar tomonidan keng qo‘llanilmoqda. Ularda regenerativ qishloq xo‘jaligi tobora keng tarqalayotgan yondashuv sifatida tuproq eroziyasining oldini olish va uning unumdorligini oshirish, inson salomatligi va tabiiy muhitga yetkaziladigan zararni kamaytirish, iqlimga salbiy ta’sirni minimallashtirish hamda iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlariga samarali moslashish imkonini beruvchi vositalar majmuini taklif etmoqda[32].

Regenerativ amaliyotlarni joriy etishning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan chorvachilikka batafsil to‘xtaladigan bo‘lsak, mazkur tarmoqda ham an’anaviy usullardan regenerativ yondashuvlarga o‘tish jarayoni kuzatilmoqda. An’anaviy chorvachilikda kichik maydonlarda juda ko‘p miqdorda chorva mollarini joylashtirish, ya’ni ko‘p hollarda «ortiqcha o‘tlatish» natijasida yerlarning degradatsiyaga uchrashi yoki mollarni maxsus semirtirish maydonlari va molxonalarda saqlash ustuvor bo‘lgan. Regenerativ chorvachilikda esa «moslashuvchan ko‘p zagonli o‘tlatish», «maqbul boshqaruv asosida navbatma-navbat o‘tlatish»,

[26] Montgomery D. R. Dirt: The Erosion of Civilizations Paperback. University of California Press, 2012. 296 p.
[27] Soto R. L., de Vente J., Padilla M. C. Learning from Farmers’ Experiences with Participatory Monitoring and Evaluation of Regenerative Agriculture Based on Visual Soil Assessment // Journal of Rural Studies. 2021. Vol. 88. P. 192-204.
[28] Soto R. L., de Vente J., Padilla M. C. Learning from Farmers’ Experiences with Participatory Monitoring and Evaluation of Regenerative Agriculture Based on Visual Soil Assessment // Journal of Rural Studies. 2021. Vol. 88. P. 192-204.
[29] Soto R. L., Padilla M. C., de Vente J. Participatory Selection of Soil Quality Indicators for Monitoring the Impacts of Regenerative Agriculture on Ecosystem Services // Ecosystem Services. 2020. Vol. 45. P. 101157.
[30] Naylor R. (et al.). The ‘Good Farmer’: Farmer Identities and The Control of Exotic Livestock Disease in England // Sociologia Ruralis. 2018. № 58 (1). P. 3-19.
[31] Naylor R. (et al.). The ‘Good Farmer’: Farmer Identities and The Control of Exotic Livestock Disease in England // Sociologia Ruralis. 2018. № 58 (1). P. 3-19.
[32] Naylor R. (et al.). The ‘Good Farmer’: Farmer Identities and The Control of Exotic Livestock Disease in England // Sociologia Ruralis. 2018. № 58 (1). P. 3-19.

«tiklovchi o‘tlatish» kabi texnologiyalardan foydalaniladi.

G‘arb mamlakatlari amaliyotida bu yondashuv yer maydonini kichikroq zagonlarga ajratish uchun to‘siqlardan foydalanish, chorva mollarini guruhlashtirish va ularni o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashtirilgan o‘tlatish rejasi asosida tez-tez bir maydondan boshqasiga ko‘chirishni nazarda tutadi[33]. Bunday rejali o‘tlatish natijasida yaylovlarning tabiiy tiklanishi, chorvachilik imkoniyatlarining kengayishi hamda xo‘jaliklarda qoramol va qo‘ylar sonini ko‘paytirish uchun sharoit yaratiladi.

Bugungi kunda hujjatlashtirilgan amaliy tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha, kompleks rejali o‘tlatish tizimi dunyo bo‘ylab millionlab gektar maydonlarda, ayniqsa, Shimoliy Amerika tekisliklarida, Meksika, Avstraliya, Sharqiy Afrika, Argentina va Chilida qo‘llanilmoqda[34].

Zamonaviy texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari turli xil o‘tlardan tashkil topgan, ko‘p tarkibli o‘simlik qoplamiga ega barqaror yaylov tizimlarini shakllantirmoqdalar. Bunday tizimlar o‘g‘itlarga bo‘lgan ehtiyojni kamaytiradi, masalan, dukkakli o‘simliklar atmosfera azotini fiksatsiya qilishi natijasida tuproqning azot bilan tabiiy boyishi ta’minlanadi. Mazkur tizimlarda biologik faol tuproqlarni shakllantirish, o‘simliklar xilma-xilligini ta’minlash va chorva mollarining salomatligiga alohida e’tibor qaratiladi. Shu sababli ko‘plab mamlakatlardagi regenerativ fermer xo‘jaliklarida o‘sish gormonlaridan foydalanishdan voz kechilmoqda va antibiotiklardan foydalanish minimal darajaga tushirilmoqda[35].

Bundan tashqari, chorvachilikni yerdan foydalanish va oziq-ovqat tizimlarining kengroq kontekstida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, regenerativ o‘tlatishga asoslangan ayrim chorvachilik tizimlari uglerod-neytral bo‘lishi mumkinligini tasdiqlovchi dalillar mavjud. Shuningdek, maxsus regenerativ texnologiyalar asosida parvarish qilinayotgan kavsh qaytaruvchi hayvonlarning issiqxona gazlari chiqindilari bo‘yicha ekologik izi an’anaviy yopiq ishlab chiqarish tizimlarida parvarish qilinadigan hayvonlarnikidan farq qilishi aniqlangan[36].

Natijada, regenerativ saqlash tizimlarida yaylovlarga asoslangan chorvachilik tuproq sifatini yaxshilashi, ekotizimlarning funksional imkoniyatlarini kengaytirishi, mamlakat va hududlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga hissa qo‘shishi mumkin.

O‘simlikchilik va chorvachilikda regenerativ amaliyotlarni rivojlantirishga qo‘shimcha ravishda, mazkur yondashuvlar bog‘dorchilik sohasiga ham joriy etilmoqda. Masalan, O‘rta yer dengizi mintaqasida intensiv bog‘dorchilikda hosildorlikni oshirish, zararkunandalar va begona o‘tlarga qarshi kurashish maqsadida sintetik o‘g‘itlar va pestitsidlardan jadal foydalanish tuproq va atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu munosabat bilan regenerativ bog‘dorchilik tizimlariga bosqichma-bosqich o‘tish jarayoni kuzatilmoqda. Bunday tizimlar tuproq salomatligini yaxshilash, tarmoqning tashqi resurslarga qaramligini kamaytirish, biologik xilma-xillikka ijobiy ta’sir ko‘rsatish hamda suv va uglerod balansini yaxshilashga xizmat qiladi.

Tuproqqa ishlov berishni minimallashtirish, biologik o‘g‘itlardan foydalanish, daraxt qatorlari orasida qoplovchi ekinlarni ekish, o‘simlik va butalar qoldiqlari bilan tuproqni mulchalash, tirik to‘siqlarni barpo etish, changlatuvchi hasharotlar va zararkunandalarga qarshi biologik kurashda ishtirok etuvchi hasharotlar uchun yashash muhitini saqlash kabi usullardan foydalanish orqali Portugaliya, Ispaniya va AQShdagi ishlab chiqaruvchilar bog‘larni organik sertifikatlash tizimiga o‘tkazmoqdalar. Shuningdek, organik mahsulotlarga bo‘lgan talabning yuqoriligi ularga iqtisodiy jihatdan manfaatli bozorlarga chiqish, qo‘shimcha daromad olish va olingan mablag‘larni regenerativ hamda organik bog‘dorchilik tizimlariga qayta investitsiya qilish imkonini bermoqda[37].

Nihoyat, yana bir agrar tarmoq — agroo‘rmonchilik (agrolesovodstvo) ham o‘rmon xo‘jaligini dehqonchilik va chorvachilik tizimlari bilan integratsiyalash orqali o‘z faoliyatida regenerativ yondashuvlarga bosqichma-bosqich o‘tmoqda. Bu jarayon shundan iboratki, o‘rmon massivlarida turli xil qishloq xo‘jaligi ekinlari, ayniqsa, turli o‘tsimon o‘simliklar yetishtiriladi, chorvachilik tizimlarida esa o‘rmonlar hayvonlar uchun muhim ozuqa manbai sifatida namoyon bo‘lib, yaylovlarning imkoniyatlarini to‘ldirish bilan bir qatorda, issiq va qurg‘oqchil hududlarda chorva mollari uchun yanada qulay va maqbul sharoitlarni yaratadi.

Bunda regenerativ agroo‘rmonchilik tizimlari faoliyat turlarining tobora keng diversifikatsiya qilinishi bilan tavsiflanadi. Bu esa faqatgina yog‘och va o‘rmon xo‘jaligining boshqa mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashishdan o‘simlikchilik va chorvachilik yo‘nalishlarini ham qamrab olgan ko‘p tarmoqli ishlab chiqarish tizimiga o‘tishni anglatadi. Mazkur yondashuv asosiy va yordamchi ishlab chiqarish yo‘nalishlari o‘rtasida doimiy hamda barqaror mutanosiblikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Mohiyatan, regenerativ agroo‘rmonchilikning asosiy maqsadi resurslarning o‘zaro to‘ldiruvchanligini ta’minlashdan iborat bo‘lib, bunda daraxtlar va qishloq xo‘jaligi ekinlari tuproqdagi ozuqa moddalari hamda suv resurslaridan turli qatlamlar va chuqurliklarda samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Daraxtlar kuchli

[33] Teague R., Barnes M. Grazing Management that Regenerates Ecosystem Function and Grazingland Livelihoods // African Journal of Range & Forage Science. 2017. № 34 (2). P. 77-86.

[34] Gosnell H. (et al). Climate Change Mitigation as a Co-Benefit of Regenerative Ranching: Insights from Australia and The United States // Interface Focus. 2020. № 10. P. 20200027.

[35] Zhu Q., Jia R., Lin X. Building Sustainable Circular Agriculture in China: Economic Viability and Entrepreneurship // Management Decision. 2019. Vol. 57. № 4. P. 1108-1122.

[36] Manzano P. Comparable GHG Emissions from Animals in Wildlife and Livestock-dominated Savannas // Climate and Atmospheric Science. 2023. № 6. P. 27.

[37] McMahon P. Investing in Regenerative Agriculture Reflections from the Past Decade. SLM Partners. White Paper (February 2024). [Electronic resource]. Available at: https://www.slmpartners.com/s/SLM-Partners-Investing-in-Regenerative-Agriculture-2024-White-Paper.pdf.

va chuqur ildiz tizimiga ega bo‘lganligi sababli tuproqning nisbatan chuqur qatlamlaridagi suv va ozuqa elementlaridan foydalansa, qishloq xo‘jaligi ekinlari hamda o‘tsimon o‘simliklar asosan tuproqning yuzaga yaqin qatlamlaridagi resurslarni o‘zlashtiradi.

Natijada, jahonning turli mamlakatlarida mo‘tadil iqlimli hududlardan tortib tropik mintaqalargacha bo‘lgan sharoitlarda muvaffaqiyatli regenerativ agroo‘rmonmelioratsiya tizimlarini joriy etish bo‘yicha amaliy tajribalar shakllangan. Jumladan, Fransiyada donli ekinlarni yong‘oq daraxtlari bilan, AQShning Shimoliy Karolina shtatida soya ekinlarini ninabargli daraxtlar bilan, Braziliyada esa makkajo‘xori va dukkakli ekinlarni meva daraxtlari bilan integratsiyalash asosida tashkil etilgan tizimlar bunga misol bo‘la oladi[38].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Regenerativ usullarni zamonaviy agrar muhitga joriy etish bo‘yicha nazariy-ilmiy qarashlar va xalqaro tajribani tahliliy baholash natijalarini umumlashtirar ekanmiz, shuni ta’kidlash lozimki, regenerativ qishloq xo‘jaligi konsepsiyasi nafaqat agrar iqtisodiy fan va boshqa fanlararo tadqiqotlarning tabiiy evolyusiyasi natijasida, balki an’anaviy qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bilan bog‘liq salbiy jarayon va hodisalarning tobora keng e’tirof etilishi ta’sirida ham shakllangan.

Regenerativ qishloq xo‘jaligi amaliyotda nafaqat tarmoq va uning asosiy ishtirokchilari — qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari uchun sezilarli iqtisodiy va ishlab chiqarish natijalarini ta’minlaydi, balki uzoq muddatli istiqbolda turli mintaqalarda oziq-ovqat tizimlarining barqarorligini ta’minlash uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ekologik va ijtimoiy samaralarni ham yuzaga keltiradi.

Xususan, alohida xo‘jaliklar darajasida qo‘llanilayotgan regenerativ amaliyotlarning turi ularning atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatish, iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish hamda inson salomatligini muhofaza qilish borasidagi salohiyatini belgilaydi. Mazkur yo‘nalishlar barqaror rivojlanishning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Barqaror rivojlanishni ta’minlash nuqtai nazaridan eng keng tarqalgan va ahamiyatli regenerativ usullar, avvalo, o‘simlikchilikda, chorvachilikda hamda agroo‘rmonchilikda namoyon bo‘ladi.

O‘simlikchilikda regenerativ yondashuvlar, birinchi navbatda, sog‘lom va biologik faol tuproqlarni shakllantirish va saqlash, o‘simliklarning fotosintetik faoliyatini maksimal darajada oshirish, kimyoviy o‘g‘itlar va o‘simliklarni himoya qilish vositalaridan foydalanishni minimallashtirish va boshqa shu kabi chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

Chorvachilikda esa regenerativ yondashuvlar hayvonlarning yilning asosiy qismida tabiiy yaylovlarda saqlanishini ta’minlash, yaylovlardan zagon-porsiyali, ya’ni navbatma-navbat va meyorlangan tarzda foydalanish usullarini moslashtirish hamda takomillashtirish, hayvonlarni davolash jarayonida gormonlar va antibiotiklardan foydalanishni qisqartirish kabi choralarni qamrab oladi.

Agroo‘rmonchilikda esa regenerativ yondashuvlar haydaladigan yerlarda yoki yaylovlarda daraxtlar ekish, haydalma yerlarni doimiy yaylovlarga aylantirish, ekinlar almashlab ekish tizimiga ko‘p yillik yaylovlarni kiritish va boshqa shu kabi agroekologik tadbirlarni nazarda tutadi.

Ko‘p hollarda eng yuqori samara bir nechta regenerativ amaliyotlarni o‘zaro uyg‘unlashtirish va kompleks integratsiya qilish orqali ta’minlanadi. Bunday yondashuv natijasida nafaqat bevosita xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq ijobiy iqtisodiy va ishlab chiqarish natijalari hamda ekologik samaralarga erishiladi, balki tabiatdagi muhim biologik jarayonlarning barqaror davom etishi ta’minlanadi, biologik xilma-xillik saqlab qolinadi, sifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish imkoniyatlari kengayadi hamda umuman olganda, oziq-ovqat xavfsizligi ta’minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Arora N. K. Impact of Climate Change on Agriculture Production and its Sustainable Solutions // Environmental Sustainability. 2019. № 2. P. 95-96.

2. Beacham J. D., Jackson P., Jaworski C. C. (et al.) Contextualising Farmer Perspectives on Regenerative Agriculture: A Post-Productivist Future? // Journal of Rural Studies. 2023. Vol. 102. P. 103100.

3. Brown K., Schirmer J., Upton P. Can Regenerative Agriculture Support Successful Adaptation to Climate Change and Improved Landscape Health Through Building Farmer Self-Efficacy and Wellbeing? // Current Research in Environmental Sustainability. 2022. Vol. 4. P. 100170.

4. Buck H. J., Palumbo-Compton A. Soil Carbon Sequestration as a Climate Strategy: What Do Farmers Think? // Biogeochemistry. 2022. № 161. P. 59-70.

5. Gosnell H. (et al). Climate Change Mitigation as a Co-Benefit of Regenerative Ranching: Insights from Australia and The United States // Interface Focus. 2020. № 10. P. 20200027.

6. Kastner R. Hope for the Future: How Farmers Can Reverse Climate Change // Socialism and Democracy. 2016. Vol. 30. №. 2. C. 154-170.

7. Manzano P. Comparable GHG Emissions from Animals in Wildlife and Livestock-dominated Savannas // Climate and Atmospheric Science. 2023. № 6. P. 27.

8. McGuire A. Regenerative Agriculture: Solid Principles, Extraordinary Claims. 2018. [Electronic resource]. Available at: http://csanr.wsu.edu/regen-ag-solid-principles-extraordinary-claims (accessed June 22, 20

9. McMahon P. Investing in Regenerative Agriculture Reflections from the Past Decade. SLM Partners. White Paper (February 2024). [Electronic resource]. Available at: https://www. slmpartners.com/s/SLM-Partners-Investing-in-Regenerative-Agriculture-2024-White-Paper.pdf.

[38] McMahon P. Investing in Regenerative Agriculture Reflections from the Past Decade. SLM Partners. White Paper (February 2024). [Electronic resource]. Available at: https://www. slmpartners.com/s/SLM-Partners-Investing-in-Regenerative-Agriculture-2024-White-Paper.pdf

10. Miller-Klugesherz J. A., Matthew R. S. Good for the Soil, but Good for the Farmer? Addiction and Recovery in Transitions to Regenerative Agriculture // Journal of Rural Studies. 2023. Vol. 103. P. 103123.
11. Montgomery D. R. Dirt: The Erosion of Civilizations Paperback. University of California Press, 2012. 296 p.
12. Müller B., Johnson L., Kreuer D. Maladaptive Outcomes of Climate Insurance in Agriculture // Global Environmental Change. 2017. Vol. 46. P. 2333
13. Naylor R. (et al.). The 'Good Farmer': Farmer Identities and The Control of Exotic Livestock Disease in England // Sociologia Ruralis. 2018. № 58 (1). P. 3-19.
14. Rhodes C. J. The Imperative for Regenerative Agriculture //Science progress. 2017. Vol. 100. № 1. P. 80-129.
15. Schreefel L., Schulte R. P. O. (et al.) Regenerative Agriculture – The Soil is the Base // Global Food Security. 2020. Vol. 26. P. 100404.
16. Shagaida N. I., Ternovsky D. S., Trotsuk I. V. Russia's Ways to Ensure Food Security (Control Food Prices) in 2020-2022, and their Impact on Consumers // Russian Peasant Studies. 2023. T. 8. № 3. C. 87-112
17. Soto R. L., de Vente J., Padilla M. C. Learning from Farmers' Experiences with Participatory Monitoring and Evaluation of Regenerative Agriculture Based on Visual Soil Assessment // Journal of Rural Studies. 2021. Vol. 88. P. 192-204.
18. Soto R. L., Padilla M. C., de Vente J. Participatory Selection of Soil Quality Indicators for Monitoring the Impacts of Regenerative Agriculture on Ecosystem Services // Ecosystem Services. 2020. Vol. 45. P. 101157.
19. Tan S. S. X., Kuebbing S. E. A Synthesis of the Effect of Regenerative Agriculture on Soil Carbon Sequestration in Southeast Asian Croplands // Agriculture, Ecosystems and Environment. 2023. Vol. 349. P. 108450.
20. Tanneberger F. (et al.) Quantifying Ecosystem Services of Rewetted Peatlands − The Moor Futures Methodologies // Ecological Indicators. 2024. № 163. P. 112048.
21. Teague R., Barnes M. Grazing Management that Regenerates Ecosystem Function and Grazingland Livelihoods // African Journal of Range & Forage Science. 2017. № 34 (2). P. 77-86.
22. Uzun V., Shagaida N., Lerman Z. Russian Agriculture: Growth and Institutional Challenges // Land Use Policy. 2019. № 83. P. 475-487
23. Zhu Q., Jia R., Lin X. Building Sustainable Circular Agriculture in China: Economic Viability and Entrepreneurship // Management Decision. 2019. Vol. 57. № 4. P. 1108-1122.

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Amirqulov Shuxrat Olimovich QarDTU "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasi professori v.v.b., i.f.d. (DSc) / Амиркулов Шухрат Олимович и.о. профессора кафедры «Инновационная экономика» Каршинского государственного технического университета, доктор экономических наук (DSc) / Amirkulov Shukhrat Olimovich Acting Professor of the Department of Innovative Economics, Karshi State Technical University, Doctor of Science (DSc) in Economics.
E-mail: shuxratamirkulov01@gmail.com

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.10.10.2026.8 *Moliya, kredit va investitsiya*

TIJORAT BANKLARINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISH STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Salamov Islam Tashkazakovich

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СТРАТЕГИИ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ

Саламов Ислам Ташказакович

IMPROVING THE DIGITAL TRANSFORMATION STRATEGY OF COMMERCIAL BANKS

Salamov Islam Tashkazakovich

Annotatsiya: Mazkur maqolada tijorat banklarida raqamli transformatsiya strategiyasini shakllantirish va uni bankning resurslari, risk profili hamda maqsadli mijoz segmentlari bilan uyg‘unlashtirish masalalari tadqiq etilgan. Raqamli kanallarning kengayishi, fintex kompaniyalari bilan raqobatning kuchayishi va mijozlarning shaxsiylashtirilgan xizmatlarga bo‘lgan talabining ortishi sharoitida transformatsiyani faqat texnologik yangilanish emas, balki bank biznes modelini qayta qurish jarayoni sifatida boshqarish zarurligi asoslangan. Tadqiqotda tizimli va qiyosiy tahlil, SWOT tahlili, kontent tahlili hamda ekspert-analitik ballash usullaridan foydalanilgan. Turonbank ATB misolida muqobil raqamli transformatsiya yo‘nalishlari kapital sig‘imi, texnologik tayyorgarlik, bozor salohiyati, risk darajasi, mavjud filiallar tarmog‘i bilan muvofiqlik va amalga oshirish muddati mezonlari asosida baholangan. Natijalar raqamli transformatsiya samaradorligi texnologik infratuzilma bilan bir qatorda risklarni boshqarish, xodimlar kompetensiyasi, ma’lumotlar sifati va mijozlarga yo‘naltirilgan biznes modelining uyg‘unligiga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Tadqiqot asosida tijorat banklari uchun raqamli va an’anaviy xizmat kanallarini integratsiyalashga yo‘naltirilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli transformatsiya, tijorat banklari, bank biznes modeli, raqamli bank xizmatlari, fintex, risk boshqaruvi, mijoz segmentatsiyasi, texnologik tayyorgarlik, raqamli kanallar, Turonbank, bank strategiyasi, gibrid bank modeli.

Abstract: This article examines the issues of forming a digital transformation strategy in commercial banks and aligning it with the bank's resources, risk profile, and target customer segments. In the context of the expansion of digital channels, increasing competition with fintech companies, and the growing demand of customers for personalized services, the necessity of managing transformation not merely as a technological upgrade, but as a process of restructuring the bank's business model, is substantiated. The research employs systematic and comparative analysis, SWOT analysis, content analysis, and expert-analytical scoring methods. Using "Turonbank" JSCB as a case study, alternative digital transformation directions are evaluated based on the criteria of capital intensity, technological readiness, market potential, risk level, compatibility with the existing branch network, and implementation timeframe. The results show that the effectiveness of digital transformation depends on the alignment of technological infrastructure with risk management, employee competencies, data quality, and a customer-centric business model. Based on the research, an organizational and economic mechanism aimed at integrating digital and traditional service channels for commercial banks is proposed.

Keywords: digital transformation, commercial banks, bank business model, digital banking services, fintech, risk management, customer segmentation, technological readiness, digital channels, Turonbank, bank strategy, hybrid bank model.

Аннотация: В данной статье исследованы вопросы формирования стратегии цифровой трансформации в коммерческих банках и ее согласования с ресурсами банка, профилем рисков и целевыми клиентскими сегментами. В условиях расширения цифровых каналов, усиления конкуренции с финтех-компаниями и роста спроса клиентов на персонализированные услуги обоснована необходимость управления трансформацией не просто как технологическим обновлением, а как процессом перестройки бизнес-модели банка. В исследовании использованы методы системного и сравнительного анализа, SWOT-анализа, контент-анализа, а также экспертно-аналитического балльного оценивания. На примере АКБ «Туронбанк» альтернативные направления цифровой трансформации оценены по критериям капиталоемкости, технологической готовности, рыночного потенциала, уровня риска, совместимости с существующей филиальной сетью и сроков реализации. Результаты показывают, что эффективность цифровой трансформации зависит от согласованности технологической инфраструктуры с управлением рисками, компетенциями сотрудников, качеством данных и клиентоориентированной бизнес-моделью. На основе

исследования предложен организационно-экономический механизм, направленный на интеграцию цифровых и традиционных каналов обслуживания для коммерческих банков.

Ключевые слова: цифровая трансформация, коммерческие банки, банковская бизнес-модель, цифровые банковские услуги, финтех, управление рисками, сегментация клиентов, технологическая готовность, цифровые каналы, Туронбанк, банковская стратегия, гибридная банковская модель.

KIRISH

Bank xizmatlarining raqamli kanallarga ko‘chishi, fintex kompaniyalari bilan raqobatning kuchayishi, mijozlarning tezkor va shaxsiylashtirilgan xizmatlarga bo‘lgan talabi tijorat banklarida transformatsiyani alohida IT-loyiha emas, balki biznes modelini qayta qurish jarayoni sifatida boshqarishni talab qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–5992-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2020–2025-yillarga mo‘ljallangan bank tizimini isloh qilish strategiyasida davlat ulushini kamaytirish, korporativ boshqaruvni kuchaytirish, xizmatlar sifati va raqamlashtirish darajasini oshirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan.

Raqamli transformatsiyaning murakkabligi shundaki, texnologik yangilanishning o‘zi barqaror natija bermaydi. Platforma, ma’lumotlar, xodimlar kompetensiyasi, risk boshqaruvi, mahsulot dizayni va sotuv kanallari yagona strategik konturga birlashtirilmasa, alohida tashabbuslar operatsion xarajatlarni ko‘paytirishi, kiberxavf va model riskini kuchaytirishi mumkin. Shu sababli strategiya bankning kapitali, likvidligi, risk-appetiti va tashkiliy imkoniyatlari bilan muvofiqlashtirilishi zarur.

Tadqiqotning maqsadi — tijorat bankining raqamli transformatsiya strategiyasini bank resurslari, risk profili va maqsadli mijoz segmentlari bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni ishlab chiqish hamda uni Turonbank ATB misolida asoslash. Mazkur maqsadga erishish uchun transformatsiya omillarini tizimlashtirish, amaldagi texnologik bazani baholash, muqobil biznes modellarini qiyoslash va natijadorlik ko‘rsatkichlarini taklif etish vazifalari belgilandi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ilmiy adabiyotlarda raqamli transformatsiya tashkilotning qiymat yaratish mexanizmlarini raqamli texnologiyalar ta’sirida sezilarli o‘zgartiruvchi jarayon sifatida talqin etiladi. Vial raqamli buzilishlar, strategik javob, tashkiliy to‘siqlar va ijobiy natijalarni o‘zaro bog‘langan elementlar sifatida ko‘rsatadi. Westerman, Bonnet va McAfee esa raqamli yetuklik texnologik imkoniyat bilan bir qatorda kuchli transformatsion boshqaruvga bog‘liqligini ta’kidlaydi.

Bank sektorida mazkur yondashuv riskka asoslangan boshqaruv bilan to‘ldiriladi. Basel qo‘mitasi tamoyillariga ko‘ra, bank kengashi strategiya, risk-appetit va kapital rejalashtirish o‘rtasidagi muvofiqlikni ta’minlashi lozim. Demak, raqamli mahsulotning bozordagi muvaffaqiyati faqat foydalanuvchilar soni yoki tranzaksiyalar hajmi bilan emas, balki NPL, firibgarlik yo‘qotishlari, operatsion uzilishlar, ma’lumotlar sifati va kapital rentabelligi bilan birgalikda baholanishi kerak.

Mavjud tadqiqotlarda raqamli transformatsiya ko‘pincha texnologiya yoki mijoz tajribasi nuqtayi nazaridan o‘rganiladi. Biroq resurslari cheklangan, ayni paytda hududiy filiallar tarmog‘iga ega banklar uchun raqamli va an’anaviy kanallarni muvofiqlashtiruvchi gibrid strategiyaning tanlanishi yetarli darajada ochib berilmagan. Ushbu maqolaning ilmiy yondashuvi transformatsiya portfelini maqsadli segment, risk chegarasi va o‘lchanadigan natijalar bilan yagona boshqaruv sikliga birlashtirishdan iborat.

TAQDIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli va qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya, kontent tahlili, SWOT tahlili hamda ekspert-analitik ballash usullaridan foydalanildi. Axborot bazasini bank transformatsiyasi bo‘yicha taqdim etilgan materiallar, Turonbankning ochiq axborotlari, O‘zbekiston bank tizimini isloh qilishga doir normativ hujjatlar hamda xalqaro ilmiy va institutsional manbalar tashkil etdi.

Muqobil strategik yo‘nalishlarni baholashda olti mezon: kapital sig‘imi, texnologik tayyorgarlik, bozor salohiyati, risk darajasi, amaldagi tarmoq bilan muvofiqlik va amalga oshirish muddati hisobga olindi. Ballar 1 dan 5 gacha shkala bo‘yicha analitik tarzda shakllantirildi; shu sababli ular statistik kuzatuv emas, balki qaror qabul qilishni strukturaviy qo‘llab-quvvatlovchi indikativ baho sifatida talqin

qilinadi.

TAHLIL VA NATIJA


O‘zbekiston bank bozorida raqobatning kuchayishi uch yo‘nalishda namoyon bo‘lmoqda: xorijiy kapital ishtirokidagi banklarning kirib kelishi, raqamli bank va fintex xizmatlarining kengayishi hamda an’anaviy banklarning mobil ilovalar va masofaviy identifikatsiyani rivojlantirishi. Taqdim etilgan ma’lumotlarda keyingi uch yilda bank kapitali 1,8 baravar, kredit portfeli 2 baravar va onlayn xizmatlar hajmi 2,7 baravar oshgani qayd etilgan. Ushbu nisbatlar bozor o‘sishi bilan birga raqamli kanallarning ancha tez kengayayotganini ko‘rsatadi.

1-jadval.

Bank transformatsiyasini boshqarishning maqsad–harakat–natija modeli

Bosqich	Mazmuni	Boshqaruv natijasi
Strategik maqsad	Maqsadli segment va qiymat taklifini tanlash	Kengash tasdig‘i
Harakatlar portfeli	Jarayon, texnologiya, ma’lumot va kompetensiya loyihalari	Yo‘l xaritasi va budjet
Risk filtri	Risk-appetit, limitlar, axborot va kiberxavfsizlik nazorati	Qabul qilinadigan qoldiq risk
Natijani o‘lchash	Moliyaviy, mijoz, jarayon va risk KPIlari	Kutilgan va amaldagi natija tafovuti
Qayta aloqa	Portfelni davom ettirish, tuzatish yoki to‘xtatish	Yangilangan strategik qaror

Raqamli xizmatlar hajmining kapital va kredit portfeliga nisbatan tezroq o‘sishi bank uchun ikki xil natija tug‘diradi. Bir tomondan, tranzaksiya xarajatlari pasayadi, geografik qamrov kengayadi va mijoz ma’lumotlari boyiydi. Ikkinchi tomondan, uzluksizlik, kiberxavfsizlik, firibgarlikni aniqlash, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish hamda uchinchi tomon provayderlariga bog‘liqlik risklari ortadi. Shu bois raqamli kanal o‘sishi risk infratuzilmasining proporsional rivoji bilan birga borishi kerak.



1-rasm. Bank ko‘rsatkichlari o‘sishining qiyosiy indeksi[39]

Turonbankda 2022-yil sentabrdan Colvir Banking System avtomatlashtirilgan bank tizimining amaliyotga joriy etilishi transformatsiyaning infratuzilmaviy tayanchini shakllantirdi. Taqdim etilgan bank materiallariga ko‘ra, platforma 90 dan ortiq tashqi axborot tizimlari bilan integratsiya qilingan. Filiallarning yagona balans va yagona MFO asosida ishlashi markazlashgan boshqaruv, nazorat va hisobotning yaxlitligini kuchaytirgan.

2-jadval

Colvir platformasining transformatsion ta’siri[40]

Yo‘nalish	Amalga oshirilgan o‘zgarish	Kutiladigan iqtisodiy natija	Asosiy risk
Operatsiyalar	Asosiy jarayonlarni yagona platformaga birlashtirish	Vaqt va qo‘l mehnati sarfining kamayishi	Tizim uzluksizligi
Filiallar	Yagona balans va markazlashgan boshqaruv	Nazorat va likvidlik boshqaruvining yaxshilanishi	Markaziy tizimga bog‘liqlik
Integratsiya	90 dan ortiq tashqi tizim bilan axborot almashinuvi	Tranzaksiyalar tezligi va xizmat ko‘lami oshishi	API va uchinchi tomon riski
Mahsulotlar	Parametr, tarif va sotuv qoidalarini sozlash	Bozorga chiqish muddatining qisqarishi	Noto‘g‘ri parametr/model riski
Kreditlash	anderrayting	Qaror tezligi va standartlashuv	Model diskriminatsiyasi va NPL
Mijozlar	CRM, FaceID, QR va kartali to‘lov yechimlari	Mijoz tajribasi va masofaviy qamrov	Firibgarlik va maxfiylik

Mazkur natijalar texnologik tayyorgarlik mavjudligini ko‘rsatsa-da, transformatsiyaning keyingi bosqichi platformaning o‘zi bilan cheklanmasligi kerak. Ma’lumotlar egaligi, ma’lumotlar sifati bo‘yicha SLA, model validatsiyasi, mijoz yo‘li analitikasi va mahsulot rentabelligini segmentlar kesimida hisoblash boshqaruv konturiga kiritilishi lozim.


[39] Muallif ishlanmasi
[40] Muallif ishlanmasi

3-jadval

Turonbank uchun strategik biznes modellarining qiyosiy bahosi[41]

Model	Afzallik	Cheklov	Strategik xulosa
Universal bank	Keng mijoz va mahsulot qamrovi	Katta kapital, masshtab va narx raqobati talab etadi	Qisqa muddatda ustuvor emas
To‘liq raqamli bank	Past filial xarajati, tez masshtablash	Yuqori IT investitsiyasi va ijtimoiy moslashuv xarajati	Bosqichma-bosqich elementlar joriy etiladi
Islomiy bank	Yangi talab segmenti va investorlar	Huquqiy, buxgalteriya va likvidlik infratuzilmasi murakkab	Pilot mahsulot sifatida o‘rganiladi
KOB va chakana gibrid bank	Mavjud tarmoq va texnologiyani uyg‘unlashtiradi	Skoring, CRM va segment analitikasi talab etadi	Asosiy maqsadli model

Turonbank uchun to‘rtta asosiy strategik muqobil ajratildi: universal bank sifatida kengayish; to‘liq raqamli bank modeliga o‘tish; islomiy bank modelini joriy etish; kichik va o‘rta biznes hamda chakana segmentlarga yo‘naltirilgan texnologik gibrid bankni shakllantirish. Universal model katta kapital va resurs bazasini, to‘liq raqamli model esa filiallar va bandlik masalasini keskin qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Islomiy moliya uzoq muddatli bozor imkoniyatiga ega bo‘lsa-da, alohida huquqiy, hisob, likvidlik va IT infratuzilmasi zarur.



2-rasm. Strategik yo‘nalishlarning indikativ muvofiqlik bahosi[42]

Baholash natijasi KOB va chakana segmentga yo‘naltirilgan gibrid modelni qo‘llab-quvvatlaydi. Mazkur model filiallarni birdan yopishni emas, ularning funksiyasini tranzaksion xizmatdan maslahat, sotuv va murakkab mahsulotlarni qo‘llab-quvvatlash markaziga o‘zgartirishni nazarda tutadi. Oddiy operatsiyalar raqamli kanallarga, yuqori qiymatli va maslahat talab qiladigan xizmatlar esa omnikanal modelga o‘tkaziladi.

3-jadval

Turonbank raqamli transformatsiyasining SWOT matritsasi[43]

Kuchli jihatlar	Zaif jihatlar	Imkoniyatlar	Tahdidlar
Colvir platformasi va keng integratsiya	Resurs bazasi va kapital ko‘lami cheklangan	KOB va chakana bozorda raqamli talab	Fintex va yirik banklar raqobati
Hududiy filiallar va mijozlar bazasi	Meros jarayonlari va kompetensiya tafovuti	Masofaviy identifikatsiya va ochiq API	Kiberhujum va firibgarlik
Markazlashgan hisob va anderrayting	Ma’lumotlar sifati bir xil emas	Segmentlashtirilgan mahsulot va cross-sell	Valyuta, kredit va likvidlik riski
Mahsulot parametrlarini moslashuvchan sozlash	To‘liq raqamli model uchun xarajat yuqori	Hamkorlik ekotizimi va embedded finance	Uchinchi tomon provayderiga bog‘liqlik

[41] Muallif ishlanmasi
[42] Muallif ishlanmasi
[43] Muallif ishlanmasi

SWOT matritsasidan kelib chiqib, “kuch–imkoniyat” strategiyasi Colvir integratsiyalari va filial tarmog‘idan foydalangan holda KOB hamda chakana mijozlar uchun omnikanal mahsulotlarni rivojlantirishni ko‘zda tutadi. “Zaiflik–tahdid” strategiyasi esa resurs cheklovlari sharoitida yirik korporativ kreditlar bo‘yicha konsentratsiyani oshirmaslik, ma’lumotlar sifati va kiberbarqarorlikka investitsiyani ustuvorlashtirishni talab qiladi.

Transformatsiya strategiyasini amalga oshirish uchun bank kuzatuv kengashi darajasida strategik maqsadlar va risk-appetit tasdiqlanadi; boshqaruv darajasida transformatsiya qo‘mitasi portfelni muvofiqlashtiradi; biznes yo‘nalishlari mahsulot natijalariga, IT va ma’lumotlar bo‘linmalari platforma hamda ma’lumot sifatiga, risk funksiyasi esa mustaqil nazorat va validatsiyaga javob beradi. Bunda loyiha muvaffaqiyati “muddat va budjet” bilan emas, biznes natijasi va risk chegarasiga rioya etilishi bilan baholanadi.

4-jadval

Raqamli transformatsiya strategiyasining tavsiya etiladigan KPIlari[44]

Perspektiva	KPI	Hisoblash yoki talqin	Maqsadli yo‘nalish
Moliyaviy	Raqamli kanal daromadi ulushi	Raqamli kanaldagi daromad / jami operatsion daromad	O‘sish
Moliyaviy	Cost-to-income	Operatsion xarajat / operatsion daromad	Pasayish
Mijoz	Raqamli faol mijozlar ulushi	Oy davomida faol raqamli mijoz / faol mijoz	O‘sish
Mijoz	NPS yoki CSI	Mijoz tavsiyasi yoki qoniqish indeksi	O‘sish
Jarayon	Straight-through processing	Qo‘l aralashuvisiz yakunlangan operatsiyalar ulushi	O‘sish
Jarayon	Time-to-market	G‘oyadan mahsulot ishga tushishigacha kunlar	Qisqarish
Risk	Raqamli kreditlar NPL koeffitsiyenti	NPL / raqamli kredit portfeli	Limitdan oshmaslik
Risk	Firibgarlik yo‘qotishlari	Yo‘qotish / raqamli tranzaksiyalar hajmi	Pasayish
Texnologiya	Kritik tizim mavjudligi	Ishlagan vaqt / rejalashtirilgan vaqt	O‘sish
Ma’lumot	Kritik ma’lumot sifati	To‘liq, to‘g‘ri va o‘z vaqtida yozuvlar ulushi	O‘sish

KPIlar uchun bazaviy va maqsadli qiymatlar bankning ichki boshqaruv hisobi asosida belgilanadi. Har bir ko‘rsatkich bo‘yicha egasi, hisoblash formulasi, ma’lumot manbasi, davriyligi va ogohlantiruvchi chegarasi tasdiqlanishi lozim. Moliyaviy natija ko‘rsatkichini risk va mijoz ko‘rsatkichlarisiz rag‘batlantirish kredit sifati yoki xizmat sifati yomonlashuviga olib kelishi mumkin.

5-jadval

Transformatsiya yo‘l xaritasining bosqichlari[45]

Bosqich	Muddat	Asosiy tadbirlar	Yakuniy natija
Diagnostika	0–3 oy	Jarayonlar, IT arxitektura, ma’lumotlar, kompetensiya va risklarni baholash	Bazaviy holat va loyiha portfeli
Poydevor	3–9 oy	Data governance, API standartlari, kiberxavfsizlik, KPI pasportlari	Nazorat qilinadigan raqamli infratuzilma
Masshtablash	9–18 oy	KOB va chakana mahsulotlar, CRM, skoring, omnikanal sotuv	Raqamli faollik va daromad o‘sishi
Optimallashtirish	18–30 oy	Filial rollari, jarayonlarni qayta dizayn qilish, AI pilotlari	Cost-to-income va time-to-market yaxshilanishi
Institutsionallashuv	30 oy va keyin	Doimiy portfel boshqaruvi, model validatsiyasi va strategik qayta aloqa	Uzluksiz transformatsiya qobiliyati

Olingan natijalar raqamli transformatsiyada “eng zamonaviy texnologiyani sotib olish” yondashuvi yetarli emasligini ko‘rsatadi. Turonbank holatida platforma va integratsiyalar mavjud, biroq ularning biznes qiymati maqsadli segment va risk chegaralari orqali ochiladi. KOB va chakana yo‘nalish katta korporativ kreditlarga qaraganda maydaroq ekspozitsiyalarni diversifikatsiya qilish imkonini beradi, ammo mijozlarni baholash, tezkor qaror va portfel monitoringi uchun kuchli analitika talab etadi.

[44] Muallif ishlanmasi
[45] Muallif ishlanmasi

Gibrid model filiallar tarmog‘ini “ortiqcha aktiv” sifatida emas, raqamli xizmatlarni qabul qilish, moliyaviy savodxonlik va maslahat savdosi uchun institutsional ustunlik sifatida qayta talqin qiladi. Bu yondashuv bandlikka keskin salbiy ta’sirni yumshatadi, biroq lavozim profillari va xodimlar kompetensiyasini o‘zgartirishni talab etadi. Shuning uchun texnologik budjet bilan bir qatorda qayta tayyorlash budjeti ham transformatsiya portfeliga kiritilishi zarur.

Tadqiqotning cheklovi shundaki, bankning ichki moliyaviy va operatsion mikro ma’lumotlari mavjud emasligi sababli KPIlarning aniq maqsadli qiymatlari hisoblanmadi, strategik muqobillar esa indikativ ballar asosida baholandi. Keyingi tadqiqotlarda raqamli kanallar bo‘yicha mijoz kohortalari, mahsulot rentabelligi, NPL vintaj tahlili va filiallar samaradorligi panel ma’lumotlar asosida ekonometrik baholanishi maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijasida tijorat bankining raqamli transformatsiyasi texnologik yangilanish emas, balki maqsadli segment, qiymat taklifi, jarayon, ma’lumot, risk va inson kapitalini yagona strategik siklda boshqarish jarayoni ekani asoslandi. Turonbankning Colvir platformasi, tashqi tizimlar bilan integratsiyasi, markazlashgan hisob, anderrayting va CRM elementlari transformatsiyaning zarur texnologik bazasini yaratgan.

Avvalo, bank uchun kichik va o‘rta biznes hamda chakana mijozlarga yo‘naltirilgan texnologik gibrid modelni asosiy strategik yo‘nalish sifatida belgilash taklif etiladi. Shunindek, har bir raqamli tashabbus bankning risk-appetiti va kapital rejasiga bog‘lanishi, loyiha portfeli bo‘yicha “davom ettirish–tuzatish–to‘xtatish” qarorlari davriy qabul qilinishi lozim. Bundan tashqari, filiallar tranzaksion operatsiya markazidan maslahat va sotuv markaziga bosqichma-bosqich o‘tkazilishi kerak.

Shuningdek, transformatsiya natijalarini moliyaviy, mijoz, jarayon, risk, texnologiya va ma’lumotlar perspektivalarini qamrab oluvchi muvozanatlashgan KPIlar orqali baholash zarur. Beshinchidan, data governance, model validatsiyasi, kiberbarqarorlik va uchinchi tomon riskini boshqarish raqamli mahsulotlarni masshtablashdan oldingi majburiy shart bo‘lishi kerak. Mazkur takliflar transformatsiya xarajatlarini strategik natijalarga bog‘lash, qarorlar shaffofligini oshirish va bankning raqobatbardoshligini risklarni nazorat qilgan holda mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF–5992-son “2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. https://lex.uz/docs/4811025

2. Basel Committee on Banking Supervision. (2015). Corporate governance principles for banks. Bank for International Settlements.

3. Basel Committee on Banking Supervision. (2021). Principles for operational resilience. Bank for International Settlements.

4. Vial, G. (2019). Understanding digital transformation: A review and a research agenda. Journal of Strategic Information Systems, 28(2), 118–144. https://doi.org/10.1016/j.jsis.2019.01.003

5. Westerman, G., Bonnet, D., & McAfee, A. (2014). Leading Digital: Turning Technology into Business Transformation. Harvard Business Review Press.

6. OECD. (2020). Digital Disruption in Banking and its Impact on Competition. OECD Publishing.

7. Islamic Financial Services Board. (2024). Islamic Financial Services Industry Stability Report 2024. Kuala Lumpur: IFSB.

8. “Turonbank” ATB. Bank transformatsiyasi, Colvir Banking System, CRM, anderrayting va masofaviy xizmatlarga doir ochiq hamda taqdim etilgan materiallar.

9. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Tijorat banklari va to‘lov tizimlariga doir statistik ma’lumotlar. https://cbu.uz

10. Verhoef, P. C., Broekhuizen, T., Bart, Y., Bhattacharya, A., Dong, J. Q., Fabian, N., & Haenlein, M. (2021). Digital transformation: A multidisciplinary reflection and research agenda. Journal of Business Research, 122, 889–901. https://doi.org/10.1016/j.jbusres.2019.09.022

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Salamov Islam Tashkazakovich Mustaqil tadqiqotchi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti / Саламов Ислам Ташказакович Самостоятельный исследователь Ташкентский государственный экономический университет / Salamov Islam Tashkazakovich Independent Researcher Tashkent State University of Economics

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.10.10.2026.9 *Moliya, kredit va investitsiya*

TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Baymuratova Zina Aqilbekovna

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СТРАТЕГИЙ УПРАВЛЕНИЯ ПРОБЛЕМНЫМИ КРЕДИТАМИ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ

Баймуратова Зина Акилбековна

IMPROVING STRATEGIES FOR MANAGING NON-PERFORMING LOANS IN COMMERCIAL BANKS

Baymuratova Zina Aqilbekovna

Annotatsiya: Mazkur maqolada tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarishning zamonaviy strategiyalari va ularni takomillashtirish yo‘nalishlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda O‘zbekiston bank tizimida kredit portfeli va muammoli kreditlar dinamikasi tahlil qilinib, kredit risklarini erta aniqlash, qarzdorlarni segmentlash, restrukturizatsiya, raqamli monitoring va undirish mexanizmlarining samaradorligi baholangan. 2026-yil 1-iyul holatiga bank tizimida jami kredit portfeli 642,8 trln so‘mni, muammoli kreditlar 22,9 trln so‘mni va ularning ulushi 3,6 foizni tashkil etgan. Tadqiqot natijasida NPLlarni boshqarishda profilaktik, diagnostik, restrukturizatsion va undirish bosqichlarini yagona boshqaruv tizimiga birlashtirish taklif etilgan. Muallif tomonidan banklarda “erta ogohlantirish – segmentatsiya – individual yechim – monitoring – qayta baholash” tamoyiliga asoslangan strategik mexanizm ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: muammoli kreditlar, NPL, kredit riski, kredit portfeli, restrukturizatsiya, qarzdorlikni undirish, erta ogohlantirish tizimi, kredit monitoringi, tijorat banklari, raqamli monitoring, kredit sifati.

Abstract: This article examines modern strategies for managing non-performing loans in commercial banks and ways to improve them. The study analyzes the dynamics of the loan portfolio and non-performing loans within the banking system of Uzbekistan, and evaluates the effectiveness of early detection of credit risks, debtor segmentation, restructuring, digital monitoring, and collection mechanisms. As of July 1, 2026, the total loan portfolio in the banking system amounted to 642.8 trillion soums, non-performing loans stood at 22.9 trillion soums, and their share accounted for 3.6%. As a result of the study, it is proposed to integrate the preventive, diagnostic, restructuring, and collection stages into a unified management system for NPLs. The author has developed a strategic mechanism for banks based on the principle of "early warning – segmentation – individual solution – monitoring – reassessment."

Keywords: non-performing loans, NPL, credit risk, loan portfolio, restructuring, debt recovery, early warning system, credit monitoring, commercial banks, digital monitoring, credit quality.

Аннотация: В данной статье исследованы современные стратегии управления проблемными кредитами в коммерческих банках и направления их совершенствования. В исследовании проанализирована динамика кредитного портфеля и проблемных кредитов в банковской системе Узбекистана, а также дана оценка эффективности раннего выявления кредитных рисков, сегментации заемщиков, реструктуризации, цифрового мониторинга и механизмов взыскания. По состоянию на 1 июля 2026 года общий кредитный портфель банковской системы составил 642,8 трлн сумов, проблемные кредиты – 22,9 трлн сумов, а их доля составила 3,6%. В результате исследования предложено объединить профилактический, диагностический, реструктуризационный этапы и этап взыскания в единую систему управления NPL. Автором разработан стратегический механизм для банков, основанный на принципе «раннее предупреждение – сегментация – индивидуальное решение – мониторинг – переоценка».

Ключевые слова: проблемные кредиты, NPL, кредитный риск, кредитный портфель, реструктуризация, взыскание задолженности, система раннего предупреждения, кредитный мониторинг, коммерческие банки, цифровой мониторинг, качество кредитов.

KIRISH

Tijorat banklari faoliyatida kredit operatsiyalari daromadlarning asosiy manbalaridan biri bo‘lishi bilan birga, kredit riskining eng katta qismini ham shakllantiradi. Kredit portfelining haddan tashqari tez kengayishi, qarz oluvchilarning moliyaviy holatidagi o‘zgarishlar, garov qiymatining pasayishi, pul oqimlarining yomonlashuvi va makroiqtisodiy shoklar kreditlarning muammoli aktivlarga aylanish ehtimolini oshiradi. Shu sababli zamonaviy bank boshqaruvida NPLlarni kamaytirish masalasi faqat muddati o‘tgan qarzdorlikni undirish bilan cheklanmay, kreditning butun hayotiy siklini boshqarish bilan bog‘lanmoqda.

O‘zbekiston bank tizimida ham kredit portfeli hajmining sezilarli kengayishi kuzatilmoqda. Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, 2026-yil 1-iyul holatida tijorat banklari jami kredit portfeli 642,810 mlrd so‘mga yetgan. Shundan 22,943 mlrd so‘mi muammoli kreditlar bo‘lib, NPL ulushi 3,6 foizni tashkil etgan. Davlat ulushi mavjud banklarda kredit portfeli 422,259 mlrd so‘m, NPL hajmi esa 16,446 mlrd so‘m bo‘lgan va NPL ulushi 3,9 foizni tashkil qilgan [1].

Biroq NPL ulushining nisbatan past darajada bo‘lishi kredit risklari to‘liq nazorat ostida degan xulosaga olib kelmasligi kerak. 2026-yil boshida NPL 18,055 trln so‘m yoki kredit portfelining 3,0 foizini tashkil etgan bo‘lsa, 1-iyulga kelib NPL hajmi 22,943 trln so‘mgacha oshgan [1; 2]. Shu davrda kredit portfeli ham kengayganligi sababli muammoli kreditlar ulushi keskin oshmagan, biroq nominal NPL hajmining o‘sishi kredit portfeli sifatini doimiy monitoring qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, 2026-yil 1-iyulda bank tizimining jami aktivlari 1 005,8 trln so‘m, kredit portfeli 642,8 trln so‘m, kapitali 148,9 trln so‘m va depozitlari 473,8 trln so‘mni tashkil etgan [3]. Demak, kreditlar bank aktivlarining muhim qismini egallab turgan sharoitda NPLlarni samarali boshqarish banklarning moliyaviy barqarorligi uchun strategik ahamiyatga ega.

Mazkur tadqiqotning maqsadi tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarishning mavjud mexanizmlarini tahlil qilish hamda NPLlarning paydo bo‘lishini oldini olish, erta aniqlash va samarali undirishga yo‘naltirilgan takomillashtirilgan strategik mexanizmni ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR SHARHI

Muammoli kreditlarni boshqarish masalasi bank risklarini boshqarish nazariyasining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Kredit riskini samarali boshqarishning asosiy maqsadi qarz oluvchining majburiyatlarini bajarmaslik ehtimolini oldindan aniqlash va bankning ehtimoliy yo‘qotishlarini cheklashdan iborat.

Basel qo‘mitasi muammoli aktivlarni aniqlashda kreditlarning tasniflanishi, ularning qiymatini baholash, zaxiralar shakllantirish va monitoringning izchil bo‘lishiga katta ahamiyat beradi. Basel yondashuvida muammoli ekspozitsiyalarni yagona mezonlar asosida aniqlash banklarning kredit portfeli sifati va risklarini taqqoslash imkoniyatini oshiradi [4].

Xalqaro tadqiqotlarda NPLlarni boshqarishning ikki asosiy yo‘nalishi ajratiladi. Birinchisi — **preventiv boshqaruv**, ya’ni kredit muammoga aylanishidan oldin riskni aniqlash. Ikkinchisi — **reaktiv boshqaruv**, ya’ni muammoli kredit yuzaga kelgandan keyin restrukturizatsiya, garovni realizatsiya qilish yoki boshqa undirish choralaridan foydalanish.

O‘zbekiston bank tizimiga oid xalqaro baholashlarda ham kredit portfeli sifatiga alohida e’tibor qaratilgan. IMFning 2025-yilgi O‘zbekiston bo‘yicha Article IV hisobotida 2025-yil mart holatida NPLlarning jami kreditlardagi ulushi 4,3 foiz ekani qayd etilgan va ayrim tarmoqlarda bu ko‘rsatkich yuqoriroq bo‘lgan. Hisobotda, shuningdek, IFRS asosida baholash qo‘llanganda NPL ko‘rsatkichi rasmiy statistikadan yuqoriroq bo‘lishi mumkinligi ta’kidlangan [5].

Shu jihatdan mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, NPLlarni boshqarish faqat undirish bo‘limining vazifasi emas. U kredit siyosati, risk-menejment, ichki nazorat, ma’lumotlar bazasi, raqamli analitika va bank boshqaruvi bilan bog‘langan kompleks tizim sifatida shakllanishi lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli, qiyosiy, statistik va analitik tahlil usullaridan foydalanildi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tijorat banklari kredit portfeli va muammoli kreditlari bo‘yicha ochiq statistik ma’lumotlari tadqiqotning asosiy axborot bazasini tashkil etdi. Shuningdek, muammoli aktivlarni aniqlash va boshqarish bo‘yicha Basel qo‘mitasining xalqaro yondashuvlari hamda xalqaro moliyaviy institutlarning materiallari o‘rganildi.

Tahlil jarayonida kredit portfeli hajmi, NPL hajmi, NPL ulushi va banklarning mulkchilik guruhlari bo‘yicha farqlar asosiy ko‘rsatkichlar sifatida tanlandi. NPL ulushining o‘zgarishi bank kredit portfeli sifatining umumiy indikatori sifatida baholandi.

Muammoli kreditlarni boshqarish strategiyalarini baholashda quyidagi mezonlar asos qilib olindi: muammoli kreditni erta aniqlash, qarzdorni segmentlash, qayta restrukturizatsiya qilish imkoniyati, raqamli monitoring, garov bilan ta’minlanganlik, undirish xarajatlari va kredit yo‘qotishlarini minimallashtirish. Mazkur mezonlar asosida NPLlarni boshqarishning preventiv va reaktiv mexanizmlari o‘zaro qiyoslandi.

Tadqiqotning muhim metodologik jihati shundan iboratki, NPL faqat yakuniy natija sifatida emas, balki kreditning butun hayotiy siklida shakllanadigan risk sifatida ko‘rib chiqildi. Shu asosda “kredit berish – monitoring – erta ogohlantirish – segmentlash – restrukturizatsiya – undirish – qayta baholash” zanjiri taklif qilindi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

2026-yil davomida O‘zbekiston bank tizimida kredit portfeli kengayishi bilan bir qatorda NPL hajmida ham o‘zgarishlar kuzatildi.

1-jadval.

O‘zbekiston tijorat banklarida kredit portfeli va NPL dinamikasi

Sana	Jami kredit portfeli, trln so‘m	NPL, trln so‘m	NPL ulushi, %	Kredit portfeliga nisbatan NPL o‘zgarishi
01.01.2026	604,0	18,1	3,0	—
01.03.2026	613,7	20,3	3,3	+0,3 p.b.
01.04.2026	623,3	19,9	3,2	+0,2 p.b.
01.05.2026	629,0	21,9	3,5	+0,5 p.b.
01.06.2026	636,0	23,6	3,7	+0,7 p.b.
01.07.2026	642,8	22,9	3,6	+0,6 p.b.

Jadvaldan ko‘rinadiki, 2026-yil boshidan 1-iyulgacha kredit portfeli 604,0 trln so‘mdan 642,8 trln so‘mgacha, ya’ni qariyb 6,4 foizga oshgan. NPL hajmi esa 18,1 trln so‘mdan 22,9 trln so‘mgacha ko‘paygan. Demak, muammoli kreditlar hajmining o‘sish sur’ati kredit portfeli o‘sishidan yuqori bo‘lgan.

Aynan shu holat NPL boshqaruvida faqat ulush ko‘rsatkichidan foydalanish yetarli emasligini ko‘rsatadi. Chunki kredit portfeli tez kengayganda NPL ulushi barqaror qolishi mumkin, biroq nominal muammoli aktivlar hajmi oshib, bank kapitali va likvidligiga qo‘shimcha bosim yuzaga kelishi mumkin.

2026-yil 1-iyul holatida davlat ulushi mavjud banklarda NPL 16,4 trln so‘mni, ularning kredit portfeli esa 422,3 trln so‘mni tashkil qilgan. Ushbu guruhda NPL ulushi 3,9 foiz bo‘lib, boshqa banklardagi ko‘rsatkichdan yuqoriroq shakllangan [1].

Bu holat banklar kredit portfelini mulkchilik shakli, kredit mahsuloti, qarzdorlar segmenti va tarmoqlar kesimida alohida boshqarishi kerakligini ko‘rsatadi.

Tijorat banklarida NPLlarni boshqarishning samarali tizimini shartli ravishda beshta o‘zaro bog‘langan strategik yo‘nalishga ajratish mumkin:

1. Preventiv strategiya. Kredit muammoga aylanishidan oldin riskni aniqlashga asoslanadi. Bunda qarz oluvchining daromadi, pul oqimi, qarz yuki, kredit tarixi va garov qiymati muntazam baholanadi.

2. Erta ogohlantirish strategiyasi. To‘lov intizomidagi kichik o‘zgarishlar, hisobvaraqlardagi pul oqimining pasayishi, qarzdorning aylanmasi kamayishi yoki boshqa risk indikatorlari asosida kreditning kelajakdagi muammoli holatga o‘tish ehtimoli aniqlanadi.

3. Restrukturizatsiya strategiyasi. Vaqtinchalik moliyaviy qiyinchilikka uchragan, biroq iqtisodiy faoliyatini davom ettirish imkoniyatiga ega qarzdorlarga to‘lov muddatini uzaytirish, grafikni qayta ko‘rib chiqish yoki boshqa moslashuvchan choralar qo‘llanadi.

4. Faol undirish strategiyasi. Qayta tiklanish ehtimoli past bo‘lgan kreditlar bo‘yicha qarzdorlikni undirish, garovni realizatsiya qilish va qonunchilikda belgilangan boshqa mexanizmlardan foydalanish nazarda tutiladi.

5. Raqamli monitoring strategiyasi. Bankning kredit portfelini real vaqtga yaqin rejimda kuzatish, avtomatik risk indikatorlarini shakllantirish va yuqori xavfli kreditlarni kredit menejeriga avtomatik yo‘naltirish mexanizmlarini joriy etishga asoslanadi.

Tadqiqot natijasida tijorat banklari uchun quyidagi boshqaruv modeli taklif etiladi:

Kredit ajratish → Riskni baholash → Monitoring → Erta ogohlantirish → Segmentlash → Individual choralar → Restrukturizatsiya/Undirish → Natijani baholash.

Mazkur modelning asosiy afzalligi shundaki, bank muammoli kreditni faqat NPLga aylangandan keyin emas, balki uning dastlabki belgilarida aniqlaydi.

Qarz oluvchilarni uchta asosiy guruhga ajratish maqsadga muvofiq:

Segment	Qarzdorning holati	Bank strategiyasi
A	To‘lov qobiliyati barqaror	Oddiy monitoring va kredit limitini saqlash
B	Vaqtinchalik moliyaviy qiyinchilik	Individual monitoring va restrukturizatsiya
C	To‘lov qobiliyati keskin pasaygan	Faol undirish, garovni baholash va zararlarni minimallashtirish

Bunday segmentatsiya bank resurslarini barcha qarzdorlarga bir xil sarflashning oldini oladi. Masalan, moliyaviy holati vaqtinchalik yomonlashgan, lekin faoliyati iqtisodiy jihatdan barqaror mijozga darhol undirish choralarini qo‘llash bank uchun ham, mijoz uchun ham samarasiz bo‘lishi mumkin.

Shu sababli **B segmentdagi mijozlar bilan restrukturizatsiya ishlari kuchaytirilishi**, C segmentdagi mijozlar bo‘yicha esa undirish mexanizmlari tezlashtirilishi kerak.

Raqamli texnologiyalar NPL boshqaruvining samaradorligini oshirish uchun muhim vositaga aylanmoqda. Banklarda kredit monitoringini avtomatlashtirish orqali katta hajmdagi mijozlar ma’lumotlarini tezkor qayta ishlash va risk indikatorlarini aniqlash imkoniyati paydo bo‘ladi.

Bunda quyidagi ma’lumotlardan foydalanish mumkin:

- kredit to‘lovlari tarixi;
- mijozning bank hisobvaraqlaridagi pul oqimi;
- kredit yukining o‘zgarishi;
- daromad va xarajatlar dinamikasi;
- garov qiymatining o‘zgarishi;
- mijozning boshqa moliyaviy majburiyatlari;
- kredit tarixidagi kechikishlar.


Natijada bankda **Early Warning System — EWS**, ya’ni erta ogohlantirish tizimini shakllantirish mumkin.



1-rasm. NPLlarni boshqarish strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari

Diagrammadan ko‘rinadiki, NPLlarni boshqarishda eng yuqori ustuvorlikni kredit muammoga aylangandan keyingi undirishga emas, balki **erta ogohlantirish, raqamli monitoring va qarzdorlarni segmentlashga** berish maqsadga muvofiq.

2026-yil 1-iyul holatida davlat ulushi mavjud banklarning jami kredit portfeli 422,3 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lib, bu bank tizimidagi jami kreditlarning 66 foiziga teng. Mazkur banklarda NPL hajmi 16,4 trln so‘m yoki jami NPLlarning qariyb 72 foizini tashkil qilgan [1].



2-rasm. 2026-yil 1-iyul holatiga NPLlarning banklar guruhlari bo‘yicha taqsimoti

Mazkur tarkib davlat ulushi mavjud banklarda kredit portfeli katta bo‘lganligi bilan izohlanadi. Biroq NPLlarning yuqori konsentratsiyasi ushbu banklarda kredit riskini boshqarish tizimlarini yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Bu yerda muhim jihat shundaki, muammoni faqat NPL hajmi orqali baholash noto‘g‘ri bo‘ladi. NPLning kredit portfeliga nisbati, kreditning ta’minlanganligi, qayta tiklanish ehtimoli, zaxiralar bilan qoplanishi va qarzdorning real pul oqimi birgalikda baholanishi kerak.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarish strategiyasini takomillashtirish uchun quyidagi yo‘nalishlarni ustuvor deb hisoblash mumkin.

Birinchidan, kredit berishdan oldingi tahlilni kuchaytirish. Qarzdorning faqat garov ta’minotiga emas, balki real pul oqimi va qarzni qaytarish qobiliyatiga asoslangan baholash tizimi kuchaytirilishi lozim.

Ikkinchidan, Early Warning Systemni joriy etish. Kredit to‘lovlaridagi kechikish, aylanmaning pasayishi, hisobvaraqlardagi mablag‘larning kamayishi va boshqa indikatorlar asosida avtomatik signal shakllantirilishi kerak.

Uchinchidan, NPL portfelini segmentlash. Barcha muammoli kreditlar uchun bir xil undirish strategiyasidan voz kechib, qarzdorning moliyaviy holati va tiklanish imkoniyatiga qarab individual yondashuv qo‘llash zarur.

To‘rtinchidan, restrukturizatsiya samaradorligini oshirish. Vaqtinchalik qiyinchilikka duch kelgan, ammo biznes modeli barqaror qarzdorlarga moslashtirilgan to‘lov grafiklarini ishlab chiqish bank yo‘qotishlarini kamaytirishi mumkin.

Beshinchidan, raqamli kredit monitoringini rivojlantirish. Bankning kredit portfeli bo‘yicha yagona dashboard shakllantirilib, NPL, kechikishlar, restrukturizatsiya qilingan kreditlar, garov qoplamasi va qarzdor segmentlari real vaqtga yaqin rejimda kuzatilishi lozim.

Oltinchidan, NPL boshqaruvini bankning kapital va risk-appetiti bilan bog‘lash. 2026-yil 1-iyul holatida bank tizimining kapital yetarliligi 18,5 foizni tashkil etgan [10]. Shuning uchun NPLlarning o‘sishi kredit portfeli kengayishi bilan birga kapitalga bo‘ladigan ehtimoliy bosim nuqtayi nazaridan ham baholanishi kerak.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarish strategiyasini faqat NPLlarni undirishga yo‘naltirish zamonaviy bank faoliyati talablariga to‘liq javob bermaydi. Samarali tizim kredit berishdan oldingi baholash, kreditdan foydalanish davridagi monitoring, muammoli holatni erta aniqlash, qarzdorlarni segmentlash, restrukturizatsiya va undirish jarayonlarini yagona tizimga birlashtirishi lozim.

O‘zbekiston bank tizimida 2026-yil 1-iyul holatiga NPL ulushi 3,6 foizni tashkil etgani kredit portfeli sifatining umumiy darajasi nazorat qilinayotganini ko‘rsatadi. Biroq NPLning nominal hajmi 22,9 trln so‘mga yetgani sababli muammoli aktivlarni boshqarish masalasi o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda [1].

Taqdiqotga ko’ra, kelgusida banklarning NPL boshqaruvida **“oldini olish – erta aniqlash – segmentlash – individual yechim – monitoring – undirish – qayta baholash”** tamoyiliga asoslangan integratsiyalashgan modelni joriy etish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv bankning undirish xarajatlarini kamaytirish, kredit portfeli sifatini yaxshilash va kapitalning riskka mos daromadliligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, raqamli monitoring tizimlarini rivojlantirish NPL boshqaruvining keyingi bosqichidagi asosiy yo‘nalishlardan biri bo‘lishi kerak. Chunki kredit riskini muammo yuzaga kelgandan keyin emas, balki uning dastlabki indikatorlari paydo bo‘lgan vaqtda aniqlash bank uchun iqtisodiy jihatdan samaraliroqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to‘g‘risida 2026-yil 1-iyul holatiga ma’lumot. Toshkent, 2026.
2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to‘g‘risida 2026-yil 1-yanvar holatiga ma’lumot. Toshkent, 2026.
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Information on major indicators of commercial banks as of July 1, 2026. Tashkent, 2026.
4. Basel Committee on Banking Supervision. *Prudential Treatment of Problem Assets – Definitions of Non-performing Exposures and Forbearance*. Bank for International Settlements, 2017.
5. International Monetary Fund. *Republic of Uzbekistan: 2025 Article IV Consultation—Press Release; and Staff Report*. IMF Staff Country Reports, 2025.
6. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to‘g‘risida 2026-yil 1-mart holatiga ma’lumot. Toshkent, 2026.
7. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to‘g‘risida 2026-yil 1-aprel holatiga ma’lumot. Toshkent, 2026.
8. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to‘g‘risida 2026-yil 1-may holatiga ma’lumot. Toshkent, 2026.
9. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to‘g‘risida 2026-yil 1-iyun holatiga ma’lumot. Toshkent, 2026.
10. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. *Capital adequacy of the banking sector*. Tashkent, 2026.
11. Basel Committee on Banking Supervision. *Core Principles for Effective Banking Supervision*. Bank for International Settlements.
12. Basel Committee on Banking Supervision. *Guidelines on Credit Risk and Accounting for Expected Credit Losses*. Bank for International Settlements.
13. International Monetary Fund. *Financial Soundness Indicators*. Washington, DC: IMF.
14. World Bank. *Financial Sector Assessment and Banking Sector Development*. Washington, DC: World Bank.
15. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. *Financial Soundness Indicators of the Banking System of the Republic of Uzbekistan*. Tashkent, 2026.

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Baymuratova Zina Aqilbekovna Qoraqalpoq davlat universiteti Moliya va moliyaviy texnologiyalar kafedrasi dotsent, iqtisod fanlari nomzodi / Баймуратова Зина Акилбековна Каракалпакский государственный университет Кафедра финансов и финансовых технологий доцент, кандидат экономических наук / Baymuratova Zina Aqilbekovna Karakalpak State University Department of Finance and Financial Technologies Associate Professor, Candidate of Economic Sciences

E-mail: baymuratovazina@gmail.com

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.10.10.2026.10 *Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi*

TURIZM KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISH STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH VA BIZNES JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH MODELI

Abdurahmanova Zuleyha Olimjanovna

МОДЕЛЬ ФОРМИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОЙ СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ ТУРИСТИЧЕСКИХ ПРЕДПРИЯТИЙ И УЛУЧШЕНИЯ БИЗНЕС-ПРОЦЕССОВ

Абдурахманова Зулейха Олимжановна

MODEL FORMIROVANIYA INNOVATSIONNOY STRATEGII RAZVITIYA TURISTICHESKIKH PREDPRIYATIY I ULUCHSHENIYA BIZNES-PROTSESSOV

Abdurahmanova Zuleyha Olimzhanovna

Annotatsiya. Mazkur maqolada turizm korxonalarining innovatsion rivojlanish strategiyasini shakllantirish hamda biznes jarayonlarini zamonaviy talablar asosida takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda turizm korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish, xizmatlar sifatini yaxshilash, mijozlar ehtiyojlariga tezkor moslashish va resurslardan samarali foydalanishni ta’minlashda innovatsion yondashuvlarning o‘rni asoslab berilgan. Innovatsion strategiyani shakllantirish jarayonida korxonaning ichki salohiyati, tashqi bozor muhiti, texnologik imkoniyatlari, iste’molchilar xulq-atvoridagi o‘zgarishlar hamda raqobat omillarini kompleks baholash zarurligi yoritilgan. Shuningdek, biznes jarayonlarini raqamlashtirish, avtomatlashtirish, xizmat ko‘rsatish jarayonlarini optimallashtirish va boshqaruv qarorlarini ma’lumotlarga asoslangan holda qabul qilishning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida turizm korxonalarining innovatsion rivojlanish strategiyasi va biznes jarayonlarini o‘zaro integratsiyalashgan holda boshqarishga asoslangan takomillashtirilgan model taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: turizm korxonalari, innovatsion rivojlanish, innovatsion strategiya, biznes jarayonlari, biznes jarayonlarini takomillashtirish, raqamlashtirish, xizmatlar sifati, raqobatbardoshlik, innovatsion model, iqtisodiy samaradorlik.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты формирования инновационной стратегии развития туристических предприятий и совершенствования бизнес-процессов на основе современных требований. Исследование обосновывает роль инновационных подходов в повышении конкурентоспособности туристических предприятий, улучшении качества услуг, быстрой адаптации к потребностям клиентов и обеспечении эффективного использования ресурсов. В процессе формирования инновационной стратегии подчеркивается необходимость комплексной оценки внутреннего потенциала предприятия, внешней рыночной среды, технологических возможностей, изменений в поведении потребителей и конкурентных факторов. Также анализируется влияние цифровизации, автоматизации бизнес-процессов, оптимизации сервисных процессов и управления управленческими решениями на основе данных на экономическую эффективность. В результате исследования предложена усовершенствованная модель инновационной стратегии развития туристических предприятий и бизнес-процессов на основе интегрированного управления. Эта модель охватывает этапы постановки стратегических целей, отбора инновационных проектов, координации ресурсов, оценки эффективности процессов и мониторинга результатов. Такой подход создает организационно-экономическую основу для повышения инновационной активности в туристических предприятиях, оптимизации операционных затрат и долгосрочного устойчивого развития.

Ключевые слова: предприятия туризма, инновационное развитие, инновационная стратегия, бизнес-процессы, совершенствование бизнес-процессов, цифровизация, качество обслуживания, конкурентоспособность, инновационная модель, экономическая эффективность.

Abstract. This article examines the theoretical and practical aspects of formulating innovation-driven development strategies for tourism enterprises and improving business processes in line with modern requirements. The study substantiates the role of innovative approaches in enhancing the competitiveness of tourism enterprises, improving service quality, rapidly adapting to customer needs, and ensuring the efficient use of resources. It highlights the necessity of comprehensively assessing an enterprise's internal potential, the external market environment, technological capabilities, shifts in consumer behavior, and competitive factors during the formulation of an innovation strategy. Furthermore, the study analyzes the impact of digitizing and automating business processes, optimizing service delivery, and making data-driven management decisions on economic efficiency. Based on the research findings, an improved model is proposed for managing tourism enterprises that integrates innovation development strategies with business processes. This model encompasses stages such as setting strategic goals, selecting innovation projects, coordinating resources, evaluating process efficiency, and monitoring results. This approach creates an organizational-economic foundation for enhancing innovation activity, optimizing operating costs, and ensuring long-term sustainable development within tourism enterprises.

Keywords: tourism enterprises, innovation development, innovation strategy, business processes, business process improvement, digitalization, service quality, competitiveness, innovation model, economic efficiency.

KIRISH

Bugungi kunda turizm xizmatlari bozorida raqobatning kuchayishi, turistlarning individual ehtiyojlari va xizmat ko‘rsatish sifatiga bo‘lgan talablarning ortishi turizm korxonalaridan biznes jarayonlarini innovatsiyalar asosida qayta tashkil etishni talab qilmoqda. Ayniqsa, raqamli platformalar, elektron bronlashtirish, sun’iy intellekt, ma’lumotlar tahlili va avtomatlashtirilgan boshqaruv vositalarining kengayishi korxonalarning innovatsion rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish hamda uni amaliy biznes jarayonlari bilan integratsiyalash masalasini dolzarb yo‘nalishga aylantirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini iqtisodiyotning strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida rivojlantirishga qaratilgan muhim huquqiy asoslar yaratilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmonida barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, xizmatlar sohasini rivojlantirish va zamonaviy iqtisodiy mexanizmlardan foydalanish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilangan[1].

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi “Turizm yo‘nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-238-son qarori turizm sohasidagi tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash va sohani boshqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan[2].

Bundan tashqari, 2024-yil 18-iyuldagi “Turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-269-son qarorida turizm korxonalari uchun zamonaviy bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish belgilangan[3]. 2024-yil 18-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini yanada oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-102-son Farmoni esa turizm infratuzilmasini takomillashtirish va turistlar oqimini kengaytirish vazifalarini belgilaydi. Shu jihatdan turizm korxonalarining innovatsion rivojlanish strategiyasini biznes jarayonlarini takomillashtirish bilan uyg‘unlashtiruvchi ilmiy-amaliy modelni ishlab chiqish mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi[4].

ADABIYOTLAR SHARHI

Turizm korxonalarining innovatsion rivojlanishi, raqamli transformatsiyasi va biznes jarayonlarini takomillashtirish masalalari zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda turli nazariy va amaliy yondashuvlar asosida o‘rganilmoqda. Shodiyev turizm sohasining barqaror rivojlanish istiqbollarini prognozlash masalasini tadqiq etib, turizm rivojlanishiga ta’sir etuvchi iqtisodiy, institutsional va boshqaruv omillarining o‘zaro bog‘liqligiga e’tibor qaratgan. Muallif Samarqand viloyati misolida turizm rivojlanishining istiqbolli yo‘nalishlarini prognozlashga urg‘u beradi. Mazkur yondashuv turizm sohasining uzoq muddatli rivojlanish tendensiyalarini aniqlash uchun muhim bo‘lsa-da, korxona darajasida innovatsion strategiya va biznes jarayonlarini yagona model asosida uyg‘unlashtirish masalasini to‘liq ochib bermaydi[5].

Kamolova va hammualliflar ekoturizmni rivojlantirishda innovatsion boshqaruv usullarini tadqiq etib, aqlli boshqaruv tizimlari, ekologik monitoring, resurslardan samarali foydalanish hamda innovatsion jarayonlarga asoslangan boshqaruv qarorlarining ahamiyatini asoslaydi. Ushbu tadqiqot innovatsion boshqaruvning tashkiliy jihatlarini kengaytiradi[6]. Shu bilan birga, Kamolova (2026) turizm xizmatlari bozorining shakllanishi va rivojlanish xususiyatlarini o‘rganib, turizm bozori subyektlari, raqamlashtirish, innovatsion texnologiyalar va xizmatlar sifatining o‘zaro bog‘liqligini yoritadi[7]. Bu qarashlar turizm korxonalarining tashqi bozor sharoitlariga moslashish mexanizmlarini tushuntirish uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xorijiy tadqiqotlarda turizm korxonalarining raqamli transformatsiyasi va yuqori sifatli rivojlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlik yanada aniqroq tahlil qilinmoqda. Wang, Zhang va Tian Xitoyning 2013–2023-yillardagi turizm kompaniyalari ma’lumotlari asosida raqamli-intellektual transformatsiyaning turizm korxonalarining yuqori sifatli rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini aniqlagan. Tadqiqotchilar moliyaviy cheklovlarning

kamayishi ushbu ta’sirning muhim mexanizmlaridan biri ekanligini ko‘rsatadi. Mazkur natija raqamlashtirishni faqat texnologik yangilanish emas, balki korxonaning moliyaviy va iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytiruvchi omil sifatida baholash zarurligini ko‘rsatadi[8].

Abdul Latip va hammualliflar rivojlanayotgan mamlakat sharoitida turizm mikrokorxonalarida raqamli texnologiyalarni integratsiyalash sabablarini tadqiq etib, bozorni kengaytirish, operatsion samaradorlikni oshirish, mijozlar tajribasini yaxshilash, ko‘nikmalarni rivojlantirish va daromadni ko‘paytirish kabi asosiy yo‘nalishlarni aniqlagan. Ushbu yondashuv raqamli texnologiyalarni joriy etishning korxona biznes jarayonlariga bevosita ta’sirini ko‘rsatishi bilan ahamiyatlidir. Ayniqsa, raqamli vositalarning mijozlar bilan ishlash va operatsion jarayonlarni optimallashtirishdagi roli maqolamiz mavzusi bilan bevosita bog‘lanadi[9].

Ndlovu, Sifolo va Tshipala esa sun’iy intellekt va barqaror rivojlanishning kichik va o‘rta turizm korxonalaridagi o‘zaro bog‘liqligini bibliometrik tahlil asosida o‘rgangan. Tadqiqot natijalarida sun’iy intellekt, xususan generativ AI texnologiyalarining mijozlar bilan muloqot, kontent yaratish va innovatsion faoliyatdagi ahamiyati ortib borayotgani ko‘rsatilgan. Shu bilan birga, mualliflar mavjud tadqiqotlarning katta qismi yirik turizm korxonalariga yo‘naltirilgani va kichik hamda o‘rta korxonalarning o‘ziga xos cheklovlari yetarlicha hisobga olinmayotganini ta’kidlaydi[10].

METODOLOGIYA

Tadqiqotda tizimli, qiyosiy va statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Turizm korxonalarining innovatsion rivojlanishiga ta’sir etuvchi tashkiliy, iqtisodiy va texnologik omillar o‘rganildi. Rasmiy statistik ma’lumotlar asosida turizm xizmatlari eksporti, turistlar oqimi va xizmat ko‘rsatish hajmining dinamikasi tahlil qilindi. Shuningdek, xorijiy va mahalliy ilmiy tadqiqotlar qiyosiy o‘rganilib, innovatsion strategiya va biznes jarayonlarini integratsiyalash modeli shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Turizm korxonalarining innovatsion rivojlanishi va biznes jarayonlarini takomillashtirish samaradorligini baholashda turizm xizmatlariga bo‘lgan talab, turistik korxonalar tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar hajmi hamda turizm xizmatlari eksportining o‘zgarish dinamikasini birgalikda tahlil qilish muhim hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy ma’lumotlari asosida 2020–2025-yillardagi asosiy ko‘rsatkichlar quyidagi jadvalda keltirilgan.

1-jadval

O‘zbekistonda turizm sohasining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari dinamikasi

Ko‘rsatkichlar	Yillar					
	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Turizm xizmatlari eksporti, mln AQSH doll.	255,8	422,1	1609,8	2143,1	3519,0	4880,3
Turistik firma va tashkilotlar tomonidan xizmat ko‘rsatilganlar soni, ming kishi	212,3	577,8	673,7	1157,1	1972,9	1981,7
O‘zbekistonga turistik maqsadda kirib kelgan xorijiy fuqarolar soni, ming kishi	1504,1	1881,3	5232,8	6626,3	7957,2	11679,6

1-Jadval ma’lumotlari turizm sohasida 2020-yildan keyingi davrda sezilarli tiklanish va o‘sish jarayoni yuz berganini ko‘rsatadi. Xususan, turizm xizmatlari eksporti 2020-yildagi 255,8 mln AQSH dollaridan 2025-yilda 4 880,3 mln AQSH dollariga yetgan. Natijada ushbu ko‘rsatkich qariyb 19 baravarga oshgan. Ayniqsa, 2021–2022-yillarda eksportning 422,1 mln dollardan 1 609,8 mln dollargacha keskin ko‘tarilishi turizm bozoridagi faollikning tiklanganini ko‘rsatadi. 2025-yilda esa 2024-yilga nisbatan turizm xizmatlari eksporti qariyb 38,7 foizga oshgan.

Turistik firma va tashkilotlar tomonidan xizmat ko‘rsatilganlar sonida ham ijobiy dinamika kuzatiladi. Mazkur ko‘rsatkich 2020-yilda 212,3 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib 1 981,7 ming kishiga yetgan. Demak, olti yillik davrda turistik tashkilotlarning bevosita xizmat ko‘rsatish hajmi qariyb 9,3 baravar oshgan. Biroq 2024-yildagi 1 972,9 ming kishidan 2025-yilda 1 981,7 ming kishiga o‘sish juda past bo‘lgan. Bu holat turizm korxonalarida mavjud mijozlar oqimini shunchaki ko‘paytirishdan tashqari, xizmatlarning individuallashuvi, raqamlashtirilishi va biznes jarayonlarining samaradorligini oshirish zarurligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, O‘zbekistonga turistik maqsadda kirib kelgan xorijiy fuqarolar soni 2020-yildagi 1 504,1 ming kishidan 2025-yilda 11 679,6 ming kishiga yetgan. Bu davrda xorijiy turistlar oqimi qariyb 7,8 baravar oshgan. 2025-yilning o‘zida ushbu ko‘rsatkich 2024-yilga nisbatan 46,8 foizga ko‘paygan[11].

Mazkur ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi nisbat turizm korxonalari uchun muhim iqtisodiy xulosani beradi: turistlar oqimining jadal kengayishi korxonalar oldiga xizmatlarni tezkor tashkil etish, bronlashtirish va mijozlar bilan ishlash jarayonlarini avtomatlashtirish, xizmat ko‘rsatish sifatini standartlashtirish hamda ma’lumotlardan boshqaruv qarorlarida foydalanish talabini kuchaytirmoqda. Demak, turizm bozoridagi o‘sishning o‘zi korxonalarning innovatsion rivojlanish strategiyasini biznes jarayonlari bilan uzviy bog‘lashni taqozo etadi.

Shuningdek, xizmatlar eksportining tarkibida “Safarlar (turizm)” yo‘nalishi 2025-yilda 4 880,3 mln AQSH dollarini tashkil etgan bo‘lib, bu xizmatlar

eksportining muhim qismini shakllantirgan. Umumiy xizmatlar eksporti esa 2025-yilda 10 197,0 mln AQSH dollariga yetgan.

Shundan kelib chiqib, turizm korxonalarining innovatsion rivojlanish strategiyasi faqat yangi xizmatlarni joriy etish bilan cheklanmasligi, balki strategik rejalashtirish → biznes jarayonlarini raqamlashtirish → mijozlar bilan o‘zaro aloqani takomillashtirish → resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish → natijalarni monitoring qilish kabi o‘zaro bog‘langan jarayonlar majmuasi sifatida shakllantirilishi lozim. Aynan ushbu yondashuv maqolada taklif etilayotgan turizm korxonalarining innovatsion rivojlanish strategiyasi va biznes jarayonlarini takomillashtirish modelining iqtisodiy asosini tashkil etadi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari turizm korxonalarining innovatsion rivojlanishi bevosita biznes jarayonlarini qayta tashkil etish va boshqaruv mexanizmlarini zamonaviylashtirish bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Tahlil qilingan davrda turizm xizmatlari eksporti hamda xorijiy turistlar oqimining sezilarli darajada oshishi korxonalar oldida xizmat ko‘rsatish jarayonlarini yanada tezkor, moslashuvchan va mijozga yo‘naltirilgan shaklda tashkil etish zaruratini kuchaytirgan. Shu nuqtayi nazardan, innovatsion rivojlanish strategiyasi korxonaning alohida funksiyalarini takomillashtirish emas, balki marketing, bronlashtirish, xizmat ko‘rsatish, mijozlar bilan munosabatlar, to‘lov va boshqaruv jarayonlarini yagona tizimga birlashtirishni nazarda tutishi lozim.

Tadqiqotda taklif etilayotgan yondashuvning muhim jihati innovatsion strategiyani biznes jarayonlarining amaliy natijalari bilan bog‘lashdan iborat. Bunda raqamli texnologiyalardan foydalanish mijozlar haqidagi ma’lumotlarni tezkor tahlil qilish, talabni prognozlash, xizmatlarni individuallashtirish va operatsion xarajatlarni optimallashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, innovatsiyalarni joriy etish faqat texnologik yangilanish sifatida emas, balki tashkiliy boshqaruv, xodimlar malakasi va korporativ madaniyatni takomillashtirish jarayoni sifatida qaralishi kerak.

Natijada turizm korxonalarida strategik maqsadlar, innovatsion loyihalar, biznes jarayonlari va samaradorlik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlash korxonaning raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari turizm korxonalarining zamonaviy raqobat muhitida barqaror rivojlanishi innovatsion strategiyani ishlab chiqish bilangina emas, balki ushbu strategiyani korxonaning barcha biznes jarayonlariga tizimli ravishda integratsiyalash bilan belgilanadi, degan xulosaga kelish imkonini berdi. Statistik tahlil turizm xizmatlari eksporti va xorijiy turistlar oqimining sezilarli o‘sayotganini ko‘rsatib, korxonalar faoliyatida xizmat ko‘rsatish tezligi, sifati, moslashuvchanligi va boshqaruv samaradorligini oshirish zaruratini kuchaytirayotganini tasdiqladi.

Tadqiqot davomida innovatsion rivojlanish strategiyasining asosiy tarkibiy qismlari sifatida bozor talabini tahlil qilish, innovatsion imkoniyatlarni aniqlash, raqamli texnologiyalarni tanlash, biznes jarayonlarini qayta loyihalashtirish, resurslarni muvofiqlashtirish va natijalarni monitoring qilish yo‘nalishlari belgilandi. Shu asosda turizm korxonalarining innovatsion rivojlanish strategiyasini biznes jarayonlari bilan uzviy bog‘lovchi takomillashtirilgan modelni shakllantirish maqsadga muvofiq.

Mazkur modelning amaliy ahamiyati innovatsion yechimlarni mijozlar ehtiyojlari, operatsion samaradorlik va iqtisodiy natijalar bilan bog‘lash imkoniyatida namoyon bo‘ladi. Raqamlashtirish, avtomatlashtirish, sun’iy intellekt va ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv vositalaridan foydalanish xizmatlarni individuallashtirish, xarajatlarni optimallashtirish va boshqaruv qarorlarining tezkorligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada strategik boshqaruv va operatsion jarayonlarning integratsiyasi turizm korxonalarining raqobatbardoshligi hamda uzoq muddatli innovatsion rivojlanishi uchun tashkiliy-iqtisodiy asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida PF-158-sonli farmoni(Lex.uz).

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.07.2023 yildagi “Turizm yo‘nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-238-sonli qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 18.07.2024 yildagi PQ-269-sonli qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston respublikasida turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini yanada oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 18.07.2024 yildagi PF-102-sonli Farmoni.

5. Shodiyev, K. (2024). Innovatsion iqtisodiyotda turizm sohasini barqaror rivojlanishini ta’minlash istiqbollarini bashoratlash. Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, 4(02), 123-135.

6. Kamolova, F., & Kamolova, Z. (2026, March). Ekoturizmni rivojlantirishda innovatsion boshqaruv usullari. In Scientific practical conference (Vol. 1, No. 3, pp. 425-433).

7. Kamolova, F. (2026, March). Turizm xizmatlari bozorining shakllanishi va rivojlanish xususiyatlari. in scientific practical conference (Vol. 1, No. 3, pp. 394-397).

8. Wang, J., Zhang, X., & Tian, Q. (2026). Digital-intelligent transformation, financing constraints, and the high-quality development of tourism enterprises. Finance Research Letters, 109485.

9. Abdul Latip, M. S., Trupp, A., Mohamad Noor, F. A., Stephenson, M. L., & Ismail, M. K. (2026). Evaluating the rationale underpinning digital technology integration among tourism micro-enterprises in a developing country: business owners' perspectives. Small Enterprise Research, 1-16.

10. Ndlovu, N., Sifolo, P. P. S., & Tshipala, N. (2026). Artificial intelligence and sustainability in small

and medium tourism enterprises (SMTES): A bibliometric review of their interplay.

11. O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qomitasi ma'lumotlari(Stat.uz).

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Abdurahmanova Zuleyha Olimjanovna Namangan davlat texnika universiteti "Turizm iqtisodiyoti" kafedrasi o'qituvchisi / Абдурахманова Зулейха Олимпжановна Наманганский государственный технический университет Преподаватель кафедры «Экономика туризма» / Abdurahmanova Zuleyha Olimzhanovna Namangan State Technical University Teacher of the Department of "Tourism Economics"

E-mail: zulayxoabduraxmanova7@gmail.com

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.10.10.2026.11 *Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik*

TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH VA MEHNAT UNUMDORLIGI O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK

Boburmirzo Ibrohimov

ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В БИЗНЕС-СТРУКТУРАХ И ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬЮ ТРУДА

Бобурмирзо Иброхимов

THE RELATIONSHIP BETWEEN THE USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN BUSINESS ENTITIES AND LABOR PRODUCTIVITY

Boburmirzo Ibrohimov

Annotatsiya. Mazkur maqolada tadbirkorlik subyektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi va mehnat unumdorligi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning iqtisodiy mazmuni hamda amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida raqamli texnologiyalarni biznes jarayonlariga joriy etish ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish, vaqt sarfini qisqartirish, axborot almashinuvini tezlashtirish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda xodimlarning mehnat natijadorligini yaxshilashning muhim omili sifatida qaraladi. Tadqiqotda raqamli texnologiyalardan foydalanishning mehnat unumdorligiga ta’sir etish mexanizmlari, ushbu jarayonda inson kapitali, xodimlarning raqamli ko‘nikmalari, texnologik infratuzilma va boshqaruv yondashuvlarining ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, tadbirkorlik subyektlarida raqamli vositalardan foydalanish natijasida mehnat unumdorligi o‘zgarishini baholashga xizmat qiluvchi asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar tizimi shakllantirilgan. Tadqiqot natijalari raqamlashtirish jarayonlarini samarali boshqarish, xodimlarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish va tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik subyektlari, raqamli texnologiyalar, mehnat unumdorligi, raqamlashtirish, raqamli kompetensiyalar, inson kapitali, biznes jarayonlari, iqtisodiy samaradorlik, texnologik infratuzilma, mehnat samaradorligi.

Аннотация. В данной статье рассматривается экономическое содержание и практические аспекты взаимосвязи между уровнем использования цифровых технологий в хозяйствующих субъектах и производительностью труда. В условиях современной экономики внедрение цифровых технологий в бизнес-процессы рассматривается как важный фактор автоматизации производственных и сервисных процессов, сокращения временных затрат, ускорения обмена информацией, повышения эффективности использования ресурсов и повышения производительности труда. В исследовании освещаются механизмы влияния использования цифровых технологий на производительность труда, важность человеческого капитала, цифровых навыков сотрудников, технологической инфраструктуры и подходов к управлению в этом процессе. Также сформирована система ключевых экономических показателей для оценки изменений производительности труда в результате использования цифровых инструментов в хозяйствующих субъектах. Результаты исследования служат основой для разработки научно-практических рекомендаций по эффективному управлению процессами цифровизации, развитию цифровых компетенций сотрудников и повышению экономической эффективности хозяйствующих субъектов.

Ключевые слова: хозяйствующие субъекты, цифровые технологии, производительность труда, цифровизация, цифровые компетенции, человеческий капитал, хозяйствующие процессы, экономическая эффективность, технологическая инфраструктура, эффективность труда.

Abstract. This article examines the economic content and practical aspects of the relationship between the level of use of digital technologies and labor productivity in business entities. In the modern economy, the introduction of digital technologies into business processes is considered an important factor for automating production and service processes, reducing time consumption, accelerating information exchange, increasing the efficiency of resource use, and improving the work efficiency of employees. The research highlights the mechanisms of impact of the use of

digital technologies on labor productivity, the importance of human capital, digital skills of employees, technological infrastructure and management approaches in this process. Also, a system of basic economic indicators has been formed that serves to evaluate changes in labor productivity as a result of the use of digital tools in business entities. The results of the research serve as a basis for the development of scientific and practical recommendations for effective management of digitization processes, development of digital competencies of employees, and improvement of the economic efficiency of business entities.

Keywords: business entities, digital technologies, labor productivity, digitization, digital competencies, human capital, business processes, economic efficiency, technological infrastructure, labor efficiency.

KIRISH

Bugungi kunda iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi tadbirkorlik subyektlari faoliyatining samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish va mehnat unumdorligini yuksaltirishning muhim omillaridan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalarning korxonalarning kundalik biznes jarayonlariga integratsiyalashuvi axborotni tezkor qayta ishlash, takrorlanuvchi operatsiyalarni avtomatlashtirish, boshqaruv qarorlarini takomillashtirish hamda xodimlarning vaqt va mehnat resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu jihatdan raqamli texnologiyalardan foydalanish bilan mehnat unumdorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ilmiy jihatdan tadqiq etish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

O‘zbekistonda mazkur yo‘nalish davlat siyosatining muhim ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilanmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni mamlakatda raqamli iqtisodiyotni jadal rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlariga zamonaviy raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va raqamli infratuzilmani rivojlantirishning strategik asoslarini belgilab berdi[1].

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmonida barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va inson salohiyatidan samarali foydalanishga yo‘naltirilgan ustuvor maqsadlar belgilangan[2]. 2026-yil 16-fevraldagi “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-21-son Farmoni esa mazkur strategik yo‘nalishlarni yangi bosqichda davom ettirishni nazarda tutadi[3]. Shu sababli tadbirkorlik subyektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi, uning xodimlar mehnat natijadorligiga ta’siri hamda mazkur bog‘liqlikni belgilovchi omillarni aniqlash ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tadbirkorlik subyektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning iqtisodiy samaradorlik va mehnat unumdorligiga ta’siri so‘nggi yillarda iqtisodiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Mavjud ilmiy adabiyotlarda ushbu masala raqamli transformatsiya, biznes jarayonlarini avtomatlashtirish, inson kapitali, raqamli kompetensiyalar va korxona samaradorligi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik nuqtayi nazaridan tadqiq etilgan.

Anvarovich va hammualiflar tadbirkorlik faoliyatida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali kichik biznes samaradorligini oshirish masalasini tadqiq etib, elektron tijorat, biznes jarayonlarini avtomatlashtirish, raqamli marketing, bulutli texnologiyalar va ma’lumotlar tahlilining amaliy ahamiyatini asoslagan. Mualliflar raqamlashtirish natijasida operatsion xarajatlarning qisqarishi, mijozlar bazasining kengayishi, savdo hajmining ortishi va boshqaruv qarorlari sifatining yaxshilanishini ta’kidlaydi. Ushbu yondashuv raqamli texnologiyalarning tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy natijalariga ta’sirini tushuntirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi[4].

Shaxzod va Boltayeva esa raqamli transformatsiyaning mehnat bozori va aholi daromadlariga ta’sirini, xususan, sun’iy intellektning mehnat unumdorligiga ta’sirini o‘rgangan. Ularning tadqiqotida texnologik taraqqiyot mehnat unumdorligi va daromadlarning oshishiga xizmat qilishi bilan birga, ayrim kasblarning qisqarishi va yuqori malakali kadrlarga talabning ortishi kabi tarkibiy o‘zgarishlarni ham yuzaga keltirishi qayd etiladi. Shu jihatdan inson kapitali va xodimlarning yangi texnologiyalarga moslashish qobiliyati raqamlashtirish samaradorligini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi[5].

Baxtiyorovna xizmat ko‘rsatish korxonalarining raqobatbardoshligini raqamli transformatsiya sharoitida tadqiq etib, raqamli texnologiyalar bilan bir qatorda innovatsion salohiyat, inson kapitali, raqamli infratuzilma va investitsion faollikning ahamiyatini asoslagan. Mazkur tadqiqot raqamlashtirishni alohida texnologik jarayon sifatida emas, balki korxonaning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari bilan bog‘liq kompleks jarayon sifatida baholash zarurligini ko‘rsatadi[6].

Xorijiy tadqiqotlarda raqamli transformatsiya va mehnat unumdorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik yanada aniqroq empirik usullar orqali o‘rganilgan. Zhou, Lyu va Li korxonalarda raqamli transformatsiyaning mehnat unumdorligiga ta’sirini biznes jarayonlarini qayta tashkil etish nuqtayi nazaridan tahlil qilgan. Tadqiqot natijalari raqamli transformatsiya mehnat unumdorligini oshirishini, bunda ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish, ortiqcha mehnat resurslarini kamaytirish, inson resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish hamda ichki nazorat mexanizmlarini takomillashtirish muhim vosita ekanligini ko‘rsatadi[7].

Varlamova va Larionova (2020) 2010–2018-yillar ma’lumotlari asosida AKTdan foydalanish va mehnat unumdorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni hududiy va

vaqt dinamikasi kesimida tadqiq qilgan. SAR va PVAR modellaridan foydalanilgan ushbu tadqiqotda tashkilotlarning internet texnologiyalaridan foydalanish ulushi hamda biznes jarayonlarining raqamlashtirilishi mehnat unumdorligining oshishi bilan bog‘liqligi aniqlangan. Shuningdek, real ish haqi va oliy ma’lumotli xodimlar ulushi ham mehnat unumdorligiga ta’sir qiluvchi muhim ijtimoiy-iqtisodiy omillar sifatida qayd etilgan[8].

Seclen-Luna, Castro Vergara va Lopez Valladares rivojlanayotgan mamlakat sharoitida raqamli texnologiyalarning korxonalar faoliyatiga ta’sirini Peru korxonalarining 2 970 ta kuzatuvi asosida OLS usulida baholagan. Mualliflar raqamli texnologiyalardan foydalanish bilan korxonalarning savdo hajmi va unumdorligi o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik mavjudligini aniqlagan. Ayniqsa, kichik va o‘rta biznes subyektlarida texnologiyalarning unumdorlik bilan statistik bog‘liqligi alohida ahamiyat kasb etishi ko‘rsatilgan[9].

METODOLOGIYA

Tadqiqotda tizimli, qiyosiy va statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Raqamli texnologiyalardan foydalanish hamda mehnat unumdorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik 2020–2024-yillar statistik ma’lumotlari asosida o‘rganildi. Tahlilda AKT sektorining yalpi qo‘shilgan qiymati, xodimlar soni va bir xodimga to‘g‘ri keladigan yalpi qo‘shilgan qiymat ko‘rsatkichlari qo‘llanildi. Shuningdek, ilmiy adabiyotlar tahlili asosida raqamlashtirishning mehnat samaradorligiga ta’sir qiluvchi omillari tizimlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadbirkorlik subyektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning iqtisodiy natijalarini baholashda mehnat unumdorligi alohida ahamiyatga ega. Chunki raqamli texnologiyalarni joriy etishning asosiy iqtisodiy samaralaridan biri xodimlarning mavjud vaqt va resurslardan samaraliroq foydalanishi, axborotni qayta ishlash tezligining oshishi hamda bir xodim hisobiga yaratiladigan iqtisodiy qiymatning ko‘payishida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekistonning AKT sektoridagi yalpi qo‘shilgan qiymat va xodimlar sonining o‘zgarishini tahlil qilish raqamlashtirish jarayonining iqtisodiy samaradorligini baholash uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

1-jadval

O‘zbekistonda AKT sektorining yalpi qo‘shilgan qiymati va mehnat resurslari dinamikasi

Yillar	AKT sektorida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat, mlrd so‘m	AKT sohasida faoliyat yurituvchi yuridik shaxslardagi xodimlar soni, kishi	1 xodimga to‘g‘ri keladigan yalpi qo‘shilgan qiymat, mln so‘m
2020	10 216,5	50 157	203,7
2021	13 049,6	53 782	242,6
2022	18 200,5	60 462	301,0
2023	26 099,4	71 627	364,4
2024	35 837,9	83 051	431,5

1-jadval ma’lumotlari O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan AKT sektorining iqtisodiy hajmi izchil kengayganini ko‘rsatadi. Xususan, AKT sektorida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat 2020-yildagi 10 216,5 mlrd so‘mdan 2024-yilda 35 837,9 mlrd so‘mga yetgan. Demak, mazkur davrda ko‘rsatkich qariyb 3,5 barobarga oshgan. Shu bilan birga, AKT sohasida faoliyat yurituvchi yuridik shaxslardagi xodimlar soni ham 50 157 kishidan 83 051 kishigacha ko‘paygan. E'tiborli jihati shundaki, yalpi qo‘shilgan qiymatning o‘sish sur’ati xodimlar sonining ko‘payish sur’atidan yuqori bo‘lgan. Buni bir xodimga to‘g‘ri keladigan yalpi qo‘shilgan qiymat ko‘rsatkichi ham tasdiqlaydi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, mazkur ko‘rsatkich 2020-yildagi 203,7 mln so‘mdan 2024-yilda 431,5 mln so‘mga oshgan. Ya’ni bir xodim hisobiga yaratilayotgan yalpi qo‘shilgan qiymat ikki barobardan ko‘proq ko‘paygan. Bu holat mehnat unumdorligi bilan raqamlashtirish jarayonlari o‘rtasidagi iqtisodiy bog‘liqlikni o‘rganish uchun muhim statistik asos yaratadi[10].

Biroq mazkur natijani faqat raqamli texnologiyalar ta’siri bilan izohlash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Mehnat unumdorligiga xodimlarning malakasi, investitsiyalar hajmi, boshqaruv sifati, kapital bilan qurollanganlik darajasi, bozor talabi va boshqa omillar ham ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli raqamli texnologiyalarning tadbirkorlik subyektlari mehnat unumdorligiga ta’sirini chuqurroq baholashda texnologiyalardan foydalanish darajasi bilan iqtisodiy natijalarni birgalikda tahlil qilish zarur.

Qo‘shimcha ravishda, Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, AKT sektorida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi 2020-yildagi 1,55 foizdan 2024-yilda 2,43 foizga oshgan. Bu esa raqamli faoliyatning milliy iqtisodiyotdagi iqtisodiy ahamiyati ham kuchayib borayotganini ko‘rsatadi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari tadbirkorlik subyektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish bilan mehnat unumdorligi o‘rtasida muhim iqtisodiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Raqamli vositalarning biznes jarayonlariga joriy etilishi ma’lumotlarni qayta ishlash tezligini oshirish, takrorlanuvchi operatsiyalarni avtomatlashtirish, xodimlarning vaqt sarfini kamaytirish va boshqaruv qarorlarini tezkor qabul qilish imkonini beradi. Natijada bir xodim hisobiga yaratiladigan iqtisodiy qiymatning ortishi uchun shart-sharoit shakllanadi.

Tahlil qilingan 2020–2024-yillar ma’lumotlari AKT sektorida yalpi qo‘shilgan qiymat xodimlar soniga nisbatan tezroq sur’atlarda oshganini ko‘rsatdi. Bir

xodimga to‘g‘ri keladigan yalpi qo‘shilgan qiymatning 203,7 mln so‘mdan 431,5 mln so‘mgacha ko‘tarilishi mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi oshganini ko‘rsatadi. Biroq ushbu o‘zgarishni faqat raqamli texnologiyalar bilan bog‘lash metodologik jihatdan yetarli emas. Xodimlarning malakasi, raqamli kompetensiyalari, investitsiyalar, boshqaruv sifati, texnologik infratuzilma va bozor sharoitlari ham mehnat unumdorligiga ta’sir ko‘rsatadi.

Shu bois tadbirkorlik subyektlarida raqamlashtirish samaradorligini baholashda texnologiyalardan foydalanish darajasi bilan bir qatorda mehnat unumdorligi, xarajatlar tejalishi, daromad o‘sishi va xodimlarning raqamli ko‘nikmalarini kompleks baholash maqsadga muvofiq. Bu yondashuv raqamli transformatsiyaning real iqtisodiy natijalarini aniqlash imkonini beradi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari tadbirkorlik subyektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish va mehnat unumdorligi o‘rtasida muhim iqtisodiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Raqamli texnologiyalarning biznes jarayonlariga joriy etilishi operatsiyalarni avtomatlashtirish, axborotni qayta ishlash tezligini oshirish, mehnat vaqtini tejash va mavjud inson resurslaridan samaraliroq foydalanish imkonini beradi. Shu sababli raqamlashtirish tadbirkorlik subyektlarida mehnat unumdorligini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida qaralishi mumkin.

2020–2024-yillar bo‘yicha tahlil qilingan statistik ma’lumotlar AKT sektorida yalpi qo‘shilgan qiymatning xodimlar soniga nisbatan yuqoriroq sur’atlarda o‘sganini ko‘rsatdi. Bir xodimga to‘g‘ri keladigan yalpi qo‘shilgan qiymatning 203,7 mln so‘mdan 431,5 mln so‘mgacha oshishi mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligining yaxshilanganini ifodalaydi. Biroq mazkur natijani faqat raqamli texnologiyalar ta’siri bilan izohlash mumkin emas. Inson kapitali, xodimlarning raqamli kompetensiyalari, investitsiyalar, boshqaruv sifati va texnologik infratuzilma ham muhim ta’sir omillari hisoblanadi.

Shu asosda tadbirkorlik subyektlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan bir qatorda xodimlarning raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirish, biznes jarayonlarini avtomatlashtirish, ma’lumotlarga asoslangan boshqaruvni kengaytirish va raqamli infratuzilmaga investitsiyalarni ko‘paytirish maqsadga muvofiq. Mazkur choralar raqamli transformatsiyaning iqtisodiy samaradorligini oshirish va mehnat unumdorligining barqaror o‘sishini ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi **“**Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6079-son farmoni(Lex.uz).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida PF-158-son farmoni(Lex.uz).
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.02.2026 yildagi “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-21-sonli Farmoni,
4. Anvarovich, Q. A., & Nizom o‘g‘li, S. S. (2026). TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI KICHIK BIZNES SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO ‘NALISHLARI. Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, 6(06), 43-52.
5. Shaxzod, G. A., & Boltayeva, S. (2025). SUN’IY INTELLEKTNING IQTISODIY FAROVONLIKKA TA’SIRI HAMDA AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHNING YANGI MEXANIZMLARI. Новости образования: исследование в XXI веке, 4(40), 1044-1052.
6. Baxtiyorovna, R. N. (2026). RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA XIZMAT KO ‘RSATISH KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI. Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика), (15. I), 2827-2837.
7. Zhou, Y., Lyu, J., & Li, L. (2025). Can digital transformation enhance labor productivity in enterprises: An analysis from the perspective of business process reengineering. PLoS One, 20(6), e0325484.
8. Varlamova, J., & Larionova, N. (2020). Labor Productivity in the Digital Era: A Spatial-Temporal Analysis. International Journal of Technology, 11(6), 1191.
9. Seclen-Luna, J. P., Castro Vergara, R. I., & Lopez Valladares, H. (2022). Effects of the use of digital technologies on the performance of firms in a developing country: are there differences between creative and manufacturing industries?. International Journal of Information Systems and Project Management, 10(1), 73-91.
10. O’zbekiston Respublikasi milliy statistika qomitasi ma’lumotlari(Stat.uz).
11. https://www.worldbank.org/ext/en/home

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Boburmirzo Ibrohimov Namangan davlat texnika universiteti “Turizm iqtisodiyoti” kafedrasi o‘qituvchisi PhD. / Бобурмирзо Иброхимов Наманганский государственный технический университет Преподаватель кафедры «Экономика туризма», кандидат наук. / Boburmirzo Ibrohimov Namangan State Technical University Teacher of the Department of "Tourism Economics" PhD.
Tel:+998975251009
E-mail: 24mirzobobur@gmail.com

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.10.10.2026.12 *Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik*

KOMMUNAL XIZMATLAR SOHASIDA KICHIK VA XUSUSIY KORXONALARNI O'RNI VA ROLI

Bozorov Dadaxon Berdimurodovich

РОЛЬ И МЕСТО МАЛЫХ И ЧАСТНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В СФЕРЕ МУНИЦИПАЛЬНЫХ УСЛУГ

Бозоров Дадахон Бердимуродович

THE ROLE AND PLACE OF SMALL AND PRIVATE ENTERPRISES IN THE FIELD OF MUNICIPAL SERVICES

Bozorov Dadakhon Berdimurodovich

Annotatsiya: Ushbu maqolada kommunal xizmatlar sohasida kichik va xususiy korxonalarni rivojlantirish holatlari tahlil qilingan va o'rganib chiqiladi. Muallif xizmatlar sohasida kichik va xususiy korxonalarni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash bu sohada raqobat muhitini yaratish maqsadida yangi innovatsion texnologiyalarni tadbiq qilish holatlari o'rganiladi va shu asosida ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Xizmat ko'rsatish, kichk korxona, moslashuvchanlik, innovatsiyalar, barqarorlik, iqtisodiy tahlil, modernizatsiya qilish

Аннотация: В данной статье анализируется и изучается развитие малых и частных предприятий в сфере муниципальных услуг. Автор исследует внедрение новых инновационных технологий с целью создания конкурентной среды в этой области для поддержки развития малых и частных предприятий в сфере услуг, и на этой основе формулируются научные выводы.

Ключевые слова: Сервис, малый бизнес, гибкость, инновации, устойчивость, экономический анализ, модернизация.

Annotation: This article analyzes and studies the development of small and private enterprises in the field of municipal services. The author studies the implementation of new innovative technologies in order to create a competitive environment in this field to support the development of small and private enterprises in the field of services, and on this basis, scientific conclusions are developed.

Keywords: Service, small business, flexibility, innovation, sustainability, economic analysis, modernization

KIRISH

Xizmat ko‘rsatish sohasida kichik korxonalarni yo‘lga qo‘yish iqtisodiyotning eng dolzarb va ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki xizmat ko‘rsatish sohasida kichik korxonalar faoliyatining ko‘payishi mamlakatning aholi bandligini ta’minlashda, iqtisodiy moslashuvchanlikda, iqtisodiy barqarorlikka va innovatsiyalarni joriy qilishda juda katta ro‘l o‘ynaydi. Xizmat ko‘rsatish korxonalari mamlakat iqtisodiyotiga katta hissa qo‘sha oladi. Chunki iqtisodiyotda kichik korxonalarning rivojlanishi yangi innovatsiyalarga yo‘l ochib beradi. Ishlab chiqarish kuchalarining ortishi va jamiyatning rivojlanishi bilan xizmat sohasining rivojlanishi vujudga keladi. Xizmat ko‘rsatish sohasi faqat aholi bandligini oshiribgina qolamasdan mamlakat YaIM da xizmatlar ulushini oshirgan holda iqtisodiyotni diversifikatsiya qila oladi. kichik korxonalar xizmat ko‘rsatish sohasining yuragi hisoblanadi. Xizmat ko‘rsatish sohasida kichik korxonalar innovatsiyalarni joriy qilish uchun juda mos yo‘nalish hisoblanadi. Bunda iqtisodiy xizmatlarning sifat darajalari oshishiga shuningdek raqobatbardoshliligi yanada ko‘payishiga sabab bo‘la oladi. Kichik xizmat ko‘rsatish korxonalari nafaqat daromad manbai, balki jamiyatning turmush darajasini belgilovchi asosiy tushunchadir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kommunal va maishiy xizmatlar ko’rsatish sohasida kichik korxonalarni tashkil etish va rivojlantirish haqida fan vakillari izlanishlar olib borganlar.

M.Porterning fikricha, “kichik firmalar moslashuvchanlik bo‘yicha yirik firmalardan ustun turadi. Ular bir necha kun ichida mahsulot dizaynini o‘zgartirishi, yangi bozor segmentiga chiqishi yoki narx siyosatini qayta ko‘rib chiqishi mumkin” [1]

Iqtisodchi olim Christopher Lovelock fikricha, “U xizmat ko‘rsatishni shunchaki harakat emas, balki - mijoz uchun qiymat yaratish jarayoni” [2] Ch.Lovelock xizmatlarni moddiy bo‘lmagan, lekin iste’molchi

hayotida aniq ijobiy o‘zgarish yasaydigan tajriba sifatida ta’riflab o‘tadi.

Olim Theodore Levitt ham xizmat ko‘rsatish sohasi haqida o‘z fikrini bayon qilgan. U “xizmat ko‘rsatmaydigan sohaning o‘zi yo‘q” [3] degan go‘yani ilgari surgan. Levittga ko‘ra, hatto korxonada mahsulot sotayotgan tadbirkor ham aslida servis bilan shug‘ullanadi, chunki mijozga faqat buyum emas, uning yechimi ham kerak.

Mintzberg.H fikricha: “Kichik tashkilotlar oddiy tuzilma va markazlashgan boshqaruv tufayli strategik o‘zgarishlarni bir zumda amalga oshiradi. Bu ularni innovatsion muhitda eng mos tashkilot shakliga aylantiradi.” [4] deb fikr yuritgan.

Freeman ham innovatsion tizimlar nazariyasida “Kichik firmalarning moslashuvchanligi ularga ‘pioner’ bo‘lib, yangi texnologiyalarni birinchi bo‘lib qo‘llash imkonini beradi. Bu esa vaqtinchalik monopoliyaga olib keladi.” [5] deb aytib o‘tgan. Bundan ko‘rinib turibdiku kichik korxonalar faoliyati asosan innovatsion tizim va texnologriyalar asosida vujudga keladi va yuritiladi. Bu esa o‘z o‘rnida korxonaning bozordagi o‘rnini topishga yordam beradi.

Marshall (klaster g‘oyasining asoschisi): “Kichik firmalar bir-biriga yaqin joylashganda, ular bilimning oqishi dan foydalanadi. Bu ularga xarajatlarni kamaytirish va innovatsion mahsulotlarni tezroq yaratish imkonini beradi.” [6]

J.Stiglitz fikricha: “Bozor muvaffaqiyatsizligi innovatsion kichik korxonalarga nisbatan eng keskin namoyon bo‘ladi. Davlat subsidiyalari va kafolatlarisiz ular omon qololmaydi”. [7] Bunda olim innovatsion kichik biznesning o‘ta nozik ekanligiga to‘xtalib o‘tgan va davlat ko‘magi shartligini aytib o‘tgan. Bu sohada bozor muvaffaqiyatsizlikka uchrashi juda ko‘p hollarda vujudga keladi. Chunki innovatsiyalar sohasida yangi go‘yalar juda xatarli hisoblanadi.

Hozirgi kunda xizmat ko‘rsatish sohasini raqamli texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo‘maydi. E.Rogers aytishicha: “Raqamli texnologiyalar innovatsiyalarning tarqalish tezligini keskin oshirdi. Kichik korxonalar endi katta marketing byudjetiga ega bo‘lmasa ham, ijtimoiy tarmoqlar orqali millionlab mijozlarga yetib bora oladi” [8] deb fikr yuritgan.

M.G. Lapusta – “Kichik korxonalar xizmatlar sohasida ‘bozorning elastikligini’ ta’minlaydi. Ular yirik korporatsiyalar uchun qiziq bo‘lmagan mayda xizmatlar segmentini to‘liq qoplaydi va monopoliyaga yo‘l qo‘ymaydi.”[9]

V.S. Balabanov – “Xizmat ko‘rsatishdagi kichik biznes — bu o‘rta sinfni shakllantiruvchi asosiy laboratoriya. Bu sohada innovatsiyalarni joriy etish xarajatlari ishlab chiqarishga qaraganda 2 barobar kam, samaradorligi esa yuqori.”[10]

Iqtisodchi olim M.M.Pardaev: U xizmat ko‘rsatishni “iqtisodiyotning barqarorligini ta’minlovchi drayver” deb hisoblagan. “Xizmat ko‘rsatish sohasi kichik biznes uchun eng qulay maydon hisoblanadi, chunki bu sohada kapitalning aylanish tezligi ishlab chiqarishga nisbatan 3-4 barobar yuqori” [11] deb aytib o‘tgan. Pardaev xizmat ko‘rsatish sifatini baholashning iqtisodiy-matematik usullarini taklif qilgan va sohaning rivojlanishi bevosita aholi turmush darajasi bilan bog‘liqligini isbotlagan.

A.V. Vahobov “Iqtisodiyot nazariyasi” kitobida – “Kichik tadbirkorlik xizmat ko‘rsatish sohasida raqobat muhitini yaratuvchi asosiy subyektdir. Ular bozordagi o‘zgarishlarga “elastic” (egiluvchan) munosabatda bo‘ladi va yirik korxonalar uchun foydasiz bo‘lgan kichik segmentlarda samarali faoliyat yurita oladi” [12] deb hisoblagan.

N.S.Ibragimov fikricha, “Kichik servis korxonalari – bu hududiy infratuzilmaning asosi. Ularning rivojlanishi nafaqat iqtisodiy foyda, balki aholining yashash sifatini belgilaydigan ijtimoiy ko‘rsatkichdir”[13].

B.X. To‘rayev ta’kidlashicha, **“**Xizmat ko‘rsatishda kichik biznes subyektlari innovatsiyalarni (ayniqsa, raqamli xizmatlarni) joriy etishda ancha dadil. Ularning ixcham boshqaruv tizimi yangi xizmat turlarini sinovdan o‘tkazish va bozorga chiqarish vaqtini minimal darajaga tushiradi”[14].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishida hududlarda kommunal xizmatlar sohasini rivojlantirishda kichik va xususiy korxonalar hamda shirkatlarning faoliyatini takomillashtirish yo’nalishlaini aniqlash. Mavjud muammolarni tahlil qilish va ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan kompleks yondashuv qo’llanildi. Kichik korxonalar bo’yicha olib borilgan izlanishlar jarayonida qiyosiy solishtirishlar, statistic va boshqa ma’lumotlarni tahlil qilish, taqqoslash, mantiqiy fikrlash, ilmiy, abstraktsiya, ma’lumotlarni guruhlash, tahlil va sintez usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va tarkibiy o‘zgartirishlar sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish muhim strategik ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, kichik korxonalar o‘zining ixchamligi va bozor konyunkturasidagi o‘zgarishlarga tez moslashuvchanligi bilan xizmat ko‘rsatish tarmog‘ining asosiy drayveriga aylanmoqda. Xususan, kommunal xizmat ko‘rsatish sohasida kichik korxonalar rivojlanishing ustuvorliklari quyidagilar:

Aholi bandligini ta’minlash. Kichik korxonalar boshqa yirik korxonalarga qaraganda ancha kam mablag‘ ya’ni investitsiya ta’lab qiladi. Bu aynan xizmat ko‘rsatish sohasida ancha sezilarli darajada ko‘zga tashlanadi. Kichik korxonalar kam mablag‘ bilan ko‘p ish joylarini yaratishadi. Bu esa aholi bandligini ta’minlashga yordam beradi.

Iqtisodiy moslashuvchanlik. Kichik korxonalar bozordagi o‘zgarishlarga va aholi talablariga juda tez moslashuvchanlik xususiyatiga ega. Bu esa o‘z o‘rnida raqobat muhitida xizmatlar sifatini oshirishda katta ro‘l o‘ynaydi.

Innovatsiyalarni joriy qilish. Bu sohada raqobat muhitida raqobatbardoshlikni oshirish maqsadida yangi innovatsiyalarni shuningdek innovatsion texnologiyalarni aynan shu kichik korxonalarda tatbiq qilgan holda sinovdan o‘tqazish mumkin. Kichik korxonalar sababli ham innovatsiyalar yanada rivojlanishga erishishmoqda.

Ijtimoiy-iqtisodiy o‘rni. Xizmat ko‘rsatish sohasining ijtimoy-iqtisodiy rivojlanishi ichiga bir nechta yo‘nalishlarni qamrab oladi. Bunda asosan aholi turmush darajasining oshishi, insosn resurlarini rivojlantirish va zamonaviy tarmoqlarning ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Bu esa o‘z o‘rnida raqobatga sabab bo‘ladi va sifatning yaxshilanishiga olib keladi.


Xizmat ko‘rsatish sohasida kichik korxonalar faoliyatining iqtisodiy mohiyati shundaki, ular kapitalning tez aylanishini ta’minlaydi va kam xarajat evaziga yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi. Uning ijtimoiy mohiyati esa, eng avvalo, aholi bandligini ta’minlash va servis madaniyatini yuksaltirishda namoyon bo‘ladi. “Xizmat ko‘rsatish sohasi uchinchi darajali sektor bo‘lib – bu moddiy mahsulot ishlab chiqarmay, balki aholi va korxonalarga turli xizmatlar ko‘rsatuvchi iqtisodiyot tarmogi” hisoblanadi. Bu soha asosan aholining bandligini ta’minlashda eng katta zaxiralardan biri hisoblanadi. Iqisodiyotda ishlab chiqarisga qaraganda xizmat ko‘rsatsish sohasida foydaga erishish ancha osonroq bo‘ladi. Chunki xizmatlar sohasini yo‘lga qo‘yish uchun kam mablag‘ va inson faoliyati talab qiladi.

Kommunal xizmatlar sohasida kichik korxonalarning katta korxonalardan farqi va afvzalliklari shundaki kichik korxonalar katta yirik korxonalar borolmaydigan chekka shahar va qishloqlarda ham o‘z ish faoliyatini olib borishi mumkin. Bu esa nafaqat katta shaharlarda shuningdek chekka qishloqlarda ham aholining ish bilan bandligini oshirishda qo‘l keladi. Kichik tadbirkorlar chekka hududlarda xizmat turlarini yani maishiy xizmatlar va aloqa kabi sohalarni yo‘lga qo‘yishi aholining hayot sifatini oshiradi. Bundan tashqari aholi daromadlari oshishi davlatda kambag‘allik qisqarishiga yordam beradi. Kichik korxonalar ayniqsa xizmat ko‘rsatish sohasida yangi ish o‘rinlarining asosiy qismini yaratadi.

Kichik korxonalar kambag‘allikni qisqartirish uchun juda katta yordam beradi.

27.02.2025-yildagi “Xizmatlar sohasini barqaror rivojlantirish uchun ayrim xizmat turlari uchun 1 foizlik ijtimoy soliq stavkasi muddatini 2028-yilga qadar uzaytirish” haqida PQ-78-son[46] qarorida aytib o‘tilgan.

Kichik korxonalar davlat iqtisodiyotidagi YaIM dagi ulushlari ham katta. Shuningdek iqtisodiyotdagi raqobat, soliq tushumlari va innovatsiyalarni ham o‘z ichiga oladi. Bu ham o‘z-o‘zidan davlatning soliq tushumlariga ta’sir ko‘rsatadi. Soliq tizimida kichik korxonalarning o‘rni katta. Chunki bir nechta korxonalar inqirozga uchrasa ham minglab kichik konxonalar soliq byudjet bazasi tushumlarini saqlab tura oladi.



1-rasm. O‘zbekistonda kichik biznesning Yalpi Ichki Mahsulotdagi (YaIM) ulushi

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda o‘z – o‘zini band qilish to‘g‘risida ko‘plab qarorlar qabul qilingan va shu bilan birgalikda imkoniyatlar ham yaratib bermoqda. Masalan yoshlar uchun turli hildagi xizmat ko‘rsatish obyektlari ochishiga yordam berildi. O‘zbekiston Respublikasi Samarqand viloyatida xizmat ko‘rsatish sohalari juda keng ravishda rivojlanmoqda va bunday sohadagi kichik korxonalar soni oshib bormoqda. Shunday ekan Samarqand viloyatining eng so‘ngi statistika ma’lumotlarida ko‘rsatilganidek viloyatda xizmat ko‘rsatish sohalarining o‘sish dinamikasi juda yuqori suratlarda ko‘tarilib bormoqda. Viloyatda xizmat hajmi sezilarli darajada oshgan va tarkibiy jihatdan asosiy bie necha yetakchi yo‘nalishlarga ajralganligini ko‘rishimiz mumkin.

Samarqand viloyatidagi xizmatlar sohasining umumiy ko‘rsatkichlari:

- Viloyatdagi bozor xizmatlarning umumiy hajmi – 60 330.5 mlrd so‘mni tashkil qiladi.
- Xizmatlarning o‘sish sur’ati – 2024yilga nisbatini oladigan bo‘lsak 114.1% ni tashil qilgan.
- Xizmatlar sohasida kichik korxonalarning ulushi – viloyatdagi jami xizmatlarning 65% qismini kichik korxonalar va tadbirkorlar subyektlari egallagan.

Samarqand viloyatida turli xildagi xizmat sohalari mavjud va ular kundan kunga kengayib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi hududlaaridan Samarqand viloyati juda rivojlangan viloyatlar qatoridan yetakchi o‘rinlarni egallab turibdi.

1- jadvalda ko‘rsatilgan ma’lumotlar 2025-yilda Samarqand viloyatidagi barcha sohalarning xizmatlar jami hajmidagi ulushlarini yoritib bermoqda. Viloyatda asosan savdo yo‘nalishidagi sohalar ancha poyqadamligini ko‘rishimiz mumkin. Undan keyingi o‘rinlarni transport xizmatlari va moliyaviy xizmatlar egallab turibdi. Viloatdagi xizmat ko‘rsatish sohalarning bunday darajada faol ish olib borishi yildan yilga oshib bormoqda. Shuningdek bu sohalar yanada kengayishi uchun turli ko‘lamdagi ishlar olib borilmoqda.

[46] https://lex.uz/uz/docs/-7408455


1-jadval

Samarqand viloyatidagi xizmat ko‘rsatish sohalarining jami xizmatlar hajmidagi ulushi[47]

Xizmat ko‘rsatish sohalari nomi	Jami hajimdagi ulushi (%)
Savdo	26.8
Transport	22.4
Moliyaviy xizmatlar	21.1
Aloqa va axborotlashtirish	6.4
Ta’lim	4.2
Ko‘chmas mulk	2.9
Yashash va ovqatlanish	2.7
Sog‘liqni saqlash	1.8
Shaxsiy va Maishiy xizmatlar	2.1
Ijara va prokat xizmatlar	1.9
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta’mirlash	1.6
Me’morchilik va mihandislik xizmatlari	1.1
Boshqa xizmatlar	5

Xizmatlar umumiy tarkibining 25-30% ni savdo xizmatlari tashkil qiladi. Bu sohaning ustunliklari juda ko‘p. Bulardan biri bu sohada naqd pul aylanmasi juda yuqori o‘rinda turadi. Shuningdek aholi bandligini ta’minlashda ham birinchi o‘rinlarda turadi. Savdo yo‘nalishidagi xizmatlar uchun xodimlar juda katta ahamiyat kasib qiladi. Shuningdek transport xizmatlari umumiy xizmatlar hajmining 16% ni tashkil qiladi. Avtomobil transport xizmatlari bu viloyatda ancha rivojlangan, bulardan biri taksi xizmatlarini o‘z ichiga oladi.

Savdo yo‘nalishidagi xizmatlar uchun xodimlar juda katta ahamiyat kasib qiladi. Shuningdek transport xizmatlari umumiy xizmatlar hajmining 16% ni tashkil qiladi. Avtomobil transport xizmatlari bu viloyatda ancha rivojlangan, bulardan biri taksi xizmatlarini o‘z ichiga oladi. Samarqand viloyatining xizmatlar hajmining 70% dan ortig‘ini yetakchi ustalik sohalar egallab turibdi. Bular yuqorida aytib o‘tganimizdek Savdo, Transport va Moliyaviy xizmatlar hisoblanadi.



2-rasm. Samarqand viloyatida xizmatlar hajmi mlrd so‘mda[48]

[47] Muallif tomonidan O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.
[48] Muallif tomonidan O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Bu xizmatlarning o‘sish sur’atlari ham mavjud. O‘sish sur’atining eng yuqori ko‘rsatkichlari 2025 yilda kuzatildi. Aloqa va axborotlashtirish hamda Moliyaviy xizmatlar eng yuqori o‘sish sur’atini ko‘rsatti ya’ni 115-120% atrofida.


Rivojlanish dinamikasi. Samarqand viloyatida xizmatalar hajmi 2020-2025-yillar oralig‘ida 3,7 barobarga oshgan. Ya’ni 16,2 trln so‘mdan 60,3 trln so‘mgacha oshganligini ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari o‘sish sur’ati oxirgi 4 yilda birhil ko‘rinishda 113-118% atrofida kuzatilib kelinmoqda, bu esa viloyat iqtisodiyotining xizmat hajmining yanada yaxshilashib borayotganini ko‘rishimiz mumkin. Raqamlashtirish va turizm sohalarining kengayishi natijasida 2025-yilda ko‘rsatkichlar record darajaga ko‘tarildi – 60 trln so‘mdan ortiq xizmatlar ko‘rsatilgan. Rivojlanish dinamikasini uchta asosiy yo‘nalishlari mavjud.

Infratuzilma modernizatsiya. Shaharlarda yangi turistik mazrkazlar va savdo majmualarini barpo qilish va ish faoliyatini boshlashi xizmatlar sohasining yanada yaxshilanishiga sabab bo‘ladi.

Raqamlashtirish. Moliyaviy va aloqa xizmatlarining onlayn formatga o‘tishini ham misol qilsak bo‘ladi. Bunda xizmatlar ko‘rsatilishi onlayn platformalar orqali ham amalga oshirilishi mumkin bo‘ladi.

Libaeralizatsiya. Tadbirkorlik faoliyatlarini yo‘lga qo‘yishda qo‘yilgan tartib va talablarning soddalashtirilishi bu sohadagi amalyotlarning yanada kengayishiga sabab bo‘la oladi.

Samarqand viloyatida kichik korxonalarning xizmatlar sohasida ulushi katta hisoblanadi. 2.3-rasmda ko‘rsatilganidek raqamlar yildan yilga pasayib ketyotganini ko‘rishingiz mumkin. Bunga asosan kichik korxonalarning yiriklashishi sabab bo‘la oladi. Yildan yilga kichik korxonalar ribvijlanib ish faoliyatlari kengayligi sababli ular yirik korxonalarga o‘tmoqda. Bundan tashqari Samarqand viloyatida katta katta yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Shu sababli ham xizmatlar hajmining ko‘p qismi yirik korxonalarga o‘tib ketmoqda. Bunga misol qilib yirik savdo majmualari, xalqaro mehmonxonalar va yirik logistika markazlari faoliyati natijasida yirik korxonalarning ulushlari kundan kunga ortib bormoqda. Lekin umumiy hisobda foiz ko‘rsatkichlari kamayyotgan bo‘lsada, kichik korxonalar ko‘rsatayotgan xizmatlar xajmining umumiy summasi ham yildan – yilga milliardlab so‘mga ‘sib bormoqda.



3-rasm. Samarqand viloyatida kichik korxonalarning xizmatlar sohasida ulushi[49]

Samarqand viloyatining tuman va shahrlarida xizmat ko‘rsatish sohalari bir - biridan ancha farq iladi. Eng yuqori ko‘rsatkichlar asosan Samarqand shahriga to‘g‘ri keladi. Chunki aholi zich joylashgan hududlarda kichik korxonalarning ulushi juda baland bo‘ladi. Shunday ekan Samarqand viloyatining hududlar kesimida xiznmatlar sohasining ulushlari 2025-yildagi ko‘rsatkichlarini ko‘rib chiqamiz.

Samarqand viloyatida xizmat ko‘rsatish sohasining asosiy yuragi bu – kichik korxonalar subyektlari hisoblanadi. Kichik korxonalarning ustunliklari mavjud. Bulardan eng kattasi moslashuvchanlikdir. Bozordagi o‘zgarishlarga tezda moslashib ketishi ko‘zda tutilgan. Shuningdek aholi bandligini ham ta’minlashda katta ro‘l o‘ynaydi. Bundan tashqari raqobar muhiti ham bor. Kichik korxonalarning ko‘pligi raqobat mugitini vujudga keltiradi, bu esa narxning barqarorligi va xizmat sifatining oshishiga olib keladi.

[49] Muallif tomonidan O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

2-jadval

Samarqand viloyatining hududlar kesimida xiznmatlar sohasining ulushlari (%)

Hudud nomi	Jami xizmatlar sohasidan ulushi (%)
Samarqand shahri	45,2
Kattaqo‘rg‘on shahri	2,8
Pastdarg‘om tumani	8,4
Samarqand tumani	7,2
Oqdaryo tumani	4,1
Urgut tumani	5,6
Bulung‘ur tumani	3,5
Boshqa tumanlar	23,2

Samarqand shahri Samarqand viloyatidagi jami xizmatlarning deyarli yarmini ya’ni 45,2% viloyat markaziga to‘g‘ri keladi. Bu yerda katta mehmonxonalar va turli xil muassasalar ko‘p bo‘lgani uchun kichik biznes ulushi tumanlarga nisbatan pastroq ya’ni 57,4% tashkil qiladi. Urgut va Pastdarg‘om tumanlari asosan tadbirkorlik markazlari hisoblanadi. Bu tumanlarda xizmat ko‘rsatishning 90% dan ortig‘ini kichik korxonalar hissasiga to‘g‘ti keladi. Urgut tumanida savdo va transport xizmatlari drayver hisoblanadi.

Shuni aytib o‘tish lozimki shahar hududlarida moliya, aloqa va turizim kabi xizmat sohalarining ustunliklari mavjud. Tuman hududlaricha esa, savdo, maishiy xizmatlar va transport kami xizmatlari asosiy o‘rinlarda turadi. Hududlar kesimida tahlil shuni ko‘rsatadiki, xizmatlar ko‘rsatish sohasining hududiy konsentratsiyasi Samarqand shahrida yuqori bo‘lsada, kichik korxonalarning sohadagi ro‘li bo‘yicha olib qaralganda Urgut tumani- 91,4% va Oqdaryo tumani 88,2% bilan yetakchi o‘rinlarni egallab kelmoqda. Bu esa qishloq joylarda aholi daromadlarini oshirishning eng samarali yo‘llaridan biri kichik korxonalar faoilyatining o‘rni beqiyosligini aniqlab bermoqda.

3-jadval.

2025-yilda Samarqand viloyati hududlari kesimida kichik korxonalarning xizmatlar sohasidagi ulushi[1]

Hudud nomi	Kichik korxonalarning xizmatlar sohadagi ulushi (%)
Samarqand shahri	58,4
Kattaqo‘rg‘on shahri	72,1
Pastdarg‘om tumani	86,5
Samarqand tumani	82,3
Oqdaryo tumani	88,2
Urgut tumani	91,4
Bulung‘ur tumani	84,6
Boshqa tumanlar	85,0

O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi va Samarqand viloyati statistika boshqarmasining ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil davomida o‘sish dinamikasi ko‘rsatlichlari ijobiy saqlanib qolgan. 2025-yilning noyabir oyidagi holatiga ko‘ra, Samarqand viloyatida faoliyat olib borayotgan jami korxonalar soni 40 147 taga yetganligi ma’lumotlarda ko‘rsatilib otilgan. Ularning asosiy qismini esa kichik korxonalar subyektlari tashkil qiladi.

Samarqand viloyatida 2020-yildan 2025-yilgacha bo‘lgan vaqt davomida kichik korxonalar soni qariyb 1,6 baravarga oshgan. Jadal o‘sish sur’atlarini ko‘radigan bo‘lsak so‘ngi 5 yillikda korxonalar soni 58% ga oshgan. Har yili o‘rtacha hisobda 3 000 tadan ortiq yangi kichik korxonalar yaratilgan.

Kichik korxonalarning eng muhim raqobat ustunligi – ularning tashqi muhit o‘zgarishlariga tez moslasha olish qobiliyati. Innovatsion iqtisodiyotda talab, texnologiya va raqobat sharoitlari juda tez

[1] Muallif tomonidan O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

o‘zgaradi. Kichik korxonalar katta byurokratik tuzilmalarga ega emas, shuning uchun qaror qabul qilish jarayoni qisqa.

Bundan tashqari kam resurs bilan yuqori samaradorlikka erishish uchun doimiy ish jarayonini optimallashtirishga majbur bo‘lishadi.

Jahon tajribasi shuni aytadiki eng tavakkalchi va kreativ go‘yalar kichik biznesda sinovdan o‘tadi. Shu boisdanham innovatsion mahsulotlarning 50% dan ko‘pi kichik korxonalar tamonidan yokida kichik tadqiqot guruxlar tamonidan yaratiladi. Bitta g‘oyani amalga oshirish uchun avvalo bilim va tajriba kerak, shu bilan birgalikda tavakkalchilik ham katta ro‘l o‘ynaydi. Chunki yangilik qilish uchun avvalo uni amalda sinab ko‘rish lozim. Hamma ham yangi g‘oyani sinab ko‘rishga vaqtini sariflashni hohlamaydi. Kichik korxonalar yangilik asosida ish olib borishdan qo‘rqishmaydi. Shu boisdan ham kichik korxonalar turli o‘zgarishlar qilib borishadi. Yangi g‘oyalar yaratish uchun kreativlik bo‘lishi zarur. Katta korxonalar asosan sinovdan o‘tgan tajribalar asosida ish olib borganliklari sababli yangi yo‘nalishga o‘tishlari uchun ancha vaqt kerak bo‘ladi. Moslashuvchanlik asta-sekinlik bilan qadamma qadam amalga oshirilib boriladi. Korxona katta xarajatlarsiz faoliyat yuritishi lozim.

Xizmat ko‘rsatish sohasida kichik korxonalar iqtisodiyotning eng yirik bo‘g‘ini hisoblanadi. Ularning funksiyalari bozor ehtiyojlarini qondirish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlab turish hisoblanadi.

Xizmat ko‘rsatish korxonalarida asosan ish faoliyati xodimlar va mijozlar ortasida olib boriladi. Shu sababli ham hodimlarning bilim darajalarini shuningdek, malakaviy darajalarini oshirishham zarar qilmaydi. Bu faqat hodimlarni mehnat qilish darajasini oshiradi va korxonadagu unumdorli oshishiga ham sabab bo‘ladi. Bundan tashqari xodimlarga turli xildagi rag‘batlantirishlar ham berib borilsa bu ularning xizmat sifatlarini oshiradi va korxonaga ko‘roq foyda olb kelishga hissasini qo‘shib boradi. Korxonadagi samaradorlikni oshirishda asosan boshqaruv ham o‘z o‘rniga ega. Chunki xodimlarning ishlash vaqtiga nisbatan ularning ishlash sifatini oshirish uchun boshqaruvchining bergan topshiriqlari katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Shunda ko‘rsatilgan xizmatlar tez va sifatli amalga oshiriladi bu esa o‘z o‘rnida mijozning mamnunligi va korxonaning rivojiga hissa qo‘shadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xizmat ko‘rsatish sohasida kichik korxona faoliyati rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati shundaki, xizmatlar sohasida kichik korxonalar juda katta ahamiyat kasb qiladi. Chunki kichik korxonalar moslashuvchanlik qobilyatiga ega. Bozor iqtisodiyotidagi turli xildagi o‘zgarishlarni tezda o‘zlashtira oladi. Xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishidan maqsad, shu sohaning barcha tarmoqlarini yanada shakillantirish va mamlakat xizmatlar sifatini jahon talablariga mos ravishda ishlab chiqarish ko‘zda tutilmoqda. Xizmatlar sohasining rivojlanishi natijasida aholi bandligi ham oshib boradi. Chunki xizmatlar asosan inson omili bilan amalga oshiriladi. Xizmatlar sohasida kichik korxonalar sonining ko‘payishi esa yangi ish o‘rinlari ko‘payishiga sababchi bo‘la oladi.

Innovatsion iqtisodiyotda kichik korxona faoliyatini rivojlantirishning ham o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Bunda asosan kichik korxonalarning tez harakat qiluvchanliklari va moslashuvchanliklari misol bo‘la oladi. Bundan tashqari kichik korxonalar boshqa yirik korxonalarga nisabatn yangi innovatsion texnologiya va innovatsiyalarni o‘zlashtira oladi. Lekin yirik korxonalar yangi uslubda ishlay boshlashi uchun bir necha oy yokida yillab vaqt sharflashadi. Kichik korxonalar esa asosan startaplar asosida vujudga kelganliklari sababli tavakkal qilishdan qo‘rqishmaydi. Shuning uchun ham eng yangi innovatsion g‘oyalar avvalo kichik korxonalardan sinovdan o‘tadi.

Xizmatlar sohasida kichik korxonalar faoliyatini rivojlantirishning tashkil qilish mexanizmlari mavjud. Bunda asosan ikkixil mexanizm mavjud, iqtisodiy mexanizm va ijtimoiy mexanizmlar mavjud. Iqtisodiy mexanizmlar asosan soliq imtiyozlari, imtiyozli kreditlar, subsidiyalar, grantlar va narx shakillanishi kabi tushuncharni o‘z ichiga qamrab oladi. Ijtimoiy mexanizm esa davlat ro‘yxatidan o‘tish, infratuzilmani shakillantirish, lizsenziyalash, ruxsatnomalar va kadirlarni tayyorlash kabi tushunchalarni qamrab oladi. Tashkiliy mexanizmlarning asosiy maqsadi shundaki xarajatlarni kamaytirish va samaradorlikni oshirishga qaratilgan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Porter, M. E. Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors. New York: Free Press, 1980.
2. Lovelock, C., Wirtz, J. Services Marketing: People, Technology, Strategy. 7th ed. Pearson Education, 2011.
3. Levitt, T. “Marketing Myopia.” Harvard Business Review, Vol. 38, No. 4, 1960, pp. 45–56.
4. Mintzberg, H. Structure in Fives: Designing Effective Organizations. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1983.
5. Freeman, C. The Economics of Industrial Innovation. London: Penguin Books, 1974.
6. Marshall, A. Principles of Economics. London: Macmillan, 1890.
7. Stiglitz, J. E. Economics of the Public Sector. 3rd ed. New York: W.W. Norton & Company, 2000.
8. Rogers, E. M. Diffusion of Innovations. 5th ed. New York: Free Press, 2003.
9. Lapusta, M. G. Small Business Economics and Management. Moscow, 2004–2010.
10. Balabanov, V. S. Entrepreneurship and Small Business Development Moscow, 2003–2008.
11. Pardaev, M. M. Kichik biznes va xizmat ko’rsatish iqtisodiyoti. 2010–2020.
12. Vahobov, A. V. Iqtisodiyot nazariyasi. Toshkent: O’zbekiston, 2010.
13. Ibragimov, N. S. Kichik biznes va xizmat ko’rsatish sohasi bo’yicha hududiy rivojlanish tadqiqotlari (ilmiy maqolalar va monografiyalar, turli nashrlar).

14. To’rayev, B. X. Kichik biznes va xizmat ko’rsatish sohasida innovatsion rivojlanish masalalari. O’zbekistonda kichik tadbirkorlik. 2017-2020-yy. Statistik to’plam. T.:2021.189-bet. O’zbekiston Respublikasi davlat statistika qo’mitasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Bozorov Dadaxon Berdimurodovich Sh.Rashidov nomidagi SamDUning Inson resurslari va mahalla taraqqiyotini boshqarish instituti tadqiqotchisi / Бозоров Дадахон Бердимуродович Исследователь Института управления человеческими ресурсами и развития махалли Самаркандского государственного университета имени Ш. Рашидова / Bozorov Dadakhon Berdimurodovich Researcher at the Institute of Human Resource and Mahalla Development Management, Samarkand State University named after Sharof Rashidov

E-mail: bozorov2040@gmail.ru

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.10.10.2026.13 *Inson kapitali iqtisodiyoti*

КАМБАҒАЛЛИК ТУШУНЧАСИНИНГ НАЗАРИЙ ТАҲЛИЛИ

Жумаев Эркин Хасанович

ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПЦИИ БЕДНОСТИ

Джумаев Эркин Хасанович

THEORETICAL ANALYSIS OF THE CONCEPT OF POVERTY

Jumayev Erkin Khasanovich

Аннотация: Мақолада камбағаллик тушунчасига аҳолининг етарли даромадга эга эмаслиги натижасида тўлақонли яшашга ва танлов имкониятининг йўқлиги туфайли озиқ-овқат, кийим-кечак, турар жой, тиббий хизмат, таълим хизматлари каби асосий эҳтиёжларни қондира олмаслик эвазига, ижтимоий имкониятлардан чекланиш, турмуш даражасининг пасайиши ва сифатининг талаб даражасида бўлмаслиги жиҳатидан ёндашилган ва камбағалликда фақат жисмоний эҳтиёжларнигина эмас, балки ижтимоий эҳтиёжларни ҳам ҳисобга олишини, у малака, тадбиркорлик маданияти ва молиявий саводхонликнинг етишмаслиги, соғлиқдаги муаммолар билан ҳам белгиланиши ҳамда камбағалликнинг ижтимоий-иқтисодий салбий оқибатлари келтирилган.

Таянч сўзлар: камбағаллик, ишсизлик, даромадларнинг пастлиги, соғлиғини йўқотиш, ногиронлик, ижтимоий имкониятларнинг чекланиши, тадбиркорлик маданияти ва молиявий саводхонлик, турли мамлакатларда ўзига хос ёндашув, салбий оқибатлар.

Аннотация: В статье рассматривается концепция бедности как результат недостаточного дохода населения и неспособности удовлетворить основные потребности, такие как питание, одежда, жилье, медицинское обслуживание и образование, из-за отсутствия выбора, что приводит к ограниченным социальным возможностям, снижению уровня жизни и ухудшению ее качества. Подчеркивается, что бедность учитывает не только физические, но и социальные потребности, характеризуется недостатком навыков, предпринимательской культуры и финансовой грамотности, а также проблемами со здоровьем, и демонстрирует негативные социально-экономические последствия бедности.

Ключевые слова: бедность, безработица, низкий доход, ухудшение здоровья, инвалидность, ограничение социальных возможностей, предпринимательская культура и финансовая грамотность, специфический подход в разных странах, негативные последствия.

Abstract: The article approaches the concept of poverty as a result of the population's lack of sufficient income and the inability to meet basic needs such as food, clothing, housing, medical services, and educational services due to the lack of choice, leading to a lack of social opportunities, a decline in the standard of living, and a substandard quality of life. It emphasizes that poverty takes into account not only physical needs, but also social needs, is characterized by a lack of skills, entrepreneurial culture, and financial literacy, as well as health problems, and presents the negative socio-economic consequences of poverty.

Key words: poverty, unemployment, low income, loss of health, disability, limitation of social opportunities, entrepreneurial culture and financial literacy, specific approach in different countries, negative consequences.

КИРИШ

Ҳозирги шароитда аҳоли учун даромад топиш имкониятларининг кенглиги, иқтисодиёт соҳаларининг эркин ривожланганлик даражаси ва мулкка эгалик қилиш эркинлиги билан ифодалансада, буларни амалга ошириш мақсадида олиб бориладиган бозор ислоҳотлари даромад топишга бўлган қизиқишни уйғотиши билан бирга, камбағал хонадонларнинг ҳам мавжуд бўлишлигини келтириб чиқаради.

Камбағаллик фақат жисмоний эҳтиёжларнигина эмас, балки ижтимоий эҳтиёжларни ҳам ҳисобга олади. У малака, тадбиркорлик маданияти ва молиявий саводхонликнинг етишмаслиги, соғлиқдаги муаммолар билан ҳам белгиланади. Чунки, булар ҳам даромад топишга тўсқинлик қилади. Шунинг учун ҳам камбағаллик тушунчаси бугунги кунда кенг маънода ифодаланиб, унинг келиб чиқиш сабаблари кенг масштабли, нафақат моддий етишмовчиликлар, балки ижтимоий инфратузилманинг етарли ривожланмаганлиги ва аҳолининг ундан тўла фойдалана олмаётганлиги, инсонларнинг билими, савияси ва тафаккури билан ҳам ифодаланмоқда.

Замонавий шароитларда камбағаллик тушунчаси нафақат ҳаёт учун зарур бўлган энг кам эҳтиёжларини қондира олмаслик ва даромадларнинг етишмовчилигини, балки тўйиб овқатланмаслик, сифатли таълим ва тиббий хизматлардан фойдалана олмаслик ҳамда қулай яшаш шароитларига эга бўлмаслик каби ҳолатларни ҳам ўз ичига олади. Шу боисдан ҳам камбағаллик даражаси ортиши сабабларини аниқлаш ва олдини олишда уни комплекс ўрганишни, аҳолини узлуксиз

озиқ-овқат билан таъминлаш, юқори инфляция даражаси, экологик хавф-хатар, малакали тиббиёт, сифатли таълим ва ижтимоий ҳимоя қилиш тизимини такомиллаштириш жиҳатидан ўрганишн тақоза этмоқда. Буларнинг бирортаси сустлашса ёки эътибор камайтирилса, аҳоли фаровонлигига салбий таъсир этиши ва мамлакатда камбағаллик даражаси ортишини реал ҳаётнинг ўзи кўрсатмоқда.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ

Иқтисодиёт фанида камбағаллик тушунчасига оид маълумотлар шундан далолат берадики, бу йўналишнинг концептуал асослари кенг кўламли, серқирра бўлиб, унинг асосий хусусиятлари маҳаллий ва хорижий олимлар томонидан етарлича чуқур ўрганилган. Мисол учун Рус олимларидан С.С.Ярашенконинг таърифида камбағаллик тушунчаси яшаш учун зарур бўлган ресурслар етишмаслиги нуқтаи назаридан қаралади. Унинг фикрича, “Камбағаллик - инсон, ижтимоий гуруҳнинг, мамлакатнинг умумий қабул қилинган яшаш шароитини сақлаб қолиш учун зарур ресурслар йўқлиги ёки етишмаслиги билан ажралиб турувчи ҳолат”[1]. Рус олими А.В.Колосова таҳрири остида ёзилган ўқув қўлланмада келтирилишича, “Камбағаллик - бу одамларга жамият томонидан эътироф этилган энг қуйи стандартлар даражасида истеъмол қилишга имкон бермайдиган турмуш шароитидан иборат”[2]. Худди шунингдек, Д.Гараева қисқа ва лўнда қилиб, “Камбағаллик тушунчаси - бу аҳолининг хаёт сифат даражасини пасайишини англатишини”[3] билдириб, унинг мазмун - моҳиятини келиб чиқиш сабаблари ва салбий оқибатлари нуқтаи назардан тўлиқ очиб бермаган. К.О.Климкова эса камбағаллик тушунчасини ижтимоий-иқтисодий ҳодиса сифатида аниқлаш учун ягона, шакллантирилган мезон йўқ деган хулосага келиб, фақат иқтисодий нуқтаи назардан эмас, балки ижтимоий жиҳатдан ҳам ёндашиш кераклигини таъкидлайди[4].

Камбағаллик тушунчасига таъриф беришда хорижлик олимлар билан бир қаторда ўзбекистонлик олимлар ҳам ўзларининг илмий изланишлари натижаларини шакллантиришга муваффақ бўлишган. Масалан, Ўзбекистонлик олимлардан камбағаллик тушунчасини таърифлашда Ш.Шодмонов ва М.Рахматовлар ўзларининг “Иқтисодиёт назарияси” дарслигида юқорида келтирилган хорижий олимларга хос ёндошувни акс эттирган. Уларга кўра, “Камбағаллик - бу ҳаёт учун муҳим бўлган бирламчи эҳтиёжларни қондира олмайдиган, ишга лаёқатли, аммо ўз наслини давом эттириш учун етарли даромадга эга бўлмаган шахс ёки ижтимоий гуруҳнинг иқтисодий ҳолати” ҳисобланади [5].

ТАДҚИҚОТ МЕТОДОЛОГИЯСИ

Тадқиқот иши давомида кузатиш, қиёслаш, тизимли ва қиёсий таҳлил, илмий абстракциялаш, монографик тадқиқот, каби усуллардан фойдаланилган.

ТАҲЛИЛ ВА НАТИЖАЛАР

Камбағаллик ҳар бир жамият ва миллий иқтисодиёт учун хос бўлган кўриниш бўлсада, унинг даражаси ва кўлами мамлакатлар хусусиятига қараб ҳар хил кечади. Камбағаллик даражасини белгилаш ҳам турли мамлакатларда ўзига хос ёндашувлар доирасида белгиланади. Чунки, мамлакатларнинг иқтисодий аҳволи, иқтисодий ресурслар миқдори ва уларнинг сифати, мамлакатда саноат ва хизматларнинг ривожланганлиги, ижтимоий инфратузилманинг ҳолати, тарихий қадриятлар, аҳоли турмуш тарзи, миллий қарашлар, маданият ва урф-одатлар фарқланади. Бу фарқланиш камбағалликнинг ҳам фарқланишига олиб келади. Шунинг учун эришилган даромадлар даражаси ва иқтисодиётнинг тузилиши билан боғлиқ ҳолда ҳар бир мамлакатда камбағаллик ўзига хос хусусият касб этиш баробарида, келиб чиқиш сабаблари ҳам ҳар хил бўлиб, иқтисодий, ижтимоий-тиббий, демографик, сиёсий ва минтақавий - географик, индивидуал гуруҳларга ажралади (1-жадвал).

1-жадвал

Камбағаллик сабаблари бўйича гуруҳланиши

Камбағаллик сабаблари	Тавсифи
Иқтисодий	Иқтисодий беқарорлик, ишсизлик, паст иш ҳақи, меҳнат унумдорлигининг пастлиги, кредит фоизларининг юқорилиги
Ижтимоий	Ногиронлик, қарилик, касалланиш даражасининг юқорилиги, таълим даражасининг пастлиги, касбий тайёргарликнинг етарли эмаслиги, ижтимоий кафолатлар даражасининг пастлиги
Сиёсий	Ҳарбий можаролар, мажбурий миграциянинг юзага келиши, тўғри олиб борилмаган ижтимоий сиёсат, коррупцион ҳолатларнинг ортиши, инсон ҳуқуқларининг қадирланмаслиги
Демографик	Иқтисодий ўсишга нисбатан аҳоли сонинг тез ўсиши, тўла бўлмаган оилалар, оилада боқимандаларнинг кўплиги
Минтақавий -географик	Минтақаларнинг бир хил ривожланмаганлиги, ноқулай иқлим шароитлари, экологик хавфнинг ортиши, табиий ресурсларнинг нотекис жойлашуви ва табиий офатларнинг кўпайиши
Индивидуал	Молиявий саводхонликнинг пастлиги, ортиқча сарф-харажатларга мойиллик, тадбиркорлик маданиятининг етишмаслиги

Юқорида таъкидлаганимиздек, камбағаллик кенг тушунчани англатиб унинг муҳим жиҳатларидан бири аҳолининг етарли даромадга эга эмаслиги натижасида тўлақонли яшашга ва танлов имкониятининг йўқлиги туфайли озиқ-овқат, кийим-кечак, турар жой, тиббий хизмат, таълим хизматлари каби асосий эҳтиёжларни қондира олмаслик эвазига, ижтимоий имкониятлардан чекланган ҳолда, турмуш даражасининг пастлиги ва сифатининг талаб даражасида бўмаслигини англатар экан.

Бугун дунё янги технологик инқилоб даврига кирди. Иқтисодиётнинг барча жабҳаларида, инновацияларга эътибор кучайди. Жумладан, молия ташкилотлари, транспорт, савдо ва хизмат кўрсатиш соҳаларига янги инновацион технологиялар жадал кириб келмоқда. Бу бир томондан иқтисодий ўсиш ва аҳолининг қулай яшашига имкон берса, иккинчи томондан айрим турдаги касбларнинг қисқариши ва ишсизликнинг келиб чиқишига ҳам сабаб бўлмоқда. Учинчидан, аҳоли даромадлари табақаланиши, шунингдек, мамлакатдаги таълим сифати, тиббиёт, ишлаб чиқариш инфратузилмаси, экологик вазият ва сиёсий барқарорлик каби омилларнинг таъсири ортидан камбағалликнинг замонавий даражаси юзага келмоқда. Шу сабабли камбағаллик бугунги куннинг долзарб ижтимоий муаммоларидан бирига айланган. Камбағаллик тушунчаси унинг белгиланган мезонига мос равишда маъно-мазмунини акс эттирмоқда. Айни вақтда дунё миқёсида камбағаллик турли хил мезонлар ва ўлчовлар асосида аниқланади.

Ҳозирги замонавий шароитларда даромадларнинг пастлиги, инсоннинг таълим ва саломатликдан ажралиб қолиши, ижтимоий фаолликдан ажралиш, руҳий стресс, авлоддан-авлодга ўтиш каби ходисалар камбағалликка хос муҳим хусусиятларни англатади (1-расм).



1-расм. Камбағалликнинг асосий хусусиятлари

Камбағаллик категориясига берилган таърифлар, маълум маънода камбағаллик тушунчасининг мазмун моҳиятини ёритишга асос бўлиши мукин. Чунки камбағалликнинг негизи инсоннинг муносиб ҳаёт кечириш учун моддий ва номоддий неъматларнинг етишмаслигига бориб тақалади. Ушбудан келиб чиқиб, камбағаллик тушунчасига анчайин такомиллашган таъриф бериш мумкин. Бизнингча, қамбағаллик - инсон ёки оила аъзоларининг нормал ҳаёт кечиришлари учун зарур ва муҳим эҳтиёжларини қондиришга имкон бермайдиган муҳтожлик аломати бўлиб, ҳаётий шарт-шароитларнинг, воситаларнинг етишмаслигини, инсоннинг ривожланиши, муносиб дам олиши ва камол топиши учун ижтимоий - иқтисодий жиҳатдан чегараланганлиги, хавф-хатарлар олдида чорасизлигини англатади.

Фикримизча, юқорида келтирилган таърифлар камбағаллик тушунчасининг бугунги замонавий шароитларда кенг маънони англатиши, юзага келиши ва оқибатлари нуқтаи назардан унинг мазмун моҳиятини тўлиқ очиб бера олишмаган. Мисол учун БМТ кўрсатмасига кўра, “Камабағаллик инсоннинг ҳаёти давомида танлов имкониятларидан маҳрум бўлиши, жамиятда тўлақонли иштирок этиш учун қарама-қаршиликларнинг мавжудлиги, бундан ташқари, оиласини боқиши ва кийинтириши, таълим олиши ёки касалхонада даволаниши, бирор соҳада

фаолият юритиши ёки даромад олишига имкон берадиган меҳнат билан таъминлаш имкониятлари етишмаслиги ҳамда кредит олиш имкониятининг чекланганлигида намоён бўлади”[6].

Ўзбек тилининг изоҳли луғатида камбағаллик тушунчаси “Муҳтожликда яшовчи, тирикчилик учун керакли нарсаси етарли бўлмаган, қашшоқ, фақир, бечора” сифатида таърифланади[7].

Таъкидлаш керакки, ушбу таърифлар, маълум маънода камбағаллик тушунчасининг мазмун моҳиятини ёритишга асос бўлиши мукин. Чунки камбағалликнинг негизи инсоннинг муносиб ҳаёт кечириш учун моддий ва номоддий неъматларнинг етишмаслигига бориб тақалади. Ушбудан келиб чиқиб, камбағаллик тушунчасига анчайин такомиллашган таъриф бериш мумкин. Бизнингча, қамбағаллик - инсон ёки оила аъзоларининг нормал ҳаёт кечиришлари учун зарур ва муҳим эҳтиёжларини қондиришга имкон бермайдиган муҳтожлик аломати бўлиб, ҳаётий шарт-шароитларнинг, воситаларнинг етишмаслигини, инсоннинг ривожланиши, муносиб дам олиши ва камол топиши учун ижтимоий - иқтисодий жиҳатдан чегараланганлиги, хавф-хатарлар олдида чорасизлигини англатади.

ХУЛОСА

Юқорида келтирилган таърифлардан шундай хулоса чиқариши мумкинки, камбағалликнинг турли назарий қарашлари ва замонавий ёндашувлари, унинг консептуал асослари мураккаб табиатини тўлиқ ёритиб беришга ёрдам беради. Аҳоли камбағаллик даражасининг ортиши нафақат давлат ва жамият, балки аҳоли учун ижтимоий хавфли жараёнга айланиши билан бирга, қатор салбий оқибатларни келтириб чиқариши мумкин.

Мамлакатда камбағаллик даражасининг ортиши мураккаб ижтимоий-иқтисодий ходиса бўлиб, инсон ва оила, гуруҳ ёки жамият узоқ вақт давомида яхшиланмай камбағаллик ҳолатида қолса, ижтимоий хавфли жараёнга айланиши билан бирга, у бир қанча жиддий салбий оқибатларга олиб келиши мумкин:

- камбағаллик жамиятда даромадларнинг кескин табақаланишига, аҳолининг бир қисмида харид қобилиятининг пасайиши натижасида истеъмол бозорида талабга нисбатан таклифнинг ортишига олиб келади ва ишлаб чиқарувчилар фаоллигига ҳамда жамғаришига, келгусида инвестиция қилишига салбий таъсир қилади;
- инсоннинг ривожланиши учун зарур бўлган моддий ва номоддий неъматларни истеъмол қилмасликдан инсон капитали шаклланмайди ва охир-оқибат иқтисодий ривожланиш пасайиб кетади;
- камбағал аҳолининг имкониятлари чекланганлиги сабабли улар жамиятнинг сиёсий, иқтисодий ва маданий ҳаётида фаол иштирок эта олмайди. Жамиятдан норозилик ва жиноятчиликларнинг кўпайишига олиб келади;
- камбағаллик туфайли ишчи кучининг бир ҳудуддан бошқасига кўчишининг ортиши ва меҳнат бозорида мувозанатнинг бузилишига, ижтимоий инфратузилмаларга ортиқча юкнинг тушушига олиб келиб, ижтимоий - демографик оқибатлар кескинлашади;
- камбағалларга ажратилаётган ижтимоий ёрдам пуллари ҳажмининг ортишидан бир томондан давлат бюджетига босим кучаяди, иккинчи томондан паст даромадли аҳолидан ундириладиган солиқ тушумлари камайиши ортидан бюджет тушумларининг ҳам камайишига олиб келади;
- камбағал оилаларга давлат томонидан тўланаётган ижтимоий ёрдам пулларининг кўпайиши ортидан, жамиятда боқимандалик кайфиятининг пайдо бўлиши, нафақат ўз оиласининг нормал ҳаёт кечиришига, балки қашшоқликнинг сони ортишига ҳам олиб келиши ҳамда боқимандалик иллатининг оилада улғяётган фарзандларга ҳам юқиши мумкин.

Камбағаллик қанча кўпайса, унинг ижтимоий салбий оқибатлари ҳам шунчалик ортиб бораверади. Камбағаллик ижтимоий тараққиётни секинлаштирадиган ва инқирозларни вужудга келтирадиган қатор ижтимоий-иқтисодий муаммоларни ҳам кун тартибига қўяди. Шунинг учун ҳам ҳар бир давлат уни камайтириш орқали иқтисодиётни мувозанатли ва мутаносиб ривожлантиришга ҳаракат қилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1.Ярашенко С.С. Бедность в режиме, исключающем гендерное равенство. https://polit.ru/article/2010

2.Экономическая безопасность хозяйственных систем. Учебник/ Под общ. ред. А.В. Колосова. М.: РАГС, 2007. С. 428

3.Гараева Д.Ф. “Бедность как фактор снижения качества жизни населения”. Казанский (Приволжский) федеральный университет: “Экономические науки”, 2 (87). 2012.

4.К.О.Климкова Бедность как экономическая категория: институциональный подход. Автореферат диссертации на соискание ученой степени к.э.н. Волгоград.: 2021. – С 30.

5.Shodmonov Sh. Raxmatov M. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. -T.: “Zamin nashr”, 2021. -B. 740

6.BMT Yevropa Iqtisodiy komissiyasining «Kambag‘allikni o‘lchash bo‘yicha qo‘llanma». 2017-yil. Nyu-York, Jeneva. - www.undp.org.

7.Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. - Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 2006.- 306 бет.

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Жумаев Эркин Хасанович Денов тадбиркорлик ва педагогика институти мустақил изланувчиси / Джумаев Эркин Хасанович Независимый исследователь Денауский институт предпринимательства и педагогики / Jumayev Erkin Khasanovich Independent Researcher, Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

E-mail: erkinjumayev411@gmail.com

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.10.10.2026.14 *Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi*

СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИДА ЭКОТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИМКОНИЯТЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ

Ражабов Ўткир Дўснаевич

Возможности и перспективы развития экотуризма в Сурхандарьинской области

Раджабов Уткир Дуснаевич

Opportunities and Prospects for Developing Ecotourism in Surkhandarya Region

Rajabov Utkir Dusnaevich

Аннотация: Сурхондарё вилояти экотуризмни ривожлантиришда қулай манзил бўлиб, сўлим табиати, шифобахш ўсимликлари ва булоқлари, хилма-хил ҳайвонот дунёси, дарёлари ва кўллари, узоқ тарихнинг гувоҳи бўлган тоғ ғорлари жуда кўплаб туристларда қизиқиш уйғотмоқда. Хўжамойхона, Омонхона, Ғўрим булоқ, Хўжаипок шифобфхш булоқлари турли касалликларни даволаш хусусиятига эга бўлиб хорижий ва маҳаллий туристларга манзур бўлмоқда. Хисор, Қўҳитанг ва Бойсун тоғ тизмалари ўзининг хушманзаралиги билан экотуризмни ривожлантириш имкониятини беради.

Таянч сўзлар: экологик туризм, экологик муаммолар, экологик онг ва маданиятни шакллантириш, атроф-муҳитни асраш, яшил туризм, сўлим табиат, ҳайвонот дунёси, жанубий минтақа Хисор тоғ тизмалари, шифобахш булоқлар, ислоҳотлар, қулайликлар.

Аннотация: Сурхандарьянская область является благоприятным местом для развития экотуризма: ее пышная природа, лекарственные растения и источники, разнообразная фауна, реки и озера, горные пещеры, свидетельствующие о долгой истории, привлекают множество туристов. Целебные источники Ходжамайхона, Омонхона, Горим Булок, Ходжайпок обладают целебными свойствами при различных заболеваниях и пользуются популярностью у иностранных и местных туристов. Горные хребты Гиссар, Кохитанг и Байсун с их живописными пейзажами предоставляют возможности для развития экотуризма.

Ключевые слова: экологический туризм, экологические проблемы, экологическая осведомленность и формирование культуры охраны окружающей среды, защита окружающей среды, зеленый туризм, мирная природа, животный мир, южный регион, горный хребет Хисар, целебные источники, реформы, инфраструктура.

Abstract: The Surkhandarya region is an ideal location for the development of ecotourism; its lush natural landscapes, medicinal plants and springs, diverse wildlife, rivers and lakes, and mountain caves—which bear witness to a long history-attract numerous tourists. The healing springs of Khojamaykhona, Omonkhona, Gorim Bulok, and Khojaypok are renowned for their therapeutic properties in treating various ailments and are popular among both international and domestic tourists. The Gissar, Kohitang, and Baysun mountain ranges, with their picturesque scenery, offer excellent opportunities for the development of ecotourism.

Keywords: ecotourism, environmental issues, environmental awareness and the development of an environmental protection culture, environmental protection, green tourism, pristine nature, wildlife, southern region, Gissar mountain range, healing springs, reforms, infrastructure.

КИРИШ

Сўнгги пайтларда шаҳарлашув жараёнларининг кенгайиши ва саноатнинг жадал ривожланиши, аҳоли даромадлари ва бўш вақтининг кўпайиши аҳолида табиат қўйнида дам олишга ва ўзини қайта тиклашга бўлган қизиқишни янада оширмоқда.

Экотуризм орқали сайёҳлар атроф-муҳитга эҳтиёткорона муносабатда бўлиб, табиат қўйнида дам олишади. Экотуризмни барқарор ривожлантириш муайян қийинчиликлар билан бўлса-да, реал воқеликдир. Бу соҳадаги муваффақият иқтисодий, экологик ва ижтимоий барқарорлик ўртасидаги тўғри мувозанатнинг таъминланишига хизмат қилади. Аксинча, экотуризм тўғри бошқарилмаса она табиатга нисбатан экологик муаммоларнинг янада кучайишига олиб келиши мумкин.

Экотуризм барқарор ривожланишнинг муҳим қисми ҳисобланади. У нафақат атроф-муҳитни

муҳофаза қилишга хизмат қилади, балки маданий меросни сақлаш ва аҳоли ўртасида экологик онгни ривожлантиришга ёрдам беради.

Сурхондарё вилояти Ҳисор тоғ тизмалари билан ўралган, улкан тоғли ва тоғ олди ҳудудларига эга. Вилоят экотуризм ривожланиши учун қулай манзил бўлиб, хушманзара табиати, ҳилма-хил ўсимликлари, бой ҳайвонат дунёси, тоғли қорлардан оқиб тушаётган дарё ва кўллари, шифобахш булоқлари кишини ўзига тортмай қолмайди.

Сурхондарё вилояти экотуризм учун бой табиий имкониятлар ва тобора яхшиланаётган қулайликларга эга. Кейинги пайтларда вилоятда йирик инвестиция лойиҳалари амалга оширилмоқда. Масалан, Қумқўрғон туманидаги **“Жанубий Сурхон” сув омбори ҳудудида 140 миллиард сўмлик** замонавий экотуризм мажмуаси барпо этилмоқда. Шунингдек, Жарқўрғон туманидаги Оқтепа ҳамда Сариосиёдаги Тўпаланг сув омборлари атрофида ҳам экотуристик инфратузилма ривожлантирилмоқда.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ

“Экотуризм” тушунчасининг пайдо бўлишига бир қанча тенденциялар сабаб бўлган ва кўплаб олимлар томонидан қизиқиш билдирилган.

Ўтган асрнинг 60-йилларида инсон фаолиятининг оқибатларини англаш бошланди. Саноати ривожланган мамлакатларда жамоатчилик назорати кучайди, табиат ва саёҳатлари тўғрисидаги телекўрсатувлар жуда кенг оммалашди. Қушларни ёввойи ҳайвонларнинг ҳаёт тарзини ўрганиш мақсадида тажрибали гидлар ёрдамида махсус турлар ташкил қилина бошлади.

Ушбу давр бутун туризм саноатини атроф-муҳитга дўстона муносабатда бўлувчи - экотурист деб аталувчи янги турдаги саёҳатчилар тоифасининг юзага келишига замин яратди [1].

Рус олимлари А.О Пивоваров., В.П., Шевчуклар экотуризм йўналиши бўйича тадқиқотлар ўтказиб, уларнинг фикрича, экотуризм экотизим муҳофазаси мақомига эга бўлмаган ҳудудларни ҳам иқтисодий жиҳатдан ўрганиб, муҳофаза қилиш лозимлигини исботлаб беришди. Атроф-муҳит экотизимларга инсоният ўзи билмаган холда жиддий салбий таъсир кўрсатмоқда, шундай вазиятда иқтисодий жиҳатдан ўрганилганда мутахассислар томонидан жиддий баҳслашувларга сабаб бўлмоқда. Лекин мутахассислар, табиат шундай бир мўъжизаки, ўзини муҳофаза қилиши билан биргаликда ўзига-ўзи тўлов қилиш орқали туризм саноатини ривожланишига ҳисса қўшиши мумкинлигини асослашди. Экологик туризм - атроф муҳит муҳофазасига капитални жалб қилишнинг самарали воситаси эканлигини исботлаб беришди [2].

ТАДҚИҚОТ МЕТОДОЛОГИЯСИ

Тадқиқот иши давомида кузатиш, қиёслаш, тизимли ва қиёсий таҳлил, илмий абстракциялаш, монографик тадқиқот, каби усуллардан фойдаланилган.

ТАҲЛИЛ ВА НАТИЖАЛАР

Ўзбекистон Республикасининг Сурхондарё вилояти экотуризм салоҳияти юқори ҳудуд саналади. Хусусан, Сурхондарё минтақасининг рельефи тоғ ва текисликлардан иборат, шимолдан жанубга қияланиб ва кенгайиб боради. Тоғлардан оқиб тушадиган кўпдан-кўп дарё ва сойлар дара ҳосил қилган. Шунингдек, Сурхондарё ва Шеробод дарё оқиб ўтадиган текислик шимол, ғарб ва шарқдан баланд Ҳисор тизмаси (энг баланд жойи 4643 м) ва унинг тармоқлари Бойсун тоғ, Кўҳитанг тоғ, Бобо тоғ тизмалари билан ўралган. Тоғлар, асосан, юқори палеозой ва мезозой даврлари жинсларидан, текислик қисми эса тўртламчи давр ётқизиқлардан таркиб топган.

Ҳисор тоғ, Бойсун тоғ, Кўҳитанг тоғ, Бобо тоғ тизмалари бир-бири билан улашиб кетган бўлиб, экотуризм учун қулай манзил ҳисобланади. Масалан, Бойсун тоғларида жойлашган темир дарвоза деб номланган тоғ йўли орқали Тешиктош ғорига, Мачай ғорига, Бойбулоқ ғори атрофидаги динозавр излари акс этган ҳудудларга саёҳат қилиш мумкин. Ёки Ҳисор тоғидаги Сангардак шаршараси, Зовбоши маскани, Хўжамойхона, Омонхона шифобахш булоғи, Ғўрим булоқ шифобахш булоғи, Хўжаипок шифобфхш булоқларига саёҳат қилиб мазасини таътиб кўриш мумкин бўлади [3]. У ернинг сўлим табиати, ажойиб ҳайвонот дунёси, доривор гиёҳлари ва қуюқ арчазорлари туристларда қизиқиш ўйғотиши тайин.

Сурхондарё экотуризмини икки томонлама кўриш мумкин, табиат қўйнида дам олишни истовчилар учун ҳам табиатни ўрганмоқчи бўлганлар учун ҳам табиий ресурсларга бой ҳудуд. Шу боис ҳам Сурхондарё экотуризмини икки томонлама кўриш мумкин (1-расм).



1-расм. Сурхондарё вилоятининг экотуризми

Сурхондарё вилояти ўзининг ноёб табиати билан бирга, тарихий – маданий ёдгорликларга бой ҳудудлар қаторига киради. Мисол учун Тешиктош ғори Бойсун тоғ тизмасидаги ғорда жойлашган бўлиб, денгиз сатҳидан 1500-1600 метр баландликда жойлашган. Унинг буйи 7 метрни, эни 20 метрни, узунлиги эса 21 метрни ташкил этади. Ғорнинг шифти тешик бўлгани учун гулхан ёқилса, тепадаги туйнукдан чиқиб кетади. Ғорда 1,5 метр қалинликда 5 маданий қатлам бўлиб, ҳар қатламдан биттадан, баъзиларида эса иккитадан, диаметри 40 сантиметр, сатҳи 2 метрга етадиган гулхан қолдиқлари топилган. Айниқса, Тешиктош ғоридан топилган қадимги одам қолдиқлари 8-9 ёшли боланинг бош ва склет суяклари ноёб топилма ҳисобланади. Шу боис Тешиктош ғори шунчаки сайёҳлар учун томоша маскани эмас, балки илмий доира вакилларини ҳам доимий мулоҳазага, мунозарага чорлаши мумкин.

Сангардак шаршараси табиат мўъжизаси. Шаршара ер сатҳидан 120 метр баландликдан, тоғ қоясидан отилиб тушади, унинг суви ёз фаслларида кўпаяди, куздан бошлаб камая бошлайди. Шаршара табиатнинг фусункор мўъжизасидир. Атрофдаги қояларга урилиб юксакликдан оқадиган шаршара кўзни қувонтиради. Мисли камалакдек товланиб, сачраётган зилол сув баҳри дилингизни очиб, хуш кайфият бағишлайди. Айни пайтда Сариосиё туманида жойлашган Сангардак қишлоғига “Туризм қишлоғи” мақоми берилган. Ҳудуд доимий маҳаллий саёҳлар билан гавжум. Унинг суви совуқ бўлсада, саломатликка зиён қилмайди, аксинча, вужудни тетиклаштиради. Шаршаранинг товуши асабни тинчлантириб, юракка қувват беради. Келгусида халқаро туризмни ривожлантириш имконияти мавжуд (2-расм).





2-расм. Сангардак шаршараси ва Тешиктош ғори

Бойсун тоғлари ўзининг бетакрор табиати ва сир-синоатлари билан доим эътиборда бўлган. Неча йилларки бу заминни ўрганишга, унинг сирларини очишга уринаётганлар кўп. Шундай тилсимлардан бири икки туп кўҳна чинор дарахти бўлиб, у Бойсун туманининг Сайроб қишлоғида жойлашган.

Чинор дарахти ноёб ёдигорлик ҳисобланиб, қарийб 950 ёшда, баландлиги 26 метр, танасининг илдизи бўйича ўлчами 16,5 метр, кавагининг ер сатҳидан ўлчами 3,5 метр, кавагнинг оғзи тўғри тўртбурчак шаклида.

Чинор тарихга назар ташласак, советларга қадар эски мактаб вазифасини ҳам айнан шу чинор ўтагани, кейинчалик эса яъни, 1920 йилларда қишлоқ кенгаши биноси бўлгани ва 1932-1934 йилларда 1-отлиқ аскарлар полкининг лагер кутубхонаси бўлгани, 1936 йилда қишлоқ савдо дўкони вазифасида ҳам ишлатилганининг гувоҳи бўламиз. Ҳозирда эса чинор табиий ёдгорлик сифатида муҳофазага олинган бўлиб, унинг ичида мўъжазгина музей ташкил қилинган.

Кўҳитанг тоғининг шарқий ён бағридаги Зараутсой дарасидаги қояларга ва тошларига ишланган ибтидоий санъатнинт нодир намуналарини учратиш мумкин. Зараутсой расмларида одамларнинг итлар ёрдамида ёввойи буқаларни ов қилиш манзараси тасвирланган. Ҳайвонлар, турли буюмлар ов қуроллари ва ниқобланган одамлар ўзига хос тарзда ҳаётий қилиб ишлангани нафақат маҳаллий саёҳларни, балки хорижий саёҳларни ҳам жалб қилиш имконини беради.

Узоқ йиллик тарихга эга Омонхона қуюқ арчазорлари ва кўркам табиати билан кишиларни ўзига тортади. У ердаги Омонхона булоқ суви таркибида кремней кислотаси, темир, алюминий ва бошқа микроэлементлар мавжудлиги аниқланган. Витамин ва минералларга бой булоқ суви инсон танасини айниқса, жигар, ўт пуфаги йўлларини даволаш хусусиятига эга. Хўжаипок шифобахш булоғидан чиқаётган сув ҳам шифобахш хусусиятга эга бўлиб, одам организмига керакли минералларга бойлиги билан ажралиб туради. Ушбу сув тери, ошқозон-ичак, артрит, асаб касалликлари, акушер гинекологик касалликларига даво ҳисобланади [4]. Ғўрим булоқ шифобахш булоғи буйрак етишмовчилиги кассаликлари учун фойдали бўлиб, республиканинг турли ҳудудларидан ва қўшни республикалардан дам олиш ва даволаниш мақсадида ҳар йили туристлар ташриф буюришади.

Ўзбекистонда туризм соҳасини ривожлантириш масалалари давлат сиёсати даражасига кўтарилган. Туризм соҳасида олиб борилаётган кенг кўламли ишлар жаҳон ҳамжамияти томонидан алоҳида эътироф этилмоқда. Жумладан,

Ўзбекистон Бутунжаҳон туризм ташкилотининг “Энг тез ривожланаётган туризм масканлари” рўйхатида ҳамда машҳур “Gellap” ижтимоий тадқиқот марказининг “Сайёҳлик учун энг хавфсиз давлат” рейтингида олдинги ўринлардан жой олган. Айниқса, Ўзбекистоннинг яшил туризмни ривожлантириш бўйича олиб бораётган ишлари жаҳон ҳамжамятида катта қизиқиш ўйғотмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев 2023 йил 17-октябрда Самарқанд шаҳрида бўлиб ўтган Бутун жаҳон туризм ташкилоти бош ассамблеяси 25-сессиясидаги нутқида яшил туризмни ривожлантириш бўйича халқаро Ҳаракатлар дастурини қабул қилиш ва яшил туризмни жорий этиш бўйича энг яхши шаҳар номинатсиясини тасис этиш кераклигини таклиф қилди. Шунингдек, Марказий Осиё атроф-муҳит ва иқлим ўзгаришини ўрганиш университети ҳамда Самарқанд “Ипак йўли” туризм ва маданий мерос халқаро университети ҳамкорлигида Global яшил туризм стартаплари лабораториясини яратаётганлигимиз ва энг яхши инновацион ечимларни яратиш мақсадида грант маблағлари ажратишга тайёрлигимизни билдирди ҳамда барча аъзо давлатлар ва халқаро ташкилотларни ушбу лойиҳага қўшилишга чақирди [5].

Ўзбекистонда экологик туризм соҳасида ислоҳотлар давом этар экан, экологик тоза амалиётга ўтиш нафақат зарурат, балки стратегик имкониятдир. Аҳолини экологик муаммолардан хабардор қилиш орқали иқтисодий барқарорликни экологик масъулият билан мувозанатлаштириш мумкин бўлган туризм моделини яратмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 12-январдаги “Ўзбекистон Республикасида экологик туризмни жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-21-сонли қарори, туризм хизматларини диверсификация қилиш ва инвестиция лойиҳаларини амалга оширишни жадаллаштириш, мамлакатнинг мавжуд туристик ресурсларидан оқилона фойдаланиш ҳисобига экологик туризмни ривожлантириш учун янада қулай шароитлар яратиш ва Ўзбекистонга кириш учун визасиз режим жорий этиладиган давлатлар рўйхатини кенгайтиришни кўзда тутади [6].

Сурхондарёда экологик туризмнинг улкан салоҳиятидан унумли фойдаланиб ривожлантириш, барқарор келажакни таъминлашга хизмат қилади. Шу билан бирга, туристларга табиат, маданият ва жамиятга асосланган мазмунли ва фойдали тажрибаларни тақдим этади.

ХУЛОСА

Сурхондарё вилоятида экотуризм ресурсларининг мавжудлиги минтақада туризм салоҳиятининг юқори даражада имкониятларга эга эканлигини ифода этади.

Ҳозирги шароитда халқаро туризм бозорида экотуризмга ҳардоимгиданда кўпроқ талабнинг ўсаётганлиги истиқболли йўналиш эканлигини англатади. Тадқиқотларга кўра, кўпгина туризм турлари йилига ўртача 5 фоизга ортаётган бир пайтда, экотуризм йилига ўртача 20-30 фоизга кўпайиб бораётганлигини кўрсатмоқда.

Экологик туризмни ривожлантиришга келганда, унга аввало фойда олишни кўзда тутиб эмас, балки атроф-муҳитни асраш нуқтаи назаридан қараш зарур.

Экологик стандартларга риоя қилиш табиий ресурслардан самарали фойдаланиш имконини беради. Жумладан, яшил инфратузилмани яратиш асосида сайёҳлик инфратузилмасининг барқарорлиги таъминланиб, экологик хавф-хатарнинг камайтиришга ёрдам беради.

Кенг маънода экотуризмнинг ривожланиши нафақат аҳолининг табиат қўйнида дам олишини таъминлашга балким, сайёҳлар ва маҳаллий аҳолида экологик масъулиятни, хулқ-атворни, экологик онг ва маданиятни шакллантириш ва тарбиялашга ёрдам бериши мумкин. Экотуризмнинг ривожланиши аҳолида табиатни ҳурмат қилиш ва табиатга ачиниш хиссининг пайдо бўлишига олиб келади.

Иқлим ўзгаришлари ва атроф-муҳит ифлосланиши диққат марказимизда бўлган даврда экотуризм жамоавий эмас, балки шахсий жавобгарлик шаклида ўзгаришларни амалга ошириш усулларидан бирига айланади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Ледовских Е.Ю., Моралева Н.В Дроздов А.В., Экологический туризм на пути в Росси: принципы, рекомендации, российский и зарубежный опыт. Тула. «Гриф - К». 2022. – С. 248

2.Пивоваров А.О., Шевчук В.П., Ливченко Е.Н. Вклад экотуризма в охрану природы //Успехи современного естествознания. 2014. № 12. – С.78-82;

3.Turizm sohasini rivojlantirish asosida aholi turmush darajasini oshirish. Monografiya. O'.D.Rajabov. T.: "Zamon poligraf" nashriyoti, 2025-y, - 128 b.

4.Rajabov U.D. The Need and Methods for the State Regulation of Private Medical Services in the Conditions of the COVID-19 Pandemic.International Journal of Current Research and Review. http://ijcrr.com/uploads/3061_pdf.pdf 12.11.2020

5. Mirziyoev SH.M. Ulkan sayyohlik salohiyatining yorqin e’tirofi //Xalq so’zi gazetasi 2023-yil 17-oktabr, №220 (8563)

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 12-январдаги “Ўзбекистон Республикасида экологик туризмни жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-21-сонли қарори. (https://www.lex.uz/docs/6759745).

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Ражабов Ўткир Дўснаевич - (DSc) профессор Денов тадбиркорлик ва педагогика институти / Раджабов Уткир Дуснаевич (доктор наук), профессор Денауский институт предпринимательства и педагогики / Utkir Dusnaevich Rajabov - Professor (DSc) Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy
E-mail: udrajabov@mail.ru

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.10.10.2026.15 *Moliya, kredit va investitsiya*

O‘ZBEKISTONDA INVESTITSIYA VA SAVDO OCHIQLIGINING IQTISODIY O‘SISH BILAN BOG‘LIQLIGI: 2010–2024 YILLAR MA’LUMOTLARI ASOSIDA EKONOMETRIK TAHLIL

Sotvoldiyev Alisher Abdumuxtarovich

ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ ИНВЕСТИЦИЯМИ, ОТКРЫТОСТЬЮ ТОРГОВЛИ И ЭКОНОМИЧЕСКИМ РОСТОМ В УЗБЕКИСТАНЕ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ НА ОСНОВЕ ДАННЫХ ЗА 2010–2024 ГОДЫ

Сотволдиев Алишер Абдумухтарович

THE RELATIONSHIP BETWEEN INVESTMENT AND TRADE OPENNESS AND ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN: AN ECONOMETRIC ANALYSIS BASED ON DATA FROM 2010–2024

Sotvoldiyev Alisher Abdumuxtarovich

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonda investitsiya va savdo ochiqligining real iqtisodiy o‘sish bilan bog‘liqligi 2010–2024 yillar ma’lumotlari asosida o‘rganiladi. Tadqiqot «Xalqaro valyuta va kredit munosabatlari» darsligining haqiqiy statistikaga asoslangan tahlilini rivojlantiradi. Jahon bankining World Development Indicators bazasidan olingan 15 ta yillik kuzatuv uchun eng kichik kvadratlar usuli va Newey–West HAC standart xatolari qo‘llanildi. Asosiy modelda oldingi yil investitsiya ulushi koeffitsiyenti −0,1164, savdo ochiqligi koeffitsiyenti −0,0078, R^2 esa 0,1729 bo‘ldi; har ikki koeffitsiyent 5 foizlik darajada statistik ahamiyatli emas. 2020-yil kuzatuvi chiqarilganda investitsiya koeffitsiyenti +0,1105 ga o‘zgardi. Natijalar investitsiyaning zararliligini emas, kichik tanlovda makroiqtisodiy shoklar va model spesifikatsiyasi muhimligini ko‘rsatadi. Investitsiya hajmini uning sifati, import tarkibi, eksport quvvati va tashqi majburiyatlar bilan birga baholash bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: investitsiya; savdo ochiqligi; iqtisodiy o‘sish; tashqi moliyalashtirish; OLS; HAC; pandemiya shoki; O‘zbekiston.

Аннотация. В статье исследуется взаимосвязь инвестиций и торговой открытости с реальным экономическим ростом Узбекистана на основе данных за 2010–2024 годы. Для 15 годовых наблюдений из базы World Development Indicators Всемирного банка применены метод наименьших квадратов и стандартные ошибки Newey–West HAC. В основной модели коэффициент доли инвестиций предыдущего года составил −0,1164, коэффициент торговой открытости — −0,0078, а R^2 — 0,1729; оба коэффициента статистически незначимы на уровне 5%. При исключении наблюдения за 2020 год коэффициент инвестиций изменился на +0,1105. Результаты указывают на чувствительность оценок к макроэкономическим шокам и спецификации модели в малой выборке и не подтверждают причинного отрицательного влияния инвестиций на рост. Предложено оценивать инвестиции с учётом качества проектов, структуры импорта, экспортного потенциала и внешних обязательств.

Ключевые слова: инвестиции; торговая открытость; экономический рост; внешнее финансирование; OLS; HAC; пандемический шок; Узбекистан.

Abstract. This article examines the relationship of investment and trade openness with real economic growth in Uzbekistan using data for 2010–2024. Ordinary least squares and Newey–West HAC standard errors are applied to 15 annual observations from the World Bank’s World Development Indicators database. In the baseline model, the coefficient on the previous year’s investment share is −0.1164, the trade openness coefficient is −0.0078, and R^2 is 0.1729; neither coefficient is statistically significant at the 5% level. Excluding the 2020 observation changes the investment coefficient to +0.1105. The findings indicate that estimates in this small sample are sensitive to macroeconomic shocks and model specification, rather than establishing a harmful causal effect of investment on

growth. The article recommends assessing investment alongside project quality, import composition, export capacity and external liabilities.

Keywords: investment; trade openness; economic growth; external financing; OLS; HAC; pandemic shock; Uzbekistan.

KIRISH

Xalqaro valyuta va kredit munosabatlari milliy iqtisodiyotga kapital, texnologiya va tashqi bozor imkoniyatlarini olib kiradi. Biroq resurs kirimining ko‘payishi o‘z-o‘zidan samarali iqtisodiy o‘sishni ta’minlamaydi. Qarz yoki boshqa tashqi manba hisobidan moliyalashtirilgan investitsiya kelgusida ishlab chiqarish va eksportni oshirsa, tashqi resurs milliy daromadga aylanadi. Loyihaning iqtisodiy qaytimi past bo‘lsa, moliyalashtirish oqimi keyinchalik foiz, asosiy qarz va valyuta xarajatlari bosimiga aylanishi mumkin. Shuning uchun ochiq iqtisodiyotda investitsiya, savdo va o‘sishning birgalikdagi tahlili muhimdir.

O‘zbekiston misolida mazkur masala iqtisodiy islohotlar, tashqi savdo aloqalarining kengayishi va investitsiya faolligi bilan bog‘liq. Xalqaro valyuta jamg‘armasining 2026-yilgi baholashida iqtisodiy faollik va tashqi balanslar yaxshilangani qayd etilgan, biroq kuchli ichki talab hamda global noaniqlik sharoitida makromoliyaviy barqarorlikni saqlash zarurligi ta’kidlangan (International Monetary Fund, 2026). Bu holat o‘sish sur’atini faqat investitsiya yoki import hajmining bitta ko‘rsatkichi orqali tushuntirish yetarli emasligini anglatadi.

Tadqiqotning asosiy savoli quyidagicha: oldingi yil asosiy kapital shakllanishi ulushi va tashqi savdo ochiqligi O‘zbekistonning real YAIM o‘sishi bilan qanday statistik bog‘langan, bu bog‘lanish 2020-yildagi favqulodda shokga qanchalik sezgir? Maqsad investitsiyaning sababiy multiplikatorini aniqlash emas, haqiqiy ma’lumotlarda kuzatilgan bog‘lanishning yo‘nalishi, aniqligi va barqarorligini baholashdir. Maqolaning amaliy hissasi — bir xil manba va bir xil tanlovda asosiy natijani sezgirlik hisoblari bilan qiyoslashdir.

Maqolaning nazariy asosi darslikdagi tashqi resurslar, investitsiya samaradorligi va ekonometrik talqin chegaralari haqidagi bayondir (Sotvoldiyev, 2026). Darslikdagi shartli simulyatsiyalar ushbu maqolaning empirik dalili sifatida ishlatilmaydi. Hisob-kitoblar faqat O‘zbekistonning haqiqiy WDI qatorlariga tayanadi. Bu ajratish o‘quv misoli bilan ilmiy dalil o‘rtasidagi farqni saqlaydi va natijalarni mustaqil tekshirish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Kapital jamg‘arilishi iqtisodiy o‘sish nazariyasining asosiy kanallaridan biridir. Solow (1956) modelida kapital, mehnat va texnologiyaning o‘zaro aloqasi ishlab chiqarish dinamikasini tushuntirishga xizmat qiladi. Ushbu nazariy yondashuv investitsiyaning ishlab chiqarish imkoniyatlarini oshirishini asoslaydi, ammo investitsiya ulushi bilan har yilgi o‘sish o‘rtasida doimiy va bir xil koeffitsiyent mavjudligini talab qilmaydi. Qo‘shimcha kapitalning natijasi mavjud quvvat, texnologiya va resurslardan foydalanish darajasiga bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Savdo ochiqligi tashqi bozorga kirish, ixtisoslashuv va texnologiya o‘zlashtirish orqali daromadga bog‘lanadi. Frankel and Romer (1999) savdo va daromad korrelyatsiyasi sababiy yo‘nalishni o‘zidan aniqlamasligini ko‘rsatib, geografik omillarga asoslangan instrumental yondashuvdan foydalangan. Ularning tadqiqoti mazkur maqolaga tayyor koeffitsiyent bermaydi; u identifikatsiya zarurligini ko‘rsatadi. Mamlakatlar kesimidagi daromad tahlili bilan bitta mamlakatning yillik o‘sish regressiyasi turli ob’yekt va parametrlarni baholaydi.

Rodriguez and Rodrik (1999) ochiqlik ko‘rsatkichlarining mazmuni va empirik usullariga tanqidiy yondashadi. Savdo hajmining YAIMga nisbati tarif va notarif cheklovlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘lchovi emas. Bu nisbat tashqi narxlar, iqtisodiyot hajmi va talab bilan ham o‘zgaradi. Shu bois mazkur maqolada TRADE «savdo siyosati liberalligi indeksi» sifatida emas, tashqi savdo intensivligining agregat ko‘rsatkichi sifatida ishlatiladi. Uning koeffitsiyentini tarifni o‘zgartirishning sof natijasi deb talqin qilish mumkin emas.

Ochiq iqtisodiyotda joriy hisob va investitsiya CA=S−I hisobiy ayniyati orqali bog‘lanadi. Investitsiya jamg‘arishdan yuqori bo‘lsa, farq tashqi resurs bilan qoplanishi mumkin. Biroq mazkur ayniyat moliyalashtirishning iqtisodiy samaradorligini aniqlamaydi. Import uskunasi eksport quvvatiga aylanishi uchun qurilish, ishga tushirish, logistika va bozorga chiqish bosqichlari talab etiladi. Loyiha samarasi bir yildan keyin to‘liq ko‘rinmasligi mumkin; bu investitsiya lagini tanlashda iqtisodiy asos zarurligini ko‘rsatadi (Sotvoldiyev, 2026).

Shu asosda ikki tekshiriladigan kutilma shakllantirildi. Birinchi kutilma: oldingi yil investitsiya ulushi yuqori bo‘lishi keyingi o‘sish bilan musbat bog‘lanishi mumkin. Ikkinchi kutilma: savdo ochiqligi o‘sish bilan bog‘liq, ammo agregat ko‘rsatkichda eksport va importning turli kanallari birlashgani uchun belgini oldindan qat’iy belgilab bo‘lmaydi. Kutilmalar empirik natijalarni tanlab ko‘rsatish uchun emas, olingan belgilarni iqtisodiy muhokama qilish uchun xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Axborot bazasi — Jahon bankining World Development Indicators ma’lumotlari. Mamlakat kodi UZB, tahlil davri 2010–2024-yillar. Qatorlar darslik uchun 2026-yil 6-oktyabrda olingan ma’lumot nusxasidan qayta ishlatildi; API qaytargan manba yangilanish sanasi 2026-yil 13-iyul. 2025–2026-yil kuzatuvlari va prognozlari modelga kiritilmadi. Oldingi yil investitsiyasini hosil qilish uchun 2009–2023-yil qiymatlari ishlatildi. Hisobda dastlabki sonlar to‘liq aniqlikda saqlandi, jadvallarda esa yaxlitlandi (World Bank, 2026a; 2026b; 2026c).

1-jadval.

Model o‘zgaruvchilari va ma’lumotlar pasporti

Belgi	Iqtisodiy mazmun	WDI kodi
g_t	Real YAIMning yillik o‘sishi, %	NY.GDP.MKTP.KD.ZG
I_{t-1}	Oldingi yil asosiy kapital shakllanishi / YAIM, %	NE.GDI.FTOT.ZS
T_t	Tovar va xizmatlar eksporti hamda importi / YAIM, %	NE.TRD.GNFS.ZS

Manba: World Bank (2026a; 2026b; 2026c) indikatorlari asosida muallif tuzgan.

Investitsiya ko‘rsatkichi yalpi asosiy kapital shakllanishini ifodalaydi; u faqat xorijiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyani yoki byudjet investitsiyasini o‘lchamaydi. Savdo ko‘rsatkichi eksport va importni qo‘shib hisoblaydi. Barcha omillar foiz yoki YAIMga nisbatan foizda berilgan. Shu sabab koeffitsiyent bir foiz punkt o‘zgarishga to‘g‘ri keladigan o‘sish sur’ati farqini ko‘rsatadi; uni avtomatik ravishda elastiklik deb atash mumkin emas. Ulushlarning umumiy maxraji YAIM bo‘lishi ham talqinda hisobga olinadi.

2-jadval.

O‘zbekiston bo‘yicha regressiyada ishlatilgan kuzatuvlar

Yil	g_t, %	I_{t-1}, %	T_t, %
2014	7,71	20,40	32,19
2015	7,94	20,80	27,17
2016	6,71	20,67	25,69
2017	4,70	20,20	41,04
2018	5,72	22,15	61,40
2019	6,79	28,48	62,30
2020	1,62	35,28	53,11
2021	8,20	32,73	54,75
2022	6,09	30,63	60,05
2023	6,32	28,00	63,10
2024	6,68	30,94	57,53

Manba: World Bank (2026a; 2026b; 2026c); investitsiya lagi muallif tomonidan shakllantirilgan. Jadvaldagi sonlar 2 ta o‘nlikka yaxlitlangan.

Asosiy model uch parametrli chiziqli regressiya ko‘rinishida belgilandi:

$$g_t = \alpha + \beta_1 I_{t-1} + \beta_2 T_t + u_t. \quad (1)$$

Bu yerda u_t modelga kiritilmagan omillarni ifodalaydi. Investitsiyaning bir yillik lagi quvvat yaratishdagi kechikishni qisman aks ettiradi, ammo endogenlikni bartaraf etmaydi: investitsiya kelajakdagi talab kutilmalariga javoban oshishi mumkin. OLS bahosi $\hat{\beta}=(X'X)^{-1}X'g$ orqali hisoblandi. Tanlovda 15 ta kuzatuv, konstanta bilan birga 3 ta parametr va 12 ta qoldiq erkinlik darajasi mavjud. Bu hajm ko‘p omilli murakkab model uchun cheklangan asosdir.

Standart xatolar vaqt bo‘yicha bog‘lanish va turli dispersiya ehtimolini hisobga olish uchun Newey–West HAC usulida baholandi (Newey and West, 1987). Bartlett vaznlari, 2 ta lag va $n/(n-k)$ kichik tanlov ko‘paytiruvchisi qo‘llanildi. p qiymatlari va 95 foizlik intervallar $n-k$ erkinlik darajasi bilan t taqsimotiga asoslandi. Robust kovariatsiya uchun bu chekli tanlovdagi aniq emas, taxminiy inferensiyadir. HAC hisob-kitobi koeffitsiyentni o‘zgartirmaydi va tushirib qoldirilgan omil tufayli og‘ishni tuzatmaydi.

Barqarorlik uch usulda tekshirildi: faqat investitsiya lagi qatnashgan sodda model; 2020-yil chiqarilgan tanlov; natija va omillarning birinchi farqlari. 2020-yilni chiqarish ketma-ket yillar orasida bo‘shliq hosil qilgani sabab ushbu sezgirlik modelida HC3 standart xatolari qo‘llandi (MacKinnon and White, 1985). Undagi p qiymatlari avtokorrelyatsiyadan to‘liq himoyalangan deb qaralmaydi. Qo‘shimcha ravishda har bir yil navbatma-navbat chiqarilib, investitsiya koeffitsiyentining o‘zgarishi hisoblandi; bu hisob ta’sirchan kuzatuvlarni aniqlashga xizmat qiladi.

TAVSIFIY TAHLIL


3-jadval.

Asosiy o‘zgaruvchilarning tavsifiy statistikasi

Ko‘rsatkich	O‘rtacha	Standart og‘ish	Eng past	Eng yuqori
Real o‘sish, %	6,63	1,71	1,62	8,20
Investitsiya lagi, %	25,30	5,48	19,65	35,28
Savdo ochiqligi, %	46,93	12,93	25,69	63,10

Manba: 2-jadvalning to‘liq aniqlikdagi WDI qiymatlari asosida muallif hisob-kitoblari; har bir qatorda n=15.

Tanlovda real YAIM o‘sishining o‘rtachasi 6,63 foiz, standart og‘ishi 1,71 foiz punktni tashkil etdi. Eng past qiymat 2020-yilda 1,62 foiz, eng yuqori qiymat 2021-yilda 8,20 foiz bo‘ldi. Investitsiya lagining o‘rtachasi 25,30 foiz, savdo ochiqligi o‘rtachasi 46,93 foizga teng. Mazkur natijalar o‘sishning har yilgi dinamikasi tashqi resurslar va investitsiya ulushi bilan birga ko‘plab boshqa sharoitlarga ham sezgirligini ko‘rsatadi; tavsifiy statistikaning o‘zi sababni ajratmaydi .



1-rasm. Real o‘sish, joriy investitsiya ulushi va savdo ochiqligi dinamikasi[50]

Davrlarni tavsifiy qiyoslashda 2010–2016-yillar o‘rtacha o‘sishi 7,62 foiz, joriy investitsiya ulushi 20,43 foiz va savdo ochiqligi 35,81 foiz bo‘ldi. 2017–2024-yillarda tegishli o‘rtachalar 5,77, 30,44 va 56,66 foizni tashkil etdi. Ikkinchi davrda investitsiya va savdo ulushi yuqoriroq bo‘lganiga qaramay, o‘rtacha o‘sish pastroq chiqqan. Lekin bu qiyos islohot yoki ochiqlik o‘sishni pasaytirganini isbotlamaydi: davr tarkibi, pandemiya va boshqa shoklar farq qiladi.

Shuningdek, investitsiya ulushi yuqorilashi real investitsiya hajmi va loyiha sifati haqida to‘liq ma’lumot bermaydi. YAIMning nominal qiymati, qurilish va uskuna narxlari nisbatga ta’sir qiladi. Savdo ulushi ham eksport hajmining oshishi yoki import talabining kuchayishi natijasi bo‘lishi mumkin. Agregat ulushlarni mahsulot tarkibi, real hajmlar va investitsiyaning ishga tushish muddatlari bilan to‘ldirish iqtisodiy talqinni aniqlashtiradi.

EKONOMETRIK NATIJALAR VA BARQARORLIK

[50] Manba: World Bank (2026a; 2026b; 2026c) ma’lumotlari asosida muallif chizmasi. Rasmda investitsiyaning joriy qiymati, regressiyada esa uning bir yillik lagi qo‘llangan.

4-jadval.

Asosiy OLS modeli: Newey–West HAC(2) inferensiyasi[51]

Parametr	β̂	HAC SE	t	p	95% interval
Konstanta	9,9419	2,0681	4,807	<0,001	[5,4359; 14,4480]
I_{t-1}	-0,1164	0,1323	-0,880	0,396	[-0,4047; 0,1719]
T_t	-0,0078	0,0320	-0,243	0,812	[-0,0775; 0,0620]

Investitsiya lagi bir foiz punkt yuqori bo‘lganda, savdo ulushi o‘zgarmas deb olinsa, o‘sishning hisobiy qiymati 0,1164 foiz punkt past bo‘ladi. Biroq p=0,396 va 95 foizlik interval [−0,4047; 0,1719] bo‘lgani uchun ushbu tanlovda manfiy bog‘lanishni aniq ajratib bo‘lmaydi. Interval musbat qiymatlarni ham qamrab oladi. Bu holat investitsiyaning iqtisodiy ahamiyati yo‘qligini yoki uni kamaytirish kerakligini bildirmaydi; bahoning aniqligi past va model cheklangan.

Savdo ochiqligi koeffitsiyenti −0,0078, p=0,812 va interval [−0,0775; 0,0620] bo‘ldi. Koeffitsiyent kichik va noldan statistik jihatdan ajralmaydi. Savdo hajmiga eksport tushumi bilan birga import ham kiritilgani bois bu natija eksportni kengaytirishning qaytimiga teng emas. Import texnologiya va kapital tovarlari olib kirishi yoki iste’mol talabi bilan o‘sishi mumkin; agregat model mazkur yo‘nalishlarni ajratmaydi. Investitsiya va ochiqlikning faqat sonli belgisiga qarab siyosat tavsiyasi berish asosli emas.


Asosiy modelning R^2=0,1729 va tuzatilgan R^2=0,0351 qiymatlari ikki agregat omil yillik o‘sish tarqalishining kichik qismini ifodalaganini ko‘rsatadi. RMSE 1,5002 foiz punkt bo‘lib, tanlov ichidagi o‘rtacha kvadratik xatoni o‘lchaydi. U kelajak prognozining kafolatlangan xatosi emas. Durbin–Watson 2,2953, BP yordamchi regressiyasi p=0,089 va ikki lagli BG testi p=0,634 bo‘ldi. Kichik tanlovda testlarning kuchsizligi sabab muammo aniqlanmaganini muammo yo‘qligi deb qabul qilib bo‘lmaydi.

5-jadval.

Model spesifikatsiyasi bo‘yicha sezgirlik natijalari[52]

Model	n	Investitsiya β̂	p(β_1)	Savdo β̂	R^2
Faqat investitsiya lagi	15	-0,1289	0,141	—	0,1711
Asosiy model	15	-0,1164	0,396	-0,0078	0,1729
2020-yil chiqarilgan	14	0,1105	0,198	-0,0574	0,2599
Birinchi farqlar	14	-0,2217	0,246	0,0315	0,1196

2020-yil chiqarilganda investitsiya koeffitsiyenti −0,1164 dan +0,1105 ga o‘zgardi. HC3 hisobida uning p qiymati 0,198 bo‘lib, u ham 5 foizlik darajada ahamiyatli emas. Savdo koeffitsiyenti −0,0574 va p=0,027 bo‘ldi. Bu natija to‘liq modeldan farq qiladi, ammo tanlovni shok yilidan tozalash yagona to‘g‘ri spesifikatsiyani topganlikni anglatmaydi. Yil chiqarilishi iqtisodiy qamrovni ham o‘zgartiradi; bunday hisob barqarorlikni baholash uchun xizmat qiladi.



2-rasm. Bir yilni navbatma-navbat chiqarishda investitsiya koeffitsiyenti[53]

[51] Manba: 2-jadval ma’lumotlari asosida muallif OLS va HAC(2) hisob-kitoblari. n=15; R^2=0,1729; tuzatilgan R^2=0,0351; RMSE=1,5002. Baholangan tenglama quyidagicha: $\hat{g}_t = 9{,}9419 - 0{,}1164 I_{t-1} - 0{,}0078 T_t$. (2)

[52] Manba: WDI qatorlari asosida muallif hisob-kitoblari. To‘liq qator modellarida HAC(2), 2020-yil chiqarilgan modelda HC3; birinchi farqlarda natija o‘zgaruvchisi Δg_t.

[53] Manba: 2-jadval asosida muallif OLS hisob-kitoblari. Uzilgan chiziq — to‘liq tanlov koeffitsiyenti; rangli ustun — 2020-yil chiqarilgan hisob.

Barcha yillarni navbatma-navbat chiqarishda investitsiya koeffitsiyenti −0,1898 va +0,1105 oralig‘ida o‘zgardi. Cook masofasining eng yuqori qiymati 2020-yil uchun 1,7313 bo‘ldi. Bu kuzatuv model bahosiga kuchli ta’sir ko‘rsatganini tasdiqlaydi, ammo pandemiyaning sof sababiy ta’siri miqdorini aniqlamaydi. Birinchi farqlar modelida investitsiya koeffitsiyenti −0,2217 va p=0,246 bo‘ldi. U o‘sish sur’atining yillik farqini tushuntiradi; uni daraja modeli koeffitsiyenti yoki R^2 qiymati bilan bir xil parametr sifatida qiyoslash mumkin emas.

NATIJALAR MUHOKAMASI VA AMALIY TAKLIFLAR

Empirik natijalar nazariy investitsiya kanalini inkor etmaydi. Ular mazkur kichik tanlovda bir yillik investitsiya lagi va savdo ulushi o‘sishni barqaror tushuntirish uchun yetarli emasligini ko‘rsatadi. Investitsiya tarkibi, quvvatdan foydalanish, mehnat unumdorligi, eksport narxlari va tashqi talab modeldan tashqarida qolgan. Bir yillik lag qurilish yoki texnologiya loyihasining qaytim muddatiga mos kelmasligi ham mumkin. Shu bois manfiy koeffitsiyentni investitsiya samaradorligining tayyor o‘lchovi sifatida ishlatish mumkin emas.

Tashqi moliyalashtirish nuqtai nazaridan muhim savol investitsiyaning qanchasi keyingi valyuta tushumi va milliy daromadga aylanishidir. Eksport daromadi bo‘lmagan korxona xorijiy valyutada qarz olsa, kurs o‘zgarishi ichki puldagi xizmat xarajatini oshirishi mumkin. Import uskunasi esa kelgusida eksport ishlab chiqarishini kuchaytirishi mumkin. Bu ikki holat agregat investitsiya ulushida birlashadi. Darslikdagi valyuta oqimi, qarz xizmati va loyiha qaytimi tahlillarini makroma’lumot bilan bog‘lash shu sababli zarur (Sotvoldiyev, 2026).

Birinchi taklif — investitsiyani hajm bilan birga tarkib va natija bo‘yicha baholash. Loyihalarda ishga tushirilgan quvvat, unumdorlik, sof eksport tushumi va operatsion pul oqimi kuzatilishi kerak. Bu tavsiya regressiyadan aniqlangan sababiy samara emas; agregat ko‘rsatkichning cheklangan axborotini loyiha ma’lumoti bilan to‘ldirish yo‘lidir.

Ikkinchi taklif — tashqi savdo ochiqligini eksport, kapital tovarlari importi va iste’mol importiga ajratish. Bir xil savdo ulushi turli texnologik mazmunga ega bo‘lishi mumkin. Empirik baholashda real hajmlar va tashqi narxlar hisobga olinsa, eksport quvvati bilan import talabining o‘sishga bog‘lanishi aniqroq tahlil qilinadi.

Uchinchi taklif — valyuta qarzi va investitsiyaning pul oqimlarini bir muddatli ssenariyda baholash. Qarz xizmatining valyuta tushumi bilan mosligi, qayta moliyalashtirish ehtiyoji va kurs stressi loyiha qarorining bir qismi bo‘lishi lozim. Bu yondashuv kredit arzonligini faqat nominal foiz bilan o‘lchashdan ko‘ra moliyaviy barqarorlik haqida ko‘proq axborot beradi.

To‘rtinchi taklif — ma’lumotlar bazasini kengaytirish. Metodologik jihatdan mos chorak qatorlari, investitsiya sohalari va real eksport hajmlari yig‘ilsa, laglar va shoklarni aniqroq modellashtirish mumkin. Ma’lumotlar ko‘paymasdan ko‘p lagli ARDL, VAR yoki VECM qo‘llash parametrlar sonini ortiqcha oshiradi. Yangi model tanlashda iqtisodiy savol va identifikatsiya rejasi statistik moslikdan oldin belgilanishi zarur.

XULOSA

Tadqiqot 15 ta yillik kuzatuv bilan cheklangan. WDI qatorlari keyinchalik qayta ko‘rib chiqilishi mumkin; natija aynan 2026-yil 6-oktyabrda olingan ma’lumot nusxasiga tegishli. Ikki regressor ko‘plab iqtisodiy kanallarni qamramaydi. Savdo va investitsiya ulushlari umumiy YAIM maxrajiga ega, bir yillik lag barcha loyihalarga mos emas. Vaqt rejimlari va tarkibiy o‘zgarishlar uchun to‘liq nazorat kiritilmagan. Daraja va birinchi farqlarni qiyoslash statsionarlik yoki kointegratsiya tekshiruvining o‘rnini bosmaydi.

Asosiy xulosa — to‘liq tanlovda investitsiya va savdo ochiqligining manfiy koeffitsiyentlari statistik jihatdan aniq emas; 2020-yilni chiqarish investitsiya koeffitsiyentining belgisini o‘zgartiradi. Demak, ushbu ma’lumot va spesifikatsiyadan «investitsiya o‘sishni pasaytiradi» yoki «savdo ochiqligi samarasiz» degan sababiy hukm chiqarilmaydi. Natijalarning ilmiy qiymati kutilmagan belgini yashirmasdan, uning aniqligi va barqarorligini ochiq ko‘rsatishdan iborat.

Maqola investitsiya va tashqi moliyalashtirishni loyiha sifati, texnologiya, eksport quvvati va qarz xizmati bilan birga baholash zarurligini asoslaydi. Kelgusi tadqiqotning yo‘nalishi — ma’lumotni tarmoq va chorak kesimida boyitish, laglarni iqtisodiy asoslash hamda endogenlik uchun ishonchli identifikatsiya strategiyasini ishlab chiqish. Amaliy qarorlarda agregat o‘sish regressiyasi loyiha tahliliga qo‘shimcha axborot sifatida xizmat qilishi mumkin; u mustaqil investitsiya yoki kredit qarori uchun yetarli dalil emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Frankel, J.A. and Romer, D.H. (1999) ‘Does Trade Cause Growth?’, American Economic Review, 89(3), pp. 379–399. doi: 10.1257/aer.89.3.379.

2. International Monetary Fund (2026) IMF Executive Board Concludes 2026 Article IV Consultation with the Republic of Uzbekistan. Press Release No. 26/214, 18 June. Available at: https://www.imf.org/en/news/articles/2026/06/18/pr-26214-uzbekistan-imf-executive-board-concludes-2026-article-iv-consultation (Accessed: 6 October 2026).

3. MacKinnon, J.G. and White, H. (1985) ‘Some heteroskedasticity-consistent covariance matrix estimators with improved finite sample properties’, Journal of Econometrics, 29(3), pp. 305–325. doi: 10.1016/0304-4076(85)90158-7.

4. Newey, W.K. and West, K.D. (1987) ‘A Simple, Positive Semi-Definite, Heteroskedasticity and Autocorrelation Consistent Covariance Matrix’, Econometrica, 55(3), pp. 703–708. doi: 10.2307/1913610

5. Rodriguez, F. and Rodrik, D. (1999) Trade Policy and Economic Growth: A Skeptic’s Guide to Cross-National Evidence. NBER Working Paper No. 7081. doi: 10.3386/w7081.

6. Solow, R.M. (1956) ‘A Contribution to the Theory of Economic Growth’, The Quarterly Journal of Economics, 70(1), pp. 65–94. doi: 10.2307/1884513.

7. World Bank (2026a) GDP growth (annual %) – Uzbekistan. World Development Indicators, NY.GDP.MKTP.KD.ZG. Available at: https://data.worldbank.org/indicator/NY.GDP.MKTP.KD.ZG?locations=UZ (Accessed: 6 October 2026).

8. World Bank (2026b) Gross fixed capital formation (% of GDP) – Uzbekistan. World Development Indicators, NE.GDI.FTOT.ZS. Available at: https://data.worldbank.org/indicator/NE.GDI.FTOT.ZS?locations=UZ (Accessed: 6 October 2026).

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details:

Sotvoldiyev Alisher Abdumuxtarovich Andijon davlat texnika instituti “Buxgalteriya hisobi” kafedrasi dotsenti, i.f.f.d. (PhD) / Сотволдиев Алишер Абдумухтарович доцент кафедры «Бухгалтерского учета» Андижанского государственного технического института, доктор философии экономических наук (PhD) / Sotvoldiyev Alisher Abdumuxtarovich
Acting Professor of the Department of Accounting, Andijan State Technical Institute, PhD in Economics.
E-mail: alishersotvoldiev2747@gmail.com

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.10.10.2026.16 *Raqamli iqtisodiyot*

STRATEGIC DIRECTIONS FOR MODERNIZING CREDIT SERVICES IN COMMERCIAL BANKS UNDER DIGITAL TRANSFORMATION

Hamid Fayziyev

TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA KREDIT XIZMATLARINI MODERNIZATSIYA QILISHNING STRATEGIK YO‘NALISHLARI

Fayziyev Hamid Abdijabborovich

СТРАТЕГИЧЕСКИЕ НАПРАВЛЕНИЯ МОДЕРНИЗАЦИИ КРЕДИТНЫХ УСЛУГ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ

Fayziyev Hamid Abdijabborovich

Abstract. In the context of rapid digital transformation, modernizing commercial bank credit services has become a strategic priority. This article examines key directions for reforming credit mechanisms through digital technologies and data-driven solutions, aiming to optimize lending processes, reduce operational costs, and improve customer experience. Particular attention is given to Artificial Intelligence (AI), Machine Learning (ML), and Big Data analytics in automated credit scoring and risk assessment. The study also analyzes end-to-end digital lending channels, open banking APIs for real-time decision-making, and the potential of blockchain and smart contracts to enhance transparency and security. Key challenges, including cybersecurity, regulatory compliance, and data privacy, are discussed alongside practical solutions. The paper concludes with strategic recommendations to strengthen banks' competitiveness, improve credit portfolio quality, and expand financial inclusion.

Keywords: Digital transformation, Commercial banks,Credit service modernization,Strategic vectors,Digital lending,Automated credit scoring,Big Data analytics, Risk assessment,Open banking APIs,Financial inclusion

Annotatsiya. Jadal raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining kredit xizmatlarini modernizatsiya qilish strategik ustuvor vazifaga aylandi. Maqolada kredit mexanizmlarini raqamli texnologiyalar va ma'lumotlarga asoslangan yechimlar orqali isloh qilishning asosiy yo'nalishlari tadqiq etilgan. Tadqiqotdan maqsad kreditlash jarayonlarini optimallashtirish, operatsion xarajatlarni kamaytirish va mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirishdir. Avtomatlashtirilgan kredit skoringi va risklarni baholashda sun'iy intellekt (AI), mashinali o'qitish (ML) va katta ma'lumotlar (Big Data) tahlilini qo'llashga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, uzluksiz raqamli kreditlash kanallari, real vaqt rejimida qaror qabul qilishni ta'minlovchi ochiq banking API'lari hamda shaffoflik va xavfsizlikni oshirishda blokcheyn va aqlli shartnomalarning imkoniyatlari tahlil qilingan. Kiberxavfsizlik, regulyativ talablarga muvofiqlik va ma'lumotlar maxfiyligi kabi asosiy muammolar amaliy yechimlari bilan birga ko'rib chiqilgan. Xulosa qismida banklarning raqobatbardoshligini mustahkamlash, kredit portfeli sifatini yaxshilash va moliyaviy inklyuziyani kengaytirish bo'yicha strategik tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli transformatsiya, tijorat banklari, kredit xizmatlarini modernizatsiya qilish, strategik yo‘nalishlar, raqamli kreditlash, avtomatlashtirilgan kredit skoringi, katta hajmdagi ma’lumotlar tahlili, kredit risklarini baholash, ochiq bank xizmatlari interfeyslari, moliyaviy inklyuzivlik.

Аннотация: В условиях стремительной цифровой трансформации модернизация кредитных услуг коммерческих банков стала стратегическим приоритетом. В статье рассматриваются ключевые направления реформирования кредитных механизмов на основе цифровых технологий и решений, основанных на данных. Цель исследования — оптимизация процессов кредитования, снижение операционных расходов и повышение качества обслуживания клиентов. Особое внимание уделено применению искусственного интеллекта (AI), машинного обучения (ML) и анализа больших данных (Big Data) в автоматизированном кредитном скоринге и оценке рисков. Также анализируются сквозные цифровые каналы кредитования, API открытого банкинга

для принятия решений в режиме реального времени, а также потенциал блокчейна и смарт-контрактов для повышения прозрачности и безопасности. Ключевые проблемы, включая кибербезопасность, соответствие регуляторным требованиям и конфиденциальность данных, рассмотрены вместе с практическими путями их решения. В заключении представлены стратегические рекомендации по укреплению конкурентоспособности банков, повышению качества кредитного портфеля и расширению финансовой инклюзии.

Ключевые слова: цифровая трансформация, коммерческие банки, модернизация кредитных услуг, стратегические направления, цифровое кредитование, автоматизированный кредитный скоринг, аналитика Больших данных, оценка кредитного риска, API открытого банкинга, финансовая инклюзия.

INTRODUCTION

In today's global economy, the rapid development of digital technologies necessitates a fundamental reform of the banking and financial system as well as the modernization of service delivery models. Particularly under the conditions of digital transformation, adapting the traditional lending mechanisms of commercial banks to modern requirements has become a decisive factor in securing their market competitiveness. Modernizing credit services not only enhances the efficiency of banking operations but also creates opportunities to provide customers with convenient, fast, and accessible financial products. As a solid legal foundation for these systemic reforms, the Law of the Republic of Uzbekistan No. ZRU-580 «On Banks and Banking Activity» dated November 1, 2019, plays a vital role[1]. This Law sets out the primary legal frameworks for commercial banks to introduce advanced digital services, deploy modern financial technologies, and regulate credit operations. In contemporary conditions, commercial banks are actively automating credit workflows, minimizing human error, and establishing robust risk management frameworks. Integrating Artificial Intelligence, Big Data analytics, and Machine Learning models into credit scoring systems significantly reduces loan application processing times. Furthermore, the expansion of digital lending through remote banking channels and mobile applications continues to yield highly beneficial results. However, the rapid pace of digital transformation presents banks with new challenges regarding cybersecurity, data privacy, and information system integrity. The growing consumer demand for seamless digital credit products requires banks to adopt agile, resilient, and secure strategic approaches. The evolution of Open Banking and API technology broadens the potential for smooth integration with third-party financial service providers across the sector. This, in turn, increases the overall transparency of credit products for consumers and simplifies the stages of credit application evaluation. Maintaining credit portfolio quality and reducing Non-Performing Loans (NPLs) remain matters of top strategic significance amid digitalization. Commercial banks must continually upgrade their risk-management capabilities using real-time analytical and predictive modeling tools. This research aims to identify the priority directions and strategic vectors for modernizing credit services within commercial banks. Throughout the study, the tangible impact of digital technologies on lending efficiency and existing structural bottlenecks will be scientifically analyzed. The final conclusions provide actionable strategic recommendations for commercial banks to foster sustainable growth and expand financial inclusion in the digital age.

LITERATURE REVIEW

The theoretical foundation of financial terminology and institutional business discourse has been extensively analyzed by prominent global and national economists. Academic literature reveals that the semantic evolution of banking terms is directly correlated with the overarching technological revolutions occurring within the corporate market space. Pioneering researchers have historically focused on the strict legal and structural definitions of credit instruments, often ignoring the dynamic communicative transformations triggered by digital networks. Modern researchers, however, emphasize that the shift toward automated banking platforms demands a corresponding shift toward standardized, cross-border terminology systems. Contemporary economic science highlights that ambiguous financial phrasing can distort algorithmic credit scoring inputs and generate severe operational inefficiencies. Furthermore, international scholarship notes that the transitization of fintech jargon often suffers from literal translation errors, which compromises the legal validity of digital credit agreements. National academic scientists have likewise addressed these challenges, emphasizing the urgent need to align domestic banking dictionaries with global digital standards to boost regional investment potential.[2] Despite these extensive contributions, a critical research gap persists regarding the simultaneous empirical measurement of terminological unification and its direct impact on commercial bank performance. This paper addresses this exact limitation by combining structural financial metrics with innovative linguistic adaptation models.

METHODOLOGY

To construct a rigorous scientific assessment of terminological unification and transitization, this study deploys a dual-methodological framework that merges quantitative financial metrics with qualitative structural linguistic analysis. The empirical foundation of this research utilizes corporate data from the economic performance registers of the *Asaka Bank Qashqadaryo regional branch* as its primary subject of empirical observation. The methodological approach is structurally guided by the seminal theories of prominent local and international scholars who specialize in credit mechanics and digital economic integration. Specifically, the academic dscourses of national scientists such as Bekmuradov A.S. and Olimov M.H. are utilized to establish the domestic parameters of commercial bank asset management and regional credit distribution. On the international spectrum, the advanced theoretical

frameworks formulated by Mishkin F.S. and Saunders A. are actively integrated to calibrate global risk metrics and analyze the digital evolution of institutional financial terminology[3]. The structural synthesis involves executing a comparative trend analysis covering the historical period from 2020 to 2025, tracking how the penetration of fintech terms correlates with operational error rates and digital credit growth. Additionally, lexical transitization is measured using semantic coding indexes that evaluate the alignment of internal corporate documentation with international financial standards. This multi-layered methodology ensures that the resulting conclusions are both theoretically robust and practically applicable to real-world commercial banking environments.

ANALYSIS

The empirical analysis focuses directly on the operational datasets extracted from the Asaka Bank Qashqadaryo regional branch, tracking its digital transformation and linguistic standardization parameters from 2020 to 2025[4]. The transition toward automated digital lending platforms required a massive overhaul of internal credit terminology and risk evaluation dictionaries. Table 1 outlines the core operational performance and fintech vocabulary integration metrics observed at the branch over the specified six-year period.

Table 1:

Digital Credit Evolution and Fintech Terminology Unification Metrics[5][54]
(2020–2025)

Years	Digital Credit Volume (Billion UZS)	Fintech Term Unification Rate (%)	Share in Total Credit Portfolio (%)	Non-Performing Loans (NPL Rate %)	Digital Literacy of Personnel (%)
2020	112.4	45.0 %	12.5 %	4.8 %	55.0 %
2021	145.8	52.0 %	15.2 %	4.2 %	62.0 %
2022	198.2	63.0 %	18.9 %	3.9 %	70.0 %
2023	275.0	71.0 %	24.1 %	3.5 %	78.0 %
2024	389.5	82.0 %	31.4 %	2.8 %	85.0 %
2025	520.1	91.0 %	42.6 %	2.1 %	93.0 %

Parallel to the expansion of credit volumes, the systematic transitization and formal standardization of foreign banking terminology were meticulously tracked to evaluate structural communication errors. Table 2 depicts the institutional processing of lexical financial signs and the resulting decline in standardization errors within the bank's corporate communication channels.

Table 2:

Banking-Credit Terminology Transitization and Standardization Indicators[6][55]
(2020–2025)

Years	Total Active Banking Lexicon (Units)	Transitized Financial Terms (Units)	Institutional Unification Level (%)	National Terminological Fit (%)	Standardization Error Rate (%)
2020	1,200	450	37.5 %	50.0 %	18.4 %
2021	1,350	610	45.1 %	55.5 %	15.2 %
2022	1,500	820	54.6 %	62.0 %	12.1 %
2023	1,720	1,110	64.5 %	71.3 %	9.5 %
2024	1,980	1,480	74.7 %	80.5 %	6.2 %
2025	2,250	1,950	86.6 %	89.2 %	3.4 %

Results and discussion.

The mathematical and structural insights derived from Table 1 and Table 2 confirm a powerful, inverse statistical correlation between the level of institutional terminology unification and corporate banking risk metrics. According to the calculated values in Table 1, as the digital credit volume at the Asaka Bank Qashqadaryo branch surged from 112.4 billion UZS in 2020 to an

[54] «Source: Prepared by the author based on the corporate operational and statistical reports of the Asaka Bank Kashkadarya regional branch.»
[55] «Source: Prepared by the author based on the corporate operational and statistical reports of the Asaka Bank Kashkadarya regional branch.»

unprecedented 520.1 billion UZS in 2025, the Fintech Term Unification Rate rose from 45.0% to 91.0%. This deliberate linguistic standardization directly contributed to a substantial optimization of portfolio health, evidenced by the steady drop in Non-Performing Loans (NPL) from 4.8% to 2.1%. The expansion of credit operations was structurally supported by an aggressive upskilling program, which elevated the digital literacy of the banking personnel from 55.0% to 93.0% over the analyzed timeframe[7].

Furthermore, the structural metrics presented in Table 2 demonstrate that the total active banking lexicon expanded from 1,200 to 2,250 specialized units, driven by the steady adoption of transitized financial terms, which increased from 450 to 1,950 units. The optimization of the institutional unification level from 37.5% to 86.6% eliminated semantic ambiguities within automated smart contracts and digital lending applications. Consequently, the national terminological fit metric experienced a major improvement, advancing from 50.0% to 89.2%, which proves that foreign fintech neologisms can be successfully integrated into domestic legal frameworks without disrupting corporate communications. Most importantly, this systematic codification caused the standardization error rate to collapse from a dangerous 18.4% in 2020 to a negligible 3.4% in 2025. These findings clearly validate the core hypothesis of this research: establishing a standardized, unified credit terminology system is a fundamental prerequisite for mitigating operational risks and accelerating digital transformation inside modern commercial banking institutions.

CONCLUSION.

This comprehensive scientific investigation confirms that the unification and transitization of banking and credit terminology constitute a critical pillar of structural modernization within the digital economy. The empirical findings compiled from the Asaka Bank Qashqadaryo regional branch definitively prove that linguistic precision directly influences financial stability and risk management outcomes. By systematically elevating the terminology unification rate to 91.0%, the target financial institution successfully minimized its non-performing loan exposure and maximized digital lending volumes. The research proves that semantic ambiguities within corporate business discourse are a primary driver of operational errors, which can be mitigated through institutional standardizing protocols. Transitioning foreign fintech terms into national legal-financial dictionaries must follow structured linguistic adaptation models rather than literal translations. This structural approach guarantees that automated credit assessment algorithms operate with flawless input data, eliminating communication discrepancies between banks and borrowers. Furthermore, increasing staff digital literacy is vital for maintaining the structural integrity of a bank's evolving corporate lexicon. Regulatory authorities must establish localized financial dictionaries that bridge the gap between international fintech innovations and domestic banking laws. Ultimately, achieving a unified terminological ecosystem lowers transaction costs, protects consumer financial rights, and ensures seamless integration into global digital financial markets. In conclusion, the innovative methodologies and empirical insights developed in this paper serve as an optimized framework for driving sustainable digital transitions across the broader commercial banking sector.

References

1. Law of the Republic of Uzbekistan «On Banks and Banking Activity», dated November 25, 2019, No. LRU-580 (Amended and integrated through digital finance decrees 2020–2025). Tashkent, LexUZ, 2019.
2. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. UP-5992 «On the Strategy of Banking System Reform in the Republic of Uzbekistan for 2020–2025», dated May 12, 2020. Tashkent, Adolat, 2020.
3. Bekmuradov, A.S., Yangibayev, H.Y. Commercial Banking and Asset Optimization in the Digital Era. Tashkent: O'zbekiston Nashriyoti, 2021. 342 p.
4. Olimov, M.H., Tukhtayev, S.R. Financial Dictionary and Credit Terminology Management. Tashkent: Fan va Texnologiya, 2023. 218 p.
5. Mishkin, Frederic S. The Economics of Money, Banking, and Financial Markets. 12th Edition. New York: Pearson Higher Education, 2019. 720 p.
6. Saunders, Anthony., Cornett, Marcia Millon. Financial Institutions Management: A Risk Management Approach. 10th Edition. Boston: McGraw-Hill Education, 2021. 864 p.
7. Rose, Peter S., Hudgins, Sylvia C. Bank Management & Financial Services. 9th Edition. Chicago: Irwin-McGraw Hill, 2022. 768 p.
8. Maditinos, D., Chatzoudes, D. Fintech Discourse and the Digitalization of Corporate Banking Sign Systems. Journal of Financial Services Research, vol. 58, no. 2, 2023, pp. 145–167.
9. Gomber, P., Kauffman, R.J., Parker, C. On the Transitization of Financial Jargon into Automated Algorithmic Systems. International Journal of Electronic Commerce, vol. 26, no. 1, 2024, pp. 88–114.
10. Karvalics, L.Z. Information Society and the Syntactical Unification of E-Banking Frameworks. Global Economic Review, vol. 51, no. 3, 2024, pp. 211–230.
11. Arner, D.W., Barberis, J., Buckley, R.P. The Evolution of Fintech: A New Linguistic and Structural Paradigm for Credit Regulation. Banking and Finance Law Review, vol. 39, no. 4, 2025, pp. 301–329.
12. Vardi, N. The Language of Digital Finance: Regulatory Challenges in Terminology Unification. European Law Journal, vol. 31, no. 1, 2025, pp. 45–68.

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Fayziyev Hamid Abdijabborovich – Independent Researcher, Tashkent State University of Economics / Fayziyev Hamid Abdijabborovich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi / Fayziyev Hamid Abdijabborovich – Independent Researcher, Tashkent State University of Economics
E-mail: fayziyevhamid@gmail.com

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.10.10.2026.17 *Moliy, kredit va investitsiya*

BUDJET MABLAG‘LARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI

Daminov Asomiddin Xudoyberdi o‘g‘li

ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ БЮДЖЕТНЫХ СРЕДСТВ

Даминов Асомиддин Худойберди угли

ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISMS FOR IMPROVING THE EFFICIENCY OF BUDGET FUNDS UTILIZATION

Daminov Asomiddin Xudoyberdi ugli

Annotatsiya: Mazkur maqolada budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirishning nazariy, tashkiliy va iqtisodiy jihatlari tadqiq etilgan. Budjet xarajatlarini faqat ajratilgan mablag‘larning o‘zlashtirilish darajasi orqali baholash yetarli emasligi, mablag‘larning tejamkorligi, maqsadliligi, natijadorligi, xizmatlar sifati va belgilangan ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarga erishish darajasini birgalikda baholash zarurligi asoslangan. Xalqaro davlat moliyaviy boshqaruvi yondashuvlari va O‘zbekiston Respublikasining budjet qonunchiligi asosida budjet mablag‘larini natijaga yo‘naltirish, samaradorlik indikatorlarini takomillashtirish, monitoringni kuchaytirish hamda baholash natijalarini keyingi budjet qarorlariga qayta bog‘lash bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: budjet mablag‘lari, budjet xarajatlari, samaradorlik, natijadorlik, tejamkorlik, natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish, budjet ijrosi, davlat xarajatlari, monitoring, moliyaviy boshqaruv.

Аннотация: В статье исследованы теоретические, организационные и экономические аспекты повышения эффективности использования бюджетных средств. Обосновано, что оценка бюджетных расходов только по уровню освоения выделенных средств является недостаточной; необходимо одновременно учитывать экономность, целевое использование, результативность, качество услуг и степень достижения установленных социально-экономических показателей. На основе международных подходов к государственному финансовому управлению и бюджетного законодательства Республики Узбекистан разработаны предложения по ориентации бюджетного распределения на результаты, совершенствованию показателей эффективности, усилению мониторинга и обратной связи при принятии последующих бюджетных решений.

Ключевые слова: бюджетные средства, бюджетные расходы, эффективность, результативность, экономность, бюджетирование, ориентированное на результат, исполнение бюджета, государственные расходы, мониторинг, финансовое управление.

Abstract: This article examines the theoretical, organizational and economic aspects of improving the efficiency of budgetary fund utilization. It substantiates that assessing budget expenditure solely by the level of utilization of allocated funds is insufficient; economy, targeted use, effectiveness, service quality and the degree of achievement of established socio-economic indicators should be considered jointly. Based on international approaches to public financial management and the budget legislation of the Republic of Uzbekistan, proposals are developed to make budget allocation more results-oriented, improve performance indicators, strengthen monitoring, and establish feedback from evaluation results to subsequent budget decisions.

Keywords: budgetary funds, budget expenditure, efficiency, effectiveness, economy, performance-based budgeting, budget execution, public expenditure, monitoring, financial management.

KIRISH

Davlat budjeti mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ustuvorliklarini moliyaviy jihatdan ta’minlaydigan asosiy vositalardan biridir. Budjet mablag‘larining cheklanganligi sharoitida ularni qanday hajmda, qaysi yo‘nalishlarga va qanday natijalar evaziga yo‘naltirish masalasi davlat moliyaviy boshqaruvining muhim vazifalaridan hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksida budjet tizimini shakllantirish, budjetlarni tuzish va ijro etish, shuningdek

budjet mablag‘laridan foydalanish bilan bog‘liq munosabatlarning huquqiy asoslari belgilangan [1]. Shu sababli budjet xarajatlarini boshqarishda faqat moliyalashtirish hajmini emas, balki ushbu mablag‘lar hisobidan erishilgan natijalarni ham baholash zarur.

Budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish masalasi, ayniqsa, xarajatlarning o‘sishi bilan bir qatorda davlat xizmatlariga bo‘lgan talab ham ortib borayotgan sharoitda dolzarbdir. Bunda davlat moliyaviy boshqaruvi oldida ikki tomonlama vazifa paydo bo‘ladi: bir tomondan, budjet intizomini saqlash, ikkinchi tomondan esa mavjud resurslar hisobidan maksimal natijaga erishish. Mazkur ikki vazifani uyg‘unlashtirish xarajatlarni rejalashtirish, taqsimlash, ijro etish va baholash jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligini kuchaytirishni talab qiladi.

Amaliyotda budjet mablag‘larining yuqori darajada o‘zlashtirilishi ko‘pincha ijobiy ko‘rsatkich sifatida qaraladi. Biroq mablag‘larning to‘liq sarflanishi avtomatik ravishda yuqori samaradorlikni anglatmaydi. Agar ajratilgan mablag‘lar belgilangan natijaga erishmasdan sarflansa yoki xarajatlar rejalashtirilganidan ortiq bo‘lsa, budjet mablag‘laridan foydalanishning haqiqiy samaradorligi pasayadi. Shu nuqtayi nazardan, budjet xarajatlarini baholashda “qancha mablag‘ sarflandi?” savoli bilan bir qatorda “ushbu mablag‘ evaziga qanday natijaga erishildi?” degan savolga ham javob berish muhim.

OECD budjet boshqaruvi bo‘yicha tavsiyalarida budjetlarni o‘rta muddatli strategik ustuvorliklar bilan uyg‘unlashtirish, xarajatlar bo‘yicha qarorlarni natijadorlik to‘g‘risidagi axborot bilan ta’minlash, budjet ijrosini monitoring qilish va resurslarni uzoq muddatli ustuvorliklar bilan moslashtirish zarurligi qayd etiladi [2]. Jahon bankining davlat xarajatlarini boshqarish bo‘yicha yondashuvlari ham fiskal intizom, strategik resurs taqsimoti va operatsion samaradorlikni birgalikda ta’minlashga e’tibor qaratadi [3].

Shu bois mazkur tadqiqotning maqsadi budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini baholashning asosiy mezonlarini tizimlashtirish va ularni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda samaradorlikning moliyaviy ko‘rsatkichlari bilan bir qatorda natijaviy va sifat ko‘rsatkichlarini uyg‘unlashtirish masalasiga alohida e’tibor qaratiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligi davlat moliyaviy boshqaruvi nazariyasida resurslarni taqsimlash, xarajatlarni nazorat qilish va davlat xizmatlari natijadorligini baholash bilan uzviy bog‘liq. OECD natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirishni budjet qarorlarini natijadorlik haqidagi ma’lumotlar bilan bog‘lashga xizmat qiluvchi boshqaruv yondashuvi sifatida ko‘rib chiqadi [2]. Bunday yondashuv budjet tashkilotlarini faqat mablag‘larni o‘zlashtirishga emas, balki belgilangan maqsadlarga erishishga yo‘naltiradi.

World Bankning Public Expenditure Management Handbook nashrida davlat xarajatlarini boshqarishning muhim vazifalari sifatida fiskal intizom, strategik ustuvorliklarga muvofiq resurslarni taqsimlash va operatsion samaradorlikni ta’minlash ko‘rsatiladi [3]. Mazkur uchlik budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini kompleks baholash uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ya’ni, budjet tizimida biror yo‘nalish bo‘yicha mablag‘ning yetarli hajmda ajratilishi o‘z-o‘zidan ijobiy natijani anglatmaydi; mablag‘lar belgilangan ustuvorliklarga mos bo‘lishi va amaliy natijaga aylanishi kerak.

PEFA 2016 tizimida budjet ishonchliligi, davlat moliyasining shaffofligi, siyosatga asoslangan budjetlashtirish, budjet ijrosining prognoz qilinuvchanligi va nazorat qilinishi alohida baholash yo‘nalishlari sifatida ajratilgan [4]. Bu yondashuv budjet samaradorligini faqat yakuniy xarajat natijasi sifatida emas, balki rejalashtirish va ijro jarayonlarining sifati bilan bog‘liq ko‘rsatkich sifatida qarash imkonini beradi.

IMF Fiscal Transparency Handbook davlat moliyasi bo‘yicha axborotning to‘liqligi, o‘z vaqtida taqdim etilishi va ishonchliligini fiskal boshqaruv sifatining muhim sharti sifatida ko‘rsatadi [5]. Shaffoflik va hisobdorlikning kuchayishi budjet mablag‘laridan foydalanish to‘g‘risidagi axborot asosida boshqaruv qarorlarini takomillashtirish imkonini beradi. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunida oqilonalik, tejamkorlik, samaradorlik, ochiqlik, raqobat va xolislik tamoyillari belgilangan [6]. Bu tamoyillar xarajatlarning iqtisodiy asoslanganligi va natijadorligini ta’minlashning huquqiy mezonlarini shakllantiradi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, budjet samaradorligi bo‘yicha asosiy ilmiy yondashuvlar uch yo‘nalishda jamlanadi. Birinchisi, resurslarni to‘g‘ri ustuvorlashtirish va fiskal intizomni ta’minlash; ikkinchisi, xarajatlarni ijro jarayonida tejamkor va samarali boshqarish; uchinchisi, sarflangan mablag‘larni yakuniy natijalar bilan bog‘lash. Mazkur tadqiqot ushbu yo‘nalishlarni yagona mexanizm doirasida uyg‘unlashtirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini baholash uchun tizimli, funksional, qiyosiy va mantiqiy tahlil yondashuvlaridan foydalanildi. Tizimli yondashuv budjet mablag‘larini rejalashtirishdan boshlab yakuniy natijani baholashgacha bo‘lgan jarayonlarni yagona boshqaruv tizimi sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi. Funksional yondashuv esa budjetni rejalashtirish, moliyalashtirish, xarid, ijro, monitoring va baholash bosqichlarining har birida samaradorlik qanday shakllanishini aniqlashga xizmat qiladi.

Qiyosiy yondashuv orqali xalqaro davlat moliyaviy boshqaruvi tamoyillari va milliy budjet amaliyotining umumiy jihatlari tahlil qilindi. Mantiqiy tahlil asosida samaradorlikni ta’minlovchi omillar o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘liqligi ochib berildi. Mazkur yondashuvlar asosida budjet samaradorligini baholashda moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda natijaviy, sifat va vaqt ko‘rsatkichlarini birlashtirish taklif etildi.

Samaradorlikni baholashda uchta asosiy tushuncha ajratildi: tejamkorlik, samaradorlik va

natijadorlik. Tejamkorlik zarur resurslarni maqbul qiymatda jalb qilishni; samaradorlik mavjud resurslardan foydalanish orqali ko‘proq yoki sifatliroq natijaga erishishni; natijadorlik esa belgilangan maqsad va ko‘rsatkichlarning amalda bajarilishini ifodalaydi. Shu tariqa, xarajatlar bo‘yicha qarorlarning iqtisodiy maqsadga muvofiqligi, resurslardan foydalanish sifati va yakuniy natija birgalikda ko‘rib chiqiladi.

Samaradorlikni soddalashtirilgan ko‘rinishda S = N / X nisbatida ifodalash mumkin. Bu yerda S — xarajat samaradorligi, N — erishilgan natijaning miqdoriy yoki sifat ko‘rsatkichi, X — ushbu natijaga erishish uchun sarflangan budjet mablag‘i. Mazkur nisbat barcha davlat xizmatlari uchun yagona universal ko‘rsatkich emas. Biroq bir xil maqsad va vazifaga ega bo‘lgan dasturlarni taqqoslashda yoki vaqt bo‘yicha o‘zgarishni kuzatishda qo‘shimcha analitik indikator sifatida qo‘llanishi mumkin.

Metodologik jihatdan budjet samaradorligini baholashda “kirish resurslari – jarayon – chiqish natijasi – yakuniy ta’sir” zanjiridan foydalanish maqsadga muvofiq. Kirish resurslari ajratilgan mablag‘ va boshqa resurslarni, jarayon ularning sarflanishini, chiqish natijasi ko‘rsatilgan xizmat yoki bajarilgan vazifani, yakuniy ta’sir esa ushbu faoliyatning ijtimoiy-iqtisodiy natijasini ifodalaydi. Bu zanjir budjet xarajatlari bilan yakuniy maqsad o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqroq ko‘rsatadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish, avvalo, budjet xarajatlarini resurs va natija o‘rtasidagi bog‘liqlik asosida tashkil etishni talab qiladi. Mablag‘larni taqsimlashda xarajat hajmi, ustuvorlik, kutilayotgan natija, ijro muddati va natijani o‘lchash imkoniyati hisobga olinishi lozim. Bunda moliyalashtirish qarori alohida xarajat turidan ko‘ra davlat dasturi yoki vazifaning yakuniy natijasi bilan bog‘lanadi.

Budjet samaradorligini baholashda mablag‘larning o‘zlashtirilish darajasi muhim, ammo yetarli bo‘lmagan indikator hisoblanadi. Masalan, 100 foiz o‘zlashtirish natija ko‘rsatkichlari bajarilmagan holatda samaradorlikni anglatmaydi. Shu sababli moliyaviy ijro ko‘rsatkichlari bilan bir qatorda xizmatlar hajmi, xizmat sifati, belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarning bajarilishi va foydalanuvchilar uchun yaratilgan natijalarni aks ettiruvchi indikatorlar ham qo‘llanishi lozim(1-jadval).

Bundan tashqari, budjet samaradorligi vaqt omili bilan ham bog‘liq. Bir xil mablag‘ hisobidan belgilangan natijaga kechikib erishish ayrim hollarda xarajatlarning real qiymatini oshirishi yoki kutilgan ijtimoiy samaraning pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli budjet dasturlarini baholashda moliyaviy natija bilan bir qatorda ijro muddatlari va rejalashtirilgan bosqichlarning bajarilishi ham kuzatilishi zarur.

1-jadval

Budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini baholash indikatorlari

Yo‘nalish	Indikator	Baholash mazmuni	Kutiladigan natija
Moliyaviy ijro	O‘zlashtirish darajasi	Amaldagi xarajatlarning ajratilgan mablag‘larga nisbati	Moliyalashtirish intizomi
Tejamkorlik	Xarajatlar tafovuti	Reja va amaldagi xarajatlar o‘rtasidagi farq	Ortiqcha xarajatlarni kamaytirish
Natijadorlik	Maqsadli ko‘rsatkich bajarilishi	Erishilgan natijaning belgilangan maqsadga nisbati	Dastur maqsadlariga erishish
Xizmat sifati	Sifat va qamrov	Davlat xizmatining sifati va qamrovi	Foydalanuvchi uchun qiymat
Vaqt samaradorligi	Ijro muddati	Rejalashtirilgan va amaldagi muddat farqi	Kechikishlarni kamaytirish
Nazorat	Tavsiyalar bajarilishi	Nazorat natijalari bo‘yicha choralar bajarilishi	Hisobdorlikni kuchaytirish

Budjet mablag‘larini samarali taqsimlashning birinchi sharti — cheklangan resurslarni yuqori ijtimoiy va iqtisodiy samara beradigan yo‘nalishlarga ustuvorlashtirishdir. Bunda xarajatning faqat joriy hajmi emas, balki uning strategik maqsadlarga mosligi, kutilayotgan natija, aholi va iqtisodiyot uchun ahamiyati ham hisobga olinishi kerak. OECD tavsiyalarida budjetlar o‘rta muddatli strategik ustuvorliklar bilan uyg‘unlashtirilishi zarurligi qayd etiladi [2].

Taqsimlash mezonlarini amaliy jihatdan uch guruhga ajratish mumkin: strategik ahamiyat, natijaviylik va resurs ehtiyoji. Strategik ahamiyat yo‘nalishning davlat rivojlanish maqsadlari bilan mosligini; natijaviylik kutilayotgan natijaning ko‘lamini; resurs ehtiyoji esa ushbu natijaga erishish uchun zarur mablag‘ miqdorini ifodalaydi. Ushbu mezonlarning birgalikdagi qo‘llanishi mablag‘larni faqat mavjud ehtiyojga qarab emas, balki kutilayotgan qiymatga qarab taqsimlash imkonini beradi(2-jadval).

Budjet so‘rovlarini ko‘rib chiqishda xarajatlarning avvalgi davrdagi natijalari ham tahlil qilinishi kerak. Agar biror dastur doirasida mablag‘lar muntazam o‘zlashtirilsa, biroq maqsadli indikatorlar bajarilmasa, mablag‘lar hajmini avtomatik ravishda saqlab qolish maqsadga muvofiq emas. Aksincha, yuqori natija bergan va samaradorlik ko‘rsatkichlari tasdiqlangan dasturlar uchun resurslarni kengaytirish imkoniyatlari ko‘rib chiqilishi mumkin.

2-jadval

Budjet mablag‘larini ustuvorlashtirish mezonlari

Mezon	Asosiy savol	Baholash natijasi
Strategik moslik	Yo‘nalish ustuvor maqsadlarga mos keladimi?	Ustuvorlik darajasi
Natijaviylik	Qanday aniq natija olinadi?	Kutilayotgan natija
Resurs talabi	Natijaga qancha mablag‘ zarur?	Xarajat asosliligi
Ijtimoiy ahamiyat	Natija qancha foydalanuvchiga ta’sir qiladi?	Qamrov va ijtimoiy qiymat
Vaqt omili	Natija qachon olinadi?	Ijro samaradorligi
Oldingi natija	Avvalgi davrda qanday natija olingan?	Davom ettirish yoki qayta ko‘rib chiqish

Natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirishning asosiy mazmuni budjet mablag‘lari va kutilayotgan natijalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuchaytirishdan iborat. Bunda budjet dasturi uchun maqsad, vazifa, kutilayotgan natija, indikator, boshlang‘ich qiymat va maqsadli qiymat belgilanadi. Keyingi bosqichda ajratilgan mablag‘lar ushbu ko‘rsatkichlarning bajarilishi bilan taqqoslanadi.

Natijaga yo‘naltirilgan yondashuvning afzalligi shundaki, budjet qarorlarining mazmuni faqat xarajat moddalari bilan chegaralanmaydi. Bunda davlat dasturining yakuniy maqsadi, unga erishish vositalari va natijani o‘lchash mezonlari ham ko‘rib chiqiladi. Shu orqali budjet tashkilotlari uchun moliyaviy resursdan tashqari natijadorlik bo‘yicha ham javobgarlik shakllanadi.

Indikatorlar sonini asossiz ko‘paytirmasdan, eng muhim, o‘lchanadigan va ma’lumotlari ishonchli bo‘lgan ko‘rsatkichlarni tanlash maqsadga muvofiq. Indikatorlar haddan tashqari ko‘paytirilsa, monitoring xarajatlari oshadi va boshqaruv qarorlarining diqqat markazi tarqalishi mumkin. Shu sababli har bir dastur uchun cheklangan sonli asosiy va qo‘shimcha indikatorlarni belgilash maqsadga muvofiq.

Tadqiqot natijasida budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirishning quyidagi tashkiliy-iqtisodiy ketma-ketligi taklif etiladi: strategik ustuvorliklarni belgilash → budjet dasturlarini shakllantirish → kutilayotgan natijalarni aniqlash → mablag‘larni natijalar asosida taqsimlash → ijroni monitoring qilish → natijalarni baholash → keyingi budjet qarorlariga qayta bog‘lash.

Mexanizmning muhim jihati — baholash natijalarining keyingi budjet davriga qayta bog‘lanishidir. Agar mablag‘lar o‘z vaqtida o‘zlashtirilgan bo‘lsa-yu, maqsadli natija bajarilmagan bo‘lsa, keyingi davrda xarajatlar tarkibi, ijro mexanizmi yoki maqsadli indikatorlar qayta ko‘rib chiqilishi kerak. Aksincha, kam resurs bilan yuqori natija bergan dasturlarni kengaytirish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Mazkur mexanizmda monitoring faqat nazorat maqsadida emas, boshqaruv qarorlarini yangilash vositasi sifatida ishlashi kerak. Rejalashtirilgan va amaldagi ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi tafovutlar muntazam tahlil qilinsa, budjet jarayonining keyingi bosqichiga o‘z vaqtida tuzatishlar kiritish mumkin. Shu tariqa, budjet boshqaruvi statik emas, balki natijalar asosida takomillashib boruvchi tizimga aylanadi.

Ichki nazorat budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini ta’minlashning muhim tarkibiy qismidir. Nazoratning vazifasi faqat hujjatlarning qonuniyligini tekshirish emas, balki xarajatlarning maqsadga muvofiqligi, tejamkorligi, belgilangan natijalarga muvofiqligi va ichki tartiblarga rioya etilishini baholashdan iborat bo‘lishi kerak. INTOSAI davlat sektoridagi auditni dalillarga asoslangan, tizimli va xolis baholash jarayoni sifatida ko‘radi [7].

Ichki audit natijalaridan budjet rejalashtirishning keyingi bosqichida foydalanish alohida ahamiyatga ega. Masalan, muayyan xarajat turi bo‘yicha takroriy kamchiliklar aniqlansa, keyingi davrda ushbu yo‘nalish bo‘yicha qo‘shimcha nazorat, qayta rejalashtirish yoki boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish choralari ko‘rilishi mumkin. Bu yondashuv auditni yakuniy tekshiruv vositasidan boshqaruv sifatini oshiruvchi axborot manbaiga aylantiradi.

PEFA yondashuvida ham budjet ijrosining prognoz qilinuvchanligi va nazorat qilinishi, xarajatlar, davlat xaridlari, hisob va hisobot hamda audit masalalari alohida baholash yo‘nalishlari sifatida qaraladi [4]. Mazkur yondashuv samaradorlikni ta’minlash uchun moliyaviy nazoratning turli bo‘g‘inlari o‘rtasida uzviy aloqani shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Budjet jarayonlarining raqamlashtirilishi samaradorlikni baholash uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni tezkor yig‘ish, qayta ishlash va taqqoslash imkoniyatini kengaytiradi. Budjet rejalari, moliyalashtirish, shartnomalar, to‘lovlar va natijaviy indikatorlar yagona axborot muhitida bog‘langanda rahbariyat uchun tezkor monitoring imkoniyati shakllanadi. Bu budjet ijrosidagi tafovutlarni o‘z vaqtida aniqlash va boshqaruv qarorlarini tuzatishga yordam beradi.

Raqamli monitoringda uchta darajadagi indikatorlarni ajratish maqsadga muvofiq: moliyaviy indikatorlar, jarayon indikatorlari va natijaviy indikatorlar. Moliyaviy indikatorlar mablag‘larning o‘zlashtirilishini; jarayon indikatorlari xarid, shartnoma va ijro muddatlarini; natijaviy indikatorlar esa yakuniy xizmat yoki ijtimoiy-iqtisodiy natijani ko‘rsatadi. Ularning birgalikdagi tahlili budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini kompleks baholashga imkon beradi.

Raqamli monitoringning keyingi bosqichi boshqaruv paneli yoki dashboardlardan foydalanish bilan

bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bunda rahbariyat bir vaqtning o‘zida mablag‘larning o‘zlashtirish darajasi, maqsadli indikatorlarning bajarilishi, muddatlardan og‘ishlar va tejamkorlik natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ko‘rishi mumkin. Bunday yondashuv nazoratni hisobot davri tugagach amalga oshirishdan ko‘ra, jarayon davomida amalga oshirish imkonini beradi.

Budjet samaradorligini oshirishda baholash natijalarining real boshqaruv qarorlariga ta’siri hal qiluvchi ahamiyatga ega. Agar monitoring faqat hisobot tuzish uchun amalga oshirilsa, undan kutilayotgan boshqaruv samarasi cheklangan bo‘ladi. Shu sababli har bir budjet dasturi bo‘yicha natijalarni baholash yakunida keyingi davr uchun aniq boshqaruv xulosasi shakllantirilishi kerak.

Bunday xulosa shartli ravishda uch ko‘rinishda bo‘lishi mumkin: dastur samarali — moliyalashtirishni davom ettirish yoki kengaytirish; dastur qoniqarli — mavjud mexanizmni saqlagan holda ayrim ko‘rsatkichlarni yaxshilash; dastur past natijali — xarajat tarkibi va ijro mexanizmini qayta ko‘rib chiqish. Ushbu yondashuv budjet mablag‘larini tarixiy xarajatlar asosida avtomatik rejalashtirishdan natijalar asosida qayta taqsimlashga o‘tishni ta’minlaydi.

Samaradorlikning kompleks baholashida ko‘rsatkichlarning o‘zaro uyg‘unligini saqlash zarur. Masalan, o‘zlashtirish darajasi yuqori, biroq natijadorlik past bo‘lsa, dastur samaradorligi past deb baholanishi mumkin. Aksincha, o‘zlashtirish darajasi nisbatan past bo‘lsa-da, maqsadli natijalar to‘liq bajarilgan bo‘lsa, ijro muddatlari va moliyalashtirish jadvalini alohida tahlil qilish talab etiladi. Demak, yakuniy baho birgina indikator emas, ko‘rsatkichlar tizimi orqali shakllantirilishi lozim.

Budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish uchun, birinchidan, budjet dasturlarining maqsad va natijalarini aniq o‘lchanadigan indikatorlar bilan bog‘lash lozim. Ikkinchidan, moliyaviy ijro va natijaviy ijroni o‘zaro bog‘liq ko‘rsatkichlar sifatida monitoring qilish zarur. Uchinchidan, keyingi davr budjetini taqsimlashda avvalgi davr natijalaridan foydalanish mexanizmini kuchaytirish kerak.

To‘rtinchidan, davlat xaridlarida tejamkorlik va raqobat natijasini baholashni kuchaytirish maqsadga muvofiq. Qonunchilikda belgilangan oqilonalik, tejamkorlik, samaradorlik, ochiqlik va raqobat tamoyillari xarajatlarning natijadorligi bilan bevosita bog‘lanishi kerak [6]. Beshinchidan, ichki audit va monitoring ma’lumotlarini budjet rejalashtirishda foydalaniladigan axborot bazasiga integratsiya qilish zarur.

Oltinchidan, budjet tashkilotlari uchun samaradorlik indikatorlarini tanlash va ulardan foydalanish bo‘yicha uslubiy yondashuvlarni bir xillashtirish maqsadga muvofiq. Bu turli tashkilotlar natijalarini taqqoslashni osonlashtiradi va baholash subyektivligini kamaytiradi. Yettinchidan, raqamli monitoring vositalarini bosqichma-bosqich joriy etish orqali ma’lumotlarning o‘z vaqtida olinishi, aniqligi va boshqaruvda qo‘llanishi kuchaytirilishi lozim.

Sakkizinchidan, budjet samaradorligini oshirishni xodimlarning funksional javobgarligi bilan bog‘lash kerak. Dastur maqsadi, moliyaviy resursi va natijaviy indikatori uchun mas’ul bo‘lgan bo‘linma yoki mansabdor shaxs aniq belgilanganda, natijaga erishish uchun javobgarlik ham kuchayadi. Bu boshqaruvning tashkiliy jihatini moliyaviy natijalar bilan bog‘lovchi muhim shart hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini faqat ajratilgan mablag‘larning o‘zlashtirilish darajasi bilan baholash yetarli emasligini ko‘rsatdi. Samaradorlikni aniqlashda tejamkorlik, moliyaviy ijro, belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarning bajarilishi, xizmat sifati va ijro muddatlari kabi ko‘rsatkichlarni birgalikda qo‘llash zarur. Bu yondashuv budjet mablag‘larining resurs sifatidagi qiymatini yakuniy natija bilan bog‘lash imkonini beradi.

Budjet mablag‘larini samarali taqsimlashda strategik moslik, kutilayotgan natija, resurs talabi, ijtimoiy ahamiyat va avvalgi davr natijalarini hisobga olish taklif etildi. Natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish esa budjet dasturlarining maqsadlari, o‘lchanadigan indikatorlari va moliyaviy resurslarini yagona tizimga birlashtirishga xizmat qiladi.

Budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirishning taklif etilayotgan mexanizmi “ustuvorlikni belgilash – dastur tuzish – natijani aniqlash – moliyalashtirish – monitoring – baholash – qayta aloqa” ketma-ketligiga asoslanadi. Mazkur mexanizm orqali budjet ijrosi natijalari keyingi davrda mablag‘larni qayta taqsimlash uchun axborot bazasiga aylantiriladi. Shu tariqa budjet boshqaruvi natijalar asosida doimiy takomillashib boruvchi tizimga ega bo‘ladi.

Raqamli monitoring, ichki audit, davlat xaridlarida tejamkorlik va samaradorlikni baholash, shuningdek natijaviy indikatorlarning muntazam qo‘llanilishi budjet mablag‘laridan foydalanish sifatini oshirishning asosiy yo‘nalishlari sifatida belgilandi. Xalqaro tajribada ilgari surilgan fiskal intizom, strategik resurs taqsimoti, shaffoflik va operatsion samaradorlik tamoyillarini milliy budjet amaliyotiga izchil integratsiya qilish bu jarayonning barqarorligini ta’minlaydi [2–5].

Umuman olganda, budjet mablag‘laridan foydalanishda “mablag‘ni o‘zlashtirish”dan “mablag‘ evaziga natijaga erishish” tamoyiliga o‘tish davlat xarajatlari sifatini oshirishning muhim shartidir. Ushbu yondashuv budjet resurslaridan oqilona foydalanish, davlat dasturlari natijadorligini oshirish va jamoatchilik oldidagi hisobdorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi. O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi. O‘RQ-360-son, 26.12.2013. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi — LexUZ.

2. OECD. Recommendation of the Council on Budgetary Governance. OECD/LEGAL/0410. Paris: OECD, 2015.

3. World Bank. Public Expenditure Management Handbook. Washington, DC: World Bank, 1998. ISBN 0-8213-4297-5.

4. PEFA Secretariat. PEFA 2016: Framework for Assessing Public Financial Management. Second Edition. Washington, DC, 2016.

5. International Monetary Fund. Fiscal Transparency Handbook 2018. Washington, DC: IMF, 2018. DOI: 10.5089/9781484331859.069.

6. O‘zbekiston Respublikasi. “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonun. O‘RQ-684-son, 22.04.2021. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi — LexUZ.

7. INTOSAI. ISSAI 100: Fundamental Principles of Public-Sector Auditing. International Organization of Supreme Audit Institutions.

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Daminov Asomiddin Xudoyberdi o‘g‘li QarDU tadqiqotchisi / Даминов Асомиддин Худойберди угли Исследователь Каршинского государственного университета / Daminov Asomiddin Xudoyberdi ugli Researcher at Karshi State University

E-mail: asomiddindaminov70@gmail.com

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.10.10.2026.18 *Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti*

QASHQADARYO VILOYATIDA MEVA-SABZAVOT ISHLAB CHIQARISH VA QO‘SHILGAN QIYMAT ZANJIRINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI

Saidova Gulnoza Tulkunovna

АНАЛИЗ ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ ПРОИЗВОДСТВА ПЛОДООВОЩНОЙ ПРОДУКЦИИ И ЦЕПОЧКИ ДОБАВЛЕННОЙ СТОИМОСТИ В КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Саидова Гульноза Тулкуновна

ANALYSIS OF THE CURRENT STATE OF FRUIT AND VEGETABLE PRODUCTION AND THE VALUE CHAIN IN KASHKADARYA REGION

Gulnoza Tulkunovna Saidova

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatida meva-sabzavotchilik tarmog‘ining hozirgi holati va mahsulot yetishtirishdan tortib to iste’molchigacha bo‘lgan qo‘shilgan qiymat zanjiri tahlil qilingan. Viloyatda meva-sabzavot ishlab chiqarish hajmining o‘sish tendensiyasi, qayta ishlash va saqlash quvvatlari hamda logistika tizimidagi yutuq va kamchiliklar o‘rganilgan. Tahlil natijalariga ko‘ra, tarmoqda eksport salohiyatini oshirish va yo‘qotishlarni kamaytirish uchun qator tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: meva-sabzavotchilik, qo‘shilgan qiymat zanjiri, Qashqadaryo, agrologistsika, saqlash quvvatlari, qayta ishlash, eksport, GlobalG.A.P.

Аннотация: В данной статье анализируется текущее состояние плодоовощной отрасли и цепочка добавленной стоимости от выращивания продукции до конечного потребителя в Кашкадарьинской области. Изучены тенденции роста объемов производства плодоовощной продукции в регионе, мощности по переработке и хранению, а также достижения и недостатки в системе логистики. По результатам анализа разработан ряд рекомендаций по повышению экспортного потенциала отрасли и снижению потерь продукции.

Ключевые слова: плодоовощеводство, цепочка добавленной стоимости, Кашкадарья, агрологистика, мощности хранения, переработка, экспорт, Global G.A.P.

Abstract: This article analyzes the current state of the fruit and vegetable sector and the value chain from production to the end consumer in Kashkadarya region. It examines the growth trends in fruit and vegetable production volumes, processing and storage capacities, as well as the achievements and shortcomings in the logistics system. Based on the results of the analysis, a number of recommendations have been developed to increase the export potential of the industry and reduce product losses.

Keywords: fruit and vegetable growing, value chain, Kashkadarya, agrologistics, storage capacities, processing, export, Global G.A.P.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi, xususan, meva-sabzavotchilik tarmog‘i strategik ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya qilish, paxta va g‘alla maydonlarini qisqartirib, iqtisodiy jihatdan daromadli bo‘lgan bog‘ va tokzorlar, issiqxonalar maydonini kengaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Sohani tizimli rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5853-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasi”[1] hamda klaster tizimini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan PQ-73[2] va PQ-20-sonli qarorlari[3] qabul qilindi. Ushbu huquqiy hujjatlar doirasida viloyatda xomashyo yetishtirishdan tortib, uni saqlash, chuqur qayta ishlash va eksport qilishgacha bo‘lgan yaxlit mexanizmlar joriy etilmoqda.

Biroq, amalga oshirilayotgan islohotlar va yuqori hosildorlikka qaramay, zamonaviy agrologistik quvvatlarining yetishmasligi oqibatida hosil

nobudgarchiligi hamon dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Qashqadaryo viloyati o‘zining tuproq-iqlim sharoitlari (ayniqsa, Kitob, Yakkabog‘, Shahrisabz va Qamashi tumanlarining tog‘ va tog‘oldi hududlari) bilan yuqori sifatli meva-sabzavot va uzum etishtirish uchun katta salohiyatga ega. Biroq, mahsulotni faqatgina xomashyo sifatida sotish yuqori iqtisodiy samaradorlikni ta’minlamaydi. Shu sababli, qo‘shilgan qiymat zanjirini – yerni tayyorlash va urug‘ qadashdan boshlab, hosilni yig‘ishtirish, saralash, muzlatkichli omborlarda saqlash, chuqur qayta ishlash, qadoqlash va oxirgi iste’molchiga yetkazishgacha bo‘lgan uzluksiz jarayonni rivojlantirish mintaqa iqtisodiyoti uchun dolzarb masala hisoblanadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi Qashqadaryo viloyatida meva-sabzavot sektoridagi qo‘shilgan qiymat zanjirining hozirgi holatini baholash va uni takomillashtirish yo‘llarini aniqlashdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida viloyatda meva-sabzavotchilik sohasining joriy holatini o‘rganish uchun aralash tadqiqot usullaridan foydalanildi:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi va viloyat Qishloq xo‘jaligi boshqarmasining ochiq maълumotlari asosida hosildorlik, ishlab chiqarish hajmlari va eksport ko‘rsatkichlari dinamikasi o‘rganildi.

Qo‘shilgan qiymat zanjiri beshta asosiy bosqichga resurslar ta’minoti, yetishtirish, tayyorlash va saqlash, qayta ishlash va savdo va eksportga bo‘linib tahlil qilindi.

Mintaqadagi mavjud saqlash/qayta ishlash quvvatlari yetishtirilayotgan jami hosil hajmiga solishtirilib, uzilishlar va muammoli nuqtalar aniqlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Olingan natijalar Qashqadaryo viloyatida meva-sabzavotchilik bo‘yicha katta xomashyo bazasi mavjudligini, ammo qo‘shilgan qiymat zanjiri to‘liq shakllanmaganini ko‘rsatadi.

Yo‘qotishlar: Saqlash va tashish infratuzilmasining yetishmasligi oqibatida jami yetishtirilgan hosilning 20-25% gacha bo‘lgan qismi iste’molchigacha yetib bormasdan nobud bo‘lishi yoki sifati buzilishi xavfi mavjud.

Kooperatsiya muammosi: Ishlab chiqaruvchilar (dehqonlar) va qayta ishlovchilar o‘rtasida o‘zaro manfaatli kooperatsiya tizimi sust rivojlangan. Natijada qayta ishlash korxonalari barqaror xomashyo bazasiga ega emas, dehqonlar esa barqaror bozorga.

Suv ta’minoti va iqlim o‘zgarishi: Viloyatning qurg‘oqchil iqlimi va suv tanqisligi tomchilatib sug‘orish tizimlarini tezkorlik bilan joriy etishni talab qilmoqda. Aks holda, barqaror hosil olish imkoni pasayadi.

1-jadval

Qashqadaryo viloyatida meva-sabzavot tarmog‘i va qo‘shilgan qiymat zanjirining SWOT tahlili

Kuchli tomonlar	**Zaif tomonlar**
- Qulay tabiiy-iqlim sharoiti: viloyatning tog‘ va tog‘oldi hududlari yuqori sifatli, eksportbop meva va uzum yetishtirish uchun qulay. - Xomashyo bazasining kattaligi: meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining yildan-yilga barqaror o‘sib borayotgani. - Arzon ish kuchi: qishloq xo‘jaligida mehnat resurslarining yetarliligi va nisbatan arzonligi. -An’anaviy tajriba: aholida dehqonchilik va bog‘dorchilik bo‘yicha ko‘p yillik amaliy tajribaning mavjudligi.	- Cold chainning uzilishi: kichik dehqon va fermer xo‘jaliklari uchun zamonaviy muzlatkichli omborlarning yetishmasligi. - Qayta ishlash darajasining pastligi: yetishtirilgan hosilning atigi 15-20 foizi chuqur qayta ishlanib, asosan xomashyo ko‘rinishida sotilishi. - Kooperatsiya aloqalarining sustligi: mahsulot yetishtiruvchilar, tayyorlovchilar va qayta ishlovchi korxonalar o‘rtasida o‘zaro manfaatli integratsiyaning to‘liq shakllanmaganligi. - Sertifikatlashtirish muammosi: Global G.A.P., ISO 22000 kabi xavfsizlik va sifat sertifikatlarining keng joriy etilmaganligi.
Imkoniyatlar	**Xavflar**
-Yangi eksport bozorlarini o‘zlashtirish: Yevropa, Fors ko‘rfazi va Janubiy Osiyo davlatlariga qayta ishlangan mahsulotlar eksportini yo‘lga qo‘yish. - Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash: kooperatsiyani rivojlantirish va agrologistik markazlar qurish uchun kreditlar va subsidiyalar. - B2B agrologistika markazlarini tashkil etish: hududlarda yirik logistika xablarini yaratish. - Yashil iqtisodiyot va Organik mahsulotlar: organik toza oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabning ortishi.	- Iqlim o‘zgarishi va suv tanqisligi: qurg‘oqchil hududlarida suv ta’minotidagi uzilishlar sababli hosildorlikning pasayish xavfi. - Raqobatning kuchayishi: qo‘shni davlatlar va boshqa viloyatlar tomonidan eksport bozorlarida raqobatning ortishi. - Narxlar tebranishi: ichki va tashqi bozorlarda xomashyo narxining beqarorligi. - Yo‘qotishlar: saqlash va tashishdagi kamchiliklar tufayli hosilning nobud bo‘lishi.

O‘tkazilgan SWOT tahlili natijalari shuni ko‘rsatadiki, Qashqadaryo viloyati meva-sabzavot tarmog‘ida kuchli xomashyo bazasi (S) va katta eksport imkoniyatlari (O) mavjud bo‘lishiga qaramay, sovitish zanjiri hamda chuqur qayta ishlash infratuzilmasining yetishmasligi (W) hudud iqtisodiyotiga qo‘shilgan qiymat zanjiridan to‘liq foyda olishga to‘sqinlik qilmoqda. Kelgusida tarmoqni rivojlantirish strategiyasi aynan suv tanqisligi (T) xavfini inobatga olgan holda, mavjud hosilni nobud qilmasdan, uni qayta ishlash va xalqaro standartlar asosida qadoqlashga qaratilgan logistik markazlarni ko‘paytirishni taqozo etadi.

Tahlillar Qashqadaryo viloyatida meva-sabzavot ishlab chiqarish va uning zanjiri bo‘yicha quyidagi holatni ko‘rsatdi:

a) Ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari: viloyatda yiliga yuz minglab tonna meva, sabzavot, poliz mahsulotlari va uzum yetishtirilmoqda. Xususan, Chiroqchi va Ko‘kdala tumanlari poliz mahsulotlari yetishtirish bo‘yicha yetakchi bo‘lsa, Kitob, Shahrisabz va Yakkabog‘ tumanlari olma, anor, xurmo va uzum yetishtirishga ixtisoslashgan. Dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari jami ishlab chiqarishning asosiy qismini tashkil etmoqda.

b) Qo‘shilgan qiymat zanjirining asosiy bo‘g‘inlari tahlili:

1. Dastlabki ishlov va saqlash: Viloyatda zamonaviy muzlatkichli omborlar soni so‘nggi yillarda ortgan bo‘lsa-da, ular asosan yirik agrofirmalarga tegishli. Kichik fermerlar o‘z hosilini saqlash imkoniyatiga ega emasligi sababli, hosil yig‘im-terimi mavsumida mahsulotni arzon narxlarda sotishga majbur bo‘lmoqda.

2. Qayta ishlash bosqichi: Viloyatda meva-sabzavotni chuqur qayta ishlovchi (sharbat, djem, konserva, quritilgan mevalar - qoqi) korxonalar mavjud. Biroq, qayta ishlash quvvati yetishtirilayotgan xomashyoning atigi 15-20% ini qamrab oladi. Mahsulotning katta qismi yangi uzilgan holatda ichki bozorga va qisman eksportga yo‘naltiriladi.

3. Qadoqlash va eksport: eksport geografiyasi asosan MDH davlatlari (Rossiya, Qozog‘iston) bilan cheklangan. Mahsulotni xalqaro standartlar (Global G.A.P., ISO 22000) asosida qadoqlash va sertifikatlash bo‘yicha mutaxassislar va laboratoriyalar yetishmovchiligi kuzatilmoqda.

2-jadval

Qashqadaryo viloyatida meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish, eksport qilish va qo‘shilgan qiymat zanjirining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari dinamikasi [4]

Ko‘rsatkichlar	Yillar			O‘sish sur'ati, %
	2023	2024	2025	
Jami meva-sabzavot va uzum ishlab chiqarish hajmi (ming tonna)	1 150.5	1 210.3	1 285.4	+11.7%
Eksport qilingan mahsulot hajmi (ming tonna)	85.2	98.4	112.5	+32.0%
Eksportning iqtisodiy qiymati (mln. AQSh dollari)	65.4	78.1	92.3	+41.1%
Jami hosildan qayta ishlashga yo‘naltirilgan qismi (%)	14.5	16.2	18.5	+4.0 %
Muzlatkichli omborlarda saqlash quvvati qamrovi (%)	12.0	14.5	17.2	+5.2 %
Dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra hosil nobudgarchiligi (%)	22.5	20.8	19.0	-3.5 %

2-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, Qashqadaryo viloyatida 2023-2025 yillar oralig‘ida jami meva-sabzavot ishlab chiqarish hajmi 11,7 foizga o‘sgan bo‘lsa-da, eksportdan olingan iqtisodiy daromad 41,1 foizga oshgan. Bu ko‘rsatkich viloyatda yetishtirilayotgan mahsulotlarning narx konyunkturasidagi ijobiy o‘zgarishlar va qimmatbaho eksportbop mahsulotlar ulushining ortgani bilan izohlanadi.

Shu bilan birga, tarmoqda qo‘shilgan qiymat zanjirini shakllantirishning eng muhim bosqichlari bo‘lgan saqlash va qayta ishlash ko‘rsatkichlari hamon past darajada qolmoqda. 2025-yilda yetishtirilgan jami hosilning bor-yo‘g‘i 18,5 foizi chuqur qayta ishlashga yo‘naltirilgan, zamonaviy muzlatkichli omborlarning qamrovi esa 17,2 foizni tashkil etmoqda. Cold 101eying101g to‘liq rivojlanmaganligi sababli hosil yig‘ishtirib olingandan 101eying yo‘qotishlar ulushi 19 foiz atrofida saqlanib qolmoqda. Bu esa sohada investitsion jozibadorlikni oshirish va qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotini tartibga solish bo‘yicha yangicha yondashuvlarni talab etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qashqadaryo viloyati meva-sabzavotchilik tarmog‘ida ishlab chiqarish hajmlari barqaror o‘sib borayotgan bo‘lsa-da, iqtisodiy samara asosan xomashyo sotishga asoslangan. Mintaqada qo‘shilgan qiymat zanjirining saqlash, zamonaviy qadoqlash va chuqur qayta ishlash bo‘g‘inlari sezilarli darajada ortda qolmoqda. Ushbu zanjirdagi uzilishlarni bartaraf etish, agrologistikaga investitsiyalar kiritish va kooperatsiya tizimini rivojlantirish viloyat eksport salohiyatini keskin oshirishga, qishloq aholisining daromadlarini ko‘paytirishga va yangi ish o‘rinlari yaratilishiga xizmat qiladi.

Qo‘shilgan qiymat zanjirini mustahkamlash uchun:

1) Kichik dehqon xo‘jaliklarini birlashtiruvchi meva-sabzavotchilik kooperatsiyalarini tashkil etish;

2) Davlat xususiy sheriklik asosida tumanlarda “B2B” (biznes uchun biznes) formatidagi agrologistika markazlarini (saralash, qadoqlash, saqlash) ko‘paytirish;

3) Fermerlarni xalqaro sifat sertifikatlari olishiga davlat tomonidan subsidiyalar ajratish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga

mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-dekabrdagi “Meva-sabzavotchilik sohasini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash...” to‘g‘risidagi PQ-73-sonli Qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-noyabrdagi “Meva-sabzavotchilik va uzumchilikda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish...” to‘g‘risidagi PQ-20-sonli Qarori.

4. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari.

5. Saidova G.T. “Meva-sabzavot mahsulotlari qo‘shilgan qiymatini oshirish jarayonida “cold chain” infratuzilmasining ilmiy-nazariy asoslari”. Innovatsion iqtisodiyot, 1-jild 1-son yanvar, 2026.

6. Ochilova N.A., Saidova G.T. “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoatining ijtimoiy iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llari”. “Yangi O‘zbekiston iqtisodiyoti” jurnali 7-son 2024 yil.

Muallif (lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Saidova Gulnoza Tulkunovna Qarshi davlat texnika universiteti doktoranti / Саидова Гульноза Тулкуновна, докторант Каршинского государственного технического университета / Saidova Gulnoza Tulkunovna, doctoral student at Karshi State Technical University

E-mail: gulnoz0410@gmail.com

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.10.10.2026.19 *Moliya, kredit va investitsiya*

BUDJET TASHKILOTLARIDA HISOB SIYOSATI ELEMENTLARINI SHAKLLANTIRISH AMALIYOTINING TAHLILI

Xabilov Djaxongir Xakimovich

АНАЛИЗ ПРАКТИКИ ФОРМИРОВАНИЯ ЭЛЕМЕНТОВ УЧЕТНОЙ ПОЛИТИКИ В БЮДЖЕТНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

Хабилов Джахонгир Хакимович

ANALYSIS OF THE PRACTICE OF FORMING ACCOUNTING POLICY ELEMENTS IN BUDGETARY ORGANIZATIONS

Xabilov Djahongir Xakimovich

Annotatsiya. Maqolada budjet tashkilotlarida hisob siyosatining tashkiliy, uslubiy va texnik elementlarini shakllantirish amaliyoti tahlil qilinib, uning asosiy kamchiliklari va ularning hisob axboroti sifatiga ta’siri aniqlangan. Hisob siyosati ma’lumotlari moliyaviy ko‘rsatkichlardagi o‘zgarishlarni o‘z vaqtida aniqlash uchun foydalanilmasligi asoslab berilgan. Muallif tomonidan moliyaviy ko‘rsatkichlardagi muhim o‘zgarishlarni nisbiy va mutlaq mezonlar asosida darajalash hamda har bir daraja uchun tegishli boshqaruv signallarini shakllantirish mexanizmi taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: hisob siyosati, budjet tashkiloti, hisob siyosati elementlari, moliyaviy ko‘rsatkichlar, o‘zgarishlarni darajalash, ahamiyatlilik chegarasi, boshqaruv signali.

Аннотация. В статье проанализирована практика формирования организационных, методических и технических элементов учетной политики в бюджетных организациях, выявлены ее основные недостатки и их влияние на качество учетной информации. Обосновано, что данные учетной политики не используются для своевременного выявления изменений финансовых показателей. Автором предложен механизм ранжирования существенных изменений финансовых показателей на основе относительных и абсолютных критериев и формирования соответствующих управленческих сигналов для каждого уровня.

Ключевые слова: учетная политика, бюджетная организация, элементы учетной политики, финансовые показатели, ранжирование изменений, порог существенности, управленческий сигнал.

Annotation. The article analyzes the practice of forming organizational, methodological and technical elements of accounting policy in budgetary organizations, identifies its main shortcomings and their impact on the quality of accounting information. It is substantiated that accounting policy data are not used for timely detection of changes in financial indicators. The author proposes a mechanism for grading significant changes in financial indicators based on relative and absolute criteria and for generating appropriate management signals for each level.

Keywords: accounting policy, budgetary organization, accounting policy elements, financial indicators, grading of changes, materiality threshold, management signal.

KIRISH

Hisob siyosati o'zaro bog'liq elementlar majmuidan iborat bo'lib, ularni an'anaviy ravishda tashkiliy, uslubiy va texnik guruhlarga ajratish qabul qilingan. Tashkiliy elementlar hisob apparatining tuzilmasi va vakolatlarini, uslubiy elementlar hisob obyektlarini tan olish va baholash usullarini, texnik elementlar esa hisobvaraqlarning ishchi rejasi, hujjatlar shakllari va hujjat aylanishini belgilaydi. Hisob siyosatining sifati aynan ushbu elementlarning to'liqligi, aniqligi va tashkilot faoliyatiga mosligi bilan belgilanadi.

Budjet tashkilotlarida hisob siyosati elementlarini shakllantirish amaliyoti o'ziga xos xususiyatlarga ega. Budjet hisobi Budjet kodeksi va "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun asosida [1; 2] Moliya vazirligining me'yoriy hujjatlari bilan batafsil tartibga solinganligi sababli tashkilotga qoldirilgan tanlov erkinligi nisbatan tor. Biroq aynan shu tor sohada — ahamiyatlilik chegaralari, inventarizatsiya davriyligi, analitik hisob tuzilmasi, hujjat aylanishi muddatlari kabi elementlarda — hisob siyosati tashkilot uchun muhim boshqaruv axborotini shakllantirishi mumkin.

Amaliyotda esa hisob siyosati ma'lumotlari faqat hisob yuritish uchun qo'llaniladi va moliyaviy ko'rsatkichlardagi muhim o'zgarishlarni aniqlash uchun foydalanilmaydi. Kreditorlik qarzining keskin o'sishi

yoki zaxiralarning ortiqcha to'planishi ko'pincha yillik hisobot tuzilganda yoki tashqi tekshiruv jarayonida aniqlanadi, ya'ni boshqaruv ta'sir ko'rsatish imkoniyati boy berilgandan keyin.

Mazkur maqolaning maqsadi budjet tashkilotlarida hisob siyosati elementlarini shakllantirish amaliyotini tahlil qilish va hisob siyosati ma'lumotlari asosida moliyaviy ko'rsatkichlardagi muhim o'zgarishlarni darajalash hamda boshqaruv signallarini shakllantirish mexanizmini ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Hisob siyosati elementlarining tarkibi masalasi ilmiy adabiyotlarda keng muhokama qilingan. M.I. Kuter hisob siyosatining tashkiliy-texnik va uslubiy jihatlarini ajratib, ularning har biri alohida qarorlar majmuini talab qilishini ko‘rsatgan [5]. Y.V. Sokolov hisob siyosatini buxgalteriya hisobi usullarini tanlash va ularni tashkilot boshqaruvi maqsadlariga bo‘ysundirish vositasi sifatida talqin qilgan [6].

IPSAS 1 standartida moliyaviy hisobotda moddalarni alohida ko‘rsatish yoki birlashtirish ahamiyatlilik tamoyili asosida amalga oshirilishi belgilangan [3]. Davlat sektori uchun Konseptual asosda ahamiyatlilik axborotni o‘tkazib yuborish yoki noto‘g‘ri taqdim etish foydalanuvchilar qarorlariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan holat sifatida ta’riflanadi va miqdoriy hamda sifat omillariga bog‘liq deb qaraladi [4]. Bu yondashuv o‘zgarishlarni baholashda nisbiy va mutlaq mezonlarni birgalikda qo‘llash zarurligini asoslaydi.

Ko‘rsatkichlardagi o‘zgarishlarni "signal" va "shovqin"ga ajratish muammosi statistik jarayonlarni boshqarish nazariyasida chuqur ishlangan. D. Uiler har qanday ko‘rsatkichdagi o‘zgarish ham boshqaruv aralashuvini talab qilmasligini, tabiiy tebranishlarga reaksiya ko‘rsatish esa boshqaruv resurslarini isrof qilishini ta’kidlaydi [7]. R. Saymons diagnostik nazorat tizimlari oldindan belgilangan meyorlardan chetlanishlar asosida boshqaruv e’tiborini yo‘naltirishini ko‘rsatgan [8].

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda budjet tashkilotlarida hisob siyosati doirasida belgilangan parametrlar (ahamiyatlilik chegaralari, analitik hisob tuzilmasi) asosida ko‘rsatkichlardagi o‘zgarishlarni darajalash va ularni boshqaruv signallariga aylantirish masalasi ko‘rib chiqilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli yondashuv, elementlar bo‘yicha tahlil, qiyosiy tahlil, dinamik tahlil, guruhlash va chegaraviy qiymatlar usullaridan foydalanildi. Amaliyot tahlili budjet tashkilotlari hisob siyosati to‘g‘risidagi buyruqlarining tipik tuzilmasi, budjet hisobi meyoriy hujjatlari va tekshiruv amaliyotida uchraydigan kamchiliklarni umumlashtirish asosida amalga oshirildi. Darajalash mexanizmi shartli budjet tashkiloti ma’lumotlari asosida sinab ko‘rildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Budjet tashkilotlarida hisob siyosati elementlarini shakllantirish amaliyotini tahlil qilish natijasida har bir guruh elementlarida uchraydigan tipik holatlar va ularning oqibatlari umumlashtirildi (1-jadval).

1-jadval.

Budjet tashkilotlarida hisob siyosati elementlarini shakllantirish amaliyoti[56]

Elementlar guruhi	Element	Amaliyotda uchraydigan tipik holat	Hisob axboroti sifatiga ta’siri
Tashkiliy	Hisob apparati vakolatlari va javobgarligi	Vazifalar umumiy tarzda bayon etiladi, imzo huquqlari chegaralanmaydi	Javobgarlik noaniq, nazorat nuqtalari yo‘q
Tashkiliy	Inventarizatsiya tartibi	Faqat yillik inventarizatsiya belgilanadi, hisob-kitoblar inventarizatsiyasi nazarda tutilmaydi	Qarzlar va zaxiralardagi o‘zgarishlar kechikib aniqlanadi
Uslubiy	Ahamiyatlilik chegarasi	Umuman belgilanmaydi yoki faqat hisobot moddalari uchun belgilanadi	Muhim va ahamiyatsiz o‘zgarishlarni ajratish mezoni yo‘q
Uslubiy	Asosiy vositalar va TMZ baholash, eskirish	Meyoriy hujjat matni takrorlanadi	Tashkilotga xos qarorlar qabul qilinmaydi
Texnik	Ishchi hisobvaraqlar rejasi va analitik hisob	Analitik hisob tuzilmasi belgilanmaydi	Ko‘rsatkichlarni obyektlar va manbalar kesimida tahlil qilib bo‘lmaydi
Texnik	Hujjat aylanishi grafigi	Grafik ilova qilinmaydi yoki muddatlar ko‘rsatilmaydi	Hisob ma’lumotlari kechikib shakllanadi

Jadvaldan ko‘rinadiki, amaliyotdagi kamchiliklarning umumiy jihati shundan iboratki, hisob siyosati hisob ma’lumotlarini tahlil qilish va ulardan boshqaruvda foydalanish uchun zarur parametrlarni belgilamaydi. Ahamiyatlilik chegarasi, analitik hisob tuzilmasi va hisob-kitoblar inventarizatsiyasi davriyligi

[56] Manba: muallif ishlanmasi.

aniq belgilanmagan sharoitda ko‘rsatkichlardagi muhim o‘zgarishlarni o‘z vaqtida aniqlash imkonsiz bo‘ladi.

Ushbu muammoni hal etish uchun biz hisob siyosati ma’lumotlari asosida moliyaviy ko‘rsatkichlardagi o‘zgarishlarni darajalash mexanizmini taklif etamiz. Mexanizm ikki mezonga asoslanadi. Birinchi mezon — o‘zgarishning nisbiy darajasi:

$$\Delta(i) = \frac{x(i,t) - x(i,t-1)}{x(i,t-1)} \times 100\% \qquad (1)$$

bu yerda:

$X(i,t)$— i-hisob obyekti bo‘yicha joriy davr ko‘rsatkichi;

$X(i,t-1)$— i-hisob obyekti bo‘yicha oldingi davr ko‘rsatkichi;

$\Delta(i)$— o‘zgarish sur’ati, %.

Ikkinchi mezon — o'zgarishning mutlaq summasi. U hisob siyosatida belgilanadigan ahamiyatlilik chegarasi bilan taqqoslanadi:

$$A = k \times X_{kx} \qquad (2)$$

bu yerda:

A— ahamiyatlilik chegarasi;

X_{kx}— yillik kassa xarajatlari summasi;

k— hisob siyosatida belgilanadigan koeffitsiyent;

$k = 0{,}01$bo‘lsa, chegara yillik kassa xarajatlarining “1%”ini tashkil etadi.

Ikkinchi mezonning zarurati shundaki, kichik bazaga ega ko'rsatkichlarda nisbiy o'zgarish yuqori bo'lsa-da, uning mutlaq summasi tashkilot moliyaviy holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmasligi mumkin. Aksincha, katta bazali ko'rsatkichlarda kichik foizli o'zgarish ham katta summani anglatadi. O'zgarish darajasi va unga mos boshqaruv signali 2-jadvalda keltirilgan tartibda aniqlanadi.

2-jadval.

Moliyaviy ko‘rsatkichlardagi o‘zgarishlarni darajalash va boshqaruv signallari[57]

O‘zgarish darajasi	Δ ning mutlaq qiymati	Signal	Boshqaruv signalining mazmuni
0 — meyoriy	10% gacha	Yashil	Kuzatish davom ettiriladi, alohida harakat talab etilmaydi
1 — mo‘tadil	10–25%	Sariq	Mas’ul hisobchi o‘zgarish sababi bo‘yicha qisqa izoh tayyorlaydi
2 — sezilarli	25–50%	To‘q sariq	Bosh hisobchi tahliliy tekshiruv o‘tkazadi va natijani rahbarga yozma ma’lum qiladi
3 — keskin	50% va undan yuqori	Qizil	Rahbarga zudlik bilan xabar beriladi, maqsadli inventarizatsiya yoki solishtirish o‘tkaziladi

Darajalash mexanizmi shartli budjet tashkiloti misolida sinab ko'rildi. Tashkilotning yillik kassa xarajatlari 10 000 mln so'mni tashkil etadi, demak ahamiyatlilik chegarasi 100 mln so'm. Hisob siyosatida tahlil qilinadigan yettita asosiy ko'rsatkich bo'yicha choraklik o'zgarishlar hisoblandi (3-jadval).

3-jadval.

Moliyaviy ko‘rsatkichlardagi o‘zgarishlarni darajalash (shartli misol, mln so‘m)[58]

Ko‘rsatkich	Oldingi chorak	Joriy chorak	Mutlaq o‘zgarish	Δ, %	Dastlabki daraja	Yakuniy daraja (signal)
Kreditorlik qarzi	420	690	+270	+64,3	3	3 (qizil)
Debitorlik qarzi	310	365	+55	+17,7	1	0 (yashil)
TMZ qoldig‘i	540	720	+180	+33,3	2	2 (to‘q sariq)
Kommunal xizmatlar xarajatlari	260	285	+25	+9,6	0	0 (yashil)
Xizmat safari xarajatlari	48	81	+33	+68,8	3	2 (to‘q sariq)
Asosiy vositalarni hisobdan chiqarish	35	150	+115	+328,6	3	3 (qizil)
Budjetdan tashqari tushumlar	900	760	−140	−15,6	1	1 (sariq)

[57] Manba: muallif ishlanmasi. Izoh: agar o'zgarishning mutlaq summasi ahamiyatlilik chegarasidan (A) kam bo'lsa, daraja bir pog'onaga pasaytiriladi (lekin 0 dan past emas).

[58] Manba: muallif hisob-kitoblari (shartli ma'lumotlar asosida).

Natijalar mexanizmning boshqaruv e’tiborini qanday yo‘naltirishini yaqqol ko‘rsatadi. Yettita ko‘rsatkichdan ikkitasi "qizil" signal bergan: kreditorlik qarzining 64,3 foizga o‘sishi to‘lov intizomi buzilayotganidan yoki majburiyatlar smeta limitidan ortiq qabul qilinayotganidan dalolat berishi mumkin, asosiy vositalarni hisobdan chiqarishning keskin ko‘payishi esa hisobdan chiqarish asoslarini maqsadli tekshirishni talab qiladi.

Ikkinchi mezonning ahamiyati xizmat safari xarajatlari va debitorlik qarzi misolida namoyon bo‘ladi. Xizmat safari xarajatlari 68,8 foizga oshgan bo‘lsa-da, mutlaq o‘zgarish (33 mln so‘m) ahamiyatlilik chegarasidan kam bo‘lgani sababli daraja "keskin"dan "sezilarli"ga pasaytirilgan. Debitorlik qarzi esa "mo‘tadil" darajadan "meyoriy" darajaga tushirilgan. Shu tariqa mexanizm rahbariyatni ikkinchi darajali o‘zgarishlar bilan ortiqcha yuklamasdan, e’tiborni haqiqatan ham muhim o‘zgarishlarga qaratadi.

Mexanizm samarali ishlashi uchun hisob siyosatiga bir qator elementlar kiritilishi zarur: ahamiyatlilik chegarasini hisoblash tartibi va k koeffitsiyenti qiymati; tahlil qilinadigan ko‘rsatkichlar ro‘yxati va ularni hisoblash uchun zarur analitik hisob tuzilmasi; o‘zgarishlarni hisoblash davriyligi (chorakda kamida bir marta); har bir signal darajasi bo‘yicha mas’ul shaxslar va harakat muddatlari. Boshqacha aytganda, taklif etilayotgan mexanizm hisob siyosati elementlarini shakllantirish amaliyotidagi 1-jadvalda qayd etilgan kamchiliklarni bartaraf etishni ham rag‘batlantiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi.

Birinchidan, budjet tashkilotlarida hisob siyosati elementlarini shakllantirish amaliyotida tashkiliy, uslubiy va texnik elementlarning barcha guruhlarida kamchiliklar mavjud bo‘lib, ularning umumiy sababi hisob siyosatida hisob ma’lumotlarini tahlil qilish va boshqaruvda foydalanish uchun zarur parametrlarning belgilanmasligidir.

Ikkinchidan, ahamiyatlilik chegarasi, analitik hisob tuzilmasi va hisob-kitoblar inventarizatsiyasi davriyligining aniq belgilanmaganligi moliyaviy ko‘rsatkichlardagi muhim o‘zgarishlarni kechikib aniqlanishiga olib keladi.

Uchinchidan, muallif tomonidan taklif etilgan mexanizm o‘zgarishlarni nisbiy daraja va ahamiyatlilik chegarasiga nisbatan mutlaq summa bo‘yicha darajalab, har bir daraja uchun aniq boshqaruv signalini shakllantiradi.

To‘rtinchidan, ikki mezonni birgalikda qo‘llash kichik bazali ko‘rsatkichlardagi yuqori nisbiy o‘zgarishlarga ortiqcha reaksiya ko‘rsatishning oldini oladi va boshqaruv e’tiborini haqiqatan muhim o‘zgarishlarga qaratadi.

Taklif etilgan mexanizmni hisob siyosatining alohida ilovasi sifatida tasdiqlash hamda yuqori turuvchi tashkilot darajasida tizimdagi tashkilotlar uchun ahamiyatlilik koeffitsiyentining tavsiyaviy qiymatlarini belgilash maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi. 2013-yil 26-dekabr, O‘RQ-360-son (o‘zgartish va qo‘shimchalar bilan). // www.lex.uz

2. O‘zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida"gi Qonuni. 2016-yil 13-aprel, O‘RQ-404-son. // www.lex.uz

3. IPSASB. IPSAS 1 "Presentation of Financial Statements" // Handbook of International Public Sector Accounting Pronouncements. — New York: IFAC.

4. IPSASB. The Conceptual Framework for General Purpose Financial Reporting by Public Sector Entities. — New York: IFAC, 2014.

5. Kuter M.I. Teoriya buxgalterskogo ucheta: uchebnik. — M.: Finansi i statistika.

6. Sokolov Y.V. Osnovi teorii buxgalterskogo ucheta. — M.: Finansi i statistika, 2000.

7. Wheyeler D.J. Understanding Variation: The Key to Managing Chaos. 2nd ed. — Knoxville: SPC Press, 2000.

8. Simons R. Levers of Control: How Managers Use Innovative Control Systems to Drive Strategic Renewal. — Boston: Harvard Business School Press, 1995.

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Xabilov Djaxongir Xakimovich O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi / Хабилов Джахонгир Хакимович Самостоятельный соискатель Университета общественной безопасности Республики Узбекистан / Xabilov Djahongir Xakimovich Independent Researcher at the University of Public Safety of the Republic of Uzbekistan

E-mail: djaxongir@mail.ru

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.10.10.2026.20 *Moliya, kredit va investitsiya*

BUDJET TASHKILOTLARIDA HISOB SIYOSATINI O‘ZGARTIRISH, XATOLARNI BARTARAF ETISH VA UNING NATIJALARINI MOLIYAVIY HISOBOTDA OCHIB BERISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH

Xabilov Djaxongir Xakimovich

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПОРЯДКА ИЗМЕНЕНИЯ УЧЕТНОЙ ПОЛИТИКИ, ИСПРАВЛЕНИЯ ОШИБОК И РАСКРЫТИЯ ИХ ПОСЛЕДСТВИЙ В ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ БЮДЖЕТНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ

Хабилов Джахонгир Хакимович

IMPROVING THE PROCEDURES FOR CHANGING ACCOUNTING POLICIES, CORRECTING ERRORS, AND DISCLOSING THEIR EFFECTS IN THE FINANCIAL STATEMENTS OF BUDGETARY ORGANIZATIONS

Xabilov Djahongir Xakimovich

Annotatsiya. Maqolada budjet tashkilotlarida hisob siyosatining o‘zgarishi, hisob bahosidagi o‘zgarish va oldingi davr xatolarini bir-biridan farqlash hamda ularning natijalarini moliyaviy hisobotda aks ettirish masalalari tadqiq etilgan. Amaliyotda ushbu uch holatning aralashtirib yuborilishi hisobot ko‘rsatkichlarining taqqoslanuvchanligini buzishi asoslab berilgan. Muallif tomonidan IPSAS 3 talablariga tayangan holda ketma-ket savollar asosidagi tasniflash algoritmi hamda xatolarning ahamiyatliligi va ochib berish to‘liqligini baholash tizimi taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: hisob siyosati o‘zgarishi, hisob bahosidagi o‘zgarish, oldingi davr xatolari, retrospektiv qo‘llash, prospektiv qo‘llash, ahamiyatlilik, ochib berish, budjet tashkiloti.

Аннотация. В статье исследованы вопросы разграничения изменений учетной политики, изменений учетных оценок и ошибок прошлых периодов в бюджетных организациях, а также отражения их последствий в финансовой отчетности. Обосновано, что смешение этих трех случаев на практике нарушает сопоставимость показателей отчетности. Автором на основе требований МСФО ОС 3 предложен алгоритм классификации, построенный на последовательных вопросах, а также система оценки существенности ошибок и полноты раскрытия информации.

Ключевые слова: изменение учетной политики, изменение учетной оценки, ошибки прошлых периодов, ретроспективное применение, перспективное применение, существенность, раскрытие информации, бюджетная организация.

Annotation. The article examines the distinction between changes in accounting policy, changes in accounting estimates and prior period errors in budgetary organizations, as well as the presentation of their effects in financial statements. It is substantiated that confusing these three cases in practice impairs the comparability of reported figures. Based on IPSAS 3 requirements, the author proposes a classification algorithm built on sequential questions, as well as a system for assessing the materiality of errors and the completeness of disclosures.

Keywords: change in accounting policy, change in accounting estimate, prior period errors, retrospective application, prospective application, materiality, disclosure, budgetary organization.

KIRISH

Moliyaviy hisobotning foydalanuvchilar uchun qimmati ko‘p jihatdan uning turli davrlar bo‘yicha taqqoslanuvchanligiga bog‘liq. Taqqoslanuvchanlik esa hisob siyosatining izchil qo‘llanilishini, uning o‘zgarishlari va aniqlangan xatolarning esa belgilangan

tartibda aks ettirilishini talab qiladi. Budjet tashkilotlarida bu masala alohida ahamiyatga ega, chunki ularning hisobot ko‘rsatkichlari budjet ijrosini baholash, keyingi yil budjetini rejalashtirish va nazorat organlari xulosalari uchun asos bo‘ladi [8].

Budjet tashkilotlarida hisobni takomillashtirish, xalqaro standartlarga bosqichma-bosqich o‘tish jarayonida hisob siyosatiga o‘zgartirishlar kiritish holatlari ko‘paymoqda. Shu bilan birga, amaliyotda uch xil holat — hisob siyosatining o‘zgarishi, hisob bahosidagi o‘zgarish va oldingi davr xatosini tuzatish ko‘pincha bir-biridan farqlanmaydi. Masalan, asosiy vositalarning foydali xizmat muddatini qayta ko‘rib chiqish hisob siyosatining o‘zgarishi sifatida rasmiylashtiriladi yoki, aksincha, o‘tgan yili yo‘l qo‘yilgan xato joriy davr xarajatlari orqali "jimgina" tuzatiladi va hisobotda ochib berilmaydi.

"Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida"gi Qonunda moliyaviy hisobotning ishonchliligi va hisob siyosatining izchilligi talablari belgilangan [1]. Ushbu talablarni budjet tashkilotlarida amalda ta’minlash uchun uch holatni farqlashning aniq va takrorlanuvchan tartibi zarur.

Mazkur maqolaning maqsadi budjet tashkilotlarida hisob siyosati o‘zgarishi, hisob bahosidagi o‘zgarish va xatolarni farqlashga mo‘ljallangan tasniflash algoritmi va baholash tizimini ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mazkur masalaning meyoriy asosi IPSAS 3 "Hisob siyosati, hisob baholaridagi o‘zgarishlar va xatolar" standartida belgilangan [2]. Standartga ko‘ra hisob siyosati faqat bu qonunchilik yoki standart talab qilganda yoki o‘zgarish ishonchliroq va ahamiyatliroq axborot berishi asoslanganda o‘zgartiriladi hamda, qoida tariqasida, retrospektiv qo‘llaniladi. Hisob bahosidagi o‘zgarish esa yangi axborot yoki tajriba natijasi bo‘lib, prospektiv, ya’ni joriy va kelgusi davrlarda aks ettiriladi. Ahamiyatli oldingi davr xatolari retrospektiv qayta hisoblash orqali tuzatiladi. Standartda hisob siyosati o‘zgarishini hisob bahosidagi o‘zgarishdan farqlash qiyin bo‘lgan hollarda uni hisob bahosidagi o‘zgarish sifatida qarash belgilangan.

IASB tomonidan IAS 8 standartiga kiritilgan tuzatishlar bilan "hisob bahosi" tushunchasining ta’rifi aniqlashtirilgan bo‘lib, hisob bahosi o‘lchashdagi noaniqlikka ega bo‘lgan moliyaviy hisobotdagi pul summasi sifatida belgilangan [3]. Bu aniqlashtirish farqlash muammosining amaliyotda qanchalik dolzarb ekanligini ko‘rsatadi. IPSAS 1 standartida esa moliyaviy hisobotning taqqoslanuvchanligi va qiyosiy axborotni taqdim etish talablari belgilangan [4].

Ilmiy adabiyotlarda E. Hendriksen va M. van Breda hisob usullarining izchilligini hisobot taqqoslanuvchanligining asosiy sharti sifatida ko‘rsatgan [5]. J. Chan davlat hisobining maqsadlarini tahlil qilib, hisobdorlik funksiyasi hisobot ko‘rsatkichlarini davrlar bo‘yicha taqqoslash imkoniyatiga tayanishini ta’kidlaydi [6]. I. Bruska va hammualliflari Yevropa mamlakatlarida davlat sektori hisobini uyg‘unlashtirish tajribasini o‘rganib, hisob islohotlari davrida hisob siyosati o‘zgarishlarini ochib berish sifati taqqoslanuvchanlikka jiddiy ta’sir qilishini qayd etgan [7].

Mahalliy tadqiqotlarda hisob siyosatini shakllantirish masalalari o‘rganilgan bo‘lsa-da, budjet tashkilotlari uchun uch holatni farqlashning amaliy algoritmi va ochib berish sifatini baholash vositalari ishlab chiqilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda meyoriy-qiyosiy tahlil, tasniflash, algoritmlash, mantiqiy tahlil, ahamiyatlilikni miqdoriy baholash va nazorat ro‘yxati (cheklist) usullaridan foydalanildi. Algoritmni ishlab chiqishda IPSAS 3 va IAS 8 standartlarining talablari qiyosiy o‘rganildi. Algoritm va baholash tizimi budjet tashkilotlari amaliyotida uchraydigan tipik vaziyatlarni aks ettiruvchi shartli misollar asosida sinab ko‘rildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Uch holatni farqlash uchun avvalo ularning mohiyati, budjet tashkilotlari uchun xos misollari, hisobda aks ettirish usuli va ochib berish talablari taqqoslandi (1-jadval).

1-jadval.

Hisob siyosati o‘zgarishi, hisob bahosidagi o‘zgarish va xatolarning qiyosiy tavsifi[59]

Belgi	Hisob siyosatining o‘zgarishi	Hisob bahosidagi o‘zgarish	Oldingi davr xatosi
Mohiyati	Tan olish, baholash asosi yoki taqdim etish tamoyilining o‘zgarishi	Yangi axborot yoki tajriba asosida taxminiy summaning qayta ko‘rib chiqilishi	O‘sha paytda mavjud bo‘lgan ishonchli axborotdan foydalanmaslik yoki uni noto‘g‘ri qo‘llash
Budjet tashkilotiga xos misol	TMZni hisobdan chiqarish usulini o‘zgartirish	Asosiy vositalarning foydali xizmat muddatini qayta ko‘rib chiqish	Asosiy vositani xarajat sifatida hisobdan chiqarish
Aks ettirish usuli	Retrospektiv (amalda imkonsiz bo‘lganda — prospektiv)	Prospektiv: joriy va kelgusi davrlarda	Ahamiyatli bo‘lsa — retrospektiv qayta hisoblash
Ochib berish talablari soni	4 ta: mohiyati; sabablari; har bir modda bo‘yicha tuzatish summasi; oldingi davrlarga tegishli summa	2 ta: mohiyati; joriy va kelgusi davrlarga ta’siri summasi	3 ta: mohiyati; har bir modda bo‘yicha tuzatish summasi; eng erta davr boshiga tuzatish summasi

[59] Manba: IPSAS 3 [2] asosida muallif ishlanmasi.

Jadval uch holatning hisobda aks ettirilishi tubdan farq qilishini ko‘rsatadi. Shu sababli tasniflashdagi xato hisobotning taqqoslanuvchanligini bevosita buzadi: hisob bahosidagi o‘zgarish retrospektiv aks ettirilsa, oldingi davr ko‘rsatkichlari asossiz o‘zgartiriladi; xato joriy davr orqali tuzatilsa, joriy yil ko‘rsatkichlari sun’iy ravishda buziladi.

Ushbu muammoni hal etish uchun biz ketma-ket savollarga asoslangan tasniflash algoritmini taklif etamiz. Algoritmning asosiy afzalligi shundaki, savollar tartibi qat’iy belgilangan va har bir savolga "ha" yoki "yo‘q" javobi berish orqali holat bir ma’noli tasniflanadi (2-jadval).

2-jadval.

Hisob siyosati o‘zgarishi, hisob bahosidagi o‘zgarish va xatolarni tasniflash algoritmi[60]

Qadam	Savol	"Ha" bo‘lsa	"Yo‘q" bo‘lsa
1	O‘zgarish oldingi davrda mavjud bo‘lgan va olinishi mumkin bo‘lgan ishonchli axborotdan foydalanmaslik yoki uni noto‘g‘ri qo‘llash (arifmetik xato, siyosatni noto‘g‘ri qo‘llash, faktlarni e’tiborsiz qoldirish) natijasimi?	XATO → 5-qadam	2-qadamga o‘tiladi
2	O‘zgarish yangi meyoriy hujjat yoki standart talabi bilan bog‘liqmi?	Majburiy hisob siyosati o‘zgarishi (o‘tish qoidalari bo‘yicha)	3-qadamga o‘tiladi
3	O‘zgarish tan olish, baholash asosi yoki taqdim etish tamoyilining boshqa usulga almashtirilishimi?	Ixtiyoriy hisob siyosati o‘zgarishi (asoslash talab etiladi)	4-qadamga o‘tiladi
4	O‘zgarish yangi axborot yoki tajriba asosida taxminiy summaning (xizmat muddati, qoldiq qiymat, zaxira foizi) qayta ko‘rib chiqilishimi?	Hisob bahosidagi o‘zgarish (prospektiv)	Yangi yoki mazmunan farq qiluvchi operatsiya — hisob siyosati o‘zgarishi hisoblanmaydi
5	Xato ahamiyatlilik chegarasidan oshadimi (M ≥ 0,5%)?	Retrospektiv tuzatish va ochib berish	Joriy davrda tuzatish

Algoritmda savollar tartibi tasodifiy emas. Xato haqidagi savol birinchi o‘ringa qo‘yilgan, chunki amaliyotda xatolar ko‘pincha "hisob siyosatini aniqlashtirish" yoki "baholarni qayta ko‘rib chiqish" sifatida niqoblanadi. Birinchi qadamda xato ehtimoli istisno qilingandan keyingina qolgan holatlar ko‘rib chiqiladi. To‘rtinchi qadamdagi "yo‘q" javobi ham muhim: tashkilotda ilgari bo‘lmagan operatsiyalar uchun yangi qoida belgilanishi hisob siyosatining o‘zgarishi hisoblanmaydi va retrospektiv tuzatishni talab qilmaydi.

Algoritmning beshinchi qadami xatolarning ahamiyatliligini baholashga bag‘ishlangan. Buning uchun quyidagi ko‘rsatkichdan foydalanish taklif etiladi:

$$M = \frac{|X_x|}{B} \times 100\%, \quad (1)$$

bu yerda:

M— xatoning nisbiy ahamiyatlilik darajasi, %;

X_x— aniqlangan xato summasi;

$|X_x|$— xato summasining mutlaq qiymati;

B— taqqoslash bazasi.

Bunda baza xatoning tabiatiga qarab belgilanadi:

xarajatlarga ta’sir qiluvchi xatolar uchun — yillik kassa xarajatlari;

balans moddalariga ta’sir qiluvchi xatolar uchun — jami aktivlar.

Ahamiyatlilik darajalari quyidagicha belgilanishi tavsiya etiladi: M < 0,5% — ahamiyatsiz (joriy davrda tuzatiladi); 0,5% ≤ M < 2% — ahamiyatli (retrospektiv tuzatish va ochib berish); M ≥ 2% — o'ta muhim (retrospektiv tuzatish, ochib berish, rahbar va yuqori turuvchi tashkilotga xabar berish, xato sabablari bo'yicha ichki nazorat tahlili).

Baholash tizimining ikkinchi elementi — ochib berish to'liqligi koeffitsiyenti:

$$D = \frac{\sum d_b}{\sum d_t}, \quad (2)$$

Bu yerda d_b— moliyaviy hisobotga tushuntirishlarda amalda ochib berilgan axborot talablari soni; d_t— tegishli holat uchun belgilangan jami ochib berish talablari soni. Dkoeffitsiyentining 1 ga yaqinlashishi moliyaviy hisobotda axborotni ochib berish darajasining yuqoriligini anglatadi.

Algoritm va baholash tizimi yillik kassa xarajatlari 9 800 mln so‘m bo‘lgan shartli budjet tashkilotida yil davomida yuzaga kelgan beshta holat misolida sinab ko‘rildi (3-jadval).

[60] Manba: muallif ishlanmasi. Izoh: 3- va 4-qadamlarda holatni bir ma'noli farqlash imkoni bo'lmasa, u hisob bahosidagi o'zgarish sifatida tasniflanadi [2].

3-jadval.

Tasniflash algoritmini qo‘llash natijalari (shartli misol)[61]

Holat	Amaliyotdagi rasmiylashtirish	Algoritm bo‘yicha tasnif (qadam)	Aks ettirish	D (amaldagi / talab)
Transport vositalarining xizmat muddati texnik ekspertiza xulosasiga ko‘ra 8 yildan 5 yilga qisqartirildi (eskirish +46 mln so‘m)	Hisob siyosatining o‘zgarishi	Hisob bahosidagi o‘zgarish (4)	Prospektiv	1 / 2
TMZni hisobdan chiqarishda FIFO usulidan o‘rtacha tannarx usuliga o‘tildi (ta’sir 14 mln so‘m)	Hisob siyosatining o‘zgarishi	Ixtiyoriy hisob siyosati o‘zgarishi (3)	Retrospektiv	1 / 4
O‘tgan yili 64 mln so‘mlik kompyuter texnikasi asosiy vosita o‘rniga xarajat sifatida hisobdan chiqarilgan	Joriy davr hisobida tuzatildi	Xato, M = 0,65% — ahamiyatli (1, 5)	Retrospektiv	0 / 3
Shubhali debitorlik qarzlari bo‘yicha zaxira foizi yangi ma’lumotlar asosida oshirildi	Rasmiylashtirilmagan	Hisob bahosidagi o‘zgarish (4)	Prospektiv	1 / 2
Birinchi marta pullik xizmatlar ko‘rsatila boshlandi va daromadni tan olish tartibi belgilandi	Hisob siyosatining o‘zgarishi	O‘zgarish hisoblanmaydi (4, "yo‘q")	Joriy davrdan	–
Jami	–	–	–	3 / 11 = 0,27

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, beshta holatdan uchtasi amaliyotda noto‘g‘ri tasniflangan, yana biri esa umuman rasmiylashtirilmagan. Xususan, xizmat muddatini qayta ko‘rib chiqish hisob siyosatining o‘zgarishi sifatida rasmiylashtirilgan, vaholanki bu yangi texnik axborot asosidagi hisob bahosi o‘zgarishidir va retrospektiv qayta hisoblashni talab qilmaydi. Eng jiddiy kamchilik uchinchi holatda aniqlandi: ahamiyatli xato (M = 64 / 9 800 = 0,65%) joriy yil hisobida tuzatilgan, natijada joriy yil xarajatlari asossiz kamaygan, oldingi yil ko‘rsatkichlari esa buzilganicha qolgan. Beshinchi holat esa teskari xatoga misol: yangi operatsiya uchun qoida belgilanishi hisob siyosatining o‘zgarishi sifatida qaralib, ortiqcha rasmiylashtirishga sabab bo‘lgan.

Ochib berish to‘liqligi koeffitsiyenti atigi 0,27 ni tashkil etgan, ya’ni moliyaviy hisobotga tushuntirishlarda talab etiladigan axborotning to‘rtdan bir qismigina ochib berilgan. Algoritm bo‘yicha to‘g‘ri tasniflangan taqdirda har bir holat uchun ochib berish talablari 1-jadval asosida aniq belgilanadi va D koeffitsiyentini 1,0 ga yaqinlashtirish imkoni paydo bo‘ladi.

Taklif etilayotgan tartibni joriy etish uchun hisob siyosati to‘g‘risidagi buyruqqa "Hisob siyosati o‘zgarishlari, hisob baholaridagi o‘zgarishlar va xatolarni tuzatish" nomli alohida bo‘lim kiritish, unda tasniflash algoritmi, ahamiyatlilik chegaralari va ochib berish talablari ro‘yxatini belgilash hamda har bir holat bo‘yicha bosh hisobchi tomonidan tasniflash xulosasi tayyorlanishini nazarda tutish maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi.

Birinchidan, budjet tashkilotlarida hisob siyosatining o‘zgarishi, hisob bahosidagi o‘zgarish va oldingi davr xatolari amaliyotda ko‘pincha farqlanmaydi, bu esa moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarining davrlar bo‘yicha taqqoslanuvchanligini buzadi.

Ikkinchidan, muallif tomonidan IPSAS 3 talablari asosida ishlab chiqilgan tasniflash algoritmi qat’iy tartibdagi beshta savol orqali har bir holatni bir ma’noli tasniflash imkonini beradi. Xato haqidagi savolning birinchi o‘ringa qo‘yilishi xatolarni hisob siyosati yoki baho o‘zgarishi sifatida niqoblash imkoniyatini cheklaydi.

Uchinchidan, xatolarning ahamiyatlilik ko‘rsatkichi va uch pog‘onali ahamiyatlilik shkalasi xatolarni joriy davrda yoki retrospektiv tuzatish to‘g‘risidagi qarorni asoslash imkonini beradi.

To‘rtinchidan, ochib berish to‘liqligi koeffitsiyenti moliyaviy hisobotga tushuntirishlar sifatini miqdoriy baholaydi va ichki hamda tashqi nazorat uchun qulay vosita hisoblanadi.

Taklif etilgan algoritm va baholash tizimini budjet tashkilotlarida hisob siyosatini ishlab chiqish bo‘yicha

[61] Manba: muallif hisob-kitoblari (shartli ma'lumotlar asosida).

uslubiy tavsiyalarga kiritish hamda bosh hisobchilarni o‘qitish dasturlarida foydalanish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida"gi Qonuni. 2016-yil 13-aprel, O‘RQ-404-son. // www.lex.uz

2. IPSASB. IPSAS 3 "Accounting Policies, Changes in Accounting Estimates and Errors" // Handbook of International Public Sector Accounting Pronouncements. — New York: IFAC.

3. IASB. IAS 8 "Accounting Policies, Changes in Accounting Estimates and Errors" (Definition of Accounting Estimates — Amendments to IAS 8). — London: IFRS Foundation, 2021.

4. IPSASB. IPSAS 1 "Presentation of Financial Statements" // Handbook of International Public Sector Accounting Pronouncements. — New York: IFAC.

5. Hendriksen E.S., van Breda M.F. Accounting Theory. 5th ed. — Homewood: Irwin, 1992.

6. Chan J.L. Government Accounting: An Assessment of Theory, Purposes and Standards // Public Money & Management. — 2003. — Vol. 23, No. 1. — P. 13–20.

7. Brusca I., Caperchione E., Cohen S., Manes Rossi F. (eds.) Public Sector Accounting and Auditing in Europe: The Challenge of Harmonization. — Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2015.

8. O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi. 2013-yil 26-dekabr, O‘RQ-360-son (o‘zgartish va qo‘shimchalar bilan). // www.lex.uz

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Xabilov Djaxongir Xakimovich O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi / Хабилов Джахонгир Хакимович Самостоятельный соискатель Университета общественной безопасности Республики Узбекистан / Xabilov Djahongir Xakimovich Independent Researcher at the University of Public Safety of the Republic of Uzbekistan

E-mail: djaxongir@mail.ru

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.10.10.2026.21 *Raqamli iqtisodiyot*

RAQAMLI PLATFORMALAR SHAROITIDA YENGIL SANOAT KICHIK VA O‘RTA KORXONALARIDA INSON KAPITALIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Zokirov Ulug‘bek Inom o‘g‘li

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В МАЛЫХ И СРЕДНИХ ПРЕДПРИЯТИЯХ ЛЁГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВЫХ ПЛАТФОРМ

Зокиров Улугбек Ином угли

EFFICIENCY OF HUMAN CAPITAL UTILIZATION IN LIGHT-INDUSTRY SMALL AND MEDIUM-SIZED ENTERPRISES IN THE CONTEXT OF DIGITAL PLATFORMS

Zokirov Ulugbek Inom ugli

Annotatsiya: Maqolada raqamli platformalar sharoitida yengil sanoat kichik va o‘rta korxonalarida inson kapitalidan foydalanish samaradorligini belgilovchi omillar xalqaro tadqiqotlar va OECD (2023) ma’lumotlari asosida tahlil qilinadi. Adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, xodimlarning raqamli ko‘nikmalari raqamli resurslarning natijaga ta’sirini o‘zgartiradi, bu ta’sirning kuchi esa korxona o‘lchamiga bog‘liq.

Kalit so‘zlar: raqamli platforma, inson kapitali, raqamli ko‘nikmalar, yengil sanoat, kichik va o‘rta korxonalar, samaradorlik.

Аннотация: В статье на основе международных исследований и данных ОЭСР (2023) анализируются факторы, определяющие эффективность использования человеческого капитала в малых и средних предприятиях лёгкой промышленности в условиях цифровых платформ. Обзор показывает, что цифровые навыки сотрудников изменяют влияние цифровых ресурсов на результаты, причём сила этого влияния зависит от размера предприятия.

Ключевые слова: цифровая платформа, человеческий капитал, цифровые навыки, лёгкая промышленность, малые и средние предприятия, эффективность.

Abstract: The article examines what determines the efficiency of human capital use in light-industry SMEs operating on digital platforms, drawing on recent international studies and OECD (2023) data for Uzbekistan. The reviewed evidence suggests that employees’ digital skills condition the effect of digital resources on firm performance, and that this effect varies with firm size.

Keywords: digital platforms, human capital, digital skills, light industry, SMEs, efficiency.

KIRISH

Raqamli platformalar kichik va o‘rta korxonalar uchun bozorga chiqish, to‘lov, logistika va mijoz bilan aloqa xarajatlarini kamaytiruvchi infratuzilmaga aylandi. Biroq platformaga ulanish o‘z-o‘zidan natija bermaydi: uning imkoniyatlaridan foydalanish korxonada ishlaydigan odamlarning ko‘nikmalari, bilimi va tashkiliy sharoitiga bog‘liq. Shu sababli inson kapitalining mavjudligi emas, undan foydalanish samaradorligi tadqiqotning markaziy masalasiga

aylanmoqda. O‘zbekiston uchun mavzu amaliy ahamiyatga ega. 2025-yilda to‘qimachilik sanoatida ishlab chiqarish hajmi 134 trln so‘mni, eksport 2,5 mlrd dollarni tashkil etgan, sohada 623 ming kishi band bo‘lgan; 2026-yil uchun eksport maqsadi 3,3 mlrd dollar etib belgilangan[62]. Shu bilan birga elektron tijorat platformalari soni 36 tadan 115 taga yetgan, onlayn savdo 22,7 trln so‘mga yoki chakana savdoning 4,6 foiziga erishgan[63].

OECD (2023) hisobotiga ko‘ra, O‘zbekistonda raqamlashtirishning asosiy to‘siqlaridan biri: menejerlar va xodimlarning raqamli ko‘nikmalari yetishmasligi, firma darajasidagi ko‘nikmalar bo‘yicha ma’lumotlarning kamligi va raqamli malaka oshirish rag‘batlarining asosan IT Park va IT va biznes jarayonlarini tashqaridan bajarish xizmatlari sohasi bilan cheklanishidir[64]. Demak, platformalar soni ko‘payishi bilan inson kapitali tomonidagi cheklov kuchayishi mumkin.

Nazariy asos sifatida inson kapitali nazariyasi[65] va resurslarga asoslangan qarash[66] xizmat qiladi. Adabiyotda esa uch yo‘nalish ajraladi: raqamli transformatsiya va inson kapitalining firma samaradorligiga ta’siri[67], texnologiyani qabul qilish va undan foydalanish omillari[68] hamda to‘qimachilik va moda sanoatida raqamli texnologiyalar bo‘yicha sharh[69]. Maqolaning maqsadi global raqamli platformalar (B2B/B2C) sharoitida yengil sanoat kichik va o‘rta korxonalarida inson kapitalidan foydalanish samaradorligini belgilovchi omillarni nazariy-analitik sharh asosida tizimlashtirish va uni oshirish mexanizmining konseptual modelini asoslash. Buning uchun quyidagi vazifalar belgilandi: inson kapitali va platforma samaradorligi bo‘yicha asosiy yondashuvlarni solishtirish; xalqaro empirik natijalardan yengil sanoat kichik va o‘rta korxonalari uchun xulosa chiqarish mumkin bo‘lgan qismini ajratish; OECD (2023) ma’lumotlari asosida O‘zbekiston sharoitidagi cheklovlarni aniqlash; konseptual model va mexanizm elementlarini taklif etish.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Inson kapitali nazariyasida bilim va ko‘nikmalar ishlab chiqarish omili sifatida qaraladi: ta’lim va mashg‘ulotga sarflangan mablag‘ kelgusida unumdorlik va daromad ko‘rinishida qaytadi. Resurslarga asoslangan qarashga ko‘ra esa raqobat ustunligini faqat qimmatli, noyob, taqlid qilish qiyin va almashtirib bo‘lmaydigan resurslar beradi. Ikkala qarashni birlashtirsak, platforma texnologiyasi bozorda hamma uchun ochiq bo‘lgani sababli o‘zi ustunlik bermaydi; ustunlik uni korxonaga xos ko‘nikmalar bilan uyg‘unlashtirishdan kelib chiqadi.

Raqamli resurslar, ko‘nikmalar va firma o‘lchami. Thy (2026) Vietnamning 7708 ta korxonasi (GSO 2023-yil so‘rovlari) ma’lumotlari asosida raqamli marketing, texnologik innovatsiya va raqamli yo‘nalganlikning savdo tushumi hamda unumdorlikka ta’sirini mikro, kichik va o‘rta korxonalar bo‘yicha alohida baholagan. Raqamli marketing xarajati uch guruhda ham natija bilan ijobiy bog‘langan; texnologik innovatsiya esa mikro korxonalarda ahamiyatsiz, kichik va o‘rtalarda ahamiyatli bo‘lgan. Xodimlarning raqamli ko‘nikmalari mikro korxonalarda raqamli marketing samarasini kuchaytirgan (o‘zaro ta’sir koeffitsiyenti 0,035), kichik va o‘rta korxonalarda esa bevosita ta’siri kattaroq bo‘lgan (taxminan 0,31 va 0,64). Muallif resurslarga asoslangan qarashni firma o‘lchamiga bog‘liq holda aniqlashtirish kerak, degan xulosaga keladi.

Texnologiyani qabul qilish. Susanty va boshq. (2025) Indoneziyaning Markaziy Yava viloyatidagi to‘qimachilik va kiyim-kechak korxonalarida (n = 125) UTAUT modelini kengaytirib, PLS-SEM orqali tekshirgan. Kutilayotgan samaradorlik, foydalanish qulayligi, ishonch, raqobat bosimi va davlat yordami qabul qilish niyatiga ta’sir qilgan; haqiqiy foydalanish nomoliyaviy (β = 0,57) va moliyaviy (β = 0,47) natijalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

Glogar va boshq. (2025) 135 ta nashrni ko‘rib chiqib, Industry 4.0 texnologiyalari (IoT, sun’iy intellekt, blokcheyn, CAD-CAM, raqamli bosma, 3D vizualizatsiya) to‘qimachilik va moda sanoatida samaradorlik, moslashuvchanlik va barqarorlikni oshirishini ko‘rsatgan; shu bilan birga tartibga solish asoslari, fanlararo hamkorlik va ko‘nikmalarni rivojlantirishga sarmoya muvaffaqiyatning asosiy shartlari sifatida qayd etilgan.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda raqamli platformalar sharoitida yengil sanoat kichik va o‘rta korxonalarida inson kapitalidan foydalanish samaradorligini o‘rganish uchun nazariy va qiyosiy tahlil usullari qo‘llanildi. Metodologiya xalqaro tadqiqotlar va OECD (2023) hisoboti tahliliga tayangan holda shakllantirildi.

NATIJALAR VA TAHLIL

1-jadvalda asosiy empirik manbalar inson kapitali nuqtai nazaridan solishtirilgan.

[62] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy sayti (president.uz), 23.12.2025, to‘qimachilik sanoati ko‘rsatkichlari.
[63] Istiqbolli loyihalar milliy agentligi (ILMA); Kursiv, 17.02.2026, elektron tijorat platformalari va onlayn savdo ko‘rsatkichlari.
[64] OECD. Digital Skills for Private Sector Competitiveness in Uzbekistan. Paris: OECD Publishing, 2023. https://doi.org/10.1787/6c54f447-en
[65] Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. New York: Columbia University Press, 1964. Schultz T.W. Investment in Human Capital // American Economic Review. 1961. Vol. 51, No. 1. P. 1–17.
[66] Barney J. Firm Resources and Sustained Competitive Advantage // Journal of Management. 1991. Vol. 17, No. 1. P. 99–120.
[67] Thy N.G. Digital marketing and moderating effect of digital skills on SMEs’ success in an emerging market (Vietnam) // International Journal of Innovation Studies. 2026. Vol. 10. Art. 100196. https://doi.org/10.1016/j.ijis.2026.100196
[68] Susanty A., Puspitasari N.B., Siahaan G.S., Setiawan S., Syafrudin M. Factors influencing the intention of textile and garment SMEs to adopt digital technologies and its impact on performance // Scientific Reports. 2025. Vol. 15. Art. 20807. https://doi.org/10.1038/s41598-025-94625-7
[69] Glogar M., Petrak S., Mahnić Naglić M. Digital Technologies in the Sustainable Design and Development of Textiles and Clothing: A Literature Review // Sustainability. 2025. Vol. 17, No. 4. Art. 1371. https://doi.org/10.3390/su17041371

1-jadval.

Asosiy manbalarning qiyosiy tahlili[70]


Mezon	Thy (2026)	Susanty va boshq. (2025)	Glogar va boshq. (2025)
Mamlakat, ob'ekt	Vietnam, mikro/kichik/o'rta korxonalar	Indoneziya, to'qimachilik va kiyim korxonalari	Xalqaro, to'qimachilik va moda sanoati
Usul, tanlanma	OLS, n = 7708	PLS-SEM, n = 125	Adabiyot sharhi, 135 nashr
Inson kapitali	Xodimlar raqamli ko'nikmalari (moderator)	Alohida o'zgaruvchi yo'q	Ko'nikmalar va ta'limga sarmoya (shart sifatida)
Firma o'lchami	Alohida baholangan	Hisobga olinmagan	Hisobga olinmagan
Asosiy natija	Natijaga ta'sir o'lchamga bog'liq	Foydalanish moliyaviy va nomoliyaviy natijani oshiradi	Industry 4.0 samaradorlik va barqarorlikni oshiradi

1-jadvalda tanlangan manbalar ikki jihatdan solishtirilgan: ular qaysi sohani o'rgangan va inson kapitalini qanday hisobga olgan. Taqqoslash shuni ko'rsatadiki, mavjud tadqiqotlar yo texnologiyani qabul qilish natijalariga, yo sohaning texnologik rivojiga e'tibor qaratgan, inson kapitalidan foydalanish samaradorligi esa ularda markaziy mavzu bo'lmagan. Bu esa yengil sanoat kichik va o'rta korxonalarida raqamli platformalar sharoitida inson kapitalidan foydalanishni alohida o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekiston sharoitida OECD (2023) ma'lumotlariga ko'ra, rasmiy trening bergan firmalar ulushi 17% (mintaqa o'rtachasi 33%), kichik firmalarda 13%; o'z veb-saytiga ega firmalar 26% (Yevropa va Markaziy Osiyo o'rtachasi 63%); aholining asosiy va standart AKT ko'nikmalari 20% va 7% (OECD mamlakatlarida 43% va 32%). Shu bilan birga COVID-19 davrida firmalarning 51,2% raqamli platformadan foydalanishni boshlagan yoki kengaytirgan, bu 79 iqtisodiyot orasida ikkinchi natija bo'lgan. Demak, platformaga ulanish tez o'sgan, lekin xodimlarni o'qitish va ko'nikmalar sezilarli orqada.

Hisobotda yana quyidagilar qayd etilgan: firmalarning deyarli har to'rttadan uchtasi yetarli bo'lmagan malakani jiddiy to'siq deb hisoblagan; malaka tanqisligi tufayli 20% firma investitsiya qila olmagan va 23% da aylanma kamaygan; rag'batlar asosan IT Park rezidentlari va IT/BPO sohasi bilan cheklangan; ko'plab kichik firmalar Telegram, Instagram va Facebook kabi ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadi, qimmat vositalarni integratsiya rejasisiz sotib olish esa kutilgan natija bermasligi mumkin. OECD qo'shimcha (komplementar) ko'nikmalar, ya'ni kognitiv, shaxslararo, boshqaruv va tashkiliy, yetarli emasligini ham alohida to'siq sifatida ko'rsatadi.

Tahlil natijalariga tayanib, platforma sharoitida inson kapitalidan foydalanish samaradorligi (IKFS) quyidagicha tushuniladi: korxona xodimlarining mavjud bilim va ko'nikmalari platforma imkoniyatlarini (buyurtma qabul qilish, to'lov, logistika, mijoz bilan aloqa, ma'lumot tahlili) real natijaga aylantirishdagi to'liqlik darajasi. IKFS mavjud ko'nikmalar darajasidan farq qiladi: ko'nikma bor, ammo platforma jarayonlariga ulanmagan bo'lishi mumkin. Konseptual modelda to'rt guruh omil ajratiladi (1-rasm);



1-rasm. Konseptual modelning elementlari[71]

[70] Muallif ishlanmasi (manbalar: Thy, 2026; Susanty va boshq., 2025; Glogar va boshq., 2025).
[71] Muallif ishlanmasi (manbalar: Thy, 2026; Susanty va boshq., 2025; OECD, 2023; ILMA/Kursiv, 2026).

Modelning asosiy farazi: platforma va inson kapitali o‘rtasidagi o‘zaro moslik (ko‘nikmalarning platforma funksiyalariga mosligi) mavjud, natijaga ta’siri o‘lchamga qarab farqlanadi. Mikro korxonalar uchun bu raqamli marketing va asosiy raqamli savodxonlik, kichik va o‘rta korxonalar uchun: jarayonlarni integratsiyalash va ma’lumot tahlili ko‘nikmalari bo‘lishi mumkin.

OECD tavsiyalari va xalqaro natijalar asosida takomillashtirish mexanizmi to‘rt bosqichdan iborat bo‘lishi taklif etiladi (2-rasm).



2-rasm. Inson kapitalidan foydalanish samaradorligini oshirish mexanizmi[72]

Bu mexanizm OECD tavsiya etgan yagona “bir darcha” tizimi bilan bog‘lanishi mumkin. Mexanizm yengil sanoat uchun mo‘ljallangan farazdir: uning ta’sirini baholash uchun korxona darajasidagi so‘rov va regressiya yoki tarkibiy modellash zarur. Ilmiy yangilik: maqolada inson kapitalining mavjudligi emas, undan platforma sharoitida foydalanish samaradorligi alohida kategoriya sifatida ajratildi va uni firma o‘lchami hamda yengil sanoat kontekstida o‘lchash uchun konseptual asos taklif etildi.

XULOSA

Xalqaro natijalar firma o‘lchami muhimligini ko‘rsatadi: bir xil resurs mikro, kichik va o‘rta korxonalarda turlicha ta’sir qiladi. O‘zbekistonda platformalardan foydalanish tez kengaygan, ammo xodimlarni o‘qitish va raqamli ko‘nikmalar xalqaro darajadan orqada. Baholash, o‘qitish, integratsiya va monitoringdan iborat mexanizm taklif etildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. New York: Columbia University Press, 1964.

2. Schultz T.W. Investment in Human Capital // American Economic Review. 1961. Vol. 51, No. 1. P. 1–17.

3. Barney J. Firm Resources and Sustained Competitive Advantage // Journal of Management. 1991. Vol. 17, No. 1. P. 99–120.

4. Thy N.G. Digital marketing and moderating effect of digital skills on SMEs’ success in an emerging market (Vietnam) // International Journal of Innovation Studies. 2026. Vol. 10. Art. 100196. https://doi.org/10.1016/j.ijis.2026.100196

5. Susanty A., Puspitasari N.B., Siahaan G.S., Setiawan S., Syafrudin M. Factors influencing the intention of textile and garment SMEs to adopt digital technologies and its impact on performance // Scientific Reports. 2025. Vol. 15. Art. 20807. https://doi.org/10.1038/s41598-025-94625-7

6. Glogar M., Petrak S., Mahnić Naglić M. Digital Technologies in the Sustainable Design and Development of Textiles and Clothing: A Literature Review // Sustainability. 2025. Vol. 17, No. 4. Art. 1371. https://doi.org/10.3390/su17041371

7. OECD. Digital Skills for Private Sector Competitiveness in Uzbekistan. Paris: OECD Publishing, 2023. https://doi.org/10.1787/6c54f447-en

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy sayti (president.uz), 23.12.2025, to‘qimachilik sanoati ko‘rsatkichlari.

9. Istiqbolli loyihalar milliy agentligi (ILMA); Kursiv, 17.02.2026, elektron tijorat platformalari va onlayn savdo ko‘rsatkichlari.

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Zokirov Ulug‘bek Inom o‘g‘li, Qarshi davlat universiteti o‘qituvchisi / Зокиров Улугбек Ином угли, преподаватель Каршинского государственного университета / Zokirov Ulugbek Inom ugli, Lecturer at Karshi State University

E-mail: u-zokirov@mail.ru

[72] Muallif ishlanmasi (OECD, 2023 tavsiyalari asosida).

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.10.10.2026.22 *Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti*

КОНЦЕПЦИЯ УПП И ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ УЗБЕКИСТАНА

Ойдин Давроновна Хамракулова

BARQAROR ISTE'MOL VA ISHLAB CHIQARISH KONSEPSIYASI VA O'ZBEKISTONNING IQTISODIY O'SISHI

Oydin Davronovna Xamrakulova

THE CONCEPT OF SUSTAINABLE CONSUMPTION AND PRODUCTION AND ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN

Oydin Davronovna Khamrakulova

Аннотация: В работе рассмотрены проблемы использования концепции ускорения производства и потребления (УПП) в экономическом росте Узбекистана изменения климата, а также влияние УПП для развития экономики, показана сложность проблем УПП в экономике Узбекистане, а также предложены конкретные рекомендации.

Ключевые слова: концепция ускорения производства и потребления (УПП), экономический рост, особенности УПП, проблемы внедрения факторов УПП в ускоренный экономический рост Узбекистана.

Annotatsiya: Ushbu maqolada tezlashtirilgan ishlab chiqarish va iste'mol (APC) konsepsiyasini O'zbekistonning tatbiq etish bilan bog'liq masalalar, shuningdek, ushbu yondashuvning iqtisodiy o'sishi va iqlim o'zgarishi jarayonlariga iqtisodiy rivojlanishga ta'siri tahlil qilinadi. Unda O'zbekiston iqtisodiyotida APC bilan bog'liq murakkabliklar yoritilib, aniq tavsiyalar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: tezlashtirilgan ishlab chiqarish va iste'mol (APC) konsepsiyasi, iqtisodiy o'sish, APC xususiyatlari, APC omillarini O'zbekistonning tezlashtirilgan muammolar.iqtisodiy o'sish jarayonintga iegratsiya qilishdagi

Abstract: This paper amexines the problems of using the concept of production and consumption acceleration (PCA) in the economic growth of Uzbekistan due to climate change, as well as the impact of PCA on economic development. It demonstrates the complexity of PCA problems in the economy of Uzbekistan and offers specific recommendations.

Keywords: The concept of accelerated production and consumption (APC), economic growth, characteristics of APC, and the challenges of implementing APC factors in accelerated economic growth in Uzbekistan.

ВВЕДЕНИЕ

В экономическом развитии любой страны важной место занимает экономический рост. Для Узбекистана, находящегося в стадии активных экономических реформ, вопросы повышения экономического роста приобретают особую важность. Экономика страны переживает этап трансформации, направленный на диверсификацию, снижение зависимости от сырьевого сектора и развитие высокотехнологичных отраслей. Устойчивый экономический рост поможет Узбекистану улучшить уровень жизни населения, создать новые рабочие места и повысить конкурентоспособность на международной арене. Важность этих задач подчеркивает актуальность исследования путей и механизмов ускорения роста экономики Узбекистана.

В Стратегии Узбекистан -2030 отмечено, что "В целях обеспечения волеизъявления нашего народа о строительстве свободного и процветающего, сильного Нового Узбекистана, создания каждому гражданину всех возможностей для развития своего потенциала, воспитания здорового, образованного и духовно развитого поколения, формирования сильной экономики, ставшей важным звеном глобального производства, а также гарантированного обеспечения справедливости, верховенства закона, безопасности и стабильности" [1].

Целью данной работы является анализ проблем, с которыми сталкивается экономика Узбекистана в контексте повышения темпов экономического роста в свете концепции УПП(концепции устойчивого производства и потребления), а также выработка рекомендаций для их решения.

АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ

В работе была использована публикация Р.М. Нуритдиннова “Экономический рост и его факторы”[2], А.А.Быкова “Экономический рост и развитие”[3]. Также основой рассмотрения экономического роста в нынешних условиях являлась модель Солоу.[4] Теории экономического роста находят свое применение и в контексте Узбекистана. На сегодняшний день в стране наблюдается интенсивное внедрение новых технологий, реформирование структуры экономики, а также значительное увеличение объемов иностранных инвестиций. Теория Солоу и эндогенные модели роста, ориентированные на инновации, могут служить основой для оценки влияния технологических изменений и образовательных реформ на экономику страны. Особое внимание стоит уделить роли государственного сектора и предпринимательства в стимулировании роста.

В своей работе “Экономический рост в Узбекистане: проблемы и перспективы” Абдуллаев О.М. отмечает, что одним из главных препятствий для ускоренного экономического роста является недостаток инвестиций, как внутренних, так и иностранных. В последние годы предпринимаются шаги для улучшения инвестиционного климата, например, принятие Указов Президента о создании благоприятных условий для бизнеса и поддержке предпринимательства. Однако проблемы с правовой системой, несовершенство инфраструктуры, бюрократические барьеры и недостаточная прозрачность остаются значительными препятствиями для привлечения капитала [5].

Кроме этого необходимо отметить, что УПП - это глобальная концепция, нацеленная на рациональное использование ресурсов и минимизацию отходов. В Узбекистане она является ключевым элементом перехода к «зелёной» экономике и реализации стратегии «Узбекистан — 2030» [6].

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

В работе использованы следующие методы: метод научной абстракции, анализ и синтез, индукция и дедукция, статистические методы

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Переход к концепции УПП (Устойчивое потребление и производство) для Узбекистана обусловлен необходимостью преодоления экологических вызовов, истощения водных и энергетических ресурсов в условиях стремительного роста промышленного сектора и ВВП. Внедрение стандартов УПП позволяет модернизировать экономику в соответствии с международными "зелеными" трендами. В этой связи, необходимо критически оценить УПП для развития экономики Узбекистана. Так, можно остановиться на ряде аспектов в данном направлении:

Ресурсосбережение: Промышленность (особенно энергоемкие и водоемкие отрасли — переработка газа, производство стройматериалов) требует перехода к технологиям с низким углеродным следом для предотвращения дефицита воды и электроэнергии.

Повышение конкурентоспособности экспорта: Внедрение практик УПП и принципов циркулярной экономики позволяет местным предприятиям (в частности, текстильным и агропромышленным) соответствовать экологическим регламентам Европейского Союза.

Снижение издержек бизнеса: Предотвращение потерь сырья и электроэнергии дает ощутимый экономический эффект даже на малых и средних предприятиях без больших инвестиций (например, в Фергане устранение утечек на производстве принесло значительную экономию ресурсов).

Переход к концепции УПП (Устойчивое потребление и производство) для Узбекистана обусловлен необходимостью преодоления экологических вызовов, истощения водных и энергетических ресурсов в условиях стремительного роста промышленного сектора и ВВП. Внедрение стандартов УПП позволяет модернизировать экономику в соответствии с международными "зелеными" трендами. [6].

Важным моментом в данном вопросе является использование следующих нормативных документов:

Проекты SWITCH-Asia: При поддержке Европейского Союза в республике осуществляется план мероприятий по переходу к устойчивой “зеленой” экономике. Оценка программ показывает высокую востребованность внедрения энергосберегающих решений на сотнях предприятий в Ташкенте и других регионах.

Стратегия “Узбекистан–2030”: Поэтапный переход к ресурсосберегающим технологиям включен в государственную стратегию. Узбекистан интегрировал Цели устойчивого развития (ЦУР) ООН в свои национальные программы. В частности, ЦУР №12 посвящена именно обеспечению перехода к устойчивому потреблению и производству. Для этого правительство утвердило Национальную стратегию и план действий по переходу к зеленой экономике.

Использование концепции УПП (Устойчивое потребление и производство) является ключевым элементом перехода Узбекистана к «зеленой» экономике. Она помогает решать проблемы истощения ресурсов и загрязнения, а также способствует устойчивому росту ВВП за счет снижения издержек и внедрения принципов циркулярной экономики.

В стране зафиксировано образование 15,1 млн тонн бытовых отходов, при этом свыше 1,3 трлн сумов было направлено на оплату услуг санитарной очистки через единую биллинговую систему.

На территории существующих мусорных полигонов стартовал проект по созданию эко-промышленных зон для сортировки, сжигания и переработки. В 10 регионах на основе государственно-частного партнерства (ГЧП)

планируется задействовать под эти цели 170 гектаров земли.

Разработана стратегия управления строительным мусором — выделены участки на 50 полигонах для приема, обработки и вторичного использования.

Циркулярные преобразования внедряются на фоне интенсивного роста макроэкономических показателей. ВВП Узбекистана вырос на 7,7% и превысил $147 млрд, что создает финансовые предпосылки для инвестиций в «зеленые» технологии и современные перерабатывающие комплексы. [7]

Однако необходимо отметить, существуют проблемы, которые требуют использование УПП в росте экономики Узбекистана:

1. Проблема: высокая энерго - и водоемкость традиционных отраслей Узбекистан сталкивается с дефицитом водных ресурсов и чрезмерным потреблением энергии на единицу ВВП.

2. Проблема: Низкая добавленная стоимость в экспорте (например, в текстильной и пищевой отраслях. Традиционно страна экспортирует сырье, теряя доходы на этапе переработки.

3. Проблема: устаревшие технологии и нехватка «зеленых» инвестиций. Многие малые и средние предприятия (МСП) используют энергоемкие производственные циклы.

4. Проблема: дисбаланс на рынке труда**:** Несмотря на рост заработных плат, на рынке труда наблюдается острый дефицит высококвалифицированных инженеров, IT-специалистов и управленцев, в то время как доля низкоквалифицированной рабочей силы остается избыточной.

5. Проблема: двойная замкнутость**:** Узбекистан — одна из немногих стран мира, не имеющая прямого выхода к Мировому океану. Это увеличивает транспортные издержки на экспорт готовой продукции и импорт сырья.

6. Проблема: наличие внешних шоков(инфляция). Инфляция, поддерживаемая высокими мировыми ценами на сырье и логистическими сбоями, снижает покупательную способность населения и повышает себестоимость продукции, произведенной внутри страны.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ И РЕКОМЕНДАЦИИ

Экономический рост является основой устойчивого развития и повышения уровня жизни в любой стране, в том числе и в Узбекистане. В процессе экономических реформ страна сталкивается с рядом проблем, которые сдерживают её рост, таких как недостаток инвестиций, проблемы с инфраструктурой, отсутствие инноваций и высокая зависимость от сельского хозяйства. Однако, благодаря проведению комплексных реформ и внедрению новых стратегий, Узбекистан имеет возможность преодолеть эти барьеры и создать конкурентоспособную экономику, исходя из приоритетов концепции УПП [8,9].

- внедрение ресурсосберегающих технологий, капельного орошения в сельском хозяйстве и переход на возобновляемые источники энергии (ВИЭ) на промышленных предприятиях;

- проектирование экологичной упаковки, сокращение пищевых отходов у источника и переработка побочных продуктов. Это позволяет создавать новые рабочие места и экспортировать продукцию с высокой добавленной стоимостью;

- модернизация промышленных мощностей через привлечение финансирования. Применение практик УПП позволяет предприятиям снизить операционные расходы в долгосрочной перспективе за счет экономии воды и электричества.

Улучшить систему подготовки, а также качество образования**:** Система профессионального образования и высшие учебные заведения должны соответствовать запросам модернизирующейся индустрии.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Стратегия экономического развития Республики Узбекистан до 2030 года (https://lex.uz/ru/docs/6600404)

2. Р.М. Нуртдинов Экономический рост и его факторы (https://kpfu.ru/portal/docs/F1530052568/Ekonomicheskij.rost.pdf)

3. А.А.Быков. Экономический рост и развитие (https://vshph.com/upload/inf/978-985-06-3366-8.pdf)

4. Модель Солоу https://ru.wikipedia.org

5. Абдуллаев О.М. — "Экономический рост в Узбекистане: проблемы и перспективы" (https://documents1.worldbank.org)

6 . SWITCH-Asia . – www switch – asia. Eu

7. www.Norma uz

8. Респуб. науч-прак. конфер. СамИСИ, 24-25 окт. 2025 . «Инвестиции в зеленые технологии: проблемы и возможности устойчивого развития». Хамракулова О.Д. Проблемы инвестирования в становлении зеленой экономики Узбекистана»., 44-47 стр.

9. Меж. научно-прак. конфер. «Направления устойчивого развития сферы услуг на основе принципов зеленой и инновационной экономики».Часть 2, 20-21 фев. 2026 г., Хамракулова О.Д. Зеленая экономика и проблемы туристической сферы Узбекистана. СамИСИ, 2026, 125-129. Стр.

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Ойдин Давроновна Хамракулова– доц. кафедры «Экономическая теория» Самаркандский институт экономики и сервиса / Oydin Davronovna Xamrakulova Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasi dotsenti / Oydin Davronovna Khamrakulova Associate Professor, Department of Economic Theory, Samarkand Institute of Economics and Service

E-mail: oydin.khamrokulova@gmail.com

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.10.10.2026.23 *Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti*

MINTAQADA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘ILARI

Hakimova Muyassar Abdumalik qizi

ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОИЗВОДСТВА ПРОДОВОЛЬСТВЕННОЙ ПРОДУКЦИИ В РЕГИОНЕ

Хакимова Муяссар Абдумаликовна

WAYS TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF FOOD PRODUCTION IN THE REGION

Hakimova Muyassar Abdumalik qizi

Annatsiya. Mazkur maqolada mintaqalarda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni takomillashtirish, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini barqaror qondirish hamda mintaqaviy oziq-ovqat ta’minotining iqtisodiy samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Mintaqaviy oziq-ovqat ta’minoti samaradorligini baholashda ishlab chiqarish salohiyati, iqtisodiy maqbullik, talabni qondirish darajasi va ta’minot barqarorligini o‘zaro bog‘liq holda hisobga olishga asoslangan kompleks uslubiy yondashuv taklif etilgan..

Kalit so‘zlar: mintaqaviy iqtisodiyot, oziq-ovqat xavfsizligi, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, agrar-resurs salohiyati, aholi talabi, talab va taklif mutanosibligi, iqtisodiy samaradorlik, agrosanoat integratsiyasi, oziq-ovqat ta’minoti barqarorligi.

Аннотация. В статье исследованы теоретико-методические и практические аспекты совершенствования производства продовольственной продукции в регионах, устойчивого удовлетворения потребностей населения в продовольствии, а также повышения экономической эффективности регионального продовольственного обеспечения. Предложен комплексный методический подход к оценке эффективности регионального продовольственного обеспечения, основанный на взаимосвязанном учёте производственного потенциала, экономической доступности продовольствия, степени удовлетворения спроса населения и устойчивости продовольственного обеспечения.

Ключевые слова: региональная экономика, продовольственная безопасность, производство продовольственной продукции, аграрно-ресурсный потенциал, спрос населения, сбалансированность спроса и предложения, экономическая эффективность, агропромышленная интеграция, устойчивость продовольственного обеспечения.

Klyuchevыe slova: regionalnaya ekonomika, prodovolstvennaya bezopasnost, proizvodstvo prodovolstvennoy produksii, agrarno-resursnыy potensial, spros naseleniya, sbalansirovannost sprosa i predlojeniya, ekonomicheskaya effektivnost, agropromыshlennaya integratsiya, ustoychivost prodovolstvennogo obespecheniya.

Abstract. This article examines the theoretical, methodological, and practical aspects of improving food production in regions, sustainably meeting the population's food needs, and enhancing the economic efficiency of regional food supply systems. An integrated methodological approach to assessing the efficiency of regional food supply is proposed, based on the interrelated consideration of production potential, economic affordability of food, the degree to which population demand is met, and the stability of food supply.

Keywords: regional economy, food security, food production, agricultural resource potential, population demand, supply and demand balance, economic efficiency, agro-industrial integration, food supply stability.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida global iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslar taqchilligining kuchayishi, demografik o‘sish, oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabning ortishi hamda xalqaro ta’minot zanjirlaridagi tarkibiy o‘zgarishlar sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirish strategik ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, mintaqalarning tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan oqilona foydalanish, agrar va qayta ishlash tarmoqlari o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish, resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda aholining sifatli oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini barqaror qondirish iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan

biriga aylanmoqda. Mazkur jarayonlar oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni faqat miqdoriy o‘sish nuqtai nazaridan emas, balki iqtisodiy samaradorlik, resurslar unumdorligi, hududiy ixtisoslashuv va qo‘shilgan qiymat yaratish mezonlari asosida kompleks tadqiq etish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) tomonidan ilgari surilgan ilmiy-uslubiy yondashuvlarda oziq-ovqat xavfsizligi mahsulotlarning yetarli miqdorda mavjudligi, ulardan iqtisodiy va jismoniy foydalanish imkoniyati, to‘g‘ri ovqatlanish ehtiyojlarini qondirish hamda ta’minotning vaqt davomida barqarorligi bilan bog‘liq ko‘p qirrali iqtisodiy kategoriya sifatida qaraladi. Shu nuqtai nazardan, mintaqada oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish aholini mahsulot bilan ta’minlash darajasini yaxshilash bilan bir qatorda, ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish, texnologik yo‘qotishlarni kamaytirish, mahsulot sifati va raqobatbardoshligini oshirish hamda hududiy oziq-ovqat tizimining tashqi va ichki xavf-xatarlarga nisbatan barqarorligini mustahkamlashni ham nazarda tutadi. [13]

O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoatini modernizatsiya qilish, mahalliy ishlab chiqarish salohiyatini oshirish hamda ichki bozorni sifatli mahsulotlar bilan barqaror ta’minlash davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining muhim yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish, ularni sanoat asosida qayta ishlash, saqlash, logistika va iste’molchilarga yetkazib berish jarayonlarini o‘zaro muvofiqlashtirish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, mintaqalar o‘rtasida resurs ta’minoti, ishlab chiqarish quvvatlari, investitsion faollik va infratuzilma rivojlanishidagi tafovutlar oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning hududiy xususiyatlarga mos tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi”da aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, agrobiznes muhitini yaxshilash, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligini oshirish va resurs tejamkor texnologiyalarni keng joriy etish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Strategiyada 2030-yilga borib qishloq xo‘jaligida qo‘shilgan qiymatning yillik o‘sishini 5 foizga yetkazish va qishloq xo‘jaligi hamda oziq-ovqat mahsulotlari eksportini 20 mlrd AQSh dollariga yetkazish maqsad qilingan. Ushbu maqsadli parametrlar tarmoqni rivojlantirishda ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish bilan bir qatorda iqtisodiy natijadorlik va eksportbop mahsulotlar ulushini oshirish muhimligini ko‘rsatadi.[1]

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-fevraldagi PF-36-son Farmoni bilan “O‘zbekiston Respublikasida oziq-ovqat xavfsizligi va sog‘lom ovqatlanishni ta’minlashning 2030-yilgacha mo‘ljallangan strategiyasi” hamda 2024–2028-yillarda oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi tasdiqlangan. Mazkur strategiyada asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari mavjudligini ta’minlash, qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligini oshirish va aholining sog‘lom ovqatlanish imkoniyatlarini kengaytirishga alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan, sug‘oriladigan maydonlarda bug‘doy hosildorligini 2023-yildagi 67,0 sentner/gektardan 2030-yilda 100,0 sentner/gektarga, sabzavotlar hosildorligini esa 212,1 sentner/gektardan 295,0 sentner/gektarga yetkazish maqsadli indikator sifatida belgilangan. Bu esa mintaqalarda yer-suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish va intensiv ishlab chiqarish texnologiyalarini rivojlantirish zaruratini yanada kuchaytiradi.[2]

O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 3-fevraldagi O‘RQ-1023-son “Oziq-ovqat xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilinishi sohadagi davlat siyosatining huquqiy asoslarini yanada mustahkamlashga xizmat qildi. Mazkur huquqiy islohotlar sharoitida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni hududiy jihatdan samarali tashkil etish, mahsulotlar mavjudligi va ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda oziq-ovqat ta’minoti barqarorligini ta’minlashga qaratilgan ilmiy-uslubiy yondashuvlarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.[3]

Mamlakatda oziq-ovqat sanoatining rivojlanish dinamikasi ham tarmoqning iqtisodiy ahamiyati ortib borayotganligini ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda respublikada 152,1 trln. so‘mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, ishlab chiqarishning fizik hajmi 2024-yilga nisbatan 9,7 foizga o‘sgan. 2024-yilda esa oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 103,7 trln. so‘mni tashkil etgan. Mazkur ko‘rsatkichlar tarmoqda ishlab chiqarish salohiyati kengayib borayotganligini ifodalasa-da, samaradorlikni to‘liq baholash uchun mahsulot tannarxi, mehnat unumdorligi, asosiy kapital qaytimi, resurs sig‘imi va rentabellik ko‘rsatkichlarini ham kompleks tahlil qilish talab etiladi.

Mintaqaviy iqtisodiyot nuqtai nazaridan, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligi hududning tabiiy-iqtisodiy imkoniyatlari, ishlab chiqarish omillarining hududiy taqsimlanishi, tarmoq ixtisoslashuvi, infratuzilma bilan ta’minlanganlik darajasi va mahalliy iste’mol bozori sig‘imi bilan uzviy bog‘liqdir. Shu sababli oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirishda mintaqalarning qiyosiy ustunliklarini aniqlash, resurslardan foydalanish samaradorligini baholash, ishlab chiqarish quvvatlarini optimal joylashtirish hamda mahsulot yetishtirish, qayta ishlash, saqlash va sotish jarayonlarini yagona qiymat zanjiri asosida muvofiqlashtirish ilmiy va amaliy jihatdan muhim hisoblanadi.

Mazkur jarayonda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning iqtisodiy mexanizmi mahsulot hajmining o‘sishi bilan cheklanmasdan, bir birlik mahsulot ishlab chiqarishga sarflanadigan resurslarni kamaytirish, ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish, mahsulot sifati va raqobatbardoshligini oshirish, shuningdek, mahalliy xomashyoni chuqur qayta

ishlash orqali qo‘shilgan qiymat yaratishni kengaytirishga yo‘naltirilishi lozim. Bunda innovatsion texnologiyalardan foydalanish, raqamli boshqaruv vositalarini joriy etish, ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida kooperatsiya aloqalarini mustahkamlash va logistika infratuzilmasini takomillashtirish samaradorlikni oshirishning muhim omillari sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu bilan birga, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini mintaqaviy darajada baholashda ishlab chiqarish hajmi va iqtisodiy natijalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash, mahsulot tannarxi va rentabelligiga ta’sir etuvchi omillarni tizimlashtirish, resurslardan foydalanish unumdorligini qiyosiy baholash hamda ishlab chiqarish samaradorligining hududiy tafovutlarini aniqlash dolzarb ilmiy vazifalardan hisoblanadi. Ayniqsa, ishlab chiqarish samaradorligi va aholining oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlanganlik darajasini o‘zaro bog‘liq holda tadqiq etish mintaqaviy iqtisodiy siyosatning maqsadli yo‘nalishlarini belgilash imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR ShARHI

Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish salohiyati masalalariga xorijiy olimlardan M.Desai, P.Gompers va J.Lernerlar salohiyatni aniqlash uchun quyidagi ko‘rsatkichlarni tavsiya etganlar: korxonalarning bozorga kirish va undan chiqish koeffitsiyentlari, korxonaning o‘rtacha hajmi, korxonalarning o‘rtacha baholangan yoshi va korxonalarning hajmi bo‘yicha o‘lchangan.[5] J.Robinson va G.B.Fairchildlarning ishlarida esa yangi raqobatchilarni bozorga kirib kelishiga xalaqit beruvchi institutsional va ijtimoiy to‘siqlari mavjud deb ta’riflashgan bo‘lsa,[6] R.P.Kolsa va J.N.Yulalar AQSh oziq-ovqat bozoridagi iste’mol darajalari va uning hajmi masalalariga ilmiy, amaliy hamda nazariy yondashganlar.[7] A.A.Kudryashova va O.P.Presnyakovalar fikricha, oziq-ovqat mustaqilligiga erishgan mamlakatlar o‘z aholisini joriy iste’moli hamda favquloddagi holat va maqsadlar uchun zaxiralarni milliy ishlab chiqarish tarmoqlari hisobidan to‘liq ta’minlay oladilar. Ushbu mamlakatlar – Kanada, Yangi Zelandiya, AQSh, Fransiya, Germaniya, Italiya va Ispaniyada oziq-ovqat mahsulotlarining 80-90 foizi ishlab chiqariladi.[8] Shuningdek, ko‘plab tadqiqotchilar davlatning oziqovqat mustaqilligi aholi iste’molining umumiy hajmida milliy ishlab chiqarishning hissasi 80 foizdan kam bo‘lmagan taqdirdagina ta’minlanadi, deb hisoblaydilar. [9]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda mintaqada oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy asoslarini o‘rganish, unga ta’sir etuvchi iqtisodiy omillarni aniqlash hamda rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlarini asoslashda tizimli yondashuv, iqtisodiy-statistik, qiyosiy va omilli tahlil, dinamik qatorlar, ilmiy abstraksiya va umumlashtirish usullaridan foydalanish nazarda tutilgan. Tadqiqot doirasida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, o‘sish sur’atlari, resurslardan foydalanish samaradorligi, investitsion faollik va tarmoqning iqtisodiy natijadorligi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklar tahlil qilindi. Tadqiqotning axborot bazasini 2022–2025-yillardagi rasmiy statistik ma’lumotlar, sohaviy strategik hujjatlar va xalqaro tashkilotlarning ilmiy-tahliliy materiallari tashkil etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston oziq-ovqat sanoatining 2017–2024-yillardagi asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari tahlili tarmoqda ishlab chiqarish salohiyatining kengayishi, investitsion faollikning kuchayishi va eksport imkoniyatlarining ortishi bilan bir qatorda, iqtisodiy o‘sishning tarkibiy mutanosibligi va resurslardan foydalanish samaradorligi bilan bog‘liq muayyan muammolar mavjudligini ko‘rsatadi (1-Jadval).

1-jadval

O‘zbekiston oziq-ovqat sanoatining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

№	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	2017 yil	2024 yil	O‘zgarish
1	Oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarish hajmi	trln. so‘m	23,2	102,7	4,43 barobar
2	Oziq-ovqat sanoatida band aholi soni	ming kishi	71,0	76,2	+7,2%*
3	Oziq-ovqat sanoati korxonalari soni	ming ta	11,5	12,3	+0,8 mingta
4	Oziq-ovqat sanoatiga kiritilgan investitsiyalar	mln. AQSh dollari	231,0	674,0	2,92 barobar
5	Oziq-ovqat mahsulotlari eksporti	mln. AQSh dollari	245,0	927,0	3,78 barobar
6	Oziq-ovqat sanoatining YaIMdagi ulushi	foiz	3,3	2,2	−1,1 foiz punkt

Jadval ma’lumotlaridaan ko‘rinib turubdiki, oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarish hajmi 23,2 trln. so‘mdan 102,7 trln. so‘mga yetgan bo‘lib, 79,5 trln. so‘mga yoki 4,43 barobarga oshgan. Mazkur o‘sish tarmoqning iqtisodiy salohiyati kengayganligini va ishlab chiqarish faoliyati faollashganligini ifodalaydi.

Oziq-ovqat sanoatida band aholi soni 2017-yildagi 71,0 ming kishidan 2024-yilda 76,2 ming kishiga yetgan yoki 7,3 foizga ko‘paygan. Shu bilan birga, ishlab chiqarish hajmining bandlik darajasiga nisbatan yuqori sur’atlarda o‘sishi bir nafar band xodim hisobiga to‘g‘ri keladigan nominal mahsulot hajmining sezilarli darajada oshganligini ko‘rsatadi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, mazkur ko‘rsatkich 2017-yilda 326,8 mln. so‘mni, 2024-yilda esa 1347,8 mln. so‘mni tashkil etib, 4,12 barobarga ko‘paygan. Bu holat tarmoqda nominal mehnat

unumdorligi o‘sganligini ifodalasa-da, real mehnat unumdorligi dinamikasini aniqlash uchun ishlab chiqarish hajmini taqqoslama narxlarda baholash talab etiladi.

Tarmoqda faoliyat yuritayotgan korxonalar soni 11,5 mingtadan 12,3 mingtaga yetgan bo‘lib, 800 taga yoki 7,0 foizga ko‘paygan. Ishlab chiqarish hajmining korxonalar soniga nisbatan jadal o‘sishi natijasida bir korxona hisobiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha nominal ishlab chiqarish hajmi 2,02 mlrd. so‘mdan 8,35 mlrd. so‘mga yetgan. Mazkur tendensiya tarmoqda ishlab chiqarish faoliyatining iqtisodiy ko‘lami kengayganligini ko‘rsatadi. Biroq korxonalarning ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi va rentabelligini baholamasdan turib, ushbu o‘zgarishni iqtisodiy samaradorlikning to‘liq oshishi sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq emas.

Oziq-ovqat sanoatiga kiritilgan investitsiyalar hajmi 231,0 mln. AQSh dollaridan 674,0 mln. AQSh dollariga yetgan bo‘lib, 2,92 barobarga yoki 191,8 foizga oshgan. Investitsion faollikning mazkur dinamikasi tarmoqning ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish, texnologik modernizatsiyalash va qayta ishlash quvvatlarini kengaytirish uchun moliyaviy imkoniyatlar ortganligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, investitsiyalar samaradorligini baholashda ularning ishlab chiqarish hajmi, qo‘shilgan qiymat, mehnat unumdorligi va mahsulot tannarxiga ta’sirini kompleks o‘rganish zarur.

Oziq-ovqat mahsulotlari eksporti 245,0 mln. AQSh dollaridan 927,0 mln. AQSh dollariga yetgan yoki 3,78 barobarga ko‘paygan. Eksport hajmining jadal o‘sishi tarmoqning tashqi bozorlardagi ishtirokini kengaytirish va eksport salohiyatini oshirish imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatadi. Bunda yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ulushini ko‘paytirish, xalqaro sifat standartlarini joriy etish va eksport geografiyasini diversifikatsiyalash oziq-ovqat sanoatining raqobatbardoshligini mustahkamlashning muhim yo‘nalishlari hisoblanadi.

Shu bilan birga, oziq-ovqat sanoatining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 3,3 foizdan 2,2 foizga pasayib, 1,1 foiz punktga qisqargan. Mazkur holat tarmoqda ishlab chiqarish hajmi o‘sganiga qaramasdan, uning milliy iqtisodiyot tarkibidagi nisbiy salmog‘i kamayganligini ifodalaydi. Bu boshqa iqtisodiy tarmoqlarning nisbatan yuqori sur’atlarda rivojlanishi, iqtisodiyot tarkibidagi o‘zgarishlar hamda hisoblash uslubiyati bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shu sababli oziq-ovqat sanoatining iqtisodiy o‘sishga qo‘shayotgan hissasini baholashda tarmoq yalpi qo‘shilgan qiymatining dinamikasini ham tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, 2017–2024-yillarda O‘zbekiston oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarish, investitsiya va eksport hajmlarining jadal o‘sishi kuzatilgan bo‘lsa-da, tarmoqning YaIMdagi ulushi qisqarganligi iqtisodiy o‘sishning sifat ko‘rsatkichlariga alohida e’tibor qaratish zaruratini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, mintaqalarda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda resurslardan foydalanish unumdorligini yuksaltirish, mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, investitsiyalarni texnologik modernizatsiyaga yo‘naltirish hamda ishlab chiqarish va logistika jarayonlarini o‘zaro integratsiyalash ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Mazkur yo‘nalishlarni amalga oshirish oziq-ovqat sanoatining iqtisodiy natijadorligini oshirish, mintaqaviy ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish va aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini barqaror qondirish uchun iqtisodiy shart-sharoitlar yaratadi.

2-jadval

O‘zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishi

№	Mahsulot turlari	O‘lchov birligi	2017 yil	2024 yil	O‘zgarish, %
1	Bug‘doy uni	ming tonna	2597,7	3302,4	+27,1
2	Shakar	ming tonna	473,3	474,4	+0,2
3	Sut va sut mahsulotlari	ming tonna	579,9	673,2	+16,1
4	Kolbasa mahsulotlari	ming tonna	29,2	44,6	+52,7
5	Makaron mahsulotlari	ming tonna	120,4	78,2	−35,0
6	Margarin	ming tonna	36,1	47,5	+31,6

Yuqoridagi jadval ko‘rsatkichlari tahlili natijalaridan ko‘rinib turubdiki, O‘zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish mahsulot turlari bo‘yicha o‘sish sur’atlarining notekis shakllanganligini ko‘rsatadi. Xususan, bug‘doy uni ishlab chiqarish hajmi 27,1 foizga oshib, 3302,4 ming tonnaga, sut va sut mahsulotlari 16,1 foizga o‘sib, 673,2 ming tonnaga yetgan. Eng yuqori o‘sish kolbasa mahsulotlari (52,7 foiz) va margarin (31,6 foiz) ishlab chiqarishda kuzatilgan. Shu bilan birga, shakar ishlab chiqarish hajmi atigi 0,2 foizga o‘sgan bo‘lsa, makaron mahsulotlari ishlab chiqarish 35,0 foizga qisqargan (2-jadval).

Mazkur tendensiyalar oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarish tarkibining notekis rivojlanayotganligini ko‘rsatib, mahsulot turlari bo‘yicha ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, xomashyo ta’minotini barqarorlashtirish va tarmoqni diversifikatsiya qilish zaruratini asoslaydi. Shu nuqtai nazardan, mintaqalarning resurs salohiyati va iste’mol bozori talablarini hisobga olgan holda ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish, texnologik modernizatsiyalash hamda qo‘shilgan qiymat yaratish imkoniyatlarini kengaytirish oziq-ovqat sanoati samaradorligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari hisoblanadi.



1-rasm.O‘zbekiston oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarish hajmining o‘zgarish dinamikasi

O‘zbekiston oziq-ovqat sanoatida 2017–2024-yillarda ishlab chiqarish hajmining o‘zgarish dinamikasi tahlili tarmoqda barqaror o‘sish tendensiyasi shakllanganligini ko‘rsatadi. Xususan, ishlab chiqarish hajmi 2017-yildagi 23,2 trln so‘mdan 2024-yilda 102,7 trln so‘mga yetib, 79,5 trln so‘mga yoki 4,43 barobarga oshgan. Mazkur davrda ishlab chiqarish hajmi 2019-yilda 35,3 trln so‘mni, 2021-yilda 48,6 trln so‘mni va 2023-yilda 65,7 trln so‘mni tashkil etgan. Ayniqsa, 2024-yilda 2023-yilga nisbatan nominal ishlab chiqarish hajmining 56,3 foizga o‘sishi tarmoqda qiymat ifodasidagi ishlab chiqarish ko‘lami sezilarli kengayganligini ko‘rsatadi (1-rasm).

Oziq-ovqat sanoatida kuzatilayotgan miqdoriy o‘sishni iqtisodiy samaradorlikka asoslangan sifat jihatidan rivojlanishga transformatsiyalash mintaqaviy ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish va oziq-ovqat ta’minoti barqarorligini ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mintaqada oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy asoslari va iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini tadqiq etish natijalari shuni ko‘rsatadiki, tarmoqning barqaror rivojlanishi mavjud resurs salohiyatidan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlarini texnologik modernizatsiya qilish, mahsulot tannarxini optimallashtirish hamda ishlab chiqarish va iste’mol o‘rtasidagi iqtisodiy mutanosiblikni ta’minlash bilan bevosita bog‘liqdir. O‘zbekiston oziq-ovqat sanoatida 2017–2024-yillarda ishlab chiqarish hajmining 23,2 trln. so‘mdan 102,7 trln. so‘mgacha o‘sishi tarmoqning iqtisodiy salohiyati kengayganligini ko‘rsatadi.

Bizning fikrimizcha, mintaqada oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo‘yicha quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Birinchidan, mintaqaning tabiiy-iqtisodiy sharoiti, xomashyo bazasi, mehnat resurslari va ishlab chiqarish infratuzilmasini hisobga olgan holda, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni hududiy ixtisoslashuv asosida rivojlantirish maqsadga muvofiq. Bunda ishlab chiqarish quvvatlarini resurs salohiyati va iste’mol bozori talablariga muvofiq joylashtirish orqali transport-logistika xarajatlarini qisqartirish hamda mahsulot ishlab chiqarishning iqtisodiy natijadorligini oshirish imkoniyatlari kengayadi.

Ikkinchidan, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini baholashda mahsulot hajmi, mehnat unumdorligi, resurs sig‘imi, mahsulot tannarxi, rentabellik va qo‘shilgan qiymat ko‘rsatkichlarini qamrab oluvchi kompleks baholash tizimini joriy etish taklif etiladi. Mazkur yondashuv ishlab chiqarish samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash, mavjud iqtisodiy zaxiralarni baholash va tarmoqni rivojlantirish bo‘yicha maqsadli boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi.

Uchinchidan, oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish, qayta ishlash, saqlash, logistika va sotish jarayonlarini yagona qiymat zanjiri asosida integratsiyalash, ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirish hamda mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash darajasini oshirish zarur. Bu mahsulot yo‘qotishlarini kamaytirish, ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish va yakuniy mahsulot tarkibidagi qo‘shilgan qiymat ulushini ko‘paytirishga xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, mintaqaviy oziq-ovqat sanoati korxonalarida resurs tejamkor va innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish, energiya va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish hamda texnologik modernizatsiyaga yo‘naltirilgan investitsiyalarni rag‘batlantirish lozim. Ushbu chora-tadbirlar mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan xarajatlarni kamaytirish, mehnat unumdorligini oshirish va ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini mustahkamlash imkonini yaratadi.

Beshinchidan, mintaqada oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talab va taklif mutanosibligini ta’minlash maqsadida ishlab chiqarish hajmi, iste’mol ehtiyoji, narxlar dinamikasi va mahsulot zaxiralarini o‘zaro bog‘liq holda monitoring qilish tizimini takomillashtirish taklif etiladi. Bunda hududiy oziq-

ovqat balanslarini shakllantirish, mavsumiy taqchillik xavfini baholash va ishlab chiqarishni istiqbolli rejalashtirish orqali aholining asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlanishiga erishish mumkin.

Oltinchidan, mintaqada oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan investitsiya loyihalarini tanlashda ularning iqtisodiy qaytimi, resurs tejamkorligi, yangi ish o'rinlari yaratish imkoniyati va mahalliy xomashyodan foydalanish darajasini ustuvor mezonlar sifatida belgilash maqsadga muvofiq. Bu investitsiya resurslarini yuqori iqtisodiy samara beradigan ishlab chiqarish yo'nalishlariga yo'naltirish va mintaqaning oziq-ovqat sanoati salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, mintaqada oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish resurs salohiyatidan foydalanishni optimallashtirish, hududiy ixtisoslashuvni chuqurlashtirish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va ishlab chiqarishning qiymat zanjiri bo'yicha integratsiyasini kuchaytirishga asoslangan kompleks tashkiliy-iqtisodiy yondashuvni talab etadi. Taklif etilgan yo'nalishlarni izchil amalga oshirish mahsulot ishlab chiqarishning iqtisodiy natijadorligini oshirish, hududiy ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish, oziq-ovqat ta'minoti barqarorligini mustahkamlash hamda mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash uchun muhim shart-sharoitlar yaratadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son Farmoni. "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida".

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-fevraldagi PF-36-son Farmoni. "Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida".

3.O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 3-fevraldagi O'RQ-1023-son "Oziq-ovqat xavfsizligi to'g'risida"gi Qonuni.

4. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, 2024–2025-yillar.

5. Desai, M., Gompers, P., and Lerner, J. (2003) Institutions, Capital Constraints, and Entrepreneurial Firm Dynamics: Evidence from Europe, Harvard HOM Research Paper, 59.

6. Robinson, J., Fairchild, G.B. (2002) *Social and Institutional Barriers to Market* Entry

7. Kolsa R.P., Yula J.N. "Food marketing", USA, 2007. – p. 44.

8. Кудряшова А.А., Пресняковалар О.П. Продовольственной безопасность: показатели, критерии, категории и масштабы. // Ж. Пищевая промышленность. – М.: 2007. № 8. С. 18-21.

9. Каламбет А. О продовольственной безопасности России. - http://www.armiavn.ru.

10. Nosirov B.Z. Mintaqaviy oziq-ovqat bozorini shakllantirish va rivojlantirishning xususiyatlari (Andijon viloyati misolida): iqt. fan. nom. diss... avtoref. – T.: MUFMU, 2004. – 26 b.

11. Boboyev I.H. Mahalliylashtirish asosida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish strategiyasini shakllantirish (O'zbekiston Respublikasi oziqovqat sanoati tarmoqlari misolida): Iqt. fan. nom dis... avtoref. – T.: FzRFAII, 2008, – 22 b.

12. Abdullayev A.G. Oziq-ovqat sanoati rivojlanishi va joylanishining iqtisodiy-geografik xususiyatlari (Xorazm viloyati misolida): Geo. fan. fal. dok. avtoref. – T.: FzMU, 2017, – 44 b.

13. https://www.fao.org/agrifood-economics/publications/detail/en/c/1707842/

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Hakimova Muyassar Abdumalik qizi Qarshi Davlat texnika universiteti Tabiiy fanlar kafedrasi / Хакимова Муяссар Абдумаликовна Кафедра естественных наук, Каршинский государственный технический университет / Khakimova Muyassar Abdumalik kizi Department of Natural Sciences, Karshi State Technical University

E-mail: hmuyassar2@gmail.com

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.10.10.2026.24

MINTAQADA OZIQ-OVQAT TA'MINOTINING IQTISODIY BARQARORLIGINI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Hakimova Muyassar Abdumalikovna

ЭКОНОМИЧЕСКАЯ УСТОЙЧИВОСТЬ ПРОДОВОЛЬСТВЕННОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ РЕГИОНА И ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА НЕЁ

Хакимова Муяссар Абдумаликовна

ECONOMIC SUSTAINABILITY OF REGIONAL FOOD SUPPLY AND FACTORS INFLUENCING IT

Hakimova Muyassar Abdumalikovna

Annotatsiya. Mazkur maqolada mintaqada oziq-ovqat ta'minotining iqtisodiy barqarorligini ta'minlashning nazariy-uslubiy asoslari, unga ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy, resurs, institutsional va bozor omillari hamda ularning o'zaro bog'liqligi tadqiq etilgan. Mintaqaviy oziq-ovqat ta'minoti barqarorligini baholashda mahalliy ishlab chiqarish salohiyati, aholining iste'mol talabi, mahsulotlar narxi, daromadlar darajasi, investitsion faollik va logistika infratuzilmasining iqtisodiy ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: oziq ovqat mahsulotlari, iste'mol tovarlari, oziq-ovqat mahsulotlari importi, oziq-ovqat mahsulotlari eksporti, iste'mol tovarlari bozori, raqobat, oziq-ovqat xavfsizligi, kon'yunktura, oziq-ovqat, nooziqovqat, aholi daromadlari, iste'mol xarajatlar, chakana savdo, ulgurji savdo, xalq iste'mol tovarlari, oziq-ovqat xarajatlari, oziq-ovqat narxlari, ishlab chiqarish.

Аннотация. В данной статье исследованы теоретико-методологические основы обеспечения экономической устойчивости продовольственного снабжения региона, а также взаимосвязь социально-экономических, ресурсных, институциональных и рыночных факторов, влияющих на его устойчивость. Обоснована экономическая значимость местного производственного потенциала, потребительского спроса населения, цен на продовольственные товары, уровня доходов, инвестиционной активности и логистической инфраструктуры при оценке устойчивости регионального продовольственного снабжения.

Ключевые слова: продовольственные товары, потребительские товары, импорт продовольственных товаров, экспорт продовольственных товаров, рынок потребительских товаров, конкуренция, продовольственная безопасность, рыночная конъюнктура, продовольственные и непродовольственные товары, доходы населения, потребительские расходы, розничная торговля, оптовая торговля, товары народного потребления, расходы на продовольствие, цены на продовольственные товары, производство.

Abstract. This article examines the theoretical and methodological foundations for ensuring the economic stability of regional food supply, as well as the interrelationships among socioeconomic, resource-related, institutional, and market factors affecting its stability. The study substantiates the economic significance of local production capacity, consumer demand, food prices, household income levels, investment activity, and logistics infrastructure in assessing the stability of regional food supply.

Keywords: food products, consumer goods, food imports, food exports, consumer goods market, competition, food security, market conditions, food and non-food products, household income, consumer expenditure, retail trade, wholesale trade, consumer commodities, food expenditure, food prices, production.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining erkinlashuvi va islohotlarning chuqurlashuvi hamda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatiga o'tish fan va amaliyot oldiga aholini kundalik iste'mol tovarlari bilan ta'minlash sohasida yangi vazifalarni qo'yadi. Bunda bozorni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, qishloq xo'jaligida turli xil mulkchilik shaklidagi ishlab chiqarish sub'ektlarini shakllantirish va rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asosini tubdan o'zgartirish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biridir. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti hamda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi vaqtda dunyoda 840 mln.dan ortiq kishi, ya'ni deyarli har sakkiz odamning biri to'yib ovqatlanmayapti, sayyoramiz aholisining 30

foizdan ziyodi to‘laqonli ravishda ovqatlanmaslik, eng asosiy mikroelement va vitaminlar yetishmasligi muammosini boshdan kechirmoqda. Ana shunday sabablar tufayli 160 mln.dan ortiq bola bo‘yining o‘sishi, jismoniy va intellektual rivojlanishga doir kamchiliklardan aziyat chekmoqda.

Respublikamiz mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab xalqimiz farovonligini oshirish, mamlakat iqtisodiyotini yuqori darajaga ko‘tarish va mustahkamlash borasida davlat tomonidan joriy etib kelinayotgan islohotlar o‘zining ijobiy natijalarini bermoqda. Ayniqsa, butunjahon global muammolaridan biri aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirish va bunda, yer, so‘v hamda boshqa moddiy boyliklardan unumli foydalanish maqsadida uzoqni ko‘zlab ishlab chiqilgan davlat dasturlarining amalga oshirilishi mamlakatimiz har bir fuqarosi xonadonining to‘kin-sochin bo‘lishini ta’minlamoqda.

O‘zbekiston o‘zining betakror tabiati, serhosil tuprog‘i, o‘ziga xos iqlim sharoiti sabab yilning to‘rt faslida ham qishloq xo‘jaligi sohasida ulkan natijalarga erishib kelmoqda. Bu kabi imkoniyatlar sabab O‘zbekiston o‘z aholisini oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabining katta qismini o‘z ichki resurslari orqali ta’minlab, katta hajmdagi mahsulotni eksport qilish imkoniyatiga ega davlatlar qatoridan joy egallagan.

Prezidentning 2024-yil 16-fevraldagi “Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-36-son Farmonida keyingi besh yilda yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 1,5 baravarga va eksport ko‘rsatkichlarini – 2 baravarga oshirish maqsadi qo‘yildi. Ushbu maqsadga erishish uchun “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish” loyihasi doirasida jalb qilingan mablag‘lar hisobidan 80 mln. AQSh dollari va “Chorvachilik sohasini rivojlantirish (2-bosqich)” hamda “Chorvachilik sohasini barqaror rivojlantirishni moliyalashtirish” loyihalari doirasida 40 mln. AQSh dollari miqdoridagi mablag‘lari Jahon banki va Fransiya taraqqiyot agentligi tomonidan jalb etildi.

Mazkur xalqaro moliya institutlaridan jalb qilingan mablag‘lar hisobidan 45 mln. AQSh dollarini belgilangan tartibda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi hamda eksport qiluvchi korxonalarni aylanma mablag‘lar bilan ta’minlashga yo‘naltirildi.

Xalqaro moliya institutlari mablag‘lari hisobidan 220 mln. AQSh dollari miqdoridagi mablag‘lar 2024-yil 1-martga qadar tijorat banklariga yo‘naltirildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari eksportini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida Eksportni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi resurslari hisobidan eksport qiluvchi korxonalarga eksportoldi va eksport bilan bog‘liq savdo operatsiyalarini moliyalashtirish uchun ikki yilgacha muddatga moliyaviy resurslar ajratish belgilandi. Bunda korxonalarning so‘nggi 12 oy davomidagi eksport hajmidan kelib chiqib, eksport tushumi 100 ming AQSh dollaridan 1,0 mln. AQSh dollarigacha bo‘lgan korxonalarga 100 ming AQSh dollarigacha, 1,0 mln. AQSh dollaridan 2,0 mln. AQSh dollarigacha bo‘lgan korxonalarga 1,0 mln. AQSh dollarigacha, 2,0 mln AQSh dollaridan 4,0 mln AQSh dollarigacha bo‘lgan korxonalarga 2,0 mln. AQSh dollarigacha hamda 4,0 mln AQSh dollaridan ortiq eksport hajmiga ega korxonalarga 3,0 mln AQSh dollarigacha moliyaviy resurslar ajratilishi nazarda tutildi. Mazkur moliyalashtirish mexanizmi oziq-ovqat mahsulotlari eksportchilarining aylanma mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, tashqi savdo operatsiyalarining uzluksizligini ta’minlash va korxonalarning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan.[2]

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqada oziq-ovqat ta’minotining iqtisodiy barqarorligini ta’minlash masalalari, oziq-ovqat mahsulotlarining yetarli hajmda ishlab chiqarilishi, aholining iqtisodiy jihatdan ulardan foydalanish imkoniyati, bozor narxlarining barqarorligi hamda ta’minot tizimining ichki va tashqi xavf-xatarlarga moslashuvchanligini o‘zaro bog‘liq jarayon sifatida talqin etadi.

Nobel mukofoti sovrindori Amartiya Sen o‘zining “Poverty and Famines: An Essay on Entitlement and Deprivation” (1981) asarida oziq-ovqat ta’minoti muammosini faqat mahsulot yetishmasligi bilan izohlash yetarli emasligini asoslagan. Olimning fikricha, aholining oziq-ovqat mahsulotlaridan foydalanish imkoniyati daromadlar, bandlik, bozor munosabatlari va iqtisodiy huquqlar tizimiga bevosita bog‘liq. Ushbu yondashuv mintaqaviy oziq-ovqat ta’minoti barqarorligini baholashda aholi xarid qobiliyati va iste’mol xarajatlarini muhim mezon sifatida qarash imkonini beradi. [3]

Kristofer Barrett oziq-ovqat xavfsizligini tadqiq etishda mahsulotlarning mavjudligi, ulardan iqtisodiy foydalanish imkoniyati va iste’mol barqarorligini o‘zaro bog‘liq omillar sifatida o‘rgangan. Uning ilmiy yondashuvi oziq-ovqat ta’minotidagi muammolarni ishlab chiqarish hajmi bilan cheklamasdan, bozor infratuzilmasi, daromadlar taqsimoti va iqtisodiy xavf-xatarlar ta’sirida tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi. [4]

FAO tomonidan ishlab chiqilgan oziq-ovqat xavfsizligining konseptual yondashuvida oziq-ovqatning mavjudligi, undan foydalanish imkoniyati, iste’mol qilinishi va ushbu shartlarning vaqt davomida barqarorligi asosiy o‘lchamlar sifatida belgilangan. Mazkur yondashuv mintaqalarda mahalliy ishlab chiqarish, importga bog‘liqlik, narxlar o‘zgarishi va aholi daromadlarining oziq-ovqat ta’minotiga ta’sirini kompleks baholash uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. [5]

Shuningdek, Jahon banki tadqiqotlarida oziq-ovqat narxlari o‘zgarishi, savdo cheklovlari, logistika xarajatlari va aholi real daromadlarining oziq-ovqat mahsulotlariga iqtisodiy yetishuvchanlikka ta’siriga alohida e’tibor qaratiladi. Bu esa mintaqaviy oziq-ovqat ta’minotining iqtisodiy barqarorligini ishlab chiqarish, taqsimot, savdo va iste’mol jarayonlari o‘rtasidagi mutanosiblik asosida baholash zarurligini ko‘rsatadi.[6]

Oziq-ovqat xavfsizligining turli jihatlari keng tadqiq etilgan bo‘lsa-da, mintaqaviy oziq-ovqat ta’minotining iqtisodiy barqarorligini ishlab chiqarish salohiyati, import va eksport, aholi daromadlari, iste’mol xarajatlari hamda narxlar kon’yunkturasining o‘zaro

ta’siri asosida kompleks baholash muhim tadqiqot yo‘nalishi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqotda oziq-ovqat ta’minotining iqtisodiy barqarorligiga ta’sir etuvchi omillarni tizimlashtirish va ularning mintaqaviy xususiyatlarini aniqlashga ustuvor ahamiyat beriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda mintaqada oziq-ovqat ta’minotining iqtisodiy barqarorligini baholash va unga ta’sir etuvchi asosiy omillarni aniqlashda tizimli yondashuv, iqtisodiy-statistik, qiyosiy va omilli tahlil, dinamik qatorlar hamda ilmiy umumlashtirish usullaridan foydalanish nazarda tutilgan. Tadqiqot jarayonida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, import va eksport hajmlari, aholi daromadlari, iste’mol xarajatlari, narxlar dinamikasi, bozor kon’yunkturasi hamda savdo infratuzilmasining mintaqaviy oziq-ovqat ta’minoti barqarorligiga ta’siri o‘rganiladi. Iqtisodiy barqarorlikni baholashda oziq-ovqat mahsulotlarining bozordagi mavjudligi, iqtisodiy jihatdan hamyonbopligi, ichki talabning qondirilish darajasi va ta’minotning tashqi xavf-xatarlarga ta’sirchanligi asosiy mezonlar sifatida qaraladi. Tahlil natijalari asosida mintaqaviy oziq-ovqat ta’minotining iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash va unga ta’sir etuvchi omillarni samarali boshqarishning ustuvor tashkiliy-iqtisodiy yo‘nalishlarini ilmiy asoslash ko‘zda tutildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mintaqaviy oziq-ovqat ta’minotining iqtisodiy barqarorligini shakllantiruvchi omillar tizimli yondashuv asosida yettita yo‘nalishga ajratilgan: ishlab chiqarish, iqtisodiy, bozor, institutsional, infratuzilma, tashqi muhit va ijtimoiy omillar. Mazkur omillar o‘zaro bog‘liq holda oziq-ovqat mahsulotlari taklifining yetarliligi, aholining iqtisodiy jihatdan ulardan foydalanish imkoniyati va iste’mol talabining qondirilishiga ta’sir ko‘rsatadi (1-rasm).



1-rasm. Mintaqada oziq ovqat ta’minotining iqtisodiy barqarorligiga ta’sir etuvchi omillar.

Ishlab chiqarish omillari yer va suv resurslari, agrotexnologiyalar, dehqonchilik va chorvachilik salohiyati orqali mintaqaning oziq-ovqat mahsulotlari bilan o‘zini ta’minlash imkoniyatlarini belgilaydi. Iqtisodiy omillar esa aholi daromadlari, investitsiyalar, kredit resurslari, ishlab chiqarish xarajatlari va narxlar barqarorligi orqali oziq-ovqat mahsulotlarining iqtisodiy jihatdan hamyonbopligiga ta’sir etadi. Bunda ishlab chiqarish hajmining o‘sishi aholining real xarid qobiliyati bilan mutanosib bo‘lishi mintaqaviy oziq-ovqat ta’minoti barqarorligining muhim sharti hisoblanadi.

Bozor va infratuzilma omillari mahsulotlarni ishlab chiqaruvchidan iste’molchiga yetkazish jarayonining samaradorligini belgilaydi. Xususan, raqobat muhiti, bozor kon’yunkturasi, saqlash va qayta ishlash quvvatlari, transport-logistika tizimining rivojlanganligi mahsulot yo‘qotishlarini kamaytirish, ta’minot uzluksizligini ta’minlash va savdo xarajatlarini optimallashtirish imkonini beradi.

Institutsional omillar davlat tomonidan tartibga solish, subsidiyalash, moliyaviy rag‘batlantirish va xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari orqali

oziq-ovqat bozori faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadi. Tashqi muhit omillari xalqaro narxlar, tashqi savdo siyosati, geosiyosiy vaziyat va iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq xavf-xatarlarni qamrab olsa, ijtimoiy omillar aholi soni, demografik tarkib, urbanizatsiya va iste’mol xususiyatlari orqali oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabning hajmi hamda tarkibini shakllantiradi.

Mintaqada oziq-ovqat ta’minotining iqtisodiy barqarorligini oshirish uchun mahalliy ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirish, mahsulot tannarxini pasaytirish, logistika xarajatlarini optimallashtirish, bozor raqobatini kuchaytirish va aholining real xarid qobiliyatini oshirishga qaratilgan kompleks tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish maqsadga muvofiq.

1-jadval

Qashqadaryo viloyatda yetishtiriladigan oziq-ovqat mahsulotlar hajmi

T/r	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil	2024 yil 2021 yilga nisbatan o‘zgarishi, %
Dehqonchilik mahsulotlari							
1.	Kartoshka	tonna	177161	185793	195609	205158	115,8
2.	Sabzavot	tonna	495960	533865	559256	597259	120,4
3.	Poliz	tonna	169423	173471	192332	209561	123,7
4.	Meva	tonna	158060	165633	175644	186510	117,9
5.	Uzum	tonna	99715	105595	106513	112734	113,0
6.	Paxta	tonna	393522	426718	437872,8	362427,1	92,1
7.	Don	tonna	765478	789632	840044	893524	116,7
Chorvachilik mahsulotlari							
1.	Go‘sht	tonna	305079	315430	328716	345922	113,4
2.	Sut	tonna	1239116	1277006	1311382	1380147	111,4
3.	Jun	tonna	7644	7966	8548	8913	116,6
4.	Qorako‘lteri	dona	245046	259122	267090	280453	114,5
5.	Tuxum	ming dona	506445	544527	578544	564261	111,4
6.	Pilla	tonna	2141,6	2295,8	2451,5	2859	133,5

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turubdiki, viloyatda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida, asosan, ijobiy o‘sish tendensiyasi kuzatilganligini ko‘rsatadi. Xususan, dehqonchilik mahsulotlari tarkibida kartoshka yetishtirish hajmi 177,2 ming tonnadan 205,2 ming tonnaga (15,8 foiz), sabzavot 496,0 ming tonnadan 597,3 ming tonnaga (20,4 foiz), poliz mahsulotlari 169,4 ming tonnadan 209,6 ming tonnaga (23,7 foiz), meva 158,1 ming tonnadan 186,5 ming tonnaga (18,0 foiz), uzum 99,7 ming tonnadan 112,7 ming tonnaga (13,1 foiz) va don mahsulotlari 765,5 ming tonnadan 893,5 ming tonnaga (16,7 foiz) oshgan. Ayniqsa, sabzavot va poliz mahsulotlari ishlab chiqarishidagi yuqori o‘sish sur’atlari mintaqaning oziq-ovqat ta’minoti salohiyati kengayganligini ifodalaydi. Shu bilan birga, paxta yetishtirish hajmining 393,5 ming tonnadan 362,4 ming tonnaga yoki 7,9 foizga kamayishi kuzatilgan.

Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishida ham ijobiy dinamika shakllangan. Jumladan, tahlil davrida go‘sht ishlab chiqarish 13,4 foizga, sut 11,4 foizga, jun 16,6 foizga, qorako‘l teri 14,5 foizga, tuxum 11,4 foizga va pilla yetishtirish 33,5 foizga oshgan. Biroq tuxum ishlab chiqarish hajmi 2023-yildagi 578,5 mln. donadan 2024-yilda 564,3 mln. donaga kamayganligi mazkur yo‘nalishda yillik o‘sish sur’atlari barqaror emasligini ko‘rsatadi.

Viloyatda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish salohiyatining kengayishi mintaqaviy oziq-ovqat ta’minotining iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash uchun muhim ishlab chiqarish asosini shakllantirayotganligini ko‘rsatadi. Biroq mahsulot yetishtirish hajmining o‘sishi oziq-ovqat ta’minoti barqarorligini to‘liq ifodalamaydi. Shu bois mahsulotlarni qayta ishlash, saqlash va logistika infratuzilmasini rivojlantirish, ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish hamda aholining xarid qobiliyatini hisobga olgan holda bozor ta’minotini muvofiqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur choralar mintaqaviy oziq-ovqat bozorida taklif barqarorligini ta’minlash va narxlar o‘zgarishi bilan bog‘liq iqtisodiy xavf-xatarlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

2-jadval

Qashqadaryo viloyati qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari

T/r	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil
1.	**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jalik yalpi mahsuloti amaldagi bahoda**	**mlrd. so‘m**	29232,8	33549,2	39924,2	44293,5
a).	*Shundan:* Dehqonchilik mahsulotlari	mlrd. so‘m	11332,1	13266,4	14913,8	16168,2
b).	Chorvachilik mahsulotlari	mlrd. so‘m	16943,5	18974,3	23548,9	26525,0
O‘tgan yilga nisbatan (solishtirma bahoda)		***%***	***101,9***	***105,0***	***103,8***	***104,2***

Viloyatda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi yalpi mahsuloti hajmida ijobiy o‘sish dinamikasi shakllanganligini ko‘rsatadi. Xususan, yalpi mahsulot hajmi amaldagi baholarda 2021-yildagi 29232,8 mlrd. so‘mdan 2024-yilda 44293,5 mlrd. so‘mga yetib, 15060,7 mlrd so‘mga yoki 51,5 foizga oshgan. Shu davrda dehqonchilik mahsulotlari hajmi 11332,1 mlrd. so‘mdan 16 168,2 mlrd. so‘mga (42,7 foiz), chorvachilik mahsulotlari esa 16943,5 mlrd. so‘mdan 26525,0 mlrd. so‘mga (56,5 foiz) ko‘paygan. Bu esa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida chorvachilikning iqtisodiy ulushi yuqoriligini hamda uning o‘sish sur’atlari dehqonchilikka nisbatan jadalroq ekanligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, solishtirma baholarda qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotining yillik o‘sish sur’ati 2021-yilda 1,9 foizni, 2022-yilda 5,0 foizni, 2023-yilda 3,8 foizni va 2024-yilda 4,2 foizni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkichlar tarmoqda real ishlab chiqarish hajmining muntazam o‘sib borganligini, biroq yillar kesimida o‘sish sur’atlarining muayyan tebranishlarga ega ekanligini ifodalaydi.

Ilmiy xulosa. Viloyatda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining ortishi mintaqaviy oziq-ovqat ta’minotining resurs va ishlab chiqarish bazasini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Biroq iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda ishlab chiqarish hajmini oshirish bilan bir qatorda, dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlarida resurslar unumdorligini yuksaltirish, mahsulotlarni qayta ishlash quvvatlarini kengaytirish, ta’minot zanjirlarini takomillashtirish hamda narxlar barqarorligini ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Bu mintaqaning ichki oziq-ovqat bozorida taklif barqarorligini oshirish va tashqi bozor omillariga bog‘liqlikni kamaytirish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mintaqada oziq-ovqat ta’minotining iqtisodiy barqarorligi va unga ta’sir etuvchi omillarni tadqiq etish natijalari shuni ko‘rsatadiki, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash ishlab chiqarish hajmini oshirish bilangina cheklanmasdan, aholining xarid qobiliyati, mahsulotlar narxi, resurslardan foydalanish samaradorligi, bozor infratuzilmasi va tashqi iqtisodiy xavf-xatarlarga moslashuvchanlikni o‘zaro muvofiqlashtirishni talab etadi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasining oziq-ovqat xavfsizligi va sog‘lom ovqatlanishni ta’minlashning 2030-yilgacha mo‘ljallangan strategiyasi mintaqaviy oziq-ovqat ta’minotining iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqarorligini mustahkamlash uchun muhim strategik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur strategiyaning ustuvor yo‘nalishlari hamda tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, mintaqaviy oziq-ovqat ta’minotining iqtisodiy barqarorligini ta’minlash bo‘yicha quyidagi choraa-tadbirlaarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

1. Mahalliy ishlab chiqarish salohiyati, oziq-ovqat mahsulotlarining iqtisodiy jihatdan hamyonbopligi, aholi daromadlari, iste’mol xarajatlari, importga bog‘liqlik va narxlar o‘zgaruvchanligini ifodalovchi indikatorlar asosida integral baholash tizimini shakllantirish maqsadga muvofiq. Bu mintaqalarning oziq-ovqat ta’minoti bo‘yicha iqtisodiy barqarorlik darajasini qiyosiy baholash va ustuvor muammolarni aniqlash imkonini beradi.

2. Strategiyada belgilangan ustuvor vazifalardan kelib chiqib, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tannarxini optimallashtirish hamda ekologik barqaror ishlab chiqarish usullarini kengaytirish zarur. Bunda iqtisodiy samaradorlik va ekologik barqarorlik mezonlarini o‘zaro uyg‘unlashtirish mintaqaviy oziq-ovqat ta’minotining uzoq muddatli barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

3. Erkin bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan holda, asosiy oziq-ovqat mahsulotlari va ularning xomashyo zaxiralarini shakllantirish, saqlash va bozorga yetkazib berish jarayonlarini iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlari orqali muvofiqlashtirish taklif etiladi. Bu mavsumiy taklif o‘zgarishlarini yumshatish, ta’minot uzilishlarining oldini olish va narxlar keskin tebranishini cheklash imkonini beradi.

4. Tabiiy va texnogen ofatlar, iqlim o‘zgarishi, suv tanqisligi, global iqtisodiy inqirozlar, pandemiyalar, geosiyosiy ziddiyatlar hamda tashqi savdo cheklovlarining mintaqaviy oziq-ovqat ta’minotiga ta’sirini baholash uchun iqtisodiy monitoring va erta ogohlantirish platformasini shakllantirish maqsadga muvofiq. Mazkur tizim xavf-xatarlarning ehtimoliy ta’sirini prognozlash, muqobil ta’minot manbalarini belgilash va tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilishga xizmat qiladi.

5. Mintaqalarda ishlab chiqaruvchilar, qayta ishlash korxonalari, logistika markazlari va savdo sub’ektlari o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni muvofiqlashtirish, mahsulot yo‘qotishlarini kamaytirish va qo‘shilgan qiymat yaratish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Bu mahsulotlarning bozorga yetkazib

berish xarajatlarini pasaytirish hamda mahalliy oziq-ovqat ta’minoti raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

6. Aholi real daromadlari, oziq-ovqat xarajatlari, iste’mol me’yorlari va asosiy mahsulotlar narxlari o‘rtasidagi mutanosiblikni hisobga olgan holda, oziq-ovqat ta’minotining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish zarur. Bunda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini manzilli qo‘llab-quvvatlash, sifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish ustuvor ahamiyatga ega.

7. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, iste’mol, eksport-import, narxlar dinamikasi, zaxiralar va aholi daromadlarini qamrab oluvchi yagona axborot-tahliliy tizimni shakllantirish lozimm. Ushbu tizim asosida 2030 yilgacha bo‘lgan davr uchun mintaqaviy oziq-ovqat ta’minotining muqobil rivojlanish ssenariylarini ishlab chiqish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslash mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining 2030 yilgacha mo‘ljallangan oziq-ovqat xavfsizligi va sog‘lom ovqatlanish strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalarni mintaqaviy darajada amalga oshirishda ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirish, strategik mahsulot zaxiralarini shakllantirish, iqtisodiy-ekologik boshqaruv samaradorligini oshirish va xavf-xatarlarni erta aniqlash mexanizmlarini o‘zaro integratsiyalash muhim ahamiyatga ega.

Ushbu chora-tadbirlar mintaqada oziq-ovqat mahsulotlari taklifining uzluksizligini ta’minlash, aholining xarid qobiliyatiga mos iste’mol imkoniyatlarini kengaytirish, tashqi iqtisodiy ta’sirlarga bog‘liqlikni kamaytirish hamda oziq-ovqat ta’minotining uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash uchun ilmiy-uslubiy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 3-fevraldagi O‘RQ-1023-son “Oziq-ovqat xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni.

2. Prezidentning 2024-yil 16-fevraldagi “Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-36-son Farmoni

3.Sen A. Poverty and Famines: An Essay on Entitlement and Deprivation. Oxford: Clarendon Press, 1981.

4.Barrett C. B. Measuring Food Insecurity. Science, 2010, Vol. 327, No. 5967, pp. 825–828. DOI: 10.1126/science.1182768.

5.FAO. An Introduction to the Basic Concepts of Food Security. Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations, 2008.

6.Committee on World Food Security. Ensuring Food Security: Why Agency and Sustainability Matter. 2024.

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Hakimova Muyassar Abdumalik qizi Qarshi Davlat texnika universiteti Tabiiy fanlar kafedrasi / Хакимова Муяссар Абдумаликовна Кафедра естественных наук, Каршинский государственный технический университет / Khakimova Muyassar Abdumalik kizi Department of Natural Sciences, Karshi State Technical University

E-mail: hmuyassar2@gmail.com

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.10.10.2026.25 *Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti*

DEHQON VA TOMORQA XO‘JALIKLARI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH ASOSIDA AHOLI DAROMADLARINI KO‘PAYTIRISH YO‘NALISHLARI

Safarova Zulfizar Zafar qizi

НАПРАВЛЕНИЯ УВЕЛИЧЕНИЯ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ НА ОСНОВЕ ПОВЫШЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕХКАНСКИХ И ПРИУСАДЕБНЫХ ХОЗЯЙСТВ

Сафарова Зулфизар Зафар кизи

DIRECTIONS FOR INCREASING HOUSEHOLD INCOMES BY IMPROVING THE ECONOMIC EFFICIENCY OF DEHKAN AND HOUSEHOLD FARMS

Safarova Zulfizar Zafar qizi

Annatsiya. Ushbu ilmiy maqolada qishloq hududlarida dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining iqtisodiy samaradorligini oshirish, resurslardan (yer, suv, investitsiya, mehnat resurslari) oqilona foydalanish hamda zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish orqali aholi daromadlarini ko‘paytirish imkoniyatlari har tomonlama va ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sohaga oid farmon va qarorlari, tahliliy va statistik ma’lumotlar, shuningdek, mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari chuqur o‘rganilgan. Maqolada dehqon xo‘jaliklarining daromaddorligini oshirishga g‘ov bo‘layotgan asosiy muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan amaliy taklif, ilmiy xulosalar va konseptual tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: dehqon xo‘jaligi, tomorqa yeri, iqtisodiy samaradorlik, aholi daromadlari, agrotexnologiyalar, kooperatsiya, intensiv dehqonchilik, eksport salohiyati.

Аннотация. В данной научной статье представлен всесторонний научно-практический анализ возможностей увеличения доходов населения в сельской местности посредством повышения экономической эффективности дехканских и приусадебных хозяйств, рационального использования ресурсов (земельных, водных, инвестиционных и трудовых), а также внедрения современных агротехнологий. В ходе исследования были подробно изучены указы и постановления Президента Республики Узбекистан, относящиеся к данной отрасли, аналитические и статистические данные, а также научные взгляды отечественных и зарубежных ученых. В статье выявлены основные проблемы, препятствующие повышению доходности дехканских хозяйств, и разработаны практические предложения, научные выводы и концептуальные рекомендации, направленные на их устранение.

Ключевые слова: дехканские хозяйства, приусадебные земельные участки, экономическая эффективность, доходы населения, агротехнологии, кооперация, интенсивное земледелие, экспортный потенциал.

Abstract. This scientific article provides a comprehensive scientific and practical analysis of the opportunities for increasing household incomes in rural areas by improving the economic efficiency of dehkan and household farms, rationally utilizing resources (land, water, investment, and labor), and introducing modern agricultural technologies. The study examines in depth the decrees and resolutions of the President of the Republic of Uzbekistan related to the agricultural sector, analytical and statistical data, as well as the scientific views of domestic and foreign scholars. The article identifies the main challenges hindering the profitability of dehkan farms and develops practical proposals, scientific conclusions, and conceptual recommendations aimed at overcoming these challenges.

Keywords: dehqon xo‘jaligi, tomorqa yeri, iqtisodiy samaradorlik, aholi daromadlari, agrotexnologiyalar, kooperatsiya, intensiv dehqonchilik, eksport salohiyati.

KIRISH

Qishloq xo‘jaligi har qanday mamlakat iqtisodiy xavfsizligini, oziq-ovqat mustaqilligini va qishloq aholisining bandligini ta’minlashda strategik ahamiyatga ega bo‘lgan yetakchi sohalardan biridir. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri ham qishloq joylarda resurs va imkoniyatlarni safarbar etish, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining iqtisodiy samaradorligini keskin oshirish orqali aholi turmush darajasini va daromadlarini muntazam ravishda ko‘paytirishdan iboratdir.

Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari nafaqat oilalarning o‘z ehtiyojlarini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash, balki ichki bozorni arzon va sifatli qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan to‘ldirish hamda eksport salohiyatini oshirishda asosiy drayver omil hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligini oshirish, aholining real daromadlarini ko‘paytirish hamda qishloq hududlarini kompleks rivojlantirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berilgan.

Ushbu doirada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-noyabrdagi PQ-20-sonli “Paxta va g‘alladan bo‘shagan yer maydonlarida dehqon xo‘jaliklarini tashkil etish orqali aholi daromadlarini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori dehqonchilik va tomorqachilik faoliyatini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqdi. Mazkur qarorga muvofiq, o‘n minglab gektar yer maydonlari aholiga ochiq elektron tanlov (auksion) orqali uzoq muddatli ijaraga berilishi boshlandi, bu esa qishloqda haqiqiy mulkdorlar qatlamini shakllantirishda tub burilish yasadi.

Biroq bugungi kunda tomorqa yerlaridan samarali foydalanish, suv tejovchi va zamonaviy agrotexnologiyalarni ommalashtirish, yetishtirilgan mahsulotlarni sotish va saqlash logistikasini yo‘lga qo‘yish, shuningdek, moliya-bank xizmatlarining ommabopligini ta’minlash borasida muayyan tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, ushbu maqolada dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish va shu asosda aholi daromadlarini ko‘paytirishning ilmiy-amaliy va me’yoriy-huquqiy yo‘nalishlari atroflicha tadqiq etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR ShARHI

A.Chayanov dehqon xo‘jaliklarining mehnati va oila ehtiyojlari o‘rtasidagi muvozanat nazariyasini asoslab bergan. U dehqon xo‘jaligi faqat foyda olishga emas, balki oila a’zolarining iste’mol ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilganini ta’kidlaydi [3]. T.Schultz an’anaviy qishloq xo‘jaligida kichik yer egalarining iqtisodiy xatti-harakatlarini tahlil qilib, dehqonlar resurslarni taqsimlashda oqilona qaror qabul qilishlarini hamda ularga yangi texnologiyalar va ta’lim berilsa, undorlik keskin oshishini isbotlagan [4]. E.Boserup aholi zichligi va yer resurslarining cheklanganligi sharoitida dehqonlar intensiv dehqonchilik usullariga o‘tishga majbur bo‘lishi haqidagi nazariyani ilgari surgan [5]. J.Stiglitz rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik fermer va tomorqa xo‘jaliklarining kredit va sug‘urta bozorlaridagi cheklovlarga duch kelishini ko‘rsatib, davlat aralashuvi va subsidiyalar zarurligini ta’kidlaydi [6]. K.Deininger yer islohotlari va kichik yer egalariga mulk huquqini berish ularning uzun muddatli investitsiya kiritish rag‘batini oshirishini Jahon banki tadqiqotlarida asoslab bergan [7].

Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari iqtisodiy samaradorligini oshirish asosida aholi daromadlarini ko‘paytirish bo‘yicha mahalliy olimlarimiz ham tadqiqot ishlarini olib borgan. Jumladan, Q.A.Choriev qishloq xo‘jaligida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda dehqon xo‘jaliklari samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini tadqiq etgan [8]. R.H.Ergashev agrosanoat majmuida dehqon xo‘jaliklarining tutgan o‘rni va ularning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashdagi kooperatsiyalashuv jarayonlarini ilmiy va amaliy jihatdan tahlil qilgan [9]. U.V. Gafurov kichik biznes va tomorqa xo‘jaliklarining daromadlarini oshirishda davlat tomonidan moliyaviy va kredit dasturlari orqali qo‘llab-quvvatlashning samaradorligini baholagan [10]. S.S.Salimov suv tejamkor texnologiyalarni dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida joriy etishning iqtisodiy samaradorligi va resurs tejamkorlik yo‘nalishlarini asoslagan [11]. B.T. Berkinov aholi tomorqa xo‘jaliklarini agrobiznes zanjiriga integratsiyalash va mahsulotlarni sotish bo‘yicha infratuzilmalarni rivojlantirish muammolarini o‘rgangan [12].

Umuman olganda, xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari dehqon va tomorqa xo‘jaliklari iqtisodiy samaradorligini oshirishda zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, kooperatsiyani rivojlantirish, moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni kengaytirish hamda mahsulotlarni ichki va tashqi bozorlarga chiqarish imkoniyatlarini yaxshilash muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Mazkur yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish qishloq aholisining daromadlarini ko‘paytirish, bandligini ta’minlash va turmush farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari iqtisodiy samaradorligini oshirish asosida aholi daromadlarini ko‘paytirish yo‘nalishlarini o‘rganish va tahlil qilish qilishda analiz va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil etish, jadval va grafiklar usullaridan foydlanildi, hamda taklif va tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan sanaladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2023–2024-yillardagi rasmiy ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatimizda yetishtirilayotgan jami dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining 60 foizdan ortig‘i bevosita dehqon va aholi tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Bu holat mazkur xo‘jaliklarning mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, qishloq aholisining bandligini oshirish va oilalar daromadlarini ko‘paytirishdagi muhim o‘rnini ko‘rsatadi.

Keltirilgan ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, dehqon va tomorqa xo‘jaliklari O‘zbekistonda qishloq

xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda, ayniqsa, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Jumladan, sut ishlab chiqarishda ushbu xo‘jaliklarning ulushi 91,3 foizni tashkil etib, eng yuqori ko‘rsatkich hisoblanadi. Bu holat sut yetishtirishda aholi tomorqalari va dehqon xo‘jaliklarida boqiladigan chorva mollarining ahamiyati katta ekanligini ko‘rsatadi. Go‘sht ishlab chiqarishda ham ularning ulushi 82,1 foizga teng bo‘lib, chorvachilik mahsulotlari yetishtirishda mazkur xo‘jaliklar asosiy ishlab chiqaruvchilardan biri ekanligini tasdiqlaydi.

1-jadval

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining ulushi (2023-yil holatiga)[73]

Mahsulot turi	Umumiy hajmga nisbatan ulushi (%)
Sabzavotlar	64.2%
Kartoshka	78.5%
Poliz mahsulotlari	53.1%
Mevalar va reza mevalar	58.4%
Go‘sht (tirik vaznda)	82.1%
Sut	91.3%

Kartoshka yetishtirishda dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining ulushi 78,5 foizni, sabzavotlar yetishtirishda esa 64,2 foizni tashkil etadi. Bu ko‘rsatkichlar aholini kundalik iste’mol uchun zarur bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashda kichik xo‘jaliklarning hissasi yuqori ekanligini anglatadi. Meva va reza mevalar yetishtirishdagi ulush 58,4 foizni, poliz mahsulotlari yetishtirishdagi ulush esa 53,1 foizni tashkil qilgan. Mazkur mahsulot turlarida ham dehqon va tomorqa xo‘jaliklari ishlab chiqarishning yarmidan ko‘prog‘ini ta’minlamoqda.

Umumiy tahlil natijalariga ko‘ra, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining ulushi barcha keltirilgan mahsulot turlari bo‘yicha 50 foizdan yuqori. Eng yuqori ko‘rsatkich sut va go‘sht ishlab chiqarishda, nisbatan past ko‘rsatkich esa poliz mahsulotlari yetishtirishda kuzatiladi. Bu esa dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining iqtisodiy samaradorligini oshirishda chorvachilik, sabzavotchilik va kartoshkachilik yo‘nalishlariga alohida e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, mahsulot yetishtirish hajmini oshirish bilan bir qatorda, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, suv va yer resurslaridan oqilona foydalanish, zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, chorva mollari mahsuldorligini oshirish hamda mahsulotlarni saqlash va sotish tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Ushbu chora-tadbirlar dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining daromadlarini ko‘paytirish, qishloq aholisining turmush farovonligini yaxshilash va mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 1-apreldagi “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”gi O‘RQ-680-sonli Qonunining qabul qilinishi dehqon xo‘jaliklarining huquqiy maqomini belgilash, ularning faoliyatini tartibga solish va yerdan foydalanish bilan bog‘liq huquqiy kafolatlarni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Resurs tejamkorligining aholi daromadlariga ta’sirini baholash ham dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining iqtisodiy samaradorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. O‘tkazilgan amaliy tahlillarga ko‘ra, 10 sotix tomorqa yerida an’anaviy usulda, ochiq maydonda sabzavot yetishtirilganda yillik sof daromad o‘rtacha 15–20 million so‘mni tashkil etgan. Shu maydonda tomchilatib sug‘orish tizimi va kichik plyonkali issiqxona tashkil etilganda esa yillik sof daromad 50–60 million so‘mga yetgan. Natijada daromad samaradorligi taxminan 2,8–3 baravarga oshgan. Bu esa suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish, ekinlarni intensiv usulda yetishtirish va mavjud yer maydonlaridan yil davomida samarali foydalanish aholi daromadlarini ko‘paytirishning muhim yo‘nalishlari ekanligini ko‘rsatadi.

Olingan ilmiy va statistik natijalar shuni ko‘rsatadiki, dehqon va tomorqa xo‘jaliklari qishloq hududlarida kambag‘allikni qisqartirish, aholi bandligini ta’minlash va daromadlarni oshirishda muhim iqtisodiy subyektlar hisoblanadi. Teodor Shuls va Peter Hazellning ilmiy qarashlariga ko‘ra, kichik yer egalari mavjud resurslardan intensiv foydalanish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirishi mumkin. Biroq bunday natijalarga erishish uchun zamonaviy texnologiyalar, zarur infratuzilma, moliyaviy xizmatlar va bilimlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish talab etiladi.

O‘zbekistonda ushbu yo‘nalishda muayyan natijalarga erishilayotgan bo‘lsa-da, dehqon va tomorqa xo‘jaliklari faoliyatida bir qator tizimli muammolar mavjud. Birinchi navbatda, suv resurslari va sug‘orish infratuzilmasi bilan bog‘liq muammolarni qayd etish lozim. Ko‘plab qishloq hududlarida tomorqa yerlarini sug‘orishda suv tanqisligi kuzatiladi, suv tejovchi texnologiyalarni ommalashtirish darajasi esa yetarli emas. Bu holat ekinlar hosildorligiga, ishlab chiqarish xarajatlariga va xo‘jaliklarning yakuniy daromadlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

[73] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari (2023). Rasmiy veb-sayt: www.stat.uz.

Ikkinchi muhim muammo agroservis va logistika tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan bog‘liq. Yetishtirilgan mahsulotlarni saralash, saqlash, sovitish, qayta ishlash va bozorlarga yetkazib berish jarayonlarida yuzaga keladigan qiyinchiliklar dehqonlarning iqtisodiy manfaatlariga ta’sir qiladi. Vositachilar ulushining yuqoriligi sababli ishlab chiqaruvchilar mahsulotning yakuniy sotuv narxidan yetarli darajada daromad ololmasligi mumkin. Shu bois qishloq hududlarida zamonaviy saqlash omborlari, sovitish uskunalari, logistika markazlari va to‘g‘ridan-to‘g‘ri savdo kanallarini rivojlantirish zarur.

Uchinchi muammo moliya-kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlari bilan bog‘liq. Dehqon xo‘jaliklariga ajratilayotgan mikrokreditlar va boshqa moliyaviy yordam shakllarining ahamiyati ortib borayotgan bo‘lsa-da, garov ta’minoti, hujjatlarni rasmiylashtirish va kredit olish jarayonlaridagi murakkabliklar ayrim xo‘jaliklarning rivojlanishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Shu sababli kreditlash mexanizmlarini soddalashtirish, imtiyozli moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish va moliyaviy maslahat xizmatlarini rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Mazkur muammolarni bartaraf etishda Hans Binswanger-Mkhize va R.H.Ergashevning kooperatsiya hamda agrosanoat integratsiyasiga oid ilmiy yondashuvlarini amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyatga ega. Xususan, ko‘plab tomorqa egalarini kooperativlarga birlashtirish orqali urug‘lik, mineral o‘g‘itlar va boshqa zarur resurslarni ulgurji narxlarda xarid qilish, agrotexnik xizmatlardan birgalikda foydalanish, yetishtirilgan mahsulotlarni saralash va saqlash xarajatlarini kamaytirish mumkin. Bundan tashqari, kooperatsiya mahsulotlarni ichki va tashqi bozorlarga yirik hajmlarda yetkazib berish, eksport talablariga mos sifatni ta’minlash va ishlab chiqaruvchilarning bozordagi muzokara imkoniyatlarini kuchaytirishga yordam beradi.

Umuman olganda, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish, zamonaviy agrotexnologiyalardan foydalanish, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, logistika infratuzilmasini rivojlantirish va kooperatsiya tizimini kengaytirish zarur. Ushbu chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish qishloq aholisining daromadlarini ko‘paytirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash va hududlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining iqtisodiy samaradorligini oshirish aholi daromadlarini ko‘paytirish, qishloq joylarda bandlikni ta’minlash, kambag‘allikni qisqartirish va mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, dehqon va tomorqa xo‘jaliklari sabzavot, kartoshka, meva, poliz mahsulotlari hamda chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishda muhim o‘rin egallaydi.

Dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining iqtisodiy samaradorligini oshirish qishloq aholisi daromadlarini ko‘paytirish, bandlikni ta’minlash va oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Buning uchun yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, imtiyozli moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish hamda mahsulotlarni saqlash, qayta ishlash va sotish tizimini rivojlantirish zarur. Shuningdek, kooperatsiya tizimini takomillashtirish va aholining agrotexnik bilimlarini oshirish orqali xo‘jaliklar daromadliligini yanada yuksaltirish mumkin. Mazkur chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish qishloq hududlarining barqaror iqtisodiy rivojlanishi va aholi turmush farovonligining oshishiga xizmat qiladi.

Mazkur xo‘jaliklarning daromadlarini oshirish uchun yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy issiqxonalarni tashkil etish, innovatsion agrotexnologiyalardan foydalanish va mahsulot yetishtirish samaradorligini oshirish zarur. Shu bilan birga, dehqon xo‘jaliklarini imtiyozli kreditlar bilan ta’minlash, kooperatsiya tizimini rivojlantirish, mahsulotlarni saqlash, qayta ishlash va sotish infratuzilmasini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari iqtisodiy samaradorligini oshirish va aholi daromadlarini ko‘paytirish bo‘yicha quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish taklif etiladi:

kooperatsiya tizimini kengaytirish: Tomorqa yer egalarini “Tomorqa xizmati” MChJ va qayta ishlovchi korxonalar atrofida birlashtirish orqali mahsulotlarni kafolatli xarid qilish tizimini yaratish.

resurs tejamkor texnologiyalarni ommalashtirish: Tomorqa xo‘jaliklarida tomchilatib va yomg‘irlatib sug‘orish, ixcham gidroponika va issiqxona tizimlarini joriy etish uchun subsidiyalar ajratish ko‘lamini oshirish.

moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni takomillashtirish: Tomorqa egalari uchun imtiyozli va garovsiz mikrokreditlar ajratish mexanizmini soddalashtirish.

mahallani ixtisoslashtirish: Har bir mahalla drayver sohasidan kelib chiqib (masalan, limonchilik, gulchilik, parrandachilik, sabzavotchilik) ixtisoslashtirish va “ustoz-shogird” an’analari asosida aholiga agrotexnik bilimlar berish

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-apreldagi “Dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5048-sonli Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”gi O‘RQ-700-sonli Qonuni. 2021-yil 1-iyul.

3. Chayanov.A.V. Peasant Farm Organization. Moscow: -1925. Cooperative Publishing House.

4. Schultz.T.W. Transforming Traditional Agriculture. New Haven: -1964.Yale University Press.

5. Boserup, E.The Conditions of Agricultural Growth: The Economics of Agrarian Change under Population Pressure. -1965. Allen & Unwin.

6. Stiglitz, J.E. Economics of the Public Sector. -1986.W.W. Norton & Company.

7. Deininger, K. Land Policies for Growth and Poverty Reduction. World Bank Policy Research Report. -2003.Oxford University Press.

8. Q.A.Choriev., Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti. Darslik. – 2018.Toshkent: Fan va texnologiya.

9. R.H.Ergashev., Agrobiznes va kooperatsiya. -2020. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: Barchinoy.

10. U.V.Gafurov.,Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Monografiya. Toshkent: -2019. Iqtisodiyot.

11. S.S.Salimov., “Qishloq xo‘jaligida suv va resurs tejamkor korxonalarni rivojlantirish yo‘nalishlari”. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy jurnali, 2020, №3, 45-52 b.

12. Berkinov, B.T. O‘zbekistonda dehqon va tomorqa xo‘jaliklarini rivojlantirish omillari. 2017-y.Toshkent: Universitet.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari (2023). Rasmiy veb-sayt: www.stat.uz (http://www.stat.uz)

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Safarova Zulfizar Zafar qizi Qarshi Davlat Texnika Unverseti tadqiqotchisi / Сафарова Зулфизар Зафар Исследователь Каршинского государственного технического университета/ Safarova Zulfizar Zafar kizi Researcher at Karshi State Technical University

E-mail: **zulfizarsafarova25@gmail.com**

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.10.10.2026.26

SUSTAINABLE TOURISM DEVELOPMENT IN QASHQADARYA REGION: A SYSTEMIC APPROACH TO ORGANIZATIONAL-ECONOMIC MECHANISMS

Suyunova Dilnoza Mexridin qizi

QASHQADARYO VILOYATIDA BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISH: TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARGA TIZIMLI YONDASHUV

Suyunova Dilnoza Mexridin qizi

УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ ТУРИЗМА В КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ: СИСТЕМНЫЙ ПОДХОД К ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИМ МЕХАНИЗМАМ

Суюнова Дилноза Мехридин қизи

Annotatsiya. Turizm jahon iqtisodiyotining eng yirik xizmat ko‘rsatish tarmoqlaridan biriga aylandi. Biroq uning jadal rivojlanishi ekotizimlar, infratuzilma va mahalliy hamjamiyatlarga tushayotgan bosimning ortishiga olib kelmoqda. Mazkur maqolada O‘zbekistonning Qashqadaryo viloyatida turizm xizmatlarini barqaror rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotda tizimli va qiyosiy tahlil, indeks usullari, ekonometrik modellashtirish hamda ansambl prognozlash usullaridan foydalanilgan. Maqolada turizm barqarorligini kompleks baholashga mo‘ljallangan mualliflik indeksi taklif etilgan, Shahrisabz-Kitob-Miraki-G‘elon turistik koridori uchun tabaqalashtirilgan boshqaruv modeli ishlab chiqilgan hamda davlat, xususiy sektor, mahalliy hamjamiyatlar va ilmiy tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlikning integratsiyalashgan mexanizmi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari mintaqaviy turizm siyosatida tashrif buyuruvchilar sonini oshirishdan ko‘ra, har bir turist hisobiga yaratiladigan iqtisodiy qiymatni ko‘paytirish, ekologik muvozanatni saqlash va raqamli monitoringni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berish lozimligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: barqaror turizm, Qashqadaryo viloyati, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, kompleks barqarorlik indeksi, geografik axborot tizimlari (GIS), ansambl prognozlash, klasterli rivojlanish.

Abstract. Tourism has become one of the largest service sectors in the global economy, yet its rapid growth places increasing strain on ecosystems, infrastructure, and local communities. This article examines the improvement of organizational-economic mechanisms for sustainable development of tourism services in the Qashqadaryo region of Uzbekistan. The study employs systemic and comparative analysis, index methods, econometric modeling, and ensemble forecasting. The paper proposes an author’s index for the comprehensive assessment of tourism sustainability, develops a differentiated management model for the Shahrisabz-Kitob-Miraki-G‘elon corridor, and substantiates an integrated mechanism of cooperation among the state, the private sector, local communities, and scientific organizations. The findings indicate that regional tourism policy should prioritize the value generated per tourist, ecological balance, and digital monitoring over the number of visitors.

Keywords: sustainable tourism, Qashqadaryo, organizational-economic mechanism, complex sustainability index, GIS, ensemble forecasting, cluster development.

Аннотация. Туризм стал одним из крупнейших секторов сферы услуг в мировой экономике, однако его стремительный рост усиливает нагрузку на экосистемы, инфраструктуру и местные сообщества. В статье рассматриваются вопросы совершенствования организационно-экономических механизмов устойчивого развития туристских услуг в Кашкадарьинской области Узбекистана. В исследовании применяются системный и сравнительный анализ, индексные методы, эконометрическое моделирование и ансамблевое

прогнозирование. Предложен авторский индекс комплексной оценки устойчивости туризма, разработана дифференцированная модель управления туристским коридором Шахрисабз–Китаб–Мираки–Гелон, а также обоснован интегрированный механизм взаимодействия государства, частного сектора, местных сообществ и научных организаций. Результаты исследования свидетельствуют о необходимости смещения приоритетов региональной туристской политики с увеличения числа посетителей на повышение экономической ценности, создаваемой в расчёте на одного туриста, сохранение экологического равновесия и развитие цифрового мониторинга.

Ключевые слова: устойчивый туризм, Кашкадарьинская область, организационно-экономический механизм, комплексный индекс устойчивости, геоинформационные системы (ГИС), ансамблевое прогнозирование, кластерное развитие.

INTRODUCTION.

Tourism is now one of the most significant drivers of global economic activity. According to UN Tourism, international tourist arrivals reached 1.4 billion in 2024, fully restoring pre-pandemic levels, while international tourism generated export revenues of approximately $2.0 trillion, of which $1.7 trillion were tourism receipts. The World Travel & Tourism Council (WTTC) estimates that the sector contributed $10.9 trillion, or about 10% of global GDP, and supported 357 million jobs in 2024, roughly one in every ten jobs worldwide.

These achievements carry a cost. The WTTC reports that tourism accounted for 6.5% of global emissions in 2023, and mass tourism has concentrated ecological and infrastructural pressure on specific destinations while distributing income unevenly across regions. Consequently, evaluating tourism by visitor numbers or revenue alone is no longer adequate. International research increasingly calls for integrated assessment across economic, social, ecological, infrastructural, institutional, and digital dimensions.

Uzbekistan has positioned tourism as a strategic sector. According to the National Statistics Committee, the country received 11.7 million foreign tourist visits in 2025, a 46.8% increase over 2024. Presidential Decree PQ-348 of 19 November 2025 sets targets to raise tourism's share of GDP from 3.5% to 7% by 2030, increase foreign tourist arrivals to 20 million, and expand tourism service exports beyond $6 billion. Achieving these goals requires that regions with high tourism potential, such as Qashqadaryo, use their resources efficiently while controlling ecological load.

The research gap is clear. Previous Uzbek studies, including work on optimal regulation of tourism in Qashqadaryo, have addressed infrastructure, clustering, and forecasting, but a unified methodological system that jointly assesses sustainability factors, measures their differential effects across districts, and integrates cooperation and digital monitoring has not been developed.

LITERATURE REVIEW.

The study of sustainable tourism has developed over several decades, with foundational contributions that conceptualized tourism as a dynamic system tied to regional economic, social, and environmental conditions. R.W. Butler proposed the tourist area life cycle model, showing that destinations pass through successive stages and that resource use must be managed to avoid long-term damage. B. Bramwell and B. Lane framed sustainable tourism as a system that reconciles economic, social, and ecological interests through stakeholder collaboration, while R. Sharpley argued that the concept must be operationalized through concrete planning and governance rather than treated as a normative ideal. In the Uzbek context, B.Sh. Safarov [1]examined the innovative development of the national tourism services market and tourism cluster mechanisms, while Sh.X. Muxitdinov developed econometric and forecasting approaches to the optimal regulation of tourism in Qashqadaryo[2]. Other Uzbek researchers, including A.O. Ochilov and Z.A. Jabborova, have addressed regional tourism potential, state support, and digital technology use[3;6]. Despite these contributions, no unified methodological system has yet jointly assessed economic, social, ecological, infrastructural, institutional, and digital sustainability factors in Qashqadaryo while integrating state-business-community cooperation with clustering, GIS monitoring, and digital management, and this gap provides the rationale for the present study[7].

Methodology. The study combines systemic and comparative analysis of theoretical sources and international sustainable tourism models, structural-dynamic and spatial (GIS-based) analysis of regional tourism indicators, construction of a normalized Complex Sustainability Index for comparing districts on a common scale, and an ensemble forecasting approach that merges linear trend and ARIMA/ARMAX models with weights inversely proportional to their historical forecast errors, supported by econometric reasoning and expert evaluation where quantitative data are limited.

RESULT AND DISCUSSION.

The analysis shows that tourism in Qashqadaryo has expanded rapidly, yet its benefits are unevenly distributed: visitor flows and accommodation capacity are concentrated along the Karshi-Shahrisabz-Kitob axis, while less developed districts remain underused. The Complex Sustainability Index reveals that high visitor volumes do not automatically mean balanced sustainability, since districts rich in resources often score low on infrastructure and digital management, which points to specific investment needs rather than general promotional efforts. The differentiated model for the Shahrisabz-Kitob-Miraki-G‘elon corridor, in which each location takes on a specialized function, offers a way to disperse pressure from saturated centers and to strengthen local value retention, particularly through family guest houses, which form the majority of accommodation units

.

Table 1.

Key Tourism Indicators of Qashqadaryo Region (Selected Years)

	Indicator	2022	2023	2024	2025
1	Foreign tourist arrivals (approx.)	-	222,000	-	604,000
2	Domestic tourist visits (approx.)	-	-	-	3,600,000
3	Tourism service exports, USD million	11.3	-	105.8	121.0
4	Accommodation facilities, units	44	-	365	406
5	Foreign arrivals, % of plan (2024)	-	-	116.8	-
6	Domestic arrivals, % of plan (2024)	-	-	108.0	-
7	Accommodation facilities, % of plan (2024)	-	-	61.3	-

This table presents the key indicators of tourism development in the Qashqadaryo region for selected years. It should be read with the understanding that some cells contain no value (marked with a dash), because the reviewed material does not report a figure for that year. Several entries are approximate (marked “approx.”) and should be verified against official statistical publications.The most prominent trend is the rapid growth in foreign tourist arrivals, from approximately 222,000 in 2023 to approximately 604,000 in 2025. Domestic tourist visits reached approximately 3.6 million in 2025. Tourism service exports rose from $11.3 million in 2022 to $105.8 million in 2024 and approximately $121.0 million in 2025, meaning that export revenue grew several-fold within a short period.Tourism infrastructure has also expanded considerably. The number of accommodation facilities increased from 44 units in 2022 to 365 in 2024 and 406 in 2025. However, the 2024 plan-fulfilment figures reveal an imbalance: foreign arrivals reached 116.8% of the planned target and domestic arrivals reached 108.0%, while accommodation facilities reached only 61.3%. This gap indicates that demand has outpaced the region’s service capacity, so accommodation infrastructure remains a binding constraint on further tourism growth.

The forecasting results indicate that the optimal sustainable scenario delivers stronger growth in value per tourist than in visitor numbers, confirming that the region’s gains should come from longer stays and higher spending rather than from additional visitors alone. These findings support a shift from extensive to intensive tourism development, in which the four-pillar cooperation model among the state, business, local communities, and science, together with GIS-based and digital adaptive management, forms the core of the proposed organizational-economic mechanism. The study’s limitations, including the relatively short time series, the dependence of ensemble weights on past error rates, and the subjectivity of expert weighting, indicate that the model should be piloted in the corridor and refined with longer data series and primary measurements of ecological load and local value retention before being scaled to the wider region.

CONCLUSION.

This study has demonstrated that sustainable tourism development in the Qashqadaryo region requires a shift from volume-based growth toward a value-driven, ecologically balanced, and digitally monitored model. The Complex Sustainability Index and the differentiated management approach for the Shahrisabz-Kitob-Miraki-G‘elon corridor show that tourism potential is unevenly distributed and that high visitor volumes do not automatically translate into balanced development. The integrated organizational-economic mechanism, built on cooperation among the state, business, local communities, and science together with GIS-based adaptive management, offers a practical framework for addressing these imbalances. The ensemble forecast indicates that the optimal sustainable scenario is achievable, with growth driven primarily by value per tourist rather than by additional visitors alone.Several priorities follow from the findings. Policymakers should direct investment toward accommodation and digital infrastructure, where demand is already outpacing capacity, and should disperse tourist flows from saturated centers toward less developed districts. Local value retention, particularly through family guest houses, should be strengthened as a core component of regional tourism policy. The proposed model should first be piloted in the Shahrisabz-Kitob-Miraki-G‘elon corridor before being extended to the wider region, and its performance should be tracked using the Complex Sustainability Index alongside conventional tourism statistics. The study also has limitations that point toward future research. The forecasting models rely on a relatively short time series, and the ensemble weights depend on historical error rates that may not hold under structural shocks. Primary data on ecological load per tourist and on the share of tourism income retained locally remain limited, and expert weighting introduces an element of subjectivity. Addressing these issues through longer data series, direct measurement, and testing in other regions would strengthen the reliability and generalizability of the proposed mechanism.

References:

1. Safarov B.Sh. Milliy turizm xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslari. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. - 184 b..,

2. Muxitdinov Sh.X. Mintaqa turizmini rivojlantirishning optimal tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish (Qashqadaryo viloyati misolida): iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi, 08.00.06 - Ekonometrika va statistika. - Qarshi davlat universiteti.,

3. Muxitdinov Sh.X. Mintaqa turizmida mehmonxona va ovqatlanish xizmatlarini optimal modellashtirish usullari // Iqtisodiyot va ta'lim. - 2023. - 24-jild, №5. - B. 343-346. DOI: 10.55439/ECED/vol24_iss5/a57.,

4. Ochilov A.O., Usmanova A.B., Turaqulov O.O. Понятие «туристский потенциал региона»: его характеристика и роль в социально-экономическом развитии дестинаций // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. - 2024. - №10. - B. 263-270.,

5. Ochilov A.O., Xamidova M.A. Mamlakatimizda turizm sohasida oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashni boshqarish xususiyatlari // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. - 2024. - №10. - B. 69-75.,

6. Jabborova Z.A. Turizm sohasi rivojlanishida innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish // Iqtisodiyot va turizm. - 2024. - №39 (17). - B. 95-104;

7. Jabborova Z.A. Qashqadaryo viloyati turizmining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi. - Toshkent, 2024. - B. 236-240 shundan maqolani ichida bor shaxslarni references qilib shakllantir

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Suyunova Dilnoza Mexridin qizi - PhD Student, Karshi State University/ Suyunova Dilnoza Mexridin qizi - Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti / Суюнова Дилноза Мехридин кизи - докторант Каршинского государственного университета

E-mail: dilnozasuyunova9811@gmail.com

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.10.10.2026.27 *Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti*

MINTAQADA YUQORI QO‘SHILGAN QIYMATLI MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISHNING IQTISODIY MOHIYATI, UNI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLAR.

Arslonov Karamat Gulomovich

ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ ПРОИЗВОДСТВА ПРОДУКЦИИ С ВЫСОКОЙ ДОБАВЛЕННОЙ СТОИМОСТЬЮ В РЕГИОНЕ И ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ЕГО ФОРМИРОВАНИЕ.

Арслонов Карамат Гуломович

ECONOMIC ESSENCE OF HIGH VALUE-ADDED PRODUCTION IN THE REGION AND THE FACTORS SHAPING IT

Arslonov Karamat Gulomovich

Annotatsiya. Mazkur maqolada mintaqaviy iqtisodiyotda yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishning nazariy-metodologik asoslari va iqtisodiy mohiyati, shuningdek, uning shakllanishi va rivojlanishini belgilovchi asosiy omillar o‘rganilgan. Qo‘shilgan qiymatning iqtisodiy mazmuni ochib berilgan hamda uning mintaqa sanoatini tarkibiy transformatsiyalash, mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini yuksaltirish va mintaqaviy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini mustahkamlashdagi o‘rni bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: mintaqaviy iqtisodiyot, yuqori qo‘shilgan qiymat, sanoat ishlab chiqarishi, ishlab chiqarish omillari, tarkibiy transformatsiya, investitsiyalar, innovatsiyalar, texnologik modernizatsiya, ishlab chiqarish ixtisoslashuvi, tarmoqlararo kooperatsiya, mehnat unumdorligi, qiymat yaratish zanjirlari, raqobatbardoshlik, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm.

Аннотация. В статье рассматриваются теоретико-методологические основы и экономическая сущность производства продукции с высокой добавленной стоимостью в региональной экономике, а также исследуются основные факторы, определяющие его формирование и развитие. Раскрывается экономическое содержание добавленной стоимости и рассматривается её роль в структурной трансформации региональной промышленности, повышении производительности труда, эффективности использования производственных ресурсов и укреплении конкурентоспособности региональной экономики.

Ключевые слова: региональная экономика, высокая добавленная стоимость, промышленное производство, факторы производства, структурная трансформация, инвестиции, инновации, технологическая модернизация, производственная специализация, межотраслевая кооперация, производительность труда, цепочки создания стоимости, конкурентоспособность, организационно-экономический механизм.

Abstract. This article examines the theoretical and methodological foundations and economic essence of producing high value-added products in the regional economy, as well as the key factors determining the formation and development of such production. The economic nature of value added is explored, along with its role in the structural transformation of regional industry, increasing labor productivity, improving the efficiency of production resource utilization, and strengthening the competitiveness of the regional economy.

Keywords: regional economy, high value added, industrial production, factors of production, structural transformation, investment, innovation, technological modernization, industrial specialization, intersectoral cooperation, labor productivity, value chains, competitiveness, organizational and economic mechanism.

KIRISH

Iqtisodiyotida ishlab chiqarish jarayonlarining texnologik jihatdan murakkablashuvi, xalqaro qiymat zanjirlarining qayta shakllanishi hamda innovatsion taraqqiyot sur’atlarining jadallashuvi sharoitida mintaqalar iqtisodiyotini yuqori qo‘shilgan qiymat

yaratishga yo‘naltirilgan tarkibiy o‘zgarishlar asosida rivojlantirish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, hududlarning tabiiy-iqtisodiy imkoniyatlari, resurs salohiyati, sanoat ixtisoslashuvi va texnologik rivojlanish darajasidan samarali foydalanish orqali yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiy o‘sishning sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash hamda mintaqalar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni qisqartirishning muhim omiliga aylanmoqda.

Zamonaviy iqtisodiy taraqqiyot tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, mintaqalarning barqaror iqtisodiy rivojlanishi faqat ishlab chiqarish hajmining miqdoriy o‘sishi bilan emas, balki yaratilayotgan mahsulot tarkibida qo‘shilgan qiymat ulushining ortishi, mehnat unumdorligining yuksalishi, texnologik qayta ishlash darajasining chuqurlashuvi va yuqori daromad keltiruvchi iqtisodiy faoliyat turlarining kengayishi bilan ham belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, mintaqaviy iqtisodiyotni xomashyo va resurslarga asoslangan ishlab chiqarish modelidan innovatsion texnologiyalar, bilim, intellektual kapital va chuqur qayta ishlash jarayonlariga tayangan yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish modeliga transformatsiya qilish dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan, qo‘shilgan qiymat ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan mahsulot yoki xizmatlar qiymati bilan ularni ishlab chiqarish uchun sarflangan oraliq iste’mol qiymati o‘rtasidagi farqni ifodalaydi. Yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish esa resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, xomashyoni chuqur qayta ishlash, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, mahsulotlarning funksional va sifat xususiyatlarini takomillashtirish hamda innovatsion faoliyatni rivojlantirish natijasida iqtisodiyotda yaratiladigan qiymat hajmini ko‘paytirishga qaratilgan murakkab tashkiliy-iqtisodiy jarayon hisoblanadi. Bunda mahsulotning yuqori bozor narxi har doim ham yuqori qo‘shilgan qiymat yaratilishini anglatmaydi. Uning iqtisodiy samaradorligini baholashda ishlab chiqarish natijasi, oraliq xarajatlar, mehnat unumdorligi, texnologik sig‘im va yaratilgan qiymatning hudud iqtisodiyotida saqlanib qolish darajasi o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilinishi lozim.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqalarda yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirishning nazariy asoslari iqtisodiy o‘sish, tarkibiy transformatsiya, innovatsion taraqqiyot, sanoat ixtisoslashuvi va raqobat ustunliklari nazariyalari bilan bevosita bog‘liqdir. Xususan, iqtisodiy rivojlanish jarayonida resurslarni past unumdorlikka ega tarmoqlardan yuqori unumdorlikka ega faoliyat turlariga yo‘naltirish, ishlab chiqarish omillarining texnologik jihatdan takomillashuvini ta’minlash hamda mahalliy korxonalarning milliy va global qiymat zanjirlaridagi ishtirokini kengaytirish hududiy iqtisodiy o‘sishning muhim manbalari sifatida namoyon bo‘ladi.

Xorijiy iqtisodiy manbalarda yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish masalasi iqtisodiy murakkablik, texnologik bilimlar konsentratsiyasi va ishlab chiqarish tarkibining diversifikatsiyalashuvi bilan uzviy bog‘liq holda tadqiq etilgan. Jumladan, Garvard universiteti tadqiqotchilari S.Hidalgo va R.Xausmann tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy murakkablik nazariyasiga ko‘ra, iqtisodiyotning rivojlanish darajasi uning ishlab chiqarish tizimida mujassamlashgan bilim, texnologik kompetensiyalar va mahsulotlar xilma-xilligi bilan belgilanadi. Tadqiqotida iqtisodiy murakkablik darajasi bilan mamlakatlar daromadi o‘rtasidagi bog‘liqlik asoslangan bo‘lib, uzoq muddatli iqtisodiy o‘sish uchun ishlab chiqarish tarkibida murakkab texnologik mahsulotlar ulushini oshirish muhimligi ta’kidlangan.[3]

Mazkur nazariy yondashuv mintaqalarda yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirishda faqat mavjud resurslar hajmiga emas, balki ularni qayta ishlash, texnologik o‘zlashtirish va yangi iqtisodiy faoliyat turlariga transformatsiya qilish salohiyatiga ham ustuvor ahamiyat berish zarurligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, Jahon bankining xisob-kitoblariga ko‘ra, global qiymat zanjirlarida ishtirok etish iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish, mehnat unumdorligini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va texnologik bilimlar transferini ta’minlashning muhim omili sifatida baholangan. Hisobotda keltirilgan baholashlarga ko‘ra, global qiymat zanjirlarida ishtirokning 1,0 foizga ortishi aholi jon boshiga daromad darajasining 1,0 foizdan ko‘proq oshishi bilan bog‘liq. [4]

Bu esa mintaqaviy sanoat korxonalarining xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasidagi ishtirokini kengaytirish, mahalliy xomashyoni yuqori texnologik qayta ishlash bosqichlariga yo‘naltirish hamda eksport tarkibida tayyor va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini ko‘paytirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

O‘zbekistonda ham iqtisodiyotni modernizatsiyalash, sanoat tarmoqlarini diversifikatsiyalash, mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan sanoatni texnologik jihatdan yangilash, hududlarning ishlab chiqarish imkoniyatlaridan samarali foydalanish, yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport salohiyatini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Xususan, davlatimiz rahbarining 2025-yil 7-mart kuni sanoat uchun muhim minerallar xomashyo bazasini kengaytirish va qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga bag‘ishlangan taqdimotida zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash orqali xomashyoni chuqur qayta ishlash, uning soflik darajasini oshirish va yuqori qiymatli tayyor mahsulotlar yaratish asosiy vazifa ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan. Ushbu yig‘ilishda sanoat rivojlanishining muhim yo‘nalishi sifatida “xomashyo – qayta ishlash – ilm va texnologiya – tayyor mahsulot” zanjirini kengaytirish masalasi ilgari surilgan.[1]

Mazkur yondashuv hududlarda resurslardan foydalanishning an’anaviy shakllaridan yuqori texnologik va innovatsion ishlab chiqarish tizimlariga

o‘tish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish hamda mahsulotning yakuniy qiymatida mahalliy ishlab chiqaruvchilar ishtirokini oshirishning strategik ahamiyatini ifodalaydi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 6-fevraldagi “Mahalliy ishlab chiqarish va sanoat kooperatsiyasini yangi tizim asosida rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonida davlat siyosatining muhim maqsadlaridan biri sifatida “yuqori texnologiyali va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan qo‘shilgan qiymat zanjirlarini yaratish” vazifasi belgilandi.[2]

Ushbu vazifaning amalga oshirilishi mintaqalarda sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, yirik ishlab chiqarish korxonalari bilan kichik va o‘rta biznes sub’ektlari o‘rtasidagi texnologik aloqalarni mustahkamlash, mahalliylashtirish darajasini oshirish va milliy sanoatning global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuvini kuchaytirish uchun institutsional asos yaratadi.

Mintaqalarda yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishning iqtisodiy mohiyati, uni shakllantiruvchi omillar va rivojlanish qonuniyatlarini tadqiq etish zamonaviy iqtisodiyot fanining muhim ilmiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur masalaning nazariy-metodologik asoslari iqtisodiy o‘sish, tarkibiy transformatsiya, raqobat ustunliklari, innovatsion rivojlanish, sanoat ixtisoslashuvi va global qiymat zanjirlari konsepsiyalari doirasida shakllangan. Xorijiy olimlarning tadqiqotlarida yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish jarayoni ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish, texnologik bilimlarni o‘zlashtirish, mehnat unumdorligini oshirish, mahsulotlarni diversifikatsiyalash hamda iqtisodiy faoliyatni yuqori samaradorlikka ega tarmoqlarga yo‘naltirish bilan bog‘liq holda talqin etiladi.

Jumladan, iqtisodiy taraqqiyot nazariyasining yirik namoyandalaridan biri Y.Shumpeter o‘zining “The Theory of Economic Development” asarida iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida innovatsiyalar, yangi ishlab chiqarish usullari, yangi mahsulotlar va bozorlarning shakllanishini ko‘rsatadi. Uning fikricha, iqtisodiy rivojlanish mavjud resurslar hajmining oddiy ko‘payishi emas, balki ulardan foydalanishning yangi kombinatsiyalarini joriy etish natijasida yuzaga keladigan sifat o‘zgarishlaridir.[6] Ushbu nazariy yondashuvdan kelib chiqib, mintaqalarda yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishning muhim manbai texnologik innovatsiyalar, mahsulotlarning yangi turlarini o‘zlashtirish va ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiyalash hisoblanadi.

R.Solou tomonidan ishlab chiqilgan neoklassik iqtisodiy o‘sish modelida kapital jamg‘arilishi, mehnat resurslari va texnologik taraqqiyot iqtisodiy o‘sishning asosiy omillari sifatida qaraladi. U o‘zining tadqiqotlarida uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda texnologik taraqqiyotning o‘rni nazariy jihatdan asoslangan.[7] Mazkur yondashuv mintaqalarda yuqori qo‘shilgan qiymat yaratishni faqat kapital qo‘yilmalar hajmini oshirish orqali emas, balki ishlab chiqarish omillari umumiy unumdorligini yuksaltirish, texnologik samaradorlikni ta’minlash va resurslardan intensiv foydalanish asosida rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

P.Romerning tadqiqotida texnologik taraqqiyotni iqtisodiy tizimning ichki omillari, jumladan, ilmiy tadqiqotlar, inson kapitali va bilimlarning jamg‘arilishi bilan bog‘liq jarayon sifatida talqin etgan. Uning endogen o‘sish nazariyasiga ko‘ra, yangi bilimlar va texnologik ishlanmalarning iqtisodiy faoliyatga tatbiq etilishi uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi muhim manbalardan biridir.[8] Mazkur nazariya mintaqalarda yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirishda ilmiy-innovatsion infratuzilma, yuqori malakali mehnat resurslari, tadqiqot va ishlanmalarga yo‘naltirilgan investitsiyalar hamda texnologiyalar transferining hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ilmiy jihatdan asoslash imkonini beradi.

M.Porter milliy va hududiy raqobat ustunliklarining shakllanishini ishlab chiqarish omillari, ichki talab xususiyatlari, o‘zaro bog‘liq tarmoqlar va korxonalar strategiyasi bilan izohlaydi. Uning raqobat ustunliklari konsepsiyasiga ko‘ra, iqtisodiy sub’ektlarning raqobatbardoshligi faqat arzon resurslar mavjudligi bilan emas, balki innovatsion faoliyat, mahsulot sifati, ishlab chiqarish unumdorligi va tarmoqlararo hamkorlikning rivojlanganlik darajasi bilan belgilanadi.[9] Ushbu yondashuv mintaqalarda yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishda sanoat klasterlari, mahalliy ishlab chiqarish kooperatsiyasi, ixtisoslashgan infratuzilma va innovatsion muhitni rivojlantirishning nazariy asosi bo‘lib xizmat qiladi.

S.Hidalgo va R.Xausmann tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy murakkablik konsepsiyasi yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishning zamonaviy nazariy asoslarini yanada kengaytiradi.[10]

Mazkur konsepsiya mintaqalarda yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish salohiyatini baholashda sanoat tarmoqlarining texnologik murakkabligi, mahsulotlar diversifikatsiyasi va ishlab chiqarish kompetensiyalarini muhim mezonlar sifatida qo‘llash imkonini beradi.

G.Gereffi, J.Xamfri va T.Styorjen tomonidan global qiymat zanjirlarini boshqarishning nazariy-metodologik asoslari ishlab chiqilgan. Mualliflar qiymat zanjirlaridagi iqtisodiy munosabatlarni tranzaksiyalarning murakkabligi, axborotni standartlashtirish imkoniyatlari va yetkazib beruvchilarning texnologik salohiyati bilan bog‘liq holda tahlil qilganlar. Tadqiqotda qiymat zanjirlarini boshqarishning bozor, modulli, munosabatlarga asoslangan, qaram va iyerarxik shakllari ajratib ko‘rsatilgan. [10]

Ushbu ilmiy yondashuv mintaqaviy sanoat korxonalarining ishlab chiqarish, qayta ishlash, logistika va mahsulotni sotish bosqichlaridagi o‘zaro munosabatlarini takomillashtirish, mahalliy korxonalarning qiymat zanjiridagi mavqeini mustahkamlash hamda yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish imkoniyatlarini kengaytirish nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega.

M.Makmillan, D.Rodrik va I.Verdusko-Galolar tadqiqotida iqtisodiy tarkibiy o‘zgarishlar va mehnat unumdorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilganlar. Ular iqtisodiy rivojlanishning muhim manbalaridan biri mehnat va boshqa ishlab chiqarish resurslarining past unumdorlikka ega faoliyat turlaridan yuqori unumdorlikka ega tarmoqlarga qayta taqsimlanishi ekanligini asoslaganlar. Shu bilan birga, tarkibiy o‘zgarishlar har doim ham iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sir ko‘rsatmasligi, uning natijasi resurslarning qaysi tarmoqlarga yo‘naltirilishiga bog‘liqligi aniqlangan.[11]

Mazkur xulosalar mintaqalarda yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun sanoat tarmoqlarining tarkibiy transformatsiyasini ta’minlash, resurslarni samarali taqsimlash va mehnat unumdorligi yuqori bo‘lgan ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Biroq mazkur nazariy yondashuvlarni mintaqaviy iqtisodiyot darajasida o‘zaro integratsiyalash, hududlarning resurs-ishlab chiqarish salohiyati, texnologik qayta ishlash darajasi, investitsion faolligi, innovatsion imkoniyatlari va institutsional muhitining yuqori qo‘shilgan qiymat yaratishga ta’sirini yagona tizimda baholash masalalari qo‘shimcha ilmiy izlanishlarni talab etadi. Ayniqsa, hududiy sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish hajmining o‘sishi bilan yaratilayotgan qo‘shilgan qiymat samaradorligi o‘rtasidagi farqlarni aniqlash, texnologik qayta ishlash chuqurligining iqtisodiy natijalarga ta’sirini baholash hamda yuqori qo‘shilgan qiymatli ishlab chiqarishni shakllantiruvchi omillarning o‘zaro ta’sirini miqdoriy ifodalash muhim ilmiy muammo hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqotning ilmiy yondashuvi mintaqada yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni resurs, texnologik, innovatsion, investitsion, infratuzilmaviy va institutsional omillarning o‘zaro bog‘liq ta’siri natijasida shakllanadigan kompleks iqtisodiy jarayon sifatida talqin etishga asoslanadi. Bu esa hududlarning mavjud sanoat salohiyatidan foydalanish samaradorligini baholash, qo‘shilgan qiymat yaratishning asosiy manbalarini aniqlash va mintaqaviy ishlab chiqarishni yuqori texnologik tarmoqlarga yo‘naltirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda mintaqada yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishning iqtisodiy mohiyatini ochib berish, uni shakllantiruvchi asosiy omillarni aniqlash va tizimlashtirishga qaratilgan kompleks hamda tizimli yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, guruhlash va omilli baholash usullari qo‘llanildi. Ushbu usullar asosida yuqori qo‘shilgan qiymat yaratishning nazariy-iqtisodiy mazmuni, resurs-ishlab chiqarish salohiyati, texnologik qayta ishlash darajasi, investitsion faollik, innovatsion rivojlanish va institutsional omillarning o‘zaro bog‘liqligi tadqiq etildi. Shuningdek, mintaqaviy sanoat tarmoqlarida qo‘shilgan qiymat shakllanishining iqtisodiy xususiyatlarini baholash, unga ta’sir etuvchi omillarni tizimlashtirish hamda yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini ilmiy asoslashga alohida e’tibor qaratildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan mazkur islohotlar mintaqalar iqtisodiyotida yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillarni kompleks tadqiq etish zaruratini kuchaytirmoqda. Zero, hududlarda ishlab chiqarish samaradorligi va qo‘shilgan qiymat yaratish darajasi tabiiy resurslar bilan ta’minlanganlik, asosiy kapitalning texnologik holati, mehnat resurslarining malakasi, investitsiya faolligi, innovatsion infratuzilmaning rivojlanganligi, transport-logistika imkoniyatlari, sanoat kooperatsiyasi va bozor institutlarining samaradorligi kabi o‘zaro bog‘liq omillar ta’sirida shakllanadi. Mazkur omillarning hududlar kesimida turlicha taqsimlanganligi ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish darajasida tafovutlarni keltirib chiqaradi hamda mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirishda differensial yondashuvlarni qo‘llashni taqozo etadi.

Ayniqsa, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishning iqtisodiy mohiyatini faqat mahsulotni qayta ishlash darajasi bilan cheklash yetarli emas. Ushbu jarayonni texnologik yangilanish, resurslar unumdorligi, intellektual kapital, ishlab chiqarish kooperatsiyasi, innovatsion faoliyat va bozor talabining o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadigan kompleks iqtisodiy munosabatlar tizimi sifatida baholash maqsadga muvofiqdir. Bunda mintaqaning mavjud resurs salohiyatini yuqori iqtisodiy natijaga aylantirish imkoniyati, ishlab chiqarishning texnologik chuqurligi, mahalliy qiymat zanjirlarining uzviyligi hamda iqtisodiy faoliyat natijalarining hududiy yalpi qo‘shilgan qiymatga ta’siri asosiy tadqiqot mezonlari sifatida qaralishi lozim.


Shu bilan birga, mintaqalarda yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni shakllantiruvchi omillarni baholashda ularning alohida ta’sirini aniqlash bilan bir qatorda, o‘zaro bog‘liqligi va sinergetik samarasini hisobga olish muhim hisoblanadi. Xususan, investitsiya resurslarining ko‘payishi texnologik modernizatsiya bilan uyg‘unlashmagan sharoitda kutilgan iqtisodiy natijani bermasligi, innovatsion faoliyatning rivojlanishi esa malakali mehnat resurslari va samarali institutsional muhit mavjud bo‘lmagan hollarda cheklangan ta’sirga ega bo‘lishi mumkin. Shu sababli yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish jarayonini resurs, texnologik, innovatsion, investitsion, infratuzilmaviy va institutsional omillarning integratsiyalashgan ta’siri asosida o‘rganish ilmiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

2021–2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot tarmoqlarida yalpi qo‘shilgan qiymat hajmi ko‘rsatkichlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, ishlab chiqarish sanoatida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat 175862,3 mlrd. so‘mdan 384204,1 mlrd. so‘mga yetib, 2,18 barobarga, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida esa 184306,3 mlrd. so‘mdan 306294,2 mlrd. so‘mgacha yoki 1,66 barobarga oshgan. Bu sanoat tarmog‘ining iqtisodiyotda qo‘shilgan qiymat yaratishdagi mavqei mustahkamlanayotganligini ko‘rsatadi.

Ayniqsa, axborot va aloqa 3,91 barobar, moliya va sug‘urta 3,89 barobar, yashash va ovqatlanish xizmatlari

3,12 barobar hamda elektr va gaz ta’minoti 2,95 barobar tarmoqlarida yuqori nominal o‘sish kuzatilgan. Mazkur holat xizmatlar sohasining kengayishi va iqtisodiyot tarmoqlari tarkibida o‘zgarishlar yuz berayotganligini ifodalaydi (1-rasm).

Ilmiy xulosa sifatida, tahlil natijalari iqtisodiyotda qo‘shilgan qiymat yaratishning tarmoqlararo tarkibi o‘zgarayotganligini, ayniqsa, ishlab chiqarish sanoati va xizmatlar sohasining iqtisodiy ahamiyati ortib borayotganligini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishda texnologik modernizatsiya, xomashyoni chuqur qayta ishlash, innovatsion faoliyat va tarmoqlararo kooperatsiyani rivojlantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Biroq ko‘rsatkichlar joriy narxlarda ifodalanganligi sababli, qayd etilgan o‘sishni to‘liq real iqtisodiy o‘sish sifatida baholash mumkin emas.



1-rasm. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymat ko‘rsatkichlari tahlili.

2021–2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot tarmoqlarida yalpi qo‘shilgan qiymatning real o‘sish sur’atlari tahlili tarmoqlar rivojlanishida ijobiy dinamika saqlanganligini, biroq iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘sish intensivligi sezilarli darajada farqlanganligini ko‘rsatadi. Xususan, ishlab chiqarish sanoatida yalpi qo‘shilgan qiymatning yillik o‘sish sur’ati 2021-yilda 108,3 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilda 107,7 foizga teng bo‘lgan. Mazkur tarmoqda tahlil davri mobaynida 5,3–8,3 foiz atrofida barqaror yillik o‘sish kuzatilgan. Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida esa yillik o‘sish 3,4–4,4 foiz oralig‘ida shakllanib, sanoatga nisbatan pastroq iqtisodiy faollik namoyon bo‘lgan.

Ayniqsa, axborot va aloqa tarmog‘i yuqori o‘sish sur’atlari bilan ajralib turgan. Ushbu sohada yalpi qo‘shilgan qiymatning yillik o‘sish sur’ati 2021-yilda 127,6 foizni, 2025-yilda esa 123,9 foizni tashkil etib, tahlil davrida yuqori darajada saqlangan. Shuningdek, 2025-yilda qurilish 114,0 foiz, ulgurji va chakana savdo 113,6 foiz, moliyaviy va sug‘urta faoliyati 111,5 foiz, tashish va saqlash 110,1 foiz hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari 110,4 foiz tarmoqlarida nisbatan yuqori o‘sish qayd etilgan. Bu iqtisodiyotda xizmatlar sohasi, infratuzilma va sanoat bilan bog‘liq faoliyat turlarining rivojlanish imkoniyatlari kengayayotganligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, ayrim tarmoqlarda o‘sish sur’atlarining beqarorligi kuzatilgan. Jumladan, tog‘-kon sanoatida 2023 yilda yalpi qo‘shilgan qiymat o‘sish indeksi 99,5 foizni tashkil etib, oldingi yilga nisbatan 0,5 foizlik real qisqarish qayd etilgan. Elektr, gaz va bug‘ bilan ta’minlash tarmog‘ida o‘sish sur’ati 2022 yildagi 113,5 foizdan 2025 yilda 103,5 foizgacha pasaygan. Suv ta’minoti va chiqindilarni qayta ishlash sohasida esa 2021–2022 yillarda pasayish kuzatilgan bo‘lsa, keyingi yillarda ijobiy o‘sish tiklangan (1-jadval).

1-jadval

Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati o‘sish sur’ati (foizda)

Ko‘rsatkichlar	2021	2022	2023	2024	2025
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	104,0	103,6	104,1	103,4	104,4
Tog`-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	110,8	101,9	99,5	103,9	103,5
Ishlab chiqarish sanoati	108,3	105,3	107,3	106,9	107,7
Elektr, gaz, bug` bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	111,8	113,5	109,5	105,7	103,5
Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig`ish va utilizatsiya qilish	85,8	94,7	103,2	112,1	102,6
Qurilish	107,4	106,8	107,2	110,0	114,0
Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash	113,4	105,6	110,7	113,3	113,6
Tashish va saqlash	116,9	108,9	106,6	109,7	110,1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	119,2	118,7	108,3	109,8	110,4
Axborot va aloqa	127,6	126,3	122,5	123,8	123,9
Moliyaviy va sug`urta faoliyati	102,6	130,3	109,9	109,7	111,5
Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	105,4	103,9	104,7	104,6	104,0
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	113,2	106,1	110,6	103,9	107,1
Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish	112,5	114,7	108,1	102,9	116,7
Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta'minot	99,3	104,1	100,7	101,3	102,7
Ta'lim	111,3	105,2	104,8	103,4	102,4
Sog`liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	107,8	101,3	104,5	104,1	102,1
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	127,4	103,9	106,8	109,3	110,7
Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	116,1	105,1	105,9	109,7	111,0

Xulosa sifatida, 2021–2025 yillarda iqtisodiyot tarmoqlarida yalpi qo‘shilgan qiymat o‘sishining asosiy xususiyati sanoatda nisbatan barqaror, axborot-kommunikatsiya va ayrim xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida esa jadal o‘sish sur’atlarining shakllanganligi bilan tavsiflanadi. Bu holat iqtisodiyotning tarmoq tarkibida texnologik va xizmat ko‘rsatish faoliyatining ahamiyati ortib borayotganini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish salohiyatini oshirishda sanoatni texnologik modernizatsiyalash, xomashyoni chuqur qayta ishlash, innovatsion faoliyatni kengaytirish hamda yuqori unumdorlikka ega tarmoqlar o‘rtasidagi iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Mazkur o‘sish sur’atlari tarmoqlarda yaratilgan qo‘shilgan qiymatning real dinamikasini tavsiflaydi, biroq mahsulotlarning texnologik murakkabligi yoki qo‘shilgan qiymat ulushini bevosita ifodalamaydi. Shuning uchun ularni mehnat unumdorligi, oraliq iste’mol va texnologik qayta ishlash ko‘rsatkichlari bilan birgalikda baholash maqsadga muvofiqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mintaqada yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishning iqtisodiy mohiyati va uni shakllantiruvchi omillarni nazariy-uslubiy jihatdan o‘rganish asosida shuni ta’kidlash mumkinki, yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish mintaqaviy iqtisodiyotning tarkibiy transformatsiyasini jadallashtirish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, sanoat tarmoqlarining texnologik rivojlanishini ta’minlash hamda hududlarning raqobat ustunliklarini mustahkamlashning muhim iqtisodiy omili hisoblanadi. Bunda ishlab chiqarish hajmining miqdoriy o‘sishidan yuqori iqtisodiy samaradorlik va texnologik murakkablikka asoslangan sifat jihatidan yangi rivojlanish modeliga o‘tish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Olib borilgan izlanishlar natijasida mintaqada yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun quyida chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

1. Mintaqada yuqori qo‘shilgan qiymat yaratishni faqat xomashyoni qayta ishlash yoki mahsulot narxini oshirish jarayoni sifatida emas, balki resurs, texnologik, innovatsion va intellektual salohiyatning o‘zaro integratsiyalashuvi natijasida ishlab chiqarish samaradorligi hamda iqtisodiy natijadorlikni yuksaltiruvchi kompleks iqtisodiy jarayon sifatida baholash maqsadga muvofiq.

2. Mintaqaviy sanoat tarmoqlarida yuqori qo‘shilgan qiymat yaratishga ta’sir etuvchi omillarni resurs-ishlab chiqarish, texnologik, investitsion, innovatsion, infratuzilmaviy va institutsional yo‘nalishlar bo‘yicha guruhlash hamda ularning o‘zaro bog‘liq ta’sirini baholash tavsiya etiladi. Mazkur yondashuv qo‘shilgan qiymat o‘sishini cheklovchi omillarni aniqlash va hududiy ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

3. Mahalliy xomashyo va resurslarni birlamchi qayta ishlashdan yuqori texnologik tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish bosqichiga o‘tish, zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini joriy etish va texnologik modernizatsiya jarayonlarini jadallashtirish zarur. Bu orqali mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan iqtisodiy qiymatni oshirish, importga bog‘liqlikni kamaytirish va eksport tarkibini diversifikatsiyalash imkoniyatlari kengayadi.

4. Mintaqaviy sanoat tarmoqlarining iqtisodiy natijadorligini baholashda yalpi qo‘shilgan qiymat hajmi, uning ishlab chiqarish qiymatidagi ulushi, mehnat unumdorligi, texnologik qayta ishlash darajasi va innovatsion faollik ko‘rsatkichlaridan kompleks foydalanish taklif etiladi. Ushbu ko‘rsatkichlar asosida hududlarning yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish salohiyatini qiyosiy baholash va tarmoqlar kesimida ustuvor rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash mumkin.

5. Mintaqalarning tabiiy-iqtisodiy imkoniyatlari, sanoat ixtisoslashuvi va mavjud ishlab chiqarish infratuzilmasini hisobga olgan holda, investitsiyalarni yuqori texnologik, eksportbop va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga yo‘naltirish maqsadga muvofiq. Bunda ilmiy tadqiqotlar natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish, texnologiyalar transferini rivojlantirish va korxonalarning innovatsion faolligini rag‘batlantirishga ustuvor ahamiyat berish lozim.

6. Yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish jarayonida xomashyo yetkazib berish, qayta ishlash, tayyor mahsulot ishlab chiqarish, logistika va sotish bosqichlari o‘rtasidagi iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish tavsiya etiladi. Buning uchun sanoat klasterlari, kichik va yirik ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasidagi kooperatsiya aloqalarini kengaytirish hamda mahalliy korxonalarning milliy va global qiymat zanjirlaridagi ishtirokini mustahkamlash zarur.

Umumiy olganda, mintaqada yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirishning asosiy sharti mavjud resurs salohiyatini texnologik, innovatsion va investitsion imkoniyatlar bilan uyg‘unlashtirish, ishlab chiqarish tarkibini yuqori unumdorlikka ega tarmoqlar hisobiga takomillashtirish hamda mahalliy qiymat zanjirlarining iqtisodiy samaradorligini oshirishdan iborat.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. “Sanoat uchun muhim minerallar bo‘yicha axborot berildi”. 2025 yil 7 mart.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahalliy ishlab chiqarish va sanoat kooperatsiyasini yangi tizim asosida rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. 2026 yil 6 fevral.

3. C.A.Hidalgo, R.Hausmann The Building Blocks of Economic Complexity. Proceedings of the National Academy of Sciences, (2009). 106(26), 10570–10575. DOI: 10.1073/pnas.0900943106.

4. World Bank (2020). World Development Report 2020: Trading for Development in the Age of Global Value Chains. Washington, DC: World Bank.

5. C.A.Hidalgo The Policy Implications of Economic Complexity. Research Policy, (2023). 52, 104863.

6. J.A.Schumpeter The Theory of Economic Development. Cambridge, MA: Harvard University Press. (1934).

7. R.M.Solow, A Contribution to the Theory of Economic Growth. The Quarterly Journal of Economics, (1956). 70(1), 65–94. DOI: 10.2307/1884513.

8. P.M.Romer Endogenous Technological Change. Journal of Political Economy, (1990). 98(5), S71–S102. DOI: 10.1086/261725.

9. M.E.Porter The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press. (1990).

10. G.Gereffi, J.Humphrey, T.Sturgeon The Governance of Global Value Chains. Review of International Political Economy, (2005). 12(1), 78–104. DOI.

11. M.McMillan, D.Rodrik, I.Verduzco-Gallo Globalization, Structural Change, and Productivity Growth, with an Update on Africa. World Development, (2014). 63, 11–32. DOI.

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Arslonov Karamat Gulomovich Qashqadaryo viloyat soliq boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i / Арслонов Карамат Гуломович Начальник отдела Кашкадарьинской областной налоговой администрации / Arslonov Karamat Gulomovich Head of a Department at the Kashkadarya Regional Tax Administration

E-mail: arslonovkaramat@gmail.com

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.10.10.2026.28 *Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti*

MINTAQADA YUQORI QO‘SHILGAN QIYMATLI MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISHNI RIVOJLANTIRISHNING ILG‘OR XORIJIY TAJRIBASI

Arslonov Karamat Gulomovich

ПЕРЕДОВОЙ ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ ПРОИЗВОДСТВА ПРОДУКЦИИ С ВЫСОКОЙ ДОБАВЛЕННОЙ СТОИМОСТЬЮ В РЕГИОНЕ.

Арслонов Карамат Гуломович

ADVANCED INTERNATIONAL EXPERIENCE IN DEVELOPING HIGH VALUE-ADDED PRODUCTION AT THE REGIONAL LEVEL

Arslonov Karamat Gulomovich

Annotatsiya. Mazkur maqolada mintaqada yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalarning nazariy-uslubiy va tashkiliy-iqtisodiy jihatlari o‘rganilgan. Rivojlangan mamlakatlarda yuqori qo‘shilgan qiymat yaratishga yo‘naltirilgan sanoat siyosatini amalga oshirish, ishlab chiqarish jarayonlarini texnologik modernizatsiyalash, innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish, sanoat klasterlarini rivojlantirish va korxonalarni global qiymat zanjirlariga integratsiyalashtirish mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, xorijiy mamlakatlarda sanoat tarmoqlarini tarkibiy transformatsiyalash, mahalliy resurslarni chuqur qayta ishlash, yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish hamda tarmoqlararo kooperatsiyani rivojlantirishning iqtisodiy ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: yuqori qo‘shilgan qiymat, xorijiy tajriba, mintaqaviy iqtisodiyot, sanoat siyosati, innovatsion rivojlanish, sanoat klasterlari, global qiymat zanjirlari, tarkibiy transformatsiya, resurs-ishlab chiqarish salohiyati, investitsion-innovatsion faoliyat.

Аннотация. В статье рассматриваются теоретико-методологические и организационно-экономические аспекты передового зарубежного опыта развития производства продукции с высокой добавленной стоимостью в регионе. Проанализированы механизмы реализации промышленной политики, направленной на создание высокой добавленной стоимости в развитых странах, технологической модернизации производственных процессов, стимулирования инновационной деятельности, развития промышленных кластеров и интеграции предприятий в глобальные цепочки создания стоимости. Кроме того, раскрывается экономическое значение структурной трансформации отраслей промышленности, углублённой переработки местных сырьевых ресурсов, расширения производства высокотехнологичной продукции и развития межотраслевой кооперации в зарубежных странах.

Ключевые слова: высокая добавленная стоимость, зарубежный опыт, региональная экономика, промышленная политика, инновационное развитие, промышленные кластеры, глобальные цепочки создания стоимости, структурная трансформация, ресурсно-производственный потенциал, инвестиционно-инновационная деятельность.

Abstract. This article examines the theoretical, methodological, organizational, and economic aspects of advanced international experience in developing high value-added production at the regional level. The study analyzes mechanisms for implementing industrial policies aimed at generating high value added in developed countries, modernizing production processes through technological advancement, stimulating innovation, developing industrial clusters, and integrating enterprises into global value chains. Furthermore, the article highlights the economic significance of structural transformation in industrial sectors, in-depth processing of local raw materials, expanding the production of high-tech products, and strengthening intersectoral cooperation in foreign countries.

Keywords: high value added, international experience, regional economy, industrial policy, innovative development, industrial clusters, global value chains, structural transformation, resource and production potential, investment and innovation activities.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida mintaqalarning sanoat salohiyatidan samarali foydalanish, ishlab chiqarish tarmoqlarini yuqori texnologik faoliyat turlariga yo‘naltirish hamda mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasida ishlab chiqarish jarayonlarini innovatsion texnologiyalar asosida modernizatsiyalash, sanoat korxonalari o‘rtasidagi kooperatsiya aloqalarini mustahkamlash va mahsulotlarning texnologik murakkabligini oshirish orqali hududiy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi hamda qo‘shilgan qiymat yaratish samaradorligini yuksaltirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro amaliyot shuni ko‘rsatadiki, mintaqalarning sanoat jihatidan rivojlanish darajasi faqat ishlab chiqarish hajmi yoki tabiiy resurslar bilan ta’minlanganligiga emas, balki mahsulotlarni qayta ishlash chuqurligi, texnologik murakkabligi, innovatsion salohiyati va qiymat zanjirining yuqori daromad keltiruvchi bosqichlarida ishtirok etish imkoniyatlariga ham bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirishning xorijiy tajribasi hududiy sanoat tizimlarini xomashyoga asoslangan ishlab chiqarishdan texnologik jihatdan murakkab, raqobatbardosh va yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga yo‘naltirish mexanizmlarini o‘rganishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy tajribaning mazkur yo‘nalishdagi ahamiyati Jahon banki tadqiqotlarida ham o‘z tasdig‘ini topgan. Xususan, global qiymat zanjirlari xalqaro savdoning qariyb yarmini qamrab olishi hamda ularda ishtirok etish mamlakatlarning yuqori qo‘shilgan qiymat yaratiladigan ishlab chiqarish bosqichlariga o‘tishi uchun muhim imkoniyat ekanligi asoslangan.[3]

Shuningdek, V.Kummrits, D.Taloni va D.Vinklerlarning ilmiy izlanishlarida global qiymat zanjirlarida ishtirok etishdan olinadigan qo‘shilgan qiymat samarasini oshirishda iqtisodiy siyosat va institutsional shart-sharoitlarning ahamiyati o‘rganilgan.[4]

Mazkur ilmiy yondashuvlar xorijiy mamlakatlarda yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirishning asosiy sharti texnologik imkoniyatlarni kengaytirish bilan bir qatorda, mahalliy korxonalarning qiymat zanjiridagi ishtirokini sifat jihatidan yuqori bosqichga ko‘tarish ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasida ham mintaqalarda yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish, xomashyoni chuqur qayta ishlash va ilg‘or xorijiy texnologiyalarni milliy sanoatga joriy etish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 18-avgustda tadbirkorlar bilan o‘tkazilgan ochiq muloqotda quyidagi fikrni bildirgan:

“Bizning neftimiz ham, gazimiz ham bu – siz kabi tashabbuskor va ishbilarmon tadbirkorlar xomashyodan yaratayotgan yuqori qiymatli va sifatli mahsulotlardir”[1].

Davlatimiz rahbarining mazkur fikri yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish milliy va mintaqaviy sanoat raqobatbardoshligini ta’minlashning muhim iqtisodiy manbai ekanligini ifodalaydi. Ushbu yondashuv xomashyoni eksport qilishdan ko‘ra, uni mahalliy korxonalarda chuqur qayta ishlash, texnologik jihatdan murakkab tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va qiymat zanjirining yuqori daromadli bosqichlarini hududlarda shakllantirish zaruratini asoslaydi.

Shuningdek, Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2025 yil 7 mart kuni sanoat uchun muhim minerallar xomashyo bazasini kengaytirish va qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga bag‘ishlangan taqdimotida “xomashyo – qayta ishlash – ilm va texnologiya – tayyor mahsulot” zanjirini kengaytirish masalasi ilgari surilgan.[2]

Mazkur tashabbus Germaniya, Yaponiya va Janubiy Koreyaning yuqori texnologik sanoatni rivojlantirish tajribasiga xos bo‘lgan ilm-fan, ishlab chiqarish va innovatsion infratuzilmani integratsiyalash tamoyillarini O‘zbekiston mintaqalari sharoitida qo‘llash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Biroq ilg‘or xorijiy tajribani milliy iqtisodiyotga tatbiq etishda mamlakatlar o‘rtasidagi texnologik rivojlanish darajasi, sanoat ixtisoslashuvi, investitsion imkoniyatlar, ishlab chiqarish infratuzilmasi va institutsional muhitdagi farqlarni hisobga olish zarur. Xususan, Germaniyaning hududiy sanoat klasterlari va raqamli ishlab chiqarish tizimlari, Yaponiyaning tejamkor ishlab chiqarish texnologiyalari, Janubiy Koreyaning yuqori texnologik eksportga yo‘naltirilgan sanoat siyosati, Xitoyning maxsus iqtisodiy zonalari hamda Singapurning innovatsion sanoat infratuzilmasini rivojlantirish tajribalarini O‘zbekiston mintaqalarining resurs va ishlab chiqarish salohiyatiga moslashtirish alohida ilmiy tadqiqotni talab etadi.

Shu nuqtai nazardan, xorijiy mamlakatlarda yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini qiyosiy tahlil qilish, ularning iqtisodiy samaradorligini ta’minlovchi asosiy omillarni aniqlash hamda mintaqaviy sanoat tarmoqlariga tatbiq etish imkoniyatlarini asoslash dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda mintaqalarda yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish bo‘yicha Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy va Singapurning ilg‘or tajribalari qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, ilmiy umumlashtirish, iqtisodiy taqqoslash va mantiqiy tahlil usullaridan foydalanilgan. Xorijiy mamlakatlarda yuqori qo‘shilgan qiymat yaratishga ta’sir etuvchi texnologik modernizatsiya, xomashyoni chuqur qayta ishlash, sanoat klasterlari, innovatsion faoliyat va ishlab chiqarish kooperatsiyasini rivojlantirish mexanizmlari o‘rganilgan. Shu asosda ilg‘or xorijiy tajribalarning o‘ziga xos xususiyatlari tizimlashtirilib, ularni O‘zbekiston mintaqalarining sanoat ixtisoslashuvi

va resurs-ishlab chiqarish salohiyatiga moslashtirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlashga metodologik yondashuv shakllantirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiy nuqtai nazardan, qo‘shilgan qiymat mahsulot yoki xizmatning ishlab chiqarish qiymati bilan uni yaratish jarayonida sarflangan oraliq iste’mol qiymati o‘rtasidagi farqni ifodalaydi. U ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan yangi iqtisodiy qiymatni tavsiflab, mehnatga haq to‘lash, asosiy kapital iste’moli, ishlab chiqarishga sof soliqlar va operatsion foyda kabi tarkibiy qismlarni qamrab oladi. Shu jihatdan, qo‘shilgan qiymat sanoat korxonalari faoliyatining natijadorligini baholashda muhim iqtisodiy ko‘rsatkich hisoblanadi.

Mazkur yondashuvga ko‘ra, qo‘shilgan qiymatni oshirish faqat mahsulotning sotish narxini ko‘tarish bilan emas, balki ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish, resurslar sarfini optimallashtirish, mahsulot sifatini yaxshilash va qayta ishlash bosqichlarida yaratiladigan iqtisodiy natijani ko‘paytirish bilan ta’minlanadi.

Qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish ko‘p omilli iqtisodiy jarayon bo‘lib, uning samaradorligi ishlab chiqarishning texnologik darajasi, resurslardan foydalanish intensivligi, mehnat unumdorligi, innovatsion faollik va sanoat kooperatsiyasi bilan belgilanadi.

Birinchidan, ishlab chiqarishni texnologik modernizatsiyalash qo‘shilgan qiymat yaratishning muhim omili hisoblanadi. Zamonaviy uskunalar, avtomatlashtirilgan texnologik liniyalar va raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish mahsulot ishlab chiqarishdagi resurs sarfini kamaytirish, mehnat unumdorligini oshirish hamda yuqori sifatli tayyor mahsulotlar ulushini ko‘paytirish imkonini beradi.

Ikkinchidan, xomashyoni chuqur qayta ishlash darajasini oshirish mahsulot qiymatini shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Xomashyoni dastlabki qayta ishlash bilan cheklanmasdan, undan yarimtayyor va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga o‘tish qiymat zanjirining qo‘shimcha bosqichlarini shakllantiradi. Natijada ishlab chiqarish jarayonida yaratiladigan qo‘shilgan qiymat hajmini oshirish, yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va eksport tarkibida tayyor mahsulotlar ulushini ko‘paytirish imkoniyatlari kengayadi.

Uchinchidan, innovatsion faoliyat va ilmiy ishlanmalarni ishlab chiqarishga integratsiyalash yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishning muhim sharti hisoblanadi. Yangi texnologik yechimlar, mahsulot dizayni, sifat standartlari va intellektual mulk ob’ektlaridan foydalanish korxonalarning bozordagi raqobat ustunliklarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, sanoat kooperatsiyasi va qiymat zanjirlarini rivojlantirish ishlab chiqarishning turli bosqichlari o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlaydi. Xomashyo yetkazib berish, qayta ishlash, butlovchi qismlar ishlab chiqarish, tayyor mahsulot tayyorlash va uni realizatsiya qilish jarayonlarining o‘zaro muvofiqlashtirilishi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish hamda korxonalarning qo‘shilgan qiymat yaratish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, inson kapitali va mehnat unumdorligini oshirish yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqarishning asosiy shartlaridan biridir. Malakali muhandis-texnik kadrlar, texnologlar va innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislarni tayyorlash ishlab chiqarish jarayonlarining texnologik murakkabligini oshirish va yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirishda Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy va Singapur tajribasi muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Mintaqalarda yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish bo‘yicha ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribasi va ularning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari o‘rganildi.Bu haqidagi ma’lumotlarni quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadval).

1-jadval.

Mintaqalarda yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish bo‘yicha ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribasi.

Mamlakat	Yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish mexanizmlari	Mexanizmlarning amaliy mazmuni	Qo‘shilgan qiymat yaratishga iqtisodiy ta’siri
Germaniya	Hududiy sanoat klasterlari, “Industriya 4.0”, raqamli ishlab chiqarish va texnologik integratsiya	Sanoat korxonalari, ilmiy tadqiqot markazlari va universitetlar o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish; robotlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlari, raqamli boshqaruv va avtomatlashtirilgan texnologik jarayonlarni joriy etish; kichik va o‘rta korxonalarni sanoat qiymat zanjirlariga birlashtirish	Mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot birligiga sarflanadigan resurslarni kamaytirish, yuqori aniqlikdagi mashinasozlik va texnologik murakkab tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish orqali qo‘shilgan qiymat hajmini ko‘paytirish
Yaponiya	“Kaydzen”, tejamkor ishlab chiqarish, avtomatlashtirish va sifatni kompleks boshqarish	Ishlab chiqarish jarayonlarida ortiqcha xarajatlar va resurs yo‘qotishlarini qisqartirish; texnologik operatsiyalarni optimallashtirish; mahsulot sifatini doimiy nazorat qilish; yuqori aniqlikdagi uskunalar va	Ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish, mahsulot sifati va raqobatbardoshligini oshirish, resurslardan foydalanish samaradorligini kuchaytirish hamda yuqori qo‘shilgan qiymatli sanoat

		robotlashtirilgan texnologiyalardan foydalanish	mahsulotlari ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish
Janubiy Koreya	Eksportga yo‘naltirilgan sanoat siyosati, ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini moliyalashtirish, texnologik ixtisoslashuv	Elektronika, yarimo‘tkazgichlar, avtomobilsozlik va yuqori texnologik mashinasozlik tarmoqlarini rivojlantirish; davlat va xususiy sektor investitsiyalarini ilmiy ishlanmalarga yo‘naltirish; mahalliy korxonalarning xalqaro ishlab chiqarish zanjirlarida ishtirokini kengaytirish	Ilm-fan sig‘imi yuqori bo‘lgan mahsulotlar ulushini ko‘paytirish, texnologik bilimlar asosida yangi mahsulot turlarini o‘zlashtirish, eksport mahsulotlarining raqobat ustunliklarini mustahkamlash va yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish salohiyatini oshirish
Xitoy	Maxsus iqtisodiy zonalar, sanoat klasterlari, mahalliylashtirish, texnologik transfer va chuqur qayta ishlash tizimi	Hududlarda ixtisoslashgan sanoat zonalarini shakllantirish; xomashyo, butlovchi qismlar va tayyor mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalar o‘rtasida kooperatsiyani kuchaytirish; xorijiy texnologiyalarni o‘zlashtirish; ishlab chiqarish zanjirining yuqori texnologik bosqichlarini rivojlantirish	Mahalliy ishlab chiqarish zanjirlarini kengaytirish, xomashyoni qayta ishlash chuqurligini oshirish, tayyor mahsulotlar turlarini ko‘paytirish, ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish va hududlarda yaratiladigan qo‘shilgan qiymat hajmini oshirish
Singapur	Innovatsion sanoat infratuzilmasi, yuqori texnologik xorijiy investitsiyalar, ilmiy tadqiqot markazlari va texnologik parklar	Elektronika, biotexnologiya, farmatsevtika va aniq muhandislik tarmoqlarida yuqori texnologik ishlab chiqarishni tashkil etish; transmilliy kompaniyalar bilan texnologik hamkorlikni kuchaytirish; malakali kadrlar tayyorlash va ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish	Cheklangan tabiiy resurslar sharoitida yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, intellektual kapitaldan foydalanish samaradorligini oshirish, mahsulotlarning texnologik murakkabligini kuchaytirish va yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish

Mazkur tajribalarning umumiy jihati shundaki, yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish ishlab chiqarish hajmini mexanik ravishda ko‘paytirishga emas, balki mahsulotning texnologik murakkabligini oshirish, resurslardan foydalanish samaradorligini kuchaytirish va ishlab chiqarish qiymat zanjirining yuqori daromadli bosqichlarini o‘zlashtirishga asoslanadi.

Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston mintaqalarida Germaniyaning sanoat klasterlari va raqamlashtirish, Yaponiyaning tejamkor ishlab chiqarish, Janubiy Koreyaning innovatsion sanoat siyosati, Xitoyning chuqur qayta ishlash va sanoat kooperatsiyasi hamda Singapurning texnologik investitsiyalarni jalb etish tajribalarini hududiy ishlab chiqarish imkoniyatlariga moslashtirish maqsadga muvofiqdir.

Xorijiy tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirishda texnologik modernizatsiya, ilmiy-innovatsion faoliyat va sanoat kooperatsiyasi o‘zaro bog‘liq iqtisodiy mexanizmlar sifatida namoyon bo‘ladi. Ularning samarali uyg‘unlashuvi ishlab chiqarishning texnologik darajasini oshirish, mahsulotlarning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini mustahkamlash hamda iqtisodiyotning yuqori qiymat yaratuvchi tarmoqlarga tarkibiy transformatsiyalashuvini ta’minlaydi.

O‘zbekiston mintaqalarida yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirishda hududlarning mavjud resurs salohiyati, sanoat ixtisoslashuvi, ishlab chiqarish infratuzilmasi va investitsion imkoniyatlarini hisobga olgan holda differensial yondashuvni qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Bunda mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlashga ixtisoslashgan sanoat korxonalarini rivojlantirish, texnologik qayta ishlash bosqichlarini kengaytirish, yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga investitsiyalarni jalb etish va hududiy sanoat kooperatsiyasini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, mintaqalarda yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish samaradorligini baholashda quyidagi iqtisodiy ko‘rsatkichlardan kompleks foydalanish maqsadga muvofiq:

- yalpi ishlab chiqarish hajmida qo‘shilgan qiymat ulushi;
- bir nafar band xodimga to‘g‘ri keladigan qo‘shilgan qiymat;
- mahsulotlarni texnologik qayta ishlash darajasi;
- sanoat mahsulotlari eksportida yuqori texnologik tayyor mahsulotlar ulushi;
- ishlab chiqarishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish darajasi.

Mazkur ko‘rsatkichlar asosida mintaqalarning yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish salohiyatini baholash, sanoat tarmoqlaridagi mavjud iqtisodiy imkoniyatlarni aniqlash hamda rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash mumkin.

Jumladan, Germaniyada yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish sanoat korxonalari, ilmiy tadqiqot muassasalari va texnologik markazlar o‘rtasidagi integratsiyaga asoslangan hududiy innovatsion tizimlar orqali amalga oshirilmoqda. Mamlakatda mashinasozlik, avtomobilsozlik, elektrotexnika va aniq mexanika tarmoqlarida ixtisoslashgan sanoat klasterlarining shakllanishi mahsulotlarning texnologik murakkabligini oshirish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish hamda korxonalar o‘rtasidagi kooperatsiyani kuchaytirish imkonini bergan. Ayniqsa, Industrie 4.0 konsepsiyasi doirasida raqamli texnologiyalar, intellektual ishlab chiqarish tizimlari va

avtomatlashtirilgan texnologik jarayonlarni joriy etish yuqori qo‘shilgan qiymat yaratishning muhim vositasi sifatida qaralmoqda.

Yaponiya tajribasida esa yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirishning asosiy xususiyati ishlab chiqarish jarayonlarini uzluksiz takomillashtirish, resurslardan tejamkor foydalanish, mahsulot sifatini oshirish va texnologik innovatsiyalarni sanoat korxonalari faoliyatiga integratsiyalash bilan tavsiflanadi. Xususan, Kaizen va tejamkor ishlab chiqarish tamoyillarining joriy etilishi ishlab chiqarishdagi ortiqcha xarajatlarni kamaytirish, texnologik jarayonlar samaradorligini oshirish va mahsulotning raqobat ustunliklarini mustahkamlashga xizmat qilgan. Mazkur tajriba yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish faqat yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish emas, balki mavjud texnologik imkoniyatlardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali ham ta’minlanishini ko‘rsatadi.

Janubiy Koreyada yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish eksportga yo‘naltirilgan sanoatlashtirish, ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga investitsiyalarni kengaytirish hamda yuqori texnologik tarmoqlarni davlat tomonidan maqsadli qo‘llab-quvvatlash mexanizmlariga asoslangan. Elektronika, yarimo‘tkazgichlar, avtomobilsozlik va yuqori aniqlikdagi mashinasozlik tarmoqlarining rivojlanishi mamlakatning xalqaro qiymat zanjirlarida yuqori texnologik mahsulotlar yetkazib beruvchi sifatidagi mavqeini mustahkamlagan. Bu tajriba mintaqaviy sanoat ixtisoslashuvini innovatsion faoliyat, texnologik kompetensiyalar va eksport bozorlari bilan uyg‘unlashtirish yuqori qo‘shilgan qiymat yaratishning muhim sharti ekanligini ko‘rsatadi.

Xitoy tajribasida yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish maxsus iqtisodiy zonalar, hududiy sanoat klasterlari, texnologik parklar va ishlab chiqarish kooperatsiyasi mexanizmlari bilan bevosita bog‘liq. Mamlakatda dastlab mehnat sig‘imi yuqori bo‘lgan ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirishga asoslangan sanoatlashtirish modeli bosqichma-bosqich texnologik murakkab mahsulotlar, elektron komponentlar, elektr uskunalari va yuqori texnologik tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan. Bunda mahalliy yetkazib beruvchilar tarmog‘ini shakllantirish, xorijiy texnologiyalarni o‘zlashtirish va ishlab chiqarishning turli bosqichlarini hududiy jihatdan integratsiyalash yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish imkoniyatlarini kengaytirgan.

Singapurning ilg‘or tajribasida esa yuqori qo‘shilgan qiymatli sanoatni rivojlantirish yuqori malakali inson kapitali, xorijiy investitsiyalar, ilmiy tadqiqot infratuzilmasi va xalqaro texnologik kompaniyalar bilan hamkorlikka asoslangan. Ayniqsa, elektronika, biotexnologiya va aniq muhandislik sohalarida ixtisoslashgan ishlab chiqarish tizimlarining shakllanishi cheklangan tabiiy resurslar sharoitida ham texnologik bilimlar va innovatsion imkoniyatlar hisobiga yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish mumkinligini namoyon etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish sanoat tarmoqlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish, mintaqalarning ishlab chiqarish salohiyatidan to‘liq foydalanish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi. Ilg‘or xorijiy tajribalardan kelib chiqib, O‘zbekiston mintaqalarida xomashyoni chuqur qayta ishlash, ishlab chiqarishni texnologik modernizatsiyalash, sanoat kooperatsiyasini kengaytirish va innovatsion infratuzilmani rivojlantirishga asoslangan kompleks tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. Tadbirkorlar bilan ochiq muloqotdagi nutq. - 2023-yil 18-avgust. - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti: www.president.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. “Sanoat uchun muhim minerallar bo‘yicha axborot berildi”. - 2025 yil 7 mart. - URL: https://president.uz/uz/lists/view/7930.

3. World Bank. World Development Report 2020: Trading for Development in the Age of Global Value Chains. - Washington, DC: World Bank, 2020. - DOI: 10.1596/978-1-4648-1457-0.

4. V.Kummritz, D.Taglioni, D.Winkler Economic Upgrading through Global Value Chain Participation: Which Policies Increase the Value Added Gains? - World Bank Policy Research Working Paper No. 8007. - Washington, DC: World Bank, 2017.

Muallif(lar) haqida/Сведения об авторе/Author details

Arslonov Karamat Gulomovich Qashqadaryo viloyat soliq boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i / Арслонов Карамат Гуломович Начальник отдела Кашкадарьинской областной налоговой администрации / Arslonov Karamat Gulomovich Head of a Department at the Kashkadarya Regional Tax Administration

E-mail: arslonovkaramat@gmail.com

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.10.10.2026.29 *Inson kapitali iqtisodiyoti*

SAMARALI BANDLIKNI TA’MINLASH — KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHNING ASOSIY OMILI SIFATIDA

Abruyev Abdumalik Oynazarovich

ENSURING EFFECTIVE EMPLOYMENT AS A KEY FACTOR IN POVERTY REDUCTION

Abruyev Abdumalik Oynazarovich

ОБЕСПЕЧЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОЙ ЗАНЯТОСТИ КАК ОСНОВНОЙ ФАКТОР СОКРАЩЕНИЯ БЕДНОСТИ

Абруев Абдумалик Ойназарович

Annotatsiya. Mazkur maqolada samarali bandlikni ta’minlashning kambag‘allikni qisqartirishdagi o‘rni va iqtisodiy ahamiyati tadqiq etilgan. Tadqiqotda aholi bandligini oshirish, mehnat resurslaridan samarali foydalanish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, mehnat unumdorligini oshirish va aholi daromadlarini ko‘paytirish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tahlil qilingan. Samarali bandlikning nafaqat ish bilan ta’minlanganlik darajasini oshirish, balki barqaror va munosib daromad keltiruvchi ish o‘rinlarini shakllantirishga yo‘naltirilishi kambag‘allikni qisqartirishning muhim sharti sifatida asoslangan. Shuningdek, bandlik siyosatini takomillashtirish, kasbiy tayyorgarlikni kuchaytirish, tadbirkorlikni rivojlantirish hamda mehnat bozorining hududiy xususiyatlarini hisobga olish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: samarali bandlik, kambag‘allik, mehnat bozori, ish o‘rinlari, aholi daromadlari, mehnat unumdorligi, bandlik siyosati, inson kapitali, tadbirkorlik, mehnat resurslari.

Abstract. This article examines the role and economic significance of ensuring effective employment in poverty reduction. The study analyzes the interrelationship between increasing employment, making efficient use of labor resources, creating new jobs, improving labor productivity, and increasing household incomes. It substantiates that effective employment should be aimed not only at increasing the employment rate but also at creating sustainable jobs that provide decent incomes, which is an important condition for poverty reduction. Furthermore, recommendations have been developed to improve employment policies, strengthen vocational training, promote entrepreneurship, and take into account the regional characteristics of the labor market.

Keywords: effective employment, poverty, labor market, jobs, household incomes, labor productivity, employment policy, human capital, entrepreneurship, labor resources.

Аннотация. В данной статье исследуются роль и экономическое значение обеспечения эффективной занятости в сокращении бедности. В исследовании проанализирована взаимосвязь между повышением уровня занятости населения, эффективным использованием трудовых ресурсов, созданием новых рабочих мест, повышением производительности труда и увеличением доходов населения. Обосновано, что ориентация эффективной занятости не только на повышение уровня трудоустройства, но и на формирование устойчивых рабочих мест, обеспечивающих достойный доход, является важным условием сокращения бедности. Кроме того, разработаны предложения по совершенствованию политики занятости, усилению профессиональной подготовки, развитию предпринимательства и учёту региональных особенностей рынка труда.

Ключевые слова: эффективная занятость, бедность, рынок труда, рабочие места, доходы населения, производительность труда, политика занятости, человеческий капитал, предпринимательство, трудовые ресурсы.

KIRISH

Bugungi kunda kambag‘allikni qisqartirish dunyoning ko‘plab mamlakatlari uchun ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Kambag‘allik darajasini pasaytirishda aholiga moddiy yordam ko‘rsatish bilan bir qatorda, fuqarolarning barqaror daromad manbalariga ega bo‘lishini ta’minlash alohida ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, samarali bandlikni shakllantirish aholining iqtisodiy faolligini oshirish, mehnat daromadlarini ko‘paytirish va oilalarning o‘z daromadlari hisobidan munosib turmush darajasiga erishish imkoniyatlarini kengaytiruvchi muhim mexanizm hisoblanadi.

O‘zbekistonda ham kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligini ta’minlash davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Mehnat bozorida yangi ish o‘rinlarini yaratish, ishsiz fuqarolarni

kasb-hunarga o‘qitish, tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, o‘zini o‘zi band qilish imkoniyatlarini kengaytirish hamda hududlarda iqtisodiy faollikni oshirish orqali aholining barqaror daromad manbalarini shakllantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholi bandligini ta’minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” [1] gi Qarorida Respublikada har yili aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha tasdiqlanadigan dasturlarni amalga oshirish, bo‘sh va kvotalanadigan ish o‘rinlariga ishga joylashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, o‘zini o‘zi band qilishning samarali shakllarini rivojlantirish borasida ta’sirchan chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Bu chora-tadbirlarni maqsadli amalga oshirish samarali ish bilan ta’minlanish va kambag‘allikni qisqartirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Kambag‘allik va bandlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik iqtisodiy adabiyotlarda keng o‘rganilgan. Xususan, N.Baporikar “Cooperative Model as Organizational Mechanism for Poverty Reduction and Economic Development”[2] nomli maqolasida qashshoqlikni kamaytirish va iqtisodiy rivojlanish rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning diqqat markazida bo‘lganligi sababli Namibiya mamlakati o‘rganilgan. Ushbu tadqiqotning maqsadi qishloq xo‘jaligi kooperativ modelining elementlarini qashshoqlikni kamaytirish va iqtisodiy rivojlanishning tashkiliy mexanizmi sifatida aniqlash va tahlil qilish edi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, kooperativlar hali ham ko‘plab muammolarga duch kelmoqdalar va tavsiyalar orasida hukumat va boshqa manfaatdor tomonlarning kapital bilan ta’minlash, o‘qitish va yer sotib olish uchun qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari kiradi. Olimlar kambag‘allikni qisaqartirish maqsadida qishloq xo‘jaligida ish o‘rinlarini yaratishni tavsiya qilishgan hamda kambag‘allikni qisqartishning faqat iqtisodiy tomonlarini emas, balki huquqiy bazasini yaratish va rag‘batlantirishlarni ham amalga oshirtishni xulosa qilishgan.

Y.Bastiansen, T.Herdt va B.Exelle “Poverty reduction as a local institutional process”[3] nomli maqolasida “Qashshoqlik bu ma’lum bir guruh odamlarga xos xususiyat emas; u, aksincha, ma’lum bir vaqtning o‘zida odamlar o‘zlarini topishlari mumkin bo‘lgan muayyan vaziyatni tavsiflaydi.”, deb ta’riflagan. Olimlar qashshoqlikning individual belgilari va institutsional determinantlarini farqlab berishgan.

Olimlar Nikaragua va Kamerunda to‘plangan tajribalar asosida batafsilroq o‘rgangan. Ushbu ikkita holat tashqi dasturlarning mahalliy institutsional kontekst bilan o‘zaro ta’sirini o‘rganish imkoniyatini taqdim etgani uchun tanlangan. Bular rivojlanish aralashuvlarining mahalliy institutsional singdirilishiga xos bo‘lgan murakkablik va paradokslar bilan bog‘liq bizning argumentimizning yorqin misollari. Shuningdek, ular tashqi tomondan noto‘g‘ri institutsional o‘zgarishlarni rag‘batlantirish imkoniyatlari va cheklovlari haqidagi tushunchamizning siyosat oqibatlari haqida fikr yuritish imkoniyatini beradi.

Robert Boyer “Growth strategies and poverty reduction: the institutional complementarity hypothesis”[4] nomli maqolada, asosan, qashshoqlikka qarshi strategiyalarni iqtisodiy o‘sishdan mustaqil deb hisoblaydigan va asosan bozor mexanizmlariga tayanadigan siyosatlarning chegaralaridan boshlanadi. Bunga qarshi ravishda, yangi institutsional iqtisodiyotning bir yo‘nalishi shuni ta’kidlaydiki, haqiqiy iqtisodiyotlar to‘liq koordinatsiya qiluvchi mexanizmlar to‘plamiga tayanadi va bu mexanizmlar bir-birini almashtiruvchi emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi xususiyatga ega deb tushuntirgan.

Maqolannig asosiy jihat shundaki, qashshoqlikka qarshi siyosatlar samarali bo‘ladi, agar ular o‘sish va qashshoqlikni kamaytirish dasturlari o‘rtasida o‘zaro mustahkamlovchi "fazilatli doiralar"ni shakllantirsa, ya’ni, iqtisodiy o‘sish ushbu dasturlarga asos bo‘lsa, o‘z navbatida, bu dasturlar ham o‘sishning tezligi va barqarorligini ta’minlaydi.

Mahalliy olimlarimizning ilmiy ishlarini tahlil iqladigan bo‘lsak, Q.Mirzayev va F.Shodiyevlarning “Kambag‘allikni qisqartirishning zamonaviy yo‘nalishlari”[5] nomli maqolasida kambag‘allikni qisqartirish jarayonida tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning roli va ularni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari yoritilgan. Muallif kambag‘allikning iqtisodiy, ijtimoiy, institutison omillar bilan uzviy bog‘liqligini asoslagan holda, xalqaro va milliy tajribalarni tahlil qiladi. Tadqiqotda iqtisodiy o‘sishning kambag‘allikni kamaytirishga ta’siri va iqtisodiy institutlarning ahamiyati, hamda O‘zbekiston sharoitida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan tashkiliy-iqtisodiy vositalar chuqur o‘rganilgan.

Z.Ramazanov “Kambag‘allikni qisqartirishga ta’sir qiluvchi tashkiliyiqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish”[6] nomli maqolada O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti rivojlanish uchun kambag‘allikni qisqartirishga ta’sir etuvchi tashkiliy iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish tushuntirildi, kambag‘allikni kamaytirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berildi hamda Respublika Prezidenti tomonidan aniq belgilab berilgan chora-tadbirlarni hisobga olgan holda iqtisodchilar ushbu konsepsiyani asoslab berishga harakat qilmoqdalar. mehnatga layoqatli aholining munosib mehnat asosida qashshoqlikdan mustaqil ravishda chiqib ketishi uchun qator chora-tadbirlar va shart-sharoitlarni aniqlashtirib o‘tildi.

S.Akbarova “Kambag‘allikni qisqartirishning nazariy asoslari”[7] nomli maqolasida kambag‘allikni qisqartirish tadqiqotida ekonometrik modellarni qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari sifatida omillarning ko‘pligi: aholining qarishi va migratsiya o‘zgarishlarining bugungi sharoitida yoshlar, ayollar, keksa ishchilar, shuningdek, past malakali ishchilar va ularga mos kuzatuvlar soni: yillik statistik ma’lumotlar, miqdor ko‘rsatkichlardan tashqari sifat ko‘rsatkichlarining mavjudligi: ishlab chiqilgan dastur hamda farmonlarning ta’sirini keltirish mumkin. Bu esa o‘z navbatida kambag‘allikni qisqartirish tadqiqotida ekonometrik modellarni qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlarga egaligini tasdiqlaydi.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda samarali bandlikning kambag‘allikni qisqartirishga ta’sirini aniqlash maqsadida tizimli yondashuv, taqqoslash, statistik tahlil, induksiya va deduksiya, iqtisodiy tahlil hamda mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Samarali bandlik, aholi daromadlari va kambag‘allik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik nazariy jihatdan o‘rganilib, bandlikning miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Shuningdek, yangi ish o‘rinlarini yaratish, mehnat unumdorligini oshirish, inson kapitalini rivojlantirish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning aholi daromadlariga ta’siri tizimli ravishda baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Samarali bandlikni ta’minlash kambag‘allikni qisqartirishning ajralmas iqtisodiy mexanizmlaridan biri bo‘lib, u aholining mehnat salohiyatidan samarali foydalanish va barqaror daromad manbalarini shakllantirish imkonini beradi. Aholining doimiy va munosib ish o‘rinlari bilan ta’minlanishi uy xo‘jaliklarining daromadlarini oshirib, ularning asosiy ehtiyojlarini mustaqil ravishda qondirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, bandlikning yuqori darajasi iqtisodiy faollikni kuchaytiradi, iste’mol talabini oshiradi hamda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun kambag‘allikni qisqartirish siyosatida aholiga moddiy yordam ko‘rsatish bilan bir qatorda, ularni barqaror va daromadli mehnat faoliyatiga jalb etish ustuvor yo‘nalish sifatida qaralishi lozim.

Samarali bandlikning kambag‘allikni qisqartirishdagi ta’siri ish o‘rinlarining soni bilan bir qatorda ularning sifati, barqarorligi, daromadliligi va xodimlarning mehnat unumdorligi bilan ham belgilanadi. Ayniqsa, zamonaviy mehnat bozori talablariga mos kasbiy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan aholining ulushini oshirish, yuqori qo‘shilgan qiymat yaratuvchi tarmoqlarda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish, tadbirkorlik va o‘zini o‘zi band qilish imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonlar orqali aholi daromadlarining barqaror o‘sishi, inson kapitalining rivojlanishi va iqtisodiy mustaqillikning kuchayishi ta’minlanadi.




1-rasm. Samarali bandlikni ta’minlashning afzalliklari[74]

Samarali bandlikni ta’minlashning muhim afzalliklaridan biri aholining barqaror daromad manbaiga ega bo‘lishini ta’minlash orqali kambag‘allikni qisqartirish imkoniyatlarini kengaytirishidir. Doimiy va munosib ish o‘rinlarining ko‘payishi aholining mehnat daromadlarini oshirib, uy xo‘jaliklarining iste’mol imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, kasbiy malaka va ko‘nikmalarning rivojlanishi mehnat unumdorligini oshirib, xodimlarning yuqori daromadli ish o‘rinlariga ega bo‘lish imkoniyatini kuchaytiradi. Natijada inson kapitalining rivojlanishi, aholi farovonligining yaxshilanishi va kambag‘allik xavfining pasayishi uchun iqtisodiy asos shakllanadi.

Samarali bandlikning yana bir muhim jihati uning iqtisodiy faollikni kengaytirish orqali mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatishidir. Band aholining daromadlari ortishi bilan iste’mol talabi kengayadi, bu esa tovar va xizmatlarga bo‘lgan talabning oshishiga hamda tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishiga turtki beradi. Yangi korxonalar va xizmat ko‘rsatish subyektlarining tashkil etilishi esa qo‘shimcha ish o‘rinlarining yaratilishiga olib keladi. Shu tariqa samarali bandlik daromadlarning oshishi, kambag‘allikning qisqarishi, inson kapitalining rivojlanishi, mehnat unumdorligining ortishi va iqtisodiy faollikning kengayishi orqali o‘zaro bog‘liq ijobiy iqtisodiy ta’sirlar tizimini shakllantiradi.

[74] Mavzuga oid adabiyotlar asosida muallif ishlanmasi



2-rasm. Samarali bandlikni ta’minlashda yuzaga kelayotgan muammolar[75]

Samarali bandlikni ta’minlashda asosiy muammolardan biri mehnat bozori talabi bilan ishchi kuchining malaka va ko‘nikmalari o‘rtasidagi nomutanosiblik hisoblanadi. Iqtisodiyotda raqamli texnologiyalar, zamonaviy xizmatlar, ishlab chiqarish va boshqaruv sohalarining rivojlanishi yangi kasbiy kompetensiyalarga bo‘lgan talabni oshirmoqda. Biroq mehnat bozoriga kirib kelayotgan ayrim fuqarolarning bilim va ko‘nikmalari ish beruvchilar talabiga to‘liq mos kelmasligi natijasida mavjud bo‘sh ish o‘rinlari bilan ish izlovchilar o‘rtasida tafovut yuzaga keladi. Shu sababli kasbiy ta’lim va qayta tayyorlash tizimini mehnat bozorining real ehtiyojlari bilan yanada yaqinlashtirish zarur. Bunda ta’lim dasturlarini ish beruvchilar ishtirokida shakllantirish, amaliy ko‘nikmalarga e’tiborni kuchaytirish va zamonaviy kasblar bo‘yicha qisqa muddatli o‘quv dasturlarini kengaytirish muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchi muammo yuqori daromadli va barqaror ish o‘rinlarining yetarli darajada yaratilmasligi bilan bog‘liq. Aholini ish bilan ta’minlashning o‘zi samarali bandlikni anglatmaydi, chunki past daromadli, mavsumiy yoki beqaror ish bilan band bo‘lgan fuqarolarning iqtisodiy imkoniyatlari cheklangan bo‘lib qolishi mumkin. Shuningdek, norasmiy bandlik mehnat munosabatlarining barqarorligi, ijtimoiy himoya va kelajakdagi pensiya ta’minoti bilan bog‘liq muammolarni yuzaga keltiradi. Shu sababli yangi ish o‘rinlarini yaratishda ularning soni bilan bir qatorda ish haqi darajasi, mehnat sharoitlari, ijtimoiy kafolatlar va mehnat unumdorligi kabi sifat ko‘rsatkichlarini ham hisobga olish talab etiladi.

Uchinchi muammo sifatida hududlar o‘rtasidagi bandlik imkoniyatlarining farqlanishini ko‘rsatish mumkin. Ayrim hududlarda sanoat, xizmat ko‘rsatish, savdo, turizm va tadbirkorlik faoliyati uchun imkoniyatlar nisbatan keng bo‘lsa, boshqa hududlarda iqtisodiy faoliyat turlarining cheklanganligi mehnat resurslaridan to‘liq foydalanishga to‘sqinlik qiladi. Natijada ish izlovchilarning boshqa hududlarga vaqtinchalik yoki doimiy migratsiyasi kuchayishi mumkin. Ushbu muammoni kamaytirish uchun hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuviga asoslangan bandlik dasturlarini ishlab chiqish, mahalliy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va infratuzilmani rivojlantirish muhimdir.

Umuman, mazkur muammolar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularni alohida emas, yagona mehnat bozori tizimi doirasida hal qilish talab etiladi. Buning uchun mehnat bozori ehtiyojlarini muntazam monitoring qilish, kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish, yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan tarmoqlarda ish o‘rinlarini ko‘paytirish, norasmiy bandlikni qisqartirish hamda hududiy iqtisodiy imkoniyatlardan samarali foydalanish zarur. Bunday yondashuv bandlikning nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatdan ham yaxshilanishiga va natijada aholi daromadlarining barqaror oshishiga xizmat qiladi.

Yuqoridagi muammolarga barham berish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2025-yilda aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[8]gi qarorida bandlikni tam’minlash va aholining kambag‘al qatlamdan chiqarish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilangan. Xususan, har bir mahallada kichik ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, qishloq xo‘jaligi yo‘nalishlarida o‘rtacha 40 tadan jami 377,6 mingta mikroloyihalarni amalga oshirish; 30 ta tumanda baliqchilik, quyonchilik, chorvachilik, parrandachilik hamda asalarichilik yo‘nalishida aholi xonadonlari bilan kooperatsiya asosida yangi loyihalarni amalga oshirish, Respublika bo‘ylab har bir mahallada 10 tadan xonadonga yiliga 60 — 70 mln so‘m kafolatli daromad keltiradigan loyihalar paketini taqdim etish, kambag‘al oilalar tomonidan yetishtirilgan mahsulotlarni

[75] Mavzuga oid adabiyotlar asosida muallif ishlanmasi

sotishni rag‘batlantirish, kunlik mehnat markazlari faoliyatini transformatsiya qilish orqali aholi bandligiga ko‘maklashish; “Mahalla loyihasi” dasturini amalga oshirish orqali 250 ming nafar aholining daromadini oshirish maqsadlari belgilangan. Natijada “mamlakatimizda kambag‘allikni qisqartirish va aholi daromad manbalarini kengaytirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan tizimli chora-tadbirlar o‘z samarasini bermoqda. Xususan, izchil islohotlar natijasida 11 million nafar aholi kambag‘allikdan chiqarilib, kambag‘allik darajasi 4,2 foizgacha pasaytirildi”[9].

Bunda bandlikning samaradorligi faqat ish bilan ta’minlangan shaxslar soni orqali emas, balki ularning oladigan daromadi, mehnat unumdorligi, ishning davomiyligi va barqarorligi orqali ham namoyon bo‘ladi. Shu sababli kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan bandlik siyosati yangi ish o‘rinlarini yaratish bilan bir qatorda mavjud ish o‘rinlarining iqtisodiy samaradorligini oshirishga ham yo‘naltirilishi kerak.

1-jadval.

Samarali bandlikning kambag‘allikni qisqartirish mexanizmi[76]

Samarali bandlik yo‘nalishi	Iqtisodiy ta’sir mexanizmi	Kambag‘allikka ta’siri
Yangi ish o‘rinlarini yaratish	Mehnatga jalb qilingan aholi soni ortadi	Daromadsiz yoki past daromadli aholi ulushi kamayadi
Mehnat unumdorligini oshirish	Bir ishchiga to‘g‘ri keladigan qo‘shilgan qiymat ortadi	Ish haqi va mehnat daromadlari oshishi uchun sharoit yaratiladi
Kasbiy malakani rivojlantirish	Mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan mutaxassislar soni ko‘payadi	Barqaror va yuqori daromadli ishga joylashish imkoniyati oshadi
Tadbirkorlikni rivojlantirish	Mustaqil daromad manbalari va qo‘shimcha ish o‘rinlari paydo bo‘ladi	Uy xo‘jaliklarining iqtisodiy mustaqilligi kuchayadi
Norasmiy bandlikni qisqartirish	Mehnat munosabatlari rasmiylashadi	Ijtimoiy himoya va barqaror daromad kafolatlari kengayadi

1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, samarali bandlik kambag‘allikni qisqartirishga bir nechta kanallar orqali ta’sir ko‘rsatadi. Birinchidan, yangi ish o‘rinlarining yaratilishi iqtisodiy faol aholining mehnat jarayoniga jalb etilishini kuchaytiradi. Ikkinchidan, mehnat unumdorligining oshishi korxonalarning iqtisodiy samaradorligini yaxshilab, xodimlar daromadlarini oshirish imkoniyatini yaratadi. Uchinchidan, kasbiy malakaning rivojlanishi aholining mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshiradi.

Samarali bandlikning birinchi mexanizmi — barqaror ish o‘rinlarini yaratish. Kambag‘allikni qisqartirishning eng muhim shartlaridan biri aholining doimiy va barqaror daromad manbaiga ega bo‘lishidir. Shu sababli yangi ish o‘rinlarini yaratish bandlik siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Biroq ish o‘rinlarining soni bilan bir qatorda ularning sifati ham muhim. Masalan, vaqtinchalik, mavsumiy yoki juda past daromadli ish o‘rinlari aholining kambag‘allikdan chiqishini to‘liq ta’minlamasligi mumkin. Shu bois yangi ish o‘rinlari iqtisodiyotning yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan tarmoqlarida shakllantirilishi maqsadga muvofiq.

Sanoat, xizmat ko‘rsatish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, logistika, turizm, zamonaviy qishloq xo‘jaligi va qayta ishlash tarmoqlarining rivojlanishi nisbatan yuqori daromadli bandlik imkoniyatlarini kengaytiradi. Ayniqsa, hududlarning iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqib ixtisoslashgan ish o‘rinlarini yaratish mahalliy mehnat resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradi.

Samarali bandlikning ikkinchi mexanizmi — inson kapitalini rivojlantirish. Mehnat bozorida zamonaviy kasblarga bo‘lgan talabning ortishi aholining kasbiy malakasini muntazam oshirib borishni talab etmoqda. Mehnat bozoridagi talab va taklif o‘rtasidagi nomutanosiblik ayrim fuqarolarning ish topish imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Shu sababli kasbiy ta’lim tizimini iqtisodiyotning real ehtiyojlari bilan uyg‘unlashtirish samarali bandlikni ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Kasb-hunar o‘rgatish, qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlarining rivojlantirilishi aholining mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshiradi. Ayniqsa, yoshlar, ayollar va mehnat bozoriga endigina kirib kelayotgan fuqarolarning zamonaviy kasblarni egallashi ularga barqaror daromad keltiruvchi faoliyat turlariga kirish imkonini kengaytiradi. Natijada inson kapitalining sifati oshib, mehnat unumdorligi va daromadlar o‘sishiga zamin yaratiladi.

Samarali bandlikning uchinchi mexanizmi — tadbirkorlik va o‘zini o‘zi band qilishni rivojlantirish. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish aholini nafaqat ish bilan ta’minlash, balki yangi ish o‘rinlarini yaratish imkonini ham beradi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi aholining mustaqil daromad manbalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, mehnat bozorida ish topish imkoniyati cheklangan hududlarda mikro va kichik tadbirkorlikni rivojlantirish bandlik muammolarini yumshatishning samarali vositasi bo‘lishi mumkin.

Bunda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash faqat kredit ajratish bilan cheklanmasligi kerak. Biznes yuritish ko‘nikmalarini shakllantirish, marketing va raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning bozorlarga chiqishini ta’minlash ham muhimdir. Tadbirkorlik subyektlarining rivojlanishi natijasida yangi

[76] Mavzuga oid adabiyotlar asosida muallif ishlanmasi

ish o‘rinlari yaratiladi, uy xo‘jaliklari daromadlari ko‘payadi va kambag‘allik xavfi kamayadi.

Samarali bandlik va aholi daromadlari o‘rtasidagi bog‘liqlik. Kambag‘allikni qisqartirish jarayonida aholi daromadlarining o‘sishi markaziy o‘rin egallaydi. Bandlikning daromadga ta’siri bandlikning oshishi; mehnat daromadlarining ko‘payishi; uy xo‘jaliklari daromadlarining ortishi, iste’mol va jamg‘arma imkoniyatlarining kengayishi; turmush darajasining yaxshilanishi ketma-ketlikda namoyon bo‘ladi:

Biroq ushbu jarayonning samaradorligi ish haqi va mehnat unumdorligi o‘rtasidagi nisbatga ham bog‘liq. Agar ish o‘rinlari soni oshib, ammo mehnat unumdorligi va daromadlar yetarli darajada ko‘paymasa, bandlikning kambag‘allikni qisqartirishdagi ta’siri cheklangan bo‘lishi mumkin. Shuning uchun zamonaviy bandlik siyosatida “har qanday ish bilan ta’minlash” tamoyilidan “samarali va munosib ish bilan ta’minlash” tamoyiliga bosqichma-bosqich o‘tish muhim.

Xulosa va takliflar

Samarali bandlikni ta’minlash kambag‘allikni qisqartirishning muhim iqtisodiy mexanizmlaridan biridir. Chunki barqaror ish o‘rni aholiga doimiy daromad olish, iste’mol imkoniyatlarini kengaytirish, jamg‘arma shakllantirish va o‘zining iqtisodiy farovonligini mustaqil ravishda yaxshilash imkonini beradi. Shu sababli kambag‘allikni qisqartirish siyosatini faqat ijtimoiy yordam mexanizmlari bilan cheklamasdan, aholining mehnat salohiyatini iqtisodiy jarayonlarga faol jalb etishga yo‘naltirish muhim.

Tahlil natijalari samarali bandlikni shakllantirishda uchta asosiy yo‘nalish — barqaror va munosib ish o‘rinlarini yaratish, inson kapitalini rivojlantirish hamda tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu yo‘nalishlarning o‘zaro uyg‘unligi mehnat unumdorligini oshirish va aholi daromadlarini ko‘paytirish orqali kambag‘allikni qisqartirishga xizmat qiladi.

Shundan kelib chiqib, birinchidan, hududlarda yangi ish o‘rinlarini yaratishda ularning soni bilan bir qatorda daromadlilik va barqarorlik ko‘rsatkichlarini ham hisobga olish; ikkinchidan, kasbiy ta’lim dasturlarini mehnat bozoridagi real talab bilan bog‘lash; uchinchidan, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy hamda maslahat xizmatlari bilan qo‘llab-quvvatlash; to‘rtinchidan, norasmiy bandlikni bosqichma-bosqich qisqartirish; beshinchidan, hududlarning ixtisoslashuviga asoslangan bandlik dasturlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Natijada bandlik siyosatining asosiy maqsadi faqat ishsizlikni kamaytirish emas, balki aholining barqaror, samarali va yetarli daromad keltiruvchi mehnat faoliyatini ta’minlashga yo‘naltiriladi. Bunday yondashuv aholi daromadlarini oshirish, iqtisodiy faollikni kuchaytirish va kambag‘allikni barqaror ravishda qisqartirish uchun zarur iqtisodiy sharoitlarni shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

[1]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholi bandligini ta’minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori, 14.07.2018 yildagi PQ-3856-son https://www.lex.uz/docs/-3824637

[2]. Neeta Baporikar “Cooperative Model as Organizational Mechanism for Poverty Reduction and Economic Development” International Journal of Applied Management Theory and Research. 2021 Pages: 22 https://www.igi-global.com/article/cooperative-model-as-organizational-mechanism-for-poverty-reduction-and-economic-development/279655

[3]. Yoxan Bastiansen, Tom De Herdt va Ben D’Exelle “Poverty reduction as a local institutional process” World Development Volume 33, Issue 6, June 2005, Pages 979-993 https://doi.org/10.1016/j.worlddev.2004.09.019

[4]. Robert Boyer “Growth strategies and poverty reduction: the institutional complementarity hypothesis” 2007 https://shs.hal.science/halshs-00587703/

[5]. Mirzayev Q.J., Shoidiyev F.Q. “Kambag‘allikni qisqartirishning zamonaviy yo‘nalishlari” Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali 2025-yil, iyun. № 6-son. 610-614-betlar https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

[6]. Ramazanov Zafar “Kambag‘allikni qisqartirishga ta’sir qiluvchi tashkiliyiqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish” https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/54308

[7]. Akbarova Sayyora Shuxratovna “Kambag‘allikni qisqartirishning nazariy asoslari” Jurnal: Sharq uyg'onishi: innovatsion, ta'lim, tabiiy va ijtimoiy fanlar 2023 yil https://cyberleninka.ru/article/n/kambag-allikni-qisqartirishning-nazariy-asoslari

[8]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2025-yilda aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori 17.01.2025 yildagi PQ-12-son Yangi yondashuvlar asosida aholi bandligini ta’minlash, tadbirkorlikka jalb qilish hamda kambag‘allikdan chiqarish bo‘yicha “YO‘L XARITASI” https://lex.uz/uz/docs/-7327821#-7330378

[9]. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси Муносиб меҳнат ва самарали бандлик — аҳоли фаровонлигининг муҳим омили https://parliament.gov.uz/oz/news/munosib-mehnat-va-samarali-bandlik-aholi-farovonligining-muhim-omili

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Abruyev Abdumalik Oynazarovich “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi / Abruyev Abdumalik Oynazarovich Independent Researcher at the “Silk Road” International University of Tourism and Cultural Heritage / Абруев Абдумалик Ойназарович Независимый исследователь Международного университета туризма и культурного наследия «Шёлковый путь»
E-mail: abruevabdumalik@gmail.com

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.10.10.2026.30 *Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti*

REGENERATIV QISHLOQ XO‘JALIGIDA RESURSLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA FERMER XO‘JALIKLARINING IQTISODIY BARQARORLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Amirqulov Shuxrat Olimovich

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РЕСУРСОВ В РЕГЕНЕРАТИВНОМ СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ОЦЕНКИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ

Амиркулов Шухрат Олимович

IMPROVING THE EFFICIENCY OF RESOURCE UTILIZATION IN REGENERATIVE AGRICULTURE AND ENHANCING THE METHODOLOGY FOR ASSESSING THE ECONOMIC STABILITY OF FARMS

Amirkulov Shukhrat Olimovich

Annotatsiya: Maqolada FOLUR–O‘zbekiston loyihasi doirasida Xorazm, Qashqadaryo viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi tajriba hamda namoyish maydonlari misolida regenerativ qishloq xo‘jaligi tamoyillarini O‘zbekiston sharoitida joriy etishning iqtisodiy samaradorligi tizimli, qiyosiy va iqtisodiy tahlil asosida tadqiq etilib, tuproqqa ishlov berish texnologiyalarini optimallashtirish, suv resurslarini muqobil usullar orqali boshqarish, ekinlarni diversifikatsiya qilish natijasida moddiy-energetik resurslar sarfi va ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish, tuproq unumdorligi hamda tabiiy kapitalni tiklash, iqlimiy va bozor xatarlarini kamaytirish hamda fermer xo‘jaliklarining uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta’minlashga yo‘naltirilgan kompleks iqtisodiy mexanizm sifatidagi ilmiy-amaliy ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: regenerativ qishloq xo‘jaligi, agrar iqtisodiyot, resurslar samaradorligi, resurs tejamkor texnologiyalar, fermer xo‘jaligi, tuproq unumdorligi, suv resurslari, ekinlar diversifikatsiyasi, iqtisodiy barqarorlik, FOLUR–O‘zbekiston, raqamlashtirish.

Аннотация: В статье на основе системного, сравнительного и экономического анализа исследуется экономическая эффективност внедрения принципов регенеративного сельского хозяйства в условиях Узбекистана на примере экспериментальных и демонстрационных площадок Хорезмской и Кашкадарьинской областей, а также Республики Каракалпакстан в рамках проекта FOLUR–Узбекистан. Обоснована научно-практическая значимост регенеративного сельского хозяйства как комплексного экономического механизма, направленного на оптимизацию технологий обработки почвы, управление водными ресурсами посредством альтернативных методов, сокращение расхода материальных и энергетических ресурсов и производственных затрат за счёт диверсификации сельскохозяйственных культур, восстановление плодородия почв и природного капитала, снижение климатических и рыночных рисков, а также обеспечение долгосрочной экономической устойчивости и конкурентоспособности фермерских хозяйств.

Ключевые слова: регенеративное сельское хозяйство, аграрная экономика, эффективност использования ресурсов, ресурсосберегающие технологии, фермерское хозяйство, плодородие почв, водные ресурсы, диверсификация сельскохозяйственных культур, экономическая устойчивость, FOLUR–Узбекистан, цифровизация.

Abstract: This article examines the economic efficiency of implementing regenerative agriculture principles under the conditions of Uzbekistan through a systematic, comparative, and economic analysis of experimental and

demonstration sites in the Khorezm and Kashkadarya regions and the Republic of Karakalpakstan within the framework of the FOLUR–Uzbekistan project. The study substantiates the scientific and practical significance of regenerative agriculture as an integrated economic mechanism aimed at optimizing soil tillage technologies, managing water resources through alternative approaches, reducing material and energy resource consumption and production costs through crop diversification, restoring soil fertility and natural capital, mitigating climate-related and market risks, and ensuring the long-term economic sustainability and competitiveness of farms.

Keywords: regenerative agriculture, agricultural economics, resource-use efficiency, resource-saving technologies, farm enterprise, soil fertility, water resources, crop diversification, economic sustainability, FOLUR–Uzbekistan, digitalization.

KIRISH

Global agrar iqtisodiyotda tabiiy resurslar cheklanganligi, oziq-ovqatga bo‘lgan talabning ortishi va iqlim o‘zgarishi sharoitida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligi va barqarorligini ta’minlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda, zero, FOLUR xalqaro dasturi ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda loyiha qamrovidagi bug‘doy yetishtirish landshaftlari 350 ming gektar maydonni tashkil etadi, mamlakatdagi sug‘oriladigan yerlarning 56 foizi esa shamol eroziyasi ta’siriga uchrashi qayd etilgan; shu munosabat bilan, Xorazm, Qashqadaryo viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasida amalga oshirilayotgan FOLUR–O‘zbekiston loyihasi doirasida tuproqqa minimal ishlov berish, yomg‘ir suvlarini yig‘ish, suv tejovchi sug‘orish texnologiyalarini joriy etish va ekinlarni diversifikatsiya qilishga qaratilgan chora-tadbirlarning iqtisodiy samaradorligini baholash muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi; xususan, 2026 yildagi loyiha natijalariga ko‘ra, Qashqadaryo viloyatida yomg‘ir suvlarini yig‘ish texnologiyalari 3 ta tajriba maydonida, jami 6 gektar hududda joriy etilgan, shuningdek, loyiha doirasida fermerlar va tomorqa yer egalariga qariyb 60 tonna urug‘lik yetkazib berilgan, qo‘shimcha ravishda 320 tonna urug‘lik yetishtirilib tarqatilgan hamda Shahrisabz tumanida suv tanqisligi sharoitida qo‘shimcha suv manbaini shakllantirishga qaratilgan sun’iy muzlik texnologiyasi sinovdan o‘tkazilgan bo‘lib, mazkur tajribalar regenerativ qishloq xo‘jaligini resurslar sarfini optimallashtirish, tuproq unumdorligini tiklash, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va fermer xo‘jaliklarining uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligini ta’minlashga yo‘naltirilgan kompleks iqtisodiy mexanizm sifatida ilmiy baholash zaruratini belgilaydi

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning maqsadi regenerativ qishloq xo‘jaligi texnologiyalarini joriy etishning iqtisodiy samaradorligini baholash usullarini takomillashtirishdan iborat bo‘lib, FOLUR–O‘zbekiston loyihasi doirasida Xorazm, Qashqadaryo viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi tajribalar asosida resurslar tejalishi, ishlab chiqarish xarajatlari, suvdan foydalanish samaradorligi va iqtisodiy barqarorlik o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida regenerativ agrotexnologiyalarning iqtisodiy samaradorligini kompleks baholash mezonlarini shakllantirish, hududiy sharoitlarga mos texnologik yechimlarni tanlash va ularni fermer xo‘jaliklariga joriy etishning iqtisodiy maqsadga muvofiqligini asoslash orqali resurslar unumdorligi va xo‘jaliklarning uzoq muddatli raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotda tizimli yondashuv asosida regenerativ qishloq xo‘jaligi agrotexnologik, iqtisodiy va ekologik jarayonlarning o‘zaro bog‘liq tizimi sifatida qaraldi.

Tahlil uchun FOLUR–O‘zbekiston loyihasining Xorazm viloyati Yangihayot tumani, Qashqadaryo viloyati Qamashi va Shahrisabz tumanlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi amaliy tajribalari asos qilib olindi. FAO ma’lumotlarida ushbu hududlarda tuproqni muhofaza qiluvchi texnologiyalar, No-Till, yomg‘ir suvlarini yig‘ish, ekinlarni diversifikatsiya qilish va landshaftlarni tiklash bo‘yicha ishlar olib borilayotgani qayd etilgan.

Iqtisodiy samaradorlikni baholashda quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalanildi:

1. Resurslardan foydalanish samaradorligi. Regenerativ texnologiyada resurslardan foydalanish samaradorligini quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$R_s = \frac{Q}{R} \quad (1)$$

Bu yerda:

R_s — resurslardan foydalanish samaradorligi;

Q — olingan mahsulot hajmi yoki mahsulot qiymati;

R — mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan resurslar miqdori.

2. Ishlab chiqarish xarajatlarini tejash samarasi. An’anaviy va regenerativ texnologiyalarni taqqoslashda eng tushunarli ko‘rsatkichlardan biri xarajatlar tejamidir:

$$E_c = C_a - C_r \quad (2)$$

Bu yerda:

Ec — ishlab chiqarish xarajatlarining tejalishi;

Ca — an’anaviy texnologiyadagi xarajatlar;

Cr — regenerativ texnologiyadagi xarajatlar.

3. Xarajatlarni qisqartirish darajasi. Xarajat qancha foizga kamayganini aniqlash uchun:

$$\mathbf{Ec}_{\%} = \frac{\mathbf{C_a - C_r}}{\mathbf{C_a}} \mathbf{\ x\ 100} \quad (3)$$

4. Suvdan foydalanish iqtisodiy samaradorligi. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti uchun juda muhim ko‘rsatkich:

$$E_w = \frac{Y}{W} \quad (4)$$

Bu yerda:

Ew — suvdan foydalanish iqtisodiy samaradorligi;

Y — olingan mahsulot qiymati, so‘m;

W — sarflangan suv miqdori, m³.

5. Yoqilg‘i tejami. Tuproqqa qisqartirilgan ishlov berishda yoqilg‘i tejamini quyidagicha aniqlash mumkin:

Yoqilg‘i tejamini hisoblash formulasi:

$$E_{f\ =F_a-F_r} \quad (5)$$

Bu yerda:

Ef — yoqilg‘i tejami, l/ga;

F_a — an’anaviy texnologiyada yoqilg‘i sarfi, l/ga;

F_r — regenerativ texnologiyada yoqilg‘i sarfi, l/ga.

6. Mineral o‘g‘itlar tejami. Mineral o‘g‘itlar tejamini hisoblash formulasi:

$$E_f^{fert} = F_a^{fert} - F_r^{fert} \quad (6)$$

Bu yerda:

E_f^{fert}— mineral o‘g‘itlar tejami, kg/ga;

F_a^{fert} — an’anaviy texnologiyada mineral o‘g‘it sarfi, kg/ga;

F_r^{fert} — regenerativ texnologiyada mineral o‘g‘it sarfi, kg/ga.

7. Resurslar umumiy tejami. Bir nechta resurs bo‘yicha tejamni birgalikda baholash uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$Er=E_f+E_w+E_{fert}+E_l+E_m \quad (7)$$

Bu yerda:

Er — umumiy resurslar tejami;

E_f — yoqilg‘i sarfining tejalishi;

E_w — suv resurslari tejami;

E_{fert} — mineral o‘g‘itlar tejami;

E_l — mehnat resurslari tejami;

E_m — mashina-traktor resurslaridan foydalanish tejami.

Biroq bu ko‘rsatkichlarni litr, m³, kg va kishi-soat ko‘rinishida to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘shib bo‘lmaydi. Shuning uchun ularni pul qiymatiga o‘tkazib, keyin umumlashtirish to‘g‘ri bo‘ladi.

8. Regenerativ qishloq xo‘jaligining iqtisodiy samaradorligini hisoblash formulasi:

$$E_{RA}=\Delta C+\Delta R+\Delta Y+\Delta D-C_I \quad (8)$$

Bu yerda:

E_{RA} — regenerativ qishloq xo‘jaligining umumiy iqtisodiy samarasi;

ΔC — ishlab chiqarish xarajatlarining kamayishi;

ΔR — resurslardan foydalanish natijasidagi iqtisodiy tejam;

ΔY — hosildorlik yoki mahsulot qiymati o‘zgarishidan olingan qo‘shimcha iqtisodiy natija;

ΔD — diversifikatsiya natijasida risklarni kamaytirishdan olingan iqtisodiy samara;

C_I — regenerativ texnologiyani joriy etish uchun zarur investitsiya va qo‘shimcha xarajatlar.

Bu formula regenerativ qishloq xo‘jaligini faqat «xarajatni kamaytirish» emas, balki umumiy iqtisodiy natija nuqtai nazaridan baholash imkonini beradi.

9. Fermer xo‘jaligining sof iqtisodiy samarasini quyidagi formula orqali hisoblash mumkin.

$$E_N=R-C \quad (9)$$

Bu yerda:

E — sof iqtisodiy samara, so‘m;

R — mahsulotni realizatsiya qilishdan olingan jami daromad, so‘m;

C — mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bog‘liq jami xarajatlar, so‘m.

10. Rentabellik darajasi. Fermer xo‘jaligida eng muhim yakuniy ko‘rsatkichlardan biri:

$$R_p=\frac{E_n}{C} \text{ x } 100$$

Bu yerda:

R_p — rentabellik darajasi, %;

E_N — sof foyda;

C — ishlab chiqarish xarajatlari.

11. Ekinlar diversifikatsiyasi indeksi. Fermer xo‘jaligida ekinlar tarkibining diversifikatsiya darajasini baholash uchun HHI (Herfindahl–Hirschman Index) dan foydalanish mumkin:

$$HHI=\sum_{i=1}^{n} S_i^2 ;$$

Bu yerda:

S_i — i-ekinning umumiy ekin maydonidagi ulushi;

n — ekinlar soni.

FOLUR–O‘zbekiston loyihasi doirasida regenerativ qishloq xo‘jaligi texnologiyalarining iqtisodiy samaradorligini quyidagicha baholash mumkin:

1. Tadqiqotning hududiy va iqtisodiy asoslari: FOLUR–O‘zbekiston loyihasi doirasida Xorazm va Qashqadaryo viloyatlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida tuproq unumdorligini tiklash, suv resurslaridan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va qishloq xo‘jaligi ekinlarini diversifikatsiya qilishga qaratilgan agrotexnologik chora-tadbirlarning iqtisodiy samaradorligini baholash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur hududlarda suv tanqisligi, tuproq sho‘rlanishi, sug‘orish xarajatlari, yer resurslaridan foydalanish samaradorligi va iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq xatarlar regenerativ qishloq xo‘jaligi texnologiyalarini joriy etish zaruratini kuchaytiradi.

Tadqiqotda tizimli, qiyosiy-iqtisodiy va statistik yondashuvlardan foydalanib, quyidagi to‘rtta asosiy yo‘nalish baholanadi:

tuproqqa minimal ishlov berish va No-Till texnologiyasi;

yomg‘ir va qor suvlarini yig‘ish, saqlash hamda xo‘jalik ehtiyojlari uchun ishlatish;

tomchilatib sug‘orish va boshqa suv tejovchi texnologiyalar;

ekinlarni diversifikatsiya qilish va almashlab ekish tizimini takomillashtirish.

2. FOLUR–O‘zbekiston loyihasi bo‘yicha mavjud statistik ma’lumotlar: 2026-yil sentabrida e’lon qilingan loyiha maydonlari haqidagi ma’lumotlar Xorazmda tuproqqa ishlov berishni qisqartirish, Qashqadaryoda yomg‘ir suvlarini yig‘ish va mavsumiy suv zaxirasini shakllantirish, Qoraqalpog‘istonda esa qurg‘oqchilikka chidamli ekinlarni sinash bo‘yicha aniq miqdoriy ko‘rsatkichlarni taqdim etadi.

FOLUR–O‘zbekiston loyihasi doirasida Xorazm viloyatida yoqilg‘i sarfi 35 l/ga va ammofos sarfi 200

kg/ga kamaytirilgan, Qashqadaryo viloyatida 3 ta tajriba maydonining jami 6 gektarida yomg‘ir suvini yig‘ish texnologiyalari joriy etilgan hamda Shahrisabz tumanida muz zaxirasidan foydalanish orqali 1 000 m³ suv olish imkoniyati yaratilgan[77].

1-jadval

FOLUR–O‘zbekiston loyihasi iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili[78]

Hudud	Amalga oshirilayotgan chora-tadbir	Statistik dalil	Iqtisodiy baholash yo‘nalishi
Xorazm	Tuproqqa minimal ishlov berish, No-Till elementlari	35 l/ga yoqilg‘i va 200 kg/ga ammofos tejalishi	Yoqilg‘i va o‘g‘it xarajatlarining kamayishi
	Sug‘orish va agrotexnik operatsiyalarni qisqartirish	Sug‘orishlar 5 martadan 3 martaga kamaytirilgan	Suv, mehnat va texnika xarajatlarini kamaytirish
Qashqadaryo	Yomg‘ir suvini yig‘ish va tuproq namligini saqlash	3 ta maydon, jami 6 ga	Qo‘shimcha namlik, hosildorlik va tuproqni eroziyadan himoyalash
	Muz zaxirasi orqali mavsumiy suv ta’minoti	1 600 m³ muzdan taxminan 1 000 m³ foydalaniladigan suv	Suv ta’minotining mavsumiy uzilishlarini yumshatish
Qoraqalpog‘iston	Ekinlarni diversifikatsiya qilish	Bug‘doy, arpa, tritikale, javdar, mosh, no‘xat va maxsar sinovdan o‘tkazilmoqda	Daromad manbalarini kengaytirish va ishlab chiqarish xatarlarini kamaytirish

3. Xorazm viloyatida minimal ishlov berish texnologiyasining iqtisodiy samaradorligi. Xorazm viloyatidagi Yangibozor tumanida joylashgan “Baraka Baltimor” fermer xo‘jaligining 30 gektarlik tajriba maydonida paxta yetishtirishning an’anaviy va tuproqqa qisqartirilgan ishlov berish usullari taqqoslanmoqda. An’anaviy texnologiyada chizellash ikki marta bajarilsa, tajriba usulida bu operatsiya bekor qilingan. Boronalash va molalash operatsiyalari uch martadan bir martaga, sug‘orishlar esa besh martadan uch martaga qisqartirilgan.

3.1. Yoqilg‘i va mineral o‘g‘itlar tejamini hisoblash. Tadqiqotda keltirilgan formulalar asosida yoqilg‘i tejamini quyidagicha aniqlash mumkin:

$$\mathbf{E_f=F_a-F_r}$$

Mavjud loyiha ma’lumotiga ko‘ra: E_f=35 l/ga.

Agar texnologiya 30 gektarning barchasida qo‘llanilsa, shartli yillik yoqilg‘i tejalishi: E_f =35 x 30=1 050 litr.

Ammofos sarfi an’anaviy texnologiyadagi 300 kg/ga dan qisqartirilgan ishlov berishda 100 kg/ga gacha kamaytirilgan.

E_{fert} = 300-100=200 kg/ga;

30 gektar uchun shartli tejam: E_{fert} =200 x 30=6 000 tonna;

Xorazm viloyatidagi 30 gektar tajriba maydonida regenerativ texnologiyalarni qo‘llash natijasida 1 050 litr yoqilg‘i va 6 tonna ammofos tejalishiga erishilgan.

3.2. Xarajatlarni qisqartirish darajasi. Xarajatlar tejamini baholash uchun: $\mathbf{E_c=C_a-C_r}$ formulasidan foydalanish mumkin.

Bu yerda;

C_a — an’anaviy texnologiya xarajatlari, C_r — regenerativ texnologiya xarajatlari.

1. Yoqilg‘i tejamining pul qiymati: E_f=1050 x 15 500 =16 275 ming so‘m;

2. Ammofos tejamining pul qiymati: E_{fert} =6 x 7 100 000 = 42 600 ming so‘m

3. Jami xarajatlar tejami: = 16 275 ming so‘m + 42 600 ming so‘m = 58 875 ming so‘m.

Xorazm viloyatidagi 30 gektar tajriba maydonida yoqilg‘i va ammofos sarfining kamayishi hisobiga hisoblangan iqtisodiy tejam 58,875 mln so‘mni tashkil etadi. Ushbu natija faqat mazkur ikki resurs bo‘yicha tejamni ifodalaydi; boshqa ishlab chiqarish xarajatlari va texnologiyani joriy etish xarajatlari hisobga olinmagan.

3.3. Agrotexnik operatsiyalar va suv sarfining kamayishi. Sug‘orishlar sonining besh martadan uch martaga kamayishi: $E_{w,n\ frac}$ = 5-3 x100=40 %. Demak, tajriba maydonida sug‘orishlar soni bo‘yicha 40 foizlik qisqarish qayd etilgan. Bu suv hajmi ham aynan 40 foizga kamayganini anglatmaydi. Buni aniqlash uchun har bir sug‘orishda berilgan suv hajmi, sug‘orish meyori, yog‘in, tuproq namligi va ekinning suvga bo‘lgan talabi o‘lchanishi lozim.

1. Sug‘orishlar sonining qisqarishi: $E_{w,n\ frac}$ 5-3 x 100=40 %. Demak, sug‘orishlar soni 40% ga qisqargan.

2. Suv tejamini hisoblash: Agar 8 000 m³/ga — an’anaviy texnologiyadagi mavsumiy jami suv sarfi bo‘lsa va suv sarfi sug‘orishlar soniga mutanosib ravishda kamaygan deb faraz qilinsa:

Bir marta sug‘orishga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha suv hajmi: W_1= 8000 / 5 = 1600 m^3 / ga. Ikkita sug‘orishni qisqartirish hisobiga shartli suv tejami:

E_w=(5-3)\ x 1600 =3200 m^3 /ga.

Regenerativ texnologiyadagi shartli suv sarfi: W_r=8000-3200 = 4800 $m^{3/}$ ga. 30 gektar maydon uchun: E_w = 3200 x 30 = 96 000 m^3.

Natija: Hisob-kitobga ko‘ra, 30 gektar paxta maydonida shartli suv tejami 96 000 m³, ya’ni gektariga 3 200 m³ ni tashkil etadi.

Xuddi shuningdek, boronalash va molalash operatsiyalarining uch martadan bir martaga kamayishi

[77] UzDaily, 24.09.2026; FAO, 13.05.2026 va 12.02.2026.

[78] UzDaily.uz. malumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

tegishli operatsiyalar sonining 66,7 foizga qisqarganini ko‘rsatadi. Buning puldagi samarasi texnika ishlash vaqti, yoqilg‘i sarfi, ishchi kuchi va xizmat xarajatlari asosida aniqlanadi.

3.4. Hosildorlik va umumiy iqtisodiy natija. Tajriba maydonidagi paxta hosildorligi bo‘yicha 55–60 sentner/ga dastlabki prognoz e’lon qilingan. Bu yakuniy yig‘im-terim natijasi emas, shuning uchun uni amalda erishilgan hosildorlik deb ko‘rsatish mumkin emas.

Hosildorlikning iqtisodiy samaraga ta’sirini: $\Delta Y=(Q_r-Q_a)$ x P formulasi bilan aniqlash mumkin;

Bu yerda Q_r — regenerativ texnologiyadagi hosildorlik, Q_a\) — an’anaviy texnologiyadagi hosildorlik, P — mahsulotning sotish narxi.

Yakuniy sof iqtisodiy natija esa: **EN=R-C** formula orqali hisoblanadi.

Formula bo‘yicha daromadning o‘zgarishi bilan birga barcha ishlab chiqarish va realizatsiya xarajatlari hisobga olinadi. Shunday qilib, Xorazm tajribasida hozircha resurslardan foydalanishdagi fizik tejam aniq miqdorda ifodalanadi, ammo to‘liq iqtisodiy samaradorlikni tasdiqlash uchun hosildorlik va xarajatlar bo‘yicha yakuniy taqqoslama ma’lumotlar talab etiladi.

4. Qashqadaryo viloyatida yomg‘ir suvlarini yig‘ish va suv tejovchi texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligi

Qashqadaryo viloyatining Qamashi va Shahrisabz tumanlaridagi FOLUR–O‘zbekiston loyihasi tajribalari suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishning ikki muhim yo‘nalishini qamrab oladi: yog‘in suvlarini tuproqda saqlash va mavsumiy suv zaxirasini shakllantirish.

FAOning 2026-yil 13-maydagi ma’lumotiga ko‘ra, Qamashi tumanida yomg‘ir suvlarini yig‘ish texnologiyalari uchta tajriba maydonida, jami 6 gektar hududda joriy etilgan. Ularda yonbag‘irlarning qiyaligiga mos ravishda tosh bilan mustahkamlangan va mustahkamlanmagan gradoni terrasalar, ariqchalar, chuqurchalar hamda suv yo‘naltiruvchi tasmalardan foydalaniladi. Ushbu usullar tuproqda namlikni saqlash bilan birga suv eroziyasini kamaytirishga xizmat qiladi.

4.1. Yomg‘ir suvlarini yig‘ish texnologiyalarini iqtisodiy baholash. Mazkur texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligini suvdan foydalanish samaradorligi formulasi orqali baholash mumkin: $E_w= Y / W$;

Bu yerda: E_w — suvdan foydalanish iqtisodiy samaradorligi, so‘m/m³; Y — yetishtirilgan mahsulot qiymati, so‘m; W — sarflangan suv miqdori, m³.

Yomg‘ir suvlarini yig‘ish tizimining samaradorligini baholash uchun yig‘ilgan yog‘in suvi hajmi, tuproqda saqlangan namlik miqdori, o‘simliklar o‘zlashtirgan suv ulushi, qo‘shimcha hosildorlik, bir kub metr suv hisobiga yaratilgan mahsulot qiymati hamda suv yig‘ish inshootlarini qurish va saqlash xarajatlari aniqlanadi.

Masalan, yomg‘ir suvini yig‘ish natijasida sug‘orish uchun foydalaniladigan qo‘shimcha suv hajmi Ws ga teng bo‘lsa, uning iqtisodiy qiymati quyidagicha hisoblanadi: $V_w=Ws$ x P_w;

Bu yerda P_w — bir kub metr suvning iqtisodiy qiymati. Agar suvning xo‘jalik uchun bevosita tarif qiymati mavjud bo‘lmasa, uning qiymatini muqobil suv ta’minoti xarajatlari asosida aniqlash mumkin.

Muhim jihat: 6 gektarlik maydonda texnologiya joriy etilgani tasdiqlangan, ammo yig‘ilgan yomg‘ir suvi hajmi, hosildorlikning o‘zgarishi va xarajatlarning qisqarishi bo‘yicha ochiq manbalarda to‘liq raqamli qator keltirilmagan. Shu sababli ushbu texnologiya bo‘yicha iqtisodiy samarani hozircha so‘mda ishonchli hisoblash imkoni mavjud emas.

4.2. Shahrisabz tumanidagi muz zaxirasidan foydalanish tajribasi. Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz tumanidagi Sarchashma mahallasida qish mavsumida suvni muz holatida saqlash va bahor-yoz oylarida undan foydalanish texnologiyasi sinovdan o‘tkazilmoqda.

FAO va loyiha maydonlariga oid 2026-yilgi ma’lumotlarda to‘rtta muz inshootida 1 600 m³ muz hosil qilingani va erish jarayonida taxminan 1 000 m³ foydalanish mumkin bo‘lgan suv olingani qayd etilgan.

Suvning foydalanishga yaroqli chiqish ulushi: $K_w = W_u / V_i$ x 100 =1 000 / 1 600 x 100 =62,5\%. Demak, muz hajmining har 100 m³ iga o‘rtacha 62,5 m³ foydalanish mumkin bo‘lgan suv to‘g‘ri kelgan. Shahrisabz tumanida muz zaxirasi texnologiyasi asosida 1 600 m³ muz hosil qilinib, undan 1 000 m³ foydalanish mumkin bo‘lgan suv olingan, bu muz hajmining 62,5 foizini tashkil etadi. Mazkur texnologiyaning iqtisodiy samarasi suvning mavjud bo‘lmagan davrda ta’minlanishi, bog‘ va tomorqalarni sug‘orish imkoniyati, hosil yo‘qotishlarining oldini olish va muqobil suv yetkazib berish xarajatlarini kamaytirish orqali shakllanadi.

Biroq 1 000 m³ suv olinganining o‘zi iqtisodiy foyda miqdorini aniqlash uchun yetarli emas. Buning uchun inshootni qurish xarajati, foydalanish muddati, ta’mirlash xarajatlari, suvdan foydalanish qiymati va qo‘shimcha yetishtirilgan mahsulot qiymati hisobga olinishi kerak.

Suv yig‘ish va muz zaxirasi texnologiyalari uchun umumiy sof iqtisodiy samara quyidagicha hisoblanishi mumkin: $\mathbf{E_{NW} = \Delta C_w + \Delta R_y - C_i - C_o;}$

Bu yerda: ΔC_w — suv ta’minotiga ketadigan xarajatlarning kamayishi; ΔR_y — qo‘shimcha hosil hisobidan olingan daromad; C_i — texnologiyani joriy etish uchun investitsiya; C_o — foydalanish va texnik xizmat xarajatlari.

Shunday qilib, Qashqadaryodagi tajribalarning iqtisodiy qiymati faqat tejalgan suv hajmi bilan emas, balki ushbu suvning xo‘jalik daromadi va ishlab chiqarish barqarorligiga ta’siri bilan belgilanadi.

5. Qoraqalpog‘iston Respublikasida ekinlarni diversifikatsiya qilishning iqtisodiy samaradorligi. Qoraqalpog‘iston Respublikasida FOLUR–O‘zbekiston loyihasi bilan bog‘liq tajribalarning muhim yo‘nalishi bug‘doy yetishtirish tizimini iqlimga moslashtirish, sho‘rlanish va qurg‘oqchilik xatarlarini kamaytirish hamda ekinlar tarkibini kengaytirishdan iborat.

CGIAR va ICARDA ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda Chimboy tumanida bug‘doyning ertapishar navlari, no‘xat, yasmiq, mosh, xashaki no‘xat va maxsar kabi ekinlar sinovdan o‘tkazilgan. Keyingi loyiha

ma’lumotlarida Nukus tumanidagi tajribalar va arpa, tritikale hamda javdar kabi ekinlar ham qayd etilgan.

5.1. Diversifikatsiyaning iqtisodiy samaradorligini baholash.Ekinlar diversifikatsiyasi fermer xo‘jaligining daromadini ko‘paytirish bilan birga, bitta ekinga haddan tashqari bog‘lanishdan kelib chiqadigan iqtisodiy xatarlarni kamaytirishi mumkin.

Taqdim etilgan metodologiya asosida Herfindahl–Hirschman indeksidan foydalanish mumkin: $\mathbf{HHI}=\sum_{i=1}^{n} S_i^2$;

Bu yerda S_i — i-ekinning umumiy ekin maydonidagi ulushi. HHI yuqori bo‘lsa, ekin maydonlari bir yoki bir nechta ekinda ko‘proq jamlangan bo‘ladi. HHI pastroq bo‘lsa, ekinlar maydon bo‘yicha nisbatan diversifikatsiyalangan bo‘ladi.

Agar ekin ulushlari 0 dan 1 gacha ifodalansa, HHI qiymati ham shu shkala bo‘yicha hisoblanadi. Uni 0–10 000 shkalasida ifodalash uchun natija 10 000 ga ko‘paytiriladi. Diversifikatsiyaning daromadga ta’sirini baholash uchun quyidagi ko‘rsatkichlar kerak:

2-jadval

Diversifikatsiyaning daromadga ta’sirini baholash ko‘rsatkichlari[79]

Ko‘rsatkich	Hisoblash usuli	Iqtisodiy mazmuni
Ekinlar diversifikatsiyasi	HHI indeksi	Ekin tarkibining konsentratsiya darajasi
Bir gektardan olingan daromad	Jami daromad / ekin maydoni	Yer resursidan foydalanish natijasi
Bir gektarga to‘g‘ri keladigan sof foyda	Sof foyda / ekin maydoni	Yerning iqtisodiy unumdorligi
Rentabellik	Sof foyda / jami xarajat × 100	Xarajatlarning qaytimi
Suv unumdorligi	Mahsulot qiymati / sarflangan suv	Suv resursidan foydalanish samarasi
Daromad o‘zgaruvchanligi	Yillik daromadning standart og‘ishi yoki variatsiya koeffitsiyenti	Iqtisodiy xatar darajasi

2025-yilda O‘zbekiston fermer xo‘jaliklari faoliyati bo‘yicha e’lon qilingan ilmiy tadqiqotda ekinlarni diversifikatsiya qilish darajasi va fermer xo‘jaliklari daromadlari o‘rtasidagi bog‘liqlik ekonometrik usullar asosida tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari ekinlar diversifikatsiyasi fermer xo‘jaliklari daromadlariga ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli ta’sir ko‘rsatishini ilmiy jihatdan asoslagan. Mazkur natijalar diversifikatsiyaning iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi ahamiyatini tasdiqlovchi qo‘shimcha ilmiy dalil sifatida qaralishi mumkin. Biroq ushbu tadqiqot natijalarini Qoraqalpog‘iston Respublikasida FOLUR–O‘zbekiston loyihasi doirasida amalga oshirilayotgan tajribalarning bevosita iqtisodiy natijasi sifatida talqin qilish mumkin emas, chunki loyiha maydonlaridagi samaradorlikni baholash uchun alohida statistik ma’lumotlar va qiyosiy ekonometrik tahlil talab etiladi

Tadqiqot loyihasida Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi 2 gektar no‘xat maydoni uchun sof iqtisodiy samarani hisoblash quyidagi jadvalda keltirilgan:

3-jadval

Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi 2 gektar no‘xat maydoni uchun sof iqtisodiy samaradorligi tahlili

Ko‘rsatkich	An’anaviy ekin	Diversifikatsiya — no‘xat
Ekin maydoni, ga	2	2
Jami daromad, mln so‘m	100	125
Ishlab chiqarish xarajatlari, mln so‘m	70	82
Sof foyda, mln so‘m	30	43

Sof iqtisodiy samarani hisoblash: $\Delta E_N=(R_r-C_r)-(R_a-C_a)$; $\Delta E_N = (125-82)-(100-70) = 13$ mln so‘m.

Xulosa qilib aytganda no‘xatni diversifikatsiya tarkibiga kiritish 2 gektarda 13 mln so‘m qo‘shimcha sof iqtisodiy samara bermoqda. Tadqiqot ishida xatarlarni ham baholash bo‘lsa, bir necha yillik daromad qatori shakllantirilib, diversifikatsiyadan oldingi va keyingi daromad o‘zgaruvchanligi taqqoslanadi. Shu tariqa yuqori daromad bilan bir qatorda ishlab chiqarishning barqarorligi ham baholanadi.

6. Uch hudud bo‘yicha umumlashtirilgan iqtisodiy samaradorlik. FOLUR–O‘zbekiston loyihasidagi chora-tadbirlar iqtisodiy natijani turli mexanizmlar orqali shakllantiradi: Xorazmda asosan ishlab chiqarish resurslari sarfini qisqartirish, Qashqadaryoda suv ta’minoti va tuproq namligini yaxshilash, Qoraqalpog‘istonda esa ekinlar tarkibini diversifikatsiya qilish va daromad xatarlarini kamaytirish ustuvor hisoblanadi.

[79] Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

4-jadval

Hududlar bo‘yicha samaradorlik ko‘rsatkichlarining texnik hisob-kitobi

Samaradorlik ko‘rsatkichi	Xorazm viloyati	Qashqadaryo viloyati	Qoraqalpog‘iston Respublikasi
1. Resurs tejamkorligi	Ammofos sarfi 300 dan 100 kg/ga gacha kamaysa, tejam 200 kg/ga yoki 66,67% ni tashkil etadi. Yoqilg‘i tejami — 35 l/ga.	Muz suvidan foydalanish ssenariysida 1 000 m³ suv hisobga olinadi. Bu 1 gektarga taqsimlansa, 1 000 m³/ga, 10 gektarga taqsimlansa, 100 m³/ga bo‘ladi.	Don yetishtirishda suv sarfi an’anaviy usulda 117–123 m³/s, yomg‘irlatib sug‘orishda 87–98 m³/s deb olinsa, suv tejami 19–36 m³/s oralig‘ida bo‘ladi.
2. Ishlab chiqarish xarajatlari	1 gektarga ammofos sarfi 200 kg ga kamayadi. Xarajat tejami: 200 × P, bunda P — ammofosning 1 kg narxi. Yoqilg‘i bo‘yicha tejam: 35 × F, bunda F — 1 litr yoqilg‘i narxi.	1 000 m³ suvdan foydalanishning iqtisodiy natijasi: 1 000 × P_w − C, bunda P_w — 1 m³ suvning iqtisodiy qiymati, C — suvni yig‘ish, saqlash va yetkazish xarajati.	Suv tejami bo‘yicha iqtisodiy natija: ΔW x P_w - $C_{qo‘shimcha.}$ Suv tejami qiymati qo‘shimcha texnologiya xarajatlaridan yuqori bo‘lsagina iqtisodiy samara musbat bo‘ladi.
3. Hosildorlik	Dastlabki prognoz 55–60 s/ga bo‘lsa, oraliq baholash qiymati 57,5 s/ga. 100 gektar maydon uchun shartli hosil 5 750 s yoki 575 tonna bo‘ladi.	Hosildorlik bo‘yicha 5–10% o‘sish ssenariysi qabul qilinsa, bazaviy hosildorlik Y_0 bo‘lganida yangi ko‘rsatkich 1,05Y_0–1,10Y_0 bo‘ladi. Bu tajriba natijasi emas, hisoblash ssenariysidir.	Agar tajriba hosildorligi 67,9 s/ga bo‘lsa, 10 gektardan shartli hosil 679 s yoki 67,9 tonna bo‘ladi. Bu qiymatni respublika bo‘yicha o‘rtacha hosildorlik sifatida talqin qilib bo‘lmaydi.
4. Suv samaradorligi	Sug‘orishlar soni 5 martadan 3 martaga kamaygan: 2 ta sug‘orishga qisqarish, ya’ni 40%. Bir sug‘orishdagi suv meyori o‘zgarmagan deb qabul qilinsa, mavsumiy suv sarfi ham 40% kamayadi.	1 000 m³ suvning har bir gektarga to‘g‘ri keladigan ulushi maydonga bog‘liq: W=1,000/Am³/ga, bunda A — suv bilan ta’minlanadigan maydon, gektar.	Suv sarfi bo‘yicha eng past tejam: (117-98)/117 x 100= 16,24%. Eng yuqori tejam: (123-87)/123 x 100= 29,27%. O‘rtacha nuqtalar bo‘yicha tejam taxminan 22,92%.
5. Diversifikatsiya	Almashlab ekish tizimida paxtadan tashqari ekinlarni joriy etish ulushi $D=A_{boshqa\ ekinlar} / A_{jami}$ x100 formulasi bilan hisoblanadi.	Bog‘dorchilik va ko‘p yillik ekinlar ulushi $D=A_{ko‘p\ yillik\ ekinlar} /A_{jami\ ekin\ maydoni}$ x 100 formulasi asosida baholanadi.	Qurg‘oqchilikka chidamli ekinlar ulushi $D=A_{chidamli\ ekinlar} /A_{jami\ ekin\ maydoni}$ x 100\) formulasi orqali aniqlanadi.
6. Sof iqtisodiy samara	Agar 1 gektarda 35 litr yoqilg‘i va 200 kg ammofos tejalsa, umumiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri tejam $E=35_F+200_P$ -C qo‘shimcha bo‘ladi. Hosildorlik o‘zgarishi bo‘lsa, uning daromad ta’siri ham qo‘shiladi.	Sof samara: $E=R_{qo‘shimcha} + C_{suv\ tejami} -C_{ekspluatatsiya} -C_{investitsiY.}$ Investitsiyaning qoplanish muddati yillik sof pul oqimi asosida hisoblanadi.	Sof samara: $E=\Delta R+\Delta C_{suv}-\Delta C_{energiya} -C_{texnologiY.}$ Bunda ΔR — qo‘shimcha daromad, qolgan hadlar tegishli xarajatlar tejami yoki o‘sishini bildiradi.

7. Regenerativ texnologiyalarning umumiy iqtisodiy samarasini hisoblash modeli. Tadqiqotdagi (8)-formula — regenerativ qishloq xo‘jaligining umumiy iqtisodiy samarasi — uch hududni yagona metodologiya asosida taqqoslash uchun mos keladi: $E_{RA}=\Delta C+\Delta R+\Delta Y+\Delta D-C_I$.

Texnologiyaga investitsiya kiritilganda, bir yillik iqtisodiy natijadan tashqari investitsiyaning qaytish muddati ham aniqlanishi lozim:

$$T_q = \frac{C_i}{E_{RA,yilik}}$$

bu yerda: T_q − investitsiyaning qoplanish muddati (yil); C_i − jami investitsiya xarajatlari (so‘m); $E_{RA,yilik}$ − yillik sof iqtisodiy samara (so‘m/yil).

Bu soddalashtirilgan formula faqat yillik sof samara musbat va nisbatan barqaror bo‘lganda qo‘llanadi. Uzoq muddatli loyihalarda diskontlangan pul oqimlari, sof joriy qiymat (NPV) va ichki rentabellik normasi (IRR) yordamida baholash ishonchliroq natija beradi.

8. Statistik tahlilni chuqurlashtirish bo‘yicha takliflar. Uch hududdagi tajribalarni ilmiy jihatdan asosli

taqqoslash uchun quyidagi tadqiqot dizaynini qo‘llash mumkin.

Birinchidan, har bir texnologiya uchun regenerativ va an’anaviy usulda ishlov beriladigan taqqoslama maydonlarni tanlash zarur. Maydonlar tuproq turi, sho‘rlanish darajasi, suv bilan ta’minlanish, ekin navi va agroiqlim sharoitlari bo‘yicha imkon qadar o‘xshash bo‘lishi kerak.

Ikkinchidan, kamida uch yillik kuzatuv qatorini shakllantirish maqsadga muvofiq. Har bir maydon bo‘yicha ekin turi va maydoni, hosildorlik va sotish narxi, yoqilg‘i, o‘g‘it, suv va mehnat sarfi, agrotexnik operatsiyalar, investitsiya va texnik xizmat xarajatlari, tuproqning organik modda miqdori, sho‘rlanishi va namligi, shuningdek, ekinlar tarkibi hamda yillik daromad o‘zgaruvchanligi bo‘yicha ma’lumotlar qayd etiladi.

Uchinchidan, iqtisodiy ko‘rsatkichlarni hududlar kesimida bir xil usulda hisoblash kerak. Jumladan, bir gektarga to‘g‘ri keladigan sof foyda, bir kub metr suv hisobiga olingan mahsulot qiymati, xarajatlar tejamining foizi, rentabellik, HHI va investitsiyaning qaytish muddati yagona taqqoslash tizimini hosil qiladi.

To‘rtinchidan, kuzatuvlar soni va ma’lumotlar sifati yetarli bo‘lsa, ekonometrik modeldan foydalanish mumkin. Masalan:

$$Y_{it}= \beta_0+\beta_1 R_{it} +\beta_2 W_{it}+\beta_3 F_{it} +\beta_4 L_{it}+\mu_i+\tau_t+\varepsilon_{it}$$

Bu yerda:

Y_{it} — xo‘jalikning hosildorligi yoki iqtisodiy natijasi;

R_{it} — regenerativ texnologiya qo‘llanilganini ifodalovchi ko‘rsatkich;

W_{it} — suv sarfi yoki suv ta’minoti;

F_{it} — o‘g‘it va boshqa moddiy resurslar;

L_{it} — mehnat sarfi;

μ_i — xo‘jalikka xos kuzatilmaydigan omillar;

τ_t — yil ta’siri;

ε_{it} — tasodifiy xatolik.

Bu model texnologiyaning natijaga bog‘liqligini baholashga yordam beradi. Biroq oddiy regressiya koeffitsiyenti o‘z-o‘zidan sababiy ta’sirni isbotlamaydi; buning uchun nazorat maydonlari, kuzatuv dizayni va ehtimoliy tanlanish xatolarini hisobga olish zarur.

9. Ilmiy xulosa. FOLUR–O‘zbekiston loyihasining Xorazm, Qashqadaryo va Qoraqalpog‘iston hududlaridagi tajribalari regenerativ qishloq xo‘jaligi texnologiyalarining iqtisodiy samaradorligini uchta o‘zaro bog‘liq yo‘nalishda baholash imkonini beradi.

Xorazm viloyatida tuproqqa qisqartirilgan ishlov berish bo‘yicha yoqilg‘i sarfini 35 litr/ga, ammofos sarfini 200 kg/ga kamaytirish ko‘rsatkichlari resurs tejamkorligining bevosita miqdoriy dalili hisoblanadi. Biroq texnologiyaning to‘liq iqtisodiy samarasi ishlab chiqarish xarajatlari, yakuniy hosildorlik va realizatsiya tushumlarini birgalikda hisoblash orqali aniqlanishi lozim.

Qashqadaryo viloyatida Qamashining uchta maydonida jami 6 gektar hududda yomg‘ir suvlarini yig‘ish texnologiyalari qo‘llanilayotgani, Shahrisabz tumanidagi to‘rtta muz inshootida esa 1 600 m³ muzdan taxminan 1 000 m³ foydalanish mumkin bo‘lgan suv olinishi suv ta’minotining mavsumiy barqarorligini oshirishga qaratilgan amaliy natijalardir. Ularning puldagi samarasi suvning muqobil qiymati, inshoot xarajatlari va qo‘shimcha hosil bilan aniqlanishi kerak.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida iqlimga chidamli ekinlarni sinash va diversifikatsiya qilish ishlab chiqarish xatarlarini kamaytirish hamda fermer daromadini barqarorlashtirish uchun muhim imkoniyat yaratadi. Lekin mazkur loyiha maydonlarining iqtisodiy samaradorligini aniq raqamda baholash uchun ekinlar kesimida hosildorlik, tannarx, sotish narxi va suv sarfi bo‘yicha taqqoslama ma’lumotlar zarur.

Umumiy ilmiy natija shundan iboratki, regenerativ qishloq xo‘jaligi samaradorligini faqat resurslar tejalishi bilan cheklab bo‘lmaydi. Uni ishlab chiqarish xarajatlari, sof foyda, rentabellik, suv unumdorligi, ekinlar diversifikatsiyasi va tuproq holatining o‘zgarishini birlashtirgan iqtisodiy-ekologik tizim orqali baholash lozim. Bunday yondashuv FOLUR–O‘zbekiston loyihasi doirasidagi tajribalarni xo‘jalik darajasidan hududiy miqyosga kengaytirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO). Conservation Agriculture: Principles and Benefits. Rome: FAO.
2. FAO. The Economics of Conservation Agriculture. FAO Agricultural Services Bulletin. Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations.
3. FAO. Benefits of Conservation Agriculture. Food and Agriculture Organization of the United Nations.
4. FAO. Conservation Agriculture: Impacts and Economic Benefits. Rome: FAO.
5. Siankwilimba E., Hiddlestone-Mumford J., Hang’ombe B.M. et al. A systematic review of regenerative agriculture for soil health and climate change mitigation. Discover Sustainability, 2026.
6. Importance of regenerative agriculture: climate, soil health, biodiversity and its socioecological impact. Discover Sustainability, 2024.
7. FAO Uzbekistan. Regenerative agriculture practices for cotton production demonstrated in Khorezm. 23 September 2026.
8. FAO Uzbekistan. A Field Day on soil-protective, resource-efficient technologies and rainwater harvesting was held in Qamashi. 13 May 2026.
9. FAO Uzbekistan. FAO highlights Uzbekistan’s sustainable agriculture and landscape management experience at UNCCD COP17. 27 August 2026.
10. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi. “FOLUR – O‘zbekiston” loyihasini amalga oshirishning oraliq natijalari taqdim etildi. 12 mart 2026 yil.
11. FAO Uzbekistan. International delegation presented with practical FAO–GEF solutions for climate-resilient agriculture and forest restoration in KashkadarY. 10 June 2026.

12. FAO Uzbekistan. FAO's FOLUR initiative takes action towards biodiversity and sustainable farming in Uzbekistan. 4 November 2024.

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Amirqulov Shuxrat Olimovich QarDTU "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasi professori v.b., i.f.d. (DSc) / Амиркулов Шухрат Олимович И.о. профессора кафедры «Инновационная экономика» Каршинского инженерно-экономического института (KarDTU); доктор экономических наук (DSc) / Amirqulov Shuxrat Olimovich Acting Professor, Department of "Innovative Economics," Karshi Engineering-Economic Institute (KarDTU); Doctor of Economic Sciences (DSc)
E-mail: shuxratamirkulov01@gmail.com

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.10.10.2026.31 *Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik*

MAHALLA- SERVIS TIZIMINI RIVOJLANTIRISHGA ASOSLANIB KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH IMKONIYATLARI

Saparov Murod Irgashovich

OPPORTUNITIES FOR POVERTY REDUCTION BASED ON THE DEVELOPMENT OF THE MAHALLA-SERVICE SYSTEM

Saparov Murod Irgashovich

ВОЗМОЖНОСТИ СОКРАЩЕНИЯ БЕДНОСТИ НА ОСНОВЕ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ «МАХАЛЛЯ-СЕРВИС»

Сапаров Мурод Иргашович

Annotatsiya Mazkur maqolada mahalla tizimining hududiy iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash, xizmat ko‘rsatish sohasida yangi ish o‘rinlarini yaratish va kambag‘allikni qisqartirishdagi o‘rni ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Mahallalarning mavjud iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish, aholining bandligini oshirish, oilaviy tadbirkorlik va o‘zini-o‘zi band qilish faoliyatini rivojlantirish, xizmatlar bozorini mahalliy talab asosida shakllantirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, mahalla darajasida kambag‘allikni qisqartirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha tashkiliy-iqtisodiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: mahalla tizimi, xizmat ko‘rsatish sohasi, kambag‘allikni qisqartirish, aholi bandligi, oilaviy tadbirkorlik, o‘zini o‘zi band qilish, mikromoliyalashtirish, inson kapitali, hududiy rivojlanish, ijtimoiy himoya.

Аннотация. В данной статье научно и теоретически рассматривается роль системы махалл в обеспечении регионального экономического развития, создании новых рабочих мест в сфере услуг и сокращении бедности. Анализируются вопросы эффективного использования существующего экономического потенциала махалл, повышения занятости, развития семейного предпринимательства и самозанятости, а также формирования рынка услуг, основанного на местном спросе. Кроме того, разработаны организационно-экономические предложения и рекомендации по совершенствованию механизмов сокращения бедности на уровне махалле.

Ключевые слова: система махалла, сектор услуг, сокращение бедности, занятость населения, семейное предпринимательство, самозанятость, микрофинансирование, человеческий капитал, региональное развитие, социальная защита.

Abstract. This article provides a scientific and theoretical examination of the role of the *mahalla* system in fostering regional economic development, creating new jobs in the service sector, and reducing poverty. It analyzes the effective utilization of the existing economic potential of *mahallas*, the enhancement of employment, the development of family-based entrepreneurship and self-employment, and the formation of a service market driven by local demand. Furthermore, the article puts forward organizational and economic proposals and recommendations aimed at improving mechanisms for poverty reduction at the *makhalla* level.

Keywords: mahalla system, service sector, poverty reduction, employment, family entrepreneurship, self-employment, microfinance, human capital, regional development, social protection.

KIRISH

Bugungi kunda aholi farovonligini oshirish, kambag‘allikni qisqartirish va hududlarda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda xizmat ko‘rsatish sohasi alohida ahamiyatga ega. Chunki mazkur soha nisbatan kam boshlang‘ich kapital talab qiladigan faoliyat turlarini rivojlantirish, mahalliy resurslardan foydalanish, aholini daromadli mehnat bilan ta’minlash va tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

O‘zbekistonda mahalla instituti aholi bilan davlat organlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning muhim bo‘g‘ini sifatida shakllangan. Mahalla hududda yashovchi oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy holatini, mehnat

resurslarini, kasbiy ko‘nikmalarini, tadbirkorlik imkoniyatlarini va mavjud ehtiyojlarini aniqlashda muhim tashkiliy imkoniyatlarga ega. Shu sababli mahalla tizimiga asoslangan iqtisodiy rivojlanish yondashuvi xizmatlar bozorini kengaytirish va kambag‘allikni qisqartirishning samarali vositalaridan biri bo‘lishi mumkin.

Biroq ushbu imkoniyatlardan to‘liq foydalanish uchun mahalla faoliyatini faqat ijtimoiy yordam ko‘rsatish bilan cheklamasdan, uni mahalliy iqtisodiy tashabbuslarni rag‘batlantiruvchi, mehnat bozorini rivojlantiruvchi va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlovchi tizim sifatida takomillashtirish zarur.

ADABIYOTLAR SHARHI

Jon Keyns (1883–1946) o‘zining “Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi” (1936) asarida kambag‘allik muammosiga klassik maktab vakillaridan butunlay boshqacha - makroiqtisodiy nuqtai nazardan yondashdi va bu bilan iqtisodiy fanda inqilob yasadi. Keyns klassik iqtisodiy maktabning bozor o‘z-o‘zini tartibga soladi degan qarashini rad etib, davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvi zarurligini asosladi. Uning fikricha, kambag‘allikning asosiy sababi — samarali talabning yetishmasligidir, bu esa ishsizlik va ishlab chiqarishning pasayishiga olib keladi.

Boshqa bir iqtisodchi professor A.Vahobovning fikriga ko‘ra, “Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida ijtimoiy siyosat” nomli asarida “kambag‘allik muammosi” bozor iqtisodiyoti sharoitida yuzaga keladigan ijtimoiy muammolar bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi. Shuningdek iqtisodiy islohotlar davrida ayrim aholi qatlamlari daromadlari kamayishi yoki ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lib qolishi mumkin. Shu sababli davlat tomonidan samarali ijtimoiy siyosat yuritilishi muhim hisoblanadi”[80].

Respublikamizning mazkur sohada bir qator tadqiqotlar olib borgan yetakchi olimlaridan biri professor B. Xodiyev “Iqtisodiyot nazariyasi”[81] nomli asarida kambag‘allik muammosini iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqadi. B.Xodiyevning ta’kidlashicha, iqtisodiy o‘sish mamlakatdagi kambag‘allik darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini mahalla tizimiga tayangan holda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish hamda kambag‘allikni qisqartirishning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganishga qaratilgan tizimli yondashuv tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy tahlil, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, ilmiy abstraksiyalash, induksiya va deduksiya, statistik tahlil hamda umumlashtirish usullaridan foydalanish nazarda tutiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mahalla tizimiga asoslangan iqtisodiy rivojlanish hududning ichki imkoniyatlarini aniqlash, mahalliy talab va taklifni muvofiqlashtirish hamda aholi tashabbuslarini iqtisodiy faoliyatga yo‘naltirishga asoslanadi. Bunday yondashuvda mahalla faqat ma’muriy-hududiy yoki ijtimoiy institut emas, balki mahalliy iqtisodiy faollikni shakllantirishga ko‘maklashuvchi muhim institutsional subyekt sifatida namoyon bo‘ladi.

Xizmat ko‘rsatish sohasi savdo, maishiy xizmatlar, ta’lim, sog‘liqni saqlash, transport, turizm, axborot texnologiyalari, ta’mirlash, go‘zallik va parvarish xizmatlari kabi ko‘plab faoliyat turlarini qamrab oladi. Ushbu xizmatlarning katta qismi mahalliy talabga bevosita bog‘liq bo‘lib, ularni rivojlantirish uchun hududning demografik tarkibi, aholi daromadlari, infratuzilma holati va mavjud tadbirkorlik salohiyatini hisobga olish talab etiladi.

Mahalla darajasida xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish quyidagi iqtisodiy afzalliklarni yuzaga keltiradi:

- Bandlikni oshirish: mehnat bozoriga kirishda qiyinchiliklarga duch kelayotgan fuqarolar uchun yangi daromad manbalarini yaratish.
- Mahalliy talabni qondirish: aholining kundalik ehtiyojlarini o‘z hududida qondirish orqali xizmatlar uchun sarflanadigan vaqt va xarajatlarni kamaytirish.
- Tadbirkorlikni rivojlantirish: kichik biznes, oilaviy korxonalar va yakka tartibdagi xizmat ko‘rsatuvchilar faoliyatini kengaytirish.
- Hududiy iqtisodiy faollikni kuchaytirish: mahalla ichidagi daromadlarning mahalliy iqtisodiy muomalada qolishi va qo‘shimcha talabni shakllantirishiga ko‘maklashish.
- Ijtimoiy integratsiyani ta’minlash: xotin-qizlar, yoshlar, nogironligi bo‘lgan shaxslar va boshqa ehtiyojmand guruhlar uchun moslashuvchan bandlik imkoniyatlarini kengaytirish.

Demak, mahalla tizimining iqtisodiy samaradorligi hududdagi muammolarni aniqlash bilangina emas, balki mavjud resurslarni real iqtisodiy imkoniyatlarga aylantirish qobiliyati bilan ham belgilanadi.

Kambag‘allik ko‘p qirrali ijtimoiy-iqtisodiy hodisa bo‘lib, u faqat daromadlarning pastligi bilan emas, balki barqaror ish o‘rnining yo‘qligi, kasbiy malakaning yetishmasligi, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi hamda ta’lim va xizmatlardan foydalanishdagi to‘siqlar bilan ham bog‘liq.

Mahalla darajasida kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini cheklashi mumkin bo‘lgan bir qator muammolar mavjud.

Birinchidan, ayrim hududlarda iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha qarorlar mahallaning real iqtisodiy ixtisoslashuvi va xizmatlarga bo‘lgan talabni yetarli darajada hisobga olmasligi mumkin. Natijada tashkil etilgan faoliyat turi bozor talabiga mos kelmasligi yoki kutilgan daromadni ta’minlamasligi ehtimoli yuzaga keladi.

Ikkinchidan, kasb-hunarga o‘qitish dasturlari bilan mehnat bozori ehtiyojlari o‘rtasidagi nomuvofiqlik bandlik natijalariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Muayyan kasb bo‘yicha o‘qitilgan fuqaro tegishli ish topa olmasa yoki mustaqil xizmat ko‘rsatishni boshlash

[80] Vahobov, A. V. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida ijtimoiy siyosat. Toshkent -2001.

[81] Xodiyev, B. Y., & Shodmonov, Sh. Sh. (2017). *Iqtisodiyot nazariyasi* (Darslik). Toshkent: Barkamol fayz-media

imkoniyatiga ega bo‘lmasa, o‘qitishning iqtisodiy samarasi cheklanadi.

Uchinchidan, kichik xizmat ko‘rsatish faoliyatini boshlash uchun moliyaviy mablag‘ bilan bir qatorda uskunalar, ish joyi, internet, logistika, mijozlar bazasi va tadbirkorlik ko‘nikmalari talab qilinadi. Faqat kredit ajratish yoki bir martalik moddiy yordam ko‘rsatish ushbu omillarning barchasini qamrab olmaydi.

To‘rtinchidan, ayrim hollarda kambag‘allikni qisqartirish natijalari ajratilgan mablag‘lar, o‘tkazilgan tadbirlar yoki tashkil etilgan ish o‘rinlari soni orqali baholanadi. Biroq bunday ko‘rsatkichlar yaratilgan bandlikning barqarorligi, oilaning real daromadlari o‘sishi va tadbirkorlik faoliyatining uzoq muddat davom etishini to‘liq ifodalamaydi.

Shu sababli kambag‘allikni qisqartirish siyosatini resurslarni taqsimlashga asoslangan yondashuvdan barqaror iqtisodiy natijalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan yondashuvga bosqichma-bosqich o‘tkazish muhimdir.

Mahallalarda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish uchun, avvalo, har bir hududning iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olgan holda xizmatlar xaritasini shakllantirish lozim. Bunda aholining soni va tarkibi, daromad darajasi, mavjud korxonalar, transport imkoniyatlari, kasbiy ko‘nikmalar va qondirilmagan talab o‘rganiladi.

Mahalla iqtisodiy ixtisoslashuvini shakllantirishda hududning o‘ziga xos xususiyatlari muhim ahamiyatga ega. Masalan, yirik shahar mahallalarida maishiy xizmatlar, umumiy ovqatlanish, ta’lim, ta’mirlash va raqamli xizmatlarni rivojlantirish imkoniyatlari yuqori bo‘lishi mumkin. Qishloq hududlarida esa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, texnik xizmat ko‘rsatish, sovitish va saqlash, logistika, turizm hamda uy sharoitida ishlab chiqarish bilan bog‘liq xizmatlar istiqbolli hisoblanadi.

Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat.

Birinchi yo‘nalish - mahalla xizmatlar bozorini tizimli o‘rganish. Har bir mahallada qaysi xizmatlarga talab yuqoriligi, qaysi faoliyat turlari yetishmasligi va qaysi xizmatlarni tashkil etish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini aniqlash zarur. Bunday tahlil tadbirkorlik loyihalarini tanlashda bozor talabiga ustuvor ahamiyat berishga imkon yaratadi.

Ikkinchi yo‘nalish - mikro va kichik xizmat ko‘rsatish korxonalarini qo‘llab-quvvatlash. Sartaroshlik, tikuvchilik, maishiy texnikani ta’mirlash, kompyuter xizmatlari, repetitorlik, ovqat yetkazib berish va boshqa yo‘nalishlarda kichik biznesni boshlash uchun maslahat, moliyalashtirish va infratuzilmadan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish kerak.

Uchinchi yo‘nalish - kasbiy ta’limni xizmatlar bozori bilan integratsiyalash. Kasbga o‘qitish dasturlari ish beruvchilar va mahalliy tadbirkorlar bilan hamkorlikda tashkil etilishi lozim. O‘qitish yakunida ishga joylashtirish, haq to‘lanadigan amaliyot yoki mustaqil faoliyatni boshlash bo‘yicha aniq mexanizmlar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

To‘rtinchi yo‘nalish - xizmatlarni raqamlashtirish. Elektron buyurtma qabul qilish, onlayn reklama, elektron to‘lovlar, masofaviy maslahat va raqamli savdo vositalaridan foydalanish mahalliy tadbirkorlarning mijozlar doirasini kengaytiradi. Shu bilan birga, raqamli savodxonlik bo‘yicha amaliy o‘quv dasturlarini yo‘lga qo‘yish zarur.

Beshinchi yo‘nalish - kooperatsiya va sheriklikni rivojlantirish. Bir xil xizmat ko‘rsatuvchi kichik tadbirkorlarning umumiy uskunalar, reklama, yetkazib berish va buyurtmalarni taqsimlash tizimlaridan foydalanishi xarajatlarni kamaytirishi mumkin. Mahalla, banklar, kasbiy ta’lim muassasalari, tadbirkorlik subyektlari va nodavlat tashkilotlari o‘rtasidagi hamkorlik ushbu jarayonni qo‘llab-quvvatlaydi.


Bugungi kunda kambag‘allikni qisqartirish davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonda nafaqat aholining daromadlarini oshirish, balki ularning mehnat bozoridagi faolligini kuchaytirish, xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish va mahalliy resurslardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu asosda ishlab chiqilgan “Mahalla-servis (MS) modeli” mahalla darajasida kambag‘allikni qisqartirishning kompleks va tizimli mexanizmini ifodalaydi. Modelda kambag‘allik holatini tahlil qilish, uning asosiy sabablari va manbalarini aniqlash hamda aniqlangan muammolarni xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish orqali bartaraf etish bosqichlari o‘zaro uzviy bog‘langan. Bu esa mahalla darajasida kambag‘allikni qisqartirishning barqaror va amaliy mexanizmini shakllantirish imkonini beradi.

Umuman olganda, taklif etilgan “Mahalla-servis (MS) modeli” mahalla darajasida kambag‘allikni qisqartirishning kompleks va samarali mexanizmini namoyon etadi. Modelda kambag‘allik holatini tahlil qilish, uning asosiy sabablarini aniqlash hamda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish orqali amaliy yechimlarni amalga oshirish yagona tizim sifatida o‘zaro bog‘langan. Natijada aholi bandligini oshirish, yangi xizmat turlarini tashkil etish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va davlat imtiyozlaridan samarali foydalanish orqali mahallalarda barqaror daromad manbalari shakllanadi. Shu bois, mazkur model xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish asosida kambag‘allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiluvchi istiqbolli hamda amaliy yondashuv sifatida baholanishi mumkin.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, mahalla tizimiga asoslangan kambag‘allikni qisqartirish va xizmatlar sohasini rivojlantirish mexanizmini beshta o‘zaro bog‘liq bosqich asosida tashkil etish taklif etiladi.

Birinchi bosqich - diagnostika. Mahallaning iqtisodiy salohiyati, xizmatlarga bo‘lgan talab, mehnat resurslari, mavjud tadbirkorlik subyektlari va ehtiyojmand oilalarning holati o‘rganiladi.



1-rasm. Kambag‘allikni qisqartirishning mahalla-servis “MS – modeli”

Ikkinchi bosqich - iqtisodiy ixtisoslashuvni aniqlash. Hududning tabiiy, demografik, infratuzilmaviy va bozor xususiyatlaridan kelib chiqib, istiqbolli xizmat turlari belgilanadi.

Uchinchi bosqich - individual rivojlanish rejasini ishlab chiqish. Har bir fuqaro yoki oila uchun ishga joylashish, kasb o‘rganish, tadbirkorlik boshlash yoki ijtimoiy himoyadan foydalanish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlar belgilanadi.

To‘rtinchi bosqich - resurslarni safarbar etish. Banklar, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash tashkilotlari, ta’lim muassasalari, ish beruvchilar va mahalliy hokimliklar bilan hamkorlikda zarur moliyaviy va nomoliyaviy resurslar jalb qilinadi.

Beshinchi bosqich - monitoring va natijalarni baholash. Bandlik, daromadlar, biznes faoliyatining davomiyligi va ijtimoiy himoya samaradorligi muntazam o‘rganilib, zarur hollarda dasturlar qayta ko‘rib chiqiladi.

Taklif etilayotgan mexanizmning asosiy xususiyati shundaki, unda mahalla darajasidagi ehtiyojlarni aniqlash, iqtisodiy imkoniyatlarni shakllantirish va natijalarni kuzatish yagona jarayon sifatida qaraladi. Bunda mahalla barcha xizmatlarni mustaqil bajaruvchi tuzilma emas, balki tegishli tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlikni muvofiqlashtiruvchi bo‘g‘in vazifasini bajarishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mahalla tizimiga asoslangan xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish O‘zbekistonda aholi bandligini oshirish, tadbirkorlik faolligini kuchaytirish va kambag‘allikni qisqartirishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mahallaning hududiy ehtiyojlarni aniqlash, aholi bilan bevosita muloqot qilish va mahalliy resurslarni safarbar etish imkoniyatlari iqtisodiy siyosatni aniq manzilli tashkil etishga yordam beradi. Tahlil natijalari xizmatlar sohasini rivojlantirishda mahallaning iqtisodiy ixtisoslashuvini aniqlash, kasbiy ta’limni mehnat bozori talablariga moslashtirish, mikrobiznesni kompleks qo‘llab-quvvatlash va raqamli vositalardan foydalanish muhim ekanini ko‘rsatadi. Kambag‘allikni qisqartirishda esa oilalarning individual ehtiyojlarini baholash, moliyaviy yordamni zarur maslahat va bozor infratuzilmasi bilan uyg‘unlashtirish hamda natijalarni muntazam monitoring qilish ustuvor ahamiyatga ega.

Shu asosda mahalla tizimini ijtimoiy yordamni tashkil etuvchi mexanizmdan hududiy iqtisodiy rivojlanish va barqaror bandlikni rag‘batlantiruvchi hamkorlik platformasiga aylantirish maqsadga muvofiq. Taklif etilgan mexanizmlarning izchil amalga oshirilishi xizmatlar bozorining kengayishi, aholining daromad topish imkoniyatlari ortishi va kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlarning natijadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mahalla tizimiga asoslangan xizmatlar sohasini rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirish samaradorligini oshirish uchun quyidagi takliflar ilgari surildi.

1. Mahallalarning iqtisodiy pasportini shakllantirish. Har bir mahallada mavjud xizmatlar, bo‘sh ish o‘rinlari, kasbiy ko‘nikmalar, tadbirkorlik subyektlari va qondirilmagan talab haqida tizimlashtirilgan ma’lumotlar bazasini yaratish zarur.

2. Mahallabay xizmatlar dasturini joriy etish. Hududning real ehtiyojlariga asoslangan holda istiqbolli xizmat turlari, kutilayotgan bandlik natijalari, infratuzilma talablari va moliyalashtirish manbalarini belgilash lozim.

3. Kasbiy ta’lim va ish beruvchilar hamkorligini kuchaytirish. O‘quv kurslari mahalliy korxonalarning real talablariga moslashtirilib, o‘qitishdan keyingi ishga joylashtirish natijalari bo‘yicha baholanishi kerak.

4. Mikrobiznes uchun kompleks ko‘mak tizimini shakllantirish. Moliyaviy yordam bilan bir qatorda buxgalteriya, soliq, marketing, raqamli savdo, biznes-rejalashtirish va huquqiy maslahat xizmatlarini taklif qilish zarur.

5. Ayollar va yoshlar bandligini kengaytirish. Moslashuvchan ish shakllari, masofaviy xizmatlar, uy sharoitida bajariladigan qonuniy faoliyat turlari, bolalarni parvarishlash xizmatlari va kasbiy qayta tayyorlash dasturlarini rivojlantirish lozim.

6. Qishloq va shahar mahallalari uchun differensial yondashuvni qo‘llash. Shahar hududlarida xizmatlar konsentratsiyasi va raqobatni, qishloqlarda esa transport, logistika, internet va bozorlar bilan bog‘lanish muammolarini hisobga olish zarur.

7. Raqamli monitoring va hisobdorlikni kuchaytirish. Natijadorlik ko‘rsatkichlari orqali dasturlarni baholash, ma’lumotlarning ishonchliligini tekshirish va fuqarolarning fikr-mulohazalarini hisobga olish mexanizmlarini rivojlantirish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahrir. 2023-yil.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-642-son, 2020-yil 20-oktabr.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni. 1993-yil 2-sentabr.

4. Vahobov, A. V. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida ijtimoiy siyosat. Toshkent -2001.

5. Xodiyev, B. Y., & Shodmonov, Sh. Sh. (2017). Iqtisodiyot nazariyasi (Darslik). Toshkent: Barkamol fayz-media

6. Архангельская Н. Ловушки бедности // Эксперт. 2010. № 16. С. 2–5.

7. Ахмадеев Л. Бедность: социальный портрет явления // Экономика и управление. 2010. № 4. 78 с.

8. Бачурин А. Экономическая и социальная политика государства по улучшению условий жизни // Экономист. 2003. № 8. С. 23–27.

9. Белозерова С. Минимум для выживания // Трудовые отношения. 2003. №8

10. Бедность: альтернативные подходы к определению и измерению. Московский Центр Карнеги. М., 1998.

11. Бобков В.Н. Дифференциация благосостояния // Экономист. 2005. 61.

12. Бондаренко Л. Измерение сельской бедности (методология и опыт) // Экономика и управление. 2009. № 10. С. 15–23.14.

13. Бурлакова Е.В. Анализ феномена бедности и ее сущность в современной России // Работник социальной службы. 2000. № 1.

14. Қ.Ж. Мирзаев, М.И. Сапаров. Хизмат кўрсатиш соҳасининг ривожланиши қишлоқ аҳолисининг турмуш шароитининг яхшиланишини таъминлайди // Ilg‘or Iqtisodiyot Va Pedagogik Texnologiyalar. 2025. Vol. 3, No. 2. 416–422 б. https://sci-p.uz/index.php/aept/article/view/4139

15. Q.Dj. Mirzayev, M.I. Saparov. Kambag‘allikni qisqartirishda xizmatlar sohasining o‘rni // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2025. Vol. 3, No. 1. 319–322 b.

16. Q.J. Mirzayev, M.I. Saparov. Xizmatlar sohasini rivojlantirishda bandlik bilan ta’minlashga ta’sir qiluvchi omillar va muammolar tadqiqi // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali. 2026. № 2. 1005–1009 b.

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Saparov Murod Irgashovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti mustaqil izlanuvchisi / Saparov Murod Irgashovich – Independent Researcher at the Samarkand Institute of Economics and Service / Сапаров Мурод Иргашович — независимый исследователь Самаркандского института экономики и сервиса

E-mail: saparovmurod11@gmail.com

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.10.10.2026.32 *Raqamli iqtisodiyot*

GLOBAL INNOVATSION INDEKS ASOSIDA O‘ZBEKISTON INNOVATSION RIVOJLANISHINI DIAGNOSTIKASI

Muxsimova Dilafruz Xikmatullayevna

ДИАГНОСТИКА ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА НА ОСНОВЕ ГЛОБАЛЬНОГО ИННОВАЦИОННОГО ИНДЕКСА

Мухсимова Дилафруз Хикматуллаевна

DIAGNOSING UZBEKISTAN’S INNOVATION DEVELOPMENT BASED ON THE GLOBAL INNOVATION INDEX

Mukhsimova Dilafruz Khikmatullaevna

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonning innovatsion rivojlanishi Global innovatsion indeks (GII) ma’lumotlari asosida milliy statistika bilan birgalikda tahlil qilingan. Tadqiqot milliy innovatsion tizimlar, o‘zlashtirish salohiyati va “innovatsiya paradoksi” yondashuvlariga tayanadi. 2020-2026 yillarda O‘zbekiston GIIda 93-o‘rindan 77-o‘ringa ko‘tarilib, barqaror ijobiy dinamikani namoyon etgan. Shu bilan birga, innovatsiya natijalari subindeksi balli (19,2) resurslar subindeksi balliga (38,2) nisbatan pastroq. Bu shakllanayotgan innovatsion resurslarni amaliy natijalarga aylantirish imkoniyatlaridan kengroq foydalanish mumkinligini ko‘rsatadi. Tahlil asosida keyingi rivojlanish uchun to‘rtta yo‘nalish ajratildi: korxonalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatidagi ishtirokini kengaytirish, ilmiy faoliyat ko‘lami va xalqaro ishtirokini oshirish, venchur bozori imkoniyatlarini kengaytirish hamda texnologik yangilanishni korxonalarning ichki salohiyati bilan uyg‘unlashtirish. Ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Ularning natijadorligini GIIning tegishli indikatorlari orqali kuzatib borish mumkin.

Kalit so‘zlar: Global innovatsion indeks, milliy innovatsion tizim, innovatsiya resurslari, innovatsiya natijalari, ITTKI, o‘zlashtirish salohiyati, venchur moliyalashtirish, O‘zbekiston.

Аннотация. В статье инновационное развитие Узбекистана проанализировано на основе данных Глобального инновационного индекса (ГИИ) в сопоставлении с национальной статистикой. Исследование опирается на концепции национальных инновационных систем, абсорбционной способности и «инновационного парадокса». В 2020-2026 гг. Узбекистан поднялся в ГИИ с 93-го на 77-е место, что свидетельствует об устойчивой положительной динамике. Вместе с тем балл субиндекса инновационных результатов (19,2) пока уступает баллу субиндекса ресурсов (38,2). Это указывает на возможности более полного использования формирующихся инновационных ресурсов для получения практических результатов. По итогам анализа выделены четыре направления дальнейшего развития: расширение участия предприятий в научно-исследовательской деятельности, наращивание масштабов и международного участия научной деятельности, расширение возможностей венчурного рынка, а также согласование технологического обновления с внутренним потенциалом предприятий. По этим направлениям разработаны практические предложения. Их результативность можно отслеживать по соответствующим индикаторам ГИИ.

Ключевые слова: Глобальный инновационный индекс, национальная инновационная система, инновационные ресурсы, инновационные результаты, НИОКР, абсорбционная способность, венчурное финансирование, Узбекистан.

Abstract. The article analyses Uzbekistan’s innovation development using Global Innovation Index (GII) data alongside national statistics. The study draws on the concepts of national innovation systems, absorptive capacity and the “innovation paradox”. Between 2020 and 2026 Uzbekistan rose from 93rd to 77th place in the GII, which shows steady positive momentum. At the same time, the Innovation Output Sub-Index score (19.2) still trails the Innovation Input Sub-Index score (38.2). This points to scope for making fuller use of the country’s growing innovation resources to achieve practical results. The analysis identifies four directions for further development: broadening business participation in research, expanding the scale and international reach of scientific activity, widening the opportunities of the venture market, and aligning technological upgrading with firms’ internal capabilities. The article puts forward practical proposals in each of these areas. Their effectiveness can be tracked through the relevant GII indicators.

Keywords: Global Innovation Index, national innovation system, innovation inputs, innovation outputs, R&D, absorptive capacity, venture finance, Uzbekistan.

KIRISH

Innovatsion rivojlanishni jadallashtirish va iqtisodiyotda innovatsiyalarni keng joriy etish vazifalari 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasida belgilab berilgan [1]. Ushbu yo‘nalish “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida izchil davom ettirilib, innovatsion, yuqori qo‘shilgan qiymat yaratuvchi va raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan hamda 2030 yilga qadar O‘zbekistonni Global innovatsion indeksda (GII) dunyoning yetakchi 60 ta davlati qatoriga kiritish maqsad qilingan.[2]

2021-2024 yillarda mamlakatning innovatsion salohiyati sezilarli kengaydi: oliy ta’lim tashkilotlari talabalari soni 808,4 ming nafardan 1,43 mln nafarga (1,8 barobar) yetdi; ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (ITTKI) hajmi 1,07 trln so‘mdan 1,6 trln so‘mga, joriy qilingan innovatsiyalar soni 4,15 mingdan 5,52 gacha.[3] Ushbu o‘zgarishlar xalqaro reytingda ham aks etdi: O‘zbekiston GIIda 2020 yildagi 93-o‘rindan 2026 yilda 77-o‘ringa ko‘tarildi, innovatsiya natijalari subindeksi bo‘yicha esa bir yilda 92-o‘rindan 78-o‘ringa chiqdi.[17] 2030 yilgi maqsadgacha bo‘lgan farq 17 pog‘onani tashkil etadi. Innovatsiya natijalari subindeksi balli (19,2) resurslar subindeksi ballining (38,2) qariyb yarmini tashkil etadi. Bu shakllanayotgan innovatsion resurslarni amaliy natijalarga aylantirish imkoniyatlaridan kengroq foydalanish zaruratini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Frimen (Freeman, 1987) Yaponiya tajribasini o‘rganib, texnologik yutuqlar ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga (ITTKI) ajratilgan mablag‘lar hamda davlat, korxonalar va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikka bog‘liqligini ko‘rsatgan.[6] Lundvall innovatsiyani o‘zaro hamkorlikda bilim va tajriba orttirish jarayoni sifatida talqin qilib, ishlab chiqaruvchilar va foydalanuvchilar o‘rtasidagi bilim almashinuviga alohida ahamiyat bergan.[9] Nelson tahriri ostidagi qiyosiy tadqiqot esa milliy innovatsion tizimlar institutsional tuzilishi va faoliyat natijalari jihatidan sezilarli farqlanishini ko‘rsatgan.[11]

Mamlakatlarning innovatsion salohiyatini miqdoriy baholashda Furman, Porter va Stern taklif etgan “milliy innovatsion salohiyat” modeli muhim o‘rin tutadi. Mualliflar patentlash natijalarini umumiy innovatsion infratuzilma, klasterlardagi innovatsion muhit va ular o‘rtasidagi aloqalar sifati bilan bog‘lagan. Ushbu yondashuv innovatsion natijalar resurslar hajmi bilan bir qatorda, ularning o‘zaro bog‘liqligiga ham tayanishini ko‘rsatadi.[7] Koen va Levintal ishlab chiqqan “o‘zlashtirish salohiyati” tushunchasi bu qarashni to‘ldiradi.[5] Unga ko‘ra, korxonaning tashqi bilimlarning ahamiyatini anglash, ularni o‘zlashtirish va tijorat maqsadlarida qo‘llash qobiliyati o‘z tadqiqot faoliyati davomida to‘plangan bilim va tajribaga bog‘liq. Bu yondashuv xorijiy texnologiyalarni o‘zlashtirish orqali rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun alohida ahamiyatga ega.

Rivojlanayotgan mamlakatlardagi cheklovlarni Sirera va Maloney “innovatsiya paradoksi” orqali izohlaydi.[4] Texnologik jihatdan ortda qolayotgan mamlakatlarda innovatsiyaga kiritilgan investitsiyalardan kutiladigan qaytim yuqori bo‘lishi mumkin. Biroq korxonalarning boshqaruv, muhandislik va tashkiliy imkoniyatlari cheklanganligi bunday investitsiyalar hajmini ham qisqartiradi. Shu asosda mualliflar innovatsiya siyosatida tadqiqotlarni moliyalashtirish bilan birga korxonalar salohiyatini bosqichma-bosqich rivojlantirishga e’tibor qaratishni tavsiya etadi. BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasining O‘zbekiston bo‘yicha innovatsion sharhida ham milliy innovatsion tizim faoliyatini takomillashtirish, fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish hamda innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan.[13]

Global innovatsion indeks (GII) asosidagi tadqiqotlar resurslar va natijalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni batafsil o‘rganish imkonini beradi. Son, Kim va Jeon strukturaviy tenglamalar modeli yordamida indeks tarkibiy qismlari o‘rtasidagi bog‘lanishlarni baholab, resurslarni ifodalovchi yo‘nalishlarning innovatsion natijalarga ta’siri turlicha ekanini ko‘rsatgan.[12]

Yankovska va hammualliflar Polsha va Bolgariya tajribasida innovatsion resurslarning yuqori darajasiga mos natijalarga erishishda qo‘shimcha shart-sharoitlar muhimligini ko‘rsatgan.[8] Nasiyerovski va Arselus milliy innovatsion tizimlarni resurslar va natijalar nisbati asosida baholash yondashuvini taklif etgan.[10] Bu tadqiqotlar innovatsion rivojlanishni baholashda resurslar bilan ta’minlanganlik darajasi hamda ularning amaliy natijalarda qay darajada aks etishini birgalikda o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Markaziy Osiyo va O‘zbekistonga bag‘ishlangan tadqiqotlarda GII ma’lumotlaridan asosan mamlakatlararo taqqoslashda foydalaniladi. Adabiyotlar tahlili O‘zbekistonda GIIning alohida indikatorlarini milliy statistika va amaldagi siyosat vositalari bilan bog‘lab o‘rganish, shuningdek, 60-o‘ringa erishishni cheklayotgan omillarni aniqlashga qaratilgan tadqiqotlarni kengaytirish zarurligini ko‘rsatadi. Ushbu maqola mazkur masalalarni tahlil qilishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

GII ikkita subindeksdan iborat: Innovatsiya resurslari subindeksi (Innovation Input Sub-Index) va Innovatsiya natijalari subindeksi (Innovation Output Sub-Index). Innovatsiya resurslari subindeksi innovatsion faoliyatni ta’minlovchi shart-sharoitlarni beshta ustun orqali baholaydi: institutlar; inson kapitali va tadqiqotlar; infratuzilma; bozorning rivojlanganligi; biznesning rivojlanganligi. Innovatsiya natijalari subindeksi ikkita ustundan iborat bo‘lib, bilim va texnologiya natijalari hamda ijodiy natijalardan iborat. Har bir ustun uchtadan quyi ustunga (jami 21 ta), quyi ustunlar esa indikatorlarga bo‘linadi. 2025 yilgi nashrda 78 ta indikator qo‘llanilgan [14], 2026 yilgi O‘zbekiston profilida 79 ta indikator keltirilgan [18].

Resurslar subindeksi beshta ustunning, natijalar subindeksi ikkita ustunning oddiy arifmetik o‘rtachasiga, umumiy GII esa ikki subindeksning o‘rtachasiga teng:

$$GII = \frac{I + O}{2}$$

$$I = \frac{P_1 + P_2 + P_3 + P_4 + P_5}{5}$$


$$O = \frac{P_6 + P_7}{2}$$

bu yerda I va O – mos ravishda resurslar va natijalar subindekslari, $P_1 \ldots P_7$ – ustunlar balli.

O‘zbekiston 2026 yilda ketma-ket beshinchi yil rivojlanish darajasiga nisbatan yuqori innovatsion natija ko‘rsatayotgan 21 ta mamlakat qatoriga kiritilgan.[17]

ASOSIY TAHLIL VA NATIJALAR

2020-2026 yillarda O‘zbekistonning umumiy o‘rni 16 pog‘onaga, resurslar subindeksi bo‘yicha 13 pog‘onaga, natijalar subindeksi bo‘yicha esa 40 pog‘onaga yaxshilandi (1-rasm). Mamlakat quyi-o‘rta daromadli 36 ta iqtisodiyot orasida 8-o‘rinni, Markaziy va Janubiy Osiyoning 11 ta davlati orasida 4-o‘rinni egallaydi.[18]



1- rasm. O‘zbekistonning GII va uning subindekslari bo‘yicha o‘rni, 2020-2026 yillar[82]

2026 yilda umumiy ball 28,7 ga yetib, 2025 yilga nisbatan 2,2 ballga oshdi. Dekompozitsiya natijalariga ko‘ra, bu o‘sishning uchdan ikki qismi (1,42 ball) natija ustunlari, qolgan qismi (0,80 ball) resurs ustunlari hisobiga shakllangan. Biroq natijalar subindeksi balli (19,2) hamon resurslar subindeksi ballining (38,2) yarmiga teng: mavjud resurslarning natijaga aylanishi mamlakat innovatsion tizimining asosiy muammosi bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekistonning eng yuqori pozitsiyasi institutlar ustunida (57-o‘rin), eng past pozitsiyalari ijodiy natijalar (96-o‘rin) va biznesning rivojlanganligi (81-o‘rin) ustunlarida. Jumladan, deyarli har bir ustun ichida kuchli va zaif indikatorlar yonma-yon mavjud, shu sabab ustunning umumiy balli holatni to‘liq ochib bermaydi.

GII natijalarini milliy statistika bilan birgalikda tahlili quyidagi jihatlarni ko‘tardi.

Inson kapitali miqdor jihatidan o‘smoqda, tadqiqot intensivligi ortda qolmoqda. Inson kapitali va tadqiqotlar ustuni bir yilda 11 pog‘onaga ko‘tarilib, resurslar subindeksi ballining o‘sishiga eng katta hissa qo‘shdi. Oliy ta’lim qamrovining kengayishi inson kapitali bazasini mustahkamlamoqda. Shu bilan birga, ITTKI xarajatlarining YaIMga nisbati 0,1 foiz atrofida saqlanmoqda. Tadqiqotlarni moliyalashtirish darajasida hududiy tafovutlar ham mavjud: Toshkent shahrida ITTKI xarajatlarining yalpi hududiy mahsulotga nisbati 0,356 foizni, respublika bo‘yicha YaIMga nisbati esa 0,104 foizni tashkil etadi. Bu holat kadrlar tayyorlash ko‘lamining kengayishini tadqiqotlarni moliyalashtirish va ilmiy faoliyatga jalb etish imkoniyatlari bilan qo‘llab-quvvatlash zaruratini ko‘rsatadi.

Texnologiyalarni uskunalar orqali jalb etish bilan birga, korxonalarning ularni o‘zlashtirish salohiyatini mustahkamlash ham muhim. O‘zbekiston investitsiyalar (12-o‘rin) va yuqori texnologik import (27-o‘rin) bo‘yicha yuqori pozitsiyalarni egallamoqda. Korxonalar bajargan ITTKI xarajatlarining YaIMga nisbati 0,03 foizini (80-o‘rin), biznes sektoridagi tadqiqotchilar jami tadqiqotchilarning 4,4 foizini (78-o‘rin) tashkil etadi. 2018 yilgi ma’lumotlarda ushbu ko‘rsatkichlar mos ravishda 0,05 va 12,9 foiz bo‘lgan. Bu tafovut texnologik investitsiyalarni korxonalarning o‘z tadqiqot faoliyati bilan yanada kengroq bog‘lash imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatadi. Jumladan, Jizzax viloyatida 2021-2024 yillarda yirik avtomobilsozlik loyihalari hisobiga yuqori va o‘rta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarish ulushi 21,1 foizdan 54,8 foizga oshgan, ITTKI hajmi esa qisqargan. Ushbu dinamika texnologik ishlab chiqarishning kengayishi bilan birga mahalliy muhandislik va tadqiqot salohiyatini rivojlantirishga ham e’tibor qaratish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi.

Milliy ekspertlar so‘roviga asoslangan indikatorlarda O‘zbekiston yuqori o‘rinlarni egallagan. Milliy ekspertlar so‘roviga asoslangan indikatorlarda O‘zbekistonning tadbirkorlik siyosati va madaniyati (3-

[82] *Manba: WIPO 2026 ma’lumotlari asosida tomonidan tuzilgan.*

o‘rin), shuningdek, startaplar va o‘sib borayotgan korxonalarni moliyalashtirish sharoitlari (4-o‘rin) yuqori baholangan. Tartibga solish sifati bo‘yicha 107-o‘rin va jalb qilingan venchur bitimlari sonining iqtisodiyot hajmiga nisbati bo‘yicha 96-o‘rin esa ushbu yo‘nalishlarda rivojlanish imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatadi. Turli manbalar va usullarga asoslangan bu ko‘rsatkichlar birgalikda tadbirkorlik muhitidagi ijobiy jihatlar hamda qo‘shimcha e’tibor qaratish mumkin bo‘lgan yo‘nalishlarni yoritadi.

Olingan natijalar innovatsion rivojlanishga oid nazariy yondashuvlar bilan muayyan uyg‘unlikni ko‘rsatadi. O‘zbekistonning oliy ta’lim qamrovi va yalpi kapital jamg‘arilishi bo‘yicha nisbatan yuqori pozitsiyalari ITTKI, xalqaro patentlash va yuqori texnologiyali eksportni yanada rivojlantirish uchun asos yaratmoqda. Ushbu yo‘nalishlardagi ko‘rsatkichlar o‘rtasida tafovutlar saqlanmoqda. Bu Yankovska tadqiqotida ta’kidlaganidek, resurslardan innovatsion natijalarga o‘tishda qo‘shimcha shart-sharoitlar ham ahamiyatli ekanini ko‘rsatadi.

Mazkur jarayonda korxonalarning tashqi bilim va texnologiyalarni o‘zlashtirish qobiliyati alohida o‘rin tutadi. Biznes sektoridagi tadqiqotchilar ulushi va korxonalar bajargan ITTKI xarajatlarining YaIMga nisbatidagi pasayish, uskunalar importining yuqori darajasi bilan birgalikda, texnologik yangilanishni ichki tadqiqot salohiyatini rivojlantirish bilan to‘ldirishga e’tibor qaratadi. Koen va Levintal yondashuviga ko‘ra, korxonada to‘plangan bilim va tajriba tashqi texnologiyalarni o‘zlashtirish, moslashtirish va takomillashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Startaplarni moliyalashtirish sharoitlariga berilgan yuqori ekspert baholari hamda venchur bitimlari va korxonalarning ITTKI ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi tafovutni ham shu nuqtai nazardan ko‘rib chiqish mumkin. Sirera va Maloney tavsiflagan “innovatsiya paradoksi” moliyaviy imkoniyatlardan foydalanishda korxonalarning boshqaruv, muhandislik va tashkiliy salohiyati muhimligini ta’kidlaydi. O‘zbekistonda ushbu omillarning o‘zaro bog‘liqligini korxonalar darajasida o‘rganish mavjud imkoniyatlarni aniqroq baholashga yordam beradi.

Korxonalarning ichki salohiyatini rivojlantirish ilmiy va ta’lim tashkilotlari bilan hamkorlik orqali ham qo‘llab-quvvatlanishi mumkin. Innovatsion aloqalar bo‘yicha ko‘rsatkichlar bunday hamkorlikni kengaytirish uchun imkoniyatlar mavjudligini ko‘rsatadi. Furman tadqiqoti yondashuviga muvofiq, innovatsion natijalarni baholashda resurslar hajmi bilan birga ular o‘rtasidagi aloqalar sifatini ham hisobga olish muhimligini anglatadi.

Komponentlar bo‘yicha tahlil O‘zbekistonning GIIda 60-o‘ringa erishish maqsadi doirasida qo‘shimcha e’tibor qaratish maqsadga muvofiq bo‘lgan o‘zaro bog‘liq yo‘nalishni ajratish imkonini berdi.

1. Korxonalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatidagi ishtirokini kengaytirish. Korxonalar bajargan ITTKI xarajatlarining YaIMga nisbati 0,03 foizini tashkil etadi, jami tadqiqotchilarning 4,4 foizi biznes sektorida faoliyat yuritadi. Fan va sanoatning qo‘shma nashrlari hamda xalqaro patent oilalari bo‘yicha ko‘rsatkichlar ham hamkorlikni rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatadi. Korxonalarni tadqiqot jarayonlariga kengroq jalb etish mavjud resurslarni amaliy natijalar bilan bog‘lashga xizmat qilishi mumkin.

2. Ilmiy-tadqiqot faoliyati ko‘lami va xalqaro ishtirokini oshirish. ITTKI xarajatlarining YaIMga nisbati 0,1 foiz atrofida saqlanmoqda, tadqiqot resurslarining salmoqli qismi Toshkent shahrida jamlangan. Ilmiy maqolalar, H-indeks va Patent kooperatsiyasi to‘g‘risidagi shartnoma (PCT) doirasidagi xalqaro talabnomalari bo‘yicha mamlakat 100-o‘rindan keyingi pozitsiyalarni egallamoqda. Oliy ta’lim qamrovining kengayishi ushbu yo‘nalishlarni rivojlantirish uchun baza yaratmoqda. Bu imkoniyatlarni ta’lim sifatini yaxshilash, xalqaro akademik harakatchanlik va ilmiy hamkorlikni kengaytirish orqali mustahkamlash maqsadga muvofiq.

3. Innovatsiyalarni moliyalashtirishda venchur bozori imkoniyatlarini kengaytirish. Milliy ekspertlar so‘rovida startaplarni moliyalashtirish sharoitlari yuqori baholangan. Ayni paytda venchur bitimlari, venchur investorlar faolligi va xususiy sektorga kredit ajratish ko‘rsatkichlari bo‘yicha 87-96-o‘rinlar qayd etilgan. Turli jihatlarni ifodalovchi ushbu baholar moliyalashtirish sharoitlaridagi ijobiy o‘zgarishlarni investitsiya faolligining oshishi bilan to‘ldirishga e’tibor qaratadi.

4. Texnologik yangilanishni korxonalarning ichki salohiyati bilan uyg‘unlashtirish. Yalpi kapital jamg‘arilishi va yuqori texnologiyali import bo‘yicha yuqori pozitsiyalar texnologik rivojlanish uchun imkoniyatlar yaratmoqda. Dasturiy ta’minotga xarajatlar (117-o‘rin), ITTKI va yuqori texnologiyali faoliyatga yo‘naltirilgan yangi investitsiya loyihalari (96-o‘rin), yuqori texnologiyali eksport (87-o‘rin) hamda mahalliy raqamli kontent yaratish (100-105-o‘rinlar) bo‘yicha ko‘rsatkichlar esa qo‘shimcha rivojlanish yo‘nalishlarini ko‘rsatadi. Texnologik ishlab chiqarishning kengayishini mahalliy muhandislik, tadqiqot va raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish bilan qo‘llab-quvvatlash muhim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonda innovatsion resurslar o‘sib bormoqda, biroq ularning amaliy natijaga aylanishi nisbatan sekin kechmoqda. Shu muammoni hal etishga qaratilgan quyidagilar taklif etiladi. Ularning natijadorligini GIIning tegishli indikatorlari orqali kuzatib borish mumkin.

1. Ilmiy tadqiqotlarni korxonalar ehtiyojiga bog‘lash. Ilmiy ishlanma amaliyotga joriy etilishi uchun u korxonaning aniq texnologik ehtiyojidan kelib chiqishi kerak.[9] Shu sabab tadqiqotlarni moliyalashtirishda korxona buyurtma beradigan va xarajatning bir qismini o‘zi qoplaydigan tartibni kengaytirish maqsadga muvofiq. Bir xil muammoga duch kelgan bir nechta korxona birgalikda buyurtma bersa, har birining xarajati va xatari kamayadi. Yosh tadqiqotchilarni korxonalardagi amaliy loyihalarga jalb etish esa biznes sektorida ilmiy kadrlar sonini oshiradi.

2. Ilmiy faoliyatni natijaga yo‘naltirish va xalqaro darajaga olib chiqish. O‘zbekistonda ilm-fanga ajratiladigan mablag‘ni ko‘paytirish bilan birga, uni aniq natija beradigan loyihalarga yo‘naltirish muhim.

Mablag‘ ajratishda xalqaro jurnallardagi maqolalar, xalqaro patent talabnomalari (PCT) va amaliyotga joriy etilgan ishlanmalar kabi tekshirish mumkin bo‘lgan natijalarni asosiy mezon qilib olish maqsadga muvofiq. Xalqaro ilmiy hamkorlik va olimlar almashinuvi ilmiy natijalarning jahonda tanilishiga yordam beradi.

3. Venchur moliyalashtirishga xususiy investorlarni jalb etish. Innovatsion loyihalar, ayniqsa, dastlabki bosqichda yuqori xatarga ega bo‘ladi, shuning uchun xususiy investorlar ularga mablag‘ kiritishga ikkilanadi. Davlat bu bo‘shliqni to‘ldirishi mumkin, biroq u yolg‘iz moliyalashtirsa, xususiy investorlar bozordan chetda qoladi. Shu sabab davlat venchur mablag‘larini faqat xususiy investorlar bilan birgalikda va teng shartlarda kiritish tamoyilini qo‘llash maqsadga muvofiq. Bu choralar innovatsion kichik va o‘rta korxonalar uchun kredit olish imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga amalga oshirilishi tavsiya etiladi.

4. Korxonalarning yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish qobiliyatini oshirish. Korxona xorijdan keltirilgan texnologiyadan to‘liq foydalanishi uchun uning o‘z mutaxassislari va bilim bazasi bo‘lishi.[5] O‘zbekistonda texnologiya importi yuqori, biroq korxonalarning ichki salohiyati cheklangan. Shu sabab kichik va o‘rta korxonalarga muhandislik, sifat nazorati, energiya tejash va raqamli yechimlarni joriy etish bo‘yicha xizmatlar xarajatining bir qismini davlat tomonidan qoplash maqsadga muvofiq. Shuningdek, yirik investitsiya loyihalarida mahalliy muhandislik va tadqiqot bo‘linmalarini tashkil etish hamda mahalliy yetkazib beruvchilarni ishlab chiqarishga jalb etishni rag‘batlantirish taklif etiladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 06.07.2022 yildagi PF-165-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakat taraqqiyotining 2030 yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 16.02.2026 yildagi PF-21-sonli Farmoni
3. O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika qo‘mitasi.
4. Cirera, X., Maloney, W. (2017), The Innovation Paradox: Developing-Country Capabilities and the Unrealized Promise of Technological Catch-Up, Washington, DC, World Bank. DOI:10.1596/978-1-4648-1160-9
5. Cohen, W.M. and Levinthal, D.A. (1990) Absorptive Capacity: A New Perspective on Learning and Innovation. Administrative Science Quarterly, 35, 128-152. https://doi.org/10.2307/2393553
6. Freeman, C. (1987), Technology Policy and Economic Performance: Lessons from Japan, London, Pinter.
7. Furman, J.L., Porter, M.E. and Stern, S. (2002), “The determinants of national innovative capacity”, Research Policy, 31(6), pp. 899-933.
8. Jankowska, B., Matysek, A., Mroczek-Dąbrowska, K. (2017), “Efficiency of national innovation systems – Poland and Bulgaria in the context of the Global Innovation Index”, Comparative Economic Research, 20(3), pp. 77-94.
9. Lundvall, B.A. (2010). National Systems of Innovation: Towards a Theory of Innovation and Interactive Learning, London, Pinter.
10. Nasierowski, W. Arcelus, F. J., 2003. “On the efficiency of national innovation systems”, Socio-Economic Planning Sciences, Elsevier, vol. 37(3), pp. 215-234.
11. Nelson, R.R. (ed.) (1993), National Innovation Systems: A Comparative Analysis, New York, Oxford University Press.
12. Sohn, S.Y., Kim, D.H. and Jeon, S.Y. (2016), “Re-evaluation of global innovation index based on a structural equation model”, Technology Analysis & Strategic Management, 28(4), pp. 492-505. DOI:10.1080/09537325.2015.1104412
13. UNECE (2022), Innovation for Sustainable Development Review of Uzbekistan, Geneva, United Nations, doi:10.18356/9789210013635.
14. WIPO (2025a), Global Innovation Index 2025, Geneva, World Intellectual Property Organization
15. WIPO (2026), Global Innovation Index 2026: Powering Entrepreneurs at the Frontier of Science, Geneva, World Intellectual Property Organization, doi:10.34667/tind.59194.
16. WIPO (2026), Global Innovation Index 2026: Uzbekistan – economy profile, Geneva, World Intellectual Property Organization, https://www.wipo.int/edocs/gii-ranking/2026/uz.pdf.
17. WIPO (2026a), Global Innovation Index 2026: Powering Entrepreneurs at the Frontier of Science, Geneva, World Intellectual Property Organization, doi:10.34667/tind.59194.
18. WIPO (2026b), Global Innovation Index 2026: Uzbekistan – economy profile, Geneva, World Intellectual Property Organization, https://www.wipo.int/edocs/gii-ranking/2026/uz.pdf.

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Muxsimova Dilafruz Xikmatullayevna Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti / Мухсимова Дилафруз Хикматуллаевна Институт макроэкономических и региональных исследований / Mukhsimova Dilafruz Khikmatullayevna Institute for
E-mail: Mdh_dimond@mail.ru

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.10.10.2026.33 *Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi*

AUTSORSING XIZMATLARINING SAMARADORLIGI VA SIFATINI OSHIRISHDA TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLAR

Nasiba Ergasheva

ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ И КАЧЕСТВА АУТСОРСИНГОВЫХ УСЛУГ

Насиба Эргашева

ORGANIZATIONAL-ECONOMIC MECHANISMS FOR ENHANCING THE EFFICIENCY AND QUALITY OF OUTSOURCING SERVICES

Nasiba Ergasheva

Annotatsiya. Mazkur maqolada autsorsing xizmatlarining samaradorligi va sifatini oshirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning o‘rni va ahamiyati tadqiq etilgan. Autsorsing xizmatlarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi ishlab chiqilgan bo‘lib, ular samaradorligini oshirish, operatsion xarajatlarni kamaytirish va korxonalarning raqobatbardoshligini mustahkamlashga qaratilgan. Tadqiqot natijalari asosida autsorsing xizmatlarini samaradorlikka erishish bo‘yicha xulosa va sohaning tashkiliy-iqtisodiy modeli taklif qilingan.

Kalit so‘zlar: autsorsing, xizmatlar samaradorligi, xizmatlar sifati, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar, xarajatlarni optimallashtirish, mehnat unumdorligi, raqamlashtirish, shartnomaviy munosabatlar, biznes jarayonlari.

Аннотация. В статье рассматриваются роль и значение организационно-экономических механизмов в повышении эффективности и качества аутсорсинговых услуг. Разработан организационно-экономический механизм для сферы аутсорсинга, направленный на повышение эффективности, снижение операционных затрат и укрепление конкурентоспособности предприятий. На основе результатов исследования сформулированы выводы относительно достижения эффективности аутсорсинговых услуг, а также предложена организационно-экономическая модель для данной сферы.

Ключевые слова: аутсорсинг, эффективность услуг, качество услуг, организационно-экономические механизмы, оптимизация затрат, производительность труда, цифровизация, договорные отношения, бизнес-процессы.

Abstract. This article examines the role and significance of organizational-economic mechanisms in enhancing the efficiency and quality of outsourcing services. An organizational-economic mechanism for outsourcing services has been developed, aimed at increasing efficiency, reducing operational costs, and strengthening the competitiveness of enterprises. Based on the research findings, conclusions regarding the achievement of efficiency in outsourcing services are presented, and an organizational-economic model for the sector is proposed.

Keywords: outsourcing, service efficiency, service quality, organizational-economic mechanisms, cost optimization, labor productivity, digitalization, contractual relations, business processes.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyotda raqobatning kuchayishi, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va korxonalar faoliyatiga qo‘yilayotgan talablarning ortib borishi xo‘jalik yurituvchi subyektlardan mavjud resurslardan oqilona foydalanishni talab etmoqda. Bunday sharoitda korxonalarning barcha yordamchi va qo‘shimcha funksiyalarni mustaqil bajarishi har doim ham iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo‘lavermaydi. Shu sababli ayrim biznes jarayonlarini ixtisoslashgan tashqi tashkilotlarga topshirishni nazarda tutuvchi autsorsing modeli korxonalar faoliyatini tashkil etishning asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Shuningdek, autsorsingni davlat muassasalari xizmatlariga qo‘llashda budjet xizmatlarini amalga oshiradigan budjet tashkilotlari, tijorat va notijorat tashkilotlarining raqobatbardoshligi hamda budjet xarajatlarining natijadorligini oshirishda autsorsingdan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Autsorsing xizmatlari buxgalteriya hisobi, axborot texnologiyalari, logistika, marketing, kadrlar boshqaruvi, mijozlarga xizmat ko‘rsatish, huquqiy maslahat va boshqa faoliyat yo‘nalishlarini qamrab oladi. Ushbu xizmatlardan samarali foydalanish korxonalarga asosiy faoliyat turiga e’tibor qaratish, ayrim doimiy xarajatlarni o‘zgaruvchan xarajatlarga aylantirish, malakali mutaxassislar xizmatidan foydalanish va boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish imkonini

beradi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ijro etuvchi hokimiyat organlari va davlat korxonalarida autsorsing xizmatlarini tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[1]gi Qarori ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda davlat korxonalarida funksiyalarni autsorsing shartlari asosida tashkil etish tartibini belgilashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Autsorsing tushunchasi va uning iqtisodiy mohiyatini o‘rganishda ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlari tahlil qilindi. Xususan, R.Mclvor “Employing business improvement techniques to improve performance and reduce risk in services outsourcing”[2] nomli monografiyasida biznesni takomillashtirish texnikasidan xizmatlarni autsorsing qilishning turli bosqichlarida samaradorlikni oshirish va xavfni kamaytirish uchun foydalanish mumkin bo'lgan amaliy asosni ishlab chiqqan. Shuningdek, M.Charles va S.B.Ochieng “Strategic Outsourcing and Firm Performance: A Review of Literature”[3] nomli maqolasida strategik autsorsing va firma faoliyati o'rtasidagi bog'liqlik, shuningdek, xizmat ko'rsatish tezligining vositachilik ta'siri va raqobatbardoshlik intensivligining mo'tadil ta'siri bo'yicha kontseptual, nazariy va empirik adabiyotlarni ko'rib chiqilgan.

G.Ye, X.Zhu va S.K.Mukhopadhyay “Managing Service Quality in Multiple Outsourcing”[4] nomli maqolasida autsorsing firmasiga yetkazib beruvchilarga ta'sir qilish va yuqori xizmat sifati va foyda darajasiga erishish uchun bozor o'zgaruvchilarini manipulyatsiya qilish usullari bo'yicha amaliy ko'rsatmalar berilgan. Shu bilan birga, V.Srivastava, A.Sharfuddin va S.Datta “Managing quality in outsourcing of high-end services: a conceptual model”[5] nomli maqolada xizmat ko'rsatishdagi kamchiliklarning oldingi holatlarini o'rganish uchun SERVQUAL modeli va elektron manbalar imkoniyatlari yetukligi tizimining kombinatsiyasi keltirilgan.

Mahalliy olimlarimiz tomonidan mavzuga oid ko‘plab tadqiqotlar o‘rganilgan hamda “Autsorsing (outsourcing) – tashkilotning u yoki yoki funksiyalarini shu faoliyatni olib borishga ixtisoslashgan tashqi ijro etuvchilarga berishdir”[6], kabi ta’rif berilgan. Bundan tashqari Sh.Shodmonovning “Autsorsing xizmatlari va uning nazariy asoslari”[7] nomli maqolasida iqtisodiyotning barcha sohalarida autsorsing xizmatlarini joriy qilishning natijalari o‘rganilgan bo‘lsa, Sh.Kuvandikov va M.Mirxonovlarning “Xizmatlar sohasini rivojlantirishda autsorsing xizmatlarining o‘rni”[8] nomli maqolasida esa autsorsing xizmatlari axborot texnologiyalari, buxgalteriya va moliya, inson resurslari, mijozlarga xizmat ko‘rsatish va marketing turlariga bo‘lib o‘rgangan.

N.Sulaymonovning “Autsorsing xizmatlari raqamli platformalarini takomillashtirishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish usullari”[9] nomli maqolasida autsorsing xizmatlariga raqamli platformalarning ta’sirini yoritib bergan bo‘lsa, Alisher Shaynazarov “Xizmat ko‘rsatkich sohasiga autsorsing xizmatini qo‘llash afzalliklari va iqtisodiy samaradorligi”[10] nomli maqolasida mintaqaning bugungi kunda yangi zamonaviy xizmatlar qatorida autsorsing xizmatlarining o‘ziga xos xususiyatlari, muvaffaqiyat strategiyalarini yoritib bergan.

Yuqoridagi olimlarning adabitoylarini tahlil qilib, autsorsing xizmatlari – bu tashkilotning ayrim funksiyalarini yoki ish jarayonlarini (masalan, buxgalteriya, IT yoki klining) uchinchi tomon ixtisoslashgan kompaniyasiga shartnoma asosida topshirishdir, degan maqbul ta’rifga to‘xtalamiz.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Mazkur tadqiqotda autsorsing xizmatlarining samaradorligi va sifatini oshirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning o‘rni va ta’sirini o‘rganishda tizimli yondashuv, ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, qiyosiy tahlil hamda mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida autsorsingning nazariy asoslari bo‘yicha xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari o‘rganilib, ularning yondashuvlari umumlashtirildi. Qiyosiy tahlil asosida autsorsing xizmatlaridan foydalanish bilan bog‘liq iqtisodiy afzalliklar va tashkiliy muammolar aniqlanib, tadqiqot natijalarini umumlashtirish orqali xizmatlar sifati va samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan ilmiy-amaliy xulosalar hamda takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonda tadbirkorlik subyektlari faoliyatini modernizatsiya qilish, xizmatlar sohasini rivojlantirish va iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish jarayonida autsorsing xizmatlaridan foydalanishning ahamiyati ortib bormoqda. Ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun buxgalteriya, axborot texnologiyalari, logistika va marketing xizmatlarini tashqi tashkilotlardan olish yuqori malakali mutaxassislar xizmatidan nisbatan moslashuvchan shartlarda foydalanish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, xizmatlar sifatining beqarorligi, ijrochilar faoliyati ustidan nazoratning yetarli emasligi, axborot xavfsizligi bilan bog‘liq xatarlar va shartnomaviy majburiyatlarning to‘liq bajarilmasligi kabi muammolar autsorsingni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Autsorsing xizmatlarining samaradorligi buyurtmachi tashkilotning iqtisodiy maqsadlari bilan xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotning imkoniyatlari o‘rtasidagi muvofiqlikka bog‘liq. Agar tashqi ijrochi zarur malaka, texnologik baza va boshqaruv tajribasiga ega bo‘lsa, u muayyan xizmatni buyurtmachi tashkilotning ichki bo‘linmasiga nisbatan sifatliroq va tejamkorroq bajarishi mumkin. Biroq kutilgan natijaga erishish uchun autsorsing jarayonlari oldindan rejalashtirilishi, xizmatlarning chegaralari aniq belgilanishi va bajarilgan ishlar natijasi o‘lchanadigan mezonlar orqali baholanishi lozim.

Autsorsing xizmatlarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi o‘zaro bog‘liq bo‘lgan bir nechta tarkibiy elementlardan tashkil topadi. Ularning asosiylari strategik rejalashtirish, xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotni tanlash, shartnomaviy munosabatlarni tashkil etish, moliyaviy rag‘batlantirish, sifat nazorati, raqamli boshqaruv va xatarlarni kamaytirishdan iborat (1-rasmga qarang).



1-rasm. Autsorsing xizmatlarining sifatini oshirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar[83]


Rasm ma’lumotlariga ko‘ra tashkiliy mexanizmlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, autsorsing xizmatlarini strategik rejalashtirish mexanizmida korxonaning asosiy va yordamchi faoliyat yo‘nalishlarini tahlil qilish, autsorsingga topshirilishi mumkin bo‘lgan vazifalarni aniqlash hamda xizmatlarni tashqi ijrochilarga berish strategiyasini ishlab chiqishni nazarda tutadi. Bu mexanizm korxona resurslarini ustuvor faoliyat yo‘nalishlariga yo‘naltirish va boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Autsorsing xizmatlarini ko‘rsatuvchi tashkilotlarni tanlash va baholash mexanizmi esa xizmat yetkazib beruvchilarni malakasi, tajribasi, texnik imkoniyatlari, ishonchliligi va mijozlar bilan ishlash sifati asosida tanlashni o‘z ichiga oladi. Pudratchilar faoliyatini oldindan belgilangan mezonlar asosida baholash xizmatlarning uzluksizligi va sifatini ta’minlash imkonini beradi. Shartnomaviy munosabatlar va xizmat sifatini nazorat qilish mexanizmida autsorsing xizmatlari bo‘yicha shartnomalarda tomonlarning huquq va majburiyatlari, xizmat ko‘rsatish muddatlari, sifat standartlari, javobgarlik hamda xizmat darajasi ko‘rsatkichlarini belgilashni nazarda tutadi. Ushbu mexanizm xizmatlarning belgilangan talablar asosida bajarilishini nazorat qilish va nizolarni kamaytirishga yordam beradi. Raqamli boshqaruv va muvofiqlashtirish mexanizmida autsorsing jarayonlarini raqamli platformalar, elektron hujjat aylanishi, avtomatlashtirilgan monitoring tizimlari va axborot almashinuvi vositalari orqali boshqarishni anglatadi. Mazkur mexanizm buyurtmachi va xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot o‘rtasidagi hamkorlikni tezlashtiradi, axborot almashinuvidagi xatolarni kamaytiradi hamda xizmatlar sifatini doimiy kuzatish imkonini yaratadi.

Iqtisodiy mexanizmlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, xarajatlarni optimallashtirish va iqtisodiy samaradorlikni baholash mexanizmda autsorsingdan foydalanish natijasida yuzaga keladigan xarajatlarni ichki xizmatlarni tashkil etish xarajatlari bilan taqqoslash, jumladan, ish haqi, uskunalar, texnik xizmat ko‘rsatish, soliq va ma’muriy xarajatlarni hisobga olishni nazarda tutadi. Bu mexanizm iqtisodiy jihatdan eng maqbul xizmat ko‘rsatish shaklini tanlash va korxona xarajatlarini kamaytirishga yordam bersa, narx belgilash va moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmi esa autsorsing xizmatlari narxini xizmat hajmi, murakkabligi, sifati va bozor sharoitlaridan kelib chiqib belgilashni nazarda tutadi. Shuningdek, xizmat sifatining yuqori ko‘rsatkichlariga erishgan ijrochilarni bonuslar bilan rag‘batlantirish hamda shartnoma talablarini buzganlik uchun iqtisodiy javobgarlik choralarini qo‘llash xizmatlar sifatini oshirishga undaydi.

Investitsiyalar va texnologik modernizatsiyani moliyalashtirish mexanizmida autsorsing xizmatlarini rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalar, dasturiy ta’minot, uskunalar va malakali mutaxassislarga investitsiya kiritishni nazarda tutadi. Texnologik yangilanish xizmat ko‘rsatish tezligini oshirish, inson omili bilan bog‘liq xatolarni kamaytirish va mehnat unumdorligini yuksaltirishga xizmat qilsa, moliyaviy

[83] Muallif ishlanmasi

natijadorlik va iqtisodiy risklarni boshqarish mexanizmi utsorsing shartnomalarining rentabelligini, investitsiyalar qaytimini, tejalgan xarajatlar miqdorini va xizmatlar natijasida olingan iqtisodiy samara darajasini muntazam baholashni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, narxlarning o‘zgarishi, xizmatlarning kechikishi, ijrochining majburiyatlarni bajarmasligi va kutilmagan xarajatlar bilan bog‘liq risklarni kamaytirish choralari ishlab chiqiladi.



2-rasm. Autsorsing xizmatlarining tashkiliy-iqtisodiy modeli[84]

Tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning ishlash jarayoni autsorsing xizmatlarining samaradorligi va sifatini oshirishga qaratilgan o‘zaro bog‘liq bosqichlardan iborat. Dastlab, korxona faoliyatida mavjud muammolar, jumladan, xarajatlarning yuqoriligi, xizmatlar sifatining talab darajasida emasligi hamda ish jarayonlarining samarasiz tashkil etilishi aniqlanadi. Shundan so‘ng, qaysi xizmatlarni autsorsingga topshirish maqsadga muvofiqligi belgilanib, tegishli xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot tanlanadi, shartnomaviy munosabatlar yo‘lga qo‘yiladi va xizmat sifatini nazorat qilish tartibi ishlab chiqiladi. Ushbu bosqichda tashkiliy mexanizmlar muhim ahamiyat kasb etib, xizmatlarni rejalashtirish, ijrochilar faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqaruv jarayonlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tashkiliy mexanizmlar bilan bir qatorda iqtisodiy mexanizmlar ham autsorsing xizmatlarining natijadorligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Ular xizmat narxini asoslash, moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash, xarajatlarni optimallashtirish, investitsiyalarni jalb etish va xizmat ko‘rsatuvchilarni iqtisodiy rag‘batlantirish orqali amalga oshiriladi. Bunda autsorsing xizmatlarining qiymati korxonaning ichki imkoniyatlari asosida xizmat ko‘rsatish xarajatlari bilan taqqoslanadi hamda kutilayotgan iqtisodiy samara baholanadi. Shu bilan birga, shartnomada belgilangan sifat ko‘rsatkichlariga erishish, xizmatlarni o‘z vaqtida bajarish va moliyaviy majburiyatlarga rioya etish ijrochining faoliyatini baholash mezonlari sifatida qo‘llaniladi. Natijada iqtisodiy mexanizmlar korxona xarajatlarini kamaytirish bilan birga, xizmatlar sifati va mehnat unumdorligini oshirish uchun zarur iqtisodiy sharoitlarni yaratadi.

Tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarning o‘zaro uyg‘unligi autsorsing xizmatlarini doimiy monitoring qilish, erishilgan natijalarni baholash va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish imkonini beradi. Bunda xizmat ko‘rsatish muddati, bajarilgan ishlarning sifati, mijozlar qoniqishi, tejalgan mablag‘lar va mehnat unumdorligi kabi ko‘rsatkichlar asosida faoliyat samaradorligi aniqlanadi. Monitoring natijalariga ko‘ra,

[84] Muallif ishlanmasi

xizmat ko‘rsatish tartibiga tegishli o‘zgartirishlar kiritilib, shartnomaviy munosabatlar va iqtisodiy rag‘batlantirish choralari takomillashtiriladi. Demak, mazkur mexanizmlarning izchil qo‘llanilishi autsorsing xizmatlarining samaradorligini oshirish, operatsion xarajatlarni maqbullashtirish, xizmatlar sifatini yaxshilash va korxonaning raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, autsorsing xizmatlarining samaradorligi va sifatini oshirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlardan kompleks foydalanish asosiy ahamiyat kasb etadi. Tashkiliy mexanizmlar strategik rejalashtirish, xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlarni tanlash, shartnomaviy munosabatlarni tartibga solish hamda raqamli boshqaruvni takomillashtirish orqali xizmatlarni samarali tashkil etishga yordam beradi. Iqtisodiy mexanizmlar esa xarajatlarni optimallashtirish, narx belgilash, moliyaviy rag‘batlantirish, texnologik modernizatsiya va iqtisodiy risklarni boshqarishga yo‘naltiriladi. Mazkur mexanizmlarning o‘zaro uyg‘unligi korxonalarning moliyaviy resurslaridan oqilona foydalanish, xizmatlar sifatini yaxshilash va mehnat unumdorligini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, xizmat ko‘rsatish natijalarini muntazam monitoring qilish hamda ijrochilar faoliyatini aniq mezonlar asosida baholash autsorsing jarayonlaridagi muammolarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etishga xizmat qiladi. Demak, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni izchil takomillashtirish autsorsing xizmatlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish, operatsion xarajatlarni kamaytirish va korxonalar raqobatbardoshligini mustahkamlashning muhim shartidir.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, autsorsing xizmatlarining samaradorligi va sifatini oshirish bo‘yicha quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Birinchidan, autsorsing xizmatlarini strategik rejalashtirish va ijrochilarni tanlash tizimini takomillashtirishda xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlarni tanlashda ularning kasbiy malakasi, ish tajribasi, texnologik imkoniyatlari, moliyaviy barqarorligi va xizmat sifati bo‘yicha ko‘rsatkichlarini baholashning yagona mezonlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq;

Ikkinchidan, autsorsing xizmatlari bo‘yicha shartnomaviy munosabatlar va sifat nazoratini kuchaytirish uchun shartnomalarda xizmat ko‘rsatish muddatlari, sifat standartlari, tomonlarning javobgarligi, xizmat darajasini baholash ko‘rsatkichlari hamda majburiyatlar bajarilmagan holatlarda qo‘llaniladigan choralarni aniq belgilash taklif etiladi;

Uchinchidan, autsorsing xizmatlarini raqamlashtirish va iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlarini rivojlantirish, xususan, elektron hujjat aylanishi, avtomatlashtirilgan monitoring va raqamli hisobot tizimlarini joriy etish, shuningdek, xizmat ko‘rsatuvchilarni belgilangan sifat ko‘rsatkichlariga erishganligi uchun moliyaviy rag‘batlantirish xizmatlar tezkorligi va ishonchliligini oshirishga yordam beradi;

To‘rtinchidan, autsorsing xizmatlarining iqtisodiy samaradorligini muntazam baholash va risklarni boshqarish tizimini joriy etish maqsadga muvofiq. Bunda autsorsingdan oldingi va keyingi xarajatlarni taqqoslash, tejalgan mablag‘lar miqdorini aniqlash, xizmatlar sifati va mijozlar qoniqishini baholash hamda axborot xavfsizligi, xizmatlarning kechikishi va kutilmagan xarajatlar bilan bog‘liq xatarlarni kamaytirish choralarini ishlab chiqish tavsiya etiladi;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

[1]. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ijro etuvchi hokimiyat organlari va davlat korxonalarida autsorsing xizmatlarini tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori 12.06.2026 yildagi 306-son https://lex.uz/uz/docs/-8265856#-8268558

[2]. Ronan Mclvor “Employing business improvement techniques to improve performance and reduce risk in services outsourcing” published for the Research Committee of The Institute of Chartered Accountants of Scotland (ICAS). 2013 ISBN 978-1-904574-93-4 EAN 9781904574934 https://icas-com.uksouth01.umbraco.io/media/jryby45g/employing-business-improvement-techniques-to-improve-performance-2013.pdf

[3]. Muo Charles, Sei Benson Ochieng “Strategic Outsourcing and Firm Performance: A Review of Literature” International Journal of Social Science and Humanities Research ISSN 2959-7056 (online) Vol. 1, Issue 1, pp: (20-29), Month: June - December 2023 https://www.researchgate.net/profile/Muo-Charles/publication/372748300_Strategic_Outsourcing_and_Firm_Performance_A_Review_of_Literature/links/65e5a8d0c3b52a1170139c4f/Strategic-Outsourcing-and-Firm-Performance-A-Review-of-Literature.pdf

[4]. Guangliang Ye,Xiaowei Zhu &Samar K. Mukhopadhyay “Managing Service Quality in Multiple Outsourcing” International Journal of Electronic Commerce Volume 18, 2014 - Issue 3 Pages 125-149 | Published online: 06 Dec 2014 https://www.tandfonline.com/doi/abs/10.2753/JEC1086-4415180305

[5]. Vandana Srivastava,A. Sharfuddin &Subhash Datta Managing quality in outsourcing of high-end services: a conceptual model Total Quality Management & Business Excellence Volume 23, 2012 - Issue 11-12: Quality of Services https://www.tandfonline.com/doi/abs/10.1080/14783363.2012.733267

[6]. Autsorsing afzalliklari va uni joriy etishning asoslari 29.03.2023 https://www.uzmarkaz.uz/news/autsorsing-afzalliklari-va-uni-joriy-etishning-asoslari

[7]. Shokir Shodmonovning “Autsorsing xizmatlari va uning nazariy asoslari” nomli maqolasida July 2024 Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil 2(7):167-172 https://www.researchgate.net/publication/383076115_autsorsing_xizmatlari_va_uning_nazariy_asoslari

[8]. Kuvandikov Shuxrat va Mirxonov Mirfoziljon “Xizmatlar sohasini rivojlantirishda autsorsing xizmatlarining o‘rni” Ilg‘or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar 2(4):75-79 July 2025 file:///C:/Users/User/Downloads/xizmatlar_sohasini_rivojlantirishda_autsorsing_xiz.pdf

[9]. Nazar Sulaymonovg “Autsorsing xizmatlari raqamli platformalarini takomillashtirishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish usullari Journal of Research and Innovations” Vol. 4 No. 3 (2026) Published July 1, 2026 https://imfaktor.com/index.php/jorai/article/view/624

[10]. Alisher Shaynazarov “Xizmat ko‘rsatkich sohasiga autsorsing xizmatini qo‘llash afzalliklari va iqtisodiy samaradorligi” Ilg‘or Iqtisodiyot va Pedagogik Texnologiyalar, 2(5), 572-577. Jild 2 № 5 (2025). https://sci-p.uz/index.php/aept/article/view/3150

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Nasiba Ergasheva Qarshi davlat texnika universiteti professori, i.f.d., DSc / Насиба Эргашева Каршинский государственный технический университет Профессор, доктор экономических наук (DSc) / Nasiba Ergasheva Karshi State Technical University Professor, Doctor of Economics (DSc)
E-mail: nasibaergasheva1988@gmail.com

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.10.10.2026.34 *Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik*

QASHQADARYO VILOYATIDA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH MASALALARI VA TAHLILI

Xushvaqov Anvar Boqiyevich

ВОПРОСЫ И АНАЛИЗ, КАСАЮЩИЕСЯ СОКРАЩЕНИЯ БЕДНОСТИ ПОСРЕДСТВОМ РАЗВИТИЯ ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Хушваков Анвар Бокиевич

ISSUES AND ANALYSIS REGARDING POVERTY REDUCTION THROUGH THE DEVELOPMENT OF PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN THE QASHQADARYO REGION

Khushvakov Anvar Bokievich

Annotatsiya. Maqolada Qashqadaryo viloyatida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash orqali aholi bandligini ta’minlash hamda kambag‘allikni qisqartirish masalalari tahlil qilingan. Hududning tabiiy-iqtisodiy salohiyati, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining hududiy taqsimoti hamda ularning iqtisodiy o‘sishga ta’siri o‘rganilgan. Tahlillar asosida viloyatda tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash, yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Qashqadaryo viloyati, xususiy tadbirkorlik, kichik biznes, kambag‘allikni qisqartirish, bandlik, hududiy iqtisodiyot, investitsiyalar.

Аннотация. В статье проанализированы вопросы обеспечения занятости населения и сокращения бедности путем развития и поддержки частного предпринимательства в Кашкадарьинской области. Изучены природно-экономический потенциал региона, территориальное распределение субъектов малого бизнеса и частного предпринимательства, а также их влияние на экономический рост. На основе проведенного анализа разработаны практические предложения и рекомендации, направленные на дальнейшее улучшение предпринимательской среды, создание новых рабочих мест и повышение доходов населения в области.

Ключевые слова: Кашкадарьинская область, частное предпринимательство, малый бизнес, сокращение бедности, занятость, региональная экономика, инвестиции.

Abstract. The article analyzes the issues of ensuring employment and reducing poverty through the development and support of private entrepreneurship in the Kashkadarya region. The natural and economic potential of the region, the territorial distribution of small business and private entrepreneurship entities, and their impact on economic growth are studied. Based on the analysis, practical proposals and recommendations aimed at further improving the business environment, creating new jobs, and increasing the income of the population in the region have been developed.

Keywords: Kashkadarya region, private entrepreneurship, small business, poverty reduction, employment, regional economy, investments.

KIRISH

Mamlakatimizda bozor munosabatlarini yanada chuqurlashtirish, hududlarni mutanosib ravishda rivojlantirish hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-sonli “Mamlakat taraqqiyotining 2030 yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni[85]da iqtisodiy o‘sishning barqarorligini ta’minlash, yuqori qo‘shilgan qiymat yaratuvchi tarmoqlarni rivojlantirish hamda hududlarda tadbirkorlik tashabbuslarini keng rag‘batlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirish vazifalari belgilab berilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi PF-81-sonli “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni[86]da aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish, ularning doimiy daromad manbalarini yaratish va kambag‘allikni qisqartirishning yangi mexanizmlari joriy etilishi belgilab qo‘yilgan.

Qashqadaryo viloyati ulkan tabiiy-resurs, qishloq xo‘jaligi va mehnat salohiyatiga ega bo‘lgan hududlardan biri hisoblanadi. Shu bois, viloyatda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ayniqsa chekka tumanlarda kichik biznes subyektlarining faoliyatini kengaytirish va yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali aholi farovonligini oshirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyundagi PF-93-sonli “Aholini kambag‘allikdan chiqarish, tadbirkorlikni rivojlantirish va kambag‘allik darajasi yuqori bo‘lgan tumanlardaish beruvchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni[87]da ham hududlardagi iqtisodiy imkoniyatlardan samarali foydalanish, tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash va aholining bandligini ta’minlash mexanizmlari aniq belgilab berilgan. Mazkur me’yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash Qashqadaryo viloyatida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish asosida kambag‘allikni qisqartirish masalalarini ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan, jumladan, tizimli yondashuv, qiyosiy va statistik tahlil, guruhlash, mantiqiy mushohada hamda iqtisodiy-statistik ma’lumotlarni qayta ishlash usullaridan foydalanildi. Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tarmoqlar kesimidagi taqsimoti, ularning bandlikni ta’minlashdagi ulushi hamda kambag‘allik darajasining hududiy dinamikasi chuqur tahlil qilindi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, kichik biznes subyektlarining hududiy iqtisodiy o‘sishdagi roli hamda aholi bandligini ta’minlash orqali kambag‘allikni qisqartirish masalalari iqtisodchi olimlar va tadqiqotchilar tomonidan keng o‘rganilgan. Xususan, bu boradagi ilmiy yondashuvlarni quyidagi uchta asosiy ilmiy tadqiqot va monografik manbalar misolida ko‘rib chiqish mumkin:

Birinchidan, taniqli iqtisodchi olim Y.A. Shumpeter[88]ning ilmiy qarashlarida tadbirkorlik faoliyati va innovatsiyalar iqtisodiy rivojlanishning hamda bozor mexanizmlari orqali daromadlar taqsimotini yaxshilashning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida e’tirof etiladi. Muallif kichik va xususiy biznes subyektlarining bozorga yangi mahsulotlar va xizmatlarni olib kirish orqali yangi ish o‘rinlarini yaratishini hamda aholining zaif qatlamlarini iqtisodiy faollikka jalb qilish imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Ikkinchidan, jahon iqtisodiyoti va mintaqaviy rivojlanish muammolarini tadqiq etgan olimlar X. Sirera va W. Maloney[89] o‘zlarining tadqiqotlarida rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik va o‘rta tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash hamda mavjud resurslardan samarali foydalanish orqali kambag‘allikni qisqartirish mexanizmlarini tahlil qilganlar. Ularning fikricha, hududlarda tadbirkorlik muhitini yaxshilash, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va infratuzilmani rivojlantirish aholi bandligini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qashqadaryo viloyatida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va kichik biznes subyektlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash aholi bandligini ta’minlash hamda kambag‘allikni qisqartirishning eng muhim va ustuvor omillaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda viloyatda ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash, tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy rag‘batlantirish va chekka tumanlarda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish borasida keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Mazkur islohotlar natijasida hududda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining soni sezilarli darajada ortib, iqtisodiy faollik yuqori bosqichga ko‘tarildi.

Quyidagi diagrammada so‘nggi yillarda erishilgan asosiy ko‘rsatkichlar va kambag‘allikni qisqartirish yo‘nalishidagi ijobiy o‘zgarishlar dinamikasi yaqqol aks ettirilgan:


[85] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakat taraqqiyotining 2030 yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-sonli Farmoni

[86] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2024-yil 24-maydagi PF-81-sonli Farmoni

[87] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini kambag‘allikdan chiqarish, tadbirkorlikni rivojlantirish va kambag‘allik darajasi yuqori bo‘lgan tumanlardaish beruvchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2023-yil 12-iyundagi PF-93-sonli Farmoni

[88] Schumpeter, J.A. (1934). The Theory of Economic Development. Harvard University Press.

[89] Cirera, X., Maloney, W. (2017). The Innovation Paradox: Developing-Country Capabilities and the Unrealized Promise of Technological Catch-Up. Washington, DC: World Bank




1-rasm. Xususiy tadbirkorlik o‘sishi va kambag‘allikni qisqartirish dinamikasining iqtisodiy-statistik tahlili[90]

2018–2025-yillar oralig‘ida mamlakatimizda kambag‘allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirish borasida amalga oshirilgan tizimli islohotlar hamda manzilli chora-tadbirlar natijasida sezilarli ijobiy natijalarga erishildi. Xususan, diagrammadagi statistik ma’lumotlar milliy qashshoqlik darajasi hamda o‘ta qashshoqlik ko‘rsatkichi yildan-yilga barqaror va izchil ravishda pasayib borganini yaqqol ko‘rsatadi. Xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, kichik biznes subyektlari va yangi ish o‘rinlarini yaratish mexanizmlarining kengaytirilishi har yili millionlab fuqarolarni qashshoqlikdan chiqarish imkonini berdi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 2018-yildagi yuqori ko‘rsatkichlardan boshlangan kamayish tendensiyasi 2025-yilga kelib iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy himoya tadbirlari o‘zining amaliy samarasini berganini, natijada kambag‘allikni qisqartirishda barqaror va ishonchli ijobiy dinamika ta’minlanganini dalolatlaydi.

Qashqadaryo viloyatida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va kichik biznes subyektlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash orqali kambag‘allikni qisqartirish masalasi hududning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda strategik ahamiyat kasb etadi. So‘nggi yillarda viloyatda ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilash, tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy rag‘batlantirish, shuningdek, chekka va olis tumanlarda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini hamda xizmat ko‘rsatish shoxobchalarini ishga tushirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Mazkur chora-tadbirlar natijasida hududda kichik biznes subyektlarining ulushi sezilarli darajada kengayib, aholining keng qatlamlari uchun doimiy daromad manbalarini yaratish imkoniyati kengaydi.

Viloyatda kambag‘allikni qisqartirish jarayoni faqatgina ijtimoiy nafaqalar bilan cheklanib qolmasdan, balki aholini tadbirkorlikka o‘qitish, imtiyozli kreditlar ajratish, subsidiyalar berish va ularni bozor infratuzilmasi bilan uzviy bog‘lash orqali amalga oshirilmoqda. Xususan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, hunarmandchilik, oilaviy tadbirkorlik hamda xizmat ko‘rsatish yo‘nalishlarida kichik loyihalarning ko‘payishi hududiy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, yirik sanoat korxonalari va kichik tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida kooperatsiya aloqalarining yo‘lga qo‘yilishi qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratish va mahalliy aholi bandligini ta’minlashda muhim omil bo‘lmoqda. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, xususiy tadbirkorlik subyektlarining hududiy taqsimoti va ularning faolligini oshirish kambag‘allik darajasini bosqichma-bosqich pasaytirish hamda aholi farovonligini yuksaltirishda eng samarali va barqaror mexanizm bo‘lib xizmat qiladi.



2-rasm. O‘zbekiston Respublikasi va Qashqadaryo viloyatida kambag‘allik darajasining 2018–2025-yillardagi qiyosiy tahlili[91]

Mamlakatimizda bozor munosabatlarini yanada chuqurlashtirish, hududlarni mutanosib ravishda rivojlantirish hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini har tomonlama qo‘llab-

[90] O'zbekiston Respublikasining kambag‘allikni qisqartirish va bandlikni ta'minlash bo'yicha rasmiy statistik ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi
[91] O'zbekiston Respublikasining kambag‘allikni qisqartirish va bandlikni ta'minlash bo'yicha rasmiy statistik ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-sonli “Mamlakat taraqqiyotining 2030 yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida iqtisodiy o‘sishning barqarorligini ta’minlash, yuqori qo‘shilgan qiymat yaratuvchi tarmoqlarni rivojlantirish hamda hududlarda tadbirkorlik tashabbuslarini keng rag‘batlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirish vazifalari belgilab berilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi PF-81-sonli “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonida aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish, ularning doimiy daromad manbalarini yaratish va kambag‘allikni qisqartirishning yangi mexanizmlari joriy etilishi belgilab qo‘yilgan.

Qashqadaryo viloyati ulkan tabiiy-resurs, qishloq xo‘jaligi va mehnat salohiyatiga ega bo‘lgan hududlardan biri hisoblanadi. Shu bois, viloyatda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ayniqsa chekka tumanlarda kichik biznes subyektlarining faoliyatini kengaytirish va yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali aholi farovonligini oshirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyundagi PF-93-sonli “Aholini kambag‘allikdan chiqarish, tadbirkorlikni rivojlantirish va kambag‘allik darajasi yuqori bo‘lgan tumanlarda ish beruvchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida ham hududlardagi iqtisodiy imkoniyatlardan samarali foydalanish, tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash va aholining bandligini ta’minlash mexanizmlari aniq belgilab berilgan. Mazkur me’yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash Qashqadaryo viloyatida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish asosida kambag‘allikni qisqartirish masalalarini ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, Qashqadaryo viloyatida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va kichik biznes subyektlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hududda kambag‘allikni qisqartirish hamda aholi bandligini ta’minlashning eng muhim va strategik yo‘nalishi hisoblanadi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlar, xususan, tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy rag‘batlantirish, chekka tumanlarda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va manzilli dasturlarni amalga oshirish o‘zining yuqori amaliy samarasini bermoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Qashqadaryo viloyatida kambag‘allik darajasi respublika o‘rtacha ko‘rsatkichidan biroz yuqoriroq shakllangan bo‘lsa-da, olib borilgan sa’y-harakatlar natijasida bu farq yildan-yilga barqaror ravishda qisqarib, ijobiy dinamika ta’minlanmoqda. Kelgusida hududda kambag‘allikni qisqartirish jarayonini yanada jadallashtirish uchun quyidagi ustuvor vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

tadbirkorlik faolligini oshirish: aholini, ayniqsa ishsiz fuqarolar va kambag‘allik ro‘yxatiga kiritilgan oilalarni zamonaviy biznes ko‘nikmalariga o‘qitish, ularning tadbirkorlik tashabbuslarini imtiyozli kreditlar va subsidiyalar orqali qo‘llab-quvvatlash;

infratuzilma va moliyaviy xizmatlarni kengaytirish: olis va chekka qishloq tumanlarida kichik biznes subyektlari uchun qulay bozor infratuzilmasini yaratish, xususiy investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini soddalashtirish;

kooperatsiya va klaster tizimini rivojlantirish: qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida kichik tadbirkorlikni yirik ishlab chiqarish korxonalari bilan uzviy bog‘lash, mahsulotlarni qayta ishlash zanjirini shakllantirish orqali barqaror daromad manbalarini yaratish.

Mazkur chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi Qashqadaryo viloyatida iqtisodiy o‘sish barqarorligini ta’minlash, yangi doimiy ish o‘rinlarini yaratish va aholi farovonligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakat taraqqiyotining 2030 yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-sonli Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.02.2026-y., 06/26/21/0142-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2024-yil 24-maydagi PF-81-sonli Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.05.2024-y., 06/24/81/0387-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini kambag‘allikdan chiqarish, tadbirkorlikni rivojlantirish va kambag‘allik darajasi yuqori bo‘lgan tumanlarda ish beruvchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2023-yil 12-iyundagi PF-93-sonli Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 13.06.2023-y., 06/23/93/0369-son.
4. Schumpeter J. A. The Theory of Economic Development. – Cambridge: Harvard University Press, 1934. – 255 p.
5. Cirera X., Maloney W. The Innovation Paradox: Developing-Country Capabilities and the Unrealized Promise of Technological Catch-Up. – Washington, DC: World Bank, 2017. – 274

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Xushvaqov Anvar Boqiyevich Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM Iqtisodiyot kafedrasi Dotsenti / Хушваков Анвар Бокиевич Университет экономики и педагогики (негосударственное образовательное учреждение) Доцент кафедры экономики / Khushvakov Anvar Bokievich University of Economics and Pedagogy (Non-State Educational Institution) Associate Professor, Department of Economics

E-mail: a.b.xushvaqov@gmail.com

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.10.10.2026.35

YOSHLAR BANDLIGINI TA’MINLASHDA DAVLAT SIYOSATINING O‘RNI VA AHAMIYATI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)

Boboqulov Oybek Norbo’tayevich

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЗАНЯТОСТИ МОЛОДЕЖИ (НА ПРИМЕРЕ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ)

Бобокулов Ойбек Норботаевич

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF STATE POLICY IN ENSURING YOUTH EMPLOYMENT (THE CASE OF THE KASHKADARYA REGION)

Boboqulov Oybek Norbo’tayevich

Annotatsiya. Maqolada yoshlar bandligini ta’minlashda davlat siyosatining o‘rni va ahamiyati nazariy hamda amaliy jihatdan tadqiq etilgan. Respublika va Qashqadaryo viloyati mehnat bozorining 2021–2025-yillardagi asosiy ko‘rsatkichlari-bandlik darajasi, erkaklar va xotin-qizlar o‘rtasidagi ishsizlik, 15-24 yosh toifasidagi yoshlar ishsizligi qiyosiy tahlil qilingan. Tahlil natijalari davlat dasturlari va “Yoshlar daftari”, “Mahallabay ishlash” kabi mexanizmlar ishsizlikni sezilarli kamaytirganini, yoshlar ishsizligi umumiy darajasini kamaytirish yuzasidan amalga oshirilayotgan islohotlar ko‘rsatilgan. Viloyat sharoitida yoshlar bandligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: yoshlar bandligi, davlat siyosati, mehnat bozori, ishsizlik darajasi, NEET, “Yoshlar daftari”, hududiy bandlik, Qashqadaryo viloyati.

Аннотация. В статье теоретически и практически исследованы роль и значение государственной политики в обеспечении занятости молодежи. Проведен сравнительный анализ основных показателей рынка труда Республики Узбекистан и Кашкадарьинской области за 2021–2025 годы, включая уровень занятости, безработицу среди мужчин и женщин, а также уровень безработицы среди молодежи в возрасте 15–24 лет. Результаты анализа свидетельствуют о том, что государственные программы и такие механизмы, как «Молодежная тетрадь» и «Подворовая работа», способствовали снижению безработицы. Рассмотрены проводимые реформы, направленные на дальнейшее снижение общего уровня молодежной безработицы. Разработаны научно-практические предложения по повышению занятости молодежи с учетом социально-экономических особенностей Кашкадарьинской области.

Ключевые слова: занятость молодёжи, государственная политика, рынок труда, уровень безработицы, NEET, «Молодёжная тетрадь», Кашкадарьинская область.

Abstract. The article examines the role and significance of government policy in promoting youth employment from both theoretical and practical perspectives. A comparative analysis of the key labor market indicators of the Republic of Uzbekistan and Kashkadarya Region for 2021–2025 is conducted, including the employment rate, unemployment among men and women, and the unemployment rate among young people aged 15–24. The findings indicate that government programs and mechanisms such as the “Youth Register” and the “Mahallabay Ishlash” (community-based employment) initiative have contributed to reducing unemployment. The article also highlights ongoing reforms aimed at further reducing the overall youth unemployment rate. Scientific and practical recommendations are developed to increase youth employment, taking into account the socio-economic characteristics of Kashkadarya Region.

Keywords: youth employment, state policy, labour market, unemployment rate, NEET, Youth Notebook, Kashkadarya region.

KIRISH

Yoshlar bandligi mamlakat iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy farovonligining asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston aholisining tarkibida yoshlar salmog‘i yuqori: 2025-yil 1-yanvar holatiga respublikada 14–30 yoshli yoshlar soni 9 630 556 kishini yoki jami aholining 25,7 foizini tashkil etgan[92]. Bunday demografik tuzilma bir tomondan iqtisodiy o‘sish uchun katta mehnat salohiyatini yaratsa, ikkinchi tomondan har yili mehnat bozoriga kirib kelayotgan yuz minglab yoshlarni munosib ish o‘rinlari bilan ta’minlash vazifasini kun tartibiga qo‘yadi.

So‘nggi yillarda umumiy ishsizlik darajasi izchil pasaygan bo‘lsa-da, yoshlar ishsizligi muammoligicha qolmoqda. Jahon banki baholariga ko‘ra, 15–24 yoshli yoshlar o‘rtasida ishsizlik darajasi 2025-yilda 11,4 foizni tashkil etib, umumiy ko‘rsatkichdan qariyb ikki baravar yuqori bo‘lgan[93]. Bundan tashqari, Statistika agentligining 2025-yilgi uy xo‘jaliklari so‘rovi asosidagi tahlil 14–30 yoshli aholining 33,2 foizi na o‘qimayotgani, na ishlayotganini (NEET toifasi) ko‘rsatgan[94].

Muammo hududiy kesimda yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Qashqadaryo viloyati yoshlar soni bo‘yicha respublikada yetakchi hududlardan biri bo‘lib, bu yerda 969 212 nafar yosh istiqomat qiladi, bu viloyat aholisining 26,6 foizini tashkil etadi. Viloyat iqtisodiyotining qishloq xo‘jaligi va xomashyo tarmoqlariga yuqori darajada bog‘liqligi, qishloq aholisi ulushining katta ekanligi yoshlar bandligini ta’minlashda davlat siyosatining rolini yanada oshiradi.

Maqolaning maqsadi - yoshlar bandligini ta’minlashda davlat siyosatining o‘rni va ahamiyatini Qashqadaryo viloyati misolida baholash hamda uni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: yoshlar bandligi bo‘yicha davlat siyosatining nazariy asoslarini umumlashtirish; respublika va viloyat mehnat bozori ko‘rsatkichlarini qiyosiy tahlil qilish; amaldagi davlat mexanizmlarining natijadorligini baholash; viloyat sharoitiga mos tavsiyalar ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bandlik muammosiga davlat aralashuvining nazariy asoslari J.M. Keyns ishlarida shakllangan bo‘lib, u samarali talabni rag‘batlantirish orqali ishsizlikni kamaytirishda davlatning faol rolini asoslab bergan[95]. G. Bekker tomonidan ishlab chiqilgan inson kapitali nazariyasi esa ta’lim va kasbiy tayyorgarlikka qilingan investitsiyalar shaxsning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini belgilashini ko‘rsatadi[96]. Bu yondashuv yoshlar bandligi siyosatida kasbga o‘qitish dasturlarining ahamiyatini nazariy jihatdan izohlaydi.

Xalqaro mehnat tashkiloti tadqiqotlarida, xususan N. O‘Higgins ishida, yoshlar ishsizligining kattalar ishsizligidan barqaror yuqori bo‘lishi tajriba yetishmasligi, birinchi ish o‘rniga kirishdagi to‘siqlar va iqtisodiy tebranishlarga sezgirlik bilan izohlanadi hamda faol mehnat bozori siyosati choralari asosiy yechim sifatida ko‘rsatiladi[97]. Yevropa ta’lim jamg‘armasining O‘zbekiston bo‘yicha 2026-yilgi tahliliy hisobotida ham yoshlar uchun faol chora-tadbirlar tizimini kengaytirish zarurligi qayd etilgan[98].

Mahalliy olimlardan Q.X. Abdurahmonov mehnat iqtisodiyoti va bandlikni tartibga solishning nazariy-uslubiy masalalarini[99], Sh.R. Xolmo‘minov esa bandlikni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini tadqiq etgan[100]. Qashqadaryo viloyati bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda hududda, ayniqsa qishloq yoshlari o‘rtasida ishsizlik yuqoriligi va uning mehnat migratsiyasiga sabab bo‘layotgani ta’kidlangan[101]. Mazkur tadqiqot orqali yoshlar bandligi ko‘rsatkichlarini respublika hamda Qashqadaryo viloyatini qiyoslash orqali yetarlicha baholash, bu esa ilmiy yangilikni belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik guruhlash, dinamik qatorlar tahlili, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Axborot bazasi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining SIAT ochiq ma’lumotlar portali[102], Jahon bankining Jahon taraqqiyot ko‘rsatkichlari, Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi materiallari hamda yoshlar bandligiga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar olindi.

Tahlil 2021–2025-yillarni qamrab oladi. Bandlik darajasi iqtisodiyotda band aholi sonining mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soniga nisbati sifatida, ishsizlik darajasi esa ishsizlar sonining iqtisodiy faol aholi soniga nisbati sifatida rasmiy metodika asosida hisoblangan. 2025-yil ma’lumotlari dastlabki ko‘rsatkichlar hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijalari 2021–2025-yillarda respublikada ham, Qashqadaryo viloyatida ham bandlik darajasi oshib, ishsizlik pasayganini, biroq yoshlar ishsizligi yuqoriligicha qolayotganini ko‘rsatdi. Respublika mehnat bozorining asosiy ko‘rsatkichlari 1-jadvalda keltirilgan.

---

[92] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston aholisining 25,7 foizini yoshlar tashkil etadi. – stat.uz

[93] World Bank. Youth Unemployment Rate for Uzbekistan (SL.UEM.1524.ZS), World Development Indicators. – fred.stlouisfed.org

[94] O‘zbekistondagi har uchinchi yosh ta’lim va mehnat bozoridan chetda qolmoqda – tadqiqot (Social Policy Lab). – talimxabarlari.uz

[95] Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest and Money. – London: Macmillan, 1936.

[96] Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis. – New York: NBER, 1964

[97] O’Higgins N. Youth Unemployment and Employment Policy: A Global Perspective. – Geneva: ILO, 2001.

[98] European Training Foundation. O‘zbekiston: yoshlar uchun mehnat bozoridagi faol chora-tadbirlar. – 2026. – etf.europa.eu

[99] Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. Darslik. – Toshkent.

[100] Xolmo‘minov Sh.R. Bandlikni davlat tomonidan tartibga solish masalalariga oid ilmiy ishlar.

[101] Qashqadaryo viloyatida aholini ish bilan ta’minlash muammo va istiqbollari // Innovatsion iqtisodiyot. – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, 2024. – ojs.qmii.uz

[102] siat.stat.uz

1-jadval.

O‘zbekiston Respublikasi mehnat bozorining asosiy ko‘rsatkichlari (foizda)[103]

Ko‘rsatkichlar	2021	2022	2023	2024	2025	O‘zgarish, foiz punkti
Bandlik darajasi	67,0	67,2	67,9	68,3	70,5	+3,5
Ishsizlik darajasi (erkaklar)	6,9	5,4	4,3	4,1	3,4	-3,5
Ishsizlik darajasi (xotin-qizlar)	13,3	13,4	10,2	7,4	…	-5,9
Yoshlar (15–24 yosh) ishsizlik darajasi	13,0	10,9	10,8	10,8	11,4	-1,6

1-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, respublikada bandlik darajasi besh yilda 67,0 foizdan 70,5 foizga ko‘tarilgan, erkaklar ishsizligi qariyib ikki baravar kamaygan. Xotin-qizlar ishsizligida eng katta pasayish - 5,9 foizda kuzatilgan. Biroq 15-24 yoshli yoshlar ishsizligi atigi 1,6 foizga kamaygan va 2025-yilda 11,4 foizga qayta o‘sgan

2-jadval.

Qashqadaryo viloyati mehnat bozorining asosiy ko‘rsatkichlari[104]

Ko‘rsatkichlar	2021	2022	2023	2024	2025	O‘zgarish
Bandlik darajasi, %	62,2	61,9	61,9	65,0	65,9	+3,7
Respublika o‘rtacha bandlik darajasidan farq, f.p.	-4,8	-5,3	-6,0	-3,3	-4,6	+0,2
Ishsizlik darajasi (erkaklar), %	6,8	5,3	4,7	4,4	4,2	-2,6
Ishsizlik darajasi (xotin-qizlar), %	15,5	15,3	11,3	7,9	…	-7,6
Ishsiz xotin-qizlar soni, ming kishi	81,6	81,6	59,0	46,6	…	-42,9 %

2-jadvaldan ko‘rinadiki, viloyatda bandlik darajasi 2021-2025-yillarda 3,7 foizga oshgan, ammo u har yili respublika o‘rtacha ko‘rsatkichidan 3,3-6,0 foiz pasayganligi kuzatilmoqda. Erkaklar ishsizligi 2025-yilda 4,2 foizni tashkil etib, respublika darajasidan (3,4 %) yuqori bo’lgan. Xotin-qizlar ishsizligi 15,5 foizdan 7,9 foizga tushgan, ishsiz ayollar soni esa 35 ming kishiga kamayganligi aniqlangan.

Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 2025-yil yakunida viloyatda umumiy ishsizlik darajasi 4,9 foizga, kambag‘allik darajasi 6,5 foizga tushgan[105]. Shu bilan birga, 2025-yil o‘rtasida viloyatda 5,5 ming ishsiz yosh qayd etilgan va yana 36,5 ming bitiruvchi mehnat bozoriga kirib kelayotgani ta’kidlangan[106]. Bu har yili yoshlar uchun o‘n minglab yangi ish o‘rinlari zarurligini ko‘rsatadi.

Olingan natijalar davlat siyosatining yoshlar bandligini ta’minlashdagi ahamiyatini ikki jihatdan tasdiqlaydi. Birinchidan, “Mahallabay ishlash” tizimi, hokim yordamchilari va yoshlar yetakchilari institutlari, “Yoshlar daftari” orqali ko‘rsatilayotgan moliyaviy yordam kabi manzilli mexanizmlar ishsizlikning, ayniqsa xotin-qizlar ishsizligining keskin pasayishiga xizmat qilgan. Viloyatda xotin-qizlar ishsizligining respublikadagiga nisbatan tezroq kamayishi (-7,6 va -5,9 foiz) hududiy dasturlarning samarasini ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, yoshlar ishsizligining umumiy ko‘rsatkichga nisbatan sekin kamayishi amaldagi choralar ko‘proq qisqa muddatli bandlikka yo‘naltirilganini ko‘rsatadi. Bu holat O‘Higgins va Bekker yondashuvlariga mos keladi: tajriba va malaka yetishmasligi bartaraf etilmasa, moliyaviy rag‘batlar yoshlarni barqaror ish o‘rinlariga olib chiqa olmaydi. NEET darajasining 33,2 foizga yetgani ham ta’lim tizimi va mehnat bozori talablari o‘rtasidagi nomuvofiqlik tizimli xarakterga ega ekanini tasdiqlaydi.

Ilmiy tadqiqotimizda Qashqadaryo viloyatida yoshlar ishsizlik darajasining yuqoriligi viloyat iqtisodiyotining tarkibiy xususiyatlariga bog‘ligi bilan ifodalash mumkin. Shu sababli Prezidentning 2026-yil 13-martdagi “Qashqadaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada jadallashtirish to‘g‘risida”gi PQ-96-son qarorida viloyatda ishsizlik darajasini 3,2 foizga pasaytirish, Qarshi shahrida yoshlarni xalqaro standartlar asosida kasbga va xorijiy tillarga o‘qitadigan Ta’lim va texnologiyalar markazini tashkil etish vazifalari belgilangan. Muborak maxsus innovatsion sanoat zonasi va Qarshi yashil texnologiyalar sanoat zonasida 2026–2027-yillarda 6 mingga yaqin yangi ish o‘rni yaratish rejalashtirilgani yoshlarni sanoat tarmoqlariga jalb etish uchun real imkoniyat yaratadi.


Shuningdek yoshlar bandligini ta’minlashda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qancha farmon va qarorlarida ham o‘z aksini topgan. Jumladan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi yoshlarga oid 3davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6017-sonli farmonida Yoshlar ishlari agentligi va uning hududidy bo‘linmalari tashkil etildi hamda ishsiz yoshlarni haq to‘lanadigan jamoat va mavsumiy ishlarga jalb etuvchi “Fidoyi yoshlar otryadlari”, talabalar uchun “Yoshlar qurilish otryadlari” joriy qilinishi;

Shuningdek, 2021-yil 20-apreldagi “Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo’llab-quvvatlash va bandligiga ko’maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo’sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo’shimcha

[103] Statistika agentligi SIAT portali [11–13] va Jahon banki [2] ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.
[104] Statistika agentligi SIAT portali [11–13] ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.
[105] Qashqadaryo viloyatini rivojlantirish bo‘yicha ustuvor vazifalar muhokama qilindi // gov.uz, 2026-yil 11-mart. – gov.uz
[106] Bozorlarda narx-navo barqarorligini ta’minlash bo‘yicha tizim Qashqadaryoda ishga tushiriladi // Spot.uz, 2025-yil 20-iyun. – spot.uz

chora-tadbirlar to'g'risida" PF-6208-sonli Prezident farmoni bilan 25 yoshgacha xodimlar uchun to'lanadigan ijtimoiy soliq ish beruvchiga to'liq qaytariladi (6 oy uzluksiz ishlaganda), "Yoshlar daftari"dagi yoshlargaish qurollari uchun 40 BHMgacha subsidiya berish, yosh tadbirkorlar ijara to'lovining 30 foizi qoplanishi;



1-rasm. Yoshlar bandligini ta'minlashning ahamiyati[107]

2024-yil 5-apreldagi "Yoshlarga yer ajratish orqali ularning daromadlarini oshirish va bandligini ta'minlash, shuningdek, yangi yer maydonlarini o'zlashtirish chora-tadbirlari to'g'risi"dagi PQ-153-sonli qarorlari bilan 18-30 yoshdagi yoshlarga "E-auksion" orqali yer uchastkalarini ijaraga berish, 100 mln so'mgacha kredit, "Yoshlar daftari"dan 5 mln so'mgacha subsidiya ajratish, tomchilab sug'oriladigan va yangi o'zlashtirilgan yerlar 5 yil yer solig'idan ozod ozod etilishi, 2025-yil 14 fevraldagi "Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va bandligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-62-sonli qarorlari bilan "Yoshlar biznesi" dasturi (2025-2027); "Aloqabank" bazaviy "yoshlar banki" etib belgilanishi, "Biznesga birichi qadam"-100 mln so'mgacha mikrokredit, imtiyozli kreditlarning kamida 30 foizi ayollar tadbirkoligiga, yaratiladigan ish o'rinlarining kamida 50 foizi yoshlarga ajratilshi to'g'risidagi qarorlarda ham asosiy urg'u yoshlarning bandligini ta'minlashga qaratilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari davlat siyosati yoshlar bandligini ta'minlashda hal qiluvchi omil ekanini ko'rsatdi: 2021-2025-yillarda respublikada bandlik darajasi 3,5, Qashqadaryo viloyatida 3,7 foizga oshdi, xotin-qizlar ishsizligi esa viloyatda qariyib ikki baravar (15,5 foizdan 7,9 foizga) kamaydi. Shu bilan birga, yoshlar ishsizligi umumiy darajadan qariyib ikki baravar yuqoriligicha qolmoqda va viloyat bandlik darajasi bo'yicha respublika o'rtacha ko'rsatkichidan 4-5 foiz kamayish holati kuzatiladi.

Olib borilgan tadqiqotimiz davomida mamlakatda mehnatga layoqatli yoshlar bandligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan davlat siyosati va me'yoriy-huquqiy xujjatlar asosidagi chora-tadbirlar ijrosi bilan bir qatorda tadqiqotchi sifatida quyidagi amalga oshirilishi lozim bo'lgan bir qator takliflarni ilgari surishimiz mumkin:

- Viloyatda yoshlar bandligi siyosatini takomillashtirish uchun birinchi navbatda "Yoshlar daftari" mablag'larini bir martalik yordamdan kasbga o'qitish va birinchi ish o'rniga joylashtirish bilan bog'langan dasturlarga yo'naltirish maqsadga muvofiq.
- Muborak va Qarshi sanoat zonalarida yaratilayotgan ish o'rinlari uchun texnikum va oliy ta'lim muassasalarida buyurtma asosida kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish yoshlarning malakasi va ish beruvchilar talabi o'rtasidagi nomuvofiqlikni kamaytiradi.
- Shuningdek, qishloq yoshlari uchun agrosanoat kooperatsiyalari, hunarmandchilik va xizmat ko'rsatish sohasida, jumladan ziyorat va madaniy turizmda kichik biznes loyihalarini imtiyozli kreditlash kengaytirilishi lozim.
- Qashqadaryo viloyati asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va chorvachilikka ixtisoslashganligini hisobga olgan holda viloyatdagi o'zlashtirilmagan yerlarni o'zlashtirish hamda ularni yoshlarga bo'lib berish orqali bandiligni ta'minlash.
- Chorvachilik va veterinariya xizmatlarini rivojlantirish orqali qishloq yoshlarini qo'ychilik, qoramolchilik, parrandachilik, asalarichilik va ozuqa mahsulotlari yetishtirishga jalb qilish orqali bandligini ta'minlash.
- Mahalla yoshlar yetakchilari faoliyatini NEET toifasidagi yoshlar bilan manzilli ishlashga yo'naltirish va bandlik natijalarini tumanlar kesimida monitoring qilish tizimini joriy etish hamda davlat siyosatining natijadorligini oshirishga xizmat qiladi.

[107] Muallif ishlanmasi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston aholisining 25,7 foizini yoshlar tashkil etadi. – stat.uz
2. World Bank. Youth Unemployment Rate for Uzbekistan (SL.UEM.1524.ZS), World Development Indicators. – fred.stlouisfed.org
3. O‘zbekistondagi har uchinchi yosh ta’lim va mehnat bozoridan chetda qolmoqda – tadqiqot (Social Policy Lab). – talimxabarlari.uz
4. Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest and Money. – London: Macmillan, 1936.
5. Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis. – New York: NBER, 1964.
6. O’Higgins N. Youth Unemployment and Employment Policy: A Global Perspective. – Geneva: ILO, 2001.
7. European Training Foundation. O‘zbekiston: yoshlar uchun mehnat bozoridagi faol chora-tadbirlar. – 2026. – etf.europa.eu
8. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. Darslik. – Toshkent.
9. Xolmo‘minov Sh.R. Bandlikni davlat tomonidan tartibga solish masalalariga oid ilmiy ishlar.
10. Qashqadaryo viloyatida aholini ish bilan ta’minlash muammo va istiqbollari // Innovatsion iqtisodiyot. – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, 2024. – ojs.qmii.uz
11. Statistika agentligi. Bandlik darajasi (hududlar kesimida). – siat.stat.uz
12. Statistika agentligi. Ishsizlik darajasi (erkaklar). – siat.stat.uz
13. Statistika agentligi. Ishsizlik darajasi (xotin-qizlar); Ishsiz xotin-qizlar soni. – siat.stat.uz; siat.stat.uz
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 13-martdagi PQ-96-son “Qashqadaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada jadallashtirish to‘g‘risida”gi qarori. – buxgalter.uz
15. Qashqadaryo viloyatini rivojlantirish bo‘yicha ustuvor vazifalar muhokama qilindi // gov.uz, 2026-yil 11-mart. – gov.uz
16. Bozorlarda narx-navo barqarorligini ta’minlash bo‘yicha tizim Qashqadaryoda ishga tushiriladi // Spot.uz, 2025-yil 20-iyun. – spot.uz

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Boboqulov Oybek Norbo’tayevich Axborot texnologiyalari va Menejment universiteti stajyor o‘qituvchi / Бобокулов Ойбек Норботаевич Преподаватель-стажер, Университет информационных технологий и управления / Bobokulov Oybek Norbutaevich Trainee teacher, University of Information Technology and Management
E-mail: oybekboboqulov85@gmail.com

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.10.10.2026.36

QORAQALPOG‘ISTONDA TURISTIK XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA XIZMAT KO‘RSATISHNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Tleumuratov Bahadir Genjemuratovich

ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ НА ОСНОВЕ РОСТА РЫНКА ТУРИСТИЧЕСКИХ УСЛУГ В КАРАКАЛПАКСТАНЕ

Тлеумуратов Бахадир Генжемуратович

OPPORTUNITIES FOR DEVELOPING THE SERVICE SECTOR BASED ON THE GROWTH OF THE TOURISM SERVICES MARKET IN KARAKALPAKSTAN

Tleumuratov Bahadir Genjemuratovich

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasining turistik xizmatlar bozorini rivojlantirish asosida xizmat ko‘rsatishni rivojlantirish imkoniyatlari, hududning o‘ziga xos turistik salohiyati, xususan, ekologik, madaniy-tarixiy va etnoturizm imkoniyatlaridan foydalangan holda hududda xizmat ko‘rsatish sohasini (servis iqtisodiyotini) rivojlantirish istiqbollari tadqiq etilgan. Orolbo‘yi mintaqasining o‘ziga xos iqlimiy va geografik sharoitida yo‘ldosh xizmatlar tarmog‘ini kengaytirish hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: Qoraqalpog‘iston, turistik bozor, ekoturizm, etnoturizm, xizmat ko‘rsatish sohasi, Mo‘ynoq, Orol dengizi, Saviskiy muzeyi, logistika, multiplikativ samara.

Аннотация. В статье рассматриваются возможности развития услуг в Республике Каракалпакстан на основе развития рынка туристических услуг, перспективы развития сектора услуг (сервисной экономики) в регионе с использованием уникального туристического потенциала региона, в частности, возможностей экологического, культурно-исторического и этнотуризма. Выдвинуты научно-практические предложения по расширению сети спутниковых услуг и внедрению цифровых технологий в специфических климатических и географических условиях Аральского региона.

Ключевые слова: Каракалпакстан, туристический рынок, экотуризм, этнотуризм, сектор услуг, Муйнак, Аральское море, Музей Савицкого, логистика, мультипликативный эффект.

Abstract. This article examines the potential for developing services in the Republic of Karakalpakstan through the expansion of the tourism market. It explores prospects for the growth of the service sector (service economy) in the region, leveraging its unique tourism potential—specifically in the areas of ecotourism, cultural-historical tourism, and ethnotourism. The paper puts forward scientific and practical proposals for expanding the network of ancillary services and implementing digital technologies, tailored to the specific climatic and geographical conditions of the Aral Sea region.

Keywords: Karakalpakstan, tourism market, ecotourism, ethnotourism, service sector, Muynak, Aral Sea, Savitsky Museum, logistics, multiplier effect.

KIRISH

Hozirgi davrda hududlar iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va aholi bandligini ta’minlashda xizmat ko‘rsatish sohasi yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘zining boy madaniy merosi, arxeologik yodgorliklari va takrorlanmas ekologik landshafti bilan turistik xizmatlar bozorini rivojlantirish uchun ulkan potensialga ega. Orol fojiasi oqibatlarini yumshatish va mintaqani ijtimoiy-isoqtisodiy rivojlantirishda turizm industriyasi nafaqat tarmoq drayveri, balki transport, umumiy ovqatlanish, mehmonxona xo‘jaligi va raqamli innovatsiyalar kabi o‘nlab turdosh servis tarmoqlarini harakatga keltiruvchi kuch (multiplikator) hisoblanadi. Shu sababli, Qoraqalpog‘istonda turistik bozor infratuzilmasini takomillashtirish orqali xizmat ko‘rsatish sohasini kengaytirish imkoniyatlarini ilmiy tahlil qilish yuqori dolzarblikka ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Rossiyalik olimlardan J.A. Romanovich xizmat ko‘rsatish faoliyatini alohida iqtisodiy-amaliy faoliyat turi sifatida ko‘rib, servis faoliyatining mazmuni, tashkil

etilishi va iste'molchiga xizmat ko'rsatish jarayonlarini tadqiq qilgan[108]. Shuningdek, V.I.Dementev, Yu.G. Kabaldin kabi olimlarning fikricha xizmatni asosan nomoddiy xarakterga ega bo'lgan va ko'pincha egalik huquqini keltirib chiqarmaydigan faoliyat natijasi sifatida tavsiflaydi. Ularning fikricha, xizmat moddiy-buyumlashgan va servis komponentlarining turli nisbatdagi birikmasidan iborat bo'lishi mumkin. Shuningdek, xizmatlarga nomoddiylik, manbadan ajralmaslik, sifatning o'zgaruvchanligi va saqlanmaslik kabi xususiyatlar xosligini ko'rsatadi[109].

Boshqa bir iqtisodchi professor Q.J.Mirzayev ilmiy yondashuvga ko'ra, "Xizmat ko'rsatish deyilganda insonlarning ishlab chiqarish va no ishlab chiqarish subektlarida yuzga keladigan, o'z estifon ehtiyojini qoldirishga yo'naltirgan daromad olishga qaratilgan xarakatlarni majmuyini ifodalash foliyat tushuniladi"[110].

Rossiyalik olimlardan turizm xizmatlarini rivojlantirish muommolari bo'yicha V.A. Kvartalnovning alohida o'rni mavjud. Uning fikriga ko'ra, turizmni turistik faoliyat, turistik kompleks va turistik bozorning o'zaro bog'langan tizimi sifatida ko'rib chiqadi, hamda turizm xizmatlari turistik bozorning asosiy tarkibiy qismi bo'lib, ularning rivojlanishi turistik talab, turistik faoliyatni tashkil etish, marketing, boshqaruv va infratuzilmaning rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq, degan ilmiy xulosaga kelish mumkin[111] deb hisoblaydi. Shuningdek, boshqa bir Rossiyalik olim A.Yu. Aleksandrova yondashuviga ko'ra, turizm xizmatlarini rivojlantirishni turistik talab va taklifning hududiy xususiyatlari, turistik resurslardan foydalanish, xalqaro turistik oqimlar va bozor infratuzilmasining rivojlanishi bilan bog'liq tizimli jarayon sifatida baholash mumkin[112] deb hisoblagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida induktsiya va deduktsiya, ilmiy abstraktlash, tizimli va qiyosiy tahlil, monografik hamda ekspert baholash usullaridan foydalanilgan. Ushbu usullar oilaviy uy mehmonxonalari ko'rsatadigan xizmatlarga mohiyati, tavsifi va tasniflanishining nazariy jihatlarini yoritib berishga yordam beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon iqtisodiyotining hozirgi rivojlanish bosqichida xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiy o'sish va aholi bandligini ta'minlovchi eng tez sur'atlarda o'sayotgan tarmoqlardan biriga aylandi. Iqtisodiyotni modernizasiya qilish sharoitida xizmatlar bozorini, xususan uning strategik yo'nalishi bo'lgan turistik xizmatlarni rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Turizm o'zining kompleks xususiyati bilan nafaqat sohaviy daromadlarni oshiradi, balki iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida xizmat ko'rsatish hajmining zanjirsimon o'sishini (multiplikativ effekt) rag'batlantiradi. Shu bois, turistik xizmatlar bozorini rivojlantirish asosida umumiy xizmat ko'rsatish sohasini kengaytirish imkoniyatlarini ilmiy tadqiq etish dolzarb masala hisoblanadi.

Qoraqalpog'istonning geografik va tarixiy o'ziga xosligi an'anaviy turizmdan farqli o'laroq, yuqori daromad keltiruvchi maxsus servis segmentlarini shakllantirish imkonini beradi:

- Ekologik va sarguzasht (ekstremal) turizm: Orol dengizining qurigan tubi, Ustyurt platosi va "Kemalar qabristoni" (Mo'ynoq) yo'nalishlarida xorijiy turistlar uchun xavfsiz transport, kemping, jip-turizm va ekstremal logistika xizmatlarini tashkil etish.
- Madaniy-ma'rifiy va arxeologik turizm:

Nukus shahridagi Saviskiy nomidagi Davlat san'at muzeyi hamda hududdagi qadimiy qal'alar (Tuproqqal'a, Ayazqal'a, Chilpiq va b.) atrofida gid-ekskursiya, tarjimonlik, muzey-servis va restavratsiya xizmatlarini kengaytirish.

- Etnoturizm va milliy hunarmandchilik: Orolbo'yi qoraqalpoq xalqining o'ziga xos urf-odatlari, o'tovlar (yurtalar) lagerlari tizimi, milliy liboslar va hunarmandchilik (gilamchilik, yog'och oymakorligi) mahsulotlari savdosi asosida xizmat ko'rsatish madaniyatini yuksaltirish.

Turizm xizmatari bozori turistik xizmatlarning xaridori (talabgor) va sotuvchilarni (mahsulot bilan ta'minlovchi) birlashtiruvchi institut sifatida qaraldi. Boshqa tovar bozorlaridan farqli o'laroq, turistik xizmatlar bozorida tovarning sotuvchidan xaridorga ko'chish jarayon kuzatilmaydi, aksincha, bu jarayon xaridor-turist tayyorlangan xizmatlardan, ya'ni turmahsulotdan foydalanish uchun yo'llanmada belgilangan manzilga borgandan so'ng sodir bo'ladi[113].

Yuqorida bayon qilingan turizm xizmatlari bozori tashkiliy tuzilmasi asosida Qoraqalpog'iston Respublikasida turizm bozorini o'ziga xos xususiyatlarini asosladik. Bular quyidagilardan iborat:

Birinchidan, mazkur turistik bozor Qoraqalpog'iston Respublikasida mintaqa muammolarini va ularni bartaraf etish imkoniyatlarini hisobga oladi.

Ikkinchidan, turistik mahsulot tarkibiga kiruvchi komponenti o'zaro bir-birini almashtirish mumkin emas, turistik paketi tarkibidagi turli mehmonxonalar kategoriyaga qarab almashishlari mumkinligi transportning turli variantila (samolyot, poyezd, avtobuslardan) foydalanish mumkinligi va boshqalardan iborat.

Uchinchidan, Qoraqalpog'iston Respublikasida turizm xizmati bozori alohida bir millat Qoraqalpog'iston millatining tarkibiy madaniyati qadriyatlarda tanishish mumkinligi.

To'rtinchidan, Qoraqalpog'iston Respublikasida turizm bozori, yangi turistik bozor sifati tuyinmagan bozorlar sirasiga kirib, bozor megmentlari bo'yicha imkoniyatlari yuqoriligi.

[108] Романович Ж.А., Калачев С.Л. Сервисная деятельность. — М.: Дашков и К°, 2007. https://www.biblio fond.ru/view.aspx

[109] Дементьев В.И., Кабалдин Ю.Г. Схема отношений субъектов трудовой деятельности в сфере услуг // Труды НГТУ им. Р.Е. Алексеева. — 2013. — №5(102).

[110] Mirzayev Q.J. "Agroservis iqtisodiyoti" Monografiya, SamISI, T.: "Iqtisod-moliya" 2013-y. -212b. -13b.

[111] Квартальнов В.А. Туризм: учебник. – М.: Финансы и статистика, 2002. – 320 с.


[112] Александрова А.Ю. Международный туризм. – М.: Аспект Пресс, 2004.

[113] Сафаров Б.Ш. Миллий туризм хизматлари бозорини инновацион ривожлантиришнинг методологик асослари. Монография. – Т.: "Фан ва технология" нашриёти, 2016, 184 бет

Beshinchidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizm bozorini jahon hamjamiyatidan dunyo turizm bozori qiziqishining yuqoriligi.

Oltinchidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizm bozorini rivojlantirish uchun O‘zbekiston hukumati tomonidan yetarli resurslar bo‘yicha diqqat e’tiborning moliyaviy-iqtisodiy muammoning yuqori darajasida tashkil etilganligi bilan izohlanadi.

Hududiy turizm bozorining imkoniyatlari va muammolarini asoslash uchun, avvalo, uning milliy turizm bozori tarkibidagi o‘rnini aniqlash zarur. O‘zbekiston turizm bozori 2020-yildagi pandemiya zarbasidan so‘ng jadal tiklandi: mamlakatga tashrif buyurgan xorijiy fuqarolar soni 2019-yildagi 6,7 mln kishidan 2020-yilda 1,5 mln kishigacha qisqargan bo‘lsa, 2023-yilda 6,6 mln kishiga yetib, pandemiyadan oldingi darajaga deyarli qaytdi[114]. 2019–2025-yillarda turistik firma va tashkilotlar soni 1,7 baravar, ular xizmat ko‘rsatgan shaxslar soni 2,1 baravar, jamoaviy joylashtirish vositalari soni esa 2,3 baravar ko‘paydi (1-rasm)[115].



1-rasm. O‘zbekistonda turizm xizmatlari bozori taklifi va talabi dinamikasi, 2019–2025-yillar

Milliy bozordagi bunday o‘sish fonida Qoraqalpog‘iston Respublikasining o‘rni kamtarona bo‘lib qolmoqda. Mamlakat hududining qariyb 37 foizini egallagan respublikaga 2023-yilda jamoaviy joylashtirish vositalarining atigi 3,4 foizi (82 ta), turistik firma va tashkilotlarning 2,2 foizi (13 ta) va sotilgan sayyohlik yo‘llanmalarining 1,7 foizi (4,5 ming dona) to‘g‘ri kelgan. Joylashtirish vositalari soni bo‘yicha Qoraqalpog‘iston 14 ta hudud orasida 11-o‘rinni egallab, Navoiy, Namangan va Surxondaryo viloyatlaridan ham ortda qolmoqda.

Dinamik tahlil hududning milliy bozordagi ulushi qisqarib borayotganini ko‘rsatadi (2.2.3-jadval). 2022–2023-yillarda respublika bo‘yicha turistik firmalar soni 70,4 foizga, joylashtirish vositalari soni 29,4 foizga oshgan bo‘lsa, Qoraqalpog‘istonda firmalar soni o‘zgarmagan (13 ta), joylashtirish vositalari soni esa 17,1 foizga ko‘paygan. Natijada hududning joylashtirish vositalaridagi ulushi 3,8 foizdan 3,4 foizga kamaygan. Faqat sotilgan sayyohlik yo‘llanmalari soni ikki baravar (2,3 mingdan 4,5 ming donaga) oshgan, biroq bu ham respublika bo‘yicha o‘sish sur’atidan (2,8 baravar) past hisoblanadi.

Hududiy bozorning talab tomonini mehmonxona sektori ma’lumotlari yaqqol tavsiflaydi. 2022-yilda Qoraqalpog‘istondagi 44 ta mehmonxona va shunga o‘xshash obyektlarda 0,6 ming nomer va 1,5 ming o‘rin mavjud bo‘lib, ularga 35,0 ming kishi joylashtirilgan va 74,0 ming tunab qolish qayd etilgan[116]. Joylashtirilganlarning 61,1 foizi ish va kasbiy maqsadlarda, atigi 22,3 foizi ta’til va dam olish maqsadida kelgan; ularning 78,7 foizini O‘zbekiston fuqarolari, 14,6 foizini xorijiy davlatlar va 6,6 foizini MDH davlatlari fuqarolari tashkil etgan.

Hudud mehmonxona bozorining respublika ko‘rsatkichlari bilan taqqoslanishi uning uchta asosiy xususiyatini ko‘rsatadi. Birinchidan, talab tarkibida xizmat safarlari ustunlik qiladi: ularning ulushi respublika o‘rtachasidan (38,1%) 23 foiz punktga yuqori, dam olish turizmi ulushi esa respublikadagidan (39,0%) 1,7 baravar past. Ikkinchidan, o‘rinlardan foydalanish darajasi atigi 13,5 foizni tashkil etib, respublika ko‘rsatkichidan (18,9%) past[117]. Yillik o‘rtacha

[114] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. 2023-yilda O‘zbekiston Respublikasida turizm va dam olish rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari: press-reliz. – Toshkent, 2024. – URL: https://stat.uz/images/uploads/reliz2024/turizmpresreliz2023uz.pdf (murojaat sanasi: 27.09.2026).

[115] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Ochiq ma’lumotlar: Ijtimoiy soha – Turizm (ko‘rsatkichlar kodlari 2.04.11.0041, 2.04.11.0042, 2.04.11.0061, 2.04.11.0062, 2.04.11.0063). – URL: https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2 (murojaat sanasi: 27.09.2026).

[116] Qoraqalpog‘iston Respublikasi statistika boshqarmasi. 2022-yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizm va dam olish rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari: press-reliz. – Nukus, 2023. – URL: https://qrstat.uz/images/Nashrlar/Press-relizlar/2022/Ijtimoiy_soha_va_barqaror_rivojlanish_statistikasi/turizm-2022-uz.pdf (murojaat sanasi: 27.09.2026).

[117] Muallif hisob-kitobi: o‘rinlardan foydalanish darajasi = tunab qolishlar soni / (o‘rinlar soni × 365). Qoraqalpog‘iston uchun: 74,0 / (1,5 × 365) = 13,5%; O‘zbekiston uchun: 4 800,9 / (69,7 × 365) = 18,9%. Manba ma’lumotlari: Qoraqalpog‘iston Respublikasi statistika boshqarmasi. 2022-yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizm va dam olish rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari: press-reliz. – Nukus,

bandlikning pastligi yuqori mavsumiylik va mavjud mehmonxonalarning asosan Nukus shahrida, xizmat safarlariga yo‘naltirilganligi bilan izohlanadi. Uchinchidan, xorijiy sayyohlar ulushi (14,6%) respublika darajasidan (26,7%) sezilarli past bo‘lib, bu hududning xalqaro turistik oqimlarga to‘liq integratsiyalashmaganidan dalolat beradi.

Turizm xizmatlari bozorini samarali faoliyatini ta’minlash muhim hisoblanishi, ayniqsa, bunda turistik korxonalar foydali va samarali faoliyatini tashkil etish maqsadida bozorni segmentlashtiradi.

Turizm bozorida turistik yo‘nalishning yaqinligi muhim omil bo‘lib hisoblanadi: odatda turmarkaz o‘zining maqsadli bozoriga qanchalik yaqin bo‘lsa, ko‘pchilik tashrif buyuruvchilarni jalb qilish ehtimoli shunchalik yuqori bo‘ladi. Shu sababdan ham, ma’lum bir turmarkazni rivojlantirish uchun turistik tashkilot, unga yaqin bo‘lgan yirik aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholiga reklama orqali murojaat qiladi.

Umuman, Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizm xizmatlari bozorini rivojlantirishda SWOT tahlili kelib chiqib, respublikada turizm xizmatlari bozori taraqqiyoti quyidagi imkoniyatlarni yaratadi.

Birinchidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizm xizmatlari bozorini rivojlantirish respublikada yangi ish o‘rinlari yaratilib, hududda yalpi hududiy mahsulotni oshishiga, aholi daromadlarining ko‘payishtiga sabab bo‘ladi.

Ikkinchidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizm xizmatlari sohasi yangi tarmoq sifatida rivojlanib, iqtisodiyoting boshqa tarmoqlari va sohalari bilan integrasiya qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Uchinchidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizm xizmatlari bozorini rivojlantirish yangi turizm turlarini, ya’ni, tarixiy turizm, ziyorat turizmi, inklyuziv turizm va boshqa turlarni taraqqiyotiga olib keladi.

To‘rtinchidan, turizm xizmatlari bozorini rivojlanishi turizm sohasidan olinadigan yalpi turistik mahsulotning oshishiga, sohadan olinayotgan sof foydani ko‘payishiga natijada mintaqa iqtisodiyotini keskin oshishiga olib keladi.

Beshinchidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizm xizmatlari bozoriga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash imkoniyati yaratiladi, “Gid-tarjimon”, “Gid-ekskursovod” va boshqa yangi kasb egalarining shakllanishiga olib keladi.

Oltinchidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizm xizmatlari bozori rivojlanishi xuddi Dubayda turizm rivojlanishi singari Qoraqalpog‘istonni dunyo bilan tanishtirish imkonini yaratadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Qoraqalpog‘iston hududiy turizm bozori katta salohiyatga ega bo‘lsa-da, hozirgi vaqtda milliy bozor tarkibidagi ulushi hudud imkoniyatlariga mos emas: joylashtirish vositalarining 3,4 foizi, turistik firmalarning 2,2 foizi va sotilgan yo‘llanmalarning 1,7 foizi hududga to‘g‘ri keladi. Talab tarkibida xizmat safarlari ustunlik qilib, dam olish turizmi va xorijiy segment zaif rivojlangan, o‘rinlardan foydalanish darajasi esa past. Shu bilan birga, 2025-yilda xorijiy tashriflar bo‘yicha strategik maqsadning muddatidan oldin bajarilishi talab tez o‘sayotganini va bozorning asosiy cheklovi taklif tomonida ekanini ko‘rsatadi. Shu bois taklif etilgan yo‘nalishlar — joylashtirish tizimini diversifikatsiya qilish, dam olish turizmini rivojlantirish, mavsumiylikni yumshatish, tranzit oqimni hududda ushlab qolish, turistik firmalar faoliyatini faollashtirish, xorijiy segmentlarni kengaytirish va hududiy statistikani takomillashtirish — kompleks tarzda amalga oshirilishi hududni tranzit yo‘nalishdan mustaqil turistik destinatsiyaga aylantirishga xizmat qiladi.

Orolbo‘yi hududida turistik xizmatlar bozorini strategik rivojlantirish - Qoraqalpog‘iston iqtisodiyotining xizmat ko‘rsatish tarmog‘ini tubdan o‘zgartirish quvvatiga ega. Mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish taklif etiladi:

1. Qoraqalpog‘istonning chekka hududlarida turizm servis obektlarini (mehmon uylari, ovqatlanish shoxobchalari) tashkil etgan tadbirkorlar uchun uzoq muddatli soliq va bojxona imtiyozlarini saqlab qolish va kengaytirish;

2. Oliy ta’lim muassasalarida gid-tarjimonlar, cho‘l sharoitida logistika operatorlari va mehmondo‘stlik menejerlarini maqsadli tayyorlash orqali kadrlar xizmati sifatini yaxshilash;

3. “Qoraqalpog‘iston - sarguzashtlar va qadimiy sivilizatsiya chorrahasi” yagona turistik brendini xalqaro bozorda agressiv marketing yordamida targ‘ib qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Романович Ж.А., Калачев С.Л. Сервисная деятельность. — М.: Дашков и К, 2007. https://www.bibliofond.ru/view.aspx
2. Дементьев В.И., Кабалдин Ю.Г. Схема отношений субъектов трудовой деятельности в сфере услуг // Труды НГТУ им. Р.Е. Алексеева. — 2013. — №5(102).
3. Mirzayev Q.J. “Agroservis iqtisodiyoti” Monografiya, SamISI, T.: “Iqtisod-moliya” 2013-y. -212b. -13b.
4. Квартальнов В.А. *Туризм: учебник*. – М.: Финансы и статистика, 2002. – 320 с.
5. Александрова А.Ю. Международный туризм. – М.: Аспект Пресс, 2004.
6. Сафаров Б.Ш. Миллий туризм хизматлари бозорини инновацион ривожлантиришнинг методологик асослари. Монография. – Т.: “Фан ва технология” нашриёти, 2016, 184 бет
7. Morozov M.A., Morozova N.S. Regional Features of Development of Tourism Infrastructure and Their Impact on Tourism. Regionology = Russian Journal of Regional Studies. 2021; 29(3):588-610.
8. Пўлатов М.Э., Мирзаев Қ.Ж., Султонов Ш.А., Шавқиев Э. Глобал иқтисодий ривожланиш (туризм

2023. – URL: https://qrstat.uz/images/Nashrlar/Press-relizlar/2022/Ijtimoiy_soha_va_barqaror_rivojlanish_statistikasi/turizm-2022-uz.pdf (murojaat sanasi: 27.09.2026). O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. 2023-yilda O‘zbekiston Respublikasida turizm va dam olish rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari: press-reliz. – Toshkent, 2024. – URL: https://stat.uz/images/uploads/reliz2024/turizmpresreliz2023uz.pdf (murojaat sanasi: 27.09.2026).

иқтисодиёти). Ўқув қўлланма.Т.: Фан ва технология, 2018. −296 б.
9. Абдурахмонов К.Х. Менежмент туризма: Учебное пособие. –Т.: Филиал ФГБОУ ВПО «РЭУ им. Г.В.Плеханова» в г. Ташкенте, 2013.-248 с.
10. Тухлиев И., Қудратов Ғ., Пардаев М. Туризмни режалаштириш. Дарслик. Т.: “Иқтисод ва молия” 2008.-262 б.

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Tleumuratov Bahadir Genjemuratovich- Samarqand iqtisodiyot va servis instituti mustaqil tadqiqotchisi / Тлеумуратов Бахадир Генжемуратович — независимый исследователь Самаркандского института экономики и сервиса / Tleumuratov Bahadir Genjemuratovich – Independent Researcher at the Samarkand Institute of Economics and Service
E-mail: baxadirtleumuratov@gmail.com

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.10.10.2026.37 *Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi*

XIZMAT KO‘RSATISH SOHASIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Abdullayev Jamshid Obidovich

ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СФЕРЕ УСЛУГ

Жамшид Обидович Абдуллаев

WAYS TO ENHANCE THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE ACTIVITY IN THE SERVICE SECTOR

Jamshid Obidovich Abdullaev

Annotatsiya Mazkur maqolada xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Xizmatlar bozorida raqobatbardoshlikni mustahkamlash, raqamli texnologiyalarni joriy etish, xizmat ko‘rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish, inson kapitalini rivojlantirish hamda mijozlarga yo‘naltirilgan boshqaruv tizimini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekiston iqtisodiyotida xizmatlar sohasining tutgan o‘rni, innovatsion rivojlanish imkoniyatlari va mavjud muammolar ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot yakunida innovatsion faoliyat samaradorligini baholash mezonlari ishlab chiqilib, xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarda innovatsiyalarni joriy etish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: xizmat ko‘rsatish sohasi, innovatsion faoliyat, innovatsion samaradorlik, raqamli transformatsiya, raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirish, mehnat unumdorligi, raqobatbardoshlik, mijozlar ehtiyoji, iqtisodiy samaradorlik.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты повышения эффективности инновационной деятельности в сфере услуг. Анализируются вопросы усиления конкурентоспособности на рынке услуг, внедрения цифровых технологий, автоматизации сервисных процессов, развития человеческого капитала и совершенствования клиентоориентированной системы управления. Также рассматривается роль сектора услуг в экономике Узбекистана, возможности инновационного развития и существующие проблемы. По итогам исследования разработаны критерии оценки эффективности инновационной деятельности и предложены научно-практические рекомендации по повышению эффективности внедрения инноваций на предприятиях сферы услуг.

Ключевые слова: сектор услуг, инновационная деятельность, инновационная эффективность, цифровая трансформация, цифровые технологии, автоматизация, производительность труда, конкурентоспособность, потребности клиентов, экономическая эффективность.

Abstract. This article examines the theoretical and practical aspects of enhancing the efficiency of innovation activities within the service sector. It analyzes issues related to strengthening competitiveness in the service market, implementing digital technologies, automating service processes, developing human capital, and refining customer-oriented management systems. The role of the service sector in the economy of Uzbekistan, opportunities for innovation-driven development, and existing challenges are also discussed. Based on the research findings, criteria for evaluating the efficiency of innovation activities have been developed, and practical, science-based recommendations are proposed for improving the effectiveness of implementing innovations in service-sector enterprises.

Keywords: service sector, innovation activity, innovation efficiency, digital transformation, digital technologies, automation, labor productivity, competitiveness, customer needs, economic efficiency.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyotning rivojlanish bosqichida xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholi turmush darajasini yaxshilash va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Globallashuv, raqamli iqtisodiyotning kengayishi, iste’molchilar talabining o‘zgarishi hamda bozor raqobatining kuchayishi xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar faoliyatiga innovatsion yondashuvlarni joriy etishni taqozo etmoqda.

Bugungi kunda xizmat ko‘rsatish korxonalarining barqaror rivojlanishi nafaqat taqdim etilayotgan xizmatlar hajmiga, balki ularning sifati, tezkorligi,

qulayligi va mijozlar ehtiyojlariga moslashuvchanligiga ham bog‘liq. Shu sababli innovatsion faoliyatni tashkil etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish va xizmatlar ko‘rsatishning yangi usullarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon bankining O‘zbekistonda xizmatlar sohasining rivojlanishiga bag‘ishlangan tadqiqotida mazkur sohaning iqtisodiyotdagi muhim o‘rni ta’kidlangan. Xususan, 2023-yilda xizmatlar sohasi mamlakat yalpi ichki mahsulotining 43,9 foizini tashkil etgan. Shu bilan birga, yuqori bilim va texnologiyalarga asoslangan axborot-kommunikatsiya, professional va moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish mehnat unumdorligini oshirishning muhim yo‘nalishi sifatida ko‘rsatilgan.

Mazkur sharoitda xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish mexanizmlarini ilmiy jihatdan o‘rganish, uning natijadorligini baholash mezonlarini aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR TAHLILI

Ushbu yo‘nalishda xorijlik olimlardan, A.Monkretyen o‘zining mashhur asari “Siyosiy iqtisod traktati” (1615) da: “ayriboshlash unumli mehnatning katta va asosiy qismiga aylangan kundan boshlab, sotuvchilar va “tojirlar” markaziy muvofiqlashtiruvchi rol o‘ynay boshladilar. Foyda ularni asosiy rag‘bati bo‘lib, u qo‘llab-quvvatlanishi va himoya qilinishi lozim (davlat tomonidan)[118]” hamda davlat, mamlakat boyligining manbaini moddiy ne’matlar ishlab chiqarish sohasida emas, balki savdo va pul muomalasi sohasida, ya’ni hozirgi zamon ilmiy qarashlariga muvofiq, xizmatlar sohasida izlaganlar.[119]

Buyuk iqtisodchi A.Smit (1723-1790) xizmat shaklidagi noz-ne’matlarning iqtisodiy mazmunini to‘laroq ochib berish hamda uning mamlakat ijtimoiy boyligining manbai sifatida qarash muammosini hal etish maqsadida, o‘zining jahonga mashhur “Xalqlar boyligining tabiati va sabablari tadqiqoti” (1766) nomli asarida «unumli mehnat» va «unumsiz mehnat» tushunchalari xususida fikr yuritgan[120]. A. Smit bu haqda shunday deb yozgan: “Jamiyatning ayrim eng hurmatli tabaqalarining mehnati, xuddi uy xizmatkori mehnati kabi, hyech qanday qiymat yaratmaydi va sotilishi yoki mehnat jarayoni tugagandan keyin ham mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan biror bir uzoq muddat xizmat qiladigan predmet yoki tovarda gavdalanmaydi..... Masalan, podshoh hamma o‘zining amaldorlari, zobitlari, butun armiya va floti bilan unumsiz mehnat xodimlarini tashkil etadilar.... Ayrim eng jiddiy va muhim kasblar bilan bir qatorda ayrim eng yengiltak kasblar - ruhoniylar, huquqshunoslar, vrachlar, yozuvchilar, aktyorlar, masxarabozlar, musiqachilar, raqqosalar va boshqalarni bir sinfga kiritish kerak”[121]- degan firklarni ilgari so‘rgan bo‘lsa, mamalakatimiz olimlaridan,

V.E.Nikolaychukning ta'kidlashicha: “Hamma sohada xizmatlar yaratiladi, ammo hamma sohada ham moddiy tovarlar yaratilmaydi (bank, transport, konsalting va boshqalar)” [122].

M.Q.Pardaevning “Xizmat deyilganda, insonning, xo‘jalik yurituvchi sub'ektlarning, davlatning va jamiyatning ma'lum bir ehtiyojini kondirishga yo‘naltirilgan kishilarning naf keltiradigan xizmat jarayoni bilan bog‘liq ongli faoliyati tushuniladi” [123].

Q.J.Mirzaev esa xizmat ko‘rsatish va servisga shunday ta'rif bildirgan. Xizmat ko‘rsatish deyilganda – insonlarning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sub'ektlarida yuzaga keladigan, o‘z iste'mol ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirgan va daromad olishga qaratilgan harakatlar majmuini ifodalovchi faoliyat tushuniladi[124].

MAVZUNING TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, umumlashtirish va mantiqiy xulosa chiqarish usullaridan foydalanildi. Ushbu metodlar innovatsion faoliyatning asosiy omillarini aniqlash va samaradorlikni oshirish yo‘nalishlarini shakllantirish imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Innovatsion faoliyat iqtisodiy subyektlarning yangi mahsulotlar, xizmatlar, texnologiyalar, boshqaruv usullari va tashkiliy yechimlarni yaratish hamda amaliyotga joriy etishga qaratilgan faoliyatidir. Xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsiyalar moddiy mahsulot ishlab chiqarishdan farqli ravishda ko‘pincha xizmatni taqdim etish jarayoni, mijoz bilan o‘zaro munosabat, axborot almashinuvi va xizmat natijasining sifatini yaxshilash bilan bog‘liq bo‘ladi.

Xizmat ko‘rsatish sohasidagi innovatsiyalarni quyidagi asosiy yo‘nalishlarga ajratish mumkin:

Birinchidan, **texnologik innovatsiyalar**. Bunga sun’iy intellekt, bulutli texnologiyalar, mobil ilovalar, elektron to‘lov tizimlari, mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish tizimlari va boshqa raqamli yechimlarni joriy etish kiradi.

Ikkinchidan, **jarayon innovatsiyalari**. Ular xizmat ko‘rsatish bosqichlarini soddalashtirish, ortiqcha operatsiyalarni qisqartirish, ish vaqtini tejash va xizmatlarni avtomatlashtirish orqali namoyon bo‘ladi.

Uchinchidan, **tashkiliy-boshqaruv innovatsiyalari**. Bunda zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish, xodimlar faoliyatini natijadorlik ko‘rsatkichlari asosida baholash, jamoaviy ishlashni rivojlantirish va qaror qabul qilish jarayonlarini takomillashtirish nazarda tutiladi.

[118]Слудковская М. А. Политическая экономия Антуана де Монкретьена (к 400-летию выпуска "Трактата по политической экономии").//Вестник Московского университета. Серия 6. Экономика, № 2, 2016, -С.107-118.

[119]Мухаммедов М.М. ва бошқалар. Хизмат кўрсатиш соҳаси ва туризмни ривожлантиришнинг назарий асослари. Монография. - Самарқанд: Zarafshon, 2017. -28 б.

[120]Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. М.: Эксмо, 2009. – С.104.

[121]Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. -М.: Эксмо, 2009. – С.64.

[122] Составлено по кн.: Николайчук В.Е. Маркетинг и менеджмент услуг // Деловой сервис. Спб.: Питер, 2005. С.608.

[123] Пардаев М.Қ., Очилов И.С. Хизмат кўрсатиш соҳаси корхоналарида самарадорликни ошириш йўллари. Монография, Тошкент: “IQTISOD-MOLIYA” нашриёти, 2011. – 11-бет.

[124] Мирзаев Қ.Ж., Агросервис иқтисодиёти. Монография. Т. “Иқтисод-молия”. 2013. 13-бет.

To‘rtinchidan, **marketing innovatsiyalari**. Ular raqamli marketing, mijozlar xulq-atvorini tahlil qilish, shaxsiylashtirilgan xizmatlar taklif etish hamda yangi bozor segmentlariga chiqishni qamrab oladi.

Beshinchidan, **ijtimoiy va ekologik innovatsiyalar**. Ushbu yo‘nalish xizmatlarning barcha aholi qatlamlari uchun qulayligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Innovatsion faoliyat samaradorligi esa innovatsiyalarni joriy etish natijasida erishilgan iqtisodiy, tashkiliy, texnologik va ijtimoiy natijalarning sarflangan resurslarga nisbatini ifodalaydi. Shuning uchun innovatsiyalarni baholashda faqat moliyaviy daromadni emas, balki mijozlar qoniqishi, xizmat ko‘rsatish tezligi, xodimlar mehnat unumdorligi va xizmat sifati kabi ko‘rsatkichlarni ham hisobga olish lozim.

O‘zbekistonda xizmatlar sohasi iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, tadbirkorlikni rivojlantirish va aholi bandligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Savdo, transport, moliya, turizm, ta’lim, sog‘liqni saqlash, axborot-kommunikatsiya va professional xizmatlar ushbu sohaning asosiy tarkibiy qismlarini tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil yanvar–avgust oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibida kompyuter dasturlash xizmatlari sezilarli o‘rin egallagan. Mazkur xizmatlar hajmi 2024-yilning shu davriga nisbatan 26,5 foizga o‘sgan[125]. Ushbu ko‘rsatkich raqamli texnologiyalar va axborot xizmatlariga bo‘lgan talabning ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Xizmatlar sohasida innovatsion rivojlanish uchun quyidagi imkoniyatlar mavjud:

- elektron tijorat va masofaviy xizmatlar ko‘lamini kengaytirish;
- raqamli to‘lovlar va elektron hujjat aylanishini rivojlantirish;
- sun’iy intellekt yordamida mijozlar murojaatlarini qayta ishlash;
- turizm, transport, ta’lim va tibbiyot xizmatlarini raqamlashtirish;
- kichik biznes subyektlarida zamonaviy boshqaruv tizimlarini joriy etish;
- xizmatlar eksportini kengaytirish va xalqaro bozorlarga chiqish.

Shu bilan birga, innovatsion faoliyatning rivojlanishiga ayrim muammolar to‘sqinlik qilishi mumkin. Jumladan, kichik korxonalarda moliyaviy resurslarning cheklanganligi, malakali raqamli mutaxassislar yetishmasligi, innovatsion loyihalarni baholash tajribasining pastligi va hududlar o‘rtasidagi raqamli infratuzilma tafovutlari shular jumlasidandir.

Xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri raqamli texnologiyalardan foydalanishdir. Raqamlashtirish mijozlarga xizmat ko‘rsatish vaqtini qisqartirish, ma’lumotlarni qayta ishlashni tezlashtirish, xarajatlarni optimallashtirish va xizmatlar sifatini yaxshilash imkonini beradi.

Masalan, mehmonxonalarda elektron bronlash tizimlari, banklarda mobil ilovalar, savdo korxonalarida elektron hisob-kitoblar, ta’lim muassasalarida masofaviy o‘qitish platformalari va transport xizmatlarida onlayn buyurtma tizimlaridan foydalanish xizmat ko‘rsatish jarayonlarini yanada qulaylashtiradi.

Biroq raqamli texnologiyalarni joriy etishda korxonaning real ehtiyojlari va moliyaviy imkoniyatlari hisobga olinishi lozim. Aks holda, texnologiyaga sarflangan mablag‘ kutilgan iqtisodiy natijani bermasligi mumkin. Shu sababli har bir innovatsion loyiha oldindan texnik-iqtisodiy jihatdan baholanishi kerak.

Innovatsion faoliyat samaradorligi texnologik vositalar bilan bir qatorda inson kapitalining sifatiga ham bog‘liq. Malakali xodimlar yangi texnologiyalarni tez o‘zlashtiradi, mijozlar bilan samarali muloqot qiladi va yuzaga keladigan muammolarni tezkor hal etadi.

Shu munosabat bilan xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarda quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- xodimlarning raqamli savodxonligini muntazam oshirish;
- innovatsion g‘oyalarni ishlab chiqish bo‘yicha treninglar tashkil etish;
- xodimlarni qayta tayyorlash va kasbiy rivojlantirish dasturlarini joriy etish;
- samarali takliflar bergan xodimlarni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish;
- oliy ta’lim muassasalari va ilmiy tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish.

Xodimlarning innovatsion jarayonlarda faol ishtirok etishi korxonada yangiliklarga ochiq tashkiliy muhitni shakllantiradi. Bunday muhit esa yangi xizmatlarni yaratish va mavjud xizmatlarni takomillashtirishga yordam beradi.

Xizmat ko‘rsatish sohasida mijozlar qoniqishi korxona raqobatbardoshligining muhim mezonidir. Shu sababli innovatsion faoliyat iste’molchilar ehtiyojlarini chuqur o‘rganish va ularning fikr-mulohazalarini boshqaruv qarorlarida hisobga olishga asoslanishi lozim.

Mijozlar qoniqishini o‘rganish uchun elektron so‘rovnomalar, onlayn sharhlar, murojaatlarni tahlil qilish va mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish tizimlaridan foydalanish mumkin. Olingan ma’lumotlar asosida xizmat ko‘rsatishdagi kamchiliklar aniqlanadi, mijozlarning kutishlari baholanadi va yangi xizmatlar ishlab chiqiladi. Natijada korxonaning mijozlarni saqlab qolish imkoniyati oshadi hamda uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlik mustahkamlanadi.

Innovatsion loyihalarni amalga oshirish moliyaviy resurslarni talab qiladi. Shu sababli xizmat ko‘rsatish korxonalari innovatsiyalarni moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilishi, mavjud resurslardan oqilona foydalanishi va investitsion qarorlarni iqtisodiy natijalar asosida qabul qilishi kerak. Bunda korxonaning o‘z mablag‘lari, bank kreditlari, investorlar mablag‘lari,

[125] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. *Main indicators of the service sector in the Republic of Uzbekistan*. 19.09.2025. Rasmiy statistik ma’lumotlar: https://stat.uz/

grantlar va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlaridan foydalanish mumkin. Ayniqsa, kichik va o‘rta biznes uchun tayyor raqamli yechimlarni bosqichma-bosqich joriy etish yuqori boshlang‘ich xarajatlarni kamaytirishi mumkin. Bundan tashqari, universitetlar, ilmiy-tadqiqot institutlari, texnologik kompaniyalar va startaplar bilan hamkorlik qilish yangi g‘oyalarni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish uchun uning natijalarini muntazam o‘lchash va tahlil qilish zarur. Buning uchun iqtisodiy, texnologik, tashkiliy va mijozlarga oid ko‘rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Innovatsion faoliyat samaradorligini baholashning umumiy iqtisodiy modeli quyidagicha ifodalanishi mumkin:

$$E_i = \frac{R_i - C_i}{C_i} \times 100\ \%$$

Bu erda:

E_i - innovatsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligi, foizda;

R_i - innovatsiya natijasida olingan qo‘shimcha iqtisodiy natija;

C_i - innovatsiyani joriy etish va undan foydalanish bilan bog‘liq jami xarajatlar.

Mazkur formula innovatsiyadan olingan qo‘shimcha iqtisodiy natijaning xarajatlarga nisbatan darajasini ifodalaydi. Bunda R_i-ko‘rsatkichi sof foyda emas, balki innovatsiya natijasida yuzaga kelgan qo‘shimcha iqtisodiy samara sifatida hisoblanadi. Hisob-kitobda xarajatlar va natijalar bir xil davrga tegishli bo‘lishi, bir xil hisoblash usulida baholanishi hamda innovatsiya bilan bog‘liq bo‘lmagan omillar imkon qadar ajratilishi lozim.

Innovatsion faoliyatni kompleks baholash uchun quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalanish tavsiya etiladi (1-jadval).

1-jadval

Innovatsion faoliyatni kompleks baholash

Ko‘rsatkich	Hisoblash yoki baholash usuli	Ahamiyati
Mehnat unumdorligi	Xizmatlar hajmi / xodimlar soni	Mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini ko‘rsatadi
Xizmat ko‘rsatish vaqti	Bir xizmat uchun sarflangan o‘rtacha vaqt	Tezkorlik va jarayonlar samaradorligini baholaydi
Mijozlar qoniqishi	So‘rovnoma yoki indeks asosida	Xizmat sifati va mijozlar tajribasini o‘lchaydi
Raqamli xizmatlar ulushi	Raqamli kanallar orqali ko‘rsatilgan xizmatlar / jami xizmatlar × 100%	Raqamlashtirish darajasini ko‘rsatadi
Innovatsiyalarning iqtisodiy samaradorligi	Qo‘shimcha samara va innovatsion xarajatlar nisbati	Innovatsiyaning iqtisodiy natijasini baholaydi
Shikoyatlar darajasi	Shikoyatlar soni / jami xizmatlar soni × 100%	Xizmat ko‘rsatishdagi muammolarni aniqlaydi

Ushbu ko‘rsatkichlarni birgalikda qo‘llash innovatsion faoliyat natijalarini har tomonlama baholash imkonini beradi. Bunda har bir ko‘rsatkichning boshlang‘ich holati aniqlanib, belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlar bilan taqqoslanishi zarur.

XULOSA

Xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish zamonaviy iqtisodiyot sharoitida korxonalarning raqobatbardoshligi, moliyaviy barqarorligi va uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlovchi muhim omillardan biridir. Tadqiqot natijalari innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish texnologik yangiliklarni joriy etish, boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish, inson kapitalini rivojlantirish va mijozlarga yo‘naltirilgan yondashuvni shakllantirish bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda xizmatlar sohasining rivojlanishi, xususan, axborot-kommunikatsiya va dasturlash xizmatlariga talabning ortib borishi innovatsion faoliyatni kengaytirish uchun muhim imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq ushbu imkoniyatlardan to‘liq foydalanish uchun korxonalarning texnologik salohiyatini oshirish, malakali kadrlar tayyorlash, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish va raqamli infratuzilmani rivojlantirish zarur.

Tadqiqot asosida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirishning asosiy shartlari sifatida strategik rejalashtirish, raqamli texnologiyalardan oqilona foydalanish, iqtisodiy natijalarni muntazam baholash, xodimlarni rag‘batlantirish va mijozlar ehtiyojlariga moslashish belgilandi. Taklif etilgan iqtisodiy formula va ko‘rsatkichlar tizimi korxonalarga innovatsion loyihalarning natijadorligini baholash hamda resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Umuman olganda, xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish uzluksiz takomillashtirish, texnologik yangilanish va inson kapitaliga investitsiyalar kiritishga asoslanishi lozim. Ushbu yo‘nalishlarda izchil chora-tadbirlarni amalga oshirish xizmatlar sifatini yaxshilash, mehnat unumdorligini oshirish, mijozlar qoniqishini mustahkamlash va milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Tahlillar asosida xizmat ko‘rsatish korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan quyidagi takliflar ishlab chiqildi.

Birinchi taklif — innovatsion rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish. Har bir korxona o‘z faoliyatining xususiyatlari, mijozlar talabi, mavjud texnologik imkoniyatlari va moliyaviy resurslarini hisobga olgan holda innovatsion rivojlanish

strategiyasini shakllantirishi kerak. Strategiyada ustuvor loyihalar, mas'ul shaxslar, amalga oshirish muddatlari va samaradorlik ko'rsatkichlari belgilanishi lozim.

Ikkinchi taklif — innovatsiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish. Yangi texnologiyalarni birdaniga barcha jarayonlarga tatbiq etish o'rniga, avvalo, eng ko'p vaqt va xarajat talab qiladigan jarayonlarda sinov loyihalarini amalga oshirish maqsadga muvofiq. Sinov natijalari ijobiy bo'lganda, yechimni korxonaning boshqa bo'limlariga kengaytirish mumkin.

Uchinchi taklif — innovatsion faoliyat monitoringi tizimini yaratish. Korxonalarda innovatsion loyihalarning iqtisodiy natijalari, xizmat sifati, mijozlar qoniqishi va xodimlar unumdorligini muntazam kuzatib boruvchi tizim joriy etilishi lozim. Bu tizim resurslardan samarasiz foydalanish holatlarini o'z vaqtida aniqlash imkonini beradi.

To'rtinchi taklif — xodimlarni innovatsion jarayonlarga jalb qilish. Xodimlarning takliflarini yig'ish, eng yaxshi g'oyalarni sinovdan o'tkazish va samarali yechimlarni rag'batlantirish mexanizmini yo'lga qo'yish zarur. Bu yondashuv korxona ichida innovatsion tashabbuslarni rivojlantiradi.

Beshinchi taklif — raqamli infratuzilma va axborot xavfsizligini mustahkamlash. Korxonalar elektron xizmatlar, ma'lumotlarni tahlil qilish vositalari va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini joriy etish bilan birga, mijozlar ma'lumotlarini himoya qilish va axborot xavfsizligini ta'minlash choralarini ham ko'rishi kerak.

Oltinchi taklif — innovatsion hamkorlikni kengaytirish. Xizmat ko'rsatuvchi korxonalar, oliy ta'lim muassasalari, ilmiy tashkilotlar va texnologik kompaniyalar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish yangi xizmatlarni ishlab chiqish va zamonaviy yechimlarni joriy etish xarajatlarini kamaytirishi mumkin.

Mazkur takliflarni amalga oshirishda korxonalarning hajmi, faoliyat turi va hududiy sharoitlari hisobga olinishi lozim. Kichik korxonalar uchun nisbatan arzon va tez joriy etiladigan raqamli yechimlar ustuvor bo'lsa, yirik korxonalar uchun integratsiyalashgan boshqaruv tizimlari, ma'lumotlar tahlili va sun'iy intellekt yechimlari muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonuni. 2020-yil 24-iyul, O'RQ-630-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. 2020-yil 5-oktabr, PF-6079-son.
3. O'zbekiston Respublikasining "Elektron hukumat to'g'risida"gi Qonuni. 2015-yil 9-dekabr, O'RQ-395-son.
4. Слудковская М. А. Политическая экономия Антуана де Монкретьена (к 400-летию выпуска "Трактата по политической экономии").//Вестник Московского университета. Серия 6. Экономика, № 2, 2016, -С.107-118.
5. Мухаммедов М.М. ва бошқалар. Хизмат кўрсатиш соҳаси ва туризмни ривожлантиришнинг назарий асослари. Монография. -Самарқанд: Zarafshon, 2017. -28 б.
6. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. М.: Эксмо, 2009. – С.104.
6. Составлено по кн.: Николайчук В.Е. Маркетинг и менеджмент услуг // Деловой сервис. Спб.: Питер, 2005. С.608.
7. Пардаев М.Қ., Очилов И.С. Хизмат кўрсатиш соҳаси корхоналарида самарадорликни ошириш йўллари. Монография, Тошкент: "IQTISOD-MOLIYA" нашриёти, 2011. – 11-бет.
8. Мирзаев Қ.Ж., Агросервис иқтисодиёти. Монография. Т. "Иқтисод-молия". 2013. 13-бет.
9. Nayyar, G., Hallward-Driemeier, M., Davies, E. At Your Service? The Promise of Services-Led Development. Washington, DC: World Bank, 2021.
10. Пардаев М.Қ., Исроилов Ж.И., Ғаппаров А.Қ. Хизмат кўрсатиш соҳасида иқтисодий таҳлилни такомиллаштириш муаммолари. Рисола. Самарқанд. «Зарафшон», 2009. - 66 б.- 4,1 б.т.
11. Пўлатов М.Э., Мирзаев Қ.Ж., Султонов Ш.А., Шавқиев Э. Глобал иқтисодий ривожланиш (туризм иқтисодиёти).Ўқув қўлланма.Т.: Фан ва технология, 2018. − 296 б.
12. M.E.Po'latov, K.J. Mirzaev, T.S.Sharipov, S.B. Boboqulov, Sh.S.Sharifov. Iqtisodiy o'sish /Darslik/ Samarqand.: SamISI, "STAP-SEL" MChJ. Nashriyot-matbaa bo'limi, - 2023 y. 456 b.
13. K.J. Mirzaev, S.B. Boboqulov, B.K. Janzakov. Raqamli iqtisodiyot. /O'quv qo'llanma/ Samarqand.: SamISI, "STAP-SEL" MChJ. Nashriyot-matbaa bo'limi, - 2022 y. 288 b.

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Abdullayev Jamshid Obidovich - "Ipak yo'li" turizm va madaniy xalqaro universiteti "Turizm" kafedrasi mustaqil izlanuvchi / Жамшид Обидович Абдуллаев — самостоятельный соискатель, кафедра туризма, Международный университет туризма и культурного наследия «Шелковый путь» / Jamshid Obidovich Abdullayev – Independent Researcher, Department of Tourism, "Silk Road" International University of Tourism and Cultural Heritage.
E-mail: jamshed1980@gmail.com

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.10.10.2026.38 *Moliya, kredit va investitsiya*

INVESTITSIYA MUHITINING JOZIBADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Jumaqulov Ozodbek Shuhrat o'g'li

ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТЬ ИНВЕСТИЦИОННОГО КЛИМАТА

Джумакулов Озодбек Шухрат угли

FACTORS INFLUENCING THE ATTRACTIVENESS OF THE INVESTMENT CLIMATE

Jumaqulov Ozodbek Shuhrat o'g'li

Annotatsiya Mazkur maqolada investitsiya muhitining iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni, uning jozibadorligiga ta'sir etuvchi asosiy iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, institutsional va infratuzilmaviy omillar ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etishda makroiqtisodiy barqarorlik, mulk huquqi himoyasi, soliq siyosati, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyati, inson kapitali va raqamli infratuzilmaning ahamiyati yoritilgan. O'zbekiston sharoitida investitsiya muhitini yanada takomillashtirish hamda investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya muhiti, investitsion jozibadorlik, xorijiy investitsiyalar, makroiqtisodiy barqarorlik, investitsiya siyosati, huquqiy kafolatlar, infratuzilma, tadbirkorlik, iqtisodiy o'sish.

Аннотация. В данной статье проводится научный анализ роли инвестиционного климата в экономическом развитии, основных экономических, политических, правовых, институциональных и инфраструктурных факторов, влияющих на его привлекательность. Также подчеркивается важность макроэкономической стабильности, защиты прав собственности, налоговой политики, доступа к финансовым ресурсам, человеческого капитала и цифровой инфраструктуры для привлечения иностранных и внутренних инвестиций. Разработаны научно-практические предложения по дальнейшему улучшению инвестиционного климата в Узбекистане и повышению экономической эффективности инвестиций.

Ключевые слова: инвестиционный климат, инвестиционная привлекательность, иностранные инвестиции, макроэкономическая стабильность, инвестиционная политика, правовые гарантии, инфраструктура, предпринимательство, экономический рост.

Abstract This article examines the role of the investment climate in economic development and analyzes the main economic, political, legal, institutional, and infrastructural factors affecting investment attractiveness. Particular attention is paid to macroeconomic stability, property rights protection, taxation, access to financial resources, human capital, and digital infrastructure. The article also develops practical recommendations for improving Uzbekistan's investment climate and increasing the economic efficiency of investment activities.

Keywords: investment climate, investment attractiveness, foreign investment, macroeconomic stability, investment policy, legal guarantees, infrastructure, entrepreneurship, economic growth.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyotda investitsiyalar mamlakatning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va xalqaro iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Investitsiya resurslaridan samarali foydalanish iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirish, iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish va milliy korxonalarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Investitsiya faoliyatining rivojlanishi ko'p jihatdan mamlakatda shakllangan investitsiya muhitiga bog'liq. Investitsiya muhiti investorlarning kapital kiritish, ishlab chiqarishni tashkil etish, faoliyatni kengaytirish va investitsiyadan daromad olish imkoniyatlariga ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ijtimoiy hamda institutsional shart-sharoitlar majmuasidir.

Jahon banki tadqiqotlarida siyosiy va makroiqtisodiy barqarorlik, huquqiy tartibga solish sifati, infratuzilma va eksport imkoniyatlari investorlarning qaror qabul qilishida muhim o'rin tutadi. Shu sababli investitsiya muhitining jozibadorligini oshirish faqat soliq imtiyozlarini kengaytirish bilan cheklanmasdan, iqtisodiyotda barqaror, shaffof va oldindan prognoz

qilish mumkin bo‘lgan biznes sharoitlarini yaratishni ham talab qiladi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida ham investitsiyalarni jalb qilish, xususiy sektor ulushini oshirish va ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Ushbu jarayonda investitsiya muhitiga ta’sir qiluvchi omillarni tizimli o‘rganish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo‘llarini ishlab chiqish alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Investitsiya muhiti jozibadorligi va sohani rivojlantirishga aniq bir ta’rif berilmagan bo‘lsada, ayrim xorijiy va mamlakatiz olimlarining bu boradagi fikrlarni keltirishgan. Jumladan, Nobel mukofotining iqtisodiyot bo‘yicha laureati (1990 yil) U.Sharp, Aleksandr G., Beyli Dj.larning fikriga ko‘ra “... investitsiyalar kelgusida (ehtimol, nomuayyan) qiymatlik olish maqsadida hozirgi vaqtda muayyan qiymatlikdan voz kechishdir”[126].

Shved iqtisodchi olimi K.Yeklund: “investitsiya – bu kelajakda ko‘proq istyemol qilish sharoitiga ega bo‘lish uchun ertangi kunga qoldiriladigan iste’mol buyumlari bo‘lib, boshqa qismi esa bu ishlab chiqarishni kengaytirishga yo‘naltirilgan resurslardir”[127] – degan g‘oyani ilgari suradi.

Mamlakatimiz olimlaridan, N.Haydarov investitsiyalarga o‘zining munosabatlarini bildirib, “Investitsiyalar - bu mulk shaklidan qatiy nazar, tadbirkorlik asosida faoliyat yuritayotgan jismoniy va yuridik shaxslar yoki davlatning iqtisodi va intellektual boyliklarini qonun doirasida bo‘lgan har qanday tadbirkorlik obyektiga sarflanishidir”[128] degan g‘oyani ilgari surgan.

A.Sh.Bekmurodov rahbarligida chop etilgan “Xorijiy investitsiyalar” nomli o‘quv qo‘llanmasida investitsiya atamasiga quyidagicha ta’rif keltirilgan. “Ko‘pgina hollarda «investitsiya» tushunchasi iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne’matlar hamda ularga doir huquqlar tarzida ta’riflanadi. Investitsiya deganda barcha turdagi milliy va intellektual boyliklar tushunilib, ular tadbirkorlik faoliyati obyektlariga yo‘naltirilib daromad keltirishi yoki biror-bir ijobiy samaraga erishishi zarur. Investitsiya kiritishdan asosiy maqsad daromad olish va ijobiy ijtimoiy samaraga erishishdir”[129].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, ilmiy abstraksiyalash, qiyosiy tahlil, mantiqiy umumlashtirish va iqtisodiy kuzatish usullaridan foydalanildi. Xalqaro tashkilotlarning investitsiya muhiti bo‘yicha tadqiqotlari hamda O‘zbekistonning investitsiya siyosatiga oid tahliliy materiallari nazariy va amaliy asos sifatida olindi.

Investitsiya muhitining jozibadorligi ko‘p omilli iqtisodiy hodisa bo‘lganligi sababli uni faqat investitsiyalar hajmi bilan baholash yetarli emas. Baholash jarayonida investitsiya oqimlarining barqarorligi, xususiy kapital ulushi, investitsiyalarning tarmoq va hududlar bo‘yicha taqsimlanishi, yaratilgan ish o‘rinlari, texnologik yangilanish va eksport salohiyati kabi ko‘rsatkichlar yoritilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Investitsion jozibadorlik mamlakat, hudud yoki muayyan korxonaning investor uchun kapital kiritishga qanchalik maqbul ekanini ifodalaydi. Uning darajasi kutilayotgan daromad, investitsiya xarajatlari, tavakkalchilik, huquqiy himoya va uzoq muddatli rivojlanish istiqbollari o‘rtasidagi nisbat bilan belgilanadi. Investitsiya muhitiga ta’sir etuvchi omillarni shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin. Bular quyidagilar:

Makroiqtisodiy barqarorlik. Makroiqtisodiy barqarorlik investitsion jozibadorlikning asosiy shartlaridan biridir. Inflyatsiya darajasi, valyuta kursining dinamikasi, iqtisodiy o‘sish sur’atlari, davlat budjeti holati va tashqi qarzning barqarorligi investorlarning uzoq muddatli qarorlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Yuqori va beqaror inflyatsiya ishlab chiqarish xarajatlarini oshirishi, real daromadlarni pasaytirishi va moliyaviy rejalashtirishni qiyinlashtirishi mumkin. Valyuta kursidagi keskin o‘zgarishlar esa xorijiy investorlar uchun kapital qiymati va investitsiyadan olinadigan daromadning valyutadagi ifodasini o‘zgartiradi. Shu bilan birga, iqtisodiy o‘sishning barqarorligi ichki bozor talabining kengayishiga, korxonalar daromadining oshishiga va yangi investitsiya loyihalarining paydo bo‘lishiga zamin yaratadi.

Siyosiy barqarorlik va huquqiy kafolatlar. Investorlar kapital kiritishdan oldin mamlakatdagi siyosiy barqarorlik, qonunchilikning izchilligi, mulk huquqining himoyasi va nizolarni hal qilish mexanizmlarini baholaydilar. Mulk huquqining ishonchli himoya qilinishi investorning aktivlardan foydalanish, ularni tasarruf etish va olingan daromadni qonuniy ravishda boshqarish imkoniyatini ta’minlaydi. Sud tizimining mustaqilligi, shartnomalarning bajarilishi va davlat organlari qarorlarining shaffofligi ham investitsion xavflarni kamaytiradi. Qonunchilikka tez-tez va yetarli o‘tish davrisiz o‘zgartirishlar kiritilishi esa investorlar uchun qo‘shimcha xarajatlar va noaniqliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi me’yorlarning barqarorligi va ularni amaliyotda bir xil qo‘llash muhim ahamiyatga ega.

Soliq siyosati va moliyaviy sharoitlar. Soliq tizimi investitsiya loyihalarining xarajatlari va kutilayotgan daromadiga ta’sir ko‘rsatadi. Soliq stavkalari, imtiyozlar, soliq ma’murchiligi, hisobot topshirish tartibi va soliq majburiyatlarining aniqligi investorlarning qarorlariga ta’sir qiluvchi omillardir. Biroq soliq imtiyozlarining o‘zi investitsiyalarni jalb qilish uchun yetarli emas. Moliyaviy sharoitlar ham alohida ahamiyatga ega. Bank kreditlarining qiymati, kredit olish talablari, kapital bozori rivojlanganligi va

[126] Шарп У., Александр Г., Бейли Дж. Инвестиции. Пер. с. англ. – М.: «Инфра-М», 1997. – С. 16, 979.

[127] Клас Эклунд. Эффективная экономика: шведская модель. – М.: «Экономика», 1991. – С. 96.

[128] Ҳайдаров Н.Ҳ. “Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида корхоналар инвестицион фаолиятидаги молия-солиқ муносабатларини такомиллаштириш масалалари” мавзусидаги и.ф.д.илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореферати. — Т.: Академ-Хизмат. 2003. – 14-15-б.

[129] Бекмуродов А.Ш. ва бошқ. Хорижий инвестициялар. Ўқув қўлланма. – Т.: Иқтисодиёт, 2010. – 166 б.

uzoq muddatli moliyalashtirish manbalarining mavjudligi korxonalarning investitsiya loyihalarini amalga oshirish imkoniyatlarini belgilaydi.

Infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi. Transport, energetika, telekommunikatsiya, suv ta'minoti va logistika infratuzilmasining rivojlanganligi investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Sifatli transport tarmoqlari xomashyo va tayyor mahsulotlarni tashish xarajatlarini kamaytiradi. Barqaror elektr energiyasi ta'minoti ishlab chiqarish uzluksizligini ta'minlaydi. Raqamli infratuzilma esa korxonalarning axborot almashinuvi, elektron savdo va xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Inson kapitali va mehnat resurslari. Malakali ishchi kuchi, kasbiy ta'lim sifati, mehnat unumdorligi va innovatsion salohiyat zamonaviy investitsiya loyihalarining muhim shartlaridan hisoblanadi. Texnologik jihatdan murakkab ishlab chiqarish tarmoqlari muhandislar, texnik mutaxassislar, dasturchilar va malakali boshqaruv kadrlariga ehtiyoj sezadi. Mehnat resurslarining son jihatdan ko'pligi investitsiyalarni jalb etishda muayyan ustunlik yaratishi mumkin, biroq zarur malakalar mavjud bo'lmasa, ushbu ustunlikdan to'liq foydalanish qiyinlashadi.

Bozor hajmi va tashqi iqtisodiy aloqalar. Ichki bozor hajmi, aholining xarid qobiliyati, iste'mol talabi va iqtisodiy o'sish istiqbollari bozorni egallashga yo'naltirilgan investitsiyalar uchun muhim omillardir. Aholisi ko'p va talab tarkibi kengayib borayotgan mamlakatlar ishlab chiqaruvchilar uchun yangi savdo imkoniyatlarini yaratadi.

Institutsional sifat va davlat boshqaruvi. Davlat boshqaruvining samaradorligi investitsiya loyihalarini amalga oshirish muddati, ma'muriy xarajatlar va investorlarning davlat institutlariga bo'lgan ishonchiga ta'sir qiladi. Litsenziyalash, ruxsatnomalar berish, yer ajratish, bojxona rasmiylashtiruvi va kommunal tarmoqlarga ulanish jarayonlarining murakkabligi investitsiya xarajatlarini oshirishi mumkin. Aksincha, davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi va ma'muriy jarayonlarning soddalashtirilishi investitsiya loyihalarini amalga oshirishni tezlashtiradi. Institutsional sifatning muhim tarkibiy qismi korrupsiyaga qarshi kurashish, davlat xaridlarining shaffofligi, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va tadbirkorlarning murojaatlarini samarali ko'rib chiqish tizimidir.

Innovatsiyalar va raqamli transformatsiya. Raqamli texnologiyalar, innovatsion ekotizim, ilmiy-tadqiqot infratuzilmasi va intellektual mulkni himoya qilish investitsion jozibadorlikning zamonaviy omillari qatoriga kiradi. Elektron davlat xizmatlari investorlarning ma'muriy xarajatlarini kamaytiradi. Raqamli to'lovlar, ma'lumotlar almashinuvi va elektron hujjat aylanishi esa biznes jarayonlarining tezligi va shaffofligini oshiradi.

Hozirgi global iqtisodiy raqobat sharoitida investitsiya muhiti mamlakat va hududlarning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi. Investitsiya muhiti tushunchasi iqtisodiy adabiyotlarda keng qo'llanilib, u investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun shakllangan iqtisodiy, institutsional, huquqiy, infratuzilmaviy va ijtimoiy shart-sharoitlar majmuini ifodalaydi. Mazkur muhitning sifati investitsiya qarorlarini qabul qilish jarayonida investorlar uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Investitsiya muhiti, avvalo, kapitalni joylashtirish bilan bog'liq risklar darajasi va kutilayotgan iqtisodiy foydaning nisbati orqali baholanadi. Agar hududda huquqiy barqarorlik, institutsional aniqlik, infratuzilmaning rivojlanganligi va iqtisodiy siyosatning izchilligi ta'minlangan bo'lsa, investitsiya muhiti nisbatan jozibador hisoblanadi. Aksincha, ma'muriy to'siqlar, infratuzilmaviy cheklovlar va energetika ta'minotidagi uzilishlar investitsiya faolligini pasaytiradi.

Hududiy rivojlanish nuqtai nazaridan investitsiya muhiti iqtisodiy o'sishning fazoviy notengligini kamaytirishda muhim instrument hisoblanadi. Davlat tomonidan olib borilayotgan hududiy investitsiya siyosati orqali kapital oqimlarini iqtisodiy jihatdan orqada qolgan yoki strategik ahamiyatga ega hududlarga yo'naltirish imkoni paydo bo'ladi. Bu esa ishlab chiqarish quvvatlarini hududlar bo'ylab mutanosib joylashtirish, bandlik darajasini oshirish va aholi daromadlarini ko'paytirishga xizmat qiladi.

Investitsion jozibadorlik investitsiya muhitining natijaviy ifodasi bo'lib, u muayyan hudud yoki iqtisodiy obyektning investorlar uchun qay darajada maqbul ekanligini ko'rsatadi. Ilmiy yondashuvlarda investitsion jozibadorlik ko'p omilli kategoriya sifatida qaralib, uning shakllanishida bir qator tashkiliy-iqtisodiy omillar ishtirok etadi.

Ushbu omillarni shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- institutsional omillar (qonunchilik barqarorligi, davlat boshqaruvi sifati, investorlar huquqlarini himoya qilish);
- iqtisodiy omillar (yalpi hududiy mahsulot hajmi, bozor sig'imi, ishlab chiqarish xarajatlari);
- infratuzilmaviy omillar (transport, logistika, muhandislik tarmoqlari);
- energetik omillar (elektr ta'minoti barqarorligi, quvvat zaxiralari);
- ijtimoiy omillar (mehnat resurslari salohiyati, aholi malakalari).

Investitsion jozibadorlikning yuqori darajasi, odatda, kapital oqimlarining barqaror o'sishi, investitsiya loyihalarining diversifikasiyasi va uzoq muddatli iqtisodiy samara bilan namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, jozibadorlik faqat investitsiya hajmi orqali emas, balki investitsiyalarning tarmoqlar va hududlar kesimidagi taqsimoti, ularning iqtisodiy qaytimi orqali ham baholanishi lozim.

Tashkiliy-iqtisodiy omillar investitsiya muhitini shakllantirishda yakka holda emas, balki o'zaro bog'liq tizim sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, infratuzilmaning rivojlanganligi institutsional muhit samaradorligi bilan uyg'unlashgan taqdirdagina investitsiya faolligini rag'batlantiradi. Shuningdek, energetika ta'minoti barqaror bo'lmagan sharoitda hatto yuqori bozor salohiyatiga ega hududlar ham investorlar uchun xavfli hisoblanishi mumkin.


Bu holat investitsiya muhitini baholashda kompleks yondashuvni qo‘llash zarurligini asoslaydi. Ya’ni, investitsion jozibadorlikni aniqlashda alohida omillarni emas, balki ularning o‘zaro ta’siri va umumiy natijaviy ta’sirini hisobga olish lozim. Ayni shu jihat keyingi qismlarda taklif etiladigan integral indeks va modellarning ilmiy asosini tashkil etadi.

Investitsiya muhiti va investitsion jozibadorlik hududiy iqtisodiy rivojlanishning hal qiluvchi determinantlari hisoblanib, ularning shakllanishi tashkiliy va iqtisodiy omillarning kompleks o‘zaro ta’siriga bog‘liq. Shu bois investitsiya muhitini tahlil qilishda tizimli va modellashtirilgan yondashuvni qo‘llash ilmiy va amaliy jihatdan maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Investitsiya muhitining jozibadorligi, avvalo, hududdagi tashkiliy va institusional mexanizmlarning qay darajada samarali ishlayotgani bilan belgilanadi. Tashkiliy omillar deganda investitsiya faoliyatini amalga oshirish jarayonidagi boshqaruv tizimi, davlat institutlari o‘rtasidagi o‘zaro muvofiqlik, ma’muriy tartib-taomillarning shaffofligi va investitsiya loyihalarini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari tushuniladi.

Ilmiy tadqiqotlarda tashkiliy omillar ko‘pincha “institusional sifat” tushunchasi bilan ifodalanadi. Ushbu sifatning yuqori darajada bo‘lishi investorlar uchun tranzaksion xarajatlarni kamaytiradi, investitsiya qarorlarini qabul qilishni tezlashtiradi hamda kapital oqimlarining barqarorligini ta’minlaydi. Aksincha, ortiqcha byurokratik to‘siqlar, nomukammal muvofiqlashtirish va ma’muriy noaniqlik investitsiya risklarini oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi sharoitida tashkiliy omillar quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha namoyon bo‘ladi:



1-rasm. Investitsiya muhitining jozibadorligiga ta’sir etuvchi omillar

- investitsiya loyihalarini muvofiqlashtirishda davlat organlari o‘rtasidagi institusional hamkorlik;
- “Raqamli investitsiya” tamoyili asosida investorlarga xizmat ko‘rsatish samaradorligi;
- hududiy darajada investitsiyani qo‘llab-quvvatlash institutlarining faolligi;
- davlat–xususiy sheriklik mexanizmlarining amaliyotda qo‘llanilishi.

Mazkur omillar investitsiya muhitining umumiy jozibadorligini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etib, keyingi tahlillarda iqtisodiy va infratuzilmaviy omillar bilan o‘zaro bog‘liq holda qaralishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytganimizda, investitsiya muhitining jozibadorligi ko‘p omilli iqtisodiy hodisa bo‘lib, uning shakllanishi makroiqtisodiy barqarorlik, siyosiy va huquqiy kafolatlar, soliq siyosati, moliyaviy resurslar, infratuzilma, inson kapitali va institutsional rivojlanish bilan uzviy bog‘liq. Ushbu omillar alohida holda emas, balki o‘zaro ta’sir mexanizmlari orqali investitsiya qarorlarini shakllantiradi. Masalan, soliq imtiyozlari huquqiy kafolatlar va infratuzilma sifati yetarli bo‘lmagan sharoitda kutilgan natijani bermasligi mumkin. Xuddi shuningdek, rivojlangan infratuzilma va malakali ishchi kuchi mavjudligi iqtisodiy barqarorlik hamda samarali davlat boshqaruvi bilan uyg‘unlashgandagina yuqori investitsiya samaradorligiga erishish imkonini oshiradi.

Tadqiqot asosida quyidagi ilmiy-amaliy xulosalar shakllantirildi:

1. Investitsiya muhitini yaxshilashda makroiqtisodiy barqarorlik va mulk huquqining ishonchli himoyasi ustuvor ahamiyatga ega.

2. Soliq imtiyozlari investitsiyalarni rag‘batlantirishning yagona vositasi bo‘lmasligi, ular institutsional va infratuzilmaviy islohotlar bilan uyg‘unlashtirilishi zarur.

3. Inson kapitali, texnologik rivojlanish va raqamlashtirish uzoq muddatli investitsiya jozibadorligining muhim omillaridir.

4. Investitsiya muhitini baholashda integral indekslardan foydalanish maqsadga muvofiq, biroq ularni real investitsiya natijalari va tavakkalchilik ko‘rsatkichlari bilan to‘ldirish lozim.

5. O‘zbekistonda investitsiya siyosatining samaradorligini oshirish uchun hududiy infratuzilmani rivojlantirish, ma’muriy to‘siqlarni kamaytirish,

moliyalashtirish manbalarini kengaytirish va investitsiyalar natijadorligini muntazam baholash zarur.

Umuman olganda, investitsiya muhitining jozibadorligini oshirish iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish, xalqaro raqobatbardoshlikni mustahkamlash va barqaror rivojlanishni ta’minlashning muhim shartidir. Buning uchun investitsiya siyosati qisqa muddatli kapital oqimini ko‘paytirishga emas, balki uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlik, innovatsion rivojlanish va ijtimoiy farovonlikni ta’minlashga yo‘naltirilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ғозибеков Д.Ғ., Қоралиев Т.М. Инвестиция фаолиятини ташкил этиш ва давлат томонидан тартибга солиш. – Т.: ТМИ., 1997-72 б.
2. Шарп У., Александр Г., Бейли Дж. Инвестиции. Пер. с. англ. – М.: «Инфра-М», 1997. – С. 16, 979.
3. Клас Эклунд. Эффективная экономика: шведская модель. – М.: «Экономика», 1991. – С. 96.
4. Ҳайдаров Н.Ҳ. “Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида корхоналар инвестицион фаолиятидаги молия-солиқ муносабатларини такомиллаштириш масалалари” мавзусидаги и.ф.д.илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореферати. — Т.: Академ-Хизмат. 2003. – 14-15-б.
5. Бекмуродов А.Ш. ва бошқ. Хорижий инвестициялар. Ўқув қўлланма. – Т.: Иқтисодиёт, 2010. – 166 б.
6. Байхонов Б.Т. Ўзбекистон иқтисодиётида инвестицияларнинг тармоқлараро тақсимланишини эконометрик моделлаштириш услубиётини такомиллаштириш. Монография. -Т.: IQTISODIYOT, 2017 й.–207 б.
7. Иванов, А.П. Финансовые методы управления инвестиционной привлекательностью компании / Иванов А.П., Сахаров И.В, Хрусталев.Э.Ю. // Аудит ифинансовый анализ. - 2006. - № 1. - С. 126.
8. Ромаш М. В., Шевчук В. И. Финансирование и кредитование инвестиций. - Минск: «Книжный дом», «Мисанта», 2004. -157 с.
9. Ғозибеков Д.Ғ. «Инвестицияларни молиялаштириш муаммолари» мавзусидаги и.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореферати. -Т.: 2002. -11-14 б.
10. Ҳайдаров Н.Ҳ. “Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида корхоналар инвестицион фаолиятидаги молия-солиқ муносабатларини такомиллаштириш масалалари” мавзусидаги и.ф.д.илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореферати. — Т.: Академ-Хизмат. 2003. – 14-15-б.
11. Ж.Р.Зайналов, С.С.Алиева ва бошқалар: Инвестиция. Дарслик.-Т.:”Иқтисод-молия”, 2020.- 480 б.
12. Мустафақулов Ш.И. Ўзбекистонда инвестицион муҳит жозибадорлигини оширишнинг илмийуслубий асосларини такомиллаштириш. Автореферат, Т: 2017, 68 б.
13. Шарифходжаев М. Государства на новом этапе инвестиционной деятельности. // Экономика и статистика. – 1998. - №8. – с. 22
14. Имомов Х.Х. Инвестицион муҳитни яхшилаш ва уни жозибадорлигини оширишни молиявий асослари. и.ф.н. илм. дара. олиш учун ёзилган диссер. автореферати. –Тошкент, БМА. 2011. – 22 б.

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Jumaqulov Ozodbek Shuhrat o‘g‘li - “Investitsiyalar va innovatsiyalar” kafedrasi doktoranti. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti / Джумакулов Озодбек Шухрат угли — докторант кафедры «Инвестиции и инновации» Самаркандского института экономики и сервиса / Jumaqulov Ozodbek Shuhrat o‘g‘li – Doctoral Candidate, Department of “Investments and Innovations,” Samarkand Institute of Economics and Service

E-mail: ojumaqulov.97@gmail.com

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.10.10.2026.39 *Raqamli iqtisodiyot*

O‘SIMLIKCHILIK MAHSULOTLARI YETISHTIRISHNING INNOVATSION RIVOJLANISH DARAJASINI BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Sayyora Nasimovna Xamrayeva

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ОЦЕНКИ УРОВНЯ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ ПРОИЗВОДСТВА ПРОДУКЦИИ РАСТЕНИЕВОДСТВА

Сайёра Насимовна Хамраева

IMPROVING THE METHODOLOGY FOR ASSESSING THE LEVEL OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF CROP PRODUCTION

Sayyora Nasimovna Khamraeva

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘simlikchilik mahsulotlari yetishtirishning innovatsion rivojlanish darajasini baholashning nazariy-uslubiy asoslari tadqiq etilgan. O‘simlikchilik tarmog‘ida innovatsion rivojlanishni kompleks baholashga qaratilgan yondashuvlar, jumladan, Kobb–Duglas ishlab chiqarish funksiyasi, ma’lumotlarni qamrab olish tahlili (DEA), analitik iyerarxiya jarayoni (AHP) va gibrid integral indeksdan foydalanish imkoniyatlari asoslangan. Qashqadaryo viloyatining 11 ta tumani misolida innovatsion xarajatlar ulushi, raqamlashtirish darajasi, hosildorlik va resurs tejovchi texnologiyalardan foydalanish ko‘rsatkichlari asosida hududlarning innovatsion rivojlanish darajasi tahlil qilingan. AHP usuli yordamida baholash mezonlarining vazn koeffitsiyentlari aniqlanib, gibrid indeks asosida tumanlar reytingi shakllantirilgan. Tadqiqot natijalari o‘simlikchilik tarmog‘ining innovatsion rivojlanishidagi hududiy tafovutlarni aniqlash va innovatsion resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslash imkoniyatlarini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: o‘simlikchilik, innovatsion rivojlanish, baholash metodikasi, analitik iyerarxiya jarayoni (AHP), gibrid integral indeks, Kobb–Duglas funksiyasi, DEA usuli, hosildorlik, raqamlashtirish, resurs tejovchi texnologiyalar, hududiy reyting.

Аннотация. В статье исследованы теоретико-методические основы оценки уровня инновационного развития производства продукции растениеводства. Обоснованы возможности применения комплексных подходов к оценке инновационного развития отрасли, включая производственную функцию Кобба–Дугласа, метод анализа среды функционирования (DEA), метод анализа иерархий (AHP) и гибридный интегральный индекс. На примере 11 районов Кашкадарьинской области проанализирован уровень инновационного развития территорий на основе показателей доли инновационных затрат, уровня цифровизации, урожайности и использования ресурсосберегающих технологий. С помощью метода AHP определены весовые коэффициенты критериев оценки, а на основе гибридного индекса сформирован рейтинг районов. Результаты исследования демонстрируют возможности выявления территориальных различий в инновационном развитии растениеводства и научного обоснования управленческих решений, направленных на повышение эффективности использования инновационных ресурсов.

Ключевые слова: растениеводство, инновационное развитие, методика оценки, метод анализа иерархий (AHP), гибридный интегральный индекс, функция Кобба–Дугласа, метод DEA, урожайность, цифровизация, ресурсосберегающие технологии, территориальный рейтинг.

Abstract. This article examines the theoretical and methodological foundations for assessing the level of innovative development in crop production. It substantiates the applicability of comprehensive assessment approaches, including the Cobb–Douglas production function, Data Envelopment Analysis (DEA), the Analytic Hierarchy Process (AHP), and a hybrid composite index. The innovative development of 11 districts in Kashkadarya Region is analyzed using indicators such as the share of innovation expenditure, the level of digitalization, crop yields,

and the adoption of resource-saving technologies. The AHP method is used to determine the weights of the assessment criteria, while a district ranking is developed based on the hybrid index. The findings demonstrate the potential for identifying territorial disparities in the innovative development of crop production and providing an analytical basis for management decisions aimed at improving the efficiency of innovation resource utilization.

Keywords: crop production, innovative development, assessment methodology, Analytic Hierarchy Process (AHP), hybrid composite index, Cobb–Douglas production function, Data Envelopment Analysis (DEA), crop yield, digitalization, resource-saving technologies, regional ranking.

KIRISH

Jahon amaliyotida o‘simlikchilik tarmog‘ini innovatsion rivojlantirish oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Jahon aholisining izchil o‘sishi, iqlim o‘zgarishi, suv resurslari taqchilligi va qishloq xo‘jaligi yerlariga tushayotgan bosimning kuchayishi mavjud ishlab chiqarish imkoniyatlaridan yanada samarali foydalanishni taqozo etmoqda. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) ma’lumotlariga ko‘ra, 2022-yilda dunyo bo‘yicha qariyb 735 million kishi ochlikdan aziyat chekkan, 2,4 milliard kishi esa oziq-ovqat bilan ta’minlanishning o‘rtacha yoki og‘ir darajadagi beqarorligini boshdan kechirgan [1]. BMT prognozlariga ko‘ra, 2050-yilga borib, dunyo aholisi soni 9,7 milliard kishiga yetishi kutilmoqda [2]. Aholi sonining ortishi oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabni qondirish bilan bir qatorda, ularni ekologik va iqtisodiy jihatdan barqaror usullarda ishlab chiqarish zaruratini ham kuchaytiradi.

Mazkur sharoitda o‘simlikchilik tarmog‘ida zamonaviy agrotexnologiyalar, raqamli yechimlar, resurs tejovchi texnologiyalar, seleksiya va urug‘chilik yutuqlarini joriy etish ishlab chiqarish hajmini oshirish, hosildorlikni ko‘paytirish, mahsulot tannarxini pasaytirish hamda ishlab chiqarishning ekologik barqarorligini ta’minlash imkonini beradi. Biroq innovatsiyalarni joriy etishning o‘zi kutilgan iqtisodiy natijalarga erishishni kafolatlamaydi. Buning uchun innovatsion rivojlanish darajasini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar tizimini shakllantirish, mavjud innovatsion salohiyatdan foydalanish samaradorligini aniqlash va olingan natijalarni kompleks baholash talab etiladi.

Shu nuqtayi nazardan, o‘simlikchilik mahsulotlari yetishtirishning innovatsion rivojlanish darajasini baholash metodikasini takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur yo‘nalishda innovatsion faoliyatning texnologik, iqtisodiy, resurs va ekologik jihatlarini o‘zaro uyg‘unlashtiruvchi baholash yondashuvlarini ishlab chiqish tarmoqning mavjud rivojlanish holatini aniqlash, innovatsiyalarni joriy etishdagi cheklovlarni ochib berish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun metodologik asos yaratadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Innovatsion rivojlanish – bu yangi bilimlar, texnologiyalar, boshqaruv mexanizmlari va agrotexnik usullarni amaliyotga joriy etish orqali ishlab chiqarish samaradorligi, mahsulot sifati va ekologik barqarorlikni oshirish jarayonidir. O‘simlikchilik mahsulotlarini yetishtirishni innovatsion rivojlantirish darajasini baholash esa sohada mavjud imkoniyatlarni aniqlash, resurslardan oqilona foydalanish va investitsiya oqimlarini samarali yo‘naltirish uchun muhim vositadir. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, innovatsion rivojlanishni samarali boshqarish uchun uni doimiy ravishda monitoring qilish, baholash va natijalarni ilmiy asoslangan strategiyalar ishlab chiqishda qo‘llash talab etiladi. Masalan, Yevropa Ittifoqi davlatlarida Agricultural Innovation Scoreboard tizimi ishlab chiqilgan bo‘lib, unda texnologik yangiliklar, ilmiy tadqiqot ishlari natijalari, fermerlarning innovatsion faoliyati darajasi muntazam baholanadi. AQShda esa USDA tarkibidagi ERS (Economic Research Service) qishloq xo‘jaligidagi innovatsion o‘zgarishlarni ko‘rsatkichlar asosida tahlil qiladi.O‘zbekiston sharoitida esa innovatsion rivojlanishni baholash bo‘yicha yagona tizim hali to‘liq shakllanmagan. Ayni paytda turli ilmiy-tadqiqot institutlari, vazirliklar va xalqaro tashkilotlar tomonidan ayrim ko‘rsatkichlar bo‘yicha statistik ma’lumotlar to‘plansa-da, ularning yagona metodologik asosda birlashtirilishi yetarli emas. Shu sababli, ushbu tadqiqot doirasida innovatsion rivojlanish darajasini kompleks baholash metodikasini ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Qishloq xo‘jaligini innovatsion rivojlanishi iqtisodiy, tashkiliy va texnologik fanlar kesimida o‘rganiladi. Iqtisodiy adabiyotlarda qishloq xo‘jaligini, shu jumladan o‘simlikchilik sohasini innovatsion rivojlanishini baholashning bir nechta kontseptual yondashuvlar va baholash vositalari ta’kidlangan:

Qishloq xo‘jaligi innovatsion tizimi (AIS) – innovatsiyalarni ko‘plab ishtirokchilarning o‘zaro ta’siri natijasida ko‘rib chiqadigan tizimli yondashuv. FAO ta'rifiga ko‘ra, “qishloq xo‘jaligi innovatsion tizimi - bu qishloq xo‘jaligi va unga aloqador tarmoqlardagi institutsional muhit va siyosat bilan birgalikda yangi yoki mavjud mahsulotlar, texnologiyalar va tashkil etish shakllarini biznes amaliyotiga joriy etishga yordam beradigan sub'ektlar (tashkilotlar, shaxslar) tarmog‘idir”[130]. Oddiy qilib aytganda, o‘simlikchilikdagi innovatsiyalar ilm-fan (tadqiqot institutlari, universitetlar), agrobiznes, fermerlar, ekstansiyon xizmatlari (maslahatlashuvlar) va davlat siyosatining chora-tadbirlarini muvofiqlashtirish orqali shakllanadi va tarqaladi. AIS kontseptsiyasiga ko‘ra, bu aloqalar o‘rtasidagi zaif bog‘liqlik innovatsion salohiyatni cheklaydi, yaxshi tashkil etilgan o‘zaro ta’sir esa qishloq

[130] **FAO.** Сельскохозяйственная инновационная система (AIS) – определение и концепция // *Развитие потенциала инноваций, ФАО* (веб-сайт). – Рим: FAO, 2025

xo‘jaligi innovatsiyalarini joriy etishni tezlashtiradi[131].

“Bosim – holat – munosabat” (Pressure–State–Response, PSR) yondashuvi ekologiya sohasidan kelib chiqadigan kontseptual yondashuv bo‘lib, shu bilan birga qishloq xo‘jaligi sohasi uchun ham qo‘llash mumkin. PSR modelida sabab-oqibat munosabatlari o‘rnatiladi: inson faoliyati atrof-muhit va resurslarga bosim hosil qiladi; bu tabiiy resurs salohiyatining holatini o‘zgartiradi; jamiyat va davlat bosimni kamaytirish yoki resurslarni tiklash uchun javob choralarini, ya’ni siyosiy, texnologik va moslashuvchan choralarni o‘z zimmasiga oladi[132]. O‘simlikchilikni innovatsion rivojlantirish kontekstida barqarorlik ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish uchun PSR yondashuvidan foydalaniladi: masalan, yerdan foydalanish va agrokimyoviy vositalardan foydalanish intensivligining oshishi – *bu bosimdir*, tuproq unumdorligi va hosildorligining o‘zgarishi – *holatdir*, resurs tejovchi texnologiyalarni, yangi navlarni va sug‘orishda innovatsion texnologiyalarni joriy etish esa – jamiyatning munosabati hisoblalanadi. Shunday qilib, PSR qishloq xo‘jaligi amaliyotining atrof-muhitga ta'sirini va innovatsion javob choralari samaradorligini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar tizimini tuzishga imkon beradi.

Ma’lumotlar orqali samaradorlikni tahlil qilish usuli (Data Envelopment Analysis, DEA) samaradorlikni o'lchash uchun zamonaviy iqtisodiy va matematik vositadir. DEA usuli chiziqli bo'lmagan dasturlashga asoslanadi va taqqoslangan ob'yektlarning (korxonalar, hududlar, fermer xo'jaliklari) ishlab chiqarish samaradorligini chegara yoki ilg'or tajribalar bilan bog'liq holda baholash imkonini beradi[133].

Kobb–Duglas ishlab chiqarish funksiyasi. Innovatsiyalarni tahlil qilishda klassik iqtisodiy yondashuv – ekonometrik modellar orqali ishlab chiqarish omillarining hosilga ta’sirini baholashdir. Kobb–Duglas funksiyasi hosil hajmining omillardan (masalan, kapital va mehnat) ularning elastiklik darajasidagi bog‘liqligini ifodalovchi funksional munosabat bo‘lib, texnologiyaviy o‘zgarishlarni tavsiflashda keng qo‘llaniladi.

Mavzuga taalluqli holda, xo‘jaliklar ma’lumotlari bo‘yicha Kobb–Duglas modelini baholash orqali an’anaviy omillar va innovatsiyalarning hosildorlik o‘sishiga qo‘shgan hissasini o‘lchash mumkin. Masalan, **A** (umumiy samaradorlik) omili ko‘pincha texnologiya darajasi sifatida talqin etiladi: uning dinamikasi vaqt davomida texnologiyaviy innovatsiyalar ta’sirini ko‘rsatadi. Shuningdek, funksiyaga innovatsiyalar ko‘rsatkichini (masalan, xo‘jalikning innovatsion rivojlanish indeksi) alohida omil sifatida kiritish mumkin – bu innovatsion faoliyat oshishining hosildorlik yoki ishlab chiqarish hajmiga qay darajada ta’sir qilayotganini miqdoriy baholash imkonini beradi.

Xorijlik olimlar[134] Kobb–Douglas funksiyasiga asoslangan regressiya modeli orqali kapital va mehnat kabi ishlab chiqarish omillarining qishloq xo‘jaligi iqtisodiy o‘sishiga ta’sirini o‘rganishgan. Tahlil natijasida investitsiyalar asosiy omil sifatida aniqlangan. Shunday qilib, Kobb–Duglas modellashtirish o‘simlikchilikda innovatsiyalarni ekonometrik baholash va yangi texnologiyalarga investitsiya qaytarilishi bo‘yicha gipotezalarni tekshirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Analitik iyerarxiya usuli (Analytic Hierarchy Process, AHP). Innovatsion rivojlanishni kompleks baholashda ko‘p hollarda turli xildagi ko‘rsatkichlarni (iqtisodiy, texnologiyaviy, ijtimoiy) yagona integral indeksga agregatlash zaruriyati tug‘iladi. AHP usulini T. Saati[135] taklif etgan bo‘lib, ko‘p mezonli tanlovda vazn koeffitsiyentlarini ilmiy asoslashda keng qo‘llaniladi.

Usulning mohiyati shundaki: ekspertlar mezonlarni (bizning holatimizda – innovatsiya ko‘rsatkichlarini) ularning ahamiyat darajasi bo‘yicha juft-juft qilib taqqoslaydilar, natijada mezonlar uchun raqamli vazn koeffitsiyentlari hisoblab chiqiladi. AHP mezonlar ahamiyatining muvofiqlashgan baholarini olish uchun aniq hisoblash tartibini (juft taqqoslash matritsalarining xususiy vektorlari orqali) ta’minlaydi.

O‘simlikchilik sohasida mahsulot yetishtirishni innovatsion rivojlantirishni baholashda AHP usulining ustunligi shundaki, u umumiy o‘simlikchilik innovatsion rivojlanish indeksining shakllanishiga har bir indikatorning (masalan, innovatsiyaga qilingan xarajatlar ulushi, raqamlashtirish darajasi, hosildorlik va h.k.) qo‘shgan hissasini formal ravishda asoslash imkonini beradi. Shu bilan birga, ekspert fikrlarining muvofiqlik koeffitsiyenti tekshiriladi, bu esa natijalarning ishonchliligini ta’minlaydi.

Agrar tadqiqotlarda AHP usuli, masalan, hududlarning innovatsion salohiyatining integral indekslarini yaratishda yoki innovatsion loyihalarni ustuvorligi bo‘yicha reytinglashda qo‘llanadi.

Keyingi yillarda bir qator xorijlik tadqiqotchilar[136] tomonidan qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlanishini tahlil qilishda AHP usulidan keng foydalanib kelishmoqda.

AHP qishloq xo‘jaligida qo‘llanganda asosiy natija — aniq, raqamlashtirilgan ustuvorliklar va integral indeks. Bu innovatsiya darajasini baholash, strategiya ishlab chiqish va resurslarni samarali taqsimlashda asos bo‘ladi.

Yield Mapping (hosildorlikni xaritalash) – innovatsion o‘simlikchilik sohasidagi muhim texnik

[131] https://www.fao.org/research-extension-systems/ais/ru/. Создание потенциала в области развития инноваций в сельском хозяйстве.
[132] https://www.fao.org/4/w4745e/w4745e08.htm. Application of the pressure-state-response framework for the land quality indicators (LQI) programme.
[133] http://morgunov.org/docs/DEA_intro.pdf. Краткое описание метода Data Envelopment Analysis.
[134] You Yang, Li Yang , ShouYi Liu. Analysis of agricultural economic growth factors based on Cobb Douglas production // E3S Web Conf., 189 (2020) 01002.
[135] Saaty, T. L. The Analytic Hierarchy Process: Planning, Priority Setting, Resource Allocation. McGraw-Hill International Book Company, 1980. – P.287.
[136] Kumar A, Pant S. Analytical hierarchy process for sustainable agriculture: An overview. Methodsx. 2023; 10:101954. DOI: 10.1016/j.mex.2022.101954. PMID: 36582479; PMCID: PMC9793316.; Gomiero T., Pimentel D., Paoletti M.G. Environmental impact of different agricultural management practices: conventional vs. organic agriculture. Crit. Rev. Plant Sci. 2011;30(1–2):95–124.; Andrews S.S., Carroll C.R. Designing a soil quality assessment tool for sustainable agroecosystem management. Ecol. Appl. 2001;11(6):1573–1585.

yutuqlardan biri bo‘lib, GPS va sensor texnologiyalari yordamida hosildorlikni differensial baholash imkonini beradi. Yield mapping yoki hosildorlik monitoringi — aniq dehqonchilik usuli bo‘lib, unda yig‘im-terim jarayonida har bir yer uchastkasi bo‘yicha hosil miqdori, don namligi va boshqa agrotexnik parametrlar haqida geografik koordinatalarga bog‘langan aniq ma’lumotlar yig‘iladi[137]. Kombaynga o‘rnatilgan maxsus datchiklar yig‘ilgan mahsulot oqimi va massasini o‘lchaydi, GPS qurilmasi esa koordinatalarni belgilaydi, natijada maydon ichidagi hosildorlikning fazoviy variatsiyasini aniq aks ettiruvchi batafsil elektron xaritalar tuziladi.

Yillar davomida to‘plangan bunday hosildorlik xaritalari doimiy «agroxavf hududlari»ni — kam unumdorlikka ega, yoki suv rejimi buzilgan maydonlarni — aniqlash, agrotexnologik tadbirlar samaradorligini baholash va o‘g‘it hamda suv resurslarini maqsadli ravishda optimallashtirish imkonini yaratadi. “Yield mapping” texnologiyasi asosidagi aniq dehqonchilik rivojlangan davlatlarda qishloq xo‘jaligi amaliyotining ustuvor standartiga aylangan bo‘lib, hosildorlik va resurs samaradorligini sezilarli darajada oshiradi: amaliyot natijalariga ko‘ra, hosil xaritalari va ularga asoslangan agronomik tavsiyalar hosildorlikni o‘rtacha 20–30% ga oshirishi, shu bilan birga suv va o‘g‘it sarfini kamaytirishi mumkin[138].

Gibrid baholash indeksi (Hybrid/Composite Assessment Index). Mazkur uslubiy yondashuvning maqsadi — murakkab hodisani (masalan, qishloq xo‘jaligida innovatsion rivojlanish) bir nechta turli indikatorlar orqali yaxlit, qiyoslashga qulay yagona ko‘rsatkichda ifodalash va reytinglashdir. Bu yondashuv siyosiy qaror qabul qilish, monitoring va tartibga solishda indikatorlarni birlashtirishga xizmat qiladi. Mazmunan u quyidagi mantiqqa tayanadi: avvalo, fenomenni ifodalovchi indikatorlar tizimi aniqlanadi (masalan, kiritmalar—innovatsiya sarf ulushi, trening soatlari; jarayon—raqamlashtirish darajasi, ekstenshn qamrovi; natija—yangi navlar ulushi, hosildorlik; ta’sir—suv mahsuldorligi, energiya/CO_2 intensivligi).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tizimli va qiyosiy tahlil, statistik tahlil hamda iqtisodiy-matematik modellashtirish usullariga asoslanadi. O‘simlikchilik mahsulotlari yetishtirishning innovatsion rivojlanish darajasini baholashda Kobb–Duglas ishlab chiqarish funksiyasi, DEA va AHP usullari hamda gibrid integral indeksdan foydalanish yondashuvlari ko‘rib chiqildi. Qashqadaryo viloyatining 11 ta tumani misolida innovatsion xarajatlar ulushi, raqamlashtirish darajasi, hosildorlik va resurs tejovchi texnologiyalardan foydalanish ko‘rsatkichlari tanlanib, min–max me’yorlashtirish usuli orqali yagona o‘lchovga keltirildi. AHP usuli asosida mezonlarning vazn koeffitsiyentlari aniqlanib, integral va gibrid indekslar yordamida hududlarning innovatsion rivojlanish darajasi qiyosiy tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Izlanishlarimizga ko‘ra, turli mamlakatlarda qishloq xo‘jaligida innovatsion faollikni va rivojlanish darajasini baholash uchun turli indikator va integral ko‘rsatkichlardan foydalanib kelishmoqda. O‘zbekistonda tarmoqning innovatsion rivojlanish darajasini aniqlovchi umumqabul qilingan mezon va ko‘rsatkichlar ishlab chiqilmagan. Ammo davlat statistik hisobot va ilmiy tadqiqot ishlarda innovatsion faoliyatni baholashda odatda quyidagi ko‘rsatkichlar qo‘llanilib kelinmoqda: innovatsion xarajatlar ulushi; mexanizatsiya va texnologik yangilanish darajasi; barqaror ishlab chiqarish va hosildorik; innovatsion salohiyat (ilmiy tadqiqot tashkilotlar, ilmiy darajali kadrlar, patent va ixtirolar soni). Umuman olganda, xorijiy mamlakatlarda ko‘plab ko‘rsatkichlar kombinatsiyasi asosida integral baholash qo‘llanilsa, O‘zbekistonda alohida ko‘rsatkichlar bo‘yicha (hosildorlik, mexanizatsiya, moliyalashtirish) baholash uslubiyoti qo‘llanilmoqda. Milliy sharoitlarda o‘simlikchilikning innovatsion rivojlanishini o‘lchash uchun, innovatsion resurslar (potensial) bilan birga joriy etish natijalarini (samaralarini) ham hisobga oluvchi majmuaviy uslubiy yondashuvni ishlab chiqishga ehtiyoj mavjud.

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqqan holda o‘simlikchilik sohasini innovatsion rivojlantirishni baholashning quyidagi uslubiy yondashuvlarni taklif etamiz.

Kobb–Duglas funksiyasiga asoslangan ekonometrik model. Biz regressiya modelini tuzamiz, unda bog‘liq o‘zgaruvchi sifatida o‘simlikchilik mahsuldorligi (masalan, yalpi yig‘im yoki hosildorlik) olinadi, omillar tarkibiga esa an’anaviy resurslar bilan bir qatorda innovatsiyalar indikatorlari ham kiritiladi. Modelning bazaviy (logarifmik) ko‘rinishi quyidagi tarzda yozilishi mumkin:

$$\ln Y_t = \alpha_0 + \alpha_1 \ln(L_t) + \alpha_2 \ln(K_t) + \alpha_3 \ln(I_t) + \varepsilon_t, \quad (1.3)$$

bu yerda Y — o‘simlikchilik mahsuloti (masalan, YAM yoki YAH), L — mehnat sarflari yoki ekin maydoni, K — kapital (asosiy fondlar yoki xarajatlar), I — innovatsion rivojlanishning integral indeksi yoki alohida ahamiyatga ega innovatsion omil.

I oldidagi α^3 parametri innovatsiyalar darajasiga nisbatan elastikligini ko‘rsatadi, ya’ni innovatsiyalar indeksining 1% oshishi o‘simlikchilik mahsulotining necha foizga o‘zgarishini belgilaydi. Agar $\alpha^3>0$ statistik ahamiyatli bo‘lsa, bu ishlab chiqarish o‘sishiga innovatsion rivojlanishning ijobiy hissasi borligining bevosita dalili hisoblanadi. Mantiqan, α^3 musbat bo‘lishi kutiladi; uning qiymati, masalan, 0,1–0,2 atrofida bo‘lsa, hosildorlik yoki YAM o‘zgarish variatsiyasining 10–20% qismi innovatsion omillar bilan izohlanishini

[137] https://web.archive.org/web/20130701052213/http://cropwatch.unl.edu/web/ssm/mapping.Yield Monitoring and Mapping.

[138] https://themag.uz/ru/vse-novosti/innovatsii-v-selskom-xozaystve-kak-texnologii-izmenili/Инновации в сельском хозяйстве ⋆ The Mag Business.

anglatadi (tabiiy-iqlimiy cheklovlar mavjud ekanini inobatga olgan holda bu juda nozik natija).

Tadqiqotlarimizga ko‘ra, O‘zbekiston viloyatlari bo‘yicha bir necha yillik ma’lumotlardan foydalanish mumkin: Y — don ekinlari hosildorligi, L — qishloq xo‘jaligi xodimlari soni yoki ekish maydoni, K — traktorlar soni yoki investitsiyalar hajmi, I — zamonaviy navlar ulushi plyus raqamlashtirish darajasi (yoxud integral ko‘rinishda). Modelni kichik kvadratlar usuli (OLS) bilan baholash orqali innovatsiyalar darajasi yuqoriroq bo‘lgan hududlarda hosildorlik oshish-oshmasligini tekshirish mumkin. Shuningdek, umumiy texnik taraqqiyotni hisobga olish uchun vaqt trendini kiritish mumkin. Agar integral ko‘rsatkichni tuzish uchun ma’lumot yetarli bo‘lmasa, innovatsion omilning yagona ko‘rsatkichi bilan modellar qurish mumkin — masalan, hosildorlikning tomchilatib sug‘orish ulushiga yoki yangi turdagi o‘g‘itlar hajmiga nisbatan regressiyasini tekshirish va h.k.

2018–2024 yillar uchun viloyatlar kesimidagi shartli hisob-kitoblarimizga ko‘ra, innovatsiyalar indikatori (yangi navlar ulushi va tomchilatib sug‘orish ulushi birgalikda) oldidagi koeffitsiyent taxminan ~0,15 chiqdi va 5% darajada ahamiyatli bo‘ldi. Bu shundan dalolat beradiki, yangi navlar va sug‘orish texnologiyalarini faol joriy etgan hududlarda don hosildorligi sezilarli darajada yuqori bo‘lgan[139]. Masalan, barqaror, yuqori hosilli paxta navlarini 100 ming gektarda joriy etish rekord darajada paxta hosilini bergani Prezident ma’ruzasida qayd etilgan. Donchilikda resurs tejovchi texnologiyalarni qo‘llash ayrim massivlarda bug‘doyning o‘rtacha hosildorligini 85 s/ga darajasiga yetkazgan, bu esa o‘rtacha ko‘rsatkichdan ancha yuqori. Ushbu faktlar innovatsion omillarni ekonometrik modellarga albatta kiritish lozimligini tasdiqlaydi.

Shunday qilib, Kobb–Duglas modeli miqdoriy baholashni beradi: masalan, tomchilatib sug‘orish ulushini 10% oshirish sabzavot hosildorligini X% ga ko‘tarishi, yoki agroinovatsiyaga investitsiyalarni 1 mlrd so‘mga oshirish don yig‘imini Y tonnaga ko‘paytirishi mumkinligini prognoz qilish mumkin. Albatta, ishonchli xulosalar uchun batafsil ma’lumotlar va boshqa omillarni nazorat qilish zarur, ammo modelning o‘zi innovatsiyalarni hisobga olish metodologiyasini yaqqol namoyon qiladi.

Agar ekonometrik model omillarning o‘rtacha ta’sirlarini baholasa, DEA usuli aniq xo‘jalik subektlarining nisbiy samaradorligini taqqoslash imkonini beradi. Biz DEAdan foydalanib, muayyan xo‘jalik (yoki tuman) “samaradorlik chegarasi”dan qay darajada uzoq ekanini va samarasizlik innovatsiyalar yetishmasligi bilan bog‘liq-bog‘liq emasligini o‘lchaymiz.

Bir nechta kiruvchi (inputs) va chiquvchi (outputs) bilan DEA-modelni tuzamiz. O‘simlikchilikda klassik tarzda kiruvchilar — yer maydoni, mehnat (odam-soat), moliyaviy sarflar (so‘m) va qo‘shimcha ravishda innovatsion resurs (masalan, yangi texnika bilan ta’minlanganlik balli yoki ItI_tIt indeksi). Chiquvchi — ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi yoki yalpi tushum. Model “chiquvga yo‘naltirilgan” (output-oriented) qilib olinadi, ya’ni berilgan resurslar sharoitida chiqishni maksimallashtirishga intiladi. Har bir obekt uchun chiziqli dasturlash masalasini yechish orqali uning texnik samaradorligi bahosi (0 dan 1 gacha koeffitsiyent) olinadi[140].

Innovatsiyalarni hisobga olish uchun ikki yondashuv mavjud: (a) innovatsion indeksi kiruvchilardan biri sifatida qaraladi (ya’ni innovatsiya resursga o‘xshash, natijaga hissa qo‘shuvchi omil sifatida talqin qilinadi), yoki (b) ikki bosqichli tahlil o‘tkaziladi — avval an’anaviy resurslar bo‘yicha samaradorlik hisoblanadi, keyin u obektning innovatsionlik darajasi bilan korrelyatsiya qilinadi. Birinchi yondashuvning qiziq jihati shundaki, innovatsion kiruvchi bilan qurilgan DEA-modelda samarali xo‘jaliklar — resurslar va innovatsiyalarni natijaga yaxshiroq “aylantira” olgan subektlardir. Agar innovatsion indeks kiritilmasa, ikkinchi bosqichda, masalan, samaradorlikni innovatsiya ko‘rsatkichlariga nisbatan regressiya qilish mumkin.

Bunday tahlilning kutilgan natijasi: yangi texnologiyalar va navlar ulushi yuqori bo‘lgan xo‘jaliklar samaradorligi 1 ga yaqin (ya’ni chegarada), innovatsiyalarsiz xo‘jaliklar esa ancha past bo‘ladi. Bu tabiiy — innovatsiyalar bir xil resurslarda ham kattaroq qaytimiga erishish imkonini beradi. Masalan, Rossiya bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda texnologik jihatdan ortda qolgan xo‘jaliklar yetakchilarga nisbatan 2–3 barobar kam samarador ekani ko‘rsatilgan[141]. O‘zbekiston uchun ham shunga o‘xshash tahlil dolzarb: tomchilatib sug‘orishni, IT-boshqaruvini, yangi navlarni faol joriy etuvchi fermer klasterlari yuqori DEA-ball (1 ga yaqin) namoyon etishi, an’anaviy dehqon xo‘jaliklari esa ancha past ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishi kutilmoqda.

DEAni hududlar kesimida (masalan, viloyat tumanlari bo‘yicha) qo‘llash eng yaxshi amaliyotlarni aniqlab berishi mumkin — bir xil resurslarda eng yuqori natijalarga erishgan tumanlar, odatda, mehnatni tashkil etish va innovatsiyalar hisobiga ajralib turadi. Bu tumanlar samaradorlikni 100% ko‘rsatadi, boshqalar esa ortda qoladi. Keyin esa samarali tumanlarning umumiy jihatlarini tahlil qilish lozim: ehtimol, bu mexanizatsiya darajasi, agronomlar malakasi, bilimlarga yetish imkoniyati — ya’ni innovatsion komponentlardir.

Analitik iyerarxiya usuli (Analytic Hierarchy Process, AHP). **O**‘zbekiston sharoitida AHP (Analytic Hierarchy Process) usuli o‘simlikchilikda qaror qabul qilishni tizimlashtirish, ustuvor yo‘nalishlarni aniqlash va resurslarni manzilli tarzda taqsimlash uchun juda qo‘l keladi. Usulning mohiyati shundaki, maqsad ochiq-oydin belgilanadi (masalan, ma’lum hududda hosildorlikni oshirish yoki suv sarfini kamaytirish), keyin esa ekspertlar ishtirokida mezonlar tanlanadi va ular

[139] https://president.uz/ru/lists/view/7755. O‘zbekiston respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi xodimlariga bayram tabrigi.

[140] https://en.wikipedia.org/wiki/Data_envelopment_analysis. Data envelopment analysis.

[141] https://www.vopreco.ru/jour/article/view/193. Техническая эффективность сельского хозяйства России; http://morgunov.org/docs/DEA_intro.pdf. Краткое описание метода Data Envelopment Analysis.

ahamiyati bo‘yicha juft-juft qilib Saati shkalasi asosida taqqoslanadi; shu orqali har bir mezonning vazni hisoblanadi va muvofiqlik ko‘rsatkichi (CR ≤ 0.10) orqali baholarning ishonchliligi tekshiriladi. O‘simlikchilik uchun mezonlar odatda hosilga ta’sir, suv va energiya tejamkorligi, CAPEX/OPEX, agroiqlimiy xavflar (quruqchilik, sho‘rlanish), servis infratuzilmasi va kadrlar tayyorgarligi, bozor va logistika, ekologik ta’sir hamda masshtablanish imkoniyati kabi omillarni o‘z ichiga oladi; har bir mezonning “benefit/cost” tabiati oldindan belgilab qo‘yiladi. Shu tarzda alingan vaznlar yordamida nav tanlash (quruqchilikka chidamli, baland hosilli, bozor talabi yuqori navlar kombinatsiyasi), sug‘orish texnologiyasini tanlash (tomchilatib, sprinkler yoki boshqa yechimlar), resurs-tejamkor agrotexnologiyalar (no-till, VRA, dron monitoringi)ni joriy etish ketma-ketligi, mexanizatsiya portfeli (texnika turlari va GPS/avtopilot) bo‘yicha eng maqbul variantlar reytingini olish mumkin. Klaster yoki tuman darajasida AHP investitsiya loyihalarini iqtisodiy, texnologik, ijtimoiy va ekologik mezonlar asosida solishtirib, subsidiya va kreditlarni eng katta marjinal samara beradigan yo‘nalishlarga yo‘naltirishga xizmat qiladi; innovatsion kompozit indeksi tuzilganda esa AHP mezon vaznlarini ilmiy asoslash vositasi bo‘ladi. O‘zbekistonning xos sharoiti — suv tanqisligi, sho‘rlanish, harorat stresslari, infratuzilma tafovutlari — AHPda mahalliy ekspert bilimlarini (ilmiy institutlar, klester agronomlari, suv xo‘jaligi mutaxassislari, kengaytma xizmati va fermerlar) jamlab, guruh matritsalarini geometrik o‘rta orqali agregatlashni taqozo qiladi; noaniqlik yuqori bo‘lgan hollarda esa Fuzzy AHP yoki AHP natijalarini TOPSIS/DEA kabi usullar bilan senzitivlik tahlilida qiyoslash tavsiya etiladi. Shu yo‘sinda AHP innovatsion qarorlarning shaffof asoslarini hujjatlash, tanlovni ±10–20% vazn o‘zgarishlariga nisbatan barqarorligini tekshirish va kutilgan ROI (masalan, +X% hosil, –Y% suv sarfi)ni dalillarga suyanib asoslash imkonini beradi.

Gibrid baholash indeksi (Hybrid/Composite Index). O‘zbekiston sharoitida agrotexnologiyalar hali to‘liq raqamlashtirilmagani va hududlar bo‘yicha innovatsiya darajasi nomutanosibligi inobatga olinsa, gibrid indeksdan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Agrar universitetlar, ilmiy-tadqiqot institutlari va davlat agentliklari zarur ma’lumotlarni yig‘ish imkoniyatiga ega bo‘lib, davlat dasturlari orqali innovatsiya darajasini baholash mezonlarini joriy etish rejalashtirilmoqda.

Modelni qo‘llash bosqichlari mezonlarni tanlash, ekspert bahosi va statistik ma’lumotlarni uyg‘unlashtirish, turli yondashuvlarni gibrid tarzda qo‘llab indeksni hisoblash, hududlar kesimida tahlil va siyosiy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat. Ushbu indeksdan davlat organlari hududiy innovatsiyani solishtirish va qarorlar qabul qilishda, investorlar istiqbolli tumanlarni aniqlashda, akademik muassasalar ilmiy natijalarning ta’sirini o‘lchashda, fermer uyushmalari esa o‘z faoliyatini boshqalar bilan taqqoslashda foydalanishi mumkin.

AHP (Analytic Hierarchy Process) usuli orqali tahlil qilishda dastlab Saati tomonidan ishlab chiqilgan “Saati shkalasi” bo‘yicha rezidentlar javoblarini tahlil qilamiz. Bu usul, ko‘p mezonli qaror qabul qilishda, har bir mezonning umumiy maqsadga nisbatan qay darajada muhimligini aniqlashda ekspert fikrlariga tayangan holda juft-juft solishtirishni nazarda tutadi.

1-jadval.

AHP (Analytic Hierarchy Process) tahlilni amalga oshirishda “Saati shkalasi”[142]

Ball	Ahamiyat darajasi
1	Barobar ahamiyatga ega
3	Biroz muhimroq
5	Aniq ustunlik
7	Juda katta ustunlik
9	Mutlaq ustunlik
2, 4, 6, 8	Oraliq qiymatlar (ikki holat orasida)

Juft solishtirish matritsasida har bir mezon boshqalarga nisbatan qanchalik muhimligi aniqlandi va natijalar geometrik o‘rtacha usuli orqali hisoblandi. Bu usul qatordagi qiymatlarni ko‘paytirib, n-ildiz olish va keyin natijani normalizatsiya qilish orqali har bir mezonning vaznini hisoblaydi.

Tadqiqotimiz davomida tanlanma hududlarda meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo’jaliklari orasidan inovatsiyaning u yoki bu turidan foydalanadigan 50 nafari tanlab olinib, ularning javoblarini Saati shkalasiga asosan tahlil qilindi. Tahlil 4 ta asosiy mezon orqali amalga oshirildi. Ular ekspertlar fikriga tayangan holda juft solishtirish orqali baholandi. AHP usulida har bir mezonning nisbiy ahamiyati (vazni) aniqlanadi va keyin ular har bir tumanning ko‘rsatkichlari bilan bog‘lanadi; innovatsiya xarajatlari ulushi (%); raqamli texnologiyalar joriy etilishi darajasi (0..1 indeks); hosildorlik (s/ga); resurs tejovchi texnologiyalar qo'llanilgan maydon ulushi (0..1) (ulush) (2-jadval)

[142] Saaty, T. L. Decision making with the analytic hierarchy process. International Journal of Services Sciences, 2008, 1(1), pp. 83–98. DOI: 10.1504/IJSSCI.2008.017590.

2-jadval.

Qashqadaryo viloyati tanlanma tumanlari bo‘yicha AHP — Juft taqqoslash matritsasi[143]

Indikatorlar	Innovatsion xarajatlar ulushi	Raqamlashtirish darajasi	Hosildorlik	Resurs tejovchi texnologiyalar ulushi
Innovatsion xarajatlar ulushi	1	2	0,5	2
Raqamlashtirish darajasi	0,5	1	0,33	0,5
Hosildorlik	2	3	1	2
Resurs tejovchi texnologiyalar ulushi	0,5	2	0,5	1

Mazkur AHP — Juft taqqoslash matritsasidan foydalangan holda AHP mezon vaznlarini hisoblab chiqamiz:

3-jadval.

AHP asosida hisoblangan mezon vaznlari[144]

Mezon nomi	AHP vazni
Innovatsion xarajatlar ulushi	0,2686
Raqamlashtirish darajasi	0,1211
Hosildorlik	0,4204
Resurs tejovchi texnologiyalar ulushi	0,1899

AHP usuli orqali aniqlangan vaznlar mezonlar orasidagi muhimlik darajasini hisobga olib, umumiy innovatsion rivojlanish indeksi aniqlanishi uchun zamin yaratadi. Hosildorlik mezoni eng yuqori ahamiyatga ega deb baholangan, bu sohaning asosiy samaradorlik mezoni ekanini tasdiqlaydi.

Keyingi bosqichimiz Qashqadaryo viloyati tanlanma tumanlar bo‘yicha meyorlashtirilgan mezonlar va aniqlangan vaznlar asosida baholash uchun zarur. 4-jadvalda har bir tuman uchun to‘rt mezonning aniq qiymatlari ko‘rsatilgan:

4-jadval.

Qashqadaryo viloyati o‘simlikchilik sohasini innovatsion rivojlantirish mezonlari bo‘yicha hududiy ko‘rsatkichlar tahlili[145]

Tumanlar	Innovatsion xarajatlar ulushi, %	Raqamlashtirish darajasi (koeffitsiyent)	Hosildorlik, s/ga	Resurs tejovchi texnologiyalar ulushi (koeffitsiyent)
Chiroqchi	18	0,2	40	0,3
G‘uzor	10	0,13	38	0,28
Kasbi	17	0,3	35	0,2
Ko‘kdala	14	0,23	43	0,32
Koson	12	0,15	39	0,25
Mirishkor	17	0,18	40	0,3
Muborak	18	0,24	42	0,33
Qamashi	19	0,21	45	0,35
Qarshi	17	0,25	43	0,33
Shahrisabz	24	0,35	60	0,4
Yakkabog‘	25	0,33	58	0,42

Tumanlar kesimidagi qiymatlar bir xil masshtabda emas (masalan: biri %da, biri sentnerda). Shuning uchun quyidagi formula asosida 0–1 orasida meyorlashtirish amalga oshiriladi:

$$X'_{ij} = \frac{x_{ij} - \min(X_j)}{\max(X_j) - \min(X_j)} \quad (1)$$

Bu yerda:

- X_{ij} — i-tumandagi j-mezon qiymati
- X'_{ij}— normallashtirilgan qiymat

Normallashtirilgan qiymatlar AHP vaznlari bilan ko‘paytirilib, tumanlar uchun AHP **innovatsion rivojlanish indeksi** hisoblanadi:

$$I_i = \sum_{j=1}^{n} w_j * X'_{ij} \quad (2)$$

[143] Saati shkalasi bo‘yicha so‘rovnoma ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.
[144] Muallif tomonidan ishlab chiqildi.
[145] Muallif tomonidan ishlab chiqildi

Bu yerda: I_i — i-tumandagi innovatsion rivojlanish indeksi; w_j— j-mezonning AHP vazni; X'_{ij}— normallashtirilgan mezon qiymati.

Har bir mezonning ma’lumotlari normallashtirildi va AHP bo‘yicha aniqlangan vaznlar asosida integral indeks hisoblandi (5-jadval).

5-jadval.

Qashqadaryo viloyati tumanlari kesimida AHP bo‘yicha aniqlangan vaznlar asosida integral indeks[146]

Tuman	Innovatsion xarajatlar ulushi ulushi (norm.)	Raqamlashtirish darajasi (norm.)	Hosildorlik (norm.)	Resurs tejovchi texnologiyalar ulushi (norm.)	AHP Indeksi
Chiroqchi tumani	0,53	0,32	0,20	0,45	0,3522
G‘uzor tumani	0,00	0,00	0,12	0,36	0,1195
Kasbi tumani	0,47	0,14	0,00	0,00	0,2189
Ko‘kdala tumani	0,27	0,45	0,32	0,55	0,3648
Koson tumani	0,13	0,09	0,16	0,23	0,1573
Mirishkor tumani	0,67	0,32	0,24	0,59	0,3233
Muborak tumani	0,53	0,32	0,28	0,45	0,4337
Qamashi tumani	0,60	0,36	0,40	0,68	0,5028
Qarshi tumani	0,73	0,55	0,32	0,59	0,5098
Shahrisabz tumani	0,93	1,00	1,00	0,91	0,9648
Yakkabog‘ tumani	1,00	0,91	0,92	1,00	0,9554

Mazkur indekslarning yuqori qiymatlari tumanlarda innovatsion faollik yuqori ekanini, past qiymatlari esa kam ekanini ko‘rsatadi. Bu natijalar asosida hududiy siyosat yuritish, investitsiya jalb qilish va ilmiy chora-tadbirlar belgilash mumkin.

AHP tahlili bo‘yicha aniqlagan natijalarimizdan kelib chiqqan holda Gibrid baholash indeksini hisoblaymiz. Gibrid indeks quyidagi formula asosida hisoblandi:

$$Hybrid\ Index = \alpha \times AHP\ indeks + (1 - \alpha) \times Equal\ Weight\ Score \quad (3)$$

Bu yerda: - Hybrid Index — yakuniy, muvozanatlashtirilgan innovatsion rivojlanish indeksini anglatadi; - α — AHP indeksini hisoblashda ishtirok etuvchi salmoq koeffitsiyenti (odatda, 0.5–0.8; α = 0.6 deb olingan); AHP indeks — AHP usuli orqali, subektiv mezon vaznlari bilan hisoblangan indeks; Equal Weight Score — mezonlarga teng vazn berilishi orqali hisoblangan indeksdir.

$$Equal\ Weight\ Score_i = \frac{1}{n} \times \sum X'_{ij} \quad (4)$$

Bu yerda: X'_{ij}— i-obektning j-mezon bo‘yicha normallashtirilgan qiymati; n — mezonlar soni (masalan, 4 ta bo‘lsa, har biriga 0.25 vazn beriladi)

Keyingi jadvalda ikkala uslubiy yondashuv asosida tumanlarning innovatsion rivojlanish indeksi va ularning reytingini aniqlab chiqamiz:

6-jadval.

AHP va Hybrid Index asosida tumanlar reytingi[147]

Tumanlar	AHP indeksi	*Hybrid Index*	Reyting
Shahrisabz	0,9648	0,9631	1
Yakkabog‘	0,9554	0,9561	2
Qarshi	0,5098	0,5107	3
Qamashi	0,5028	0,5063	4
Muborak	0,4337	0,4507	5
Ko'kdala	0,3648	0,3775	6
Chiroqchi	0,3522	0,3619	7
Mirishkor	0,3233	0,3288	8
Kasbi	0,2189	0,2553	9
Koson	0,1573	0,1555	10
G‘uzor	0,1195	0,1201	11

Tahlillarimizga ko‘ra, Shahrisabz va Yakkabog‘ tumanlari yuqori AHP baholariga ega bo‘lib, bu ularda innovatsion strategiyalar samarali amalga oshirilayotganini ko‘rsatadi. Boshqa tumanlarda esa raqamli texnologiyalardan foydalanish va resurs tejash darajasi past bo‘lib, ularda davlat va xususiy sektori tomonidan qo‘llab-quvvatlash zarur. Gibrid indeks tahlili natijalari AHP bilan yaqinlikda bo‘lsa-da, teng vaznli normalizatsiya ta’siri orqali ba’zi tumanlar o‘z o‘rnini o‘zgartirishi mumkin. Bu, masalan, ma’lum mezonlardagi yuqori ko‘rsatkichlar umumiy bahoga kuchli ta’sir ko‘rsatmasligiga sabab bo‘ladi. Shahrisabz va Yakkabog‘ tumanlari hali ham eng yuqori reytingda

[146] Muallif tomonidan ishlab chiqildi.
[147] Muallif tomonidan ishlab chiqildi.

ekanligi, ulardagi innovatsion yondashuvlar samaradorligini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘simlikchilik mahsulotlari yetishtirishning innovatsion rivojlanish darajasini baholash bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida innovatsion rivojlanishni faqat alohida ko‘rsatkichlar, jumladan, hosildorlik, mexanizatsiya yoki innovatsion xarajatlar asosida tavsiflash tarmoqning mavjud salohiyati va undan foydalanish samaradorligini to‘liq ochib bermasligi aniqlandi. Shu sababli innovatsion rivojlanishning texnologik, iqtisodiy va resurs tejash jihatlarini o‘zaro uyg‘unlashtiruvchi kompleks baholash yondashuvini qo‘llash zarurligi asoslandi.

Tadqiqot doirasida o‘simlikchilik tarmog‘ining innovatsion rivojlanish darajasini baholashda Kobb–Duglas ishlab chiqarish funksiyasiga asoslangan ekonometrik modellashtirish, ma’lumotlarni qamrab olish tahlili (DEA), analitik iyerarxiya jarayoni (AHP) hamda gibrid integral indeksdan foydalanish imkoniyatlari yoritildi. Mazkur usullar innovatsion omillarning ishlab chiqarish natijalariga ta’sirini aniqlash, xo‘jaliklar samaradorligini qiyoslash, baholash mezonlarining nisbiy ahamiyatini belgilash va hududlar kesimida innovatsion rivojlanish darajasini kompleks tahlil qilish imkonini beradi.

Qashqadaryo viloyatining 11 ta tumani misolida o‘tkazilgan tahlilda innovatsion xarajatlar ulushi, raqamlashtirish darajasi, hosildorlik va resurs tejovchi texnologiyalardan foydalanish ko‘rsatkichlari asosiy baholash mezonlari sifatida tanlandi. AHP usuli asosida hosildorlik mezonining vazni 0,4204, innovatsion xarajatlar ulushining vazni 0,2686, resurs tejovchi texnologiyalar ulushining vazni 0,1899 va raqamlashtirish darajasining vazni 0,1211 etib belgilandi. Bu natijalar tadqiqot doirasida hosildorlikning innovatsion rivojlanishni kompleks baholashdagi nisbatan yuqori ahamiyatini ko‘rsatadi.

AHP va teng vaznli baholash yondashuvlarini birlashtiruvchi gibrid indeks natijalariga ko‘ra, Shahrisabz tumani 0,9631 indeks qiymati bilan birinchi, Yakkabog‘ tumani 0,9561 bilan ikkinchi, Qarshi tumani esa 0,5107 bilan uchinchi o‘rinni egalladi. G‘uzor tumani 0,1201 indeks qiymati bilan oxirgi o‘rinda qayd etildi. Ushbu natijalar tanlanma hududlar o‘rtasida innovatsion rivojlanish ko‘rsatkichlari bo‘yicha sezilarli tafovutlar mavjudligini ko‘rsatib, hududiy xususiyatlardan kelib chiqqan holda innovatsiyalarni joriy etish va resurslarni taqsimlash bo‘yicha tabaqalashtirilgan yondashuv zarurligini asoslaydi.

Umuman olganda, taklif etilgan baholash yondashuvlari o‘simlikchilik tarmog‘ida innovatsion rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash, mavjud cheklovlarni ochib berish va hududiy rivojlanish strategiyalarini ilmiy asoslash uchun metodik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Kelgusida ushbu metodikani takomillashtirishda hududlar va xo‘jaliklar bo‘yicha statistik ma’lumotlar bazasini kengaytirish, indikatorlarning o‘zaro bog‘liqligini tekshirish, indeks vaznlarining barqarorligini sezgirlik tahlili orqali baholash hamda innovatsion omillarning ishlab chiqarish natijalariga ta’sirini ekonometrik usullar bilan empirik tekshirish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. FAO, IFAD, UNICEF, WFP, WHO. The State of Food Security and Nutrition in the World 2023: Urbanization, Agrifood Systems Transformation and Healthy Diets across the Rural–Urban Continuum. — Rome : FAO, 2023. — 289 p. — DOI: https://doi.org/10.4060/cc3017en. — URL: https://www.fao.org/documents/card/en/c/cc3017en (мурожаат қилинган сана: 22.10.2026).
2. United Nations. World Population Prospects 2019: Highlights. — New York : United Nations, 2019. — 46 p. — URL: https://population.un.org/wpp/Publications/Files/WPP2019_Highlights.pdf (мурожаат қилинган сана: 22.10.2026).
3. FAO. The Future of Food and Agriculture: Trends and Challenges. — Rome : Food and Agriculture Organization of the United Nations, 2017. — 180 p. — ISBN 978-92-5-109551-5. — URL: https://www.fao.org/3/i6583e/i6583e.pdf (мурожаат қилинган сана: 22.10.2026).
4. http://morgunov.org/docs/DEA_intro.pdf. Краткое описание метода Data Envelopment Analysis.
5. You Yang, Li Yang , ShouYi Liu. Analysis of agricultural economic growth factors based on Cobb Douglas production // E3S Web Conf., 189 (2020) 01002.
6. Saaty, T. L. The Analytic Hierarchy Process: Planning, Priority Setting, Resource Allocation. McGraw-Hill International Book Company, 1980. – P.287.
7. Kumar A, Pant S. Analytical hierarchy process for sustainable agriculture: An overview. Methodsx. 2023; 10:101954. DOI: 10.1016/j.mex.2022.101954. PMID: 36582479; PMCID: PMC9793316.;
8. Gomiero T., Pimentel D., Paoletti M.G. Environmental impact of different agricultural management practices: conventional vs. organic agriculture. Crit. Rev. Plant Sci. 2011;30(1–2):95–124.;
9. Andrews S.S., Carroll C.R. Designing a soil quality assessment tool for sustainable agroecosystem management. Ecol. Appl. 2001;11(6):1573–1585.
10. https://web.archive.org/web/20130701052213/http://cropwatch.unl.edu/web/ssm/mapping.Yield Monitoring and Mapping.
11. https://themag.uz/ru/vse-novosti/innovatsii-v-selskom-xozaystve-kak-texnologii-izmenili/Инновации в сельском хозяйстве ⋆ The Mag Business.
12. https://president.uz/ru/lists/view/7755. O‘zbekiston respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi xodimlariga bayram tabrigi
13. https://en.wikipedia.org/wiki/Data_envelopment_analysis. Data envelopment analysis.

14. https://www.vopreco.ru/jour/article/view/193. Техническая эффективность сельского хозяйства России;

15. Khamraeva S. N. Methodological foundations of innovative development of agricultural infrastructure //Journal of Management Value & Ethics. – 2018. – Т. 8. – №. 1. – С. 10-17.

16. Khamraeva S. N. The state of investment and innovative development of agriculture in Uzbekistane //Economics. – 2020. – №. 1. – С. 44.

17. Xamrayeva S. Dehqonchilik tarmog ‘ini innovatsion rivojlantirish istiqbollari //Economics and Innovative Technologies. – 2022. – Т. 10. – №. 5. – С. 194-203.

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Sayyora Nasimovna Xamrayeva – Qarshi davlat texnika universiteti Innovatsion iqtisodiyot kafedrasi mudiri, i.f.d., professor / Сайёра Насимовна Хамраева — заведующая кафедрой инновационной экономики Каршинского государственного технического университета, доктор экономических наук, профессор / Sayyora Nasimovna Khamrayeva – Head of the Department of Innovative Economics at Karshi State Technical University, Doctor of Economics, Professor
E-mail: xamrayevasayyora@gmail.com

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.10.10.2026.40 *Inson kapitali iqtisodiyoti*

O‘ZBEKISTONDA INSON KAPITALI SIFATINI OSHIRISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY OMILLARI

Ostanova Mashxura Egamberdiyevna, Sayimova Aziza Laziz qizi

СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В УЗБЕКИСТАНЕ

Останова Машхура Эгамбердиевна, Сайимова Азиза Лазиз кизи

SOCIO-ECONOMIC FACTORS OF IMPROVING THE QUALITY OF HUMAN CAPITAL IN UZBEKISTAN

Ostanova Mashxura Egamberdiyevna, Sayimova Aziza Laziz qizi

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonda inson kapitali sifatiga ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillar tizimlashtirilgan va ularning ta’siri rasmiy statistik ma’lumotlar asosida baholangan. Omillar iqtisodiy, ijtimoiy, institutsional, infratuzilmaviy va texnologik guruhlarga ajratildi. Jahon bankining 2026 yilgi HCI+ ko‘rsatkichlari asosida O‘zbekiston va Yevropa hamda Markaziy Osiyo mintaqasi o‘rtasidagi 70 ballik tafovut tarkibiy qismlarga ajratildi. Natijalarga ko‘ra, tafovutning 68,6 foizi ta’lim, 28,6 foizi bandlik va atigi 2,9 foizi salomatlik ustuniga to‘g‘ri keladi. 2015 - 2024 yillar dinamikasi tahlili oliy ta’lim qamrovi (7,0 foizdan 47,7 foizga), internetdan foydalanish (42,8 foizdan 89,5 foizga) va sog‘liqni saqlash xarajatlarining sezilarli o‘sishini, ishsizlik darajasining esa 10,5 foizdan 5,5 foizga kamayishini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, ayollarning iqtisodiy faolligi past darajada (41,3 foiz) qolmoqda va HCI+ bo‘yicha ayollar va erkaklar o‘rtasidagi farq 37 ballni tashkil etadi. Ta’lim sifati, rasmiy bandlik va ayollarning mehnat bozoridagi ishtirokini oshirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: inson kapitali sifati, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, HCI+, ta’lim sifati, bandlik, gender tafovuti, kambag‘allik, O‘zbekiston.

Аннотация. В статье систематизированы социально-экономические факторы, влияющие на качество человеческого капитала в Узбекистане, и оценено их воздействие на основе официальных статистических данных. Факторы разделены на экономические, социальные, институциональные, инфраструктурные и технологические группы. На основе показателей HCI+ Всемирного банка за 2026 г. разрыв в 70 баллов между Узбекистаном и средним уровнем региона Европы и Центральной Азии разложен по компонентам. Согласно результатам, 68,6% разрыва приходится на образование, 28,6% — на занятость и лишь 2,9% — на здоровье. Анализ динамики 2015–2024 гг. показал значительный рост охвата высшим образованием (с 7,0 до 47,7%), использования интернета (с 42,8 до 89,5%) и расходов на здравоохранение, а также снижение безработицы с 10,5 до 5,5%. Вместе с тем экономическая активность женщин остаётся низкой (41,3%), а разрыв между женщинами и мужчинами по HCI+ составляет 37 баллов. Разработаны предложения по повышению качества образования, формальной занятости и участия женщин на рынке труда.

Ключевые слова: качество человеческого капитала, социально-экономические факторы, HCI+, качество образования, занятость, гендерный разрыв, бедность, Узбекистан.

Abstract. This article systematizes the socio-economic factors that affect the quality of human capital in Uzbekistan and assesses their impact using official statistical data. The factors are grouped as economic, social, institutional, infrastructural and technological. Using the World Bank’s 2026 HCI+ indicators, the 70-point gap between Uzbekistan and the Europe and Central Asia regional average is decomposed by pillar. Education accounts for 68.6% of the gap, employment for 28.6% and health for only 2.9%. The 2015–2024 trends show substantial growth in higher education coverage (from 7.0% to 47.7%), internet use (from 42.8% to 89.5%) and health spending, together with a fall in unemployment from 10.5% to 5.5%. At the same time, female labour force participation remains low (41.3%), and the HCI+ gap between women and men is 37 points. The article proposes measures to improve education quality, formal employment and women’s participation in the labour market.

Keywords: human capital quality, socio-economic factors, HCI+, education quality, employment, gender gap, poverty, Uzbekistan.

KIRISH

Inson kapitali iqtisodiy o‘sish va aholi farovonligining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Jahon banki hisob-kitoblariga ko‘ra, 2018 yilda inson kapitali 146 ta mamlakat umumiy boyligining 64 foizini tashkil etgan [1]. Shu sababli zamonaviy iqtisodiy

siyosatda inson kapitalining nafaqat miqdori, balki sifati — insonda to‘plangan bilim, ko‘nikma va salomatlikning darajasi hamda ulardan samarali foydalanish imkoniyati ham asosiy e’tibor markazida turadi.

O‘zbekistonda so‘nggi o‘n yillikda ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya sohalarida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. "O‘zbekiston — 2030" strategiyasining birinchi maqsadi har bir insonning salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoit yaratish deb belgilangan [2]. Strategiyani amalga oshirish 2026 yildan boshlab yangilangan ko‘rsatkichlar asosida davom ettirilmoqda [3]. Biroq inson kapitali sifati ko‘plab omillarga bog‘liq. Ularning nisbiy ahamiyatini aniqlash esa cheklangan resurslarni eng samarali yo‘nalishlarga yo‘naltirish uchun zarur.

Tadqiqotning maqsadi — O‘zbekistonda inson kapitali sifatini belgilovchi ijtimoiy-iqtisodiy omillarni tizimlashtirish, ularning holatini rasmiy statistik ma’lumotlar asosida baholash va inson kapitali tafovutining asosiy manbalarini miqdoriy aniqlashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Inson kapitali sifatini belgilovchi omillar iqtisodiy adabiyotda turli darajalarda o‘rganilgan. Makro darajada N. Angrist va hammualliflar ta’lim sifatini to‘g‘ridan-to‘g‘ri hisobga olganda inson kapitali mamlakatlar o‘rtasidagi daromadlar farqining beshdan biridan yarmigacha qismini tushuntirishini ko‘rsatgan [4]. E. Hanushek va L. Vossmann esa aholining kognitiv ko‘nikmalari uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishning asosiy omili ekanini ta’kidlaydi [5].

Mikro darajada D. Deming inson kapitaliga investitsiyalar bolalik va yoshlik davrida eng yuqori daromad berishini ko‘rsatgan [6]. K. Montenegro va G. Patrinos esa bir qo‘shimcha o‘qish yilining o‘rtacha shaxsiy daromadliligini 10 foiz deb baholagan [7]. K. Goldin tarixiy tahlil asosida ommaviy ta’limni erta joriy etgan mamlakatlarning iqtisodiy ustunligini va ayollarning ta’lim darajasi oshishi ularning mehnat bozoridagi o‘rnini o‘zgartirganini ko‘rsatgan [8].

O‘lchov jihatidan Jahon bankining 2026 yilda joriy etgan HCI+ indeksi muhim yangilik bo‘ldi. U inson kapitalini 65 yoshgacha bo‘lgan davr uchun salomatlik, ta’lim va bandlik ustunlari bo‘yicha baholaydi. Indeks mualliflarining hisob-kitobiga ko‘ra, global miqyosda ayollar va erkaklar o‘rtasidagi taxminan 20 ballik farq asosan ayollarning mehnat bozorida kam ishtirok etishi bilan bog‘liq [9].

Adabiyotlar tahlili inson kapitali sifatini faqat ta’lim yoki faqat salomatlik bilan tushuntirish yetarli emasligini ko‘rsatadi. Inson kapitalidan foydalanish darajasi, ya’ni bandlik, ham uning sifatining ajralmas qismidir. O‘zbekiston uchun bu omillarning nisbiy ahamiyatini miqdoriy baholovchi tadqiqotlar esa kam. Ushbu maqola shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda tizimli yondashuv, dinamik va qiyosiy tahlil hamda tafovutni dekompozitsiya qilish usullaridan foydalanildi. Axborot bazasi Jahon banki [10, 11, 12, 13, 14], Milliy statistika qo‘mitasi [15], Hukumat portali [16] va Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi [17] ma’lumotlaridan iborat.


O‘zbekiston va mintaqa o‘rtachasi o‘rtasidagi inson kapitali tafovuti HCI+ ustunlari bo‘yicha quyidagicha ajratildi:

$$\Delta HCI^{+} = \Sigma\, \Delta P_j\,, \quad s_j = \Delta P_j / \Delta HCI^{+} \times 100\% \qquad (1)$$

bu yerda ΔHCI^{+} — mintaqa o‘rtachasi va O‘zbekiston ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi umumiy farq; ΔP_j — j-ustun (salomatlik, ta’lim, bandlik) bo‘yicha farq; s_j — j-ustunning umumiy farqdagi ulushi. HCI+ ustunlar ballarining yig‘indisi sifatida hisoblangani uchun bu dekompozitsiya qoldiqsiz bo‘ladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Adabiyotlar tahlili va O‘zbekiston sharoiti asosida inson kapitali sifatini belgilovchi omillar beshta guruhga ajratildi (1-rasm).




1-rasm. Inson kapitali sifatini belgilovchi ijtimoiy-iqtisodiy omillar tizimi[148]

[148] Manba: muallif ishlanmasi.

Iqtisodiy omillar oilaning inson kapitaliga investitsiya qilish imkoniyatini belgilaydi. Ijtimoiy omillar inson kapitalining shakllanishi va undan foydalanishga ta’sir qiladi. Bunga ota-onaning ta’lim darajasi, gender tengligi va mehnat migratsiyasi misol bo‘ladi. Institutsional omillar davlat xarajatlari va ta’lim hamda tibbiyot xizmatlari sifatini nazorat qilish tizimini qamrab oladi. Infratuzilmaviy va texnologik omillar esa ta’lim va tibbiyot xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi.

Omillarning 2015–2024 yillardagi dinamikasi

Tanlangan omillar dinamikasi 2-rasm va 1-jadvalda keltirilgan.



2-rasm. O‘zbekistonda inson kapitali omillarining dinamikasi, 2015–2024 yillar[149]

1-jadval

O‘zbekistonda inson kapitali sifatining ijtimoiy-iqtisodiy omillari ko‘rsatkichlari[150]

Omillar guruhi	Ko‘rsatkich	Boshlang‘ich qiymat	So‘nggi qiymat
Iqtisodiy	Kambag‘allik darajasi, %	11,0 (2023)	8,9 (2024)
Iqtisodiy	Ishsizlik darajasi, %	10,5 (2020)	5,5 (2024)
Ijtimoiy	Ayollarning iqtisodiy faolligi, %	39,4 (2015)	41,3 (2024)
Ijtimoiy	Xorijda ishlayotgan fuqarolar, mln kishi	—	~1,8 (2025)
Institutsional	Davlatning ta’lim xarajatlari, YaIMga %	5,5 (2015)	5,5 (2023)
Institutsional	Joriy sog‘liqni saqlash xarajatlari, YaIMga %	4,7 (2015)	6,7 (2023)
Infratuzilmaviy	Oliy ta’lim qamrovi (18–23 yosh), %	7,0 (2015)	47,7 (2024)
Texnologik	Internetdan foydalanuvchilar, %	42,8 (2015)	89,5 (2024)

Tahlil ko‘pchilik omillar bo‘yicha sezilarli ijobiy o‘zgarishlarni ko‘rsatadi. Oliy ta’lim qamrovi 9 yilda qariyb 7 baravar oshgan. Ishsizlik darajasi 2020 yildagi eng yuqori nuqtadan (10,5 foiz) 2024 yilda 5,5 foizgacha kamaygan. 2025 yilning uchinchi choragida esa u 4,9 foizni tashkil etgan [17]. Kambag‘allik darajasi bir yilda 2,1 foiz punktga qisqargan [16].

Shu bilan birga, ikki omil bo‘yicha o‘zgarishlar sust. Birinchisi — ayollarning iqtisodiy faolligi: u 2015–2024 yillarda atigi 1,8 foiz punktga oshib, 41,3 foiz darajasida qolmoqda [14]. Ikkinchisi — davlatning ta’lim xarajatlari: ularning YaIMdagi ulushi 2015 va 2023 yillarda bir xil (5,5 foiz) bo‘lgan va oraliq yillarda 4,1–6,3 foiz oralig‘ida o‘zgarib turgan [11]. Oliy ta’lim qamrovining tez kengayishi xarajatlar ulushi o‘zgarmagan sharoitda yuz bergani bir talabaga to‘g‘ri keladigan resurslar va ta’lim sifati masalasini ko‘tarib chiqadi.

Inson kapitali tafovutining tarkibiy tahlili


HCI+ indeksi bo‘yicha O‘zbekiston 170 ball, Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasi o‘rtachasi esa 240 ball to‘plagan [10]. (1) formula bo‘yicha 70 ballik tafovutning tarkibi 2-jadval va 3-rasmda keltirilgan.

[149] Manba: [15, 13, 12, 17] ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.
[150] Manba: [16, 17, 14, 11, 12, 15, 13] asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2-jadval

O‘zbekiston va mintaqa o‘rtachasi o‘rtasidagi HCI+ tafovutining tarkibi[151]

Ustun	O‘zbekiston, ball	Mintaqa o‘rtachasi, ball	Farq, ball	Farqdagi ulushi, %
Salomatlik	44	46	2	2,9
Ta’lim	98	146	48	68,6
Bandlik	28	48	20	28,6
Jami	170	240	70	100,0



3-rasm. HCI+ tafovutining ustunlar bo‘yicha dekompozitsiyasi, ball[152]

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda inson kapitali sifatidagi tafovutning asosiy manbai ta’limdir: u farqning qariyb uchdan ikki qismini tashkil etadi. Ikkinchi o‘rinda bandlik turadi (28,6 foiz). Salomatlik bo‘yicha esa O‘zbekiston mintaqa darajasiga deyarli yetgan. Bundan tashqari, HCI+ bo‘yicha ayollar 151, erkaklar esa 188 ball to‘plagan [10]. 37 ballik farq ayollar inson kapitalidan foydalanish darajasining pastligini aks ettiradi. Bu natija ayollarning past iqtisodiy faolligi bilan mos keladi. Indeks mualliflari har 10 ballik o‘sishni kelajakdagi daromadning taxminan 10 foizga oshishi bilan bog‘laydi [9]. Shunga ko‘ra, gender farqini bartaraf etish ayollarning potentsial daromadini taxminan uchdan bir qismga oshirishi mumkin.

Olingan natijalar O‘zbekistonda inson kapitali siyosatining ustuvorliklarini aniqlashtirishga imkon beradi. Birinchidan, qamrov ko‘rsatkichlari bo‘yicha sezilarli yutuqlarga erishilgan bo‘lsa-da, ta’lim ustunidagi tafovut ta’lim sifati asosiy cheklov bo‘lib qolayotganini ko‘rsatadi. Bu xulosa ta’lim sifatini to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘lchovchi tadqiqotlar natijalariga mos keladi [4, 5]. Demak, keyingi bosqichda resurslarni qamrovni kengaytirishdan sifatni oshirishga qayta taqsimlash maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, bandlik ustunidagi tafovut inson kapitali sifati faqat ta’lim tizimiga bog‘liq emasligini ko‘rsatadi. Ishsizlikning kamayishi ijobiy tendensiya. Biroq taxminan 1,8 mln fuqaroning xorijda ishlashi [17] va ayollarning past iqtisodiy faolligi mamlakat ichida inson kapitalidan to‘liq foydalanilmayotganini ko‘rsatadi. K. Goldin tadqiqotlarida ko‘rsatilganidek, ayollarning ta’lim darajasi oshishi ularning mehnat bozoriga kirishi uchun institutsional sharoitlar bilan to‘ldirilishi kerak [8].

Uchinchidan, salomatlik ustunidagi kichik tafovut sog‘liqni saqlash xarajatlarining oshishi (YaIMning 4,7 foizidan 6,7 foizigacha) bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Biroq bu bog‘liqlik sababiy ekanini tasdiqlash uchun qo‘shimcha tadqiqot talab qilinadi.

Tadqiqotning cheklovlari: HCI+ dekompozitsiyasi ustunlar ichidagi alohida ko‘rsatkichlarni ajratmaydi, omillar dinamikasi esa sababiy tahlil emas, balki tavsifiy tahlil hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. O‘zbekistonda inson kapitali sifatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar iqtisodiy, ijtimoiy, institutsional, infratuzilmaviy va texnologik guruhlarga ajratildi.

2. 2015–2024 yillarda oliy ta’lim qamrovi, internetdan foydalanish va sog‘liqni saqlash xarajatlari sezilarli oshdi, ishsizlik va kambag‘allik esa qisqardi.

3. HCI+ bo‘yicha mintaqa o‘rtachasidan 70 ballik tafovutning 68,6 foizi ta’lim, 28,6 foizi bandlik, 2,9 foizi salomatlik ustuniga to‘g‘ri keladi.

4. Ayollarning iqtisodiy faolligi (41,3 foiz) va HCI+ bo‘yicha 37 ballik gender tafovuti inson kapitalidan foydalanishning muhim zaxirasi hisoblanadi.

Takliflar:

[151] Manba: [10] ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.
[152] Manba: muallif hisob-kitobi.

- ta’lim xarajatlarini rejalashtirishda qamrov ko‘rsatkichlaridan o‘quv natijalari ko‘rsatkichlariga o‘tish, bir talaba va bir o‘quvchiga to‘g‘ri keladigan xarajatlar normativini sifat talablariga moslashtirish;

- rasmiy bandlikni kengaytirish va ish joyida o‘qitishni rag‘batlantiruvchi soliq imtiyozlarini joriy etish;

- ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish uchun maktabgacha ta’lim qamrovini kengaytirish, moslashuvchan ish rejimlari va kasbiy qayta tayyorlash dasturlarini rivojlantirish;

- xorijdan qaytgan mehnat migrantlarining malakasini tan olish va ularni ichki mehnat bozoriga integratsiya qilish dasturlarini ishlab chiqish;

- inson kapitali ko‘rsatkichlarini hududlar kesimida muntazam monitoring qilish tizimini yaratish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. World Bank. The Changing Wealth of Nations 2021: Managing Assets for the Future. — Washington, DC: World Bank, 2021. — URL: https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2021/10/27/global-wealth-has-grown-but-at-the-expense-of-future-prosperity-world-bank

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "«O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risida"gi 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni (2026-yil 17-fevraldan kuchini yo‘qotgan). — URL: https://lex.uz/docs/6600413

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmoni. — URL: https://lex.uz/doc-passport/-8050769

4. Angrist N., Djankov S., Goldberg P.K., Patrinos H.A. Measuring human capital using global learning data // Nature. — 2021. — Vol. 592, No. 7854. — P. 403–408. — DOI: 10.1038/s41586-021-03323-7

5. Hanushek E.A., Woessmann L. Education, knowledge capital, and economic growth // The Economics of Education. — 2nd ed. — London: Elsevier (Academic Press), 2020. — P. 171–182. — DOI: 10.1016/B978-0-12-815391-8.00014-8

6. Deming D.J. Four Facts about Human Capital // Journal of Economic Perspectives. — 2022. — Vol. 36, No. 3. — P. 75–102.

7. Montenegro C.E., Patrinos H.A. A data set of comparable estimates of the private rate of return to schooling in the world, 1970–2014 // International Journal of Manpower. — 2023. — Vol. 44, No. 6. — P. 1248–1268. — DOI: 10.1108/IJM-03-2021-0184

8. Goldin C. Human Capital // Handbook of Cliometrics / Eds. C. Diebolt, M. Haupert. — 3rd ed. — Cham: Springer, 2024. — P. 353–383. — DOI: 10.1007/978-3-031-35583-7

9. Stacy B., D’Souza R., Schady N., Silva J., Holla A., Chen E. Five things you can learn from the new Human Capital Index Plus (HCI+) // World Bank Data Blog. — 2026. — 20 April. — URL: https://blogs.worldbank.org/en/opendata/five-things-you-can-learn-from-the-new-human-capital-index-plus-

10. World Bank. Human Capital Index Plus: Uzbekistan (country brief). — Washington, DC: World Bank, 2026. — URL: https://thedocs.worldbank.org/en/doc/cc158c3deae38cd5d5b8d4f44560f7bd0140012026/original/Uzbekistan.pdf

11. World Bank. World Development Indicators: Government expenditure on education, total (% of GDP), SE.XPD.TOTL.GD.ZS. — Washington, DC: World Bank, 2026. — URL: https://data.worldbank.org/indicator/SE.XPD.TOTL.GD.ZS (murojaat sanasi: 14.10.2026)

12. World Bank / WHO Global Health Expenditure Database. World Development Indicators: Current health expenditure (% of GDP), SH.XPD.CHEX.GD.ZS. — Washington, DC: World Bank, 2026. — URL: https://data.worldbank.org/indicator/SH.XPD.CHEX.GD.ZS (murojaat sanasi: 14.10.2026)

13. World Bank. World Development Indicators: Individuals using the Internet (% of population), IT.NET.USER.ZS. — Washington, DC: World Bank, 2026. — URL: https://data.worldbank.org/indicator/IT.NET.USER.ZS (murojaat sanasi: 14.10.2026)

14. World Bank. World Development Indicators: Labor force participation rate, female (% of female population ages 15+) (modeled ILO estimate), SL.TLF.CACT.FE.ZS. — Washington, DC: World Bank, 2026. — URL: https://data.worldbank.org/indicator/SL.TLF.CACT.FE.ZS (murojaat sanasi: 15.10.2026)

15. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida: Oliy ta’lim bilan qamrov 47,7 foizga yetdi // Anhor.uz. — 2025. — 17 aprel. — URL: https://anhor.uz/uzl/news/oliy-talim-bilan-qamrov/

16. 2024-yil yakuniga ko‘ra kambag‘allik darajasi 11 foizdan 8,9 foizga kamaydi // O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali (gov.uz). — 2025. — 2 fevral. — URL: https://gov.uz/oz/bv/news/view/34849

17. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma’lumotlari asosida: O‘zbekistonda ishsizlik darajasi // Spot.uz. — 2025. — 13 noyabr. — URL: https://www.spot.uz/oz/2025/11/13/unemployment/

18. Останова, М. Э. (2021). Занятость как критерий эффективности использования трудового потенциала экономики (на примере Республики Узбекистан). *Государственное и муниципальное управление. Ученые записки*, (3), 82-88.

19. Ostanova, M. (2023). Innovatsion O ‘sishga Inson Kapitali Ta'sirining Zamonaviy Yondashuvlari. *Green Economy and Development*, *1*(11), 662452.

20. Ochilov, A. O., & Ostonova, M. E. The Most Important Factor in Economic Growth–Human Capital. *European Journal of Business Startups and Open Society*, *3*(12), 127-132.

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Ostanova Mashxura Egamberdiyevna Qarshi Davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasi / Останова Машхура Эгамбердиевна Кафедра Экономика, Каршинский государственный университет / Ostanova Mashxura Egamberdiyevna Department of Economy, Karshi State University
E-mail: ostonova2112@gmail.com

2. Sayimova Aziza Laziz qizi QarshiDU, Iqtisodiyot va ijtimoiy fanlar fakulteti, 1 kurs talabasi / Сайимова Азиза Лазиз кизи, Каршинский государственный университет, факультет экономики и социальных наук, студентка 1-го курса / Сайимова Азиза Лазиз кизи, Каршинский государственный университет, факультет экономики и социальных наук, студентка 1-го курса

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.10.10.2026.41 *Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti*

SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY O‘SISHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

Eshqobilova Nargiza Mengnarovna

ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ

Эшкобилова Наргиза Менгнаровна

FACTORS AFFECTING ECONOMIC GROWTH IN INDUSTRIAL ENTERPRISES

Eshqobilova Nargiza Mengnarovna

Annotatsiya. Maqolada sanoat korxonalarida iqtisodiy o‘sishga ta’sir etuvchi asosiy omillar tizimli ravishda tahlil qilinadi. Kapital qo‘yilmalar, mehnat unumdorligi, inson kapitali, texnologik yangilanish, innovatsiyalar, boshqaruv sifati, bozor talabi va resurslardan foydalanish samaradorligining o‘zaro bog‘liqligi yoritiladi. Surxondaryo viloyati sanoati misolida ishlab chiqarish hajmining o‘sishini faqat miqdoriy kengayish bilan baholash yetarli emasligi, real ishlab chiqarish dinamikasi hamda qo‘shilgan qiymat va resurs qaytimi kabi ko‘rsatkichlarni birgalikda qo‘llash zarurligi asoslanadi. Tadqiqotda tizimli tahlil, taqqoslash, iqtisodiy-statistik kuzatish va ishlab chiqarish funksiyasiga asoslangan ekonometrik yondashuv taklif etiladi. Cobb–Douglas funksiyasi doirasida kapital va mehnat elastikliklarini baholash, umumiy omillar unumdorligini tahlil qilish hamda investitsiyalar natijadorligini tekshirish yo‘llari ko‘rsatiladi. Yakunda sanoat korxonalari samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: sanoat korxonasi, iqtisodiy o‘sish, mehnat unumdorligi, asosiy kapital, investitsiya, innovatsiya, ishlab chiqarish funksiyasi, ekonometrik model, resurs tejamkorligi, Surxondaryo viloyati.

Аннотация. В статье системно рассматриваются основные факторы экономического роста промышленных предприятий. Анализируется взаимосвязь капитальных вложений, производительности труда, человеческого капитала, технологического обновления, инноваций, качества управления, рыночного спроса и эффективности использования ресурсов. На примере промышленности Сурхандарьинской области обосновывается необходимость оценивать рост производства не только по стоимостному объёму, но и по показателям реальной динамики, добавленной стоимости и отдачи ресурсов. Предлагаются методы системного анализа, сравнения, экономико-статистического наблюдения и эконометрической оценки на основе производственной функции. Рассматриваются возможности применения функции Кобба—Дугласа для оценки эластичности капитала и труда и анализа совокупной производительности факторов. Сформулированы практические рекомендации по повышению эффективности промышленных предприятий.

Ключевые слова: промышленное предприятие, экономический рост, производительность труда, основной капитал, инвестиции, инновации, производственная функция, эконометрическая модель, ресурсосбережение, Сурхандарьинская область.

Abstract. This article examines the main drivers of economic growth in industrial enterprises. It discusses the interdependence of capital investment, labour productivity, human capital, technological upgrading, innovation, management quality, market demand, and resource efficiency. Using the industrial sector of Surkhandarya region as a contextual example, the paper argues that growth should not be assessed solely by nominal production value; real output dynamics, value added, and resource productivity also need to be considered. The methodology combines systems analysis, comparison, economic-statistical review, and an econometric approach based on a production function. The Cobb–Douglas function is presented as a practical framework for estimating capital and labour elasticities and examining total factor productivity. The article concludes with practical recommendations for improving industrial enterprise performance.

Keywords: industrial enterprise, economic growth, labour productivity, fixed capital, investment, innovation, production function, econometric model, resource efficiency, Surkhandarya region.

KIRISH

Sanoat korxonalarining iqtisodiy o‘sishi hududiy iqtisodiyotning tarkibiy rivojlanishi, bandlikni ta’minlash, qo‘shilgan qiymatni ko‘paytirish va eksport salohiyatini mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi. Biroq ishlab chiqarish hajmining ko‘payishi iqtisodiy samaradorlikning doimo oshishini anglatmaydi. Agar ishlab chiqarish kapital, mehnat, energiya va xomashyo

sarfini undan tezroq oshirish hisobiga kengaysa, korxonaning resurs qaytimi pasayishi mumkin. Shu sababli iqtisodiy o‘sishni baholashda miqdoriy ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish sifati ham tahlil qilinishi lozim.

O‘zbekiston sanoatining hududiy tarkibida Surxondaryo viloyati ham alohida o‘rin tutadi. Milliy statistika qo‘mitasining dastlabki ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda viloyatda 18,8 trln so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilgan [1]. Viloyat hokimligi e’lon qilgan ma’lumotda 2025-yilning yanvar–sentabr oylarida sanoat mahsuloti hajmi 12,8 trln so‘mga yetgani va o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 7,9 foiz o‘sgani qayd etilgan [2]. Ushbu ko‘rsatkichlar sanoat miqyosining kengayishini ko‘rsatsa-da, mehnat unumdorligi, kapital qaytimi, real investitsiyalar va ekologik sig‘im bo‘yicha alohida tahlil o‘tkazish zarurligini bartaraf etmaydi.

Maqolaning maqsadi sanoat korxonalarida iqtisodiy o‘sishga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillarni tizimlashtirish, ularni baholash ko‘rsatkichlarini aniqlash hamda sanoat samaradorligini oshirish uchun iqtisodiy-statistik va ekonometrik yondashuvni taklif etishdan iborat.

ADABIYOTLAR ShARHI

Iqtisodiy o‘sish nazariyasida kapital jamg‘arilishi, mehnat resurslari va texnologik taraqqiyot asosiy omillar sifatida qaraladi. Solowning neoklassik o‘sish modeli kapital va mehnatning ishlab chiqarishga ta’siri bilan bir qatorda uzoq muddatli o‘sishda texnologik taraqqiyotning ahamiyatini ko‘rsatadi [3]. Cobb va Douglas ishlab chiqarish funksiyasi esa ishlab chiqarish hajmini kapital va mehnat omillari bilan bog‘lash hamda ularning elastikliklarini baholash uchun keng qo‘llanadigan yondashuvlardan biridir [4].

Zamonaviy tadqiqotlarda sanoat unumdorligi faqat jismoniy kapital bilan izohlanmaydi. OECD tomonidan nashr etilgan tahlilda innovatsion natijalar, tashkilot kapitali, xodimlarni o‘qitish, jismoniy kapital bilan ta’minlanganlik va raqamli ko‘nikmalar mehnat unumdorligi bilan ijobiy bog‘liqlikka ega bo‘lishi qayd etilgan [5]. OECDning 2026-yilgi mahsuldorlik ko‘rsatkichlari sharhida ham mehnat unumdorligi o‘sishini kapital bilan ta’minlanganlik va ko‘p omilli unumdorlik hissalariga ajratib tahlil qilishga e’tibor qaratilgan [6].

UNIDO sanoat rivojlanishini innovatsiya, texnologiyalarni o‘zlashtirish, energiya samaradorligi, malaka va barqaror ishlab chiqarish bilan uzviy bog‘laydi [7]. Bu yondashuv korxonalarning iqtisodiy o‘sishini faqat mahsulot qiymati orqali emas, balki texnologik yangilanish, resurs tejamkorligi va barqarorlik ko‘rsatkichlari orqali baholash zarurligini asoslaydi.

Mazkur nazariy yondashuvlardan kelib chiqib, ushbu maqolada sanoat korxonalariga ta’sir etuvchi omillar ishlab chiqarish resurslari, innovatsion-texnologik omillar, ichki boshqaruv omillari va tashqi iqtisodiy muhit omillariga ajratiladi. Maqola empirik regressiya natijalarini da’vo qilmaydi; unda rasmiy statistik ma’lumotlar asosida kontekst berilib, keyingi amaliy baholash uchun metodologik model taklif etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli tahlil, ilmiy adabiyotlarni o‘rganish, iqtisodiy-statistik taqqoslash va ishlab chiqarish funksiyasiga asoslangan ekonometrik yondashuvdan foydalanish nazarda tutiladi. O‘sish omillarini baholashda natijaviy ko‘rsatkich sifatida, imkon qadar, doimiy narxlardagi sanoat qo‘shilgan qiymatini qo‘llash maqsadga muvofiq. Qo‘shilgan qiymat ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan yangi qiymatni ifodalaydi; nominal sanoat mahsuloti esa narxlar o‘zgarishini ham o‘zida aks ettiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1. Kapital va investitsiyalar

Kapital ishlab chiqarish quvvatlari, binolar, texnologik uskunalar va boshqa uzoq muddatli aktivlarni qamrab oladi. Investitsiyalar esa ushbu aktivlarni yaratish, modernizatsiya qilish yoki kengaytirishga yo‘naltiriladigan oqim hisoblanadi. Ularning iqtisodiy o‘sishga ta’siri yangi uskunalarni xarid qilish bilan cheklanmaydi: texnologiyani o‘zlashtirish, xodimlarni tayyorlash, ishlab chiqarishni tashkil etish va mahsulotni bozorga chiqarish ham natijaga ta’sir qiladi.

Investitsiyalar natijadorligini baholashda investitsiya hajmining o‘zi yetarli emas. Qo‘shimcha ishlab chiqarish, qo‘shilgan qiymat, mehnat unumdorligi, mahsulot tannarxi va quvvatlardan foydalanish darajasidagi o‘zgarishlar ham o‘lchanishi kerak. Yirik loyiha uchun sof joriy qiymat (NPV), ichki daromadlilik normasi (IRR) va qoplanish muddati kabi mezonlarni qo‘llash investitsiya qarorlarini asoslashga yordam beradi.

2. Mehnat unumdorligi va inson kapitali

Mehnat resurslarining iqtisodiy o‘sishga ta’siri nafaqat xodimlar soni, balki ularning malakasi, tajribasi, sog‘lig‘i, raqamli savodxonligi va ish jarayonlarini tashkil etish sifati bilan ham belgilanadi. Mehnat unumdorligini quyidagi ko‘rsatkich orqali baholash mumkin:

$$LP = VA / L$$

Bu yerda LP — mehnat unumdorligi, VA — sanoat qo‘shilgan qiymati, L — o‘rtacha bandlar soni. Imkoniyat mavjud bo‘lsa, bandlar soni o‘rniga ishlangan jami soatlardan foydalanish ish vaqti davomiyligidagi farqlarni yaxshiroq hisobga olishga yordam beradi. Korxona darajasida unumdorlikni oshirish uchun kasbiy tayyorgarlik, xodimlarni qayta o‘qitish, ishlab chiqarish standartlari, natijaga asoslangan rag‘batlantirish va xavfsiz mehnat sharoitlari birgalikda takomillashtirilishi kerak.

3. Texnologik taraqqiyot va innovatsiyalar

Texnologik yangilanish ishlab chiqarish vaqtini qisqartirish, nuqsonlar miqdorini kamaytirish, sifatni barqarorlashtirish hamda energiya va material sarfini optimallashtirish imkonini beradi. Innovatsiya faqat yangi mahsulot yaratish bilan cheklanmaydi; jarayon innovatsiyalari, ishlab chiqarish logistikasi, raqamli boshqaruv va texnik xizmat ko‘rsatish tizimlari ham unumdorlikka ta’sir qiladi. OECD tadqiqoti innovatsion faoliyat va inson kapitali bilan tarmoq unumdorligi o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi [5].

Sanoat korxonalarida texnologik yangilanishni baholash uchun uskunalarning yoshi, quvvatlardan

foydalanish darajasi, nuqsonli mahsulot ulushi, raqamli boshqaruv tizimlari qamrovi va innovatsion faoliyatga sarflangan xarajatlar kabi ko‘rsatkichlardan foydalanish mumkin. Bunda texnologik investitsiyaning natijasi faqat sotib olingan uskuna qiymati bilan emas, balki ishlab chiqarish jarayonidagi o‘lchanadigan o‘zgarishlar bilan baholanadi.

4. Resurslardan foydalanish va ekologik samaradorlik

Energiya, suv, xomashyo va materiallar xarajatlari sanoat korxonasi tannarxining muhim qismini tashkil qilishi mumkin. Resurslardan tejamkor foydalanish raqobatbardoshlikni kuchaytirish bilan birga, ekologik bosimni kamaytirishga ham yordam beradi. Resurs samaradorligini baholash uchun mahsulot birligiga sarflangan energiya, material va suv miqdori aniqlanadi. Masalan, energiya sig‘imi quyidagicha hisoblanadi:

$$E_s = E / Q$$

Bu yerda E — energiya sarfi, Q — taqqoslanadigan ishlab chiqarish hajmi. Turli yillar bo‘yicha taqqoslashda ishlab chiqarish ko‘rsatkichini joriy narxlarda emas, taqqoslanadigan narxlarda yoki fizik birliklarda ifodalash lozim. Aks holda, mahsulot narxining oshishi energiya sig‘imi pasaygandek noto‘g‘ri tasavvur hosil qilishi mumkin. UNIDO sanoatni barqaror rivojlantirishda energiya samaradorligi, texnologiyalarni o‘zlashtirish va resurs tejamkor ishlab chiqarishga katta e’tibor beradi [7].

5. Boshqaruv sifati va ishlab chiqarishni tashkil etish

Korxonaning iqtisodiy o‘sish sur’ati ishlab chiqarish rejalashtirilishi, zaxiralarni boshqarish, uskunalarga texnik xizmat ko‘rsatish, sifat nazorati va ta’minot zanjirining ishonchliligiga ham bog‘liq. Hatto zamonaviy uskuna mavjud bo‘lgan sharoitda ham xomashyo yetkazib berishdagi uzilishlar, noto‘g‘ri rejalashtirish yoki bo‘sh turib qolish ishlab chiqarish natijalarini cheklashi mumkin. Shu sababli ishlab chiqarish hajmi, buyurtmalarni bajarish muddati, ombor zaxiralari, uskunalar bekor turishi va nuqsonli mahsulotlar bo‘yicha muntazam monitoring tashkil etilishi kerak.

6. Bozor talabi, infratuzilma va hududiy muhit

Sanoat korxonasi faoliyati ichki va tashqi bozordagi talab, raqobat, transport-logistika xarajatlari, energiya ta’minoti, moliyalashtirish imkoniyatlari va tartibga solish muhitiga bog‘liq. Mahsulotga talab yetarli bo‘lmasa, ishlab chiqarish quvvatlari to‘liq ishlatilmaydi va kapital qaytimi pasayadi. Shu sababli yangi investitsiyalarni rejalashtirishda bozor tahlili, mahsulot tannarxi, raqobatchilar holati, sotish kanallari va eksport standartlarini hisobga olish zarur.

Surxondaryo viloyati bo‘yicha rasmiy xabarlarda 2025-yilning yanvar–sentabr oylarida sanoat mahsulotlari hajmi 12,8 trln so‘mga yetgani, to‘qimachilik, oziq-ovqat va qurilish materiallari ishlab chiqarishi viloyat sanoatining muhim yo‘nalishlari bo‘lgani qayd etilgan [2]. Bunday tarmoq ixtisoslashuvi mahalliy xomashyo zanjirlarini rivojlantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, barqaror o‘sish uchun tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish, mahsulot sifatini oshirish, bozorlarni diversifikatsiya qilish va hududlararo sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish muhimdir.

1-jadval.

Sanoat korxonalarida iqtisodiy o‘sishga ta’sir etuvchi omillar va baholash ko‘rsatkichlari

Omillar guruhi	Asosiy omillar	Baholash ko‘rsatkichlari	Amaliy yo‘nalish
Kapital va investitsiya	Asosiy fondlar, yangi uskunalar, modernizatsiya	Fond qaytimi, investitsiya qaytimi, NPV, IRR	Investitsiya loyihalarini natijaga bog‘lash
Mehnat va inson kapitali	Malaka, tajriba, ish vaqti, rag‘batlantirish	Mehnat unumdorligi, ishlangan soat, real ish haqi	Qayta tayyorlash va mehnatni tashkil etish
Innovatsiya va texnologiya	Avtomatlashtirish, raqamli boshqaruv, yangi mahsulot	Innovatsion faollik, nuqsonlar ulushi, quvvatlardan foydalanish	Texnologik modernizatsiya
Resurslar va ekologiya	Energiya, suv, xomashyo, chiqindilar	Energiya sig‘imi, material sig‘imi, emissiya intensivligi	Resurs tejamkor ishlab chiqarish
Boshqaruv va bozor	Rejalashtirish, ta’minot, talab, logistika	Uskuna bekor turishi, buyurtmalar bajarilishi, tannarx	Raqamli monitoring va bozorlarni diversifikatsiya qilish
Tashqi muhit	Infratuzilma, moliyalashtirish, transport, savdo sharoiti	Logistika xarajatlari, moliyaviy resurslarga kirish, eksport ulushi	Hududiy kooperatsiya va investitsion muhitni yaxshilash

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil qilingan omillardan kelib chiqib, sanoat korxonalarida iqtisodiy o‘sish samaradorligini oshirish uchun quyidagi tavsiyalar taklif etiladi:

- Investitsiya loyihalarini faqat ishlab chiqarish quvvatining o‘sishi bo‘yicha emas, balki qo‘shimcha qo‘shilgan qiymat, mehnat unumdorligi, mahsulot tannarxi va resurs sarfi bo‘yicha ham baholash.

- Har bir korxonada mehnat unumdorligi, fond qaytimi, energiya sig‘imi va uskunalarning bekor turish vaqtini muntazam o‘lchaydigan ichki ko‘rsatkichlar panelini joriy etish.
- Xodimlarning kasbiy va raqamli ko‘nikmalarini oshirishni texnologik modernizatsiya loyihalari bilan bir paketda rejalashtirish.
- Imkon qadar ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, energiya va suv sarfini hisobga olish, xomashyo yo‘qotishlari hamda nuqsonli mahsulotlar ulushini kamaytirish.
- Yangi ishlab chiqarish quvvatlari bo‘yicha bozor talabi, logistika xarajatlari, xomashyo manbalari va eksport standartlarini oldindan baholash.
- Sanoat samaradorligini tahlil qilishda joriy narxlardagi nominal ko‘rsatkichlarni real ko‘rsatkichlardan ajratish va ma’lumotlar manbalarini hujjatlashtirish.
- Surxondaryo viloyatida tumanlarning mavjud resurslari va ixtisoslashuvini hisobga olgan holda sanoat kooperatsiyasi hamda mahalliy yetkazib beruvchilar zanjirlarini rivojlantirish.

Sanoat korxonalarida iqtisodiy o‘sish kapital, mehnat resurslari, texnologik taraqqiyot, innovatsiya, boshqaruv sifati va bozor sharoitlarining o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi. Mazkur omillarning ta’sirini to‘g‘ri baholash uchun ishlab chiqarish hajmi bilan bir qatorda qo‘shilgan qiymat, mehnat unumdorligi, kapital qaytimi va resurs sig‘imi kabi ko‘rsatkichlardan foydalanish zarur. Tadqiqotlar innovatsiya va inson kapitalining sanoat unumdorligi bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi, xalqaro sanoat siyosati esa texnologik yangilanish va resurs samaradorligini barqaror rivojlanishning muhim shartlari sifatida qaraydi [5–7].

Surxondaryo viloyati sanoatining rivojlanishi yangi ishlab chiqarish imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatsa-da, barqaror natijaga erishish uchun nominal hajm o‘sishini real ishlab chiqarish, unumdorlik va ekologik ko‘rsatkichlardan farqlash lozim. Cobb–Douglas ishlab chiqarish funksiyasi kapital va mehnat omillari elastikligini baholash uchun nazariy asos yaratadi. Biroq modelni amalda qo‘llashda taqqoslanadigan ma’lumotlar, yetarli kuzatuvlar soni va statistik diagnostika talablariga rioya qilish zarur.

Umuman, sanoat korxonalarida iqtisodiy o‘sish samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishi resurslarni shunchaki ko‘paytirish emas, balki ularning har bir birligidan ko‘proq qo‘shilgan qiymat yaratish, texnologik salohiyatni kuchaytirish va ishlab chiqarish jarayonlarini barqaror tashkil etishdan iborat. Taklif etilgan omillar tizimi va baholash modeli korxonalar hamda hududlar uchun samaradorlikni muntazam o‘lchash va dalillarga asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilishga xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Which regions are leading in industry? 27 January 2026. https://stat.uz/en/press-center/news-of-committee/66564-sanoatda-ajsi-ududlar-etakchi-4 (murojaat sanasi: 22.10.2026).

2. Surxondaryo viloyati hokimligi. Surxondaryo sanoati izchil rivojlanmoqda. 3 noyabr 2025. https://gov.uz/oz/surxondaryo/news/view/99177 (murojaat sanasi: 22.10.2026).

3. Solow, R. M. A Contribution to the Theory of Economic Growth. The Quarterly Journal of Economics, 1956, Vol. 70, No. 1, pp. 65–94. https://doi.org/10.2307/1884513.

4. Cobb, C. W., Douglas, P. H. A Theory of Production. American Economic Review, 1928, Vol. 18, No. 1, pp. 139–165. https://www.jstor.org/stable/1811556.

5. Cammeraat, E., Samek, L., Squicciarini, M. The Role of Innovation and Human Capital for the Productivity of Industries. OECD Science, Technology and Industry Policy Papers, No. 107, 2021. https://doi.org/10.1787/197c6ae9-en.

6. OECD. OECD Compendium of Productivity Indicators 2026. Paris: OECD Publishing, 2026. https://doi.org/10.1787/734a5e68-en.

7. United Nations Industrial Development Organization (UNIDO). Industrial Development Report 2026. https://www.unido.org/idr/idr2026.

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Eshqobilova Nargiza Mengnarovna Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Raqamli iqtisodiyoti kafedrasi / Эшкобилова Наргиза Менгнаровна Кафедра цифровой экономики, Деновский институт предпринимательства и педагогики/ Eshqobilova Nargiza Mengnarovna Department of Digital Economy, Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy
E-mail: eshqobilovanargiza1@gmail.com

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.10.10.2026.42 *Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik*

KICHIK BIZNESNI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI BAHOLASH VA TAKOMILLASHTIRISHNING EKONOMETRIK MODELLARI

Kabilova Shahnoza Jurayevna

ЭКОНОМЕТРИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ОЦЕНКИ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА УПРАВЛЕНИЯ МАЛЫМ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВОМ

Кабилова Шахноза Жураевна

ECONOMETRIC MODELING OF THE EVALUATION AND ENHANCEMENT OF THE ORGANIZATIONAL-ECONOMIC MECHANISM IN SMALL BUSINESS MANAGEMENT

Kabilova Shakhnoza

Annotatsiya. Mazkur maqolada kichik biznes subyektlarini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish hamda uning samaradorligini baholash masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqot doirasida tashkiliy-institutsional, iqtisodiy-moliyaviy va raqamli-innovatsion ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga olgan integral samaradorlik indeksi ($\mathbf{I}_{\mathbf{tebm}}$) ishlab chiqildi. Kichik tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarish hajmi va unga ta’sir etuvchi omillar o‘rtasidagi bog‘liqlik an’anaviy omillar (kapital, mehnat) bilan birga raqamlashtirish xarajatlari hamda institutsional muhit indeksini qamrab olgan modifikatsiyalangan Kobb-Duglas ishlab chiqarish funksiyasi orqali ekonometrik modellashtirildi. Empirik baholash natijalari raqamli transformatsiya va institutsional sifat omillarining elastiklik koeffitsiyentlari yuqori ekanligini, bu esa boshqaruv mexanizmini modernizatsiya qilishda mazkur yo‘nalishlarga ustuvorlik berish zarurligini ko‘rsatdi. Olingan xulosalar kichik biznesni strategik rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, integral baholash indeksi, Kobb-Duglas funksiyasi, ekonometrik modellashtirish, raqamlashtirish, institutsional muhit, elastiklik koeffitsiyenti.

Аннотация: В данной статье исследуются вопросы совершенствования организационно-экономического механизма управления малым бизнесом и оценки его эффективности. В рамках исследования разработан интегральный индекс эффективности ($\mathbf{I}_{\mathbf{tebm}}$), синтезирующий организационно-институциональные, финансово-экономические и цифровые инновационные параметры. Взаимосвязь между объемом производства субъектов малого предпринимательства и факторами влияния смоделирована на основе модифицированной производственной функции Кобба-Дугласа, дополненной факторами затрат на цифровизацию и индексом институциональной среды наряду с традиционными трудом и капиталом. Результаты эконометрической оценки выявили опережающий рост коэффициентов эластичности институциональных и цифровых факторов, что научно обосновывает необходимость приоритизации цифровой трансформации в системе управления. Сформулированные выводы могут быть использованы при разработке прикладных программ стратегического развития сектора малого предпринимательства.

Ключевые слова: малый бизнес, организационно-экономический механизм, интегральный индекс оценки, функция Кобба-Дугласа, эконометрическое моделирование, цифровизация, институциональная среда, коэффициент эластичности.

Abstract: This article examines the improvement of the organizational and economic mechanism for small business management and the evaluation of its effectiveness. Within the framework of the study, a comprehensive efficiency index (I_{tebm}) was developed, synthesizing organizational-institutional, financial-economic, and digital-innovation indicators. The relationship between the output volume of small enterprises and its determining factors was econometrically modeled using a modified Cobb-Douglas production function, incorporating digitalization expenditures and an institutional environment index alongside conventional labor and capital inputs. The empirical estimation indicates higher elasticity coefficients for institutional quality and digital transformation factors, scientifically justifying the priority of digital and institutional modernization within the management framework. The findings provide practical guidelines for designing strategic development policies for small business enterprises.

Keywords: small business, organizational and economic mechanism, composite efficiency index, Cobb-Douglas function, econometric modeling, digitalization, institutional environment, elasticity coefficient.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va raqamli texnologiyalarning jadal kirib kelishi sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (KBXT) sohasi nafaqat bandlikni ta’minlash va aholi daromadlarini oshirish vositasi, balki milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish lokomotivi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Biroq, bozor konyunkturasining tez o‘zgaruvchanligi, tashqi iqtisodiy shoklar va resurslar taqchilligi kichik biznes subyektlarini boshqarishning an’anaviy usullarini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda tadbirkorlik subyektlari huquqlarini himoya qilish, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish hamda soliq yukini kamaytirish borasida keng ko‘lamli institutsional islohotlar amalga oshirildi. Shunga qaramay, kichik korxonalarning «yashovchanlik» darajasining pastligi, yuqori qo‘shilgan qiymat yaratuvchi sanoat tarmoqlaridagi ulushining kamligi, yirik sanoat korxonalari bilan kooperatsiya aloqalarining zaifligi hamda korporativ va strategik boshqaruv ko‘nikmalarining yetishmasligi sohada tashkiliy-iqtisodiy boshqaruv mexanizmini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi - kichik biznes subyektlari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va korxona ichki boshqaruvini uyg‘unlashtirgan holda, ularning miqdoriy o‘sishidan sifat o‘sishiga o‘tishini ta’minlovchi takomillashtirilgan tashkiliy-iqtisodiy boshqaruv mexanizmini ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Kichik biznes va tadbirkorlikning iqtisodiy mohiyati, uning bozor iqtisodiyotidagi o‘rni hamda boshqaruv mexanizmlari ko‘plab xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan chuqur o‘rganilgan.

Tadbirkorlik nazariyasining asoschilari hisoblangan Yo.Shumpeter tadbirkorni “innovator va iqtisodiy tizimni harakatga keltiruvchi kuch” sifatida ta’riflagan bo‘lsa [3], P.Druker kichik biznesni boshqarishda innovatsion menejment va bozor imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash birlamchi omil ekanligini ta’kidlaydi [4]. M.Porterning raqobat ustunligi nazariyasida esa kichik korxonalarning yirik biznes bilan klasterlar doirasidagi integratsiyasi tashkiliy mexanizmning eng samarali shakli sifatida ko‘rsatiladi [5].

MDH mamlakatlari olimlaridan L.I.Abalkin va B.Z.Milnerlarning ilmiy ishlarida “tashkiliy-iqtisodiy mexanizm” tushunchasiga xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tartibga soluvchi institutsional, huquqiy va iqtisodiy dastaklar yig‘indisi sifatida yondashilgan.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan S.S.G‘ulomov [6], Yo.Abdullayev, B.Y.Xodiyev [7], M.R.Boltabayev va M.Q.Pardayevlarning [8] tadqiqotlarida milliy iqtisodiyot xususiyatlaridan kelib chiqqan holda kichik biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, soliq va kredit mexanizmlarini takomillashtirish hamda mintaqaviy tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari keng yoritilgan.

Biroq, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznesning ichki boshqaruv tizimi (mikrodaraja) bilan davlatning tartibga solish vositalari (makrodaraja) o‘rtasidagi sinergik bog‘liqlikni ta’minlovchi yaxlit tashkiliy-iqtisodiy mexanizm yetarli darajada tizimlashtirilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida kichik biznesni boshqarish mexanizmlarini o‘rganishga tizimli va kompleks yondashuv qo‘llanildi. Maqolada mantiqiy abstraksiyalash, dinamik qatorlarni qiyosiy-statistik tahlil qilish, induksiya va deduksiya, shuningdek, iqtisodiy-matematik modellashtirish hamda ekspert baholash usullaridan foydalanildi. Tashkiliy va iqtisodiy omillarning kichik biznes samaradorligiga ta’sirini aniqlashda funksional-strukturali tahlil usuli qo‘llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik biznesni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy boshqaruv mexanizmi samaradorligini baholashda avvalo ushbu sektorning milliy iqtisodiyotdagi makroiqtisodiy o‘rni va tarkibiy dinamikasini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Rasmiy statistik ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot (YaIM) tarkibida va asosiy iqtisodiy tarmoqlarda kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi o‘ziga xos strukturaviy transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda (1-jadval).

1-jadval.

O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIM va asosiy iqtisodiy tarmoqlardagi ulushi dinamikasi (foizda)[153] [10]

№	Makroiqtisodiy va tarmoq ko‘rsatkichlari	2020	2021	2022	2023	2024	2025	O‘zgarishi (2025-2020)
1.	**Kichik biznesning YaIM (YaQQ)dagi ulushi**	**53,9**	**54,9**	**51,8**	**51,2**	**53,5**	**52,2**	**-1,7**
Shu jumladan, iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha:								
1.2	Qurilish ishlari	72,5	72,4	71,6	77,0	77,4	78,1	+5,6
1.3	Xizmatlar sohasi (bozor xizmatlari)	51,8	51,1	48,6	40,4	42,1	43,5	-8,3
1.4	Sanoat ishlab chiqarishi	27,9	27,0	25,9	21,4	23,2	24,5	-3,4
2.	**Iqtisodiyotda jami band bo‘lganlardagi ulushi**	**74,5**	**74,4**	**73,8**	**74,0**	**74,6**	**74,9**	**+0,4**

1-jadvalda keltirilgan qiyosiy statistik tahlil natijalari kichik biznesni boshqarish mexanizmini takomillashtirishda quyidagi fundamental ilmiy-amaliy tendensiyalar va muammolarni aniqlashga asos bo‘ladi:

1. Makroiqtisodiy ulushning mo‘tadillashuvi va “yiriklashuv” effekti: 2020-2025-yillar oralig‘ida kichik biznesning YaIMdagi ulushi 53,9 foizdan 52,2 foizgacha (-1,7 foiz punktga) pasaygan. Iqtisodiy nazariya nuqtayi nazaridan bu salbiy holat emas, balki iqtisodiyotda yirik sanoat korxonalari ulushining ortishi, xufiyona iqtisodiyotning legallashuvi hamda ayrim muvaffaqiyatli kichik korxonalarning o‘rta va yirik biznes toifasiga o‘tishi (transformatsiyasi) bilan izohlanadi.

2. “Bandlik – Qo‘shilgan qiymat” nomutanosibligi (paradoksi): Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, mamlakatda iqtisodiy faol aholining qariyb 75 foizi (2025-yilda 74,9%) kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sektorida band bo‘lgani holda, ular tomonidan yaratilayotgan yalpi qo‘shilgan qiymat ulushi 52,2 foizni tashkil etmoqda. Bandlik ulushi va yaratilgan qiymat o‘rtasidagi 22,7 foiz punktlik tafovut kichik biznesda mehnat unumdorligi va texnologik qurollanganlik darajasi yirik korxonalarga nisbatan ancha past ekanligidan dalolat beradi.

3. Tarmoqlararo disproporsiya (agrar-qurilish ustuvorligi va sanoat oqsoqligi): Kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushi qishloq xo‘jaligi (95,6-96,2%) va qurilish (77,0-78,1%) sohalariga to‘g‘ri kelgani holda, yuqori qo‘shilgan qiymat yaratuvchi sanoat tarmog‘idagi ulushi atigi 21,4-24,5 foiz atrofida saqlanib qolmoqda. Xizmatlar sohasida esa yirik chakana savdo tarmoqlari (riteyllar), raqamli ekotizimlar va fintex-kompaniyalarning bozorga faol kirib kelishi hisobiga an’anaviy kichik xizmat ko‘rsatish subyektlarining ulushi 2020-yildagi 51,8 foizdan 2025-yilda 43,5 foizgacha qisqargan.

4. Institutsional demografiya va ichki boshqaruv zaifligi: Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, ro‘yxatdan o‘tgan jami kichik korxonalarning o‘rtacha 25-30 foizi turli tashkiliy-iqtisodiy to‘siqlar - moliyaviy resurslarning qimmatligi, garov ta’minoti muammosi, soliq rejimlaridagi farqlar tufayli korxonalarning "maydalashib" ketishi hamda ichki menejmentning (ERP, CRM, moliyaviy rejalashtirish) zaifligi tufayli o‘z faoliyatini to‘xtatmoqda.

Yuqoridagi empirik tahlil natijalari davlat tomonidan kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash siyosatini miqdoriy o‘sishdan (yangi korxonalar sonini ko‘paytirishdan) - sifat o‘sishiga (mehnat unumdorligini oshirish, sanoat ulushini kengaytirish va korxonalarni yiriklashtirishga) yo‘naltirish zarurligini ko‘rsatadi.

Ushbu tizimli muammolarni hal etish maqsadida biz tomonimizdan kichik biznesni rivojlantirishning takomillashtirilgan tashkiliy-iqtisodiy boshqaruv mexanizmi ishlab chiqildi (2-jadval). Mazkur mexanizm 3 ta asosiy blok (Tashkiliy-institutsional, Iqtisodiy-moliyaviy va Raqamli-innovatsion) hamda ikki darajali (makro va mikro) boshqaruv konturini o‘z ichiga oladi.

[153] Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

2-jadval.

Kichik biznesni rivojlantirishning takomillashtirilgan tashkiliy-iqtisodiy boshqaruv mexanizmi tuzilmasi

Mexanizm tarkibiy bloklari	Boshqaruv dastaklari va vositalari	Amalga oshirish mexanizmi (Chora-tadbirlar)	Kutilayotgan iqtisodiy samara
1. Tashkiliy-institutsional blok	Normativ-huquqiy tartibga solish Klasterlashuv va subpudrat Infratuzilmaviy qo‘llab-quvvatlash	“Kichikdan- o‘rtaga” o‘tishda “soliq ko‘prigi” (bufer davri) tizimini joriy etish; Yirik davlat va xususiy korxonalar atrofida kichik sanoat subpudrat klasterlarini shakllantirish; Biznes-inkubatorlar va akseleratorlar tarmog‘ini kengaytirish.	Kichik korxonalarning yiriklashuvga bo‘lgan motivatsiyasi oshadi, xufiyona iqtisodiyot ulushi qisqaradi va barqaror bozor buyurtmalari shakllanadi.
2. Iqtisodiy-moliyaviy blok	Fiskal (soliq) dastaklar Monetar (kredit) dastaklar Muqobil moliyalashtirish	Innovatsion va eksportbop mahsulot ishlab chiqaruvchi KBXT uchun tabaqalashtirilgan soliq imtiyozlari; Kreditlarni kafolatlash jamg‘armalari ulushini kengaytirish; Venchur fondlar, faktoring, lizing va kraudfanding mexanizmlarini faollashtirish.	Kichik biznesning aylanma mablag‘lar taqchilligi bartaraf etiladi, investitsion faollik va asosiy kapitalga qo‘yilmalar hajmi ortadi.
3. Raqamli-innovatsion va ichki boshqaruv bloki	Raqamli transformatsiya Korporativ va strategik boshqaruv Inson kapitalini rivojlantirish	Bulutli texnologiyalar asosida arzonlashtirilgan ERP, CRM va elektron buxgalteriya tizimlarini joriy etish; E-commerce va raqamli marketpleyslarga chiqishni subsidiyalash; Rahbar va xodimlarning moliyaviy hamda raqamli savodxonligini oshirish.	Operatsion va tranzaksion xarajatlar 15-25% ga qisqaradi, mehnat unumdorligi va boshqaruv qarorlarining tezkorligi oshadi.

1. Tashkiliy-iqtisodiy mexanizm samaradorligining integral indeksi (I_{tebm})

Kichik biznesni boshqarish samaradorligi uchta asosiy yo‘nalish bo‘yicha subindekslarning o‘rtacha geometrik qiymati sifatida aniqlanadi:

$$I_{tebm} = \sqrt[3]{Ktash} \times Kiqt \times Kinn \qquad (1)$$

Bunda har bir subindeks o‘z tarkibiy ko‘rsatkichlarining o‘rtacha arifmetik (yoki normallashtirilgan) qiymati sifatida ifodalanadi:

1.1. Tashkiliy-institutsional barqarorlik koeffitsiyenti (K_{tash}):

$$K_{tash} = \frac{k1 + k2 + k3}{3} \qquad (2)$$

$K_1 = \frac{\text{Nfaol}}{\text{Nro‘yxat}}$ - korxonalarning faollik darajasi (faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar sonining ro‘yxatdan o‘tganlar umumiy soniga nisbati);

$K_2 = \frac{\text{Vkoop}}{\text{Vumum}}$ - kooperatsiya ulushi (yirik korxonalar bilan amalga oshirilgan kooperatsiya hajmining umumiy aylanmadagi ulushi);

$K_3 = \frac{\text{Tmezon}}{\text{Tamaldagi}}$ - davlat xizmatlaridan foydalanish tezligi indeksi (belgilangan standart vaqtning amalda sarflangan vaqtga nisbati).

1.2. Iqtisodiy-moliyaviy natijadorlik koeffitsiyenti (K_{iqt}):

$$K_{iqt} = \frac{K4 + k5 + k6}{3} \qquad (3)$$

$K_4 = \frac{\text{Psof}}{\text{TR}}$ - sotuv rentabelligi (P_{sof} - sof foyda, *TR* - umumiy tushum);

$K_5 = E/A$ - moliyaviy mustaqillik (avtonomiya) koeffitsiyenti (*E* - xususiy kapital, *A* - umumiy aktivlar);

$K_6 = CF/Debtqisqa$ - qarz va kredit resurslarini qoplash koeffitsiyenti (*CF* - sof pul oqimi, *Debtqisqa* - qisqa muddatli majburiyatlar).

1.3. Raqamli va innovatsion faollik koeffitsiyenti (K_{inn}):

$$K_{inn} = \frac{k7 + k8 + k9}{3} \qquad (4)$$

$K_7 = Bavto/Bumum$ - boshqaruvni avtomatlashtirish darajasi (ERP, CRM kabi tizimlar joriy etilgan bo‘linmalar ulushi);

$K_8 = TR_{e\text{-}tijorat} / TR$ - elektron tijoratning aylanmadagi ulushi ($TR_{e\text{-}tijorat}$ - onlayn savdo tushumi);

$K_9 = V_{yangi} / V_{umum}$ - innovatsion mahsulotlar ulushi (yangi o‘zlashtirilgan mahsulotlar hajmining umumiy hajmga nisbati).

2. Takomillashtirilgan Kobb-Duglas ishlab chiqarish funksiyasi

Kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarish hajmi (Y)ga an’anaviy hamda zamonaviy omillar ta’sirining ko‘p omilli modeli:

$$Y = A * K\alpha * L\beta * D\gamma * I\,\delta_{inst} \qquad (5)$$

Ekonometrik tahlil va chiziqli regressiya parametrlarini baholash (OLS usuli) uchun model logarifmik shaklga keltiriladi:

$$\ln(Y) = \ln(A) + \alpha \ln(K) + \beta \ln(L) + \gamma \ln(D) + \delta \ln(I_{inst}) + \varepsilon$$

Parametrlar izohi:

Y - kichik biznes subyektlarining ishlab chiqarish (yoki xizmat ko‘rsatish) hajmi;

A - neytral texnologik taraqqiyot koeffitsiyenti (umumiy omillar unumdorligi);

K - asosiy kapital (kreditlar, investitsiyalar va asosiy vositalar qiymati);

L - mehnat resurslari (band bo‘lgan xodimlar soni yoki inson kapitali sarfi);

D - boshqaruv tizimini raqamlashtirishga yo‘naltirilgan xarajatlar hajmi;

I_{inst} - institutsional muhit qulayligi indeksi ($0 \leq I_{inst} \leq 1$ oralig‘ida normallashtirilgan mezon);

$\alpha, \beta, \gamma, \delta$ - mos omillar bo‘yicha elastiklik koeffitsiyentlari;

ε - tasodifiy xatolik (qoldiq miqdor).

Modeldagi elastiklik shartiga ko‘ra, $\gamma > \alpha$ va $\delta > \beta$ munosabati kuzatilganda, boshqaruvni raqamlashtirish (D) hamda institutsional muhitning yaxshilanishi (I_{inst}) an’anaviy kapital (K) va mehnat (L) resurslariga qaraganda mahsulot ishlab chiqarish o‘sishiga sezilarli darajada yuqori multiplikativ ta’sir ko‘rsatishi isbotlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida kichik biznesni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy boshqaruv mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi ilmiy xulosa va amaliy takliflar shakllantirildi:

1. Soliq va ma’muriy yukni bosqichma-bosqich o‘zgartirish (“Buzilmas o‘sish” mexanizmi): Kichik biznes subyektlarining o‘rta biznes toifasiga o‘tishini rag‘batlantirish maqsadida maxsus "o‘tish davri" (2-3 yillik dempfer rejimi) joriy etilishi lozim. Bunda aylanma mablag‘lari belgilangan chegaradan oshgan korxonalarga umumiy soliq stavkalari birdaniga emas, balki regressiv-bosqichma-bosqich (masalan, birinchi yili 50%, ikkinchi yili 75% stavkada) qo‘llanilishi hamda hisobot topshirishning soddalashtirilgan tartibi saqlab qolinishi maqsadga muvofiq.

2. Sanoat subpudrati va klasterlashuvni rivojlantirish: Kichik biznesning sanoatdagi past ulushini (24,5%) oshirish uchun hududlardagi kichik sanoat zonalari (KSZ) faoliyatini oddiy ijara maydonlaridan ixtisoslashgan sanoat klasterlariga aylantirish zarur. Yirik davlat korxonalari va tabiiy monopoliyalar xaridlarining kamida 25-30 foizini mahalliy kichik biznes subyektlari bilan uzoq muddatli ofset va subpudrat shartnomalari orqali amalga oshirish mexanizmini qonuniy mustahkamlash taklif etiladi.

3. Muqobil moliyalashtirish institutlarini kengaytirish: An’anaviy bank kreditlariga qaramlikni kamaytirish uchun kichik biznesda faktoring (kechiktirilgan to‘lovlar evaziga aylanma mablag‘ olish), islomiy moliya instrumentlari (Murobaha, Musharaka) va venchur moliyalashtirish infratuzilmasini hududlar kesimida rivojlantirish lozim.

4. Mikrodarajada “Raqamli boshqaruv”ga o‘tishni subsidiyalash: Kichik biznesda mehnat unumdorligi va ichki boshqaruv samaradorligini oshirish uchun ular tomonidan mahalliy IT-kompaniyalarning bulutli ERP, CRM, WMS (ombor boshqaruvi) va avtomatlashtirilgan moliya-buxgalteriya dasturlarini xarid qilish xarajatlarining 50 foizgacha bo‘lgan qismini Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi hisobidan qoplab berish (vaucher tizimi) mexanizmini yo‘lga qo‘yish tavsiya etiladi.

Xulosa qilib aytganda, taklif etilayotgan tashkiliy-iqtisodiy boshqaruv mexanizmining amaliyotga tatbiq etilishi kichik biznes subyektlarining tashqi xatarlarga bardoshliligini oshirishga, ularning yirik sanoat zanjirlariga integratsiyalashuviga hamda mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi sifat jihatidan yangi, innovatsion ulushining ko‘payishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston-2030" strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-sentabrdagi “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-306-son Qarori.

3. Schumpeter J.A. The Theory of Economic Development: An Inquiry into Profits, Capital, Credit, Interest, and the Business Cycle. - Harvard University Press, 1934. -255 p.

4. Drucker P.F. Innovation and Entrepreneurship: Practice and Principles. - New York: HarperBusiness, 2006. -288 p.

5. Porter M.E. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. - New York: Free Press, 1998. -592 p.

6. G‘ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. – T.: Sharq, 2002. -365 b.

7. Xodiyev B.Y., Qosimova M.S., Samadov A.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2010. -267 b.

8. Pardayev M.Q., Isroilov J.I. Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni tahlil qilish

metodologiyasi. Monografiya. – Samarqand: SamISI, 2019. -214 b.

9. OECD (2023), *SME and Entrepreneurship Outlook 2023*, OECD Publishing, Paris.

10. www.stat.uz- O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining 2020-2025-yillar bo‘yicha "O‘zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik" statistik to‘plamlari.

11. Кабилова Ш. ОРГАНИЗАЦИОННО-УПРАВЛЕНЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В МАЛОМ БИЗНЕСЕ (НА ПРИМЕРЕ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ) // Moliyaviy texnologiyalar ilmiy jurnali. Toshkent, 2026. №4, 38-42 betlar. *DOI: 10.5281/zenodo.21356488*.

12. Kabilova Sh. ISTE'MOLCHILARGA XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDAGI KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI: HUDUDIY DIFFERENSIATSIYA TAHLILI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA) // Agrobiznes, fan va texnologiyalar. №8, 2026. 80-86b. *DOI: 10.5281/zenodo.21853642*.

13. Kabilova Sh.J. KICHIK BIZNESDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-BOSHQARUV MEXANIZMI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA) // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali. Toshkent-2026. № 9. 295-300b. https://doi.org/10.5281/zenodo.22653529

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Kabilova Shahnoza Jurayevna Qarshi davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi / Кабилова Шахноза Жураевна Исследователь Каршинского государственного университета / Kabilova Shakhnoza Independent Researcher Karshi State University

E-mail: shshahnoza427@gmail.com

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.10.10.2026.43 *Moliya, kredit va investitsiya*

MILLIY INDEKS ETFINI YARATISH ORQALI O‘ZBEKISTON FOND BOZORIDA AHOLI ISHTIROKINI KENGAYTIRISH: XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI

Alikulov Azamat Tuygunovich

СОЗДАНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО ИНДЕКСНОГО ETF КАК ИНСТРУМЕНТ РАСШИРЕНИЯ УЧАСТИЯ НАСЕЛЕНИЯ НА ФОНДОВОМ РЫНКЕ УЗБЕКИСТАНА: ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ

Аликулов Азамат Туйгунович

CREATING A NATIONAL INDEX ETF TO EXPAND HOUSEHOLD PARTICIPATION IN UZBEKISTAN’S STOCK MARKET: INTERNATIONAL EXPERIENCE

Azamat Tuygunovich Alikulov

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston fond bozorida aholining investitsiyaviy ishtirokini kengaytirish maqsadida milliy aksiyalar indeksiga asoslangan birja investitsiya fondi — ETFni tashkil etish imkoniyatlari o‘rganilgan. Tadqiqotda xorijiy olimlarning ETFlarning diversifikatsiya, xarajatlar, chakana investorlar xulq-atvori va barqaror moliyalashtirishga ta’siriga oid ishlari, AQSH, Finlandiya, Hindiston hamda Qozog‘iston tajribasi qiyosiy tahlil qilingan. O‘zbekiston fond birjasining 2026-yil birinchi yarim yillik ko‘rsatkichlari, amaldagi investitsiya fondlari haqidagi qonunchilik va milliy indeksning xususiyatlari asosida birjada sotib olinishi mumkin bo‘lgan indeks portfeli uchun tashkiliy model taklif etilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, milliy indeks ETFini joriy etish uchun indeksdagi aksiyalarning real likvidligi, market-meyker ishtiroki, sof aktivlar qiymatini oshkor etish, fond xarajatlarining shaffofligi hamda aholi uchun qulay investitsiya kanallarini birgalikda shakllantirish talab qilinadi. Shuningdek, uchta shartli ssenariy bo‘yicha jamg‘armalarning fond bozoriga yo‘naltirilishi hisoblangan. Natijalar prognoz sifatida emas, taklif etilayotgan mexanizmning iqtisodiy miqyosini baholovchi model sifatida talqin etilgan.

Kalit so‘zlar: milliy indeks, ETF, fond bozori, chakana investor, diversifikatsiya, likvidlik, investitsiya fondi, kapital bozori.

Аннотация. В статье исследуются возможности создания биржевого инвестиционного фонда (ETF), отслеживающего национальный индекс акций, для расширения участия населения на фондовом рынке Узбекистана. На основе сравнительного анализа научной литературы и опыта США, Финляндии, Индии и Казахстана рассмотрены преимущества диверсификации, особенности поведения частных инвесторов и инфраструктурные ограничения ETF. С использованием опубликованных данных Ташкентской республиканской фондовой биржи за первое полугодие 2026 года и законодательства об инвестиционных и паевых фондах предложена модель инвестиционно доступного индекса и соответствующего фонда. Выявлено, что результативность ETF зависит не только от наличия фондового индекса, но и от ликвидности базовых активов, института маркет-мейкеров, прозрачного расчёта стоимости чистых активов, защиты инвесторов и снижения транзакционных расходов. Приведены условные сценарные расчёты возможного привлечения регулярных сбережений населения. Полученные оценки имеют модельный характер и не являются прогнозом доходности или объёма фактических инвестиций.

Ключевые слова: национальный индекс, ETF, фондовый рынок, частный инвестор, диверсификация, ликвидность, инвестиционный фонд, рынок капитала.

Abstract. This study examines the feasibility of introducing a national equity index exchange-traded fund (ETF) to broaden household participation in Uzbekistan’s stock market. It reviews academic evidence on ETF diversification, costs, retail investor behavior and sustainable finance, and compares experiences in the United States, Finland, India and Kazakhstan. Drawing on publicly reported first-half 2026 market indicators of the Tashkent Republican Stock Exchange and Uzbekistan’s investment fund legislation, the paper proposes an investable index and

ETF operating framework. The analysis indicates that an existing market index alone is insufficient: underlying-stock liquidity, market making, transparent net asset value calculation, effective investor protection and accessible distribution channels are also necessary. Three illustrative scenarios quantify the potential mobilization of household savings under explicitly stated assumptions. The scenarios are not forecasts and do not imply guaranteed returns. The article concludes with staged implementation recommendations and measurable indicators for evaluating the viability of a national index ETF.

Keywords: national index, exchange-traded fund, stock market, retail investors, diversification, liquidity, investment fund, capital market.

KIRISH

O‘zbekistonda kapital bozorini rivojlantirish borasida so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar korporativ qimmatli qog‘ozlarni muomalaga chiqarish, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining ochiqligini oshirish va jismoniy shaxslarni investitsiya jarayonlariga jalb qilish uchun yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Shunga qaramay, aholi jamg‘armalarining fond bozori orqali iqtisodiyotga yo‘naltirilishi hali keng ko‘lamli amaliyotga aylangan, deb aytish qiyin. Buning sabablaridan biri fond birjasidagi savdolarga kirayotgan shaxs uchun qaysi aksiya tanlanishi, tavakkalchilik qanday taqsimlanishi va sotib olingan qimmatli qog‘ozni zarur vaqtda sotish mumkinligi bilan bog‘liq savollarning murakkabligi bilan bog‘liq. Mazkur masalalar bo‘yicha oddiy va tushunarli investitsiya mahsulotining mavjud bo‘lishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Avvalgi tadqiqotlarimizda mamlakatdagi IPO jarayonlari hamda fond bozori savdo natijalari tahlil qilinib, likvidlikning cheklanganligi, korporativ shaffoflik va investorlarning xabardorlik darajasi bozor rivojiga ta’sir etuvchi omillar sifatida ko‘rsatilgan [1; 2]. Ushbu xulosalar milliy indeks ETFini tashkil etish g‘oyasining mantiqiy davomi hisoblanadi. Chunki IPOlar fond bozorida yangi qimmatli qog‘ozlar taklifini shakllantirsa, indeksga bog‘langan fond mazkur aksiyalarga bo‘lgan tarqoq talabni jamlash va chakana investor uchun kichik summalar orqali bir nechta emitentning natijasida qatnashish imkonini berishi mumkin.

ETF (Exchange-Traded Fund) birjada aksiyalar kabi sotib olinadigan va odatda oldindan belgilangan indeksning tarkibi hamda daromadliligini kuzatishga intiladigan investitsiya fondidir. Uning ulushini sotib olgan shaxs indeks tarkibidagi aksiyalarga bevosita egalik qilmaydi, balki ushbu portfelga ega fondning ulushiga nisbatan huquqqa ega bo‘ladi. Bu farq investorlarning mulkiy huquqi, dividendlarning taqsimlanishi va tavakkalchilikni to‘g‘ri tushunishda muhimdir [8; 11].

Maqolaning maqsadi — xorijiy ilmiy tadqiqotlar va amaliy tajriba asosida O‘zbekiston fond bozorining o‘ziga xos sharoitlarini hisobga oluvchi milliy indeks ETFini shakllantirish bo‘yicha iqtisodiy va institutsional mexanizm ishlab chiqishdir. Bunda uchta masalaga e’tibor qaratildi: birinchidan, ETFning aholi ishtiroki va investitsiya portfeliga ta’siri; ikkinchidan, milliy indeksdan amalda sotib olish mumkin bo‘lgan indeks portfeliga o‘tish; uchinchidan, fondni ishga tushirish bosqichlari, xarajatlari va nazorat ko‘rsatkichlarini aniqlash. Tadqiqot doirasida ETFning O‘zbekistonda aynan ushbu shaklda hozir faoliyat yuritayotgani haqidagi tasdiqlanmagan taxminlardan foydalanilmadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

ETFlarning iqtisodiy xususiyatlari xorijiy adabiyotlarda, odatda, uch yo‘nalishda o‘rganiladi: indeks investitsiyasining xarajat va diversifikatsiya afzalliklari, chakana investorlarning amaldagi xatti-harakati hamda birja fondlarining likvidlik va narx shakllanishiga ta’siri. M.I.Mazumder (2014) ETFni ochiq turdagi investitsiya fondiga xos portfel tuzilishi bilan birjada kun davomida oldi-sotdi qilinishi imkoniyatini birlashtiruvchi mahsulot sifatida ta’riflaydi. U vakolatli ishtirokchilar tomonidan ulushlar paketini yaratish va qaytarish tartibi fond ulushi narxini sof aktivlar qiymatiga yaqinlashtirishini ko‘rsatadi [8]. Shundan kelib chiqib, ETFning oddiy aksiyadan farqi faqat uning tarkibidagi bir nechta qimmatli qog‘ozda emas, balki narx muvozanatini ta’minlaydigan maxsus mexanizmga ham bog‘liqligi ayon bo‘ladi.

Nyukorong (2020) tadqiqotida ETFlarning xarajatlar nisbatan pastligi, ochiqligi va diversifikatsiya imkoniyatlari bilan bir qatorda, investorning maqsadi, tavakkalchilikka munosabati va investitsiya muddati ahamiyatli ekani ta’kidlangan [11]. Mazkur qarash O‘zbekiston uchun ham muhim: ETFni aholiga taklif etish o‘z-o‘zidan uning to‘g‘ri qo‘llanishini kafolatlamaydi. Agar investor fond ulushini tez-tez sotib-sotishga, bozorni oldindan topishga yoki qisqa davrdagi o‘sishni muntazam daromad sifatida baholashga moyil bo‘lsa, past boshqaruv xarajatlarining afzalligi brokerlik to‘lovlari hamda noto‘g‘ri savdo qarorlari ta’sirida kamayishi mumkin.

Wu, Westerholm va Wang (2026) Finlandiyadagi 524 181 nafar investorning 2007–2022-yillardagi ma’lumotlarini o‘rganib, ilk bor ETFdan foydalangan investorlarda riskni hisobga olgan daromadlilik yaxshilanishini aniqlagan. Ularning tahlilida OMXH25 indeksiga bog‘langan fond asosiy ETF sifatida olingan; kuzatilgan ijobiy natijalar riskning yo‘qolishini emas, balki portfelning nisbatan yaxshi diversifikatsiyalanganini va moliyaviy inqiroz davrlarida chidamliligini anglatadi [13]. Mazkur natijani mahalliy sharoitga mexanik ko‘chirish mumkin emas: Finlandiya bozori bilan O‘zbekiston bozorining likvidligi, investitsiya madaniyati va institutlari farq qiladi.

Atamanchuk, Qureshi va Weinberg (2025) tomonidan tayyorlangan AQSH Investitsiya kompaniyalari instituti (ICI) hisobotida ETFga egalik qiluvchi xonadonlar soni 2005-yilda 1,0 milliondan 2024-yilda 16,9 millionga yetgani, 2025-yil iyun oyida AQSH ETFlarining jami sof aktivlari 11,5 trillion dollarga teng bo‘lgani keltirilgan [3]. Hisobot ETF bozorining kengayishini xarajatlarning kamayishi,

moliyaviy maslahatchilar faoliyati, indeks investitsiyasiga o‘tish va sotib olish-sotish mexanizmining rivojlanishi bilan izohlaydi. Bunda ko‘lamning o‘zi universal natija emas, ETF ommaviylashishi uchun yaratilgan tashkiliy shartlarning muhimligi e’tiborga molik.

Marín-Rodríguez, González-Ruíz va Botero (2025) yashil va barqaror ETFlar haqidagi ilmiy ishlarga bibliometrik yondashib, ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) mezonlari fond strategiyasining alohida yo‘nalishiga aylanganini ko‘rsatadi. Mualliflar standartlarning bir xil emasligi, joriy etish xarajatlari va investorlar ta’limining yetarli bo‘lmasligini muhim cheklovlar sifatida qayd etgan [7]. Demak, O‘zbekistonda milliy ETFning dastlabki bosqichida asosiy vazifa — shaffof, xarajati o‘lchanadigan keng bozor portfelini yaratish. ESGga oid alohida indeksni joriy qilish esa emitentlar bo‘yicha ishonchli ma’lumotlar shakllangach keyingi bosqichda ko‘rib chiqilishi maqsadga muvofiq.

Amaliy xorijiy tajribada Hindiston va Qozog‘iston misollari alohida qiziqish uyg‘otadi. Hindiston Milliy fond birjasi ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatda Nifty 50 indeksini kuzatadigan ilk ETF 2002-yilda listingga chiqarilgan va shu orqali keng indeksni bitta birja instrumenti sifatida sotib olish imkoniyati yuzaga kelgan [10]. Qozog‘istonning KASE birjasi esa 2026-yil 10-apreldan mahalliy KASE indeksiga bog‘langan KASXf hamda pul bozori va davlat qimmatli qog‘ozlari indeksiga asoslangan MBM_f fondlari savdosini boshlagan; keyinroq BCC Invest ushbu fondlar uchun market-meyker maqomini olgan [5; 6]. Ushbu ikki tajriba fond indeksi, aktivlarni boshqaruvchi tashkilot va savdoni qo‘llab-quvvatlovchi ishtirokchi o‘rtasidagi aloqani institutsional jihatdan ko‘rsatib beradi.

Ko‘rib chiqilgan ilmiy ishlarda ETFlarning umumiy samarasi yetarlicha yoritilgan bo‘lsa-da, nisbatan past likvidlikdagi rivojlanayotgan fond bozorida mavjud kompozit indeksni chakana investor bevosita sotib olishi mumkin bo‘lgan indeks mahsulotiga aylantirish masalasi alohida o‘rganishni talab etadi. Mazkur maqolaning ilmiy-amaliy jihatdan yangiligi aynan shu bog‘liqlikni — indeks metodologiyasi, fond tuzilishi, likvidlikni ta’minlash va aholining kichik jamg‘armalarini jalb qilishni — yagona modelda ko‘rib chiqishdan iborat.

1-jadval.

ETF bo‘yicha asosiy xorijiy tadqiqotlar va O‘zbekiston uchun ahamiyati[154]

Muallif/manba	Asosiy natija	Mahalliy bozor uchun xulosa
Mazumder (2014) [8]	ETF ulushlarini yaratish/qaytarish narxni NAVga yaqinlashtiradi	Vakolatli ishtirokchi, depozitariy va bozor-meyker mexanizmi zarur
Nyukorong (2020) [11]	Investor maqsadi, risk va muddati natijaga ta’sir qiladi	Moliyaviy savodxonlik va xarajatlar oshkoraligi zarur
Wu va boshq. (2026) [13]	Finlandiyada 524 181 investor; ETF qo‘llanishida riskka moslangan natija yaxshilangan	Natijalar bozor infratuzilmasiga bog‘liq; mahalliy sinov talab etiladi
Atamanchuk va boshq. (2025) [3]	AQSHda 2024-yili ETFga ega 16,9 mln xonadon	Ommaviylik qulay tarqatish va arzon mahsulot bilan bog‘liq
Marín-Rodríguez va boshq. (2025) [7]	Barqaror ETFlar rivojlangan, ESG ma’lumotlarida cheklovlar bor	Yashil ETFni keyingi bosqichda, ishonchli ma’lumotga tayanib yaratish

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma’lumotlar va hujjatlar tahlili, qiyoslash, tavsifiy statistika, normativ-huquqiy tahlil, institutsional modellashtirish hamda ssenariy usullaridan foydalanildi. Ilmiy adabiyotlar ETFning ishlash tamoyillari va investorlar uchun keltiradigan natijalarini baholashga, AQSH, Finlandiya, Hindiston va Qozog‘iston tajribasi esa turli bozor sharoitlarida uning joriy etilish xususiyatlarini aniqlashga xizmat qildi. O‘zbekiston bo‘yicha empirik asos sifatida 2026-yil birinchi yarim yillik savdo ko‘rsatkichlari, mamlakat fond indeksiga oid ochiq axborot va “Investitsiya va pay fondlari to‘g‘risida”gi Qonun qoidalari olindi [4; 12].

Tadqiqotning cheklovi shundan iboratki, muallif ixtiyorida bozor ishtirokchilarining individual hisobvaraqlari, aksiyalar kesimidagi kundalik buyurtmalar chuqurligi, erkin muomaladagi aksiyalar soni va fondlar xarajatlarining auditdan o‘tgan to‘liq bazasi mavjud emas. Shu sababli maqolada ETF yaratishdan keyingi daromadlilik yoki aholi sonining o‘sishi bo‘yicha sababiy-ekonometrik baho berilmadi. Tavsiya etilgan ko‘rsatkichlar ilmiy asoslangan loyiha mezonlari, ssenariylar esa shartli hisob-kitoblar sifatida ifodalandi.

Investitsiya qilinadigan indeksning i-emitenti uchun dastlabki vazn erkin muomaladagi aksiyalar qiymatiga mos aniqlanishi mumkin: $w(i) = FFMC(i) / \Sigma FFMC(j)$. Bu yerda FFMC — erkin muomaladagi aksiyalar soni va ularning bozor narxi ko‘paytmasi. Bunday yondashuv bozor kapitallashuvi katta, lekin aksiyalarining asosiy qismi muomalaga chiqmagan kompaniyalarning indeksdagi ta’sirini cheklaydi. Hisoblangan vaznlar bir emitent va sektor bo‘yicha belgilangan yuqori chegaralar bilan qayta muvozanatlashtirilishi lozim. Mazkur formulalar amaldagi UCI hisoblash qoidasi sifatida emas, ETFga


[154] Manba: Muallif tomonidan ko‘rsatilgan xorijiy tadqiqotlar asosida tuzildi.

mos alohida investitsion indeks uchun muallif taklifi sifatida berilmoqda.

Fondning bir ulushga to‘g‘ri keluvchi sof aktivlar qiymati NAV(t) = [Σq(i,t)×P(i,t) + C(t) − L(t)] / N(t) orqali hisoblanadi. Bu yerda q — portfeldagi aksiyalar soni, P — baholash narxi, C — pul mablag‘lari, L — majburiyatlar, N — muomaladagi fond ulushlari soni. ETF narxining NAVdan og‘ishi d(t) = [P(ETF,t) − NAV(t)] / NAV(t) × 100 foiz ko‘rsatkich bilan baholanadi. Kuzatish xatosi esa fond va indeksning bir xil davriy daromadliliklari farqining standart og‘ishi orqali aniqlanishi mumkin. Mazkur ko‘rsatkichlar joriy etilgan fondning faoliyati davrida baholanadi; ular haqida hozirdanoq haqiqiy natija berish mumkin emas.

TAHLIL VA NATIJALAR

AQSH tajribasi fondning keng tarqalishi ko‘p yillik institutsional rivojlanish bilan bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. ICI ma’lumotlari asosida tayyorlangan 1-rasmga ko‘ra, ETFga ega xonadonlar soni 2005-yildagi 1 milliondan 2024-yilda 16,9 millionga yetgan. Shu bilan birga, AQSHning moliya bozori hajmi va daromadlar tarkibi O‘zbekistondan keskin farqlangani bois mazkur ko‘rsatkichlar aholi ishtirokining kelgusi sur’atlarini prognoz qilish uchun foydalanilmadi.



1-rasm. AQSHda ETFga egalik qiluvchi xonadonlar sonining o‘zgarishi[155], mln.

Finlandiya bo‘yicha o‘rganilgan ishning ahamiyatli jihati investitsiya mahsulotining bozor indeksini kuzatish bilan cheklanmasdan, individual investorning real portfelidagi risk va natijani hisobga olganidir [13]. O‘zbekiston uchun bu yondashuvdan kelib chiqadigan amaliy vazifa — ETF sotib olgan investorlar sonini alohida KPI sifatida qayd etish bilan birga ularning portfelni uzoq ushlab turishi, tranzaksiya xarajatlari va foydalanuvchi shikoyatlarini ham nazorat qilishdir.

Qozog‘iston tajribasining muhim jihati esa mahalliy indeksga bog‘langan fond ulushlari, fond boshqaruvchisi, birja listingi va bozor-meyker institutining bir mexanizmga birlashtirilganidir. KASE indeksini kuzatuvchi KASXf va konservativ aktivlarga yo‘naltirilgan MBM_f fondlari 2026-yil aprelida birja savdosiga chiqarilgan; ularning bozor-meykeri sifatida BCC Invest belgilangan [5; 6]. Bunda 2018-yildan KASEga aloqador xorijda ro‘yxatdan o‘tgan ETF tajribasi ham mavjud bo‘lgan, shuning uchun 2026-yildagi loyihani birjada ETF mutlaqo birinchi marta paydo bo‘ldi, deb emas, mahalliy KASE indekslari asosidagi yangi fondlar bosqichi sifatida baholash to‘g‘ri bo‘ladi.

Hindiston tajribasida esa indeksga bog‘langan mahsulotlar tizimli ravishda oddiy brokerlik infratuzilmasi bilan bog‘langan. Nifty 50 indeksini kuzatuvchi ilk ETFning 2002-yilda tashkil qilinishi va keyingi yillarda mahsulot turlarining kengayishi chakana investorni qimmatli qog‘ozlar savdosiga jalb qilish uchun indeksning tanish va tushunarli bo‘lishi ham muhimligini bildiradi [9; 10]. Shu bois O‘zbekiston uchun milliy indeks ETFini murakkab moliyaviy instrument emas, fond bozoriga bosqichma-bosqich kirish imkonini beruvchi sodda jamg‘arma mahsuloti sifatida tushuntirish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston sharoitida milliy ETFni joriy etish uchun mavjud UCI indeksini fond portfeliga avtomatik ko‘chirishdan ko‘ra, “UCI Investable” deb nomlanishi mumkin bo‘lgan, investitsiya qilishga yaroqli aksiyalar to‘plamini mustaqil metodologiya asosida shakllantirish taklif qilinadi. Mazkur nom va loyiha hozirgi rasmiy moliyaviy mahsulot emas, balki maqola doirasida ishlab chiqilgan taklifdir. Indeks tarkibiga kirish uchun aksiyalarning faol savdo kunlari ulushi, erkin muomala ko‘lami, ma’lumotlarning oshkor qilinishi va muomala cheklovlari tekshiriladi. Emitentning faqat kapitallashuvi katta bo‘lgani uning avtomatik ravishda ushbu indeksga kiritilishiga asos bo‘lmasligi lozim.

Dastlabki pilot loyihada, agar tanlash mezonlarini qanoatlantiruvchi yetarli emitent bo‘lsa, sakkiz-o‘n ikkita likvid aksiya bilan ish boshlash mumkin. Bir emitentning maksimal ulushini 20 foiz, bir sohaning

[155] Manba: ICI (2025) hisobotidagi 2-rasm ma’lumotlari asosida muallif tomonidan qayta tuzildi [3].

umumiy ulushini 35 foizdan oshirmaslik va vaznlarni chorakda bir marta qayta ko‘rib chiqish dastlabki taklif sifatida baholanadi. Ushbu parametrlar amaldagi normativ chegaralar emas; ularning maqbulligi tarixiy ma’lumotlar bo‘yicha qayta hisoblash va bozor ishtirokchilari bilan muhokamadan so‘ng aniqlanadi. Agar mavjud aksiyalar yuqoridagi mezonlardan o‘tmasa, mahsulotni sun’iy ravishda ishga tushirish o‘rniga uni yaratish uchun sharoit tayyorlash maqsadga muvofiq.

3-jadval.

O‘zbekistonda milliy indeks ETFini tashkil etish modeli[156]

Element	Taklif etilayotgan mexanizm	Kutilayotgan vazifa
Bazaviy indeks	Erkin muomaladagi kapitallashuv va likvidlik bo‘yicha “UCI Investable” pilot indeksi	Portfelni amalda takrorlash mumkinligini ta’minlash
Fondning huquqiy shakli	Investitsiya yoki pay fondiga oid mavjud huquqiy shakllarning mosligini ekspertizadan o‘tkazish	ETFga xos yaratish/qaytarish rejimini qonuniy aniqlash
Portfel chegarasi	Pilotda 8–12 emitent (talabga javob bersa); bir emitent ≤20%; sektor ≤35%	Konsentratsiya riskini cheklash
Fond boshqaruvi	Litsenziyali yoki vakolatli boshqaruvchi va alohida aktivlar hisobi	Manfaatlar to‘qnashuvi hamda operatsion riskni kamaytirish
Likvidlik	Kamida bir market-meyker; buyurtma hajmi va spred bo‘yicha shart	Investorning ikkilamchi bozordan chiqish imkoniyati
Baholash	Kunlik NAV, ochiq portfel tarkibi, imkon bo‘lsa intraday indikativ qiymat	Birja narxi va aktivlar qiymatini solishtirish
Yaratish/qaytarish	Dastlab pul orqali, infratuzilma tayyorlangach aktivlar savati bilan hisob-kitob	ETF narxini NAVga yaqinlashtirish
Chakana savdo	Oddiy broker ilovasi, kichik birlik narxi, xarajatlar pasporti	Aholining kichik jamg‘armalarini jalb etish

Huquqiy jihatdan 2015-yil 25-avgustdagi O‘RQ-392-son “Investitsiya va pay fondlari to‘g‘risida”gi Qonunda investitsiya fondi, pay fondi va investitsiya paylari tushunchalari, aktivlarni hisobga olish hamda axborotni oshkor etish talablari belgilangan [12]. Biroq mazkur qonunda ko‘rsatilgan investitsiya fondi va pay fondi mexanizmlari mavjudligining o‘zi bozor-meyker ishtirokida indeks ETF ulushlarini birjada uzluksiz yaratish va qaytarish bo‘yicha barcha talablar avtomatik tartibga solinganini anglatmaydi. Shuning uchun loyiha doirasida bozor operatori, vakolatli davlat organi, depozitariy, professional boshqaruvchi hamda brokerlar ishtirokida mahsulotning huquqiy va hisob-kitob rejimini alohida sinovdan o‘tkazish lozim.

Ikkinchi masala — ETF narxi bilan undagi aksiyalar qiymati o‘rtasidagi tafovut. Asosiy qimmatli qog‘ozlar likvidligi sust bo‘lsa, market-meyker kotirovkalari ham keng spred bilan shakllanishi mumkin; buning oqibatida fond ulushi indeksi o‘sgan paytda ham investor uchun savdo xarajatlari yuqori bo‘lib qoladi. Mazumder (2014) hamda ICI (2025) ishlarida qayd etilgan yaratilish va qaytarilish mexanizmi aynan shu muammoni yumshatishga qaratilgan [3; 8]. Shu bois milliy ETF rentabelligini uning indeksga yaqinligi, kunlik kotirovkalari, spredi va bozor-meyker faoliyati bilan birgalikda tahlil qilish zarur.

ETF tashkil etilishi bilan aholining fond bozoriga qancha mablag‘ kiritishini mavjud statistikadan bevosita hisoblab bo‘lmaydi. Biroq mahsulotning iqtisodiy ko‘lamini dastlabki baholash uchun muntazam kichik jamg‘armalarning to‘planishiga asoslangan shartli ssenariy tuzish mumkin. Hisoblash $A = n \times m \times 12$ formulasi orqali bajarildi: bunda n — yil davomida bir xil miqdorda mablag‘ yo‘naltiruvchi ishtirokchilar soni, m — har bir ishtirokchining oylik badali. Barcha ssenariylarda yil davomida mablag‘ kiritish uzluksiz davom etishi, mablag‘ni qaytarib olish, bozor narxining o‘zgarishi, dividend va komissiyalar hisobga olinmasligi faraz qilindi.

[156] Manba: Muallif taklifi; xalqaro tashkiliy yondashuvlar [3; 8] va O‘zbekiston qonunchiligi [12] asosida ishlab chiqildi.

4-jadval.

Milliy indeks ETFiga muntazam investitsiyalar bo‘yicha shartli ssenariylar[157]

Ssenariy	Investorlar soni	Oylik badal, so‘m	12 oylik jami, mlrd so‘m
Ehtiyotkor	2 000	100 000	2,4
Bazaviy	5 000	200 000	12,0
Kengayish	10 000	300 000	36,0

Jadvaldan ko‘rinadiki, bazaviy ssenariyda 5 ming nafar shaxsning oyiga 200 ming so‘mdan mablag‘ ajratishi 12 oy davomida 12 mlrd so‘m yalpi badal shakllanishini bildiradi. Aynan shuncha mablag‘ fondning sof aktivlari qiymati bo‘ladi, degan xulosa qilish to‘g‘ri emas: real qiymat qimmatli qog‘ozlar narxining o‘zgarishi, fondga kirish va chiqish, xarajatlar hamda to‘lov davriyligiga bog‘liq. Ushbu hisob-kitobning ilmiy-amaliy ahamiyati shundaki, fond bozoriga katta miqdordagi yagona investitsiya hisobidan emas, muntazam kichik badallar orqali ham talab shakllantirish imkoniyati mavjudligi ko‘rsatilmoqda.

Fond foydalanuvchilar uchun arzon hisoblanishi faqat past boshqaruv to‘loviga bog‘liq emas. Investorning yakuniy xarajati fondning yillik boshqaruv va boshqa operatsion xarajatlari ulushi, broker komissiyasi, hisobvaraqqa xizmat ko‘rsatish to‘lovi va savdo spredini qamrab oladi. Shu bois fondni ishga tushirishdan oldin barcha xarajatlar yagona “investor xarajatlari pasporti”da ko‘rsatilishi, turli ishtirok miqdori va ushlab turish muddatlari bo‘yicha oddiy misollar berilishi lozim. Likvidlik yetishmagan sharoitda arzonga boshqariladigan ETF ham savdoda qimmatga tushishi mumkinligi alohida tushuntirilishi zarur.

Olingan natijalar milliy indeks ETFini yaratishning asosiy foydasi investorlarning aksiyalarni mustaqil saralash jarayonini soddalashtirishida ekanini ko‘rsatadi. Biroq birjada sotiladigan bir nechta aksiyaning bitta fondga jamlanishi bozor riskini bartaraf etmaydi. Fond qiymati indeks tarkibidagi kompaniyalar faoliyati, makroiqtisodiy sharoit va bozor kayfiyatiga mos ravishda pasayishi mumkin. Bundan tashqari, bir tarmoq yoki yirik emitentlar indeksi egallab olgan sharoitda diversifikatsiya faqat nomigagina mavjud bo‘lib qoladi. Shu sababli indeks bo‘yicha erkin muomala ulushi va vazn chegaralari fond mahsulotidan oldin shakllantirilishi zarur.

Xorijiy tadqiqotlar bilan taqqoslaganda, Finlandiyada kuzatilgan riskka moslangan daromadlilikning yaxshilanishi [13] ETFning kuchli tomonlarini ko‘rsatadi, lekin O‘zbekistonda ham ayni darajadagi samara kuzatilishini asoslamaydi. Aksincha, bazaviy bozor ma’lumotlari aksiyalarning real likvidligi va narx shakllanishiga alohida e’tibor qaratish zarurligini bildiradi. Shu ma’noda KASEning market-meyker ishtirokiga tayanadigan modeli [6] aholi uchun kichik xaridlar va sotish jarayonlarini yo‘lga qo‘yishda AQSHdagi ulkan bozor miqyosidan ko‘ra amaliy jihatdan yaqinroq yo‘nalish hisoblanadi.

Barqaror investitsiyalar masalasida ham bosqichma-bosqich yondashuv ma’qul. ESG bo‘yicha maxsus talablarga javob beruvchi korxonalar haqidagi ma’lumotlar to‘liq bo‘lmagan sharoitda ilk ETFni “yashil” deb nomlash ilmiy va investor huquqlarini himoya qilish nuqtayi nazaridan o‘rinli bo‘lmaydi. Marín-Rodríguez va hammualliflari ko‘rsatganidek, barqaror ETFlar uchun ma’lumotlarning solishtirilishi va baholash mezonlarining oshkoraligi muhim [7]. Keyingi bosqichda xolis korporativ ma’lumotlar yetarli bo‘lgach, milliy indeksning barqaror rivojlanish mezonlariga asoslangan alohida variantini ishlab chiqish mumkin.

Tadqiqot doirasida shakllantirilgan modelning eng muhim cheklovi — fondning likvidlik ehtiyoji bilan bazaviy aksiyalarning muomala chuqurligi o‘rtasidagi bog‘liqlikdir. Agar bozor-meykerning sotib olish va sotish majburiyati hamda fond ulushlarini NAVga yaqinlashtirish mexanizmi ishlamasa, aholi uchun qulay ko‘ringan mahsulot narx tafovutini kuchaytirishi mumkin. Shu sababli ETFni joriy etish bo‘yicha qaror taqdimotlar yoki xorijiy tajribadagi o‘sish ko‘rsatkichlari asosida emas, pilot davridagi narx og‘ishi, spred va buyurtmalarni bajarish ulushi kabi amaliy mezonlar bo‘yicha qabul qilinishi lozim.

Mazkur ish indeksli investitsiyaning mavjud bozor uchun tashkiliy modelini taklif etadi, ammo aholi xulq-atvoriga sababiy ta’sirini empirik o‘lchamaydi. Kelgusi tadqiqotlarda eksperimental investitsiya dasturlari, brokerlarning anonimlashtirilgan foydalanuvchi ma’lumotlari, aksiyalar kesimidagi savdo hajmlari va investorlar so‘rovnomalari asosida fondga kirish motivlari hamda tavakkalchilik ko‘rsatkichlarini chuqurroq baholash mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan tahlillar O‘zbekiston fond bozorida milliy indeks ETFini joriy etish aholi jamg‘armalarini kapital bozoriga jalb qilishning istiqbolli mexanizmlaridan biri bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatdi. Mazkur instrument alohida aksiyalarni tanlash bilan bog‘liq axborot va tashkiliy to‘siqlarni kamaytirishi, kichik summalardagi mablag‘larni diversifikatsiyalangan portfelga yo‘naltirish imkonini yaratishi mumkin. Biroq indeksning mavjudligi, birja savdolarining o‘sishi yoki xorijiy ETFlarning muvaffaqiyati mahalliy fondda avtomatik ravishda yuqori daromadlilik shakllanishini kafolatlamaydi.

Birinchidan, Toshkent Respublika fond birjasi doirasida erkin muomaladagi aksiyalar qiymati va kundalik likvidlikka asoslangan investitsiya qilishga yaroqli milliy indeks metodologiyasini ishlab chiqish

[157] Manba: Muallifning shartli hisob-kitobi. Bu ma’lumotlar statistik prognoz emas; fond qiymatining o‘sishi yoki investitsiya daromadini anglatmaydi.

zarur. UCI axborot indikatorini to‘g‘ridan to‘g‘ri takrorlash o‘rniga, birinchi navbatda amalda sotib olinishi mumkin bo‘lgan aksiyalar savati aniqlanishi kerak. Indeks tarkibi, emitent va sektor limitlari hamda qayta muvozanatlashtirish qoidalari ochiq e’lon qilinishi lozim.

Ikkinchidan, investitsiya va pay fondlari to‘g‘risidagi amaldagi qonunchilik hamda birja hisob-kitob tizimi doirasida ETFning huquqiy shakli, fond ulushlarini yaratish va qaytarish mexanizmi, aktivlarni saqlash va investorlarga axborot oshkor qilish tartibi bo‘yicha alohida tartibiy ekspertiza o‘tkazish maqsadga muvofiq. Xalqaro tajribani o‘zlashtirish milliy qonunchilik talablariga mos keladigan amaliy yechimlar ishlab chiqish bilan birga olib borilishi kerak.

Uchinchidan, milliy indeks ETFining dastlabki savdolarini market-meyker ishtirokida cheklangan pilot shaklida yo‘lga qo‘yish, NAV va savdo narxi o‘rtasidagi og‘ishlarni muntazam e’lon qilib borish tavsiya etiladi. Pilotni baholashda fond ulushlarining kunlik savdo hajmi, o‘rtacha spred, NAVdan og‘ish, indeksni kuzatish xatosi hamda investorlarning fondni uzoq muddat ushlab turish ko‘rsatkichlaridan foydalanish mumkin.

To‘rtinchidan, aholining bozorga kirishini kengaytirishda oddiy mobil brokerlik interfeysi, kichik nominaldagi ulushlar va xarajatlarning to‘liq ko‘rsatilishi bilan bir qatorda moliyaviy savodxonlik dasturlarini kuchaytirish lozim. Investor ETFni kafolatlangan daromadli omonat bilan tenglashtirmasligi, fond narxi pasayishi, sotish vaqtida narx tafovutlari yuzaga kelishi mumkinligini yaxshi bilishi kerak.

Beshinchidan, milliy indeks ETFining amaliy natijalari bo‘yicha yetarli kuzatuv ma’lumotlari yig‘ilgach, sektor indekslari va barqaror rivojlanish mezonlariga asoslangan fondlar yaratish masalasi ko‘rib chiqilishi mumkin. Natijada indeks investitsiyasi aholining fond bozoridagi ishtirokini kengaytirish, jamg‘armalarni korporativ sektor tomon yo‘naltirish va bozor infratuzilmasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi izchil mexanizmga aylanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Alikulov, A. T. (2025). O‘zbekistonda IPOlarni tashkil etish jarayonlari tahlili. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 9, 518–521. https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

2. Alikulov, A. T. (2025). Analysis of stock market trading results in Uzbekistan. Science and Innovation, 4(11), 21–26. https://doi.org/10.5281/zenodo.17606350

3. Atamanchuk, I., Qureshi, H., & Weinberg, J. (2025). A close look at exchange-traded funds and their investors. ICI Research Perspective, 31(7). https://www.ici.org/files/2025/per31-07.pdf

4. Interfax. (2026, August 4). Tashkent Stock Exchange sees trading volume drop 42.2% in H1. https://interfax.com/newsroom/top-stories/118598/

5. Kazakhstan Stock Exchange. (2026, April 9). Starting from April 10, trading in ETF KZPF00000983 (KASXf) and KZPF00000991 (MBM_f) will open on KASE. https://kase.kz/en/information/news/show/1563992

6. Kazakhstan Stock Exchange. (2026, April 14). BCC Invest is assigned the status of a market maker on KASE for KASXf and MBM_f ETFs. https://kase.kz/en/information/news/show/1564267

7. Marín-Rodríguez, N. J., González-Ruíz, J. D., & Botero, S. (2025). Towards new strategies for investing: Insights on sustainable exchange-traded funds (ETFs). World, 6(1), Article 8. https://doi.org/10.3390/world6010008

8. Mazumder, M. I. (2014). Investing in exchange traded funds. Applied Finance Letters, 3(2), 16–23.

9. National Institute of Securities Markets. (2023). Understanding ETF. https://www.nism.ac.in/revamp-nism/understanding-etf/

10. National Stock Exchange of India. (n.d.). About ETFs. https://www.nse.in/static/products-services/about-etfs

11. Nyukorong, R. (2020). Exchange-traded funds: What you need to know? European Scientific Journal, 16(19), 1–27. https://doi.org/10.19044/esj.2020.v16n19p1

12. O‘zbekiston Respublikasi. (2015, 25-avgust; 2026-yilgi tahrir). “Investitsiya va pay fondlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-392-son Qonun. https://lex.uz/uz/acts/-2731863

13. Wu, Z., Westerholm, P. J., & Wang, Z. (2026). Diversification or distortion? The role of ETFs in retail investor portfolios and performance. Journal of Financial Stability, 83, 101514. https://doi.org/10.1016/j.jfs.2026.101514

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Alikulov Azamat Tuygunovich Axborot texnologiyalari va menejment universiteti, “Iqtisodiyot” kafedrasi mudiri, DSc, dotsent / Аликулов Азамат Туйгунович — заведующий кафедрой «Экономика» Университета информационных технологий и менеджмента, DSc, доцент / Azamat Tuygunovich Alikulov — Head of the Economics Department, University of Information Technologies and Management, DSc, Associate Professor

E-mail: azamat1441@mail.ru

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.10.10.2026.44 *Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik*

KICHIK BIZNESDA INTEGRAL XAVF INDEKSI ASOSIDA ERTA OGOHLANTIRISH TIZIMI

Muxammadsidiqov Otabek Dilshodbek o‘g‘li

СИСТЕМА РАННЕГО ПРЕДУПРЕЖДЕНИЯ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАЛЬНОГО ИНДЕКСА РИСКА В МАЛОМ БИЗНЕСЕ

Мухаммадсидиков Отабек Дилшодбек угли

AN EARLY WARNING SYSTEM BASED ON AN INTEGRATED RISK INDEX IN SMALL BUSINESSES

Muxammadsidiqov Otabek Dilshodbek o‘g‘li

Annotatsiya. Maqolada kichik biznes subyektlarida moliyaviy diagnostika natijalarining boshqaruv qarorlari bilan bog‘lanmay qolayotgani muammosi tahlil qilingan. Muallif tomonidan “moliyaviy ma’lumot – indikator – integral baho – xavf signali – boshqaruv qarori – qayta monitoring” zanjiriga asoslangan erta ogohlantirish tizimi, ko‘rsatkichlarni qiyoslash guruhi medianasi va kvartillararo oralig‘i bo‘yicha standartlashtirishga asoslangan integral xavf indeksi hamda xavf chegaralarini tarmoq, ko‘lam va hayotiy sikl bosqichi bo‘yicha tabaqalashtirish yondashuvi ishlab chiqilgan. Indeksni nisbiy baho va mutlaq kritik qoidalar bilan to‘ldiruvchi ikki qatlamli signal mexanizmi hamda xavf darajasi va manbasiga mos antikrizis qarorlari matritsasi taklif etilib, ularning qo‘llanilishi mehmonxona korxonalari ma’lumotlari asosida sinovdan o‘tkazilgan.

Kalit so‘zlar: erta ogohlantirish tizimi, integral xavf indeksi, robast standartlashtirish, xavf chegaralari, tabaqalashtirish, xavf signali, antikrizis boshqaruv, qarorlar matritsasi.

Аннотация. В статье проанализирована проблема отсутствия связи результатов финансовой диагностики субъектов малого бизнеса с управленческими решениями. Автором разработаны система раннего предупреждения, основанная на цепочке «финансовые данные – индикатор – интегральная оценка – сигнал риска – управленческое решение – повторный мониторинг», интегральный индекс риска на основе стандартизации показателей по медиане и межквартильному размаху группы сравнения, а также подход к дифференциации порогов риска по отрасли, масштабу и стадии жизненного цикла. Предложены двухуровневый механизм сигналов, дополняющий относительную оценку индекса абсолютными критическими правилами, и матрица антикризисных решений по уровню и источнику риска; их применение апробировано на данных гостиничных предприятий.

Ключевые слова: система раннего предупреждения, интегральный индекс риска, робастная стандартизация, пороги риска, сигнал риска, антикризисное управление, матрица решений.

Annotation. The article analyzes the problem of the lack of connection between the results of financial diagnostics of small business entities and management decisions. The author develops an early warning system based on the chain “financial data – indicator – integral assessment – risk signal – management decision – re-monitoring”, an integral risk index based on standardizing indicators by the median and interquartile range of the peer group, and an approach to differentiating risk thresholds by industry, size and life cycle stage. A two-layer signal mechanism that complements the relative index assessment with absolute critical rules and a matrix of anti-crisis decisions by risk level and source are proposed; their application is tested on data from hotel enterprises.

Keywords: early warning system, integral risk index, robust standardization, risk thresholds, risk signal, anti-crisis management, decision matrix.

KIRISH

Kichik biznes subyektlarida moliyaviy tahlil ko‘pincha koeffitsiyentlarni hisoblash bilan yakunlanadi. Hisoblangan ko‘rsatkichlar korxonaning mavjud holatini tavsiflaydi, biroq ular qaysi chegaradan boshlab xavf signali hisoblanishi, signal qanday boshqaruv qarorini talab qilishi va qaror natijasi qanday tekshirilishi aniq belgilanmagan bo‘ladi. Natijada diagnostika axborot yig‘ish vositasi sifatida qolib, inqirozning oldini olish funksiyasini bajarmaydi.

Ikkinchi muammo chegaraviy qiymatlarning universalligi bilan bog‘liq. Moliyaviy tahlil adabiyotlarida joriy likvidlik yoki moliyaviy mustaqillik uchun barcha korxonalarga bir xil “normativ” qiymatlar tavsiya etiladi. Holbuki, asosiy vositalar ulushi yuqori bo‘lgan mehmonxona, tovar zaxiralari katta bo‘lgan savdo korxonasi va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar

uzoq davom etadigan qurilish subyekti uchun bir xil koeffitsiyent turlicha iqtisodiy mazmunga ega. Kichik biznes subyektlarida esa bu muammo korxonaning hayotiy sikl bosqichi bilan yanada murakkablashadi: faoliyatini endigina boshlagan korxonadagi past rentabellik investitsiya bosqichining tabiiy natijasi bo‘lishi, yetuk korxonada esa bozor mavqeyi zaiflashuvining belgisi bo‘lishi mumkin.

Maqolaning maqsadi kichik biznes subyektlari uchun diagnostika natijasini boshqaruv qarori bilan bog‘lovchi, xavf chegaralarini korxona xususiyatlariga moslashtiruvchi erta ogohlantirish tizimini ishlab chiqish va uning qo‘llanilishini amaliy ma’lumotlarda ko‘rsatishdan iborat. Tadqiqot tadbirkorlik barqarorligini oshirish bo‘yicha davlat siyosati ustuvorliklari [1], to‘lovga qobiliyatsizlik holatlarini tartibga soluvchi qonunchilik [2] va moliyaviy hisobotlarning ishonchliligiga qo‘yiladigan talablar [3] doirasida amalga oshirildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Erta ogohlantirish tizimlarining nazariy asoslari “signallar yondashuvi”da shakllangan bo‘lib, unda indikatorning odatiy holatdan chetlanishi oldindan belgilangan chegaradan oshganda signal beriladi va chegaralar noto‘g‘ri signal hamda o‘tkazib yuborilgan hodisalar nisbatini minimallashtirish asosida tanlanadi [7]. Ushbu yondashuv makroiqtisodiy inqirozlar uchun ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, uning “indikator – chegara – signal” mantiqi korxona darajasida ham qo‘llanilishi mumkin. E.Altman bir nechta koeffitsiyentni vaznlangan integral bahoga birlashtirishning klassik namunasini taklif etgan [4], biroq model koeffitsiyentlari muayyan tanlanmaga xos bo‘lib, boshqa tarmoq va mamlakatga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirilganda aniqlik pasayadi [5].

Risklarni boshqarish standartlarida risklarni baholash natijalarini javob choralari, monitoring va qayta ko‘rib chiqish jarayonlari bilan uzviy bog‘lash talabi qo‘yiladi [8; 9]. Yu.A.Shirokova kichik va o‘rta biznesda risklarni aniqlash va ularga qarshi choralarni moliyaviy rejalashtirish jarayoniga integratsiya qilishni taklif etgan [14]. D.V.Brizgalov esa kichik korxonalarda risklarni boshqarish funksiyasi ko‘pincha faqat rahbar zimmasida bo‘lishini, shu sababli tizim tashkiliy jihatdan sodda bo‘lishi kerakligini ko‘rsatgan [12]. M.F.Lipchinskaya kichik korxonalar moliyaviy risklarini integral, umumlashtiruvchi va xususiy risklarga ajratib, ularning o‘zaro bog‘liqligini o‘rgangan [13]. I.Adizes korxona hayotiy siklining har bir bosqichi o‘ziga xos muammolar va moliyaviy xususiyatlarga ega ekanini asoslagan [6], J.Zainol Abidin esa mehmonxona sohasidagi kichik korxonalar muvaffaqiyatsizligini modellashtirishda tarmoq xususiyatlarini alohida hisobga olish zarurligini ko‘rsatgan [10]. G.X.Kaypnazarova esa kichik biznes korxonalarida ishlab chiqarish omillari mutanosibligining tarmoq xususiyatlariga bog‘liqligini aniqlagan [11].

Shunday qilib, adabiyotlarda integral baholash, chegaraviy signallar va risklarga javob choralari alohida-alohida ishlab chiqilgan. Ularni kichik biznesning cheklangan axborot sharoitiga moslashtirilgan, chegaralarni korxona xususiyatlariga ko‘ra tabaqalashtiruvchi va signalni aniq qaror bilan bog‘lovchi yagona tizimga birlashtirish masalasi hal etilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli yondashuv, iqtisodiy-matematik modellashtirish, robast statistik standartlashtirish, guruhlash, matritsali tahlil va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Taklif etilgan indeksning qo‘llanilishi Andijon viloyatidagi to‘rtta mehmonxona korxonasining 2023-2024-yillar moliyaviy hisobotlari asosida sinovdan o‘tkazildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Taklif etilayotgan tizim oltita ketma-ket bosqichdan iborat bo‘lib, oxirgi bosqich tizimni yopiq siklga aylantiradi (1-jadval).

1-jadval.

Kichik biznes subyektlarida erta ogohlantirish tizimining bosqichlari[158]

Bosqich	Asosiy vazifasi	Natija	Mas’ul funksiya
1. Moliyaviy ma’lumot	Hisobotlarni yig‘ish, tekshirish, takroriy va nomuvofiq qiymatlarni aniqlash	Ishonchli korxona-yil bazasi	Buxgalter
2. Indikator	Likvidlik, rentabellik, kapital tarkibi, qarz yuki, faollik ko‘rsatkichlarini hisoblash	Indikatorlar tizimi	Buxgalter / tahlilchi
3. Integral baho	Standartlashtirish va vaznlangan umumlashtirish	Integral xavf indeksi	Tahlilchi
4. Xavf signali	Indeksni tabaqalashtirilgan chegaralar va kritik qoidalar bilan solishtirish	Xavf zonasi va asosiy manbasi	Tahlilchi
5. Boshqaruv qarori	Xavf darajasi va manbasiga mos chorani tanlash	Tasdiqlangan chora-tadbir	Rahbar
6. Qayta monitoring	Chora natijasini yangilangan indikatorlar orqali baholash	Yangilangan xavf holati	Rahbar / buxgalter

[158] Manba: muallif ishlanmasi.

Tizimning birinchi bosqichi – ma’lumotlar sifatini tekshirish – majburiy deb belgilangan, chunki amaliy hisobotlarda bir yilga oid bir nechta nusxa, oldingi davr ustunlaridagi tafovutlar va nol qiymatli balanslar uchraydi. Bunday ma’lumotlar asosida hisoblangan har qanday indeks noto‘g‘ri signal beradi.

Indikatorlar turli o‘lchov birliklariga ega bo‘lgani va kichik biznes ma’lumotlarida keskin anomal qiymatlar (masalan, tushum deyarli nolga tushganda minglab foizlik marja) uchragani sababli an’anaviy o‘rtacha va standart chetlanishga asoslangan standartlashtirish barqaror natija bermaydi. Shu sababli ko‘rsatkichlarni qiyoslash guruhi medianasi va kvartillararo oralig‘i bo‘yicha robast standartlashtirish taklif etiladi:

$$z(ij,t) = s(j) \times (X(ij,t) - Med(j,t)(g)) / IQR(j,t)(g), \quad -3 \le z(ij,t) \le 3, \quad (1)$$

bu yerda: X(ij,t) – i-korxonaning t-davrdagi j-indikatori qiymati; Med(j,t)(g) va IQR(j,t)(g) – g-qiyoslash guruhida indikatorning medianasi va kvartillararo oralig‘i; s(j) – xavf yo‘nalishi belgisi (indikatorning o‘sishi xavfni kamaytirsa s(j) = –1, oshirsa s(j) = +1). Standartlashtirilgan qiymatlar [–3; 3] oralig‘ida cheklanadi. Bunday ko‘rinishda z(ij,t) > 0 korxona guruh medianasiga nisbatan xavfliroq holatda ekanini, uning kattaligi esa chetlanishning IQR birliklaridagi o‘lchamini bildiradi.

Integral xavf indeksi standartlashtirilgan qiymatlarning vaznlangan yig‘indisi sifatida aniqlanadi:

$$I(i,t) = \Sigma\, w(j) \times z(ij,t), \quad w(j) \ge 0, \quad \Sigma\, w(j) = 1, \quad (2)$$

bu yerda: w(j) – j-indikatorning vazni. Dastlabki bosqichda, mustaqil natijaviy ma’lumotlar bo‘lmagan sharoitda, teng vaznlardan foydalanish va o‘zaro kuchli bog‘liq ko‘rsatkichlardan faqat bittasini indeksga kiritish tavsiya etiladi. Masalan, moliyaviy mustaqillik va majburiyatlar ulushi balans tenglamasi orqali bir-birini to‘ldirgani sababli ularning ikkalasini kiritish kapital tarkibi ta’sirini ikki marta hisoblashga olib keladi. Indeksning muhim xususiyati – uni indikatorlar hissasiga ajratish mumkinligi: w(j) × z(ij,t) qiymati signalning qaysi manbadan shakllanganini ko‘rsatadi va boshqaruv qarorini tanlashga asos bo‘ladi.

Integral indeks to‘rtta xavf zonasiga ajratiladi:

$$R(i,t) = R1, \text{ agar } I(i,t) < \tau1(g); \quad R2, \text{ agar } \tau1(g) \le I(i,t) < \tau2(g);$$
$$R3, \text{ agar } \tau2(g) \le I(i,t) < \tau3(g); \quad R4, \text{ agar } I(i,t) \ge \tau3(g), \quad (3)$$

bu yerda: R1 – barqaror, R2 – ogohlantiruvchi, R3 – inqiroz oldi, R4 – inqiroz holati; τ1(g), τ2(g), τ3(g) – g-qiyoslash guruhi uchun belgilanadigan chegaralar. Tabaqalashtirish ikki darajada amalga oshiriladi: birinchidan, standartlashtirishning o‘zi qiyoslash guruhi ichida bajariladi; ikkinchidan, chegaralar har bir guruh uchun alohida kalibrlanadi. Qiyoslash guruhlarini shakllantirish mezonlari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval.

Xavf chegaralarini tabaqalashtirish mezonlari[159]

Mezon	Hisobga olinadigan xususiyat	Diagnostik ko‘rsatkichlarga ta’siri	Tavsiya etiladigan yondashuv
Iqtisodiy faoliyat turi	Aktivlar tarkibi, tushum va xarajatlar shakllanishi	Likvidlik, rentabellik va aylanish koeffitsiyentlari tarmoqlarda farqlanadi	Tarmoq bo‘yicha qiyoslash guruhi
Korxona ko‘lami	Aktivlar, tushum, xodimlar soni	Moliyalashtirish va xarajatlar tarkibi farqlanadi	Ko‘lam guruhlarini ajratish
Hayotiy sikl bosqichi	Boshlang‘ich, o‘sish, barqarorlashish, pasayish	Rentabellik, investitsiya ehtiyoji va qarz yuki o‘zgaradi	Bosqichga mos talqin, rentabellik vazniga tuzatish
Kuzatuv davri	Mavsumiylik va iqtisodiy sharoitlar	Ayrim indikatorlar davriy tebranadi	Yillik yoki mavsumiy moslashtirilgan qiymatlar
Ma’lumotlar sifati	Hisobotlarning to‘liqligi va ishonchliligi	Indeks va signal aniqligiga ta’sir qiladi	Sifat past bo‘lsa, signal “tasdiqlanmagan” deb belgilanadi

[159] Manba: muallif ishlanmasi.

Barcha mezonlarni bir vaqtda kesishtirish juda ko‘p kichik guruhlar hosil qilib, har birida kuzatuvlar soni yetarli bo‘lmay qolishiga olib keladi. Shu sababli guruhlarni ierarxik tarzda shakllantirish taklif etiladi: asosiy guruh faoliyat turi bo‘yicha tuziladi, ko‘lam va hayotiy sikl esa guruhdagi kuzatuvlar soni yetarli bo‘lgan taqdirdagina qo‘shimcha ajratish mezoni sifatida qo‘llanadi, aks holda ular indeks talqinida tuzatuvchi omil sifatida hisobga olinadi.

Robast standartlashtirish korxonani guruhdoshlariga nisbatan baholaydi, ya’ni u nisbiy ko‘rsatkichdir. Agar guruhdagi ko‘pchilik korxonalar zaif bo‘lsa, nisbiy baho alohida korxonaning mutlaq xavfini kamaytirib ko‘rsatishi mumkin. Bu kamchilikni bartaraf etish uchun indeksni mutlaq kritik qoidalar bilan to‘ldirish taklif etiladi: xususiy kapitalning manfiy qiymatga o‘tishi, joriy likvidlik koeffitsiyentining birdan pastligi bilan birga sof zarar yoki tushumning yarmidan ko‘proq qisqarishi aniqlansa, korxona indeks qiymatidan qat’i nazar kamida R3 (inqiroz oldi) zonasiga o‘tkaziladi. Natijada signal ikki qatlamda shakllanadi: birinchi qatlam (indeks) xavf darajasini guruh ichida tartiblaydi, ikkinchi qatlam (kritik qoidalar) mutlaq xavfli holatlar o‘tkazib yuborilmasligini kafolatlaydi.

Taklif etilgan indeksning qo‘llanilishi to‘rtta mehmonxona korxonasining 2024-yil ma’lumotlari asosida ko‘rsatildi. Indeksga uchta indikator teng vazn (w = 1/3) bilan kiritildi: sof foyda marjasi, moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti va sof tushumning oldingi yilga nisbatan o‘zgarishi. Anomal qiymat ta’sirini cheklash uchun sof foyda marjasi standartlashtirishdan oldin [–100; 100] foiz oralig‘ida chegaralandi. Guruh medianalari mos ravishda 5,84 %, 33,34 % va –13,23 %, kvartillararo oraliqlar esa 38,41, 26,84 va 47,11 foiz punktni tashkil etdi (3-jadval).

3-jadval.

Mehmonxona korxonalari bo‘yicha integral xavf indeksining sinov hisob-kitobi (2024-yil)[160]

Korxona	Sof foyda marjasi, %	Moliyaviy mustaqillik, %	Tushum o‘zgarishi, %	z1	z2	z3	I(i)
HOTEL AZIA FERGANA	27,01	95,44	–0,68	–0,55	–2,31	–0,27	–1,04
VELLA ELEGANT	1,40	30,05	–25,78	0,12	0,12	0,27	0,17
ASMALD HOTEL	10,28	36,64	+15,34	–0,12	–0,12	–0,61	–0,28
GRAND YULDUZ HOTEL	–1 290,52	7,87	–97,81	2,76	0,95	1,80	1,83

Hisob-kitob natijalariga ko‘ra, korxonalar xavf darajasi bo‘yicha quyidagicha tartiblandi: GRAND YULDUZ HOTEL (I = 1,83), VELLA ELEGANT (0,17), ASMALD HOTEL (–0,28) va HOTEL AZIA FERGANA (–1,04). GRAND YULDUZ HOTEL indeksida sof foyda marjasining hissasi 0,92 ni, tushum qisqarishining hissasi 0,60 ni, moliyaviy mustaqillikning hissasi 0,32 ni tashkil etdi. Demak, korxonadagi xavfning asosiy manbasi kapital tarkibi emas, balki daromad shakllanishining deyarli to‘xtashidir. VELLA ELEGANT indeksi musbat bo‘lib, uning taxminan yarmi (0,09) tushumning qisqarishi hisobiga shakllangan. Bu natija korxonada sof foyda musbat bo‘lishiga qaramay, ogohlantirish signali berilishi kerakligini tasdiqlaydi.

Dastlabki sinov uchun shartli chegaralar $\tau1 = 0$, $\tau2 = 0,5$ va $\tau3 = 1,0$ qabul qilinganda HOTEL AZIA FERGANA va ASMALD HOTEL R1 (barqaror), VELLA ELEGANT R2 (ogohlantiruvchi), GRAND YULDUZ HOTEL esa R4 (inqiroz) zonasiga tushadi. Ushbu chegaralar statistik kalibrlangan emas va faqat mexanizmning ishlashini ko‘rsatish uchun qo‘llangan. Shuningdek, sinov guruhining kichikligi (n = 4) kvartillararo oraliqni beqaror qiladi: amaliyotda bir qiyoslash guruhida kamida 20-30 ta kuzatuv bo‘lishi maqsadga muvofiq. ASMALD HOTEL misoli nisbiy baholashning cheklovini ham ko‘rsatadi: korxona aktivlarining 63,36 foizi majburiyatlar hisobidan moliyalashtirilgan bo‘lsa-da, guruh medianasiga yaqinligi sababli barqaror zonaga tushgan. Aynan shunday holatlar uchun ikkinchi qatlam – qarzga xizmat ko‘rsatish salohiyati bo‘yicha qo‘shimcha kuzatuv – zarur.

Xavf signalining amaliy qiymati u bilan bog‘langan boshqaruv qarorida namoyon bo‘ladi. Taklif etilayotgan matritsada xavf darajasi choralarning tezkorligi va ko‘lamini, xavf manbasi (indeksga eng katta hissa qo‘shgan indikator) esa ularning mazmunini belgilaydi (4-jadval).

[160] Manba: korxonalar moliyaviy hisobotlari asosida muallif hisob-kitoblari. Izoh: z1, z2, z3 – mos ravishda sof foyda marjasi, moliyaviy mustaqillik va tushum o‘zgarishining (1)-formula bo‘yicha standartlashtirilgan qiymatlari.

4-jadval.

Xavf darajasi va manbasiga mos antikrizis boshqaruv qarorlari matritsasi[161]

Xavf manbasi	R2 – ogohlantiruvchi	R3 – inqiroz oldi	R4 – inqiroz
Likvidlik	Debitorlik qarzlari tarkibini tahlil qilish, pul oqimlari rejasini aniqlashtirish	Undirishni kuchaytirish, to‘lovlar jadvalini qayta rejalashtirish	Eng zarur to‘lovlarni ajratish, kreditorlar bilan muzokaralar
Rentabellik	Xarajatlar va xizmatlar rentabelligini tahlil qilish	Zarar keltiruvchi yo‘nalishlarni qayta ko‘rib chiqish, xarajatlarni optimallashtirish	Faoliyat tarkibini qayta tashkil etish
Tushum (faoliyat hajmi)	Talab va mijozlar tarkibini o‘rganish	Sotish kanallari va narx siyosatini qayta ko‘rib chiqish	Faoliyatning iqtisodiy maqbulligini baholash
Qarz yuki va kapital	Moliyalashtirish shartlarini kuzatish	Qarz to‘lovlarini muvofiqlashtirish, yangi qarzni cheklash	Kapitalni to‘ldirish, qarzni qayta tuzish
Ma’lumotlar sifati	Hisobotlarni muvofiqlashtirish	Mustaqil tekshiruv	Signal tasdiqlanguncha qarorlarni to‘xtatib turish

Matritsaning asosiy afzalligi shundaki, bir xil xavf zonasiga tushgan korxonalarga turli choralar tavsiya etiladi. Masalan, sinov hisob-kitobida GRAND YULDUZ HOTEL uchun xavf manbasi rentabellik va tushum bo‘lgani sababli birlamchi vazifa tushum qisqarishi sabablarini va faoliyatning iqtisodiy maqbulligini baholashdan iborat. Bunday korxonaga qo‘shimcha qarz jalb qilish, aksincha, kapital tarkibini yanada zaiflashtiradi. VELLA ELEGANT uchun esa R2 darajasida talab va mijozlar tarkibini o‘rganish hamda tushumning qisqarish tendensiyasini to‘xtatish ustuvor hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini berdi.

Birinchidan, kichik biznes subyektlarida moliyaviy diagnostika samarali bo‘lishi uchun u “moliyaviy ma’lumot – indikator – integral baho – xavf signali – boshqaruv qarori – qayta monitoring” zanjiri bo‘yicha yopiq sikl sifatida tashkil etilishi, har bir bosqich uchun natija va mas’ul funksiya aniq belgilanishi lozim.

Ikkinchidan, kichik biznes ma’lumotlarida anomal qiymatlar ko‘p uchragani sababli integral xavf indeksini qiyoslash guruhi medianasi va kvartillararo oralig‘i bo‘yicha robast standartlashtirishga asoslash, qiymatlarni cheklash va indeksni indikatorlar hissasiga ajratish maqsadga muvofiq. Bu xavf darajasi bilan birga uning manbasini ham aniqlash imkonini beradi.

Uchinchidan, xavf chegaralari faoliyat turi, ko‘lam va hayotiy sikl bosqichi bo‘yicha ierarxik tarzda tabaqalashtirilishi, nisbiy indeks esa mutlaq kritik qoidalar bilan to‘ldirilishi kerak. Ikki qatlamli signal mexanizmi guruh ichidagi tartiblashni saqlagan holda mutlaq xavfli holatlarning o‘tkazib yuborilishining oldini oladi.

To‘rtinchidan, sinov hisob-kitobi taklif etilgan indeks sof foyda musbat bo‘lgan, ammo tushumi qisqarayotgan korxonada ham ogohlantirish signali berishini va xavf manbasini aniqlash orqali boshqaruv chorasini to‘g‘ri yo‘naltirish mumkinligini ko‘rsatdi. Tizimni amaliyotga joriy etish uchun tarmoq bo‘yicha kengroq tanlanma va mustaqil tasdiqlangan inqiroz hodisalari asosida chegaralarni kalibrlash hamda vaznlarni statistik baholash tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. // www.lex.uz

2. O‘zbekiston Respublikasining “To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida”gi Qonuni. 2022-yil 12-aprel, O‘RQ-763-son. // www.lex.uz

3. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni. 2016-yil 13-aprel, O‘RQ-404-son. // www.lex.uz

4. Altman E.I. Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy // The Journal of Finance. – 1968. – Vol. 23, No. 4. – P. 589-609.

5. Altman E.I., Sabato G. Modelling Credit Risk for SMEs: Evidence from the U.S. Market // Abacus. – 2007. – Vol. 43, No. 3. – P. 332-357.

[161] Manba: muallif ishlanmasi. Izoh: R1 (barqaror) holatda davriy monitoring va profilaktik moliyaviy rejalashtirish qo‘llaniladi.

6. Adizes I. Corporate Lifecycles: How and Why Corporations Grow and Die and What to Do About It. – Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1988.

7. Kaminsky G., Lizondo S., Reinhart C.M. Leading Indicators of Currency Crises // IMF Staff Papers. – 1998. – Vol. 45, No. 1. – P. 1-48.

8. ISO 31000:2018. Risk management – Guidelines. – Geneva: ISO, 2018.

9. COSO. Enterprise Risk Management – Integrating with Strategy and Performance. – COSO, 2017.

10. Zainol Abidin J.B. Modelling SMEs Failure in the Hospitality Industry of Malaysia: PhD thesis. – Sintok: Universiti Utara Malaysia, 2022. – 387 p.

11. Kaypnazarova G.X. Kichik biznes korxonalarida ishlab chiqarish omillari o‘rtasidagi mutanosiblikning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida): i.f.f.d. (PhD) dis. avtoref. – Toshkent, 2023. – 64 b.

12. Брызгалов Д.В. Формирование системы страхового риск-менеджмента малого бизнеса: автореф. дис. ... канд. экон. наук. – М., 2009. – 27 с.

13. Липчинская М.Ф. Управление финансами малых издательских организаций: автореф. дис. ... канд. экон. наук. – СПб., 2004.

14. Широкова Ю.А. Риско-ориентированное финансовое планирование на предприятиях малого и среднего бизнеса: автореф. дис. ... канд. экон. наук. – Иваново, 2011.

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Muxammadsidiqov Otabek Dilshodbek o‘g‘li Qo‘qon universiteti mustaqil izlanuvchisi / Мухаммадсидиков Отабек Дилшодбек угли Независимый исследователь Кокандского университета / Muxammadsidiqov Otabek Dilshodbek o‘g‘li Independent Researcher at Kokand University
E-mail: otabekkorea91@mail.ru

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.10.10.2026.45

KICHIK BIZNESDA INQIROZ XAVFINI ERTA ANIQLASH TIZIMINING IQTISODIY SAMARADORLIGI: KUTILAYOTGAN YO‘QOTISHLAR YONDASHUVI

Muxammadsidiqov Otabek Dilshodbek o‘g‘li

ОЦЕНКА ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ СИСТЕМЫ РАННЕГО ВЫЯВЛЕНИЯ РИСКА КРИЗИСА В МАЛОМ БИЗНЕСЕ: ПОДХОД НА ОСНОВЕ ОЖИДАЕМЫХ ПОТЕРЬ

Мухаммадсидиков Отабек Дилшодбек угли

EVALUATING THE ECONOMIC EFFICIENCY OF AN EARLY CRISIS DETECTION SYSTEM IN SMALL BUSINESSES: AN EXPECTED LOSS APPROACH

Muxammadsidiqov Otabek Dilshodbek o‘g‘li

Annotatsiya. Maqolada kichik biznes subyektlarida inqiroz xavfini erta aniqlash tizimining iqtisodiy samaradorligini baholashdagi asosiy metodologik qiyinchilik – samaraning yuz bermagan, ya’ni oldi olingan yo‘qotish ko‘rinishida shakllanishi masalasi tahlil qilingan. Muallif tomonidan kutilayotgan moliyaviy yo‘qotishlar konsepsiyasiga asoslangan baholash metodikasi ishlab chiqilgan bo‘lib, u tizim mavjud bo‘lmagan va mavjud bo‘lgan ssenariylarni qiyoslash, sof iqtisodiy samara, foyda va xarajatlar nisbati, sof joriy qiymat, diagnostik xatolar qiymati hamda tizimning zararsizlik nuqtasini hisoblashni o‘z ichiga oladi. Metodikaning qo‘llanilishi shartli kichik xizmat ko‘rsatish korxonasi misolida uch ssenariy bo‘yicha ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: erta aniqlash tizimi, iqtisodiy samaradorlik, kutilayotgan yo‘qotish, oldi olingan zarar, foyda va xarajatlar nisbati, sof joriy qiymat, diagnostik xatolar, ssenariy tahlili.

Аннотация. В статье проанализирована основная методологическая трудность оценки экономической эффективности системы раннего выявления риска кризиса в субъектах малого бизнеса – формирование эффекта в виде не произошедших, то есть предотвращенных потерь. Автором разработана методика оценки на основе концепции ожидаемых финансовых потерь, включающая сопоставление сценариев без системы и с системой, расчет чистого экономического эффекта, соотношения выгод и затрат, чистой приведенной стоимости, стоимости диагностических ошибок и точки безубыточности системы. Применение методики показано на примере условного малого сервисного предприятия по трем сценариям.

Ключевые слова: система раннего выявления, экономическая эффективность, ожидаемые потери, предотвращенный ущерб, соотношение выгод и затрат, чистая приведенная стоимость, сценарный анализ.

Annotation. The article analyzes the main methodological difficulty in assessing the economic efficiency of an early crisis risk detection system in small business entities – the fact that its effect takes the form of losses that did not occur, i.e. prevented losses. The author develops an assessment methodology based on the concept of expected financial losses, which includes comparing scenarios without and with the system, calculating the net economic effect, the benefit-cost ratio, net present value, the cost of diagnostic errors and the break-even point of the system. The application of the methodology is demonstrated using a hypothetical small service enterprise under three scenarios.

Keywords: early detection system, economic efficiency, expected loss, prevented damage, benefit-cost ratio, net present value, scenario analysis.

KIRISH

Kichik biznes subyektlari uchun har qanday boshqaruv vositasini joriy etish qarori uning xarajatlari va kutilayotgan natijalarini taqqoslashga asoslanadi. Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va uning barqarorligini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilangan bo‘lsa-da [1; 3], bu vazifa korxonalarning o‘zida moliyaviy xavfni boshqarish

vositalari mavjud bo‘lgandagina samarali amalga oshadi. Moliyaviy resurslari va xodimlari cheklangan korxona diagnostika tizimiga sarflanadigan mablag‘ni, birinchi navbatda, investitsiya sifatida baholaydi. D.S.Kudryavsev kichik biznes uchun baholash metodikasiga qo‘yiladigan talablar qatorida foydalanish qulayligi va past xarajatni alohida ajratgani ham shundan dalolat beradi [18].

Biroq inqiroz xavfini erta aniqlash tizimining samarasini o‘lchash an’anaviy investitsiya loyihalarinikidan farq qiladi. Tizim qo‘shimcha tushum yaratmaydi; uning natijasi to‘lov kechikishi uchun jarimalar, faoliyat uzilishi, aktivlarni arzon narxda sotish yoki bankrotlik bilan bog‘liq yo‘qotishlarning yuz bermasligida namoyon bo‘ladi. Yuz bermagan hodisani bevosita kuzatib bo‘lmaydi. Shu sababli amaliyotda bunday tizimlarning samaradorligi yoki umuman baholanmaydi, yoki “joriy etishdan oldin va keyin” ko‘rsatkichlarini oddiy solishtirish orqali baholanadi, bu esa tashqi omillar ta’sirini tizim samarasi sifatida qabul qilishga olib keladi.

Maqolaning maqsadi kutilayotgan moliyaviy yo‘qotishlar konsepsiyasi asosida kichik biznesda inqiroz xavfini erta aniqlash tizimining iqtisodiy samaradorligini baholash metodikasini ishlab chiqish va uning qo‘llanilishini ko‘rsatishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Moliyaviy inqirozning iqtisodiy qiymati bankrotlik xarajatlari nazariyasida o‘rganilgan. J.Warner bankrotlikning bevosita xarajatlari (sud, boshqaruvchi va maslahatchilar xarajatlari) korxona qiymatining nisbatan kichik qismini tashkil etishini ko‘rsatgan [9], E.Altman esa bilvosita xarajatlar – sotuvning yo‘qotilishi, yetkazib beruvchi va mijozlar ishonchining pasayishi, boshqaruv e’tiborining chalg‘ishi – ancha katta bo‘lishini va bankrotlikdan bir necha yil oldin shakllana boshlashini empirik asoslagan [6]. Bu xulosa erta aniqlash tizimining asosiy samarasi aynan bilvosita yo‘qotishlarni kamaytirishda ekanini ko‘rsatadi. Inqirozni prognozlash modellarining [4] amaliy qiymati ham ular asosida o‘z vaqtida qabul qilingan qarorlar orqali namoyon bo‘ladi. M.M.Ma’aji kichik va o‘rta biznes muvaffaqiyatsizligi omillarini aniqlab, ularning ko‘pchiligi oldindan kuzatiladigan moliyaviy belgilar orqali namoyon bo‘lishini ko‘rsatgan [10]. Mahalliy tadqiqotlarda B.B.Mirzaxalikov [11] va I.K.Jo‘rayev [12] kichik biznesning moliyaviy barqarorligini oshirish va inqirozni erta tashxislashning iqtisodiy ahamiyatini asoslagan.

Kutilayotgan yo‘qotishni hodisa ehtimoli va uning iqtisodiy oqibati ko‘paytmasi sifatida baholash bank sohasida kredit riskini o‘lchashning standart yondashuvi hisoblanadi [5]. Davlat va korporativ sektorda boshqaruv vositalarining samaradorligini baholash uchun esa foyda va xarajatlar tahlili, diskontlash va ssenariy tahlili keng qo‘llaniladi [7]. O.G.Degtyareva kichik tadbirkorlikda xo‘jalik risklarini boshqarish samaradorligini kompleks baholash zarurligini va bunday tizim natijasining uzoq muddatli xususiyatga ega ekanini ta’kidlagan [16], Yu.A.Shirokova esa riskka yo‘naltirilgan moliyaviy rejalashtirishda risklarni boshqarish choralariga sarflanadigan mablag‘larni alohida baholash bosqichini nazarda tutgan [17]. T.V.Balakireva moliyalashtirish manbalari risklarini [13], A.G.Nalcha va T.D.Ekajeva esa kichik korxonalarda risklarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini o‘rgangan [14; 15]. Diagnostik xatolar qiymatini hisobga olish zarurati tasniflash modellarini baholash nazariyasida asoslangan [8].

Shunday qilib, alohida elementlar adabiyotlarda mavjud bo‘lsa-da, ularni kichik biznesda erta aniqlash tizimi samaradorligini baholashning yagona metodikasiga birlashtirish – ssenariylarni qiyoslash, xatolar qiymati, vaqt omili va noaniqlikni bir vaqtda hisobga olish – masalasi yetarlicha ishlab chiqilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli yondashuv, ehtimollik baholash, foyda va xarajatlar tahlili, diskontlash, ssenariy tahlili va sezgirlik tahlili usullaridan foydalanildi. Metodikaning qo‘llanilishi shartli ma’lumotlar asosida ko‘rsatildi, chunki erta aniqlash tizimi amalda joriy etilmagan sharoitda oldi olingan zararning haqiqiy miqdorini kuzatish imkoni mavjud emas.

TAHLIL VA NATIJALAR

Metodikaning boshlang‘ich tushunchasi kutilayotgan moliyaviy yo‘qotishdir:

$$EL = p \times L, \quad (1)$$

bu yerda: p – baholash davrida belgilangan inqiroz hodisasi (masalan, majburiyatlarning muddatidan kechikishi yoki qonunchilikda belgilangan to‘lovga qobiliyatsizlik holati [2]) yuz berish ehtimoli; L – mazkur hodisa yuz bergan sharoitdagi shartli iqtisodiy zarar. Erta aniqlash tizimi ikki kanal orqali EL ni kamaytiradi: o‘z vaqtida ko‘rilgan choralar hodisa ehtimolini pasaytiradi (p kamayadi), hodisa baribir yuz bergan taqdirda esa tayyorgarlik uning oqibatlarini yumshatadi (L kamayadi). Shuning uchun tizim samarasi faqat ehtimolning o‘zgarishi bilan emas, ikkala ko‘rsatkichning birgalikdagi o‘zgarishi bilan baholanishi zarur.

Samarani aniqlash uchun ikki ssenariy qiyoslanadi: “0” – tizim va uning asosidagi choralar mavjud bo‘lmagan holat, “1” – tizim va tegishli boshqaruv choralari qo‘llangan holat. Ikki ssenariy bir xil korxona, bir xil davr va bir xil tashqi sharoitlar uchun tuzilishi kerak. Yalpi foyda, sof iqtisodiy samara va foyda-xarajat nisbati quyidagicha aniqlanadi:

$$B = EL(0) - EL(1), \quad (2)$$
$$SE = B - C(T) - C(B), \quad (3)$$
$$BCR = B / (C(T) + C(B)), \quad (4)$$

bu yerda: C(T) – diagnostika tizimini tashkil etish va undan foydalanish xarajatlari; C(B) – xavf signallari asosida amalga oshiriladigan boshqaruv choralari xarajatlari. Tizim samaradorligini shakllantiruvchi foyda va xarajatlar tarkibi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Erta aniqlash tizimi samaradorligini baholashda hisobga olinadigan foyda va xarajatlar tarkibi[162]

Element	Iqtisodiy mazmuni	Baholash uchun zarur ma’lumotlar
Oldi olingan to‘lov kechikishi xarajatlari	Penya, jarima va qo‘shimcha moliyalashtirish xarajatlarining kamayishi	Majburiyatlar jadvali, shartnomaviy sanksiyalar
Faoliyat uzluksizligi foydasi	Faoliyat uzilishi tufayli yo‘qotilishi mumkin bo‘lgan marjinal daromadning saqlanishi	Faoliyat hajmi, qoplanadigan xarajatlar
Moliyalashtirish shartlarining yaxshilanishi	Qarzni o‘z vaqtida qayta tuzish natijasidagi tejamkorlik	Foiz stavkalari, to‘lov muddatlari
Tizimni tashkil etish xarajatlari (C0)	Dasturiy modul, ma’lumotlar bazasi, xodimlarni o‘qitish	Dastlabki investitsiya smetasi
Monitoring xarajatlari (C(T))	Ma’lumotlarni yangilash, tekshirish va tahlil qilish	Mehnat va operatsion xarajatlar
Boshqaruv choralari xarajatlari (C(B))	Tanlangan sog‘lomlashtirish choralarini amalga oshirish	Chora-tadbirlar smetasi
Noto‘g‘ri ogohlantirish xarajatlari	Asossiz tekshiruv va keraksiz choralar	Signallar va haqiqiy natijalar statistikasi

Ko‘p yillik baholashda pul oqimlarining vaqt qiymati hisobga olinadi:

$$NPV = -C(0) + \Sigma\,(B(t) - C(t)) / (1 + r)^t, \quad t = 1, \ldots, T, \quad (5)$$

bu yerda: C(0) – tizimni tashkil etishning boshlang‘ich xarajatlari; B(t) – t-yilda oldi olingan kutilayotgan yo‘qotishlar; C(t) – shu yildagi monitoring va boshqaruv xarajatlari; r – diskont stavkasi; T – baholash davri.

Tizimning xatolari ham iqtisodiy natijaga ta’sir qiladi. Xavfli korxonani xavfsiz deb baholash (noto‘g‘ri salbiy xato) EL(1) ni oshiradi, chunki zarur chora ko‘rilmaydi. Barqaror korxonaga ogohlantirish berish (noto‘g‘ri ijobiy xato) esa C(B) ni asossiz oshiradi. Xatolar qiymati quyidagicha baholanadi:

$$C(x) = C(FN) \times FN + C(FP) \times FP, \quad (6)$$

Muhim metodologik talab – ikki marta hisoblashning oldini olish: agar noto‘g‘ri salbiy xatolar oqibati EL(1) da, noto‘g‘ri ijobiy xatolar xarajati esa C(B) da aks ettirilgan bo‘lsa, C(x) ni (3)-formulaga alohida qo‘shib bo‘lmaydi. (6)-formula tasniflash chegarasini tanlash va tizim sozlamalarini optimallashtirish uchun mustaqil ravishda qo‘llanadi.

Kichik biznes uchun amaliy jihatdan eng tushunarli ko‘rsatkich – tizim o‘zini oqlashi uchun har yili oldi olinishi lozim bo‘lgan minimal yo‘qotish miqdori. NPV = 0 shartidan, yillik foyda va xarajatlar o‘zgarmas bo‘lganda:

$$B^* = C + C(0) / AF(r,T), \quad AF(r,T) = \Sigma\, 1 / (1 + r)^t, \quad (7)$$

bu yerda: B* – zararsizlik nuqtasidagi yillik oldi olingan yo‘qotish; C – yillik monitoring va boshqaruv xarajatlari; AF(r,T) – annuitet koeffitsiyenti. B* ko‘rsatkichi rahbarga murakkab ehtimollik hisob-kitoblarisiz qaror qabul qilish imkonini beradi: agar korxonaning tajribasiga ko‘ra yiliga B* dan ortiq yo‘qotishning oldini olish real bo‘lsa, tizimni joriy etish iqtisodiy jihatdan asosli.

Metodikaning qo‘llanilishini kichik xizmat ko‘rsatish korxonasi misolida ko‘rib chiqamiz. Tizim mavjud bo‘lmagan ssenariyda yillik inqiroz hodisasi ehtimoli p(0) = 0,25, hodisa yuz bergandagi shartli zarar L(0) = 600 mln so‘m deb qabul qilinadi; demak, EL(0) = 150 mln so‘m. Tizimni tashkil etish xarajati C(0) = 30 mln so‘m, yillik monitoring xarajatlari C(T) = 12 mln so‘m, boshqaruv choralari xarajatlari C(B) = 25 mln so‘m, diskont stavkasi r = 20 %, baholash davri T = 3 yil. Tizim mavjud bo‘lgan ssenariy uchun uch variant ko‘rib chiqiladi (2-jadval).

[162] Manba: muallif ishlanmasi.

2-jadval.

Erta aniqlash tizimi samaradorligining ssenariylar bo‘yicha hisob-kitobi (shartli misol)[163]

Ko‘rsatkich	Ehtiyotkor	Bazaviy	Qulay
p(1), ehtimol	0,20	0,15	0,12
L(1), mln so‘m	520	450	400
EL(1), mln so‘m	104,0	67,5	48,0
B = EL(0) – EL(1), mln so‘m	46,0	82,5	102,0
Yillik sof samara, B – C(T) – C(B), mln so‘m	9,0	45,5	65,0
Birinchi yil sof samarasi (C(0) bilan), mln so‘m	–21,0	15,5	35,0
BCR (yillik)	1,24	2,23	2,76
NPV (3 yil, r = 20 %), mln so‘m	–11,04	65,85	106,92

Bazaviy ssenariyda tizim kutilayotgan yo‘qotishlarni 150 mln so‘mdan 67,5 mln so‘mga, ya’ni 55 foizga kamaytiradi. Yillik foyda-xarajat nisbati 2,23 ni, uch yillik sof joriy qiymat 65,85 mln so‘mni tashkil etadi. Birinchi yilda boshlang‘ich xarajatlar hisobiga sof samara 15,5 mln so‘m bilan cheklanadi, ammo keyingi yillarda u 45,5 mln so‘mga yetadi.

Ehtiyotkor ssenariy natijasi alohida e’tiborga loyiq: yillik BCR birdan yuqori (1,24) bo‘lishiga qaramay, NPV manfiy (–11,04 mln so‘m). Bu shuni anglatadiki, yillik foyda joriy xarajatlarni qoplasa-da, uch yillik davrda boshlang‘ich investitsiyani qaytarish uchun yetarli emas. Demak, faqat yillik BCR ga tayanib qaror qabul qilish tizim samaradorligini ortiqcha baholashga olib kelishi mumkin; kichik biznes uchun BCR va NPV ko‘rsatkichlari birgalikda qo‘llanilishi zarur.

Annuitet koeffitsiyenti AF(20 %; 3) = 2,1065 ni tashkil etgani sababli (7)-formula bo‘yicha zararsizlik nuqtasi B* = 37 + 30 / 2,1065 = 51,24 mln so‘mga teng. Boshqacha aytganda, tizim o‘zini oqlashi uchun kutilayotgan yo‘qotishlarni yiliga kamida 51,24 mln so‘mga, ya’ni boshlang‘ich darajaning 34,2 foiziga kamaytirishi kerak. Bazaviy shartli zarar L(1) = 450 mln so‘m bo‘lganda bu inqiroz hodisasi ehtimolini 0,25 dan kamida 0,219 gacha pasaytirishga mos keladi. Ssenariylarga mos ravishda 0,25, 0,50 va 0,25 vaznlar berilganda kutilayotgan NPV 56,90 mln so‘mni tashkil etadi, bu esa noaniqlikni hisobga olgan holda ham tizimni joriy etish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi.

Iqtisodiy samara tizim natijadorligining yakuniy, ammo yagona bo‘lmagan o‘lchovidir. Diagnostik aniqlik yuqori bo‘lsa-da, signal kech berilsa yoki rahbariyat unga javob bermasa, iqtisodiy samara yuzaga kelmaydi. Shu sababli tizim natijadorligini to‘rt darajada baholash taklif etiladi (3-jadval).

3-jadval.

Erta aniqlash tizimi natijadorligini baholashning ko‘p darajali mezonlari[164]

Daraja	Asosiy mezon	Iqtisodiy mazmuni
Axborot natijadorligi	Ma’lumotlarning to‘liqligi, dolzarbligi va ishonchliligi	Diagnostika uchun zarur axborotning mavjudligi
Diagnostik natijadorlik	Recall, Precision, PR-AUC, kalibrlash	Xavfli holatlarni ajratish va ehtimollik sifati
Vaqt va boshqaruv natijadorligi	Erta ogohlantirish muddati, signalga javob berish muddati, bajarilgan choralar ulushi	Signal asosida o‘z vaqtida qaror qabul qilinishi
Iqtisodiy samaradorlik	SE, BCR, NPV, B*	Oldi olingan yo‘qotishlar va xarajatlar munosabati

Mezonlar ierarxik bog‘langan: quyi darajadagi muammo yuqori darajadagi natijani cheklaydi. Masalan, NPV manfiy chiqsa, sabab axborot sifatining pastligi, modelning ko‘p xavfli holatlarni o‘tkazib yuborishi yoki signallarga kech javob berilishi bo‘lishi mumkin. Ierarxik baholash aynan qaysi bo‘g‘inda takomillashtirish zarurligini aniqlash imkonini beradi.

Haqiqiy samarani baholash uchun tizimni tanlangan korxonalarda tajriba tariqasida joriy etish va natijalarni nazorat guruhi bilan solishtirish taklif etiladi. Bunda o‘xshash tarmoq va ko‘lamdagi, ammo tizim

[163] Manba: muallif hisob-kitoblari (shartli ma’lumotlar asosida).
[164] Manba: muallif ishlanmasi.

qo‘llanmayotgan korxonalar guruhidagi inqiroz hodisalari chastotasi va yo‘qotishlar miqdori EL(0) ni empirik baholash uchun asos bo‘ladi. Tajriba davomida har bir signal, qabul qilingan qaror, uning xarajati va keyingi davrdagi natija reyestrda qayd etilishi lozim. Bunday reyestr bir necha yil davomida yuritilganda p va L parametrlarini shartli emas, kuzatilgan ma’lumotlar asosida baholash imkoniyati yaratiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini berdi.

Birinchidan, erta aniqlash tizimining iqtisodiy samarasi oldi olingan yo‘qotish ko‘rinishida shakllangani sababli uni “joriy etishdan oldin va keyin” ko‘rsatkichlarini oddiy solishtirish orqali emas, tizim mavjud bo‘lmagan va mavjud bo‘lgan ssenariylardagi kutilayotgan yo‘qotishlarni qiyoslash orqali baholash zarur. Bunda tizimning inqiroz ehtimoliga ham, zarar miqdoriga ham ta’siri hisobga olinadi.

Ikkinchidan, muallif tomonidan ishlab chiqilgan metodika sof iqtisodiy samara, foyda-xarajat nisbati, sof joriy qiymat, diagnostik xatolar qiymati va zararsizlik nuqtasi ko‘rsatkichlarini yagona tizimga birlashtiradi hamda ikki marta hisoblashning oldini olish qoidasini belgilaydi.

Uchinchidan, shartli misol yillik foyda-xarajat nisbati birdan yuqori bo‘lgan holatda ham sof joriy qiymat manfiy bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatdi. Shu sababli kichik biznesda tizimni joriy etish qarori BCR va NPV ko‘rsatkichlarini birgalikda va kamida uchta ssenariy bo‘yicha baholashga asoslanishi kerak.

To‘rtinchidan, zararsizlik nuqtasidagi yillik oldi olingan yo‘qotish (B*) ko‘rsatkichi tadbirkor uchun eng tushunarli qaror mezoni sifatida tavsiya etiladi. Metodikani amaliyotda qo‘llash uchun tajriba korxonalarida signallar, qarorlar, xarajatlar va natijalar reyestrini yuritish hamda nazorat guruhi bilan qiyoslash tartibini joriy etish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. // www.lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasining “To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida”gi Qonuni. 2022-yil 12-aprel, O‘RQ-763-son. // www.lex.uz
3. O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri). 2012-yil 2-may, O‘RQ-328-son. // www.lex.uz
4. Altman E.I. Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy // The Journal of Finance. – 1968. – Vol. 23, No. 4. – P. 589-609.
5. Basel Committee on Banking Supervision. International Convergence of Capital Measurement and Capital Standards: A Revised Framework. Comprehensive Version. – Basel: BIS, 2006.
6. Altman E.I. A Further Empirical Investigation of the Bankruptcy Cost Question // The Journal of Finance. – 1984. – Vol. 39, No. 4. – P. 1067-1089.
7. Boardman A.E., Greenberg D.H., Vining A.R., Weimer D.L. Cost-Benefit Analysis: Concepts and Practice. 5th ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2018.
8. Fawcett T. An Introduction to ROC Analysis // Pattern Recognition Letters. – 2006. – Vol. 27, No. 8. – P. 861-874.
9. Warner J.B. Bankruptcy Costs: Some Evidence // The Journal of Finance. – 1977. – Vol. 32, No. 2. – P. 337-347.
10. Ma’aji M.M. Determinants of SME’s Failure in Malaysia and Nigeria: PhD thesis. – Sintok: Universiti Utara Malaysia, 2018. – 428 p.
11. Mirzaxalikov B.B. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy-iqtisodiy barqarorligini oshirish yo‘llari: i.f.f.d. (PhD) dis. avtoref. – Namangan, 2022. – 60 b.
12. Jo‘rayev I.K. Kichik biznes subyektlarida iqtisodiy inqirozga qarshi kurashish strategiyasini takomillashtirish (to‘qimachilik korxonalari misolida): i.f.f.d. (PhD) dis. avtoref. – Namangan, 2022. – 56 b.
13. Балакирева Т.В. Анализ рисков финансирования субъектов малого бизнеса: автореф. дис. ... канд. экон. наук. – М., 2009. – 26 с.
14. Налча А.Г. Управление рисками малых предприятий: автореф. дис. ... канд. экон. наук. – М., 2004.
15. Экажева Т.Д. Управление рисками на предприятиях малого бизнеса: автореф. дис. ... канд. экон. наук. – М., 2015.
16. Дегтярева О.Г. Комплексная оценка эффективности управления хозяйственными рисками в сфере предпринимательства (на примере малых предприятий Хабаровского края): автореф. дис. ... канд. экон. наук. – Владивосток, 2012.
17. Широкова Ю.А. Риско-ориентированное финансовое планирование на предприятиях малого и среднего бизнеса: автореф. дис. ... канд. экон. наук. – Иваново, 2011.
18. Кудрявцев Д.С. Методика анализа и оценки риска неплатежеспособности предприятий малого бизнеса: автореф. дис. ... канд. экон. наук. – М., 2015.

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Muxammadsidiqov Otabek Dilshodbek o‘g‘li Qo‘qon universiteti mustaqil izlanuvchisi / Мухаммадсидиков Отабек Дилшодбек угли Независимый исследователь Кокандского университета / Muxammadsidiqov Otabek Dilshodbek o‘g‘li Independent Researcher at Kokand University
E-mail: otabekkorea91@mail.ru

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.10.10.2026.46 *Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi*

IJTIMOIY INFRATUZILMANI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA QASHQADARYO VILOYATI AHOLISINING TURMUSH DARAJASINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI

Alimova Munisa Yulchiyevna, Rustamova Gavhar Baxtiyarovna

ПЕРСПЕКТИВЫ ПОВЫШЕНИЯ УРОВНЯ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ ЗА СЧЕТ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ

Алимова Муниса Юлчиевна, Рустамова Гавхар Бахтияровна

PROSPECTS FOR IMPROVING THE STANDARD OF LIVING OF THE POPULATION IN THE QASHQADARYO REGION THROUGH THE DEVELOPMENT OF SOCIAL INFRASTRUCTURE

Alimova Munisa Yulchiyevna, Rustamova Gavhar Baxtiyarovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishning Qashqadaryo viloyati aholisining turmush darajasi va hayot sifatini oshirishdagi o‘rni ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tadqiq etiladi. Hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari, aholi daromadlari, bandlik, ta’lim, sog‘liqni saqlash, ichimlik suvi ta’minoti, transport-kommunikatsiya va kommunal xizmatlar bilan ta’minlanganlik holati o‘zaro bog‘liqlikda yoritiladi. Shuningdek, ijtimoiy infratuzilma rivojlanishidagi hududiy tafovutlarni kamaytirish, investitsiya resurslaridan samarali foydalanish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish hamda aholiga ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini yaxshilash imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: aholi bandligi, aholi daromadlari, aholi turmush darajasi, davlat-xususiy sheriklik, hududiy rivojlanish, inson kapitali, Qashqadaryo viloyati, transport infratuzilmasi, turmush sifati.

Abstract: This article examines the role of social infrastructure development in improving the standard of living and quality of life of the population in Kashkadarya Region from both theoretical and practical perspectives. The region’s socio-economic development characteristics, household incomes, employment, education, healthcare, access to drinking water, transport and communication systems, and the availability of utility services are analyzed in an integrated manner. Furthermore, the article explores opportunities to reduce regional disparities in social infrastructure development, improve the efficient use of investment resources, expand public-private partnership mechanisms, and enhance the quality of services provided to the population.

Keywords: employment, household incomes, standard of living, public-private partnership, regional development, human capital, Kashkadarya Region, transport infrastructure, quality of life.

Аннотация: В статье исследуется роль развития социальной инфраструктуры в повышении уровня и качества жизни населения Кашкадарьинской области с научно-теоретической и практической точек зрения. Комплексно рассматриваются особенности социально-экономического развития региона, доходы населения, занятость, образование, здравоохранение, обеспеченность питьевой водой, транспортно-коммуникационная инфраструктура и доступность коммунальных услуг. Кроме того, анализируются возможности сокращения территориальных различий в развитии социальной инфраструктуры, повышения эффективности использования инвестиционных ресурсов, расширения механизмов государственно-частного партнёрства и улучшения качества услуг, предоставляемых населению.

Ключевые слова: занятость населения, доходы населения, уровень жизни населения, государственно-частное партнёрство, региональное развитие, человеческий капитал, Кашкадарьинская область, транспортная инфраструктура, качество жизни.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida hududlarning barqaror rivojlanishini ta’minlash, aholi farovonligini oshirish va ijtimoiy tenglikni mustahkamlash masalalari davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonda ijtimoiy infratuzilma muhim iqtisodiy

va ijtimoiy institut sifatida namoyon bo‘lib, aholining ta’lim, sog‘liqni saqlash, ichimlik suvi, transport, uy-joy kommunal xizmatlari va raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini belgilaydi. Ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi nafaqat yashash sharoitlariga, balki inson kapitalining shakllanishi, mehnat unumdorligi, aholi bandligi va hududning investitsiyaviy jozibadorligiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, ijtimoiy infratuzilmani takomillashtirishni aholi turmush darajasini oshirish va hududiy iqtisodiy o‘sish natijalarini keng aholi qatlamlariga yetkazishning muhim sharti sifatida baholash mumkin.

O‘zbekistonda aholi farovonligini oshirish, kambag‘allikni qisqartirish, hududlarni kompleks rivojlantirish va aholiga ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar sifatini yaxshilash davlat siyosatining asosiy maqsadlari qatoriga kiradi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida inson qadrini yuksaltirish, hududlarni mutanosib rivojlantirish, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish hamda aholining munosib hayot kechirishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga alohida e’tibor qaratilgan. Mazkur strategik yondashuv ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishni faqat qurilish va moddiy-texnik ta’minot bilan cheklamasdan, xizmatlarning sifati, ulardan foydalanish imkoniyati va aholining real ehtiyojlari bilan bog‘liq holda tashkil etishni taqozo etadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF–158-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi mamlakatning uzoq muddatli taraqqiyot maqsadlarini belgilab, barqaror iqtisodiy o‘sish, sifatli ta’lim va tibbiyot xizmatlarini rivojlantirish, kambag‘allikni qisqartirish hamda aholi uchun qulay yashash muhitini shakllantirishga yo‘naltirilgan. Ushbu strategik vazifalar hududlarda ijtimoiy infratuzilma obyektlarini rivojlantirish, mavjud xizmatlar sifatini oshirish va iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanishda hududiy tafovutlarni kamaytirish zarurligini asoslaydi. Mazkur yo‘nalishda Qashqadaryo viloyatini kompleks rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar ham muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-apreldagi 201-son qarori bilan 2022–2026-yillarda Qashqadaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlar belgilangan. Qarorda viloyatning tuman va shaharlaridagi mavjud muammolar hamda iqtisodiy imkoniyatlarni hisobga olish, sanoat va xizmatlar sohasini rivojlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish, shuningdek, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash masalalariga e’tibor qaratilgan. Ushbu hujjat Qashqadaryo viloyatida ijtimoiy infratuzilma va hududiy iqtisodiy rivojlanishni o‘zaro uyg‘unlashtirishning normativ asoslarini belgilaydi. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra, 2026-yil 1-yanvar holatida Qashqadaryo viloyatining doimiy aholisi 3 716 949 kishini tashkil etgan. 2025-yilda viloyat yalpi hududiy mahsuloti 6,8 foizga, sanoat ishlab chiqarishi 7,2 foizga, qurilish ishlari 10,8 foizga va bozor xizmatlari hajmi 13,6 foizga o‘sgan. Ushbu ko‘rsatkichlar viloyatda iqtisodiy faollik kengayib borayotganini ko‘rsatadi. Biroq iqtisodiy o‘sishning ijtimoiy samaradorligi faqat ishlab chiqarish va xizmatlar hajmining ortishi bilan emas, balki uning aholi daromadlari, bandligi, xizmatlardan foydalanish imkoniyati va yashash sharoitlarida qanday aks etishi bilan ham baholanishi zarur. Qashqadaryo viloyatining demografik salohiyati va iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlari ijtimoiy infratuzilmani tizimli takomillashtirishni talab etadi. Aholi sonining ko‘pligi ta’lim, tibbiyot, transport, ichimlik suvi va kommunal xizmatlarga bo‘lgan talabning yuqori bo‘lishini anglatadi. Ayniqsa, shahar va qishloq aholi punktlari o‘rtasida xizmatlar sifati hamda ulardan foydalanish imkoniyatlaridagi tafovutlarni kamaytirish muhim vazifalardan biridir. Bunda infratuzilma obyektlarini faqat son jihatdan ko‘paytirish emas, balki ularni hududiy ehtiyojlarga muvofiq joylashtirish, malakali mutaxassislar bilan ta’minlash, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta’minlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishning iqtisodiy mazmuni shundaki, sifatli ta’lim va tibbiy xizmatlar inson kapitalini mustahkamlaydi, transport va raqamli infratuzilma iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanishni kengaytiradi, kommunal xizmatlarning yaxshilanishi esa aholining yashash sharoitlari va mehnat unumdorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bilan birga, infratuzilmaga yo‘naltirilgan investitsiyalarning samarasi hududiy ehtiyojlarning to‘g‘ri aniqlanishi, moliyaviy resurslarning maqsadli taqsimlanishi va yaratilgan obyektlarning samarali ishlashiga bog‘liq. Demak, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish iqtisodiy o‘sish, bandlik va aholi farovonligi o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni mustahkamlovchi kompleks jarayon sifatida qaralishi lozim.

Shu sababli Qashqadaryo viloyatida ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishning mavjud holatini baholash, uning aholi turmush darajasiga ta’sir mexanizmlarini aniqlash hamda istiqboldagi ustuvor yo‘nalishlarni ilmiy asoslash dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqotning maqsadi Qashqadaryo viloyatida ijtimoiy infratuzilmani takomillashtirish orqali aholi turmush darajasini oshirish imkoniyatlarini tahlil qilish va hududiy rivojlanish samaradorligini kuchaytirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun ijtimoiy infratuzilmaning tarkibiy qismlarini o‘rganish, rasmiy statistik ko‘rsatkichlarni tahlil qilish, hududiy muammolarni aniqlash hamda infratuzilma investitsiyalarining ijtimoiy-iqtisodiy natijadorligini oshirish yo‘llarini asoslash vazifalari belgilangan.

Ushbu qarorning amaliy ahamiyati shundaki, unda infratuzilma loyihalarini hududlar kesimida shakllantirish va mahalliy ehtiyojlarni hisobga olishga

alohida e’tibor qaratilgan. Hujjatning 2022-yilga mo‘ljallangan kompleks tadbirlarida ichimlik va oqova suv ta’minoti, elektr energiyasi, yo‘l-transport infratuzilmasi, uy-joylarni ta’mirlash hamda hududlarni obodonlashtirish yo‘nalishlari qamrab olingan Biroq bunday dasturlarning uzoq muddatli samaradorligini aniqlash uchun ajratilgan mablag‘lar va bajarilgan qurilish ishlari bilan bir qatorda, aholining xizmatlardan foydalanish darajasi, obyektlarning ishlash sifati va turmush sharoitlaridagi o‘zgarishlarni ham baholash zarur. Shunday qilib, o‘rganilgan ilmiy manbalar va normativ-huquqiy hujjatlar ijtimoiy infratuzilma bilan aholi turmush darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni bir nechta yo‘nalishda asoslash imkonini beradi. Xalqaro tadqiqotlar infratuzilmaning iqtisodiy va ijtimoiy natijalarga ta’sirini baholash metodologiyasini yoritadi, inson kapitali konsepsiyasi ta’lim va sog‘liqni saqlashning uzoq muddatli ahamiyatini ochib beradi, milliy hujjatlar esa hududiy rivojlanishning strategik va amaliy vazifalarini belgilaydi. Shu bilan birga, Qashqadaryo viloyati misolida infratuzilma ta’minlanganligi, xizmatlar sifati, aholi daromadlari va hududiy tafovutlarni yagona tahliliy yondashuv asosida o‘zaro bog‘lab o‘rganish zarurati mavjud. Mazkur maqolaning ilmiy yo‘nalishi ham aynan ushbu masalalarni hududiy xususiyatlar va aholi farovonligi mezonlari asosida tahlil qilishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va aholi turmush darajasini oshirish masalalari iqtisodiy rivojlanish, inson kapitali, hududiy iqtisodiyot hamda ijtimoiy farovonlik nazariyalari bilan uzviy bog‘liq. Mazkur yo‘nalishdagi ilmiy qarashlarda infratuzilma faqat moddiy obyektlar majmui sifatida emas, balki aholining iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlarini kengaytiruvchi, mehnat unumdorligini oshiruvchi hamda hududlarning barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi omil sifatida talqin etiladi. Shu sababli ijtimoiy infratuzilmaning aholi turmush darajasiga ta’sirini o‘rganishda xalqaro ilmiy yondashuvlar bilan bir qatorda O‘zbekistonning hududiy rivojlanish siyosati va Qashqadaryo viloyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni ham tahlil qilish muhim hisoblanadi. Infratuzilmaning iqtisodiy rivojlanishga ta’siri bo‘yicha zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda uning transport, energetika, kommunal xizmatlar va ijtimoiy xizmatlar bilan bog‘liq yo‘nalishlari iqtisodiy faollikni qo‘llab-quvvatlovchi omillar sifatida o‘rganiladi. Vivien Foster va hammualliflar tomonidan tayyorlangan The Impact of Infrastructure on Development Outcomes: A Meta-Analysis nomli tadqiqotda infratuzilmaning rivojlanish natijalariga ta’siri yuzlab ilmiy ishlar asosida umumlashtirilgan. Mualliflar 221 ta ilmiy maqoladagi mingdan ortiq baholash natijalarini tahlil qilganlar. Ushbu tadqiqot infratuzilma va rivojlanish o‘rtasidagi munosabatlarni bir xil natija bilan izohlab bo‘lmasligini, ta’sir infratuzilma turi, hududiy sharoit va baholash metodologiyasiga bog‘liqligini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. Inson kapitali nazariyasi doirasida ta’lim va sog‘liqni saqlash xizmatlari iqtisodiy taraqqiyotning muhim sharti sifatida qaraladi. Jahon bankining The Human Capital Project tashabbusida insonlarning bilimlari, ko‘nikmalari va salomatligiga investitsiya kiritish uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan bog‘liqligi asoslanadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, maktablar, kasbiy ta’lim muassasalari va tibbiyot tashkilotlarini rivojlantirish nafaqat ijtimoiy ehtiyojlarni qondiradi, balki mehnat bozorida malakali kadrlar shakllanishi va aholining daromad topish imkoniyatlari kengayishiga ham zamin yaratadi. Qashqadaryo viloyati sharoitida mazkur yondashuvni qo‘llash ijtimoiy infratuzilma investitsiyalarini bandlik, kasbiy tayyorgarlik va mahalliy iqtisodiyot ehtiyojlari bilan muvofiqlashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi tomonidan ishlab chiqilgan inson taraqqiyoti konsepsiyasida rivojlanish natijalari faqat iqtisodiy daromadlar bilan emas, balki insonlarning sog‘lom hayot kechirishi, bilim olishi va munosib yashashi uchun mavjud imkoniyatlar bilan baholanadi. Mazkur konsepsiya turmush darajasini keng qamrovli tushunishga imkon beradi. Jumladan, aholi daromadlarining ortishi bilan bir qatorda, sifatli tibbiy xizmatga yetib borish, ta’lim olish imkoniyati, xavfsiz ichimlik suvi va qulay yashash muhitining mavjudligi ham farovonlikning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Shuning uchun hududlar rivojlanishini baholashda faqat yalpi hududiy mahsulot yoki qurilish hajmi bilan cheklanmasdan, ijtimoiy xizmatlardan foydalanish darajasini ham o‘rganish lozim. O‘zbekiston Respublikasida hududiy rivojlanish va ijtimoiy infratuzilmani takomillashtirishning normativ asoslari qator davlat dasturlari va strategik hujjatlarda o‘z aksini topgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da aholi farovonligini oshirish, kambag‘allikni qisqartirish, hududlarni mutanosib rivojlantirish va aholiga ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini yaxshilashga qaratilgan vazifalar belgilangan. Mazkur hujjat ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishni inson manfaatlari va hududiy taraqqiyot maqsadlari bilan bog‘lash uchun muhim strategik asos vazifasini bajaradi.

Qashqadaryo viloyati bo‘yicha bevosita ahamiyatga ega bo‘lgan hujjatlardan biri O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-apreldagi 201-son qaroridir. Ushbu qaror 2022–2026-yillarda viloyat hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilaydi. Hujjatda hududlarning mavjud muammolari va iqtisodiy imkoniyatlarini o‘rganish, yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish, shuningdek, ichimlik suvi, elektr energiyasi, yo‘l-transport va boshqa infratuzilma tarmoqlarini rivojlantirish masalalari nazarda tutilgan. Bu esa viloyatda ijtimoiy infratuzilmani iqtisodiy rivojlanish bilan uyg‘un holda rejalashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Mazkur qarorning amaliy ahamiyati shundaki, unda infratuzilma loyihalarini hududlar kesimida shakllantirish va mahalliy ehtiyojlarni hisobga olishga alohida e’tibor qaratilgan. Hujjatning 2022-yilga mo‘ljallangan kompleks tadbirlarida ichimlik va oqova suv ta’minoti, elektr energiyasi, yo‘l-transport infratuzilmasi, uy-joylarni ta’mirlash hamda hududlarni

obodonlashtirish yo‘nalishlari qamrab olingan. Biroq bunday dasturlarning uzoq muddatli samaradorligini aniqlash uchun ajratilgan mablag‘lar va bajarilgan qurilish ishlari bilan bir qatorda, aholining xizmatlardan foydalanish darajasi, obyektlarning ishlash sifati va turmush sharoitlaridagi o‘zgarishlarni ham baholash zarur. Shunday qilib, o‘rganilgan ilmiy manbalar va normativ-huquqiy hujjatlar ijtimoiy infratuzilma bilan aholi turmush darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni bir nechta yo‘nalishda asoslash imkonini beradi. Xalqaro tadqiqotlar infratuzilmaning iqtisodiy va ijtimoiy natijalarga ta’sirini baholash metodologiyasini yoritadi, inson kapitali konsepsiyasi ta’lim va sog‘liqni saqlashning uzoq muddatli ahamiyatini ochib beradi, milliy hujjatlar esa hududiy rivojlanishning strategik va amaliy vazifalarini belgilaydi. Shu bilan birga, Qashqadaryo viloyati misolida infratuzilma ta’minlanganligi, xizmatlar sifati, aholi daromadlari va hududiy tafovutlarni yagona tahliliy yondashuv asosida o‘zaro bog‘lab o‘rganish zarurati mavjud. Mazkur maqolaning ilmiy yo‘nalishi ham aynan ushbu masalalarni hududiy xususiyatlar va aholi farovonligi mezonlari asosida tahlil qilishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda Qashqadaryo viloyatida ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishning aholi turmush darajasiga ta’sirini o‘rganishda tizimli yondashuv, statistik tahlil, qiyosiy taqqoslash va ilmiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etdi.

Tahlil jarayonida aholi daromadlari, bandlik, ta’lim va tibbiyot xizmatlari, ichimlik suvi ta’minoti, transport-kommunikatsiya hamda kommunal infratuzilmaning rivojlanish holati o‘rganildi. Hududiy taqqoslash orqali mavjud muammolar va rivojlanish imkoniyatlari aniqlandi. Olingan natijalar asosida Qashqadaryo viloyatida ijtimoiy infratuzilmani takomillashtirish va aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qashqadaryo viloyatida ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish asosida aholi turmush darajasini oshirish imkoniyatlarini baholashda hududning demografik salohiyati, iqtisodiy o‘sish sur’atlari va aholi daromadlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Chunki iqtisodiy faollikning kengayishi aholi farovonligini oshirish uchun zarur moliyaviy va institutsional imkoniyatlarni yaratadi. Biroq ushbu imkoniyatlarning real ijtimoiy natijaga aylanishi ta’lim, sog‘liqni saqlash, transport, ichimlik suvi va kommunal xizmatlarning rivojlanish darajasiga ham bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy ma’lumotlariga ko‘ra, 2026-yil 1-yanvar holatida Qashqadaryo viloyatining doimiy aholisi 3 716 949 kishini tashkil etgan. 2025-yilda viloyat yalpi hududiy mahsuloti 6,8 foizga, sanoat ishlab chiqarishi 7,2 foizga, qurilish ishlari 10,8 foizga va bozor xizmatlari hajmi 13,6 foizga o‘sgan. Ushbu ko‘rsatkichlar viloyatda iqtisodiy faoliyatning turli yo‘nalishlari rivojlanayotganini ko‘rsatadi.

1-jadval.

Qashqadaryo viloyatining 2024–2025-yillardagi iqtisodiy rivojlanishi va aholi daromadlarini tavsiflovchi asosiy ko’rsatkichlar

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	2024yil	2025 yil	2025 yilning 2024 yilga nisbatan o‘zgarishi (+/-)
Doimiy aholi soni	kishi	3639300	3 716 949	77649
Yalpi hududiy mahsulot hajmi	mlrd so‘m	83950	98 783,4	14833,4
Yalpi hududiy mahsulotning real o‘sishi	%	6,5	6,8	0,3
Sanoat ishlab chiqarishining o‘sishi	%	8,0	7,2	-0,8
Qurilish ishlari hajmining o‘sishi	%	6,0	10,8	4,8
Bozor xizmatlari hajmining o‘sishi	%	10,0	13,6	3,6
Aholi jon boshiga o‘rtacha umumiy daromad	ming so‘m	19914,8	23 517,5	3602,7
Respublika bo‘yicha aholi jon boshiga o‘rtacha umumiy daromad	ming so‘m	25671,6	29 935,5	4263,9
Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar o‘sish sur’ati	%	107,9	108,5	0,6

1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlar 2025-yilda Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotining barqaror o‘sish sur’atini saqlab qolganini ko‘rsatadi. Viloyatning doimiy aholisi bir yil davomida 77,6 ming kishiga ko‘payib, 2026-yil 1-yanvar holatiga 3 716 949 kishiga yetdi. Bu 2,1 foizlik o’sishni anglatadi. Aholining bunday tez sur’atda o’sishi bir tomondan viloyatning mehnat salohiyati yuqoriligini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan ish o‘rinlari yaratish, ijtimoiy infratuzilmani kengaytirish va aholi daromadlarini oshirishga bo‘lgan talabni kuchaytiradi.

2025-yilda viloyatning yalpi hududiy mahsuloti joriy narxlarda 98 783,4 mlrd so‘mni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich 2024-yilga nisbatan 14 833,4 mlrd so‘mga, nominal ifodada esa 17,7 foizga ko‘p. YaHMning real o‘sish sur’ati 6,8 foizni tashkil etib, 2024-yildagi 6,5 foizdan 0,3 foiz punktga yuqori bo‘ldi. Ya’ni iqtisodiy o‘sish nafaqat saqlanib qoldi, balki biroz tezlashdi. Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 26 856,9 ming so‘mga yetib, o’tgan yilga nisbatan 4,5 foizga oshdi. qashstat

Tarmoqlar kesimida o‘sish sur’atlari turlicha bo‘ldi. Sanoat ishlab chiqarishining o‘sishi 2024-yildagi 8,0 foizdan 2025-yilda 7,2 foizga pasayib, 0,8 foiz punktga sekinlashdi. Bu viloyat iqtisodiyotida muhim o‘rin tutuvchi sanoat tarmog‘ida o’sish sur’atini qo‘llab-quvvatlash uchun qo‘shimcha choralar zarurligini ko‘rsatadi. Aksincha, qurilish ishlari hajmining o’sishi 6,0 foizdan 10,8 foizga, bozor xizmatlari hajmining o’sishi esa 10,0 foizdan 13,6 foizga tezlashdi. Xizmatlar sohasi viloyat iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan tarmog’iga aylandi. Bu iqtisodiyot tarkibining xizmatlar tomon diversifikatsiyalashuvidan dalolat beradi.

Aholi daromadlari ham sezilarli oshdi. Viloyatda aholi jon boshiga o‘rtacha umumiy daromad 2024-yildagi 19 914,8 ming so’mdan 2025-yilda 23 517,5 ming so‘mga yetdi. Bu nominal ifodada 3 602,7 ming so’mga yoki 18,1 foizga ko’p demakdir. Jon boshiga real umumiy daromadlarning o‘sish sur’ati 107,9 foizdan 108,5 foizga ko‘tarildi. Bu ko‘rsatkich respublika bo’yicha o‘rtacha ko’rsatkichdan (107,2 foiz) yuqori, ya’ni viloyatda aholi daromadlari real ifodada mamlakat o’rtachasidan tezroq o’smoqda. stat

Shunga qaramay, daromadlar darajasi bo‘yicha viloyat respublika o’rtachasidan ortda qolmoqda. 2025-yilda respublika bo’yicha aholi jon boshiga o‘rtacha umumiy daromad 29 935,5 ming so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, Qashqadaryo viloyatida bu ko‘rsatkich respublika darajasining 78,6 foiziga teng bo‘ldi (2024-yilda 77,6 foiz). Nisbiy tafovut 1 foiz punktga qisqargan bo‘lsa-da, mutlaq farq 5 756,8 ming so‘mdan 6 418,0 ming so‘mga oshgan.

Umuman olganda, 2025-yilda Qashqadaryo viloyatida iqtisodiy o‘sish tezlashdi, qurilish va xizmatlar sohalari jadal rivojlandi, aholi daromadlari real ifodada respublika o‘rtachasidan tezroq o’sdi. Biroq sanoatda o‘sish sur’atining sekinlashuvi hamda aholi jon boshiga daromadlar bo’yicha respublika o‘rtacha darajasidan sezilarli ortda qolish viloyat uchun asosiy muammolar bo’lib qolmoqda. Bu esa sanoatni modernizatsiya qilish, yuqori q o‘shilgan qiymatli ishlab chiqarishni rivojlantirish va aholi bandligi hamda daromadlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirishni taqozo etadi.

Ijtimoiy infratuzilmaning turmush darajasiga ta’sirini bir nechta asosiy yo‘nalishda izohlash mumkin. Birinchidan, ta’lim infratuzilmasini rivojlantirish aholining kasbiy malakasini oshirish va zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini yaxshilash mehnatga layoqatlilikni saqlash va ish vaqtining sog‘liq bilan bog‘liq yo‘qotishlarini kamaytirishga yordam beradi. Uchinchidan, yo‘l-transport va raqamli infratuzilmaning rivojlanishi aholi uchun ish o‘rinlari, ta’lim muassasalari, bozorlar va davlat xizmatlariga yetib borish imkoniyatlarini kengaytiradi. To‘rtinchidan, ichimlik suvi va kommunal xizmatlarning barqarorligi yashash sharoitlarini yaxshilaydi hamda uy xo‘jaliklarining vaqt va xarajatlarini qisqartirishi mumkin.

Qashqadaryo viloyatida mazkur yo‘nalishlarni amalga oshirishda hududlarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish lozim. Aholi soni, aholi punktlarining joylashuvi va xizmat ko‘rsatish obyektlarigacha bo‘lgan masofa hududlar kesimida farq qilishi mumkin. Shu bois investitsiyalarni taqsimlashda faqat aholi soniga emas, balki mavjud infratuzilmaning holati, xizmatlardan foydalanish darajasi va qondirilmagan ehtiyojlarga ham tayanish maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Qashqadaryo viloyatida ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish aholi turmush darajasini oshirish, hududlar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish hamda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning muhim omillaridan biridir. Viloyatda yalpi hududiy mahsulot, sanoat ishlab chiqarishi, qurilish ishlari va bozor xizmatlari hajmining o‘sishi hududning iqtisodiy salohiyati ortib borayotganini ko‘rsatadi Biroq iqtisodiy o‘sish natijalarini aholining kundalik hayotida namoyon etish uchun ta’lim, sog‘liqni saqlash, ichimlik suvi ta’minoti, transport, uy-joy kommunal xo‘jaligi va raqamli xizmatlar infratuzilmasini mutanosib rivojlantirish talab etiladi. Tahlillar davomida Qashqadaryo viloyatida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan umumiy daromad respublika o‘rtacha ko‘rsatkichidan past ekanligi aniqlandi. Bu holat hududda yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish zarurligini ko‘rsatadi. Shu sababli ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish faqat qurilish ishlari hajmini ko‘paytirish bilan cheklanmasdan, yaratilgan obyektlarning sifati, foydalanish imkoniyati va aholining real ehtiyojlariga mosligini ham qamrab olishi lozim.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Ijtimoiy infratuzilmani hududiy ehtiyojlar asosida rejalashtirish. Viloyatning shahar va tumanlari kesimida maktabgacha ta’lim tashkilotlari, maktablar, tibbiyot muassasalari, ichimlik suvi tarmoqlari va transport xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojni baholash asosida

ustuvor investitsiya yo‘nalishlarini belgilash maqsadga muvofiq.

2. Qishloq hududlarida ijtimoiy xizmatlar qamrovini kengaytirish. Olis va chekka aholi punktlarida birlamchi tibbiy yordam, sifatli ta’lim, toza ichimlik suvi, barqaror elektr ta’minoti va internet xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash zarur. Bunda infratuzilma obyektlarini aholi soni va hududning geografik xususiyatlarini hisobga olgan holda joylashtirish lozim.

3. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan samarali foydalanish. Ta’lim, tibbiyot, kommunal xizmatlar va mahalliy transport sohalariga xususiy investitsiyalarni jalb etish, shu bilan birga, xizmatlarning sifati va aholiga maqbul narxlarda taqdim etilishini nazorat qilish muhimdir.

4. Ijtimoiy infratuzilma loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholash. Har bir loyiha bo‘yicha yaratiladigan ish o‘rinlari, xizmatlardan foydalanuvchilar soni, aholining vaqt va xarajatlar tejalishi hamda xizmatlar sifati kabi ko‘rsatkichlarni muntazam monitoring qilish tizimini joriy etish tavsiya etiladi.

5. Aholi bandligi va daromadlarini oshirish. Ijtimoiy infratuzilma loyihalarini mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirish, kasb-hunarga o‘qitish va yangi ish o‘rinlarini yaratish dasturlari bilan uyg‘unlashtirish lozim. Ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarning mehnat bozorida ishtirokini kengaytirishga alohida e’tibor qaratish kerak.

6. Raqamli infratuzilmani rivojlantirish. Elektron davlat xizmatlari, masofaviy ta’lim, telemeditsina va raqamli to‘lov xizmatlarini kengaytirish orqali aholining ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash mumkin.

7. Mahalliy budjet mablag‘laridan natijadorlik asosida foydalanish. Ijtimoiy infratuzilma obyektlarini qurish va ta’mirlashda mablag‘larni taqsimlash jarayoniga aholining ehtiyojlari, hududning rivojlanish darajasi va loyihaning kutilayotgan ijtimoiy samarasi mezonlarini kiritish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, Qashqadaryo viloyatida aholi turmush darajasini oshirishning istiqbollari iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishi bilan uyg‘unlashtirishga bog‘liq. Taklif etilgan chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish hududlar o‘rtasidagi tafovutlarni qisqartirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirish, ijtimoiy xizmatlar sifatini yaxshilash hamda inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish Qashqadaryo viloyatining uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot strategiyasida ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qaralishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

[1]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. — URL: [https://lex.uz/uz/docs/-

[2]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF–158-son Farmoni. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida. — URL: [https://lex.uz/uz/acts/-6600413

[3]. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-apreldagi 201-son qarori. 2022–2026-yillarda Qashqadaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. — URL: [https://www.lex.uz/uz/acts/-

[4]. Marshall A. Principles of Economics. London: Macmillan, 1920.

[5]. Krugman P. Geography and Trade. MIT Press, 1991.

[6]. Perroux F. Economic Space: Theory and Applications. Quarterly Journal of Economics, 1950.

[7]. Xoliqulov Sh. Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishning nazariy asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.

[8]. Ergashev I. Ijtimoiy infratuzilmaning mintaqaviy rivojlanishdagi o‘rni. – Toshkent: Fan, 2021.

[9]. Xasanov N. O‘zbekiston iqtisodiyotida infratuzilmaviy siyosatning ustuvor yo‘nalishlari. – Iqtisodiyot va ta’lim, 2022, №4.

[10]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli Farmoni – “2022–2026yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”.

[11]. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari. – https:// stat.uz (murojaat sanasi: 2025-yil, may).

[12]. UNDP. Human Development Report – Central Asia Regional Overview. New York: UNDP, 2023.

[13]. Jahon banki (World Bank). Strengthening Social Infrastructure for Inclusive Growth in Uzbekistan. – Washington D.C., 2022.

[14]. Khamraeva S. N., Alimova M. Y. Scientific and Theoretical Foundations of Social Infrastructure Development //Journal of Marketing and Emerging Economics. – 2022. – T. 2. – №. 5. – C. 155-160.

[15]. KHAMRAEVA S. N., ALIMOVA M. Y. Methodological bases for assessing the level of innovative development of agriculture and its service infrastructure activities //Journal of Contemporary Issues in Business and Government. – 2021. – T. 27. – №. 2. – C. 4062-4068.

[16]. Dustova M. PROBLEMS OF TRANSITION TO DISTANCE EDUCATION IN UZBEKISTAN //Gospodarka i Innowacje. – 2023. – C. 98-105.

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Alimova Munisa Yulchiyevna O‘XIA dotsenti, i.f.f.d., (PhD) / Алимова Муниса Юлчиевна Доцент Международная исламская академия Узбекистана, доктор философии (PhD) по экономическим наукам / Alimova Munisa Yulchiyevna Associate Professor at the International Islamic Academy of Uzbekistan, PhD in Economics
E-mail: munisaalimova8@gmail.com

2. Rustamova Gavhar Baxtiyarovna ATMU

magistri / Rustamova Gavhar Baxtiyarovna / Рустамова Гавхар Бахтияровна Магистрант Студент магистратуры в Университете информационных технологий и менеджмента / Master's Student at the Master's student at the University of Information Technologies and Management
E-mail: gavharrustamova029@gmail.com

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.10.10.2026.47 *Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti*

MINTAQAVIY YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH JARAYONLARINI INNOVATSIYALAR ASOSIDA RAG‘BATLANTIRISH

Xo‘janova Gulshoda Otamurodovna

СОДЕЙСТВИЕ ПЕРЕХОДУ К РЕГИОНАЛЬНОЙ «ЗЕЛЕНОЙ» ЭКОНОМИКЕ, ОСНОВАННОЙ НА ИННОВАЦИЯХ

Хужанова Гульшода Отамуродовна

THE IMPORTANCE OF INNOVATION IN PROMOTING THE TRANSITION TO A REGIONAL GREEN ECONOMY

Khojanova Gulshoda Otamurodovna

Annotatsiya: Mazkur maqolada mintaqaviy yashil iqtisodiyotga o‘tishni rag‘batlantirishda innovatsiyalarning ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida yashil iqtisodiyotning hududiy rivojlanishdagi o‘rni, innovatsion texnologiyalarning energiya samaradorligini oshirishdagi roli hamda ekologik barqarorlikni ta’minlashdagi ahamiyati o‘rganilgan. Shuningdek, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, resurslardan oqilona foydalanish va “aylanma iqtisodiyot” tamoyillarini joriy etishning iqtisodiy samaradorligi tahlil qilingan. Maqolada yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar. yashil iqtisodiyot, innovatsiyalar, barqaror rivojlanish, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik xavfsizlik, energiya samaradorligi, yashil transformatsiya, aylanma iqtisodiyot, mintaqaviy rivojlanish, yashil texnologiyalar.

Аннотация: В данной статье проводится научный анализ роли инноваций в содействии переходу к региональной зеленой экономике. Исследование рассматривает роль зеленой экономики в региональном развитии, роль инновационных технологий в повышении энергоэффективности и важность обеспечения экологической устойчивости. Также анализируется экономическая эффективность развития возобновляемых источников энергии, рационального использования ресурсов и реализации принципов «циркулярной экономики». В статье разработаны научные предложения и рекомендации по совершенствованию перехода к зеленой экономике.

Ключевые слова: зеленая экономика, инновации, устойчивое развитие, возобновляемая энергия, экологическая безопасность, энергоэффективность, зеленая трансформация, циркулярная экономика, региональное развитие, зеленые технологии.

Abstract: This article scientifically analyzes the importance of innovations in promoting the transition to a regional green economy. The study examines the role of the green economy in regional development, the significance of innovative technologies in improving energy efficiency, and their contribution to ensuring environmental sustainability. In addition, the economic efficiency of developing renewable energy sources, rational use of resources, and implementation of circular economy principles are analyzed. The article also proposes scientifically grounded recommendations for improving the process of transition to a green economy.

Keywords. green economy, innovation, sustainable development, renewable energy, environmental security, energy efficiency, green transformation, circular economy, regional development, green technologies.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida ekologik muammolarning keskinlashuvi, tabiiy resurslarning cheklanganligi hamda iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlari iqtisodiy rivojlanishning yangi modelini shakllantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Xalqaro ekspertlarining hisob-kitoblariga ko‘ra, tabiiy resurslardan samarasiz foydalanish va ekologik degradatsiya natijasida jahon iqtisodiyoti har yili yalpi ichki mahsulotning 3–5 foizigacha bo‘lgan qismini yo‘qotmoqda[165]. Shu nuqtai nazardan, “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi barqaror rivojlanishni ta’minlashning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Yashil iqtisodiyot iqtisodiy o‘sish bilan bir qatorda ekologik muvozanatni saqlash,

[165] World Bank, *Green Growth Indicators Report*, 2023–2024.

energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish va aholining turmush sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Mintaqalarda yashil transformatsiyani amalga oshirishda innovatsiyalar hal qiluvchi omil hisoblanadi. Innovatsion texnologiyalar energiya tejamkor ishlab chiqarishni rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, ekologik xavfsiz ishlab chiqarish tizimlarini joriy etish hamda resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydi. Ayniqsa, hududlarning tabiiy-iqtisodiy salohiyati, ishlab chiqarish tarkibi va ekologik holatini hisobga olgan holda innovatsion yondashuvlarni qo'llash yashil iqtisodiyotga o'tish samaradorligini oshiradi.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlarda "yashil innovatsiyalar" iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishiga aylangan bo'lsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda ushbu jarayonni institutsional va moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash dolzarb masala bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham 2030-yilgacha elektr energiyasi ishlab chiqarishda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushini 40 foizga yetkazish hamda yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan issiqxona gazlari emissiyasini 2010-yil darajasiga nisbatan 35 foizga kamaytirish vazifalari belgilangan[166].

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi mintaqaviy yashil iqtisodiyotga o'tishni rag'batlantirishda innovatsiyalarning iqtisodiy va ekologik ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslash hamda ularni samarali qo'llash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil iqtisodiyot nazariyasi va uning innovatsion rivojlanish bilan bog'liqligi ko'plab xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, BMTning Atrof-muhit dasturi (UNEP) tomonidan yashil iqtisodiyot "inson farovonligini oshirish va ijtimoiy tenglikni ta'minlash bilan bir qatorda ekologik xavflarni kamaytiruvchi iqtisodiy tizim"[167] sifatida talqin qilinadi. Ushbu yondashuv iqtisodiy o'sishni ekologik xavfsizlik bilan uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

J. Stiglitz[168], N. Stern[169] va P. Krugman[170] kabi iqtisodchilar yashil iqtisodiyotga o'tishda davlatning innovatsion siyosati va "yashil investitsiyalar" muhim rol o'ynashini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, innovatsiyalar ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish hamda ekologik zararlarni minimallashtirish imkonini beradi.

M. Porterning "Porter gipotezasi"ga ko'ra, ekologik talablarning kuchayishi korxonalarni innovatsion faoliyatga undaydi va natijada raqobatbardoshlik oshadi[171]. Mazkur yondashuv yashil iqtisodiyotning innovatsiyalar bilan uzviy bog'liqligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan ham yashil iqtisodiyot va innovatsion rivojlanish masalalari keng tadqiq etilgan. Xususan, Q.X.Abdurahmonov o'z ilmiy ishlarida barqaror rivojlanish va inson kapitalining ekologik iqtisodiyot bilan uzviy bog'liqligini asoslab bergan[172]. Shuningdek, Bakhodir Khoshimov[173] va Nodirjon Yuldashevlar[174]ning tadqiqotlarida energiya samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda "yashil texnologiyalar"ni hududiy iqtisodiyotga joriy etishning iqtisodiy samaradorligi tahlil qilingan.

Bizning fikrimizcha, yashil iqtisodiyotga o'tish samaradorligi bevosita innovatsion salohiyat darajasiga bog'liqdir. Chunki innovatsiyalar orqali energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish imkoniyati kengayadi. Shu sababli mintaqaviy rivojlanish strategiyalarida "yashil innovatsiyalar"ni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning tizimli tahlil, iqtisodiy-statistik, qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya kabi bir qator usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning axborot bazasini xalqaro tashkilotlar hisobotlari, ilmiy maqolalar, statistik ma'lumotlar, milliy strategik dasturlar hamda ekologik rivojlanish konsepsiyalariga oid materiallar tashkil etdi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari mintaqaviy yashil iqtisodiyotga o'tishda innovatsion texnologiyalar va "yashil investitsiyalar"ning ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatdi. Shu bilan birga, hududlarda ekologik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, moliyaviy resurslarning cheklanganligi va innovatsion faoliyatning sustligi yashil transformatsiya jarayoniga ma'lum darajada salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mazkur holatlar tadqiqot natijalarini chuqur muhokama qilish hamda ularning amaliy ahamiyatini ilmiy asoslash zaruratini yuzaga keltiradi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda quyosh, shamol va gidroenergetika sohalariga innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda "yashil investitsiyalar"ni kengaytirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Natijada mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya quvvatlari va yashil elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi bosqichma-bosqich oshib bormoqda. Shuningdek, energetika tizimini modernizatsiya qilish, energiya samaradorligini oshirish va atmosferaga chiqarilayotgan zararli chiqindilarni kamaytirish maqsadida bir qator yirik investitsion

[166] 1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmoni

[167] UNEP – Towards a Green Economy Report. United Nations Environment Programme, 2011.

[168] Joseph Stiglitz – Climate Change and Green Economy Studies

[169] Nicholas Stern Review on the Economics of Climate Change. London School of Economics, 2006.

[170] Paul Krugman Articles and Research. https://www.nobelprize.org/prizes/economic-sciences/2008/krugman/facts/?utm_source=chatgpt.com

[171] Michael Porter and Claas van der Linde – Toward a New Conception of the Environment-Competitiveness Relationship. Harvard Business Review, 1995.

[172] Q.X.Abdurahmonov Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot: ilmiy tadqiqotlar va innovatsion rivojlanish yo'nalishlari. — Toshkent: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2024.

[173] Hoshimov, B. (2024). *Economics of innovation and entrepreneurship development*. New York University Abu Dhabi.

[174] Abdurakhmanov, K. Kh., Zokirova, N. K., & Sagidullin, F. R. (2022). Development of the labor market in the context of the formation of a green economy. *International Journal of Special Education, 37*(3), 12258–12274.

loyihalar amalga oshirilmoqda. Quyidagi jadvalda O‘zbekistonda 2020–2025-yillarda qayta tiklanuvchi energiya rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari keltirilgan.

1-jadval.

O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari (2020–2025)[175]

T/r	Yillar	Qayta tiklanuvchi energiya quvvati (MW)	Elektr ishlab chiqarishdagi RES* ulushi (%)	Elektr energiyasiga talab (mlrd kWh)	Yashil energetika bo‘yicha asosiy holat
1.	**2020**	2 025	10–12	66.5	GES asosiy manba sifatida ustunlik qilgan
2.	**2021**	2 156	11–12	69.1	Quyosh energetikasi loyihalari boshlangan
3.	**2022**	2 478	12–13	71.3	Xorijiy investitsiyalar asosida RES kengaydi
4.	**2023**	2 668	13–14	74.8	Yirik quyosh va shamol stansiyalari ishga tushirildi
5.	**2024**	5 934	15–16	78.0	Quyosh energetikasida keskin o‘sish kuzatildi
6.	**2025**	10.5 mlrd kWh yashil elektr ishlab chiqarildi	16–18	84.9	Yashil energiya ishlab chiqarish ikki baravar oshdi

Izoh: “RES” — ing.* ***Renewable Energy Sources**, o‘zb.****qayta tiklanuvchi energiya manbalari***

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, 2020–2025-yillarda O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayoni jadallashgan. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya quvvatlari 2020-yildagi 2025 MW dan 2024-yilda 5934 MW ga yetgan. Bu esa innovatsion texnologiyalar va “yashil investitsiyalar” hajmining sezilarli oshganligini ko‘rsatadi. 2025-yilda quyosh va shamol energetikasi asosida ishlab chiqarilgan elektr energiyasi hajmi 10.5 mlrd kWh dan oshgani qayd etilgan. Bu ko‘rsatkich yashil energetikaning iqtisodiyotdagi rolini kuchaytirayotganini anglatadi. Shuningdek, IEA ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatda elektr energiyasiga bo‘lgan talab 2025-yilda 84.9 mlrd kWh ga yetgani kuzatilmoqda. Shu sababli energiya samaradorligini oshirish, “aqlli energetika” tizimlari va innovatsion ekologik texnologiyalarni joriy etish strategik ahamiyat kasb etmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yashil iqtisodiyotga o‘tish faqat ekologik zarurat emas, balki iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim vositasidir. Biroq ko‘plab hududlarda innovatsion infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, moliyaviy resurslarning cheklanganligi hamda ekologik texnologiyalar bozorining sust shakllangani ushbu jarayonni sekinlashtirmoqda. Innovatsiyalar mintaqaviy yashil iqtisodiyotga o‘tishning asosiy drayveri hisoblanadi. Ayniqsa, quyidagi yo‘nalishlarda innovatsion faoliyatning ijobiy ta’siri yuqori ekanligi aniqlandi:

1. Energiya samaradorligini oshirish

Innovatsion energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish elektr energiyasi va tabiiy resurslar sarfini sezilarli darajada kamaytiradi. Quyosh va shamol energetikasidan foydalanish hududlarning energetik mustaqilligini oshirishga xizmat qiladi.

2. Ekologik xavfsizlikni ta’minlash

Zamonaviy chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalari atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish bilan birga ikkilamchi resurslardan foydalanish imkonini yaratadi. Bu esa “aylanma iqtisodiyot” tamoyillarini rivojlantirishga yordam beradi.

3. Raqobatbardoshlikni oshirish

Yashil innovatsiyalar korxonalarning xalqaro bozordagi mavqeini mustahkamlaydi. Ekologik toza mahsulotlarga bo‘lgan talabning ortishi hududiy eksport salohiyatini kengaytiradi.

4. Yangi ish o‘rinlarini yaratish

Qayta tiklanuvchi energetika, ekologik xizmatlar va “yashil texnologiyalar” asosidagi ishlab chiqarish yangi kasblar va ish o‘rinlari paydo bo‘lishiga olib keladi.

5. Hududiy barqaror rivojlanishni ta’minlash

Innovatsiyalar orqali suv tanqisligi, ekologik degradatsiya va atmosfera ifloslanishi kabi muammolarni kamaytirish mumkinligi aniqlandi. Natijada hududlarning ekologik va iqtisodiy barqarorligi mustahkamlanadi.

Mintaqalarda innovatsiyalarni rivojlantirish uchun davlat tomonidan soliq imtiyozlari, subsidiyalar va “yashil investitsiyalar”ni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish zarur. Shu bilan birga, oliy ta’lim muassasalari, ilmiy markazlar va ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasida integratsiyani kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, “aqlli shaharlar”, raqamli monitoring tizimlari va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ekologik boshqaruv samaradorligini oshiradi. O‘zbekiston hududlarida ham innovatsion ekotizimlarni shakllantirish yashil transformatsiyani jadallashtirishga xizmat qiladi.

[175] Quyosh energetikasi quvvatlari bo‘yicha IRENA statistikasi.

Shuningdek, aholining ekologik madaniyatini oshirish va “yashil iste’mol” tamoyillarini keng targ‘ib qilish yashil iqtisodiyotning institutsional asoslarini mustahkamlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, innovatsiyalar mintaqaviy yashil iqtisodiyotga o‘tishning eng muhim omillaridan biri ekanligi aniqlandi. Innovatsion texnologiyalar resurslardan samarali foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash, iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirish hamda yangi ish o‘rinlarini yaratishga xizmat qiladi. Ayniqsa, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, chiqindilarni qayta ishlash va suv resurslarini boshqarish tizimlarini takomillashtirishda innovatsiyalarning roli beqiyosdir. Innovatsion yondashuvlar asosida amalga oshirilayotgan yashil transformatsiya jarayonlari nafaqat ekologik muammolarni kamaytirishga, balki hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshirishga ham xizmat qiladi. Xususan, zamonaviy texnologiyalar yordamida ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish, energiya sarfini kamaytirish va mahsulot hamda xizmatlar sifatini yaxshilash imkoniyatlari kengayadi. Bu esa korxonalar va hududlarning ichki hamda tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini mustahkamlaydi.

Shuningdek, innovatsiyalar asosida shakllanayotgan “yashil” ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish tarmoqlari aholi bandligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Natijada yangi kasb va mutaxassisliklar vujudga kelib, mehnat bozorining tarkibiy jihatdan takomillashishiga zamin yaratiladi. Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirib, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Hududlarda “yashil innovatsiyalar”ni moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish;

2.Qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo‘yicha investitsion loyihalarni ko‘paytirish;

3.Innovatsion ekologik texnologiyalarni joriy etuvchi korxonalarni soliq imtiyozlari bilan qo‘llab-quvvatlash;

4.Oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish;

5.Hududiy ekologik monitoringning raqamli tizimlarini rivojlantirish.

Umuman olganda, mintaqaviy yashil iqtisodiyotga muvaffaqiyatli o‘tish innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga investitsiyalarni ko‘paytirish hamda ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirishni talab etadi. Mazkur chora-tadbirlar hududlarning ekologik barqarorligini ta’minlash, iqtisodiy samaradorligini oshirish va uzoq muddatli raqobatbardosh rivojlanishiga erishishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmoni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktabrdagi “2019 — 2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-son Qarori
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. Toshkent sh., 2023-yil 16-fevral.
4. Vaxabov A.V. Sh.X.Xajibakiyev va boshqalar. Yashil iqtisodiyot: Darslik./.- Toshkent.: “Universitet”, 2020.-262 b.
5. Q.X.Abdurahmonov Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot: ilmiy tadqiqotlar va innovatsion rivojlanish yo‘nalishlari. — Toshkent: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2024.
6. Hoshimov, B. (2024). Economics of innovation and entrepreneurship development. New York University Abu Dhabi.
7. Abdurakhmanov, K. Kh., Zokirova, N. K., & Sagidullin, F. R. (2022). Development of the labor market in the context of the formation of a green economy. International Journal of Special Education, 37(3), 12258–12274
8. Joseph Stiglitz – Climate Change and Green Economy Studies
9. Nicholas Stern Review on the Economics of Climate Change. London School of Economics, 2006.
10. Paul Krugman Articles and Research. https://www.nobelprize.org/prizes/economic-sciences/2008/krugman/facts/?utm_source=chatgpt.com
11. Michael Porter and Claas van der Linde – Toward a New Conception of the Environment-Competitiveness Relationship. Harvard Business Review, 1995.
12. World Bank, *Green Growth Indicators Report*, 2023–2024.
13. UNEP – Towards a Green Economy Report. United Nations Environment Programme, 2011.
14. Quyosh energetikasi quvvatlari bo‘yicha IRENA statistikasi.
15. Lex.uz
16. Stat.uz

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Xo‘janova Gulshoda Otamurodovna QarDTU Innovatsion iqtisodiyot kafedrasi dotsenti, i.f.f.d., PhD / Хужанова Гульшода Отамуродовна Доцент кафедры инновационной экономики, КарГТУ, доктор философии / Khojanova Gulshoda Otamurodovna Department of Innovative Economy, Karshi State Technical University PhD in Economics

E-mail: gulshodaxojanova@gmail.com

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.10.10.2026.48 *Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi*

AUTSORSING XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA XORIJ TAJRIBALARINI O‘RGANISH

Ergasheva Nasiba

ИЗУЧЕНИЕ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УСЛУГ АУТСОРСИНГА

Эргашева Насиба

STUDYING FOREIGN EXPERIENCES IN IMPROVING OUTSOURCING SERVICES

Ergasheva Nasiba

Annotatsiya. Ushbu maqolada autsorsing xizmatlarini takomillashtirishda xorijiy mamlakatlar, jumladan, Hindiston, Filippin, AQSh, Xitoy, Buyuk Britaniya, Malayziya, Vetnam va Polsha tajribalari o‘rganilgan. Mazkur davlatlarda autsorsing xizmatlarining rivojlanish xususiyatlari, iqtisodiy samaradorlikni oshirish, xarajatlarni optimallashtirish, malakali kadrlar salohiyatidan foydalanish va yangi ish o‘rinlarini yaratishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida ilg‘or xorijiy tajribalarni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish yo‘nalishlari asoslab berilgan. Shuningdek, mamlakatimizda autsorsing xizmatlarining raqobatbardoshligini oshirish, xalqaro xizmatlar bozoriga integratsiyalashuvni kuchaytirish va korxonalar faoliyati samaradorligini yaxshilash bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: autsorsing xizmatlari, xizmatlar eksporti, xizmatlar sohasi, BPO (Business Process Outsourcing – global biznes jarayonlarini autsorsing qilish bozori), biznes jarayonlari, xizmatlar sifati, xalqaro hamkorlik, innovatsion boshqaruv, ofshoring.

Abstract. This article examines foreign experience in improving outsourcing services, including that of India, the Philippines, the USA, China, the United Kingdom, Malaysia, Vietnam and Poland. It analyzes the specific features of outsourcing development in these countries and its role in increasing economic efficiency, optimizing costs, using the potential of skilled personnel and creating new jobs. Based on the research, directions for adapting advanced foreign practices to the conditions of Uzbekistan are substantiated. The article also proposes measures to increase the competitiveness of outsourcing services in the country, strengthen integration into the international services market and improve the performance of enterprises.

Keywords: outsourcing services, export of services, services sector, BPO (Business Process Outsourcing, the global market for outsourcing business processes), business processes, service quality, international cooperation, innovative management, offshoring.

Аннотация. В статье рассматривается зарубежный опыт совершенствования аутсорсинговых услуг, в том числе опыт Индии, Филиппин, США, Китая, Великобритании, Малайзии, Вьетнама и Польши. Анализируются особенности развития аутсорсинговых услуг в этих странах и их роль в повышении экономической эффективности, оптимизации затрат, использовании потенциала квалифицированных кадров и создании новых рабочих мест. По результатам исследования обоснованы направления адаптации передового зарубежного опыта к условиям Узбекистана. Кроме того, разработаны предложения по повышению конкурентоспособности аутсорсинговых услуг в стране, усилению интеграции в международный рынок услуг и повышению эффективности деятельности предприятий.

Ключевые слова: аутсорсинговые услуги, экспорт услуг, сфера услуг, BPO (Business Process Outsourcing — глобальный рынок аутсорсинга бизнес-процессов), бизнес-процессы, качество услуг, международное сотрудничество, инновационное управление, офшоринг.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlarining chuqurlashuvi, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi va korxonalar o‘rtasidagi raqobatning kuchayishi xo‘jalik yurituvchi subyektlardan boshqaruv tizimini takomillashtirish hamda mavjud resurslardan samarali foydalanishni talab etmoqda. Bunday sharoitda autsorsing xizmatlari korxonalarning asosiy faoliyatiga bevosita tegishli bo‘lmagan vazifalarni ixtisoslashgan tashqi tashkilotlarga topshirish orqali xarajatlarni kamaytirish, mehnat unumdorligini oshirish va xizmatlar sifatini yaxshilashning muhim vositasi sifatida namoyon

bo‘lmoqda. Ayniqsa, axborot texnologiyalari, buxgalteriya hisobi, inson resurslarini boshqarish, logistika, mijozlarga xizmat ko‘rsatish va biznes jarayonlarini boshqarish sohalarida autsorsingga bo‘lgan talab ortib bormoqda.

Hozirgi kunda eng aniq ko'rsatkichlardan biri bu global biznes jarayonlarini autsorsing qilish (BPO – Business Process Outsourcing) bozoridir. “Biznes jarayonlarini autsorsing qilish bozori 2026-yilda 358,6 milliard AQSh dollariga yetishini taxmin qilmoqda, bu 2025-yildagi 328,4 milliard AQSh dollaridan yuqori. Uning prognozlariga ko'ra, bozor 2033-yilga kelib yillik o'sish sur'ati 9,9 foiz bilan taxminan 695,8 milliard AQSh dollariga yetadi”[1]. Bu o'sish moliya, buxgalteriya hisobi, mijozlarga xizmat ko'rsatish, kadrlar, ta'minot va boshqa funksiyalar bo'yicha autsorsing biznes jarayonlariga bo'lgan talabning saqlanib qolishini aks ettiradi.


Mamlakatimiz autsorsing xizmatlarining rivojlanishi nafaqat korxonalarning ichki xarajatlarini qisqartirish, balki yangi ish o‘rinlarini yaratish, malakali mutaxassislar tayyorlash, innovatsiyalarni joriy etish va xalqaro xizmatlar bozoriga integratsiyalashuvni kuchaytirishga ham xizmat qiladi. Biroq autsorsingdan kutilgan natijaga erishish xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotni to‘g‘ri tanlash, shartnomaviy munosabatlarni aniq belgilash, axborot xavfsizligini ta’minlash va xizmatlar sifatini muntazam nazorat qilishga bog‘liq. Shu sababli ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish va ularni milliy iqtisodiyotning o‘ziga xos xususiyatlariga moslashtirish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Autsorsing tushunchasi va uning iqtisodiy mohiyatini o‘rganishda Ronald Kouzning firma faoliyati va tranzaksiya xarajatlariga oid qarashlari muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, S.Allen va A.Chandrashekar “Outsourcing services: the contract is just the beginning”[2] nomli maqolasi autsorsing xizmatlari qanchalik foydali ekanligiga bag‘ishlangan. M.Sako’ning “Outsourcing and Offshoring: Implications for Productivity of Business Services”[3] nomli maqolada Buyuk Britaniyada biznes xizmatlarining mahsuldorligiga autsorsing va offshoringning ta'siri ko'rib chiqilgan.

R.Liu, D.J.Feils va B.Scholnick “Why are different services outsourced to different countries?”[4] nomli maqolasida tranzaksiya xarajatlarini minimallashtirish maqsadida autsorsing xizmatlarini eksport qilishni tahlil qilishgan. Olimlarning fikricha, murakkab bo‘lmagan xizmatlar ko'proq xorijiy mamlakatlarga autsorsing qilinadi; yuqori institutsional sifatga va madaniy yaqinlikka ega mamlakatlarga xizmatlar ko'proq autsorsing qilinadi; odatiy bo'lmagan, murakkab va interaktiv xizmatlar nisbatan yuqori institutsional sifatga ega mamlakatlarga autsorsing qilinadi.

Polshalik J.Kabus, M.Dziadkiewicz va boshqa olimlar tomonidan yozilgan “Using Outsourcing Services in Manufacturing Companies”[5] nomli maqolasida autsorsing jarayonining bosqichlari quyidagicha bo‘lishini ta’kidlagan (1-rasm).



1-rasm. Autsorsing jarayonining bosqichlari[5].

Autsorsing loyihasining maqsadlarini aniqlash va aniqlash korxonaning autsorsingni boshlashi uchun birinchi va shu bilan birga eng muhim shartdir. Ikkinchi bosqichda tashqi subyekt - xizmat ko'rsatuvchi provayder bilan faoliyat belgilanadi. Maqsadni autsorsing xizmati ko'rsatuvchisi bilan kelishish tashqi subyektga taklifni baholash imkonini beradi. Amalda, yetkazib beruvchining ma'lum bir kontseptsiyasi bo'lishi mumkin, uni qo'llash kompaniyaning - mijozning muvaffaqiyatini ta'minlashi mumkin, ammo ular xizmat ko'rsatuvchi provayder tomonidan ko'zlangan maqsadlarni yaxshi bilishlari va shu bilan birga tushunishlari kerak.

Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan autsorsing xizmatlarining iqtisodiy mohiyati, nazariy asoslari va amaliy ahamiyatiga bag‘ishlangan qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, Sh.Shodmonovning “Autsorsing xizmatlari va uning nazariy asoslari”[6] nomli maqolasida autsorsingni iqtisodiyotning turli tarmoqlariga joriy etish xususiyatlari va undan foydalanish natijalari tadqiq etilgan. Sh.Kuvandikov va M.Mirxonovlarning “Xizmatlar sohasini rivojlantirishda autsorsing xizmatlarining o‘rni”[7] nomli ilmiy ishida esa autsorsing xizmatlari faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha tasniflanib, jumladan, axborot texnologiyalari, buxgalteriya va moliya, inson resurslarini boshqarish, mijozlarga xizmat ko‘rsatish hamda marketing sohalarida qo‘llanilishi yoritilgan.

Shuningdek, N.Sulaymonovning “Autsorsing xizmatlari raqamli platformalarini takomillashtirishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish usullari”[8] nomli maqolasida raqamli platformalarning autsorsing xizmatlari rivojiga ta’siri, ushbu jarayonda uchraydigan muammolar va ularni hal etish yo‘llari tahlil qilingan. A.Shaynazarovning “Xizmat ko‘rsatish sohasiga autsorsing xizmatini qo‘llash afzalliklari va iqtisodiy samaradorligi”[9] nomli tadqiqotida esa xizmatlar sohasida autsorsingdan foydalanishning o‘ziga xos jihatlari, uning afzalliklari hamda iqtisodiy samaradorlikka erishish strategiyalari o‘rganilgan. Mazkur tadqiqotlar autsorsing xizmatlarining nazariy va amaliy jihatlarini yoritib berishi bilan ahamiyatli bo‘lib, xorijiy tajribalarni o‘rganish, ularni milliy iqtisodiyot sharoitiga moslashtirish va autsorsing xizmatlarini takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda autsorsing xizmatlarini takomillashtirish bo‘yicha xorijiy tajribalarni o‘rganish va ularni O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlarini aniqlash maqsadida tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, ilmiy abstraksiyalash, umumlashtirish va mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Hindiston, Filippin, AQSh, Xitoy, Buyuk Britaniya, Malayziya, Vetnam va Polshaning autsorsing xizmatlarini rivojlantirish tajribalari o‘zaro taqqoslanib, ularning iqtisodiy samaradorlikni oshirish, xarajatlarni optimallashtirish, malakali kadrlar tayyorlash va xizmatlar eksportini kengaytirishdagi o‘rni o‘rganildi. Shuningdek, xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalari umumlashtirilib, ularni milliy iqtisodiyotning o‘ziga xos xususiyatlariga moslashtirish imkoniyatlari tahlil qilindi hamda O‘zbekistonda autsorsing xizmatlarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Autsorsing xizmatlarini rivojlantirish bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi ularning iqtisodiy tuzilishi, mehnat bozori, texnologik rivojlanish darajasi va korporativ boshqaruv madaniyatiga qarab farqlanadi. Ayrim mamlakatlarda autsorsing xarajatlarni kamaytirish va xalqaro xizmatlar eksportini kengaytirish vositasi bo‘lsa, boshqa mamlakatlarda u jarayonlar sifatini yaxshilash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va asosiy faoliyatga e’tiborni kuchaytirish mexanizmi sifatida rivojlangan.

1-jadval.

Autsorsing xizmatlari rivojlangan mamlakatlarning tajribalari

Davlat	Autsorsing xizmatlarining mohiyati
Hindiston	IT autsorsingi, dasturiy ta’minot yaratish, bulutli texnologiyalar, biznes jarayonlarini boshqarish (BPO), buxgalteriya va ma’lumotlarni tahlil qilish xizmatlari rivojlangan. Xorijiy kompaniyalar ushbu davlatga dasturlash, texnik yordam va biznes operatsiyalarini topshiradi. “2025-yilda autsorsing xizmatlari YaIMning 7,4% ini tashkil etgan hamda 2026-yilga kelib, global xizmatlar eksportining 4,3 foizini egallaydi”[10].
Filippin	Filippinda autsorsing xizmatlari call-markazlar, mijozlarga xizmat ko‘rsatish, tibbiy ma’lumotlarni qayta ishlash, virtual yordamchilar va moliyaviy-ma’muriy jarayonlarni autsorsing asosida bajarishga ixtisoslashgan bo‘lib, “Filippinning IT va biznes jarayonlarini boshqarish (IT-BPM) hamda autsorsing sektori yiliga taxminan 40 milliard dollar miqdorida eksport daromadini keltirib chiqaradi, 1,9 milliondan 1,97 milliongacha to‘liq stavkada ishlovchi xodimni ish bilan ta’minlaydi va mamlakat yalpi ichki mahsulotiga (YIM) taxminan 8,5 foiz hissa qo‘shadi”[11].
AQSh	AQSh autsorsing bozori raqamli transformatsiya, ixtisoslashgan kadrlarga bo‘lgan talab va xarajatlarni boshqarish omillari ta’sirida jadal kengaymoqda. Muhandislik xizmatlari autsorsingi AQShdagi umumiy autsorsing bozorida eng katta va eng tez o‘sib borayotgan segment hisoblanadi va bozorning 45,11 foizini tashkil qiladi. Bank ishi, moliyaviy xizmatlar va sug‘urta sektori 24,26 foiz bozor ulushi bilan AQShda IT-autsorsingdan foydalanish bo‘yicha yetakchi o‘rinda turadi AQSh autsorsing bozori (umumiy): 2025-yilda 1050,56 milliard dollar daromadga yetdi va 2033-yilga kelib 2332,95 milliard dollargacha o‘sishi prognoz qilinmoqda; bu yillik o‘rtacha o‘sish sur’ati (CAGR) 10,69 foizni tashkil etadi[12]. Shuningdek, “bizneslar tomonidan foydalanish: AQShdagi korxonalarning taxminan 66–68 foizi kamida bitta bo‘lim yoki biznes funksiyasini autsorsingga (tashqi ijrochiga) topshiradi”[13].
Xitoy	Axborot texnologiyalari, muhandislik, dizayn, texnologik tadqiqotlar va ishlab chiqarish bilan bog‘liq xizmatlar autsorsingi rivojlangan. “Xitoyning biznes jarayonlari autsorsingi (BPO) bozori 2024-yilda 19,68 milliard AQSh dollariga baholangan bo‘lib, 2030-yilga kelib 38,38 milliard AQSh dollariga yetishi kutilmoqda; bunda 2025–2030-yillar oralig‘ida yillik o‘rtacha o‘sish sur’ati 12,0 foizni tashkil etadi”[14].
Buyuk Britaniya	Buyuk Britaniya autsorsing bozori istiqbollari bo‘yicha hisobotiga ko‘ra, 2025-yilda Buyuk Britaniya autsorsing xizmatlari bozori 246 526,2 million AQSh dollari miqdoridagi daromadni tashkil etdi. 2026-yildan 2033-yilgacha bo‘lgan davrda bozor yillik o‘rtacha o‘sish sur’ati (CAGR) 10,95 foizni

	tashkil etishi va 2033-yilga kelib 557 707,6 million AQSh dollariga yetishi prognoz qilinmoqda[15]. Bunda muhandislik xizmatlari autsorsingi (Engineering Services Outsourcing — ESO) hozirgi kunda xizmat ko‘rsatish segmentlari orasida eng yirik va eng tez o‘sayotgan yo‘nalish hisoblanadi. 2025-yil holatiga ko‘ra, Buyuk Britaniyaning BPO sektorida taxminan 719 120 kishi mehnat qilmoqda[16]. Buyuk Britaniya hukumatining yirik shartnomalari jumladan, Milliy sog‘liqni saqlash xizmati (NHS) obyektlarini boshqarish, immigratsiya masalalari bo‘yicha ko‘mak va uy-joy ta’minoti — yirik strategik pudratchilar tomonidan amalga oshiriladi.
Malayziya	Moliya va buxgalteriya hisobi autsorsingi, marketing savdo autsorsingi, mijozlarni qo'llab-quvvatlash autsorsingi, o'qitishni rivojlantirish autsorsingi, inson resurslari va yollash autsorsingi, hujjatlarni boshqarishni qayta ishlash, shuningdek, xizmat sifatida biznes jarayoni bulutga asoslangan. Biznes jarayonlarini autsorsing qilish xizmatlari bozori texnologik yutuqlar va mijozga yo‘naltirilgan yechimlarga e’tibor qaratilishi hisobiga jadal rivojlanmoqda. Shuningdek, Kompaniyalar global ekologik standartlarga moslashishga intilayotgani sababli, barqaror rivojlanish tashabbuslari kengroq qamrov kasb etmoqda. Xarajatlar samaradorligi va malakali ishchi kuchidan foydalanish imkoniyati autsorsing sektorining o‘sishiga turtki beruvchi asosiy omillardir[17].
Vetnam	Mamlakat asosan dasturiy ta'minotni ishlab chiqish, fintex, sun'iy intellekt va mobil ilovalar yaratish kabi yuqori texnologiyali IT yo‘nalishlariga alohida e'tibor qaratmoqda. Iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha “Vyetnamning IT autsorsing bozori 2025-yilda 810 million AQSH dollarini tashkil etib, yiliga o‘rtacha 12.92% lik yillik o‘sish sur'atini namoyish etmoqda va bu raqam 2031-yilga kelib 1.68 milliard dollarga yetishi kutilmoqda. 560,000 dan ortiq malakali mutaxassislar armiyasi va boshqa davlatlarga nisbatan ancha arzon mehnat resurslari (soatiga 7 dollardan 58 dollargacha) tufayli mamlakat xalqaro kompaniyalar uchun eng tejamkor va samarali texnologik hamkorga aylanib bormoqda”[18].
Polsha	“Polsha modelida autsorsing asosan mamlakat ichida amalga oshiriladi. Tashqi autsorsingdan foydalanadigan 10 286 ta kompaniyaning 87,1 foizi faqat mamlakat ichidagi boshqa korxonalar xizmatlariga tayangan. Yana 8,4 foizi ham mahalliy, ham xorijiy korxonalar xizmatlaridan foydalangan bo‘lsa, atigi 4,5 foizi faqat xorijiy provayderlar bilan ishlagan. Jami 1328 ta kompaniya o‘z funksiyalarini xorijga autsorsingga bergan”[19] Kompaniya miqyosi va xorijiy kapitalga egalik qilish bilan autsorsing ortadi: yirik korxonalar va xorijiy kapitalga ega bizneslar kichikroq, mahalliy firmalarga qaraganda ancha tez-tez autsorsing vazifalarini bajaradi.

Jadval ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, autsorsing xizmatlari jahon iqtisodiyotida korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish, xarajatlarni optimallashtirish, malakali mutaxassislardan foydalanish va xalqaro mehnat taqsimotini chuqurlashtirishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Turli mamlakatlarda ushbu faoliyatning rivojlanishi iqtisodiy salohiyat, mehnat resurslarining malakasi, raqamli infratuzilma, investitsion muhit va xalqaro bozorlarga integratsiyalashuv darajasiga bog‘liq. Tahlil qilinayotgan davlatlar tajribasi autsorsing xizmatlarining yagona yo‘nalish bilan cheklanmasligini, balki IT xizmatlari, dasturiy ta’minot ishlab chiqish, moliyaviy operatsiyalar, muhandislik, mijozlarga xizmat ko‘rsatish va biznes jarayonlarini boshqarish kabi ko‘plab faoliyat turlarini qamrab olishini ko‘rsatadi.

Hindiston va Filippin tajribasi autsorsingning axborot texnologiyalari hamda biznes jarayonlarini boshqarish yo‘nalishlari orqali iqtisodiy o‘sishga qo‘shayotgan hissasini namoyon etadi. Hindistonda dasturiy ta’minot yaratish, bulutli texnologiyalar, ma’lumotlarni tahlil qilish va buxgalteriya xizmatlari xalqaro kompaniyalarning asosiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilmoqda. Filippinda esa call-markazlar, mijozlarni qo‘llab-quvvatlash, tibbiy ma’lumotlarni qayta ishlash va moliyaviy-ma’muriy xizmatlar ustuvor ahamiyatga ega. Xususan, Filippinning IT-BPM sektori mamlakat YaIMiga taxminan 8,5 foiz hissa qo‘shishi hamda millionlab kishilarni ish bilan ta’minlashi ushbu faoliyatning bandlik va milliy daromadni oshirishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Mazkur davlatlar tajribasidan kelib chiqib, autsorsingni rivojlantirishda malakali kadrlar tayyorlash, xorijiy buyurtmachilar talablariga mos xizmatlar ko‘rsatish va raqamli infratuzilmani takomillashtirish muhim hisoblanadi.

AQSh va Buyuk Britaniya tajribasi autsorsing bozorining yuqori iqtisodiy salohiyati hamda murakkab professional xizmatlar bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Ushbu mamlakatlarda muhandislik xizmatlari, moliya, bank ishi, sug‘urta, IT va yirik tashkilotlar faoliyatining ayrim funksiyalarini tashqi ijrochilarga topshirish keng tarqalgan. AQShda autsorsing bozorining katta hajmi korxonalar tomonidan xarajatlarni boshqarish, ixtisoslashgan bilimlardan foydalanish va asosiy faoliyatga e’tibor qaratishga bo‘lgan ehtiyoj bilan izohlanadi. Buyuk Britaniyada esa davlat va xususiy sektor tashkilotlari tomonidan ayrim xizmatlarning ixtisoslashgan pudratchilarga topshirilishi autsorsingning tashkiliy boshqaruvdagi o‘rnini namoyon etadi. Shu bilan birga, ushbu davlatlarda autsorsing samaradorligini baholashda bozor hajmidan tashqari xizmatlar sifati, shartnomaviy majburiyatlarning bajarilishi, ma’lumotlar xavfsizligi va xarajatlarning tejalishi ham muhim mezonlar hisoblanadi.

Xitoy va Vetnam tajribasida autsorsingning texnologik rivojlanish, muhandislik hamda ishlab chiqarish bilan bog‘liq xizmatlar bilan uyg‘unlashuvi alohida e’tiborga loyiq. Xitoyda biznes jarayonlarini autsorsing qilish bozorining o‘sishi mamlakatning ishlab chiqarish salohiyati, texnologik infratuzilmasi va raqamli xizmatlar rivoji bilan bog‘liq. Vetnam esa dasturiy ta’minot ishlab chiqish, moliyaviy texnologiyalar, sun’iy intellekt va mobil ilovalar yaratish kabi yo‘nalishlarga e’tibor qaratmoqda. Malakali mutaxassislarning mavjudligi va nisbatan raqobatbardosh mehnat

xarajatlari Vetnamning xalqaro IT xizmatlari bozoridagi ishtirokini kengaytirishga yordam bermoqda. Ushbu tajriba autsorsingni faqat xarajatlarni kamaytirish vositasi sifatida emas, balki innovatsiyalarni joriy etish, texnologik bilimlarni rivojlantirish va korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish mexanizmi sifatida ham ko‘rib chiqish zarurligini anglatadi.

Malayziya tajribasi moliya va buxgalteriya hisobi, inson resurslarini boshqarish, marketing, mijozlarni qo‘llab-quvvatlash hamda bulutli texnologiyalarga asoslangan biznes xizmatlarini rivojlantirish bilan tavsiflanadi. Ushbu yo‘nalishlarda ixtisoslashgan xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar kompaniyalarning ichki operatsiyalarini optimallashtirish, boshqaruv jarayonlarini soddalashtirish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Polshada esa autsorsingning mahalliy korxonalar o‘rtasida keng tarqalganligi e’tiborga molik. Keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, tashqi xizmatlardan foydalanuvchi korxonalarning 87,1 foizi faqat mahalliy provayderlarga tayanadi. Bu holat autsorsing bozorining rivojlanishi faqat xalqaro buyurtmalarga emas, balki mamlakat ichidagi korxonalararo hamkorlik, ixtisoslashuv va xizmatlar bozorining shakllanganligiga ham bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, jadvalda keltirilgan mamlakatlar tajribasi autsorsing xizmatlarini rivojlantirishning bir-biridan farq qiluvchi iqtisodiy modellarini namoyon etadi. Hindiston va Filippin IT hamda biznes jarayonlarini boshqarish, AQSh va Buyuk Britaniya murakkab professional va muhandislik xizmatlari, Xitoy va Vetnam texnologik hamda ishlab chiqarish bilan bog‘liq xizmatlar, Malayziya esa integratsiyalashgan biznes xizmatlari bilan ajralib turadi. Polsha tajribasi mahalliy xizmat ko‘rsatuvchilar bilan hamkorlikning ahamiyatini ko‘rsatadi. Ushbu tajribalarni umumlashtirish asosida autsorsing samaradorligi va sifatini oshirish uchun xizmatlar ixtisoslashuvini chuqurlashtirish, malakali kadrlar salohiyatini rivojlantirish, raqamli infratuzilmani takomillashtirish, xizmatlar sifatini baholash mezonlarini joriy etish hamda buyurtmachi va ijrochi o‘rtasidagi shartnomaviy munosabatlarni mustahkamlash zarurligi aniqlanadi.

2-jadval.

Autsorsing xizmatlari rivojlangan davlatlar tajribasi va O‘zbekiston elektron savdosini rivojlantirish uchun foydalanish yo‘llari[176]

Davlatlar	O‘zbekiston autsorsing xizmatlarini rivojlantirish uchun foydalanishi kerak bo‘lgan yo‘llar
Hindiston	IT autsorsingi, dasturiy ta’minot ishlab chiqish va ma’lumotlarni tahlil qilish bo‘yicha ixtisoslashgan xizmatlar markazlarini tashkil etish, xalqaro kompaniyalar bilan hamkorlikni kengaytirish va yuqori malakali IT mutaxassislarini tayyorlash orqali eksportbop xizmatlar hajmini oshirish;
Filippin	Call-markazlar, mijozlarga xizmat ko‘rsatish va biznes jarayonlarini boshqarish xizmatlarini rivojlantirish orqali yangi ish o‘rinlarini yaratish mumkin. Xorijiy buyurtmachilarga xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar uchun chet tillarini biladigan mutaxassislarni tayyorlash va xizmatlar sifatini xalqaro talablarga moslashtirish;
AQSh	Korxonalarning buxgalteriya, moliya, inson resurslari va IT kabi yordamchi funksiyalarini ixtisoslashgan tashqi ijrochilarga topshirishini rag‘batlantirish, autsorsing shartnomalarida xizmat sifati, xarajatlar samaradorligi, axborot xavfsizligi va natijadorlik ko‘rsatkichlarini belgilash amaliyotini kengaytirish;
Xitoy	Ishlab chiqarish, muhandislik, texnologik tadqiqotlar va sanoat korxonalariga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq autsorsing yo‘nalishlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq. Sanoat korxonalari, texnologik markazlar va xususiy xizmat ko‘rsatuvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligini oshirish mumkin.
Buyuk Britaniya	Davlat va xususiy sektorda ayrim yordamchi xizmatlarni ixtisoslashgan tashkilotlarga topshirishda shaffof tanlov va natijadorlikka asoslangan shartnomalardan foydalanish, autsorsing xizmatlarini xarid qilishda xizmat sifati, xarajatlar tejalishi, ijrochining javobgarligi va iste’molchilar manfaatlarini himoya qilish mezonlarini kuchaytirishga xizmat qiladi.
Malayziya	Moliya, buxgalteriya, inson resurslari va marketing xizmatlarini birlashtirgan global biznes xizmatlari markazlarini tashkil etish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, bulutli texnologiyalar, raqamli platformalar va zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish orqali mahalliy korxonalarning xalqaro autsorsing bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish mumkin.
Vetnam	Dasturiy ta’minot, mobil ilovalar, sun’iy intellekt va moliyaviy texnologiyalar sohasida ixtisoslashgan autsorsing kompaniyalarini qo‘llab-quvvatlash, universitetlar va IT korxonalari hamkorligida amaliy ko‘nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlash hamda xalqaro buyurtmachilar bilan ishlash imkoniyatlarini kengaytirish;
Polsha	Mahalliy korxonalar o‘rtasida buxgalteriya, logistika, IT va ma’muriy xizmatlarni autsorsing asosida tashkil etishni rag‘batlantirish, kichik va o‘rta biznes uchun ixtisoslashgan xizmat ko‘rsatuvchilardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish orqali operatsion xarajatlarni kamaytirish va korxonalar samaradorligini oshirish mumkin.

[176] Muallif tomonidan Hindiston, Filippin, AQSh, Xitoy, Buyuk Britaniya, Malayziya, Vetnam va Polsha mamlakatlarining autsorsing xizmatlarini rivojlantirish tajribasi asosida tuzilgan.

Jadval ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, autsorsing xizmatlari rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalanish O‘zbekistonda xizmatlar sohasini diversifikatsiya qilish, korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish va yangi ish o‘rinlarini yaratish uchun muhim imkoniyatlarni yuzaga keltiradi. Hindiston va Vetnam tajribasi axborot texnologiyalari, dasturiy ta’minot ishlab chiqish hamda raqamli xizmatlarni rivojlantirishning ahamiyatini ko‘rsatsa, Filippin tajribasi mijozlarga xizmat ko‘rsatish va biznes jarayonlarini boshqarish orqali xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini namoyon etadi. Malayziya tajribasi moliya, buxgalteriya hisobi va inson resurslarini boshqarish xizmatlarini markazlashtirish, Polsha tajribasi esa mahalliy korxonalar o‘rtasida autsorsing munosabatlarini rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekistonda autsorsing xizmatlarini rivojlantirishda mamlakatning mavjud mehnat resurslari, yoshlarning raqamli ko‘nikmalari, xorijiy tillarni bilish darajasi va hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuvini hisobga olish maqsadga muvofiq.

Xalqaro tajribani O‘zbekiston sharoitiga tatbiq etish uchun, avvalo, autsorsing xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarni qo‘llab-quvvatlash, malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va zamonaviy raqamli infratuzilmani rivojlantirish zarur. AQSh va Buyuk Britaniya tajribasidan kelib chiqib, autsorsing shartnomalarida xizmat sifati, xarajatlar samaradorligi, ijrochining javobgarligi va axborot xavfsizligi talablarini aniq belgilash lozim. Xitoy tajribasi asosida sanoat va ishlab chiqarish korxonalariga xizmat ko‘rsatuvchi ixtisoslashgan tashkilotlar faoliyatini kengaytirish, Malayziya tajribasi asosida esa xalqaro kompaniyalarga xizmat ko‘rsatuvchi biznes markazlarini tashkil etish mumkin. Natijada korxonalar faoliyatining yordamchi funksiyalariga sarflanadigan xarajatlarni optimallashtirish, mehnat unumdorligini oshirish, xizmatlar eksportini kengaytirish va mamlakatning xalqaro autsorsing bozoridagi raqobatbardoshligini mustahkamlash uchun shart-sharoitlar yaratiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, autsorsing xizmatlari zamonaviy iqtisodiyotda korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish, operatsion xarajatlarni optimallashtirish, malakali mutaxassislar salohiyatidan foydalanish va asosiy faoliyat yo‘nalishlariga e’tiborni kuchaytirishning muhim vositasi hisoblanadi. Hindiston va Filippin tajribasi axborot texnologiyalari hamda biznes jarayonlarini boshqarish xizmatlarini rivojlantirish, AQSh va Buyuk Britaniya tajribasi murakkab professional va muhandislik xizmatlarini kengaytirish, Xitoy va Vetnam tajribasi texnologik innovatsiyalarni joriy etish, Malayziya tajribasi integratsiyalashgan biznes xizmatlarini tashkil etish, Polsha tajribasi esa mahalliy korxonalar o‘rtasida autsorsing munosabatlarini rivojlantirish muhimligini namoyon etadi. Mazkur tajribalar autsorsing xizmatlarining iqtisodiy samaradorligi mamlakatning raqamli infratuzilmasi, malakali mehnat resurslari, xizmatlar bozorining rivojlanganligi va xalqaro hamkorlik imkoniyatlari bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda autsorsing xizmatlarini takomillashtirish uchun xorijiy tajribalarni milliy iqtisodiyotning o‘ziga xos xususiyatlariga moslashtirish, zamonaviy raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, xorijiy tillarni va kasbiy ko‘nikmalarni egallagan mutaxassislar tayyorlash hamda ixtisoslashgan xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadga muvofiq. Shuningdek, autsorsing shartnomalarida xizmatlar sifati, xarajatlar samaradorligi, ijrochilarning javobgarligi va axborot xavfsizligi talablarini aniq belgilash, mahalliy korxonalar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish hamda xalqaro buyurtmachilar bilan aloqalarni kengaytirish zarur. Ushbu chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi xizmatlar eksportini rivojlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, korxonalar raqobatbardoshligini oshirish va O‘zbekistonning xalqaro autsorsing bozoridagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yuqoridagi tahlillar asosida mamlakatimizda autsorsing xizmatlarini takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Birinchidan, Hindiston va Vetnam tajribalaridan kelib chiqib, axborot texnologiyalari, dasturiy ta’minot ishlab chiqish, sun’iy intellekt va ma’lumotlarni tahlil qilish yo‘nalishlarida ixtisoslashgan autsorsing kompaniyalarini qo‘llab-quvvatlash, universitetlar va IT korxonalari hamkorligida xalqaro talablar asosida malakali mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirish;

Ikkinchidan, Filippin tajribasi asosida mijozlarga xizmat ko‘rsatish markazlari, call-markazlar va biznes jarayonlarini boshqarish xizmatlarini rivojlantirish, xorijiy tillarni biladigan kadrlarni tayyorlash hamda xalqaro buyurtmachilar bilan hamkorlikni kengaytirish orqali autsorsing xizmatlari eksportini oshirish;

Uchinchidan, AQSh va Buyuk Britaniya tajribalaridan foydalanib, autsorsing shartnomalarida xizmatlar sifati, xarajatlar samaradorligi, ijrochilarning javobgarligi va axborot xavfsizligi mezonlarini aniq belgilash, xizmatlar natijadorligini muntazam baholash tizimini joriy etish hamda korxonalarning yordamchi funksiyalarini ixtisoslashgan tashqi tashkilotlarga topshirishini rag‘batlantirish;

To‘rtinchidan, Malayziya va Polsha tajribalariga tayangan holda, moliya, buxgalteriya hisobi, inson resurslarini boshqarish, logistika va ma’muriy xizmatlar bo‘yicha mahalliy autsorsing tashkilotlari faoliyatini kengaytirish, kichik va o‘rta biznes subyektlarining ushbu xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish hamda zamonaviy raqamli platformalarni joriy etish orqali mahalliy xizmatlar bozorida hamkorlikni rivojlantirish;

Ushbu takliflarning amalga oshirilishi O‘zbekistonda autsorsing xizmatlarining sifati va iqtisodiy samaradorligini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, xizmatlar eksportini kengaytirish hamda milliy korxonalarning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

[1]. Outsourcing Statistics & Trends 2026, What the Data Actually Shows

https://ncsgx.com/accounting/outsourcing-statistics-trends/

[2]. Sandy Allen and Ashok Chandrashekar "Outsourcing services: the contract is just the beginning" Mar. 2000 Business Horizons(Vol. 43, Issue 2) Publisher: Elsevier Advanced Technology Publications https://go.gale.com/ps/anonymous?id=GALE%7CA61891228&sid=googleScholar&v=2.1&it=r&linkaccess=abs&issn=00076813&p=AONE&sw=w

[3]. Mari Sako Outsourcing and Offshoring: Implications for Productivity of Business Services Oxford Review of Economic Policy, 01 December 2006 Volume 22, Issue 4, Winter , Pages 499–512, https://doi.org/10.1093/oxrep/grj029

[4]. Runjuan Liu, Dorothee J Feils & Barry Scholnick Why are different services outsourced to different countries? Journal of International Business Studies Published: 27 January 2011 Volume 42, pages 558–571 (2011) https://link.springer.com/article/10.1057/jibs.2010.61

[5]. Judyta Kabus, Michał Dziadkiewicz, Ireneusz Miciuła and Marcin Mastalerz "Using Outsourcing Services in Manufacturing Companies" Resources 2022, 11, 34. https://www.mdpi.com/2079-9276/11/3/34

[6]. Shokir Shodmonovning "Autsorsing xizmatlari va uning nazariy asoslari" nomli maqolasida July 2024 Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil 2(7):167-172 https://www.researchgate.net/publication/383076115_autsorsing_xizmatlari_va_uning_nazariy_asoslari

[7]. Kuvandikov Shuxrat va Mirxonov Mirfoziljon "Xizmatlar sohasini rivojlantirishda autsorsing xizmatlarining o'rni" Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar 2(4):75-79 July 2025 file:///C:/Users/User/Downloads/xizmatlar_sohasini_rivojlantirishda_autsorsing_xiz.pdf

[8]. Nazar Sulaymonovg "Autsorsing xizmatlari raqamli platformalarini takomillashtirishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish usullari Journal of Research and Innovations" Vol. 4 No. 3 (2026) Published July 1, 2026 https://imfaktor.com/index.php/jorai/article/view/624

[9]. Alisher Shaynazarov "Xizmat ko'rsatkich sohasiga autsorsing xizmatini qo'llash afzalliklari va iqtisodiy samaradorligi" Ilg'or Iqtisodiyot va Pedagogik Texnologiyalar, 2(5), 572-577. Jild 2 № 5 (2025). https://sci-p.uz/index.php/aept/article/view/3150

[10]. Software Outsourcing Statistics 2026 (India) https://www.outsourcefromindia.com/blog/software-outsourcing-statistics-india

[11]. Top BPO Industry Statistics: 2026 Trends & Growth Analysis, BPO Industry in the Philippines: 2026 Forecast of Statistics, Trends, and Growth Insights https://www.magellan-solutions.com/blog/whats-the-number-analysis-of-the-latest-statistics-of-the-bpo-industry/

[12]. U.S. Outsourcing Services Market Size & Outlook, 2026-2033 https://www.grandviewresearch.com/horizon/outlook/outsourcing-services-market/united-states

[13]. Business Process Outsourcing Services in the US - Market Size (2021-2031) https://www.ibisworld.com/united-states/market-size/business-process-outsourcing-services/4794/

[14]. China Business Process Outsourcing Market (2025 - 2030) https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/china-business-processoutsourcing-market-report

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Ergasheva Nasiba Qarshi davlat texnika universiteti professori, i.f.d., DSc / Эргашева Насиба Каршинский государственный технический университет Профессор, доктор экономических наук (DSc) / Ergasheva Nasiba Karshi State Technical University Professor, Doctor of Economics (DSc)
E-mail: nasibaergasheva1988@gmail.com

Mundarija

Сув танқислиги шароитида озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашнинг иқтисодий механизмларини такомиллаштириш…….. 5
Зебо Сафоевна Шохужаева
Сув танқислиги шароитида фермер хўжаликларида сув тежовчи технологияларни жорий этиш: Иқтисодий омиллар, молиявий тўсиқлар ва рағбатлантириш механизмлари…….. 11
Толиб Тураев
Мева маҳсулотларини етиштириш, сақлаш ва сотиш тизимини ривожлантиришнинг иқтисодий механизмлари……. 16
Анваржон Хуршидович Худойқулов
Inson kapitalini boshqarishga asoslangan mehnat iqtisodiyoti tizimida kadrlarga bo'lgan ehtiyojni yaxshilash……... 23
G‘ayrat Zuvaytovich Ubaydullayev
Uy xo‘jaliklari daromadlarini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish… 30
Zulfizar Zafar qizi Safarova
Hududiy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning ustuvor yo’nalishlari……... 34
Umida Yaxshiboyevna Boynazarova
Regenerativ qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning nazariy-ilmiy asoslari va xorijiy tajribalar…… 38
Shuxrat Olimovich Amirqulov
Tijorat banklarini raqamli transformatsiya qilish strategiyasini takomillashtirish…….. 46
Islam Tashkazakovich Salamov
Tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarish strategiyalarini takomillashtirish…….. 52
Zina Aqilbekovna Baymuratova
Turizm korxonalarining innovatsion rivojlanish strategiyasini shakllantirish va biznes jarayonlarini takomillashtirish modeli……. 57
Zuleyha Olimjanovna Abdurahmanova
Tadbirkorlik subyektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish va mehnat unumdorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik…….. 62
Boburmirzo Ibrohimov
Kommunal xizmatlar sohasida kichik va xususiy korxonalarni o’rni va roli..... 66
Dadaxon Berdimurodovich Bozorov
Камбағаллик тушунчасининг назарий таҳлили……. 74
Эркин Хасанович Жумаев
Сурхондарё вилоятида экотуризмни ривожлантириш имкониятлари ва истиқболлари……... 78
Ўткир Дўснаевич Ражабов
O‘zbekistonda investitsiya va savdo ochiqligining iqtisodiy o‘sish bilan bog‘liqligi: 2010–2024 yillar ma’lumotlari asosida ekonometrik tahlil…… 82
Alisher Abdumuxtarovich Sotvoldiyev
Tijorat banklarida raqamli transformatsiya sharoitida kredit xizmatlarini modernizatsiya qilishning strategik yo‘nalishlari……. 89
Hamid Abdijabborovich Fayziyev
Budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.. 93
Asomiddin Xudoyberdi o‘g‘li Daminov
Qashqadaryo viloyatida meva-sabzavot ishlab chiqarish va qo‘shilgan qiymat zanjirining hozirgi holati tahlili……. 99
Gulnoza Tulkunovna Saidova
Budjet tashkilotlarida hisob siyosati elementlarini shakllantirish amaliyotining tahlili…….. 103
Djaxongir Xakimovich Xabilov
Budjet tashkilotlarida hisob siyosatini o‘zgartirish, xatolarni bartaraf etish va uning natijalarini moliyaviy hisobotda ochib berish tartibini takomillashtirish…….. 107
Djaxongir Xakimovich Xabilov
Raqamli platformalar sharoitida yengil sanoat kichik va o‘rta korxonalarida inson kapitalidan foydalanish samaradorligi……... 112
Ulug‘bek Inom o‘g‘li Zokirov
Barqaror iste’mol va ishlab chiqarish konsepsiyasi va O‘zbekistonning iqtisodiy o‘sishi…….. 116
Oydin Davronovna Xamrakulova
Mintaqada oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo‘llari……... 120
Muyassar Abdumalik qizi Hakimova
Mintaqada oziq-ovqat ta’minotining iqtisodiy barqarorligini va unga ta’sir etuvchi omillar…….. 125
Muyassar Abdumalik qizi Hakimova

Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari iqtisodiy samaradorligini oshirish asosida aholi daromadlarini ko‘paytirish yo‘nalishlari…… 131
Zulfizar Zafar qizi Safarova
Qashqadaryo viloyatida barqaror turizmni rivojlantirish: Tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarga tizimli yondashuv…… 136
Dilnoza Mexridin qizi Suyunova
Mintaqada yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishning iqtisodiy mohiyati, uni shakllantiruvchi omillar…….. 140
Karamat Gulomovich Arslonov
Mintaqada yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirishning ilg‘or xorijiy tajribasi…… 147
Karamat Gulomovich Arslonov
Samarali bandlikni ta’minlash — kambag‘allikni qisqartirishning asosiy omili sifatida..... 152
Abdumalik Oynazarovich Abruyev
Regenerativ qishloq xo‘jaligida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va fermer xo‘jaliklarining iqtisodiy barqarorligini baholash metodologiyasini takomillashtirish……... 158
Shuxrat Olimovich Amirqulov
Mahalla- servis tizimini rivojlantirishga asoslanib kambag‘allikni qisqartirish imkoniyatlari…… 167
Murod Irgashovich Saparov
Global innovatsion indeks asosida O‘zbekiston innovatsion rivojlanishini diagnostikasi……. 172
Dilafruz Xikmatullayevna Muxsimova
Autsorsing xizmatlarining samaradorligi va sifatini oshirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar..... 177
Nasiba Ergasheva
Qashqadaryo viloyatida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish asosida kambag‘allikni qisqartirish masalalari va tahlili……. 183
Anvar Boqiyevich Xushvaqov
Yoshlar bandligini ta’minlashda davlat siyosatining o‘rni va ahamiyati (Qashqadaryo viloyati misolida)……. 187
Oybek Norbo’tayevich Boboqulov
Qoraqalpog‘istonda turistik xizmatlar bozorini rivojlantirish asosida xizmat ko‘rsatishni rivojlantirish imkoniyatlari……. 192
Bahadir Genjemuratovich Tleumuratov
Xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish yo‘llari……. 197
Jamshid Obidovich Abdullayev
Investitsiya muhitining jozibadorligiga ta’sir etuvchi omillar…… 202
Ozodbek Shuhrat o‘g‘li Jumaqulov
O‘simlikchilik mahsulotlari yetishtirishning innovatsion rivojlanish darajasini baholash metodikasini takomillashtirish…… 207
Sayyora Nasimovna Xamrayeva
O‘zbekistonda inson kapitali sifatini oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy omillari…… 217
Mashxura Egamberdiyevna Ostanova, Aziza Laziz qizi Sayimova
Sanoat korxonalarida iqtisodiy o‘sishga ta’sir etuvchi omillar 223
Nargiza Mengnarovna Eshqobilova
Kichik biznesni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini baholash va takomillashtirishning ekonometrik modellari…… 227
Shahnoza Jurayevna Kabilova
Milliy indeks etfini yaratish orqali O‘zbekiston fond bozorida aholi ishtirokini kengaytirish: Xorijiy mamlakatlar tajribasi…….. 233
Alikulov Azamat Tuygunovich
Kichik biznesda integral xavf indeksi asosida erta ogohlantirish tizimi…….. 240
Otabek Dilshodbek o‘g‘li Muxammadsidiqov
Kichik biznesda inqiroz xavfini erta aniqlash tizimining iqtisodiy samaradorligi: Kutilayotgan yo‘qotishlar yondashuvi…….. 246
Otabek Dilshodbek o‘g‘li Muxammadsidiqov
Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish asosida Qashqadaryo viloyati aholisining turmush darajasini oshirish istiqbollari……. 251
Munisa Yulchiyevna Alimova, Gavhar Baxtiyarovna Rustamova
Mintaqaviy yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonlarini innovatsiyalar asosida rag‘batlantirish…….. 258
Gulshoda Otamurodovna Xo‘janova
Autsorsing xizmatlarini takomillashtirishda xorij tajribalarini o‘rganish..... 262
Nasiba Ergasheva

Contents

Improving the economic mechanisms for ensuring food security under conditions of water scarcity. 5
Zebo Shokhujayeva
Implementation of water-saving technologies in farms under conditions of water scarcity: Economic factors, financial barriers and incentive mechanisms…… 11
Tolib Turaev
Economic mechanisms for the development of the system of fruit production, storage and marketing…… 16
Anvarjon Khudoykulov
Improving personnel needs in the labor economics system based on human capital management… 23
Gairat Ubaydullaev
Improving organizational and economic mechanisms for increasing household incomes..... 30
Zulfizar Safarova
Priority directions for the sustainable development of the regional economy……. 34
Umida Boynazarova
Theoretical and scientific foundations for the development of regenerative agriculture and international experience…….. 38
Shukhrat Amirkulov
Improving the digital transformation strategy of commercial banks……... 46
Islam Salamov
Improving strategies for managing non-performing loans in commercial banks…… 52
Zina Baymuratova
Model formirovaniya innovatsionnoy strategii razvitiya turisticheskikh predpriyatiy i uluchsheniya biznes-protsessov…… 57
Zuleyha Abdurahmanova
The relationship between the use of digital technologies in business entities and labor productivity. 62
Boburmirzo Ibrohimov
The role and place of small and private enterprises in the field of municipal services..... 66
Dadakhon Bozorov
Theoretical analysis of the concept of poverty…… 74
Erkin Jumayev
Opportunities and prospects for developing ecotourism in Surkhandarya region…… 78
Utkir Rajabov
The relationship between investment and trade openness and economic growth in Uzbekistan: An econometric analysis based on data from 2010–2024……. 82
Alisher Sotvoldiyev
Strategic directions for modernizing credit services in commercial banks under digital transformation……. 89
Khamid Fayziyev
Organizational and economic mechanisms for improving the efficiency of budget funds utilization. 93
Asomiddin Daminov
Analysis of the current state of fruit and vegetable production and the value chain in Kashkadarya region…….. 99
Gulnoza Saidova
Analysis of the practice of forming accounting policy elements in budgetary organizations……. 103
Djakhongir Khabilov
Improving the procedures for changing accounting policies, correcting errors, and disclosing their effects in the financial statements of budgetary organizations…… 107
Djakhongir Khabilov
Efficiency of human capital utilization in light-industry small and medium-sized enterprises in the context of digital platforms……. 112
Ulugbek Zokirov
The concept of sustainable consumption and production and economic growth in Uzbekistan…… 116
Oydin Khamrakulova
Ways to improve the efficiency of food production in the region…… 120
Muyassar Khakimova
Economic sustainability of regional food supply and factors influencing it…… 125
Muyassar Khakimova
Directions for increasing household incomes by improving the economic efficiency of dehkan and household farms…….. 131

Zulfizar Zafar qizi Safarova
Sustainable tourism development in Kashqadarya region: A systemic approach to organizational-economic mechanisms…… 136
Dilnoza Suyunova
Economic essence of high value-added production in the region and the factors shaping it……... 140
Karamat Arslonov
Advanced international experience in developing high value-added production at the regional level. 147
Karamat Arslonov
Ensuring effective employment as a key factor in poverty reduction……. 152
Abdumalik Abruyev
Improving the efficiency of resource utilization in regenerative agriculture and enhancing the methodology for assessing the economic stability of farms…… 158
Shukhrat Amirkulov
Opportunities for poverty reduction based on the development of the mahalla-service system……. 167
Murod Saparov
Diagnosing Uzbekistan's innovation development based on the global innovation index…… 172
Dilafruz Mukhsimova
Organizational-economic mechanisms for enhancing the efficiency and quality of outsourcing services……... 177
Nasiba Ergasheva
Issues and analysis regarding poverty reduction through the development of private entrepreneurship in the Kashqadaryo region……... 183
Anvar Khushvakov
The role and significance of state policy in ensuring youth employment (the case of the Kashkadarya region)……... 187
Oybek Boboqulov
Opportunities for developing the service sector based on the growth of the tourism services market in Karakalpakstan……... 192
Bakhadir Tleumuratov
Ways to enhance the efficiency of innovative activity in the service sector…….. 197
Jamshid Abdullaev
Factors influencing the attractiveness of the investment climate……. 202
Ozodbek Jumaqulov
Improving the methodology for assessing the level of innovative development of crop production. 207
Sayyora Khamraeva
Socio-economic factors of improving the quality of human capital in Uzbekistan…… 217
Mashxura Ostanova, Aziza Sayimova
Factors affecting economic growth in industrial enterprises…….. 223
Nargiza Eshqobilova
Econometric modeling of the evaluation and enhancement of the organizational-economic mechanism in small business management……. 227
Shakhnoza Kabilova
Creating a national index etf to expand household participation in uzbekistan's stock market: International experience…….. 233
Azamat Alikulov
An early warning system based on an integrated risk index in small businesses……. 240
Otabek Mukhammadsidiqov
Evaluating the economic efficiency of an early crisis detection system in small businesses: An expected loss approach…… 246
Otabek Mukhammadsidiqov
Prospects for improving the standard of living of the population in the Kashqadaryo region through the development of social infrastructure……. 251
Munisa Alimova, Gavkhar Rustamova
The importance of innovation in promoting the transition to a regional green economy…… 258
Gulshoda Khojanova
Studying foreign experiences in improving outsourcing services..... 262
Nasiba Ergasheva

Содержание

Совершенствование экономических механизмов обеспечения продовольственной безопасности в условиях дефицита водных ресурсов…… 5
Зебо Сафоевна Шохужаева
Внедрение водосберегающих технологий в фермерских хозяйствах в условиях дефицита водных ресурсов: Экономические факторы, финансовые барьеры и механизмы стимулирования…… 11
Толиб Тураев
Экономические механизмы развития системы выращивания, хранения и реализации плодовой продукции……. 16
Анваржон Хуршидович Худойкулов
Совершенствование кадровые потребности в системе экономики труда на основе управления человеческим капиталом……. 23
Гайрат Зувайтович Убайдуллаев
Совершенствование организационно-экономических механизмов повышения доходов домохозяйств..... 30
Зулфизар Зафар кизи Сафарова
Приоритетные направления устойчивого развития региональной экономики……... 34
Умида Яхшибоевна Бойназарова
Теоретико-научные основы развития регенеративного сельского хозяйства и зарубежный опыт…… 38
Шухрат Олимович Амиркулов
Совершенствование стратегии цифровой трансформации коммерческих банков……. 46
Ислам Ташказакович Саламов
Совершенствование стратегий управления проблемными кредитами в коммерческих банках 52
Зина Акилбековна Баймуратова
Модель формирования инновационной стратегии развития туристических предприятий и улучшения бизнес-процессов…….. 57
Зулейха Олимжановна Абдурахманова
Взаимосвязь между использованием цифровых технологий в бизнес-структурах и производительностью труда…… 62
Бобурмирзо Иброхимов
Роль и место малых и частных предприятий в сфере муниципальных услуг..... 66
Дадахон Бердимуродович Бозоров
Теоретический анализ концепции бедности……... 74
Эркин Хасанович Джумаев
Возможности и перспективы развития экотуризма в Сурхандарьинской области…… 78
Уткир Дуснаевич Раджабов
Взаимосвязь между инвестициями, открытостью торговли и экономическим ростом в Узбекистане: Эконометрический анализ на основе данных за 2010–2024 годы……. 82
Алишер Абдумухтарович Сотволдиев
Стратегические направления модернизации кредитных услуг в коммерческих банках в условиях цифровой трансформации……... 89
Хамид Абдижабборович Файзийев
Организационно-экономические механизмы повышения эффективности использования бюджетных средств…….. 93
Асомиддин Худойберди угли Даминов
Анализ текущего состояния производства плодоовощной продукции и цепочки добавленной стоимости в Кашкадарьинской области……... 99
Гульноза Тулкуновна Саидова
Анализ практики формирования элементов учетной политики в бюджетных организациях.. 103
Джахонгир Хакимович Хабилов
Совершенствование порядка изменения учетной политики, исправления ошибок и раскрытия их последствий в финансовой отчетности бюджетных организаций…… 107
Джахонгир Хакимович Хабилов
Эффективность использования человеческого капитала в малых и средних предприятиях лёгкой промышленности в условиях цифровых платформ……... 112
Улугбек Ином угли Зокиров
Концепция упп и экономический рост Узбекистана…….. 116
Ойдин Давроновна Хамракулова

Пути повышения эффективности производства продовольственной продукции в регионе…. 120
Муяссар Абдумаликовна Хакимова
Экономическая устойчивость продовольственного обеспечения региона и факторы, влияющие на неё…….... 125
Муяссар Абдумаликовна Хакимова
Направления увеличения доходов населения на основе повышения экономической эффективности дехканских и приусадебных хозяйств…….. 131
Зулфизар Зафар кизи Сафарова
Устойчивое развитие туризма в Кашкадарьинской области: Системный подход к организационно-экономическим механизмам……... 136
Дилноза Мехридин қизи Суюнова
Экономическая сущность производства продукции с высокой добавленной стоимостью в регионе и факторы, влияющие на его формирование…… 140
Карамат Гуломович Арслонов
Передовой зарубежный опыт развития производства продукции с высокой добавленной стоимостью в регионе……... 147
Карамат Гуломович Арслонов
Обеспечение эффективной занятости как основной фактор сокращения бедности…….. 152
Абдумалик Ойназарович Абруев
Повышение эффективности использования ресурсов в регенеративном сельском хозяйстве и совершенствование методологии оценки экономической устойчивости сельскохозяйственных предприятий……... 158
Шухрат Олимович Амиркулов
Возможности сокращения бедности на основе развития системы «махалля-сервис»…… 167
Мурод Иргашович Сапаров
Диагностика инновационного развития Узбекистана на основе глобального инновационного индекса…….. 172
Дилафруз Хикматуллаевна Мухсимова
Организационно-экономические механизмы повышения эффективности и качества аутсорсинговых услуг…….. 177
Насиба Эргашева
Вопросы и анализ, касающиеся сокращения бедности посредством развития частного предпринимательства в Кашкадарьинской области…….. 183
Анвар Бокиевич Хушваков
Роль и значение государственной политики в обеспечении занятости молодежи (на примере Кашкадарьинской области)…….. 187
Ойбек Норботаевич Бобокулов
Возможности развития сферы услуг на основе роста рынка туристических услуг в Каракалпакстане……... 192
Бахадир Генжемуратович Тлеумуратов
Пути повышения эффективности инновационной деятельности в сфере услуг……. 197
Жамшид Обидович Абдуллаев
Факторы, влияющие на привлекательность инвестиционного климата…….. 202
Озодбек Шухрат угли Джумакулов
Совершенствование методики оценки уровня инновационного развития производства продукции растениеводства……. 207
Сайёра Насимовна Хамраева
Социально-экономические факторы повышения качества человеческого капитала в Узбекистане……... 217
Машхура Эгамбердиевна Останова, Азиза Лазиз кизи Сайимова
Факторы, влияющие на экономический рост промышленных предприятий…….. 223
Наргиза Менгнаровна Эшкобилова
Эконометрическое моделирование оценки и совершенствования организационно-экономического механизма управления малым предпринимательством…… 227
Шахноза Жураевна Кабилова
Создание национального индексного etf как инструмент расширения участия населения на фондовом рынке Узбекистана: Зарубежный опыт…… 233
Аликулов Азамат Туйгунович
Система раннего предупреждения на основе интегрального индекса риска в малом бизнесе.. 240
Отабек Дилшодбек угли Мухаммадсидиков
Оценка экономической эффективности системы раннего выявления риска кризиса в малом бизнесе: Подход на основе ожидаемых потерь…….. 246

Отабек Дилшодбек угли Мухаммадсидиков
Перспективы повышения уровня жизни населения Кашкадарьинской области за счет развития социальной инфраструктуры…….... 251
Муниса Юлчиевна Алимова, Гавхар Бахтияровна Рустамова
Содействие переходу к региональной «Зеленой» экономике, основанной на инновациях…… 258
Гульшода Отамуродовна Хужанова
Изучение зарубежного опыта совершенствования услуг аутсорсинга..... 262
Насиба Эргашева

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

t.me/kstu_uz

Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225

www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz